

N.SHERMUXAMEDOVA

# INSON FALSAFASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.A. Shermuxamedova

# INSON FALSAFASI

DARSLIK

Falsafa (sohalar buyicha) magistratura mutaxassisligi uchun

Toshkent  
"Innovatsiya-Ziyo"  
2021

UDK: 373.6  
BBK: 74.200.526  
Sh 95

N.A. Shermuxamedova  
Inson falsafasi /darslik /. – Toshkent.: «Innovatsiya-Ziyo»,  
2021, 352 bet.

Darslik Falsafa (sohalar buyicha) magistratura mutaxassisligi fanlari turkumiga kiradi, uning mazmuni DTS va namunaviy dasturiga mos. Darslikda insonning bioijtimoiy mohiyati bilan bir qatorda, uning kosmik, psixologik mohiyati, dunyuqarashining o'zgaruvchanligi asoslanadi. Zotan inson haqidagi mistik ta'limotlar klassik falsafiy nazariyalar, fizika, biologiya va psixologiya sohasidagi eng yangi kashfiyotlar bilan bog'liq, ammo bu insonning butunlay yangi obrazi yaratilishiga olib kelgani yo'q.

Darslikning ikkinchi qismida dindorlikning ijtimoiy sabablari, ayrim ijtimoiy va tabiiy fanlarning keng ma'lumotlari yordamida kompleks tahlil qilinadi.

Mas'ul muharrir: f.f.d., professor J. Yaxshilikov

Taqrizchilar: f.f.d., professor T. Gabitov  
f.f.d., professor Q. Shodmonov

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6792-8-3

© N. Shermuxamedova., 2021.  
© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining  
30 yilligiga bag'ishlanadi

## KIRISH

XX va XXI asrlar chegarasida butun dunyoda yuz bergan olamshumul ijtimoiy o'zgarishlar Uyg'onish davrida vujudga kelgan sivilizatsiya tipidan, insonning kundalik hayotidan eng yangi texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari keng o'rin egallashi bilan bog'liq bo'lgan yangicha tipdagi sivilizatsiyaga o'tish bilan tavsiflanadi (bu yerda muhimi shundaki, axborot postindustrial jamiyat kodi bo'lib xizmat qiladi). Ilgarigi jamiyatlar va ularning a'zolarini bir-biri bilan bog'lagan qadriyatlar tizimlari ko'z o'ngimizda vayron bo'lmoqda, eski, aksariyat hollarda arxaiik va dekadentcha tUSDagi sotsiumlarning ba'zi bir unsurlarini o'z ichiga olgan yangi jamiyat vujudga kelmoqda. Rim klubining eng so'nggi ma'ruzalaridan birini tayyorlagan A. King va V. Shnayder bunday o'zgarishlarni «birinchi global inqilob» sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, mazkur inqilob «geostrategik bo'hronlar, birikuvi noma'lumlik sari eltuvchi ijtimoiy, texnologik, madaniy va boshqa xil omillar ta'sirida shakllanadi»<sup>1</sup>. Bularning barchasi inson muammosiga yanada dolzarbroq tus beradi, zero, u jamiyatning tizim hosil qiluvchi omili hisoblanadi. Aynan global inqilob sharoitida, sivilizatsiya hayotida tub burulish yuz berayotgan bosqichda inson fenomenining mazmun va mohiyati, uning asrlar o'sha diniy, falsafiy, badiiy va ilmiy izlanishlar diqqat markazidan chiqmay kelayotgan murakkab tabiati bo'rtib namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotida tub burulish yuz bermoqda va buni davrimizning ijtimoiy bo'hronlarigina emas, balki ekologik halokat, resurslarning kamayishi, giyohvandlik balosi va hokazolarda ifodalanayotgan global inqiroz ham tasdiqlaydi degan fikr ijtimoiy ongdan yanada mustahkam o'rin olmoqda. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning yangicha tipini, yangicha ijtimoiy qurilish shaklini, ijtimoiy dunyoda insonning yangicha maqomini topish yo'lidagi izlanishlar bilan tavsiflanayotgan global inqilob kishilik taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi. O'z davrida K. Yaspers «Tarixning ma'nosi va vazifasi» asarida tarix va insoniyatning yagonaligini isbotlash uchun «dunyoviy vaqt o'qi» konsepsiyasidan samarali foydalangan edi. Ushbu konsepsiya Xitoy, Hindiston va g'arbning jahon tarixida miloddan avvalgi 800 va 200-yillar oralig'idagi alohida bosqichni ifodalaydi. «Bu

<sup>1</sup> King A., Шнайдер В. Первая глобальная революция // Радикал 1991. № 2. – С. 49-50.



davrda juda ko'p g'ayrioddiy voqealar va jarayonlar yuz beradi", -deb yozadi faylasuf. Ayni shu davrda Xitoyda Konfutsiy va Laotszi yashaydi, Xitoy falsafasining yangi yo'nalishlari, Mo-szi, Chjuan-szi, Le-szi va boshqalarning g'oyalari paydo bo'ladi. Hindistonda Upanishshadlar vujudga keladi, Budda yashaydi, falsafada voqelikni falsafiy nuqtai nazardan anglab yetish imkoniyatlarining barchasi (skeptisizmdan boshlab materializm, sofistika va nigilizmgacha) o'rganiladi, Eron va Markaziy Osiyoda Zardusht yovuzlik bilan kurash olib borayotgan dunyo haqidagi ta'limotni yaratadi, Falastinda payg'ambarlar - Iliya, Isayya leremiya va Ikkinchi Isayya faoliyat ko'rsatadi; Yunonistonda - bu Gomer, faylasuflar Parmenid, Geraklit, Platon, tragiklar, Fukidid va Arximed davri. Ushbu ismlar bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar va asarlarning barchasi Xitoy, Hindiston va g'arbda oz sonli yuz yilliklar mobaynida deyarli bir vaqtda paydo bo'lgan<sup>2</sup>. Bir-biridan geografik jihatdan farq qiluvchi bu uch madaniy dunyoning umumiy jihatlari quyidagilardir:

birinchidan, inson borliqni, o'z-o'zini va o'z chegaralarini anglab yetishi natijasida vujudga kelgan yangi dunyo umumiy hisoblanadi. Bunday anglashning ikkinchi qutbi inson maqsadlar va muammolar qo'yishi, erkinlikka intilishi, dunyoning mutlaqligi va transsendentalligini tushunib yetishidir. Ekzistensiya erkinligi anglab yetiladi: egzistensiya va transsendensiya o'rtasida farq paydo bo'ladi, individual ong shakllanadi va rivojlanadi;

ikkinchidan, yuqorida zikr etilgan madaniy dunyolarni tarixda ilk bor vujudga kelgan o'zlikni anglash, tafakkurning o'zi haqida mulohaza yuritish birlashtiradi.

uchinchidan, universal aql va din davri keladi. Bu davrda paydo bo'lgan tafakkurning universal, fundamental kategoriyalari va jahon dinlarining asoslari hanuzgacha amalda qo'llaniladi.

to'rtinchidan, refleksiya, skeptitsizm, an'anaga tanqidiy munosabat va uning o'zgarishlari davri keldi;

beshinchidan, «dunyoviy vaqt o'qi» davri asosiy tamoyillarning aniq-ravshanligi va osoyishtalik ruhi bilan sug'orilgan mifologik bosqichning yakuni bilan tavsiflanadi. Oqilona tafakkur mifni o'rganadi, uni oqilonalashtiradi, uning sabablarini aniqlaydi, eski miflarga majoziy tus berish yo'li bilan yangi miflar yaratadi. Ma'naviyat sohasida politeizmga qarshi isyon, monoteistik dinga intilish yuz beradi. Inson o'z tajribasi imkoniyatlarining cheksizligini anglab yetadi, biroq u qo'ygan muammolar o'zining uzil-kesil yechimini topmaydi. K.Yaspers ushbu holga universal, madaniyatlararo tus beradi.

<sup>2</sup> Ясперс К. Смысл и назначение истории. - Москва: 1991. - 32-33-с.

oltinchidan, «dunyoviy vaqt o'qi» davrida ma'naviy erkinlik, narsalar va hodisalarga masofadan turib yondashish qobiliyati, odamlar, xudo va transsendent dunyoga qarshi isyonkorlik ruhi bilan ajralib turuvchi atoqli faylasuflar paydo bo'ladi.

Qarshimizda o'ta teran abstraksiyalarga qodir bo'lgan, butun dunyoda ozodlik va baxt-saodatni barqaror etishga intilayotgan, ularga g'oya sari yuksalish, ataraksiya, meditatsiya, nirvana, Dao yoki Xudo yordamida erishishga harakat qilayotgan shaxsning yangicha tipi namoyon bo'ladi. Insonda yolg'izlik hissi, dunyodan, jamiyatdan yuz o'girish qobiliyati paydo bo'ladi. Buyuk zotlar (autentik inson) ta'sirida xalq ommasi o'zgaradi va pirovard natijada inson ulkan sakrashni amalga oshiradi. «Dunyoviy vaqt o'qi» konsepsiyasi asosida K. Yaspers ushbu davrda sinxron tarzda vujudga kelgan qadriyatlar fan tarixining ham, insoniyat tarixining ham yagonaligini belgilovchi fundamental omil hisoblanishini, ular hosil qilgan «ideal» o'q atrofida insoniyatning real tarixi hanuzgacha aylanayotganini ko'rsatib beradi. Hozir dunyo miqyosida shunday vaziyat yuzaga keldi - eski qadriyatlar tizimlari vayron bo'lmoqda, dunyo (makon va zamon, sababiy bog'lanishlar va sh.k.), inson va jamiyatning o'zaro nisbati, yangi dunyoviy tartib haqida yangicha tasavvurlar shakllanmoqda, inson faoliyatining turli sohalarida olg'a siljishlar yuz bermoqda. Yangi texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida insoniyat o'z rivojlanishida ulkan sakrashni amalga oshirmoqda. Yangi «dunyoviy vaqt o'qi» davri O'zbekiston uchun ham ulkan ahamiyatga ega, zero, bugungi kunda yurtimizning rivojlanishi uchun zamin yaratilmoqda. O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi konteksti bilan uzviy bo'lgani bois, butun dunyoda yuz berayotgan jarayonlar unga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jahon sivilizatsiyasining o'zi esa inson shaxsiyatining yangicha tipi shakllanish jarayonlariga ko'p jihatdan bog'liq, zero, u kishilik jamiyatining o'zagi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yerda o'zini qurshagan muhitda mo'ljal olish va sivilizatsiyaning rivojlanish yo'llarini prognoz qilishga qodir bo'lgan inson obrazi ulkan rol o'ynaydi. Inson tabiatini kosmik, biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy integral yaxlitlik sifatida tushunish inson egzistensiyasining voqelik bilan ozmi-ko'pmi muvofiq keluvchi obrazini yaratish va XXI asr boshida yuz berayotgan jarayonlarni tushuntirish imkonini beradi.

Inson modellari majmuini o'rganish asosida inson egzistensiyasining inson fenomeni xaos va tartibning bir-biriga o'tishidir, inson shaxsi o'z mohiyatiga ko'ra monada hisoblanadi, ya'ni inson - bu Koinot gologrammasidir, degan tasavvur bilan bog'liq bo'lgan umumiy paradigmasi taklif qilinadi. Mazkur yondashuv (golografik tuzilmalar

sifatidagi) Inson va Koinotni sinergitik borliqning yagona modelida birlashtirish imkonini beradi. Bundan insonning korpuskulyar-to'liqlinli tabiati haqidagi tasavvur o'z-o'zidan kelib chiqadi. Ayni paytda, ushbu yondashuv inson miyasi faoliyatining ehtimol tutilgan mexanizmini o'ziga xos tarzda tushuntirish, ya'ni asosiy fikrlash jarayonlari miyada emas, balki undan tashqarida, miyani qurshagan faol avtomat-hujayra muhitida sodir bo'ladi, deb tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Golografik modelda Koinot empirik jihatdan insoniyatda, har bir ayrim insonda ozmi-ko'pmi to'liq gavdalanuvchi Kosmik Inson (universal inson) sifatida namoyon bo'ladi. Ayni shu sababli har bir inson potensial, virtual darajada butun dunyosi o'zida mujassamlashtiradi. Insonni monada sifatida tasavvur qilish yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni tushinishda yaxshi samara beradi. Aynan inson sotsium mikrokosmosi sifatida jamiyat rivojlanish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqadi, zero, jamiyat insonning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishi yoki bunga monelik qilishiga qarab, yo faol muvozanat va harakat holatida bo'ladi, yo inqirozga yuz tutadi va o'z-o'zidan zavol topadi. Zotan inson umumiylik (ijtimoiylik) omili emas, balki monada bo'lgan sharoitda individlarning o'zaro aloqasi rezonans tamoyiliga muvofiq yuz beradi. Bu holda ayni shunday yondashuv ekologik, iqtisodiy, axdoqiy, mafkuraviy va sivilizatsion xususiyatga ega bo'lgan muammolarning butun bir majmuini yechish imkoniyatini beradi. XXI asr boshida inson fenomeni eng avvalo insonparvar shaxs, insonparvar mafkura va insonparvar jamiyat mezonlariga muvofiq o'rganiladi va yoritiladi.

Bizning nazarimizda, Inson va Koinot o'zaro nisbatining golografik modeli insonga boshqa mavjudotlar ustidan ulkan hokimiyatni bergan individning evrilishlar fenomeni, individ va ijtimoiy guruhlar xulq-atvorida qo'rquvning ahamiyati, «inson - o'simlik» kvant aloqasi, ya'ni axborot molekularining ichki muhitida yuz berayotgan o'ta teran kvant jarayonlari ruhiy hodisalarni faol kodlash imkonini berishi kabi hodisalarni yangicha talqin qilish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur model dolzarb muammo - individualizm va kollektivizmning o'zaro nisbati muammosini yechish, binobarin, sotsium va madaniyatning inqirozidan chiqish yo'lini topish imkonini beradi.

Inson ekszistensiyasining murakkab dunyosi insonning faoliyat va ijod subyekti sifatidagi virtual borlig'i bilan uzviy bog'liq bo'lib, u inson tabiati haqidagi yangicha tasavvurni beruvchi va inson ruhiyatining kosmik asoslarini namoyon etuvchi transpersonal psixologiya sari yo'l ochadi. Aynan subyektning virtual borlig'i postindustrial sivilizatsiya sari harakat

yo'lida virtual texnologiyalarning inson hayot faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish imkonini beradi. Ushbu darslik konteksti bilan inson o'zligining politsentrik modeli uyg'un bo'lib, u ichki dialogga, turli xil nuqtai nazarlarga ega bo'lgan subyektni tushunishga imkoniyat yaratadi. U voqelikni amalda har tomonlama qamrab olishga harakat qiluvchi metodologik plyuralizmning psixologik asosini tashkil qiladi. Natijada ko'p sonli axborotga ega bo'lgan, his-tuyg'ularining boyligi, moslashuvchan fikrlash qobiliyati, empatiyaga moyilligi bilan ajralib turadigan, ya'ni ta'bir joiz bo'lsa, universallik va insoniylikning ortiqcha «geni»ga ega bo'lgan shaxs paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish jarayonlari butun dunyoda kuzatilmoqda, ularning ijobiy natijalari davlat va din munosabatlari sohasida ham namoyon bo'layotir. Bu yerda yangicha siyosiy tafakkur va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan ochiqlik va oshkoralik, diniy aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga, o'zgacha fikrlovchilarga, shu jumladan boshqa din vakillariga nisbatan toqatsizlikka chek qo'yish ulkan rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan hozirgi zamon diniy fanatizmga ijtimoiy-siyosiy baho berish muammosi yuzaga keladi. Ayni shu muammoning keskinlashuvi ayrim hollarda bizning mamlakatimizda ham, chet elda ham xavfli vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'layotir. XXI asr boshida diniy fanatizm va shaxsiga kuch ishlatish yo'li bilan tazyiq o'tkazish hollari avvalgidek namoyon bo'lmoqda, ularning xavfli darajasi beqarorlik davrlarida, inqirozli vaziyatlarda ayniqsa kuchaymoqda.

Butun dunyoda dinga munosabatning umumiy manzarasiga dinning kelajagi nuqtai nazaridan yondashish, bizningcha, o'rinni bo'ladi. Bugungi kunda bu muammo sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa, dinshunoslik va teologiyaga oid adabiyotlarda tadqiqotlar va mulohazalar predmetiga aylanmoqda. Din ustqurma hodisa sifatida jamiyat hayotida muayyan ijobiy vazifalarni bajarishi teran anglab yetilmoqda. Masalan, diniy xizmatchilar ijtimoiy hayotning ichkilikbozlik va giyohvandlik, jinoyatchilik va axdoqsizlik kabi illatlariga qarshi kurash olib boradilar, jamiyatni yangilash jarayonlarida ishtirok etadilar. Turli konfessiyalar namoyandalarning yordami va madadidan yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda foydalanish yaxshi samara berishi muqarrardir, zero, jahon madaniyati rivojlanishining ming yillik an'analarini o'ziga singdirgan turli dinlarning aqidalarida umuminsoniy axdoq qoidalari qayd etilgan.

O'z-o'zidan ravshanki, dindan siyosiy amaliyotda aksilinsoniy maqsadlarda foydalanilishi ham mumkin. Aynan shunday maqsadlarga erishish uchun millatchilar, natsional-byurokratlar, separatistlar,



ekstremistlar va diniy aqidaparastlar dindan va diniy fanatizmdan foydalanadilar. Ayni paytda diniy fanatizm, ekstremizm va diniy aqidaparastlik kabi chirkin hodisalar butun dunyoda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, madaniy inqiroz va siyosiy bo'hronlardan ham «bahra» oladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda turli «yangi» dinlar va mazhablar soni sezilarli darajada ko'paydi. Hozirgi ilmiy-texnik sivilizatsiyaning ma'naviy hayotida qadimgi sharq mistitsizmi g'oyalarning ta'siri ancha kuchaydi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlarining diniy urf-odatlariga qiziqish kuchaymoqda. Noyevropacha madaniyatlarining diniy unsurlari Yevropa madaniyatiga faol kirib kelmoqda<sup>3</sup>. Bugungi kunda ko'z o'ngimizda yuz berayotgan madaniyatlar muloqoti, aniqroq aytganda Sharq va G'arb madaniyatlarini sintezi nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlariga ham olib kelayotir. Masalan, ayrim ezoterik, diniy-mistik harakatlar va tashkilotlarga xos bo'lgan diniy amaliyot shakllari va uslublari o'z muxlislarida diniy fanatizmning muayyan unsurlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Ular yalpi vayronkorlik va nigilistik xususiyatga ega bo'lgan mo'ljallar bilan tavsiflanadi. Buni ayrim g'arb mamlakatlarida mazkur «yangi» dinlarning sobiq muxlislarini asosan tibbiy vositalar yordamida normal hayotga qaytarish bilan shug'ullanuvchi maxsus agentliklar paydo bo'lgani ham tasdiqlaydi<sup>4</sup>.

Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan dinning siyosiylashuvi jarayoni ham diniy fanatizm bilan bog'liq muammolarning butun bir majmui (u ijtimoiy, tarixiy, etnik, falsafiy, psixologik, axloqiy va boshqa muammolarni o'z ichiga oladi) dolzarblashuviga sabab bo'layotir. Ziddiyatli sharoitlarda rivojlanayotgan dunyoda odamlarni jipslashtiruvchi, insonning qadr-qimmatini yuksaltiruvchi mardlik, dovyuraklik, fidokorlik, nekbinlik, do'stlik, mehr-muruvvatlilik kabi yuksak axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda, kishilar o'rtasiga nifoq soluvchi, insonning qadr-qimmatini kamsituvchi shafqatsizlik, bag'ritoshlik, riyokorlik, sotqinlik, johillik, aqidaparastlik ham mavjud. Bularning barchasi jamiyatdagi munosabatlarda keskinlik paydo bo'lishiga, inson o'z qobig'iga o'rinishiga, ijtimoiy tartibning beqarorlashuviga olib keladi. Bunga diniy fanatizm ham o'z hissasini qo'shadi.

Shunday qilib, darslikning ikkinchi qismida diniy fanatizm fenomeni madaniyat tarixi, din va hurfikrlilik tarixiga oid keng ma'lumotlardan, ayrim gumanitar va ijtimoiy fanlarning bilimlaridan foydalangan holda

<sup>3</sup> Qarang: Качева А.А. Индуистские мистические организации и диалог культур. - М., 1989; New Religious Movements and Rapid Social Change. - P., 1986.

<sup>4</sup> Qarang: Качева А.А. Индуистские мистические организации и диалог культур. - М., 1989. - 42-с.

kompleks tahlil qilinadi. Diniy fanatizm ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik va biopsixologik asoslarga ega ekanligi, XXI asr boshida u hozirgi dunyoning ham g'arbda, ham Sharqda kuzatilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ziddiyatlar ta'sirida vujudga kelgan bir qator muammolarini ifodalashi ko'rsatib beriladi. Diniy fanatizm mo'ljallarini shakllantirish maqsadida inson ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish usullari yoritiladi, bunday ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hozirgi zamon fani natijalari nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Diniy fanatizmning tarixiy metamorfozalariga tavsif beriladi va insonda bag'rikenglik, odamiylik prinsiplarini hamda jahon madaniyati durdonalarini o'zlashtirish jarayonida yuksak madaniyatni shakllantirish asosida mazkur chirkin hodisaga chek qo'yish yo'llari taklif qilinadi.

Darslik tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlarga, madaniyat, mifologiya, din, san'at va falsafa tarixining inson tabiati va Koinot sirlariga daxldor bo'lgan faktlariga asoslanadi. U mutaxassislar, aspirantlar, talabalarga va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

## BIRINCHI BOB. XXI ASRDA INSON FENOMENI

### 1-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING ONTOLOGIK OMILLARI

**Inson falsafiy muammo sifatida.** Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokozmos yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog'ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero Forobiy aytganidek – Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi<sup>5</sup>. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtidan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan. Bu fikr qadimgi mutafakkirlarga yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an'anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfiyadagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo'lgan. Uchinchi ming yillikda ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan yechishga harakat qiladigan o'ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to'g'risida so'z yuritiladi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o'rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O'zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o'zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

<sup>5</sup> Al-Forobiy. *Filosofiya va politika*. – Moskva: 1989. – S.529.

Qadimgi Sharq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik kontsepsiyalardan iborat bo'lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog'liq deb qaraladi. «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim ma'nosi hisoblanadi; bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi lozim. Shu ma'noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479-yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirsam va kamol topsam, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»<sup>6</sup>.

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni antropotsentrizm xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb e'lon qilinadi. Nirvana(so'nish) jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yo'qoladi va ichki uyg'unlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuyg'usi paydo bo'ladi.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy ta'limoti – jaynizm nuqtai nazaridan inson o'zining ma'naviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va og'ir yo'l – jonning erkinlashuvi yo'lini bosib o'tishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan al-Forobiy fikricha «Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval-boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil emas»<sup>7</sup>. Aqlni hayotga tadbiiq etish uchun, unga tashqi kuch ta'sir etishi kerak, bu esa faol aqlidir. Faol aql – mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga

<sup>6</sup> Конфуций. *Жизнь и учение*. – Москва: 1995. – С.139.

<sup>7</sup> Al-Forobiy. *Fozil shaxr axlasia*. – Tashkent: Sharq, 1999. – B. 69.



turki beradi. Forobiy ta'бири bilan "moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirlandek bo'ladi"<sup>8</sup>. Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhi da paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqli mavjudod. Yusuf Xos Xojib fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti yetgach ketadi. Inson umrining qimmatini necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band bo'lgan Sharq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan G'arb falsafasidagidan o'zgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda shunday deb yozgan edi: «Inson tabiatni o'ziga bo'ysundirish uchun tug'iladi va bu o'rinlidir, ammo G'arb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat o'zining barcha tog'lari, okeanlari, daryolari, o'zining cheksiz kuchlari, cheksiz rang-barangligi bilan juda ulug'vor, lekin undan ham ulug'vorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, yer va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig'maydigan dunyodir. G'arb odami tashqi dunyoda «o'ziniki» bo'lganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi shunday «o'ziniki»dir. Shu bois, G'arb ma'naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab yetmoqchi bo'lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir ma'lum ma'naviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi»<sup>9</sup>.

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o'z holiga qo'yilsa va insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, unda Xudo ne'matini qo'lga kiritish kamdan kam kishiga muyassar bo'ladi. Xayr va sharr oralig'ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo'lganida, unda sharni tanlaydi, zero, inson tabiatida sharrga moyillik ko'proq. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. Shuning uchun jamiyatda kishilarning bir-birlariga jabr qilmasliklari uchun

<sup>8</sup> Al-Forobiyi Fozil shaxar azaliksi. - Tashkent: Sharq, 1999. - B.73.

<sup>9</sup> Vivekananda Sarna, Filosofiya yoqi. - Maginitogorek: 1992. - S.488-489.

ma'rifatga erishmoq zarur. Keltirilgan so'zlar nafaqat teran ma'noga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa - nisbiy borliq namoyon bo'ladi. Inson barcha yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot - cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzug'ligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi.

Xususan, Sharq mutafakkiri Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o'rganadi. U "odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan", deb hisoblaydi<sup>10</sup>. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la oladi. "Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobekil kuchi asosida birlashgan"<sup>11</sup>. Beruniy fikricha, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, "Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi", deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. Yakka holda hech kim buning uddasidan chiqi olmaydi. "Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin"<sup>12</sup>. Inson o'z hayotining

<sup>10</sup> Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild. - Tashkent: Foy, 1968. - B.16-17.

<sup>11</sup> Oqarag: Irixov A. Abu Rayxon Beruniy hikmatlari. - Tashkent: Esh gvardiya, 1973. - B.40-43.

<sup>12</sup> Ibn Sina. Darsnoma. - Dushanbe: 1957. - S. 59.



me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. Yolg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir.

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Ma'rifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi fransuz J. Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur fransuz faylasufi – R. Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

«Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyutsiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir»<sup>13</sup>, deb qayd etadi atoqli fransuz faylasufi va teolog P.T. de Sharden (1881-1955). Unga zid o'laroq, A. Shopengauer (1788-1860) inson nuqsanli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta'kidlaydi.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Bu yerda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy kontsepsiya – insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi kontsepsiyalar doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy

<sup>13</sup> Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – Москва: 1987. – С.40

evolyutsiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur kontsepsiya 1859-yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiiy talqiniga asos bo'lgan Ch. Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyutsion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy kontsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik kontsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu kontsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtai nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiiy kelib chiqishi kontsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

**G'arb falsafasida inson.** Kosmosentrizm nuqtai nazaridan inson avvalo kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida (Demokrit), ba'zan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bog'liq bo'lgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglab yetish mumkin deb hisoblaganlar (Platon, Aristotel). Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donishmandlik muhim rol o'ynagan bo'lsin, ular doim kosmosentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bunday qarashlar Yevropa falsafiy an'anasida V asrgacha, ularning o'rmini teosentrizm kontsepsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi. Bu kontsepsiyaga muvofiq hamma narsani Xudo belgilaydi.

Teosentrizm nuqtai nazaridan insonning mohiyatini anglab yetish, masalan, qadimgi yunon faylasuflari yoki keyingi falsafiy kontsepsiyalardagi kabi oqilona fikrlash yo'li bilan emas, balki Muqaddas Kitobda ta'riflangan vahiyilar yordamida amalga oshiriladi. Bu vahiyilarni faqat Injil aqidalariga e'tiqod qilish orqali tushunib yetish mumkin.



Teosentrizm nuqtai nazaridan e'tiqod nuridan charog'on bo'lgan aql dunyodagi ilohiy tartibning tarkibiy qismi sanalgan va «Xudoning timsoli» sifatida amal qiladigan insonning o'zini emas, balki uning ba'zi bir jihatlarinigina aniqlashga yordam beradi. Ayni shu sababli xristianlik, Xudoni oliy mohiyat deb e'tirof etadigan va insonga U yaratgan banda sifatida qaraydigan boshqa teosentrik falsafiy tizimlar kabi, insonni Xudoning o'zi singari tagiga yetish mumkin bo'lmagan sir, jumboq deb e'lon qiladi.

Uyg'onish davrida inson o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtai nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi, o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, o'z ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar italyan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmatini haqida so'z» deb nomlangan mashhur asarida o'z aksini topdi. Tasviriy san'at, me'morchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi tushunadigan har tomonlama komil inson o'sha davrning idealiga aylandi. Uyg'onish davri bu idealga to'la mos keladigan Leonardo da Vinchi, Alberti Bottichelli, Rafael kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi.

O'sha davr falsafasida insonga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik kontseptsiyalari xristianlar Xudosini siqib chiqara boshladi. Yunonlarning kosmosentrizmi tabiiysentrizm sifatida qayta anglab yetildi. Bunda antik faylasuflarning markazida Yer joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari cheksiz va markazsiz kosmosga o'rin bo'shatdi.

Bunday kosmos umumiyroq va kengroq tushuncha – «tabiat» bilan tenglashtiriladi. Shundan beri u turli falsafiy tizimlarda faol o'rganiladi. Xususan, Ma'rifat davri falsafasida fundamental tushunchaga aylanadi, Shelling ijodida markaziy o'rin egallaydi, shuningdek ekologiyaga qarab mo'ljal oluvchi ayrim hozirgi falsafiy kontseptsiyalarda dunyo va insonni tushinishda tayanch nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday qarashlarning izchil tarafdorlari, masalan, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ijtimoiy ekologiya namoyandalari e'tiborni haddan tashqari keng qaratadigan tabiatdan uning muayyan qismiga – inson o'z hayot faoliyatini amalga oshiradigan biosferaga qaratish lozimligini qayd etadilar va bunda antropotsentristik qarashlardan voz kechib, ularni biosferotsentrizm bilan almashtirishni talab qiladilar. Biosferotsentrizm falsafiy tadqiqotlar

markaziga inson o'miga tabiatni qo'yish taklif qilinadi va shu tariqa tabiat inson ehtiyojlari nuqtai nazaridan qaralmaydi, inson mohiyati va uning ehtiyojlari esa tabiiy qonunlarni va biosferaning tadrijiy rivojlanish tendentsiyalarini bilish nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.

Yangi davrda insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'lanadi. Yangi davrda insonga biluvchi sub'ekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr fransuz materialist faylasuflari (Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblagan. Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalga tatbiq etishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir»<sup>14</sup>, deb qayd etadi.

Dunyoning butun rang-barangligi orasida I.Kant tabiatning turli, lekin bir-biri bilan uzviy bog'langan uch darajasi: notirik tabiat, tirik tabiat va inson tabiatini farqladi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o'z qonunlariga, chunonchi: notirik tabiat – mexanika qonunlariga, tirik tabiat – maqsadga muvofiqlikka bo'ysunadi, inson tabiati esa erkinligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda u inson tabiatini qolgan ikki tabiatga bog'lash va ular orqali bilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Inson tabiatini faqat uning erkinlikdan kelib chiqadigan o'z qonunlariga muvofiq anglab yetish mumkin. Shunday qilib, I.Kant inson tabiatning undagi boshqa jonli va jonsiz ob'ektlar kabi o'ziga to'q ob'ekti hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari surish orqali insonni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va shu tariqa falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida falsafiy antropologiyani yaratilishiga yo'l ochdi.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi ma'naviy faoliyat sub'ekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushunildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda ob'ektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. Feyerbax insonga tarixiy ma'naviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot

<sup>14</sup> Кант И. Соч. Т. 6. – Москва: 1966. – С.351.



sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, fransuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir.

Ayni shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab Yevropa falsafiy tafakkuri F.Shelling, A.Shopengauer, M.Shtimer, S.Kerkegor, F.Nitshe, N.Berdyahev, A.Bergson kabi faylasuflarning sa'y-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistentsializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantrildi.

Xususan, ekzistentsializm nuqtai nazaridan ob'ektiv dunyo – bu avvalo «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab yetadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi ta'limot, ya'ni falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

**Insonga fan nuqtai nazaridan yondashuv.** Tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va yangi o'ziga xos xususiyatleri aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgaragan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu yerda inson

nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Insonni bilish borasidagi ko'p aqlik sa'y-harakatlarni bir yerga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil yechilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shak-shubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo'lishi Yerda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982 yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Yer geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Yerdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e'tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyutsion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa genetika ba'zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o'zgartiradigan yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-shuvga sabab bo'lgan eng so'nggi xabarlariga ko'ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o'lmaydigan odam yo'qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66SHC sifatida ma'lum bo'lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyatsiya bo'yicha umrning o'rtacha uzunlik ko'rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtai nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo'linish yo'li bilan ko'payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning yetuk organizmi taxminan 50000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo'linishlar soni elliktagacha bo'ladi. Bo'linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba'zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas»<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> Годфруа Ж. Что такое психология. – Москва: 1996. Т. 2. – С.10.



Buq bir joyda to'xtab turgani yo'q va shu bois matbuatda vaqti-vaqti bilan paydo bo'layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to'xtatadigan moddan topish, shuningdek organizmda mazkur moddaning ajratilishini bahqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o'ziga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi.

Falsafa e'tiqo'iy masalalarni o'rganar va butun berliqning dastlabki asoslari va muhim qadriyatlarini aniqlashga harakat qilar ekan, u uzil-kesil yechimlar va shak-shubhasiz javoblar olishga da'vogarlik qilmaydi. Sinovdan o'tkazilgan dalillar va isbotlangan asoslarning yo'qligi uni xijolatga solmaydi, zero falsafa intuitsiya, g'oyibona ta'sir, ilhom, mantiqiy kuchga asoslangan farazlar, taxminlar, to'ldirishlar bilan kifoyalanadiki, bu unga mavjud bilimlar va shakllangan tasavvurlar doirasidan cheiga chiqib, aniq isbotlangan ilmiy yechimga ega bo'lmagan narsa yoki hodisani o'zgacha tarzda, erkin tushuntirish imkonini beradi. Shu tariqa falsafa insonni bilish chegaralarini kengaytirib, uni nafaqat yuqoriroq darajaga ko'taradi, balki yangi muammolarni qo'yish imkonini beruvchi yangicha yondashuvlar, o'zgacha nuqtai nazarlar va eng muhimi - eski muammolarning yangicha talqinlari bilan boyitadi.

Shu ma'noda S.Sheroziyning «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi<sup>16</sup> va «Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim» deb ta'kidlaydi<sup>17</sup>.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa inson bilan bog'liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o'laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil yechimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to'la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o'laroq, falsafaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday hodisani o'rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo'ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli bu yerda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo'lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

<sup>16</sup> Саидий Шерозий. Руссийлар. -Ташкент: Шарк, 1995. -Б.26

<sup>17</sup> Саидий Шерозий. Руссийлар. -Ташкент: Шарк, 1995. -Б. 26

**Insonning ko'p o'lovchiligi.** Insonni o'rganishga nisbatan «introvertiv» va «ekstravertiv» yondashuvlar ayniqsa ayraqliq toradi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M. Sheler (1874-1928) va A. Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K. Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi, tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu yerda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyyev, S. N. Bulgakov, S. L. Frank, N. O. Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmosentrizm, teosentrizm, sotsiosentrizm va antroposentrizm ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy kontsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

**Biologizatorlik kontsepsiyalari.** Biologizatorlik kontsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T. Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. T. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdir. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqat



arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi. Demografik muammolarning yechilmagani, shuningdek ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo'ldiki, Maltus g'oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirimoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – yengishga qodir emas.

Inson tabiati xususida shunga o'xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik konseptsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Mazkur g'oyalari zahirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta'limot – yevgenika yotadi.

XX asr boshlarida bu ta'limot shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

**Sotsiologizatorlik kontsepsiyalari.** Sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv

total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasi ayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muommosidir.

**Passionarlar va subpassionarlar nazariyasi.** Lev Nikolayevich Gumilyov (1912-1992) insonni tushunishga yangicha yondashgan va tarixiy-madaniy jarayonda individlarning uch turi: passionariylar, subpassionariylar va muvofiq odamlarni farqlagan. Passionarlik (lotincha «passio» – «ehtiros») deganda energiyaning «tur me'yoridan og'uvchi, ammo patologik xususiyatga ega bo'lmagan» turi tushuniladi. Passionarlik har safar materiyani o'zini qayta tashkil etishga majburlovchi to'liq manbai, atrof-muhitni o'zgartirish qobiliyati hamda bunga bo'lgan intilish yoki fizika tili bilan aytganda, muhitning agregat holatini buzishga bo'lgan intilish tarzida namoyon bo'luvchi biofizik omildir. Passionar turtki mutatsiyaga olib keladi. Gumilyovning fikriga ko'ra, mutantlarning tug'ilishi passionariylar – o'ta g'ayratli shaxslarning tug'ilishidir. Passionarlik turtkisi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, mazkur belgi egalari o'z qilmishlarining oqibatlarini haqida o'ylashga o'zlarini majbur qila olmasliklari mumkin. Shuning uchun ham passionarlikni ong belgisi deb emas, balki asab sistemasining konstitutsiyasida namoyon bo'luvchi muhim belgisi deb tushunish lozim, u, ong faoliyati bilan bog'liq faollikdan farqli o'laroq, emotsiyalar sohasida yashaydi. Passionariylarni ideal xususiyatlardan ancha uzoq xususiyatlar: takabburlik, mag'rurlik, manmanlik, ochko'zlik va b. tavsiflari ham mumkin. «Passionarlik – muayyan maqsadga (ko'pincha xayoliy maqsadga) erishishga yo'naltirilgan faoliyatga (ongli yoki ko'pincha ongsiz) ichki intilish. Mazkur maqsadni passionariy hatto o'z hayotidan hamda zamondoshlari va qabiladoshlarining baxtidan afzal deb biladi»<sup>18</sup>. Passionarlik darajasi har xil bo'lishi mumkin, ammo bu hodisa tarixda aniq va qayd etiladigan tarzda namoyon bo'lishi uchun passionariylar soni ko'p bo'lishi kerak, ya'ni passionarlik nafaqat individual belgiga, balki populyatsion belgiga ham tayanadi. Passionariylar orasida ruh passionariylari va tana passionariylari ham farqlanishi mumkin. Salbiy impulslarga ega bo'lgan, hech narsaga qaramay, hatto o'z zarariga ish tutishga intiladigan odamlar passionariylar deb ataladi. Ijobiy, hayotbaxsh impulslarga ega odamlar esa subpassionariylar deb ataladi. L. Gumilyovning fikriga ko'ra, passionariylar tubanlashgan hollarda ularning o'mini subpassionariylar egallaydi. Ularni «sodda», «qoloq» odamlar deb hisoblaydilar, ularning keng maydonga chiqishi etnosning intihoga yuz tutganini anglatadi, chunki ularning instinktiv impulslardan boshqa hech narsa qolmaydi.

<sup>18</sup> Гумилев Л.Н. Концепция и вновь начало. – Москва: Наука, 1994. – С. 71.



«Passionarlik» hodisasi dunyoning yagona axborot-energetik manzarasida tarixda chuqur iz qoldirgan «buyuk odamlar va xalqlar»ning faoliyati mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Uni tushunib yetishga «inson xulq-atvorining shakllanishiga jug'rofiy muhitning ta'siri» masalalari bilan ulkan hissa qo'shdi. Passionarlik muammosi L. Gumilyov kontsepsiyasining nazariy negizini tashkil etadi. Muallifning fikricha, passionarlik-biologik belgi, osoyishtalik inertsiyasini buzuvchi dastlabki passionarlik-biologik belgi, osoyishtalik inertsiyasini buzuvchi dastlabki turtki; bu passionariylarning ma'lum sonidan iborat avlod. Ular o'z hayoti bilan odatdagi vaziyatni buzadilar, chunki o'zlarini qiziqtirgan maqsadsiz kundalik tashvishlar bilan yashay olmaydilar. Muvofiq odamlar jamiyatning umumiy qonuniyatlari va siyosiy tizimiga moslashuvchanlikda namoyon bo'ladi va ijtimoiy jarayonlar aynan muvofiq odamlarning faoliyatibilan belgilanadi.

Gumilyov ta'riflagan qonunga binoan, «etnik jamoa tomonidan amalga oshiriladigan ish passionar kuchlanish darajasiga to'g'ri proporsional» bo'lib, bunda «etnosning passionar kuchlanishi deganda etnik tizimda mavjud passionarlik miqdorining etnosni tashkil etuvchi shaxslar soniga bo'linishi tushuniladi»<sup>19</sup>. Madaniyat va turmush darajasining barqaror o'sish davrlari esa passionar kuchlanish umumiy tarzda pasaygan davrlar bilan bog'liq.

Umuman olganda, passionarlik hodisasining manbai koinot omillariga, jumladan, quyosh faolligining davriy jarayonlari bilan bog'lanadi. L. Gumilyov aniqlagan passionarlik hodisasi inson to'g'risidagi V.I. Vernadskiy ta'riflab bergan «boshqa kuchlar bilan bir qatorda, real jug'rofiy kuch», degan qarashni qabul qilish imkonini beradi. Bu kuch doimo bunyodkor kuch emas, ba'zan u halokatli oqibatlarga olib keladi. L. Gumilyovning «Biosfera odamlarni to'ydira oladi, ammo ularning butun yer yuzini biotsenzlar konversiyasi siklidan chiqarilgan ashqol-dashqollar bilan to'ldirishga bo'lgan intilishini qondira olmaydi», degan so'zlari buning real isbotidir.<sup>20</sup>

**Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyati.** Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi «jon» va «ong» tushunchalarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan atoqli sofistlardan biri Protogor (mil. av. 490-420-yillar) mil. av. V asrdayoq «inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi», deb qayd etgan edi. Suqrot (mil. av. 469-399-yillar) ham haqiqat izlab insonga murojaat etadi. Inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu bois

dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblaydi. Suqrotning mashhur shogirdi Platon birinchi bo'lib jon haqidagi yaxlit ta'limotni yaratdi. U odamlar jonining qandayligiga qarab ularni har xil tiplarga ajratdi.

Keyingi davrlarda Seneka, R. Dekart, A. Navoiy, A. Jomiy, I. Kant, G. Fixte, J.P. Sartr, M. Xaydegger va boshqa mutafakkirlar insonning ma'naviy negizini birinchi o'ringa qo'yib, uning ongi, ma'naviy dunyosi va bilish qobiliyatlarini o'rganish ishiga salmoqli hissa qo'shdilar. Biroq XXI asrda deyarli ikki yarim yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida ham inson muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**Ong inson borlig'ining eng muhim xossasi.** Ongning tabiati shunday: ongni o'lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo'q, shuningdek, u moddiy ob'ektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shakl-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo'lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, inson borlig'ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o'z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o'rganiladi.

Atrof muhitda, o'z ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq e'tibor berganlar. Bu jon va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu tariqa bashariyat tarixida animizm - odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlarni ta'sir ko'rsatishiga bo'lgan e'tiqod paydo bo'ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi. Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog'langan va shaxssiz bo'lgan, ya'ni inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrot dan oldingi falsafa to'laligicha shunday xususiyatga ega bo'lib, bu yerda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Olov ko'proq bo'lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o'z kuchini yo'qotadi, ho'llangach esa – halok bo'ladi. Shu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol ma'naviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O'z

<sup>19</sup> Gumilyov L.N. *Этногенез и биосфера Земли*. - Москва: Наука, 1989. - С. 257-258.

<sup>20</sup> *Соба жыды*. - С. 418.



navbatida ayrim kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog'liq.

Suqrot va Platon moddiy va ideal hodisalarni farqlagan. Shuningdek, Platon Yevropa falsafiy an'anasida ideal asosni qayd etibgina qolmasdan, balki undan moddiy asosni ham keltirib chiqargan birinchi faylasuf hisoblanadi. Ayrim inson ongi esa, Platon fikriga ko'ra, uning joni bilan bevosita bog'lanadi. Bu o'lmas jon u yoki bu tanaga, tana tug'ilgunga qadar o'z «zindoni»ga tushgandek kirib joylashadi va u o'lganidan keyin esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni o'rganib yashaydi. Platon ruhiy hodisalarni tuyg'ular dunyosi (sezish va idrok etish) va intellektda u aql va idrokni farqlaydi. Bunda sof g'oyalar bilan ish ko'ruvchi aql fikrlashning formal usullari bilan bog'liq (masalan, matematikada) idrokka qaraganda yuksakroq hodisadir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyinchalik falsafada ideal narsalar va hodisalarni tushunishga nisbatan ko'p sonli har xil yondashuvlar paydo bo'ldi, ammo ularning barchasi ideallikni moddiylik va ko'lamlilikka qarshi qo'yadi.

Aristotelning «Jon haqida» risolasini qadimgi yunon faylasuflarining ong haqidagi falsafiy mulohazalarining muayyan yakuni deb hisoblash mumkin. Bu yerda jon tananing mohiyati, uning uyushtiruvchi tamoyili sanalsa-da, lekin aql ichki faolligining in'ikosiga emas, balki kosmos hayotining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasi «din cho'risi»ga aylanib, ong haqidagi masalaga butunlay o'zgacha nuqtai nazar bilan yondashdi – uni abadiy mavjud bo'lgan dunyoni, shu jumladan inson va uning jonini yo'qlikdan yaratgan Xudoning yagona dunyoviy asos sifatidagi talqini bilan bog'ladi. Bu ta'limotga binoan inson aqli ilohiy aqlning bir zarrasi sifatida muayyan darajada o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ongning bu faoliyati Tangrini bilish va u bilan muloqot qilishga qaratilgandir. Ongning mazkur ob'ektiv-idealistik talqini bilan bir qatorda o'rta asrlarda ongni «fikrlovchi materiyadan keltirib chiqargan materialistik an'anada ham uzilish yuz bergani yo'q. Bunday qarashlarga Sharq falsafasi (Ibn Sino, Ibn Rushd) o'z ta'sirini ko'rsatgan yevropalik ayrim faylasuflar Duns Skott, brabanlik Sigerning asarlarida duch kelish mumkin.

Seneka qalb, ruh yetukligini, hurligini birinchi o'ringa qo'yadi. «Shunday narsani izohlash kerakki, - deb yozadi u shogirdi Lutsiliyga, - hech nima unga hukmronlik qilolmasin, hech nima unga g'ov bo'laolmasin. Bu nima deysanmi? U mag'rur, oliyanob, yuksak ruhdir.

Uni kishi vujudidan joy topgan xudodan boshqa narsa deyish mumkinmi? Vujud biqirligidan kechib ko'kka intil va shoir aytganidek, o'z ruhingni Xudoga monandligini namoyon et. Ruhning hurligi uchun tilla ham kerak emas, kumush ham, chunki haqiqiy xudo timsolini yasab bo'lmaydi. Esla xudolar bizga xayrixoh bo'lganlarida ular loydan edilar. Komil ruhni qarzga ham, sotib ham olib bo'lmaydi»<sup>21</sup>

Seneka nazarida ezgulik, poklik, adolat va yetuklik izlagan kishi eng avvalo o'z ruhini ilohiy talablarga monand qilishi darkor. Ilohiylik – bir timsol, simvol, unga yetish kishi ixtiyoridir. Kishi qaerda yashamasin, nimalarni izlamasin, kimlarga hamroh bo'lmasin o'zining ruhini poklamaguncha, uni yuksaklikka yo'naltirmaguncha hayotdan zavq, orom, buyuklik topolmaydi. «Yashash joyingni emas, ruhingni o'zgartir, - deb yozadi Seneka, -qancha ko'p kezsang, shuncha ruhing iztirobga botadi. Kema uchun bab-baravar ortilgan yuk emas, balki notekis ortilgan yuk halokat keltiradi»<sup>22</sup>. Ruh bezovta, xasta ekan kishini hech qanday olamgardlik, tomosha, huzur qutqara olmaydi. Qayerda va kim bilan emas, qanday qalb, ruh bilan yashashning muhim. «ruhim hur bo'lsin desang, biror makonga butun dildan bog'lanma. Men biror burchak uchun tug'ilmaganman, butun mening vatanim, degan e'tiqod bilan yasha». Bir qarashda faylasuf kosmopolitizm tarafdori bo'lib ko'rinadi, biroq barcha rimliklar kabi u ham o'z vatanining fidoiysi edi. Bu o'rinda Seneka vatansiz yashashni emas, balki ruhiy osudalikni targ'ib etadi.

Faylasuf kishidagi barcha illatlar uning qalbi, ruhidagi nopok tuyg'ular tufaylidir deb biladi. Ba'zi kishilar boshqalarni pok, sofdil, ezgu amalli, xushaxloq ko'rishni istaydi, hatto ulardan ilohiy sifatlarni talab etadi, O'zida yo'q xislatlarni boshqalardan talab etish zo'ravonlik bo'lmasa-da, axloqsizlikdir. O'zi dardmand kishi o'zganing dardiga darmon bo'lolmaydi; qalbi nopok kishining o'zgalardan poklik talab etishi nokaslikdan boshqa narsa emas. Boshqani to'g'rilashdan oldin o'zingni to'g'irla. «O'z aybingni bilish, ruhni sog'lom tutish tomon tashlangan birinchi qadamdir»<sup>23</sup>. Kim o'z qalbini sog'lom ko'rishni istamasa, o'zidagi illatlardan xolos bo'lmoqchi emas; kim nuqsonlarini eshitishdan qochsa, o'z nuqsonlarini ezgulik deb biladi; kim poklanishni ixtiyor etmasa, unga hech kim dars berolmaydi. Ruhning poklanishi, sog'lom bo'lishi uchun nima qilish kerak? Seneka, eng avvalo «etuk donishmandlik ilmi» falsafa bilan shug'ullanish lozim, deb javob beradi.

<sup>21</sup> Seneka Л.А. Нравственные письма к Луцилию. – Кемеровское книж. изд-во., 1986. 66-с.

<sup>22</sup> O'sha joyda. – В. 79.

<sup>23</sup> Эпикур. Этика. – Москва: 1977. – С. 47.



Odamni ongli mavjudotga aylantirgan uning aqlidir. Aql donishmandlikka intilib odam ruhini buyuk qiladi. Donishmandlik orqaligina kishi baxtiyor sezadi o'zini; o'zini baxtiyor sezmagani baxtiyor bo'l<sup>24</sup>.

O'z illatlarini bilgan va ularni yenggan o'limdan qo'rqmaydi; o'lim ruhini qiyinaydigan azoblardan biri emas, u oxirgi azobdir. Faylasuf buziladi, ichkilikbozliklardan tomirlar qotadi va titraydi, shahvatdan qo'l, oyoq, bo'g'imlar zaiflashadi. Men qashshoqlashsam, demak, ko'pchilikka zanjirband qilsalar – tashvish nega? Axir men hozir ham zanjirband emasmanmi? Tabiat meni o'z tanamga bandi etib qo'ymaganmi? Men o'lamanmi? Demak, men endi xasta bo'lmayman, zanjirband qilinmayman, o'lim xavfidan xoliman<sup>25</sup>. Darhaqiqat, o'limni tabiiy holdek kutib olishga da'vat stoiklar falsafasidagi bosh g'oyalardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, kishi tug'ilganidan o'lim tomon boradi, go'daklik, o'smirlik, yoshlik, qarilik yagona haqiqat – o'limga eltadi. Umrini xushbaxt o'tkazmoqchi bo'lgan kishi esa hayot quvonchlariga ham, o'lim qo'rquvlariga ham befarq yashaydi, o'lim mubarro ruhni bezovta qilolmaydi. Donishmand o'z qismatidan qochmaydi, hayotini oxiri kelganida tark etadi. Hayotdan qochish boshqa, uni tark etish boshqa; birinchisi – ruhning zaifligi, ikkinchi buyuk borliq hukmidir. "Yashash emas, munosib yashash muhim; erta o'lasanmi yoki keyin – ahamiyati yo'q, yaxshilik bilan yashadingmi yoki yomonlik bilan mana – nima zarur<sup>26</sup>. Ikki ming yil oldin bitilgan ushbu nasoyihlar – nasihatlar moziy qaridan emas, ma'naviy-axloqiy yetuklik izlayotgan zamondoshimiz qalbidan chiqayotgan da'vatlardek eshitilmaydimi?

**Giloizm ta'limoti.** Qadimda jon - pnevma, psyu-xe, fantom, mana, kvintessentsiya deb nomlangan. Jon (lot. anima) hayvon, inson va hatto o'simlik tanasida yashaydigan va uni uyqu paytida yoki o'limdan so'ng tark etadigan alohida kuch sifatida namoyon bo'lgan. Bundan uning etimologik talqini, ya'ni jonni nafas, nafas olish va nafas chiqarish sifatida tushunish kelib chiqqan. Jon uch tarkibiy qismdan iborat mohiyatga aylangan: hayotbaxsh nafas o'simlik joni deb, psyu-xe – ruhiy jon, nus esa – aqli jon deb atala boshlagan. Jonni tushuntirish o'ta og'ir muammoga aylangan (ayniqsa materialistik fikrlovchi faylasuflar uchun). Bu alohida

<sup>24</sup> Сенюк Л.А. Нравственные письма к Луцилию. – Кемеровское книж. изд-во., 1986. – С. 39.  
<sup>25</sup> Сенюк Л.А. Нравственные письма к Луцилию. – Кемеровское книж. изд-во., 1986. – С. 98.  
<sup>26</sup> О'ша йуда. – II, 100.

turdagi teran materiyaga, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan ichki mohiyatga shubha tug'ilmasligi uchun ular butun tabiatni jonli deb e'lon qilganlar. Demak giloizm butun tabiatning jonli ekanligi tan olishdir.

Platonning «Davlat» asarida jon tarkibiy qismlari oqilona jon, emotsional-qaharli jon, buzuq jon kabilardir. Ular tegishli ravishda bosh, ko'krak va qorin bo'shlig'ida joylashgan. Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan risolasida jon va tana bir-biridan ajralmas mohiyatlar sifatida tavsiflanadi, jon haqidagi ta'limot esa hayot va uning shakllari haqidagi umumiy ta'lim sifatida tushuniladi. O'simliklar joni, hayvonlar joni va aqli mavjudot – inson jonini farqlar ekan, Aristotel rivojlanish g'oyasini ruhiyatga tatbiqan bilvosita ta'riflaydi. Uning fikricha, jonning yuqorida zikr etilgan uch tarkibiy qismi insonda yaxlit bir butunga birlashadi va turli funksiyalar: ovqatlanish, his qilish va mulohaza yuritishda namoyon bo'ladi. Jon unsurlarining barchasi tana unsurlari bilan uzviy bog'lanadi, ammo ular eng avvalo kosmik harakatlarga bog'liq bo'ladi. Antik davrda jon alohida hayotbaxsh kuch, ichki ma'naviy asos sifatida tushunilgan bo'lsa-da, uning faqat o'z faolligi sifatida tushuntirilgan.

O'rta asrlar falsafasida jon – dunyoviy va ilohiy faoliyat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in, degan umumiy tasavvur shakllanadi. Foma Akvinskiy (1226–1274) jon insonni «aktualashtiradi», uning asl mohiyatini belgilaydi, degan fikri ilgari suradi. Jon imkoniyatlarini Foma potentsiyalar deb ataydi. Ular besh xil bo'ladi: o'sish, hissiy idrok etish, o'z xohish-irodasini ifodalash, makonda harakatlanish, aql yordamida dunyoni tushunish. Ayrim potentsiyalar tana bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilari, masalan, o'z xohish-irodasini ifodalash va aql yordamida dunyoni tushunish ko'proq oliy asosga bo'ysunadi. Ammo tana zarur, chunki u jonning barcha potentsiyalarini birlashtirishni ta'minlaydi.

Cherkov otalari uchun jon faqat e'tiqodlar tizimiga mos keladigan yoki mos kelmaydigan bir mohiyatni o'zida ifodalaydi. Jonning normal faoliyatini ta'minlash ruhoniyning vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jon shaxsiy hayot omili sifatida emas, balki yo'lga solish lozim bo'lgan jamoa-umumiy mohiyat sifatida talqin qilinadi. Jonning moddiyligi g'oyasi cherkov mulozimlari tomonidan taqiqlanadi. Aql va jon Xudo atributlari sifatida sharhlanadi. Faqat jonning panoh topishi haqida qayg'urish lozimligi ta'kidlanadi, zero jon o'lmas, inson tanasi esa o'tkinchidir.

Yangi davr Yevropa falsafasida jon tushunchasi shaxsning teran, ichki dunyosi bilan ayniylashtirilgan. Xususiy tashabbus va tadbirkorlikning rivojlanishi insonning ma'naviy intilishlari qadriyat sifatida anglab yetilishiga turtki bergan. Shunga qaramay jonning jismoniy kelib chiqishi



haqidagi kontseptsiya unutilmaydi. Fransuz faylasufi Jyulen Lametri (1709-1751) hatto jon qaysi organdan o'rin olishini ham ko'rsatadi. «Biz tubanlashuvimiz uchun barcha kishilarning joni yashaydigan miyamizda zarracha o'zgarish yuz berishining o'zi kifoyadir». «...Bizning jonimiz ehtiyojlarimizga bevosita bog'liq bo'ladi, ularni misli ko'rilmagan tezlikda qondiradi va bu ehtiyojlarga hech narsa qarshi bora olmasligi haqida ogohlantiradi»<sup>27</sup>.

Jonda butun dunyo o'zining to'liq tajassumini topadi. U serqirradir. Fransuz faylasufi va matematiki Blez Paskal (1623-1662) jon ruhiy parvozlarning cheksiz darajada rang-barangligi, uning nozikligi, betakrorligi va beqarorligidan taajjublanib, inson jonining mohiyatini formula bilan ifodalash mumkin emas, u haqda faqat hayotni o'rganish va inson xulq-atvorini kuzatish orqali hukm chiqarish mumkin, degan xulosaga keladi. Jonning mazkur xususiyatlari teran ma'naviy asoslarni ichki darajadan sirtga chiqaradi. Jon individuallikning asosi sifatida amal qiladi.

Shunday qilib, falsafa tarixida mavjud jon haqidagi tasavvurlar o'z-o'zicha to'g'ri, biroq to'liq emas. Mazkur noyob fenomenni tushuntirish uchun energetik, dinamik va temporal mezonlar zarur. Adabiyot va she'riyatda, kundalik muomalada jonning bezovtaligi, uning mayllari va harakatlari haqida ko'p gapiriladi. Jon azaldan muayyan faol kuch, harakat manbai, energiya toki va harakatlantiruvchi asos sifatida tushuniladi. Tana dam jonni ifodalash maydoni sifatida, dam jon «go'ri» sifatida qaraladi. Psixanalitik K. Yung jon ham, uning ishi ham ko'pchilik uchun ko'rinmas ekanligiga e'tiborni qaratar ekan, jon uchun muhim omillar ongdan tashqarida bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. «Faqat tunda ochiladigan gullar» haqida gapirar ekan, Yung, «jon, barcha ma'naviy asoslar yaratiladigan va shakllanadigan vaqt oralig'ini belgilaydi»<sup>28</sup> deb ta'kidlaydi.

Falsafiy oqimlar, maktablar va yo'nalishlarning deyarli barchasi jonni anglab yetish, oqilona tahlil qilish mumkin bo'lmagan, teran hodisa sifatida tavsiflaydi. Ayni paytda jonga ishora qiluvchi, jonning bokiraligi, uning ichki kuchlari haqida bahs etuvchi mavzular doirasi keng.

Ekzistentsializm asoschisi daniyalik faylasuf S. Kerkegor (1813-1855) o'z izlanishlari natijasida jonni tanlash mumkin va bu har kimning o'z xohish-istagiga bog'liq, degan muhim xulosaga keladi. Individual ruhiy olam, intim ichki dunyoning mavjudligi inson hayotini mushkullashtiradi

<sup>27</sup> Qiziq: Lametri. *Sochineniya*. – Moskva: 1983. 237-238-c.

<sup>28</sup> Qiziq: Yung. *K. Arxetip i simbol*. – Moskva: 1991. 210-c.

va ong fenomenini anglab yetish muammosini yanada og'irlashtiradi. Ammo o'z o'zligini saqlab qolish huquqi Yerda yashaydigan har bir insonning uzviy huquqi hisoblanadi.

**Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi.** Yangi davrda R. Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tusdagi «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substantsiya deb hisoblab, yonma-yon joylashgan boshqa – ko'lamli, fikrlamaydigan, moddiy substantsiyaga qarshi qo'ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shulardan biri ruhiy jismiyaga (Gobs), ma'naviyini – moddiyga bog'lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv sub'ektiv (Berkli, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va ob'ektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegel) idealizm bilan bog'liq bo'lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, ma'naviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushinishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegel individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g'oyaning pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu yerda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

«Vulgar materializm» nazariyasida ong sof moddiy jarayon bo'lib, uning mazmuni inson yeydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog'liqligi tan olinadi. Byuxner, Foyt, Moleshott kabi faylasuflar bu nazariyani himoya qilib, jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar so'nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. Shunga qaramay, sun'iy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo'lishi va «axborot portlashi» va kompyuter inqilobining boshqa natijalari, xususan shaxmat o'yinida hatto jahon chemionlarini ham yutishga qodir superkompyuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo'yilishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Biroq, ular ong muammosini yechishga nisbatan har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi nuqtai nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo'q.



**Ongsizlik.** Ba'zan «ong» tushunchasi «inson ruhiyati» tushunchasi bilan ayniyashtiriladi. Bu noto'g'ri. Ruhيات – onnga qaraganda murakkabroq tuzilma bo'lib, u aks ettirishning ikki sohasi – ong va ongsizlikni o'z ichiga oladi.

Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o'zaro nisbati to'g'risida so'z yuritar ekanlar, ba'zan ularni okeandagi muztoqqa o'xshatadilar. Bu muztog'ning suv ustidagi ko'zga ko'rinadigan qismi onnga qiyoslanadi, suv ostidagi ko'rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o'xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko'ra faqat taxmin qilishimiz mumkin<sup>29</sup>.

Ongsizlik sohasi – bu aqldan tashqaridagi ruhiy hodisalar, holatlar va harakatlar majmui, deb hisoblash odat tusini olgan. Bu sohaga, eng avvalo, instinktlar – inson xulq-atvorining uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida hosil bo'ladigan va har bir mavjudotning hayot funksiyalarini, umuman uning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan tug'ma harakatlari majmui kiritiladi. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z. Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan. Har xil tushlar, gallyutsinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g'oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo'lish shakllariga misol bo'lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo'ysunmaydi. Shu sababli ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo'lmagan parchasi, deyish mumkin.

Ongsizlik strukturasi ongsiz sohasida vujudga kelishi va vaqt o'tishi bilan ongsizlik sohasiga kirishi mumkin bo'lgan intuitsiya va avtomatizmlarni ham kiradi. Intuitsiya – bu olish yo'llari va shartlarini anglamasdan, bevosita hissiy kuzatish yoki mushohada yuritish yo'li bilan olinadigan bilim. Avtomatizmlar – bu avval ong nazorati ostida paydo bo'lib, uzoq mashq qilish va ko'p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari. Tush, gipnoz holati, somnambulizm hodisalari, hushsizlik holatlari ham ongsiz harakatlar hisoblanadi.

Ruhiy faoliyatga ongsiz harakatlarning qo'shilishi natijasida onnga tushuvchi yuk kamayadi, bu esa, o'z navbatida, insonning ijodiy imkoniyatlari maydonini kengaytiradi. Hozirgi zamon fani ong osti sohasi tushunchasi bilan ham ish ko'radi. Bu ongsizlik sohasining alohida qatlami

<sup>29</sup> Qitay: Шрейдер Ю.А. Загадочная притягательность философии (субъективные заметки) // Вопросы философии. 1996. №7. – С.168.

yoki darajasidir. Unga faoliyat amallarining ong darajasidan avtomatizm darajasiga o'tishi bilan bog'liq ruhiy hodisalar kiritiladi.

Ongsizlik va ong inson yagona ruhiy borlig'ining nisbatan mustaqil bo'lgan ikki tomoni hisoblanadi; ularning o'rtasida tez-tez ziddiyatlar, ba'zan konfliktlar yuzaga keladi, lekin ular bir-biri bilan bog'langan, bir-biri bilan o'zaro aloqa qiladi va uyg'un birlikka erishishga qodir. Ongsizlik sohasida inson hayot faoliyatini, ayniqsa sub'ektning ijodiy faoliyatini oqionalashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu hol irratsionalistik falsafiy ta'limotlarning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda ongsizlikning turli shakllari: instinktlar, intuitsiya va shu kabilar inson xulq-atvorining salmoqli yoki hatto hal qiluvtchi kuchi hisoblanadi. Irratsionalizmning taniqli namoyandalari orasida Artur Shopengauer (Germaniya), Syoren Kerkegor (Daniya), Fridrix Nitsse (Germaniya), Eduard Gartman (Germaniya), Anri Bergson (Frantsiya), Zigmund Freyd (Avstriya), Martin Xaydegger (Germaniya) kabilar ongsizlik muammosini tahlil qilganlar. Xususan, Zigmund Freyd yaratgan inson xulq-atvori modelining zamirida inson ruhiyatida jinsiy mayllarning hukmronligi haqidagi tasavvur yotadi. Mazkur mayllar ong bilan to'qnashadi va natijada uni o'ziga bo'ysundiradi. Ammo falsafiy maktablarning aksariyati o'zgacha nuqtai nazarni ilgari suradi. Ular inson ruhiyatida yetakchi asos ong bo'lib, u ongsizlik sohasini «oziqlantirish» va uni ko'p jihatdan shakllantirish orqali umuman olganda uni boshqarishga, shuningdek inson xulq-atvorining umumiy strategiyasini belgilashga qodir, deb hisoblaydi.

Ong inson miyasining ob'ektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek ong namoyon bo'lishining fikrlar, g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig'ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu yerda va hozir» mavjud bo'ladi, balki go'yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biton-bir hajm yoki miqdoriy o'lchanadigan chiziqli ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig'i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, zero u o'tmishda yo'q bo'lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq, moddiy narsalar borlig'idan farqli o'laroq, ong bir qancha o'ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo'ylab o'tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko'chish, ilgari mavjud bo'lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo bo'lishi, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar



va voqealarni tasavvurda gavdalanirish qobiliyatiga egadir. Ammo o'tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning haqiqiy borlig'ida o'z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Shaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o'ziga o'xshash odamlar bilan muloqot qilish, o'tgan avlodlar to'plagan tajriba va bilimlarni, o'ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham shaxs bo'lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo'lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to'la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong borlig'i borliqning boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qiladi. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm» hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o'ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamo'a aqli», «ob'ektivlashgan ma'naviyat» va hokozolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko'rib chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g'oyalari, fikrlari bilan uzviy bog'liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqta nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasiz. Xuddi shuningdek til - inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo'lgani va faqat shu yerda mavjud bo'lishi mumkin. Uning tashqi og'zaki, ovoz ko'rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko'plab avlodlarning ko'p asrlik o'zaro aloqasi va o'zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so'z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, sun'iy ham bo'lishi mumkin.

Individual ma'naviy borliqdan farqli o'laroq, ijtimoiy ma'naviy borliq haqida uning fan, san'at, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko'rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g'oyalarning paydo bo'lishi doim muayyan olimlar bilan bog'liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog'lanmaydi, zero u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilarsiz fanni tasavvur qilish mumkin emas. U yaxlit hodisa sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, kompyuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

San'at sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo'shiqlar, raqslar va musiqa o'z muayyan ijrochilariga ega bo'lgani holda, o'zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko'rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o'laroq, o'z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o'z «tanasi»dan, ya'ni jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo'lgan, yo'q qilib bo'lmaydigan narsa sifatida qaralgan, uning borlig'i esa butun insoniyat borlig'i yo'q bo'lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o'rtalarida odamlar o'z-o'zini qirg'in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan e'tiboran insoniyat o'zining «umrboqiyli»ni yo'qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o'z-o'zini qirg'in qilishdan asrab, o'z ijtimoiy borlig'ini saqlash haqida qayg'urishi lozim.

Ong falsafiy muammo sifatida. Irratsionalizm (irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, ba'zan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalardan biri K. G. Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga ta'rif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalanishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistentsializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir.

Ongni tushunishga nisbatan ratsional yondashuv ongning paydo bo'lishini materiyaning o'zi bilan tushuntirishga intilish, ayni vaqtda uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo'nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o'ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to'la va uzil-kesil tushunganlikni da'vo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani o'zini bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funksiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo'lmaydi, deb e'tirof etadi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o'z navbatida boshqa o'n



ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiyaning yigirma foiziga yaqinrog'ini iste'mol qiladi.

Mazkur o'ta murakkab biologik «kompyuter» ishini tadqiq etish mumkin bo'lib, bu bilan maxsus fanlar shug'ullanadi, ammo falsafa bunday tadqiqotlarni e'tiborga olib, o'z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o'rganish yo'li bilan javob berish vazifasini qo'yadi. Bunda falsafa inson miyasining funksiyasi sanalgan ongni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo'yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o'zga moddiy tuzilmalardan paydo bo'lgan ong shakllari mavjud bo'lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. Shuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo'lgan yoki u bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan ta'limotlarni ham istisno etmaydi.

Shunga qaramay bugungi kun nuqtai nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo'lgan borliqqa tayanadigan falsafiy g'oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so'z yuritish mumkin.

Yangi tabiiy-ilmiy ma'lumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo, kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu o'ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo'nalishi vakillari o'rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSh va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vulgar materializm» an'anasini davom ettirib, mohiyat e'tibori bilan ma'naviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R. Rorti, G. Feygl, D. Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSh va Kanadada yana bir falsafiy yo'nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo'lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M. Bunge, J. Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyutsion kelib chiqishi g'oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog'lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning ilmiy kontsepsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko'proq darajada javob beradigan falsafiy kontsepsiya bo'lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to'xtalamiz.

Ogning paydo bo'lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida

tushuntirishga harakat qilinishi va ong tabiatining talqiniga «in'ikos» tushunchasini kiritilishi ongning falsafiy kontsepsiyasidir. Ong materiyaning umumiy xossasi, in'ikosning oliy tipi deb tavsiflanadi va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashilib, uning paydo bo'lishi mehnat va til bilan bog'lanadi.

**Ogning strukturasi.** Ong strukturasi birinchi elementi – bilim. Bu ongning bosh tarkibiy elementi, uning o'zagi, mavjudlik vositasi. Bilim – bu insonning voqelik haqidagi tushunchasi. Inson ongida bilim anglab yetilgan hissiy va mavxum mantiqiy obrazlar sifatida aks etadi. Bilimlar yordamida inson o'zini qurshagan dunyoni va bilishning predmetini to'laligicha qamrab olishi va anglab yetishi mumkin.

Og strukturasi ikkinchi muhim elementi emotsiyalardir. Inson o'zini qurshagan dunyoni sovuqqonlik va befarqlik bilan emas, balki qoniqlik, nafrat yoki hamdardlik hissi bilan anglab yetadi. U o'z ongida aks etgan hamma narsani his qiladi. Emotsiyalar borliqning real hodisalarini individ anglab yetishini yo rag'batlantiradi, yo bunga to'sqinlik qiladi. Ko'zni quvontiradigan narsalar xotiraga osonroq o'mashadi. Ammo ba'zan dunyoning «ko'zni quvontiradigan» manzarasi o'ziga mahliyo qilishi, illyuziyalar tug'ilishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Ogning uchinchi tarkibiy elementi iroda hisoblanadi. Iroda inson o'z faoliyatini ongli ravishda, izchillik bilan boshqarishini o'zida ifodalaydi. Bu insonning o'z faoliyatida yuzaga keladigan, sub'ektiv va ob'ektiv qiyinchiliklar va to'siqlardan ongli ravishda oshib o'tishni talab etadigan vazifalarni hal qilishga o'z ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar etish va yo'naltirish qobiliyatidir. Inson mehnat qurollarini yaratishi – bu irodani shakllantirishning birinchi va eng muhim maktabidir. Iroda va maqsad bir-birini to'ldiradi. Irodasiz maqsadga erishish mumkin emas, maqsadga muvofiq faoliyatsiz iroda ham bo'lmaydi. Iroda – bu ongli intilish va harakatga mayl uyg'otishdir. Ammo insonga ongsiz mayllar ham xos. Ba'zan inson qaergadir intiladi, lekin qaerga va nima uchun intilayotganini uning o'zi ham bilmaydi. Bunday ong osti harakati insonga hayvonlardan o'tgan.

Og strukturasi yana bir elementi – bu tafakkurdir. Tafakkur – individ bilish faoliyatining voqelikni umumiy va bilvosita aks ettirish bilan tavsiflanuvchi jarayoni. Ong strukturasi e'tibor va xotira ham kiradi. E'tibor – bu inson ruhiy faoliyatining muayyan ob'ektlarga qarab mo'ljal olishda namoyon bo'luvchi shakli.

Xotira – bu individ miyasida uning o'tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo'lgan ruhiy jarayon.



Xotiraning asosiy elementlari eslab qolish, saqlash, gavdalanirish va unutish hisoblanadi. Eslab qolishning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'ida vaqtinchalik nerv aloqalarining hosil bo'lishi va qayd etilishi tashkil qiladi. Nerv aloqalarining keyinchalik jonlanishi eslab qolingani materialni gavdalanirish imkoniyatini beradi, bu aloqalarning susayishi esa xotiradagi materialning unutilishiga olib keladi.

Insonning sub'ektiv borlig'ida muhim kichik struktura – o'zlikni anglash ham bor. Bu insonning o'zini shaxs sifatida anglab yetish, o'zining mustaqil qarorlar qabul qilish va shu asosda odamlar va tabiat bilan ongli munosabatlarga kirishish, qabul qilingan qarorlar va harakatlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatini tushunish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, o'zlikni anglash – bu o'z-o'ziga, o'zining ma'naviy qiyofasiga, o'z bilimlari, fikrlari, qiziqishlari, ideallari, xulq-atvor mo'ljallari, harakatlari va shu kabilarga yaxlit baho berishdir. O'zlikni anglash yordamida inson o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ro'yobga chiqaradi, o'z-o'ziga his qilishga qodir bo'lgan fikrlovchi mavjudot sifatida baho berishni amalga oshiradi. Bu holda sub'ekt o'z-o'zini va o'zining ongini bilish ob'ektiga aylantiradi. Shu tariqa inson o'z-o'ziga baho beradigan, shusiz hayotda o'z o'rini belgilash va topishga qodir bo'lmagan mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini o'zi tinimsiz kamol toptirishining muhim shartidir. O'zlikni anglash strukturasi o'z-o'zini his qilish, o'z-o'zini bilish, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini boshqarish kabi elementlarni ham ajratish mumkin. Umuman olganda o'zlikni anglash refleksiya bilan uzviy bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda refleksiya tafakkurning unga o'z faoliyat shakllarini (tafakkur kategoriyalarini) tahlil qilish va anglab yetishga ko'maklashuvchi tamoyil sifatida tavsiflanadi. Ayni shu sababli refleksiya inson ma'naviy dunyosining ichki tuzilishi va xususiyatlarini namoyon etuvchi o'zlikni anglash faoliyati sifatida yondashish, bizningcha, o'rinni bo'ladi.

Ong tarkibiy elementlari bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va onga inson hayoti uchun o'ta muhim bo'lgan bir qancha funksiyalarni ta'minlaydi.

Ongning funksiyalari. Ongning birinchi funksiyasi bilish yoki aks ettirish, ya'ni insonni qurshagan voqelik haqida va uning o'zi haqida bilimlar olishdir. Bilish faoliyati sifatida anglash jarayoni hissiy, obrazli bilishdan boshlanadi va mavxum fikrlash sari yuksaladi. Hissiy (empirik) bilish bosqichida rang-barang ahyoviy material to'planadi va keyinchalik u mavxum fikrlash yo'li bilan umumlashtiriladi. Ongning bilish funksiyasi jang'arish funksiyasini belgilaydi. Bu funksiyaning mohiyati shu bilan

belgilanadiki, bevosita, shaxsiy tajribadan olingan bilimlarga emas, balki zamondoshlar yoki o'tmishdoshlardan olingan bilimlar ham inson xotirasida jamlanadi. Bu bilimlar zaruriyatga qarab aktualashtiriladi, tiklanadi va oning boshqa funksiyalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson xotirasi qancha boy bo'lsa, u optimal qaror qabul qilishi shuncha oson bo'ladi.

Ongning aksiologik funksiyasi (baholash funksiyasi)da inson tashqi dunyo haqida ma'lumotlar olish bilan bir vaqtda ularni o'z ehtiyojlari va manfaatlarini nuqtai nazaridan baholaydi. Ong, bir tomondan, obyektiv aks ettirish shakli, inson mayllari va manfaatlariga bog'liq bo'lmagan voqelikni bilish shakli hisoblanadi. Bilimlar olish, obyektiv haqiqatning tagiga yetish, bilish faoliyati sifatidagi anglash jarayonining natijasi va maqsadiga aylanadi. Boshqa tomondan, ong voqelikka sub'ektiv munosabat ko'rinishlarini, uni baholash, o'z bilimini va o'zini anglab yetishni ham o'z ichiga oladi. Ongning baholash funksiyasi bevosita maqsadni shakllantirish funksiyasiga o'tadi. Maqsadga intiluvchanlik – bu ongning muhim xususiyati hisoblanuvchi sof insoniy qobiliyat. Maqsad – bu insonning o'z predmetini topgan ideallashtirilgan ehtiyoji; bu faoliyat predmetining shunday bir sub'ektiv obraziki, uning ideal shaklida inson faoliyatining mo'ljallangan natijasi namoyon bo'ladi.

Ongning ijod funksiyasida insonning oliy imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Maqsadga intiluvchanlik, ya'ni inson o'z harakatlarini «nima uchun» va «nimaga erishish yo'lida» amalga oshirishini anglab yetish har qanday ongli qilmishning zaruriy shartidir. Maqsadni ro'yobga chiqarish muayyan vositalarni, ya'ni maqsadga erishish uchun yaratiladigan va shunga xizmat qiladigan vositalarni ishga solishni nazarda tutadi. Inson tabiatda mavjud bo'lmagan narsalarni bunyod etadi. U Ongning kommunikativ funksiya (aloqa funksiyasi)da odamlar umumiy mehnatda ishtirok etadilar va bir-birlari bilan o'zaro aloqalarga kirishishga doimi muhtoj bo'ladilar. Fikrlarning bu aloqasi nutq orqali (ovozlik aloqa) va texnika vositalari yordamida (matnlar, kodlangan axborot) amalga oshiriladi. Shuni e'tiborga olish lozimki, yozma matnlarda (kitoblar, jurnallar, gazetalar va sh.k.)da bilim emas, balki axborotgina saqlanadi. Axborot bilimga aylanishi uchun u sub'ektivlashtirilishi lozim. Ayni shu sababli bosma so'zni tarqatish bayon etilgan axborot bilimga aylanishining kafolati emas, balki sharti hisoblanadi. Axborot bilimga, ya'ni sub'ektiv boylikka aylanishi uchun qo'shimcha kuch-g'ayrat sarflash talab etiladi.

Shaxs ongining mantiqiy siklini tartibga solish (boshqaruv) funksiyasi yakunlaydi. Ong omillarga baho berish asosida va qo'yilgan maqsadga muvofiq inson harakatlarini, keyinchalik esa – jamoalarning harakatlarini



ham boshqaradi, tartibga soladi. Ongning tartibga solish funksiyasi insonning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro aloqasiga bog'liq bo'ladi va ikki shaklda: da'vat etuvchi tartibga solish va ijroni tartibga solish shakllarida amal qiladi. Ongning bosh funksiyalari ana shulardan iborat. Ularning uyg'un rivojlanishigina oxir-oqibatda intellektual va ma'naviy jihatdan komil insonni tarbiyalash imkoniyatini beradi.

XXI asr boshiga kelib olimlar intellektning ayrim funksiyalarini informatsion mashinalar zimmasiga yuklash uchun ancha ko'p zahmat chekdilar. Bugungi kunda kompyuterlar murakkab ishlarni bajarmoqdalar: bir tildan boshqa tilga tarjima qilmoqdalar, samolyotlarni, poezdlarni boshqarmoqdalar, shaxmat o'ynamoqdalar, hatto inson miyasiga xos bo'lgan ba'zi bir mantiqiy amallarni bajarmoqdalar. Tabiiy bir savol tug'iladi: inson aqlining o'rini bosishga qodir bo'lgan mashinani yaratish mumkin emasmi?

Texnika imkoniyatlari nuqtai nazaridan, informatsion mashinalarni takomillashtirish chegarasini belgilash o'rinli bo'lmaydi. Shunga qaramay, mashinalar bajaruvchi amallar bilan inson miyasida bajariladigan amallarning o'xshashligi mashinalarni fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblash uchun asos bermaydi. Mohiyat e'tibori bilan mashina inson tafakkurining faqat bir jihatini – formal-mantiqiy fikrlashnigina amalga oshiradi, vaholanki, insonning fikrlash jarayoni amalda iroda, emotsiyalar, intuitsiya, orzu, fantaziya va hokazolardir. Inson ichki dunyosining boyligi uning ijtimoiy aloqalari boyligi va serqirraligining mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli, inson ongi, uning strukturasi va barcha funksiyalarini to'liq modellashtirish uchun miya strukturasi o'zining gavalantirish kifoya qilmaydi.

**Til va ong.** Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o'zaro aloqasi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog'liqdir. Aniq, tushunarli nutqning paydo bo'lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o'zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo'ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, an'analari, madaniyatlarining vorisligini ta'minladi, so'nggi zikr etilgan hol esa, o'z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi.

Shunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda til insonning fikrlash

faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o'z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi.

Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, ya'ni u faqat jamiyatda shakllanadi va undan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko'ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo'ladi, ularning faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

**Antrop tamoyil.** Antrop tamoyilda inson amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday dunyoda emas, balki uning xususiyatlarini belgilovchi fizik konstantalarning o'ta aniq majmui bilan tavsiflanuvchi dunyodagina paydo bo'lishi mumkin bo'lgan, degan ma'no kelib chiqadi. Bu bizning Koinot aynan unda insonning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tarzda tuzilganini anglatadi. Agar u o'zgacha bo'lganida, unda biz mavjud bo'lmas edik. Boshqa Koinotlar (agar ular mavjud bo'lsa) bizga mos kelmaydi: ularda bizga o'xshagan aqli jonzorlar mavjud bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, ontologik jihatdan o'zgacha dunyolar insonning «uyi», uning yashash joyi bo'lishi mumkin emas.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida astronomiyaning rivojlanishi Yerdan tashqarida sivilizatsiyalar mavjudligiga bo'lgan shubhani yanada kuchaytirdi. Birinchidan, astronomik ma'lumotlarga aniqlik kiritilishi aqli hayot mavjud bo'lishi mumkin deb taxmin qilish mumkin bo'lgan kosmik ob'ektlar soni surunkali qisqarishiga olib keladi.

Ikkinchidan, yuqorida ko'rib chiqilgan, rivojlangan sivilizatsiyalargina amalga oshirishga qodir bo'lgan kosmosni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar faoliyatining amalda kuzatiluvchi biron-bir ko'rinishlari umuman mavjud emasligi o'rtasida ziddiyat vujudga keladi.<sup>30</sup> Bu ziddiyat «astrosotsiologik jumboq» deb ataladi. Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar (SETI)ning radiosignallarini va ularning kosmosdagi faoliyati natijasida qolgan biron-bir izlarni qidirish hozircha hech qanday samara bergani yo'q. «Kosmos sukuti» ayniqsa g'alati, zero, texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi o'zga sivilizatsiyaning radiosignalini payqash uchun yetarlidir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan bizning davrimizda insonning Koinotdagi alohida o'ri haqidagi qadimgi tasavvurlarga o'ziga xos qaytish yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, bu yerda gap dunyo va insonga doir qadimgi sodda qarashlarga qaytish haqida ketayotgani yo'q. Bu qadimgi g'oyalarni

<sup>30</sup> Гиндлес Л.М. Астросоциологический парадокс в проблеме SETI // *Астрономия и современная картина мира*. - Москва, 1996. - С.76.



tiklash ularni tubdan qayta ishlash va bilimlarning butunlay yangi darajasida talqin qilish bilan bog'liq. Eski muammo butunlay yangicha tarzda qo'yiladi va uni yechishga nisbatan hozirgi yondashuv qadimgi davr bilan taqqoslaganda o'ta chuqur asoslarga tayanadi.

**Insonning bioijtimoiy mohiyati.** Falsafiy antropologiya doirasidagi muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijosi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakroridir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir. Inson nafaqat bioijtimoiy mavjudot balki u fizik, kimyoviy, psixoneyrofizik mavjudot hamdir. U tabiiy olamda bo'lgani kabi 70 foiz suvdan tarkib topgan suvdan paydo bo'lgan va kimyoviy elementlarning yig'indisidir. Ayni shu sababli inson individi nafaqat ijtimoiy, balki biologik mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflansa, «shaxs» tushunchasiga yanada torroq ma'no yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatleri bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Ya'ni keng talqinga yo'l qo'yadigan «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «Shaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina

bog'liq bo'lib, faqat shu ma'noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'mi, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtai nazaridan tavsiflaydi.

Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek inson yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, ma'naviyat va shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e'tirof etilgan me'yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma'noda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyutsiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me'yorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol topish jarayonida u doim ham sub'ekt, ham ob'ekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

**Insonni tushunishda dualizm va monizm.** Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'mashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb



hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiy an'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik kontseptsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun yetarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q. Shunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o'zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu endi qizg'in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o'zining uzi-kesil yechimini topgani yo'q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

Yuqorida zikr etilgan muammoning yechimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontseptsiyalari alohida o'rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo'yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

**Gerontologiya – qariyalik falsafasi.** «Inson» - yoshlar, o'rta yoshlilar, qariyalardan iborat guruhlarga bo'lingan ijtimoiy voqelikdir.

Qariyalar ijtimoiy demografik guruh hisoblanib, ular o'z xususiyatiga egadirlar. O'zbekistonda erkaklarni 60 yoshdan, ayollarni esa 55 yoshdan pensiya safiga kiritish mumkin. Mana shu yoshdan boshlab shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqa o'zgarib boshlaydi. Ma'lumki, qarilik ayrim holatlarda mehnatga layoqatsizlikni, yordamga muhtojlik, va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shunday holatda har bir millatga xos urf-odat, qadriyatlar, diniy e'tiqod, insoniy tamoyillarga asoslangan hayot tarzi qariyalarga bo'lgan munosabatni belgilab beradi. O'zbekona, shuningdek, sharqona axloqiy qadriyatlar, mehr-muruvvat, diniy ko'rsatmalar insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, ularning jamiyatdagi mavqeiini kamaytirmaydi. Aksincha, asrlar davomida qariyalar hayotiy tajribasi,

bilimidan komil insonni tarbiyalash jarayonida vorisiylik asosida unumli foydalanib kelinmoqda.

Demak, gerontologiya qanday fan? U nimalarni o'rgatadi?

«Gerontologiya» keksalik haqidagi fan bo'lib, u falsafa va tibbiyot uyg'unligida yuzaga kelgan qadimiy fanlardan biri.

Mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy gerontologiya – insoniyat madaniyati tengdoshi. Qarilik haqidagi fan barcha davrlarda olimlar yaratgan yangi ilmlarni o'zida mujassamlantirdi. Bular tibbiyot, fiziologiya, falsafa va biologiya, psixologiya va sotsiologiya, demografiya va etnografiya, tarix va huquqshunoslik bo'lib, XX asrda gerontologiya bioximimiya, biofizika, psixoanalitika, psixofiziologiya kabi yangi fan yutuqlari bilan boyidi.

Gerontologiya XVIII asrda fan sifatida haqiqiy huquqqa ega bo'ldi. Frensis Bekon (1561-1626-y.) fanlar tasnifiga bag'ishlangan maxsus ishi «Fanlarning buyuk tiklanishi»da fan haqida shunday yozdi: «U faqat endi yaratiladi, uning ishi ummi uzaytirishni o'rgatish bo'ladi». Asarda F Bekon umrni uzaytirishga yordam beradigan ijtimoiy-gigienik xarakterga ega maslahat va tavsiyalarni aytib o'tadi. Faylasuf umrni uzaytirish bo'yicha ishlarni uch yo'nalishda olib borish kerakligini ta'kidlaydi. Bular: barvaqt qarish jarayonini sekinlashtirish, yashashni qo'llab-quvvatlash va qariy boshlagan narsalarni yangilash.

XX asrda gerontologiya o'z nazariy va amaliy natijalariga boshqa fanlar uslub hamda natijalarini birlashtirgan bo'lsa shu bilan birga, fan turli sohalarga ham bo'lindi. 30-yillardan boshlab mustaqil izlanish tufayli gerontologiyadan inson gerontologiyasi, hayvonot gerontologiyasi, o'simliklar gerontologiyasi, shuningdek, molekulyar, biologik, ekologik, taraqqiyot gerontologiyasi ajralib chiqdi. Ma'lum muddatdan so'ng qarilikni tekshirishning nazariy va amaliy tabaqalashtirish ro'y berdi, fan nazariy hamda amaliy sohalarga bo'lindi.

50-yillardan boshlab rivojlangan mamlakatlarda qariyalar soni, shu bilan birga ularni ta'minlash bilan bog'liq muammolar ham keskin o'sa bordi. Bu qariyalar turmushiga, ularning ehtiyojlari va ijtimoiy himoyalanganligiga e'tibor qaratishni talab etdi. Ko'plab tadqiqotchilar aholi sog'lig'ining 8-10 foizi sog'liqni saqlash tizimiga, 60-65 foizi yashash tarzi bilan ovqatlanish, tashqi muhit shart-sharoitlari bilan bog'liqligini ta'kidladi. Foizlar orasidagi nisbatga ajablanishimiz mumkin. Ammo eng muhim omillar – hayot tarzi va atrof muhit – ijtimoiy omillarning barchasi ta'sir etishi shubhasizdir.

Qariyalarning jamiyatdagi ahvoli masalalarini amaliy, so'ngra nazariy yechish gerontologiyaning yangi sohasi - ijtimoiy gerontologiyani yuzaga keltirdi. Xullas, bu ilmiy yo'nalishni rivojlantirish jarayonida qarilikning



sotsiologik, sotsial-psixologik, iqtisodiy, etik muammolar ishlanmalari yuqori o'ringa chiqdi. Ijtimoiy gerontologiya insonni ijtimoiy-biologik mavjudot sifatida o'rganib, o'z muammolarini hal etishda ijtimoiy va tabiiy-biologik yo'nalishlarni birlashtiradi. Ijtimoiy gerontologiya hozir, mustaqil fan huquqi va o'quv fani darajasini qo'lga kiritdi. Uning shiori: «Sog'lom keksalik» va «Saodatli uzoq umr ko'rish»dan iborat.

**Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi.** Yunoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadriijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Shu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M. Sheler, A.Gelen, X. Plesner asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M. Shelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi.

M. Sheler falsafiy antropologiya insonning yaxlit kontsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblari, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'ining asosiy strukturasi qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»<sup>31</sup>, deb qayd etadi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni M. Sheler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlarini deb hisoblaydi. U inson shu paytgacha (XX asrgacha) hali hech qachon bu darajada «muammoli» bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Buning asosiy sababini Sheler insonni o'rganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan uncha bog'liq bo'lmagan turli yo'nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko'radi. Masalan, teologik

<sup>31</sup> Шелер М. Избранные произведения. – Москва, 1994. – С. 187.

antropologiya insonni faqat iudeycha-xristiancha an'analar nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafiy antropologiya asosiy e'tiborni insonning o'zligini o'rganishga qaratadi, tabiiy-ilmiy antropologiya (tabiatshunoslikning barcha tarmoqlari va genetik psixologiya) esa faqat Yer rivojlanishining eng so'nggi mahsuli sifatidagi, hayvonot dunyosidagi o'zidan oldingi shakllardan energiya va qobiliyatlar birikmasining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi mavjudot sifatidagi inson haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

M. Sheler fikriga ko'ra, falsafiy antropologiyaning vazifasi inson borlig'i strukturasi insonning barcha ishlari va amallari, shu jumladan til, fan, mif, san'at, din, jamiyat, davlat, tarix, g'oyalari, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omillar qanday kelib chiqishini ko'rsatib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kash etadi.

M. Sheler fikricha falsafiy antropologiyaning predmeti – bu inson mohiyati va uning strukturasi haqidagi fandir. M. Sheler G'arbiy Yevropa jamiyatini axloqiy, falsafiy va diniy qadriyatlar odamlari uchun ikkinchi darajali ahamiyat kash etayotgani uchun tanqid qiladi va ularga bu qadriyatlarini birinchi o'ringa qo'yishni tavsiya etadi. Jamiyatni chulg'ab olgan inqirozdan chiqish yo'lini M. Sheler aynan shunda ko'radi.

Shunday qilib, inson ongli mavjudot sifatida M. Sheler falsafasida markaziy o'rinni egallaydi, inson borlig'ining asosiy tamoyillari sifatida qudratli, biroq kelajakni oldindan ko'rolmaydigan yashashga intilish, hamma narsani anglab yeta oladigan, ammo hayotni belgilashga ojiz bo'lgan ong amal qiladi. Sheler ta'limoti hayot falsafasi va ekzistentsializmning rivojlanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning negizida keyinchalik alohida falsafiy-antropologik ta'limotlar – biologik, psixologik, madaniy, diniy va boshqa nazariyalar vujudga keldi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida Shelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab yetish mumkin emasligi, ya'ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. Shuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi. Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turki berdi, shuningdek materialistik falsafiy kontsepsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.



Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rmini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar. Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtai nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»<sup>32</sup>

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo'shimcha turtki berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, kontseptsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya

<sup>32</sup> Гордеев Н.А. Смысл творчества. – Москва: Наука, 1989. – С. 293.

anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

**Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari.** Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. Shu ma'noda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos «markaziy o'q» hisoblanadi.

Falsafiy antropologiyaning antroposentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zahirida antik falsafaning Protagor ta'riflab bergan «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antroposentrizmi Yevropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi.

Shu nuqtai nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko'p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. Sharq falsafasida antroposentrizm yo'q, umuman olganda falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo'lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o'zi esa mukammal bo'lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo'ysunishi lozim.

Shunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan «Inson nima?», degan savol Yevropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan ayni shu jihatdan farq qiladi). Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson haqidagi



ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Hayotning ma'nosi va insonning vazifasi. Inson hayoti – tug'ilish va o'lishni cheksiz zanjirning muayyan halqasi sifatida talqin etish qadimgi hind animistik tasavvurlaridan boshlangan. Bunday tasavvurlar aslida tabiatda sodir bo'ladigan muayyan davriy hodisalar hamda ularning o'ziga xos tarzi bilan hamohang. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining behaloligi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'miga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistentsialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistentsializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, hayot – jarayondir, bunda borliqning potentsial sifatleri uning qadriyatlariga aylanadi. "Hayot borliqning aktualashish jarayonidir, bu jarayonning turli shakllarida borliqning imkoniyatlari ochiladi. Hayot borliqda o'ziga xos muammo bo'lib, borliq

ifodalanishining asosiy usullariga aylanadi". Bunda hayotning barcha xossalari: yashash, kurashish, lazzatlanish, jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarni qanoatlantirish qamrab olinadi. Organizmlarning faolligi ularning harakatlanishi yoki xulqiga oid qobiliyatida namoyon bo'ladi. Jonivorlarning faolligi o'simliklar faolligidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki ular ovqat topib yeyishlari uchun atrof muhitda harakatlanishlari lozim. Turnig yashab qolishi ota-ona avlodidagi eng muhim belgilarning kelgusi avlodda ko'payishi orqali saqlab qolinadi.

Diniy nuqtai nazardan hayotning ma'nosi Xudoni topish, Uning vasliga yetishishda namoyon bo'ladi. Sufizimda hayotning ma'nosi Xudoga ishqdir.

Hayot ma'nosi hayot maqsadidan farq qiladi, uning qamrovi keng bo'lib, minglab maqsadlarni o'z ichiga oladi. Inson hayotida biror maqsadning amalga oshmay qolishi, uning hayotini "ma'nosiz" qilmaydi.

Ba'zilar uchun hayoti ma'nosi eng yuksak qadriyatlar tizimidir. Ular o'z hayotlariga maqsadlariga erishish bilan ma'no bag'ishlaydilar va o'zining "ikkinchi umri", ya'ni "barhayotlik"ka erishadilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli ana shunday fidoyilar ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi. Ular "elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan"<sup>33</sup> bunday insonlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

**Hayotni tark etish bosqichlari.** "O'limni eslab turish insonning illatlardan qutilishga, yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida yashashga undaydi. Ya'ni, bu foni dunyoda odamzotning bir-biriga zulm qilishi, mol-dunyo yig'ishga ruju qo'yishi, fisqu fujur bilan shug'ullanishi kabi salbiy illatlar o'limni eslash tufayli inson hayotidan chekinadi, o'limni eslash ezgulikni barqaror va yovuzlikni inkor etishning eng maqbul yo'llaridan biridir"<sup>34</sup>. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o'limga mahkumdur. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o'z muxoliflaridan birining: «O'ttiz tiran seni o'limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o'limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'limga mahkumdur. Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon

<sup>33</sup> Каримов И.А. Витан саждагоҳ каби муҳаддасдир. Т.3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 37.

<sup>34</sup> Худайберганов Р.Х. Ўлим феноменининг ахлоқий масалалари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент: 2009. – №4. – Б. 116.



yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo'ladi. Ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga yetadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlariga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi»<sup>35</sup>.

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy o'lim yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik, yo'l qo'yilgan xato va jinoyatlar oqibatida jamiyatdan ajralish holatlari ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra ruhiy o'lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanligini va o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. Miya o'lishi bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon fiziologik o'lim bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

Shuning ijtimoiy hayotda suitsid - odamlarning o'zini qasddan o'ldirishi va parasuitsid - o'zini o'ldirishga harakat qilish holatlari ham uchraydi. Umr qisqa, hayot nihoyatda murakkab, lekin har qanday vaziyatda inson yashab qolish uchun kuch va irodaga ega bo'lishi uning aql imkoniyatlaridan unumli foydalanishining oqibatidir. Bu dunyoda hech bir sabab o'z o'zini o'ldirish uchun asos bo'la olmaydi. Hayotning ma'nosini bilmaganlarga o'z joniga qasd qiladi.

**Suitsid - o'z o'zini o'ldirish** (lot. sui caedere — o'zini o'ldirish) ixtiyoriy ravishda qasddan o'zini o'ldirish. Urush yoki favqulodda vaziyatlarda o'zini qurbon qilish sifatidagi o'z o'zini o'ldirish bu qahramonlik namunasi sifatida qaraladi. XIX asrda Yevropa hududida o'z joniga qasd qilish hollari ko'paygani kuzatiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda dunyoda har 40 daqiqada o'z ixtiyori bilan joniga qasd qilib kuniga 3 ming aholi yiliga esa 1million aholi hayotni tark etmoqda. (bu ummuy o'lim holatining 1,5% tashkil etadi). Statistik ma'lumotlarga ko'ra 15-29 yosh oralig'idagi yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish hollari ko'p uchraydi.

Lotin Amerikasi ba'zi arab va Osiyo mamlakatlarida suitsid hollari kamligi aniqlangan. O'rtacha darajadagi suitsid hollari Markaziy va Shimoliy Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Tinch okeanining G'arbiy qismida kuzatilgan. Yuqori darajadagi suitsid Litva, Belorussiya, Rossiya, Shri-Lanka, Qozog'iston Vengriya, Yaponiya, Ukraina, Latviya davlatlarida ekanligi haqida ma'lumotlar bor.

<sup>35</sup> Годфруа Ж. Что такое психология. - Т. 2. - Москва: 1996. - С.11.

Suitsidning namoyishkorona va haqiqiy shakllari farqlanadi. (parasuitsid va psevdosuitsid). Psevdosuitsid affekt holatlarida amalga oshiriladi va bunda o'zini o'ldirish emas, balki yordamga muhtojlik o'ziga e'tiborni qaratish istagi ustivorlik qiladi. Parasuitsiddan farqli o'laroq haqiqiy suitsid - bu oldindan puxta rejalashtirilib keyin amalga oshiriladi va bunda yashash imkoniyati deyarli qolmaydi.

O'z o'zini o'ldirishga harakat o'zini o'ldirishga harakat deb nomlanadi, ko'p hollarda bu juda og'ir kasallaiklarga olib keladi. Inson o'z joniga qadrsizlanganida, xo'rlangan hollarida, og'ir kasallikdan tuzalish imkoniyati qolmaganini bilganida qasd qilishi mumkin.

Aslida o'z joniga qasd qilish bu o'z joniga qasd qilishdir.

**Parasuitsid** (yunon. para - yonida, + lot. sui - o'zini + caedere - o'ldirish) - haqiqiy suitsiddan farqli o'laroq ijtimoiy shov-shuv uchun amalga oshiriladi, bu o'zini o'ldirish emas o'zining borligini eslatish, shaxslararo munosabatlarni o'zgartirish, o'z-o'zini jazolash bilan bog'liq harakat hisoblanadi.

**Evtanaziya** - tibbiyot xodimlari tomonidan o'ta og'ir ahvoldagi bemorning o'limni tezlashtiruvchi maqsadli muolaja, bu odatda bemor ahvolining yaxshilanmasligi dalili isbotlanganda va uning o'z ixtiyori yoki qarindoshlarining roziligi bilan amalga oshiriladi. 2500 yil davomida tibbiyotda evtanaziya taqiqlangan, jamiyat tomondan u jinoyat sifatida baholangan. Biroq hozirgi kunda ba'zi hollarda bu vositadan foydalanilmoqda. (avtohalokatdan keyin koma holatiga tushgan va qayta tiklanishga najot bo'lmagan hollarda, saraton kasalligining 4-darajasida).

**Xulosalar.** Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo'ladi), ammo u o'z hayot yo'lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur javob beradi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum, ammo, buni tushungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma'naviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo'lni din taklif qiladi. Bu yerda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi



savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.



Yana bir imkoniyat – bu dunyoda o'z hayotini odamlarga, ezgulik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag'ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o'z ishlari, g'oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Inson bu yo'llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o'ziga bog'liq. U o'z hayotida bu yerda ko'rsatilganidan butunlay boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri yoki noto'g'rligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Inson, hayot, tasodif, anomaliya, yerda inson paydo bo'lishi, inson ma'naviyati, insonning ko'p o'lchovliligi, kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm, antropotsentrizm, biosferotsentrizm, ekzistensializm, insonning bioijtimoiy mohiyati, insonni tushunishda dualizm va monizm, biologizatorlik konsepsiyalari, sotsiologizatorlik konsepsiyalari, insonning mohiyati, hayotning mazmuni, hayotni tark etish, insonning vazifasi.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Turli falsafiy tizimlarda inson haqidagi tasavvurlar qanday shakllangan?
2. Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o'rganadi?
3. Antropologiyadagi falsafiy va boshqa yo'nalishlar o'rtasidagi farq nimada?
4. Nima uchun inson mohiyati «boqiy» falsafiy muammo hisoblanadi?
5. Insonda biologik va ijtimoiy asoslarning o'zaro nisbati qanday?
6. Inson haqida yagona fan bo'lishi mumkinmi?
7. Insonning bioijtimoiy tabiati falsafiy muammo hisoblanadimi?
8. «Biologizatorlik» va «sotsiologizatorlik» konsepsiyalarini qanday baholaysiz?
9. Falsafa hayotning mazmunini anglashda yordam berishi mumkinmi?
10. Umrboqiylik mumkinmi?

### Esse mavzulari

1. Insonni falsafiy tushunishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Falsafa tarixida inson muammosi.
3. Falsafiy antropologiyaning shakllanish bosqichlari.
5. Inson kelib chiqishining falsafiy konsepsiyalari.
6. Inson biologik va ijtimoiy tabiatining birligi.
7. Inson hayotining mazmuni muammosi.
9. «Hayot», «o'lim», «umrboqiylik» falsafiy kategoriyalar sifatida.



## Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Quyidagi so'zlar muallifi kim: «Inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi...»?

- A. N.A. Berdyayev
- B. V. Solovyev
- V. V. Kuznetsov
- G. A. Chumakov

2. «Inson-mashina» asarining muallifi kim?

- A. J. Lametri
- B. Dj. Berkli
- V. Dj. Bruno
- G. B. Spinoza

3. Insonning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion konsepsiya asoschisi kim?

- A. Ch. Darvin
- B. K. Linney
- V. Ch. Pirs
- G. A. Eynshteyn

4. Insonni o'rganishning introvertiv yondashuvi vakillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A. M. Sheler, A. Gelen, K. Lorens
- B. N.A. Berdyayev, A. Gelen, K. Lorens
- V. S.L. Frank, L. P. Karsavin, S.N. Bulgakov
- G. N.O. Losskiy, L. P. Karsavin, S.N. Bulgakov

5. Falsafa tarixida inson haqidagi qarashlarni «antropologik materializm» sifatida baholangan faylasuf kim?

- A. L. Feyyerbax
- B. I. Kant
- V. V. Gegel
- G. F. Nitsshe

## Adabiyotlar:

1. Бердяев Н.А. О назначении человека. -Москва: Прогресс, 1993.
2. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent: O'FMJ, 2006
3. Шермухамедов С. Инсон фалсафаси. -Toshkent: Фан, 2009
4. Борзенков В.Г., Юдин Б.Г. Философская антропология: Учебное пособие. -Москва: АСТ, 2005.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -Москва: 2006.
6. Минюшев Ф.И. Социальная антропология. -Москва: Братья Карич, 1997.
7. Камю А. Бунтующий человек. -Москва: 1990.
8. Кувакин В.А. Твой рай и ад. Человечность и бесчеловечность человека. -СП(б): 1998.
9. Мочалов Е.В. Антропология всеединства в философии. -СП(б): 2006.
10. Олпорт Г. Становление личности: Избр. тр.: пер. с англ. -Москва: 2002.
11. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. -Москва: 2002.
12. Фромм Э. Душа человека. -Москва: 1992.
13. Кошкарлова Н.И. Бытие человека в культуре : На материале амер. культур. антропологии : диссертация ... кандидата философских наук : 09.00.11. Уфа, 1996.
14. Мандшир Д. Социализация как философско-антропологическая проблема : диссертация ... кандидата философских наук : 09.00.13. -Москва: 2000.
15. Шелер М. Место человека в космосе. -Москва: 2001.
16. Курбонова Л. Инсон борлиги. -Анджон: АндУ, 2009.
17. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. -Тошкент: Ношир, 2016.



## 2-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING KOSMIK DARAJASI

**Koinotda insoning o'рни.** Ma'lumki, inson muammosi falsafaning azaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Yuz yilcha muqaddam inson hayoti qanday tashkil etilishi lozim, degan savol kun tartibiga qo'yiladi. Tarixiylik, madaniy antropologiya va evolyutsionizm tamoyillari asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan inson muammosiga nisbatan an'anaviy yondashuvga qaqshatqich zarba beriladi. Inson tabiati g'oyasidan insoniyat tarixida ko'plab adolatsizliklar va shafqatsizliklarni oqlash uchun foydalanilgani ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turli siyosiy, mafkuraviy va boshqa xil vositalar bilan «yangi inson»ni yaratish yo'lidagi ko'p sonli izlanishlar va vayronkor eksperimentlar inson buyum yoki o'zidan sirtidagi maqsadlarga erishish vositasi emasligini amalda namoyish qildi. Tabiat misli ko'rilmagan darajada ekspluatatsiya qilinayotgan hozirgi industrial jamiyatda inson tabiati haqidagi tasavvur, ayniqsa, murakkab tus oladi. Bunday jamiyatda (shakllanayotgan postindustrial sotsiumda) inson o'zini muayyan kuchlar qo'lida o'yinchoq his qiladi. Bularning barchasi insonning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ortishiga, inson tabiatiga bo'lgan e'tiborning kuchayishiga olib keladi. Shuning samarasi o'laroq, bugungi kunda insonni o'rganuvchi fanlar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, odam anatomiyasi chuqur o'rganilishi, jarrohlar mahorati yuksak darajaga ko'tarilishi natijasida insonning ayrim a'zolarini sun'iy yo'l bilan yaratish va ko'chirib o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Inson ruhiyati, ayniqsa, ruhiy va fiziologik holatlarning o'zaro aloqasi haqida ko'p sonli ma'lumotlar olindi. Individlarning ijtimoiy holatini o'rganish, shuningdek, ularning madaniy va tarixiy differentsiatsiyasini aniqlash borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Hayvonlar va inson xulq-atvoridagi o'xshash jihatlar va farqlar o'rganildi. Shunga qaramay hozirda mavjud bo'lgan ilmiy bilim inson haqida to'la-to'kis tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi, zero, individlarning ekzistensial va ma'naviy ehtiyojlarini qondira olmaydi. To'plangan bilim qarshisida insonning o'z tabiatini aniqlashga, o'z mavjudligining mazmunini anglab yetishga bo'lgan intilishi kuchaydi. Ayrim tadqiqotchilar inson hayotining mazmunini Koinot mavjudligining mazmuni bilan bog'lamoqdalar. Natijada insonni muayyan universum sifatida yoki butun Koinotni, uning barcha darajalarini o'zida aks ettirgan monada sifatida tasavvur qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalar vujudga kelayotir.

**Insonning korpuskulyar-to'lqinli tabiati.** Hozirgi zamon fani qo'lga kiritgan yutuqlar insonning ozmi-ko'pmi aniq obrazini yaratish, uning

tabiati haqidagi to'g'ri tasavvurga yaqinlashish uchun mistik va diniy tajriba natijalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ular quyidagi eski, biroq o'ta muhim masalalarga yangicha ko'z bilan qarash imkonini beradi: «Inson ongining tabiati qanday?», «Inson tabiatini tushunishda mistik va diniy tajriba qanday rol o'ynaydi?», «Bizga ma'lum bo'lgan Koinotda inson qanday o'rin egallaydi?». F. Kapra, J. Zukav, D. Postl, V. Tompson kabi olimlar o'z tadqiqotlarida hozirgi zamon fizikasi va sharq falsafasi o'rtasidagi yaqin aloqalarni o'rganib, yuqorida zikr etilgan savollarga javob topishga harakat qiladilar<sup>36</sup>. Masalan, F. Kapra sharq tafakkurining bir nechta yo'nalishlari ( hinduizm, buddizm, daosizm va dzen buddizm) bilan yangi fizikaning ajoyib kashfiyotlari o'rtasida muloqotni boshladi va samarali amalga oshirdi. Nomi zikr etilgan olimlarning har biri fizikadagi yangi kashfiyotlar Koinot tabiati va uning inson bilan munosabati to'g'risida xulosalar chiqarish imkoniyatini berishini, bu xulosalar Sharqning qadimgi falsafiy va diniy ta'limotlari bilan uyg'un ekanligini namoyish qiladi.

Ushbu tadqiqotlar hozirgi inson haqidagi mikrotasavvurga ko'rsatadigan ta'sir ularning chegarasidan chetga chiqadi. Buni F. Kapraning «Fizika daosi» kitobidan olingan quyidagi parcha ham tasdiqlaydi: «Hozirgi zamon fizikasi jamiyat hayotining deyarli barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sohasidan tashqari, bu ta'sir inson madaniyati va fikrlash uslubida, xususan, uning Koinot xususidagi qarashlari va unga bo'lgan munosabatining o'zgarishida ham seziladi. Masalan, subatom fizikasidagi materiya tushunchasi klassik fizikasidagi moddiy substansiya haqidagi odatdagi tasavvurlarga mutlaqo zid. Ayni shu gapni makon, zamon, sabab va oqibat tushunchalari haqida ham aytish mumkin. Nima bo'lganda ham, bizning dunyoqarashimiz zamirida ayni shu tushunchalar yotadi va ular butunlay qayta ko'rilgan taqdirda bizning dunyo haqidagi tasavvurimiz ham o'zgarib boshlaydi»<sup>37</sup>.

Inson o'z konseptual apparatini qayta ko'rishi lozimligi haqidagi bu tasavvurlar hozirgi zamon fani bilan Sharq va G'arbning qadimgi mistik va diniy haqiqatlari o'rtasidagi umumiy munosabatni o'rganish jarayonida yuzaga keluvchi g'oyalar bilan muvofiq keladi<sup>38</sup>. Makrodunyo hodisalari qobig'idan tashqaridagi universal borliqni namoyon etuvchi kvant nazariyasi insaytlari buning yorqin dalillaridan biri hisoblanadi. F. Kapra bu haqida shunday deb yozadi: «Kvant nazariyasi olamning fundamental yaxlitligidan dalolat beradi va biz dunyoni alohida «qurilish g'ishtlari»ga

<sup>36</sup> Qurang: Kapra F. Дао физики. – СПб., 1994; Zukav G. The dancing Wu Li masters. N.Y. 1979; Postle D. Fabric of the Univers. N.Y., 1976.

<sup>37</sup> Kapra F. Дао физики. – СПб(6), 1994. – 12-6.

<sup>38</sup> Qurang: Needleman J.A sense of cosmos. N.Y., 1965.



ajratishimiz mumkin emasligini namoyish qiladi. Moddani o'rganar ekanmiz, biz mustaqil tarkibiy elementlarni emas, balki yaxlit bir butun narsaning turli qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab tizimini kuzatishimiz mumkin. Kuzatuvchi inson kuzatish jarayonlari zanjirida oxirgi bo'g'in hisoblanadi. Atomlardan tarkib topgan voqelikni o'rganishda dunyo va shaxs, kuzatuvchi va kuzatilayotgan obyektning karteziyancha tasnifiga amal qilish o'rinli bo'lmaydi. Atom fizikasida tabiat haqidagi axborotni ma'lum qilish va ayni paytda undan chetda qolish mumkin emas»<sup>39</sup>. Demak, voqelikni kuzatish va ayni paytda uni o'zgartirish mumkin emas. Ma'lumki, Sharqning qadimgi mutafakkirlari kuzatuvchi va kuzatiluvchining fundamental yaxlitligini, inson tabiatini o'rganishi jarayonida uni o'zgartirishi muqarrar ekanligini, qayd etganlar.

Dunyo zamirida Geyzenbergning nomuayyanlik tamoyilida yotuvchi kvant nazariyasi doirasida tavsiflanganida barcha elementlar inson korpuskulyar-to'liqlik dualizmgga ega bo'ladi. Binobarin, insonning korpuskulyar-to'liqlik tabiati to'g'risida so'z yuritish mumkin, zero, inson Koinotdan alohida mavjud bo'lmaydi. Koinot esa insondan alohida mavjud bo'lmaydi. F. Kapra ushbu yagonalikni yana bir karra eslatadi: «Biz submikrodunyoga teran nazar tashlar ekanmiz, hozirgi zamon fizigi sharq mistigi kabi dunyoga bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi va tinimsiz harakat qiluvchi ajralmas elementlardan tarkib topgan tizim sifatida qarashi lozimligiga ishonch hosil qilamiz. Bunda kuzatuvchining o'zi ham mazkur tizimning ajralmas qismi hisoblanadi»<sup>40</sup>. Bu holda dunyo (Koinot) qarshimizda inson integral tarkibiy elementi hisoblanuvchi tizim sifatida gavdalanadi. Tabiat «to'liqlari» va «kvantlari»dan biz «kuzatuvchi» va uning «ongi» sari harakatlansak, «fizika psixologiyaning tarmog'iga aylanadi»<sup>41</sup>. Ushbu fikr zamirida bir qator fizikalar (A. Eddington, S. Sirag va boshqalar)ning tabiat poydevori aqlidir, degan g'oyasi yotadi.

Dekartning bir ko'nikkan inson obrazidan farqli o'laroq, insonning korpuskulyar-to'liqlik tabiati obrazi an'anaviy psixologiyada qo'llanilmaydi. Buning qadimda mashhur bo'lgan va hozirgi zamon fanida olingan ko'p sonli dalillari mavjud. Patanjali o'zining mashhur (taxminan miloddan avvalgi 200-yilda yaratilgan) «Yoga Sutra» asarida inson aqlidan o'tuvchi tafakkur to'liqlarining uzluksiz oqimi (hozirgi psixologlar uni aql «assotsiatsiyalari» oqimi deb ataydilar) muammosini muhokama qilgan edi. Sharq falsafiy tafakkuri kontekstida tafakkur to'liqlari inson ruhiyati

<sup>39</sup> Капра Ф. Дао физики. - СПб(6) 1994. - 60-с.

<sup>40</sup> O'sha joyda. - 20-b.

<sup>41</sup> Zukav G. The dancing. Vu Li masters. N.Y. 1979. - 56-p.

to'liqlari, ya'ni materiya va energiya kabi Koinot bilan uzviy «universal to'liqlar» hisoblanadi. Shuni qayd yetish lozimki, bu yerda gap ruhiyatning aniq mo'ljalli xususiyati haqida boradi: Sharq tafakkuri yo'nalishlarining aksariyatida meditatsiya yagona universumning aqlini «yagona cheksizlik»ka yoki ruhiyatning sof mo'ljaliga kiritish uchun konsepsiyani rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Darhaqiqat, Patanjalinig o'zi ham yogani «aqlida tafakkur to'liqlarini boshqarish» sifatida tavsiflaydi<sup>42</sup>.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, so'nggi yillarda inson individining «korpuskulyar-to'liqlik» tabiatini o'rganish bilan shug'ullanuvchi relyativistik kvant psixologiyasi vujudga kelgani tabiiy bir holdir. Ushbu psixologiya nazariyasiga ko'ra, inson xulq-atvori va tafakkuri (dunyoning laplascha klassik manzarasidagi kabi) oldindan aniq belgilanmaydi, balki ehtimoliy xususiyatga ega bo'lgan qonuniyatlarga bo'ysunadi. So'nggi zikr etilgan omil inson tabiatining «ruhiy», «to'liqlik» tomoni bilan bog'liq, ya'ni ehtimol tutilgan harakatga moyillik zamirida insonning «to'liqlar kuchi bilan yo'lga solinadigan mashq qilish qobiliyati»<sup>43</sup> (bu yerda gap meditatsiya amaliyoti haqida boradi - muallif) yotadi. Bu inson xulq-atvorini, unga to'liqlik tabiat xos ekanligini anglatadi. Ayni mumkin emasligini, unga to'liqlik tabiat xos ekanligini anglatadi. Ayni paytda inson tabiatining «to'liqlik» va «korpuskulyar» tomonlarini inobatga oluvchi relyativistik kvant psixologiyasi individni sof nisbiy atamalarda o'rganishi lozimligi nazarda tutiladi (xususan, erkak va ayolni ajratish, erkaklar va ayollar tafakkurini bir-biridan farqlash mumkin emas).

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari miya faoliyati kvant qonunlariga muvofiq amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bunday imkoniyat tahlili miyaning ongli faoliyati ikkinchi darajali xususiyatga ega ekanligi va odatdagi mantiqqa bo'ysunishidan, uning ongsiz faoliyati esa asosiy bo'lib, kvantcha mantiqqa amalga oshirilishidan dalolat beradi. Ongda tug'iladigan turli fikrlar va tasavvurlar miya faoliyatini aniq aks ettirmaydi. «Ong ishga tushganida xulosalar va qararlarda muayyan tartibsizlik yuzaga keladi va u kvant mexanikasi o'lchovlaridagi tartibsizlikni eslatadi»<sup>44</sup>.

E. Uoker miya ishining tahlili uchun kvant mexanikasi tamoyillaridan foydalanishga harakat qiladi. Miyadagi asosiy kvant-mexanik jarayonlardan biri sifatida u ta'sirlanishlarning sinapslar bo'ylab neyronning tayanch nuqtalariga o'tishini ajratadi. Sinapsning konkret fizik

<sup>42</sup> Qarang: The metaphors of Consciousness - N.Y., 1981. - 430-p.

<sup>43</sup> O'sha joyda. - 432-b.

<sup>44</sup> Электромагнитные поля в биосфере. Под ред. Красногорской. - Москва: 1984. Т. 2. - 175-176-с.



sharoitlarini o'rganar ekan, E. Uoker ta'sirlanishlarning sinapsga o'tishi kvant mexanikasining «tunnel effekti»ga o'xshash bo'lishi lozim, degan g'oyani ilgari suradi. U amalga oshirgan hisob-kitoblari ham mazkur gipoteza foydasiga guvohlik beradi<sup>45</sup>.

Ammo ayrim sinapslar faoliyatning bunday kvant-mexanik talqini yaxlit miya ishini tushuntirib bera olmaydi, u yoki bu sinaps ishi to'g'risida axborot uzatishni qaysi omil amalga oshiradi, degan savolga javob berish uchun imkoniyat yaratmaydi. Tadqiqotchi sinaptik uzatish tizimini boshqarishni ta'minlovchi informatsion ta'sirning fizik asosini topish yo'lida izlanish olib boradi. Uning tahlili sinapslarda turli xil axborot uzatishni ta'minlovchi ikkita jarayon mavjud bo'lishi lozim, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu jarayonlardan biri yaqin masofaga axborot uzatish bilan bog'liq. U sinaptik «tunnel effekti» ta'sirida yuz beradi. Ikkinchi jarayon o'z miyasi doirasida axborot uzatishni ta'minlaydi. E. Uoker inson ongli faoliyatining vujudga kelishi va yaxlit xususiyatini ayni shu boshqaruvchi omil bilan bog'laydi.

Sinapslar faoliyatini, ya'ni yaqin masofaga axborot uzatishni ta'minlovchi jarayonlar ancha aniq modellashirilgan. Boshqaruvning ikkinchi, yanada yuksakroq darajasi ishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan fizik jarayonlarga kelsak, E. Uoker ushbu daraja muammosini tunnel effektini uzoq masofalarga (taxminan 100 mm) modifikatsiyalash yo'li bilan yechishga harakat qiladi. Ushbu tasavvurga ko'ra, axborot uzatish uchun butun miya bo'ylab taqsimlangan, axborotni bir sinapsdan boshqasiga uzatishga xizmat qiladigan oraliq molekularlar (RNK)dan foydalaniladi. Miya ishini modellashirishga nisbatan bunday yondashuv E. Uokerga miyaning besh aniq parametrini hisoblash imkoniyatini beradi. Ushbu hisob-kitob natijalari eksperimental o'lchashlarning natijalari bilan muvofiq keladi. Ammo E. Uoker nazariyasi uning bosh maqsadi – ong modelini yaratish imkoniyatini bergani yo'q. U ong funksiyasini amalda kuzatish mumkin bo'lmagan va shu tufayli ham ongli faoliyatning fizik modelini yaratish uchun asos funksiyasini bajara olmaydigan ba'zi bir «yashirin parametrlar»ga yuklash bilan kifoyalandi. Amalda E. Uoker miyada yuz beruvchi ayrim biologik jarayonlar modelini yaratdi. E. Uoker modelini aniq tekshirish uning yordamida miya ba'zi bir parametrlarining holatini bashorat qilish mumkinligini aniqlash imkonini berdi. Bu miyada kvant-mexanik jarayonlar yuz berishidan va inson tabiati tahliliga to'liqinli yondashuv real asosga ega ekanligidan dalolat beradi.

Biologik obyektlarni o'rganishning radioelektron metodlari qo'llaniladigan laboratoriyalarda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar

<sup>45</sup> Qiziq: Walker H. The nature of Consciousness // Mathematical bio-sciences. – N.Y., 1970. – 131-178-6.

ham insonning korpuskulyar-to'liqinli tabiatiga ishora qiladi. Ushbu tadqiqotlarning natijalari har qanday biologik obyekt atrofiga, uning hayot faoliyati ta'sirida, biologik tizim haqida axborot beruvchi fizik maydonlarning murakkab manzarasi hosil bo'lishini ko'rsatadi. Bunday maydonlar sakkiz xil bo'ladi:

- elektromagnit to'liqlarning infraqizil diapazonida issiqlik tarqalishi, atmosferaning «shaffoflik darchasi» orqali uning o'tishi;
- ichki a'zolarning temperaturasi va vaqt ritmlari haqida axborot beruvchi radioissiqlik tarqalishi;
- tebranishlar chastotasi sekundiga noldan mingtagacha bo'lgan tana hujayralari bilan to'siladigan past chastotali elektr maydonlar;
- ayni shu chastotalardagi magnit maydonlar, ulardan miya faoliyatini o'rganish uchun foydalaniladi;
- ichki a'zolar, mushaklar va hokazolar infratovush diapazonida faoliyat ko'rsatganida paydo bo'luvchi akustik signallar;
- molekularlar va hujayralar darajasida mavjud manbalar bilan bog'liq bo'lgan yuqori chastotali shovqinsimon akustik signallar;
- organizmdagi biokimyoviy reaksiyalar ta'sirida elektromagnit to'liqlar optik spektrining yaqin infraqizil va yaqin ultrabinafsha diapazonlarida paydo bo'luvchi bioluminessensiya signallari;
- inson harakatlanganida uni qurshagan muhit va organizm o'rtasida moddalar almashinuvi ta'sirida yuz beruvchi mazkur muhit tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi.

Jismdan tashqaridagi bu va boshqa maydonlarning barchasi sezilarli darajada nostatsionaldir. Ular insonning psixofiziologik holatlariga qarab tez o'zgaradi. Ushbu maydonlarni o'rganishda organizm o'z-o'zini boshqarishi hamda biologik, geofizik va boshqacha xususiyatga ega bo'lgan tashqi ta'sirlar bilan hisoblashish talab etiladi. Bularning barchasi individ-shaxs fizik tuzilishi, uning tabiiy xossalari va fundamental asoslarini namoyish etadi.

Shunday qilib, inson (boshqa har qanday biologik tizim kabi) korpuskulyar-to'liqinli tabiatga ega. U ikki qismdan, aniqroq aytganda, atom-molekulyar strukturani o'zida ifodalovchi anatomo-geometrik komponent va (hech bo'lmasa nazariy darajada) butun Koinot bo'ylab tarqalgan maydonlardan iborat. Ushbu tasavvur insonning to'liqinli xususiyatiga yangicha ko'z bilan qarash imkoniyatini beradi. Insonning korpuskulyar-to'liqinli tabiati inson joni haqidagi tasavvurlar tarixiga butunlay yangicha nuqtai nazar bilan yondashish insonni hamisha tashvishga solib kelgan, insonning kosmik mezoniga qarab mo'ljal oluvchi



din va fandan uyg'un o'rin olgan o'lim va umrboqiylik muammosining yangicha talqinini ilgari surish uchun imkoniyat yaratadi.

«Gomo kosmik nazariyasi». XXI asr boshida inson fenomenini «Men va Koinot» fundamental ijtimoiy va axloqiy muammosi kontekstidan tashqarida tushunish mumkin emas. Ayni hol davrimizning olamshumul muammolarini yechish zaruriyati hamda inson mavjudligining deyarli barcha sohalarni qamrab olgan kosmizatsiya jarayoni bilan bog'liq. Yuqorida zikr etilgan muammoning dolzarb tus olishida atoqli rus olimi K.Siolkovskiyning «kosmik falsafasi» ham ulkan rol o'ynaydi. Uning ilmiy merosi fan-texnika taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlaridan birining nazariy poydevori hisoblanadi va ayni paytda kosmosni o'zlashtirishning bir qator ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va dunyoqarashga doir muammolarini ko'taradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, olim o'z asarlarida Nyutoncha mexanika chegarasidan chetga chiqmasdan, ularda ulkan ijodiy imkoniyatlarni mujassamlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Buni falsafaning «abadiy» muammolariga nisbatan K. Siolkovskiyning noan'anaviy yondashuvi bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak. Ushbu yondashuv K.Siolkovskiyga g'oyalarni texnikada gavdalanirishning samarali usullarini kashf qilish imkonini beradi. Shu ma'noda ba'zi bir olimlarning K. Siolkovskiy «kosmik falsafasi» hozirgi ilmiy tasavvurlar bilan muvofiq kelmaydi<sup>46</sup>, degan fikriga qo'shilish mushkul. Dunyoning ilmiy manzarasi o'zgarishi mumkin va lozim (bu ilmiy izlanish tabiatiga xos), bizni esa K.Siolkovskiy «kosmik falsafasi»ning evristik imkoniyatlari qiziqtiradi.

Eng yangi fanda insonning Koinotdagi o'rini yorituvchi va kosmosda hayot va aqlning turli shakllari mavjudligi haqidagi farazlarga muayyan munosabatni aks ettiruvchi antrop kosmologik tamoyildan foydalaniladi. Bu tamoyilni K.Siolkovskiy kosmobiolog A. Chijevskiy bilan suhbatda ilgari surgan. Taniqli fizik olimlar S. Xoking va J. Uiler Koinotni «loyihalash»da insonning roli haqidagi o'z mulohazalari uchun tayanch nuqtasi sifatida aynan antrop kosmologik tamoyilni tanlaydilar (ushbu mulohazalar Koinot va insoniyatning rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilishda yaxshi samara beradi). O'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimlarning (Koinot shunday tizimlarga kiradi) xususiyati shu bilan belgilanadiki, ularda vujudga keluvchi yangi strukturaviy darajalar o'zidan oldingi darajalarni boshqara boshlaydi, ikki tomonlama aloqa tamoyiliga muvofiq ularni faol o'zgartiradi. Binobarin, kosmik sivilizatsiyalar (K. Siolkovskiy ta'biri bilan aytganda «yangi kosmik odam») o'z amaliy faoliyatida

<sup>46</sup> Qiziq: Семёнов Г.С. Вступительная статья «Русский космизм» // Русский космизм. Антология философской мысли. - Москва: 1992. - 28-с.

Koinotning u yoki bu xossalarini «loyihalash»da o'z maqsadlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib ishtirok etishi mumkin. Tabiiyki, bu taxminlar qay darajada to'g'ri ekanligini faqat kelajak ko'rsatadi.

Shuni qayd etish lozimki, K. Siolkovskiyning «kosmik falsafasi»ga asoslangan prognozlar hozirgi zamon odamining ma'naviy dunyosiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, uning tafakkuri va xulq-atvorini yo'lga soladi. Barcha kosmik dasturlar zamirida K. Siolkovskiyning raket texnikasiga doir asarlari yotadi, ammo bu asarlar falsafiy-axloqiy dasturda bayon etilgan falsafiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish yo'llarini topishga xizmat qiladi. Ushbu dastur tarkibidan K. Siolkovskiyning quyidagi asosiy falsafiy muammolarga doir mulohazalari o'rin olgan: kosmosning kosmik sivilizatsiyalar mavjudlik sohasi, ularning bilish faoliyati va amaliyot maydoni sifatidagi «mazmuni», insonning kosmosdagi o'rini to'g'risida, tarix va inson hayotining mazmuni va maqsadlari, baxtli kelajakni yaratish yo'llari, inson axloqining mazmuni va asoslari to'g'risida.

K. Siolkovskiy konsepsiyasining o'ziga xos jihati kosmosga qarab mo'ljal olishidir, unga ko'ra: «Insoniyat taqdiri Koinot taqdiri bilan bog'liq. Shu sababli har bir aqlli jonot Koinot tarixi bilan hamnafas bo'lishi lozim. Bunday keng dunyoqarash boshi berk ko'chaga olib kirishi mumkin»<sup>47</sup>. Ushbu nuqtai nazar XIX va XX asrlar chegarasida jahon falsafiy tafakkurida ilgari surilgan edi (bunda A. Umovning insoniyat - kosmosdagi negaentropiya omili degan tavsifi yoki V. Vernadskiyning noosfera to'g'risidagi ta'limoti misol bo'lishi mumkin). Ammo eng mukammal va har tomonlama ishlab chiqilgan «kosmik falsafa» tizimini aynan K. Siolkovskiy yaratgan. Mazkur falsafadan insonning bevosita kosmik faoliyati davrida paydo bo'lgan bir qator g'oyalar, muammolar va konsepsiyalarni yechishda foydalanilishi mumkin.

K. Siolkovskiy dunyoni tabiiy va g'ayritabiiy sohalarga ajratishga asoslangan har qanday diniy tasavvurlarga qarshi chiquvchi monistik dunyoqarashni qo'llab-quvvatlaydi. U «kosmik falsafa» fundamental qoidalarining dunyoviy xususiyatiga urg'u beradi: «Men - sof materialistman, materiyadan boshqa hech narsani tan olmayman»<sup>48</sup>. Darhaqiqat, K. Siolkovskiy Koinotda mavjud bitta substansiya va bitta kuch - materiyani tan olgan. «Ushbu sintez va tahlil hodisalari ta'sirida materiyaning abadiy aylanma harakati yuz beradi»<sup>49</sup>. K. Siolkovskiy kosmosni cheksiz va murakkab mexanizm deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, fizika, kimyo va biologiya mohiyat e'tibori bilan mexanikani o'zida

<sup>47</sup> Циолковский К.Э. Необходимость космической точки зрения. 193.

<sup>48</sup> Циолковский К.Э. Монизм Вселенной // Русский космизм. Антология философской мысли. - Москва: 1992. - 264-с.

<sup>49</sup> Циолковский К.Э. Научная этика. - Калуга: 1930. - 15-с.



ifodalaydi. Biroq Siolkovskiyning tasavvurlarini so'zma-so'z tushunish va sof mexanistik ruhda talqin qilish yaramaydi. Gap shundaki, uning falsafasi ba'zi hollarda uncha aniq ifodalanmagan ko'p sonli g'oyalar va takliflarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga, K. Siolkovskiy Koinotning «mazmuni» nimada, degan savolga javobning yo'qligini eski, mexanistik materializmning kamchiligi deb hisoblaydi va uni ba'zan panpsixizm, gilozoizm va buddizm g'oyalari yordamida bartaraf etishga harakat qiladi. Uning ayrim asarlarida teosofik va hatto mistik xususiyatga ega bo'lgan fikr-mulohazalarga ham duch kelish mumkin. Xullas, K. Siolkovskiyning «kosmik falsafasi» o'ta murakkab va ziddiyatlarga to'la ta'limotdir.

Inson va kosmosning yagonaligi g'oyasi K. Siolkovskiy konsepsiyasining o'zagini tashkil qiladi. Uning o'ziga xosligi shu bilan belgilanadiki, olim inson va kosmosning yagonaligi haqida gapirar ekan, har doim ushbu g'oyaning ijtimoiy-axloqiy va gumanistik jihatlarini nazarda tutadi. Mazkur g'oyani falsafiy darajaga ko'tarar ekan, K. Siolkovskiy hayot va aql moddiy dunyoning fundamental atributlarini o'zida ifodalaydi deb hisoblaydi. Uning fikricha, kosmik evolyutsiya jarayonlari ijtimoiy aqlli jonzotlarning turli darajada, mukammal ko'rinishda paydo bo'lishini taqozo qilgan. Ijtimoiy organizmlarning cheksiz jarayoni jamiyatning har bir a'zosi umrini sezilarli darajada uzaytirish imkoniyati bilan belgilanadi: u tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada uzoq bo'lishi mumkin<sup>50</sup>.

Inson va kosmosning yagonaligi g'oyasining muhim jihati K. Siolkovskiyning kosmosning «sababi» va «mazmuni» to'g'risidagi mulohazalarida namoyon bo'ladi. «Dunyo har doim mavjud bo'lgan, mavjud va bundan buyon ham mavjud bo'ladi desak va bundan uyog'iga o'tishni istamasak, nima uchun hamma narsa aynan shunday ko'rinishda namoyon bo'ladi, nima uchun tabiatning aynan shunday qonunlari mavjud, degan savollardan qochib qutula olmaymiz... Buning biron-bir sababi bo'lishi kerak, umuman dunyoning ham o'z sababi bo'lishi lozim»<sup>51</sup>. Garchi K. Siolkovskiy o'zining ilk asarlarida ushbu birinchi sababni Xudo bilan mujassamlashtirgan bo'lsa-da, keyinchalik mazkur muammoni u butunlay boshqacha talqin qilgan, aniqroq aytganda, «kosmosning yaratilishi» g'oyasidan butunlay voz kechgan va birinchi sababni panteizm ruhida tushungan.

K. Siolkovskiy nima uchun dunyo aynan shunday, degan savolga quyidagicha javob beradi: *hamonki insonning mavjudligi tasodifiy emas,*

<sup>50</sup> Qarang: Циолковский К.Э. Космическая философия // Русский космизм: Антология философской мысли. - Москва: 1992. - 238-6.

<sup>51</sup> Циолковский К.Э. Этика и нравственные основы правленности. - Москва: Наука, 1902—1903, 93-6.

*balki kosmos bilan uzviy ekan, biz biladigan bu kosmos boshqacha bo'lishi mumkin emas*<sup>52</sup>. Umuman olganda bu tezis yuqorida aytib o'tilgan antrop kosmologik tamoyilning mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda K. Siolkovskiy hayot va aqlning boshqacha shakllarini yaratishga qodir bo'lgan o'zga «dunyolar» mavjudligi ham ehtimoldan holi emas deb hisoblaydi. Uning fikricha, bunday dunyolarga ham, agar ular mavjud bo'lsa, o'z kosmosi bilan uzviylik xosdir. K. Siolkovskiy kosmosning «ma'nosi» to'g'risida mulohaza yuritir ekan, agar Koinot organik, aqlli va his qiluvchi jonzotlarga to'la bo'lmasa, u qanday ma'noga ega bo'lar edi degan savolni o'rtaga tashlaydi va unga o'zi bu «ma'no» kosmosning strukturasi va unda yuz berayotgan evolyutsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan o'ta rivojlangan sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi<sup>53</sup> deb javob beradi.

Inson va kosmosning yagonaligi muammosining boshqa bir muhim jihatini K. Siolkovskiy o'zining evolyutsion g'oyalari bilan bog'laydi. Uning fikricha, moddiy Koinotning tadrijiy rivojlanuvchi obyektlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan atomlardan iboratdir. Bir tomondan atom cheksiz kichik moddiy zarrani o'zida ifodalaydi, boshqa tomondan esa – sezish qobiliyatiga ega bo'ladi: «Materiyaning har qanday atomi o'zini qurshagan muhitga mos ravishda sezadi. Yuksak darajada uyushgan mavjudotlardan o'rin olar ekan, u ayni shu mavjudotlar hayoti bilan yashaydi, yoqimli va yoqimsiz narsalarni his qiladi, noorganik dunyoga tushib qolganda esa u go'yo uyquda, hushsizlik holatida, yo'qlikda bo'ladi»<sup>54</sup>. Umuman olganda *butun Koinot jonli struktura hisoblanadi va shu bois u hissiy idrok yetish qobiliyatiga egadir.*

Evolyutsiya jarayonida materiya insonni yaratar ekan bundan o'z rivojlanish jarayonining yuksak darajasiga ko'tarilishnigina emas, balki inson yordamida o'zini o'zi anglab yetishni ham ko'zlaydi. Koinot o'z maqsadiga erishish – fikrlash va sezish qobiliyatlari cheksiz bo'lgan insonni yaratish yo'lida izchil harakat qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun tabiat moddaning molekulyar strukturasi o'zining ulkan imkoniyatlarini ishga soladi. Bir necha milliard yil davom etgan bu jarayon aqlni lol qoldiradigan qobiliyatlari son-sanoqsiz hujayralar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan inson miyasi paydo bo'lishi bilan tugaydi. Nega, nima uchun qabilidagi savollarni berish inson miyasining eng g'aroyib qobiliyatlaridan biri hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, inson shakl-

<sup>52</sup> Циолковский К.Э. Простые мысли о вечности материи и чувства. - Москва: 1933. - 13-с.

<sup>53</sup> Qarang: Уреул А.Д., Школенко Ю.А. Социально-философские проблемы освоения космоса // Философия, естествознание, современность. - Москва: 1982. - 23-с.

<sup>54</sup> Циолковский К.Э. Монизм Вселенной // Русский космизм: Антология философской мысли. - Москва: 1992. - 266-с.



shamoyilidagi materiya o'z mavjudligining ma'no va mazmuni to'g'risidagi savolni o'rtaga tashlaydi va unga javob olishga harakat qiladi. Dunyo haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish uchun inson faylasuflar, yozuvchilar, shoirilar, rassomlar, olimlar, kohinlar, ilohiyotchilar va boshqalarning asarlarini o'z ichiga olgan bilimlarni jamlagach, u evolyutsiya jarayonining kosmik bosqichiga qadam qo'yadi.

K. Siolkovskiy fikriga ko'ra insonning kosmosda borlig'i to'rt asosiy bosqichdan o'tadi:

- yaqin orada boshlanadigan va bir necha milliard yilga cho'ziladigan **tug'ilish bosqichidan**,

- insoniyat butun kosmos bo'ylab tarqalib, undan qo'nim topadigan **shakllanish bosqichidan**. Bu bosqich bir necha yuz milliard yil davom etadi;

- **insoniyatning tanazzul bosqichidan**. Ushbu bosqich ham bir necha yuz milliard yil davom etadi;

- bir necha o'n milliard yil davom etadigan **terminal bosqichdan**. Bu davrda insoniyat «nima uchun» degan savolga javob topadi va mavjudlikning moddiy, korpuskulyar shaklidan borliqning to'liqini – «nursimon» shakliga o'tadi.

Oradan juda ko'p milliard yillar o'tgach, nursimon kosmos bosqichi o'rni avvalgidan yuksakroq darajadagi korpuskulyar kosmos davri egallaydi va yana o'sha sikl boshlanadi: tumanliklar, yulduzlar va sayyoralar vujudga keladi, evolyutsiya jarayonida kosmos aylanma harakatining oldingi siklidagidan ham barkamolroq inson paydo bo'ladi. Yuksak darajadagi bosqichlarning barchasidan o'tgach, insoniyat tag'in yanada yuksakroq darajadagi nursimon holatga o'tadi. Ushbu kosmik sikllarning almashuvi hamma narsani biladigan «o'ta yangi» inson paydo bo'lgunga qadar davom etadi. Natijada kosmos buyuk barkamollikni o'zida ifodalaydi va «gomo kosmik» Koinot bilan bir jon-u bir tan bo'lib birikadi.

Axloq muammosi K. Siolkovskiy falsafiy izlanishlarining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bunda u dunyoviy axloqni kosmik axloq darajasiga ko'taradi, zero, dunyoviy axloq tamoyillari va qoidalari uning ta'limotida umumkosmik ahamiyat kasb etadi.<sup>55</sup> K. Siolkovskiy ilgari surgan kosmik axloq tizimi baxt-sodat va barkamollikka intilish Koinotda yashovchi barcha jonzotlarning asosiy va uzviy xususiyati hisoblanishidan kelib chiqadi. Uning oqilona g'oyalari kosmik faoliyat sharoitida insonlararo munosabatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni qayd yetish lozimki, bunday kosmik axloq abstrakt xususiyatga ega emas, u

<sup>55</sup> Цюльковский К.Э. Органический мир Вселенной // Собр. соч. Т. 4. Москва. – 93-с.

madaniyatning kosmos darajasiga ko'tarilishi jarayoniga o'z hissasini qo'shadi. Bunga yana shuni ham qo'shimcha qilish lozimki, K.Siolkovskiyning barcha insoniy aqllar va irodalarning yagona faol va qudratli aqlga birikuviga haqidagi fikri keyinchalik fransuz paleontologi va teologi Teyyar de Sharden yaratgan ayrim individlar ongining kollektiv aql – Omega nuqtasiga birikuviga to'g'risidagi ta'limotga asos bo'ladi.

**Teyyar esxatologiyasi.** Teyyar de Sharden inson mavjudligining kosmik darajasini talqin qilishda boshqacha falsafiy nuqtai nazarga tayanadi. O'z qarashlarini u «Inson fenomeni» kitobida atroflicha bayon qilgan. Bu kitobda inson mavjudligining mazmuni va maqsadi to'g'risidagi abadiy savolga o'ziga xos javob berilgan: *inson «evolyutsiya o'qi va cho'qqisi sifatida butun materiyaga azaldan xos bo'lgan imkoniyatlarni namoyon etadi, ya'ni inson kosmosning barcha imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab, keng «mikrokosmos»dir.* Inson evolyutsiya jarayonini teran anglab yetish va uning ildizlaridagi ijodiy kuchlarni ko'rishga qodir. Bu kuchlar ixcham ko'rinishda bo'ladi va kosmik evolyutsiya jarayonida asta-sekin atrofga tarqaladi. Natijada bu evolyutsiya inson ko'rinishida o'zining kritik nuqtasiga yetadi va konvergensiya jarayoni boshlanadi, ya'ni Koinot oliy sintez – Omega nuqtasiga qarab izchil harakatlanadi. Rivojlanishning mazkur sxemasi – yagonalik, differentsiatsiya va sintez Gegel tomonidan ta'riflangan va V. Solovyov tomonidan ochib berilgan edi.<sup>56</sup> Biroq Teyyar bu sxemaga biologik tus beradi, zero, tabiatshunoslik uni amalda tasdiqlaydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Teyyar sxemasida dunyoning birinchi asosi muammosi deyarli mavjud emas. Buni Teyyar faqat «fenomenal» gipotezalar tahlili bilan cheklanishga harakat qilgani bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak. U materializm bilan ham, spiritualizm bilan ham kelishmaydi va ularni birlashtirishni lozim deb topadi. «Spiritualistlar inson qolgan tabiatga nisbatan ma'lum darajada transsendentdir deganda mutlaqo haq edilar. Biroq materialistlarning inson – tirik jonzotlar qatoridagi a'zoldan biri degan fikri ham mutlaqo to'g'ri. Bu yerda ikki tezis o'rtasidagi ziddiyat rivojlanish jarayonida o'z yechimini topadi. Bu jarayonda mutlaqo tabiiy hodisa – «holatning o'zgarishi» birinchi darajali ahamiyat kasb etadi»<sup>57</sup>.

Darhaqiqat, Teyyar ilgari surgan materiya haqidagi gipoteza materialist tomonidan ham, spiritualist tomonidan ham qabul qilinishi mumkin. Teyyar o'z tadqiqotida pansixik ta'riflardan ham, evolyutsiya

<sup>56</sup> Qizilg'ul: Соловьев В.С. Философские начала цельного знания // Собр. соч. – СПб. 1911, Т. 1. – 250-406-с.

<sup>57</sup> Qizilg'ul: Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – Москва. 1987. – 139-с.



jarayonining empirik omillari to'plamidan ham foydalanadi. U sayyoramizda ilk biologik strukturalardan spontan shakllanish natijasida paydo bo'lgan hayot va inson kosmik jarayonlar, materiyaning murakkablashuvi bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Teyyar «ichki» dunyoga ega bo'lgan insonni tadqiqotning tayanch nuqtasi sifatida oladi va shunga o'xshash «ichki» tomon hayvonlar, o'simliklar va jonsiz tabiatda ham bo'lsa kerak degan izchil xulosaga keladi. «Ichki» dunyoning asosi sifatida Teyyar materiyaning murakkablashuviga zamin yaratuvchi «radial energiya» haqidagi tasavvurni tanlaydi. Bu yerda u ilmiy bilimning rivojlanishini belgilovchi muhim omilni qayd etadi – endilikda materiyaga xos bo'lgan rivojlanish va murakkablashishga moyillik haqidagi gipoteza ko'pgina ilmiy konsepsiyalarga asos bo'lgan faktga aylangan. Teyyar bu moyillikni dunyo genezisi haqidagi xristiancha tasavvur nuqtai nazaridan talqin qiladi. U ilohiy ijodiy kuch bilan yaqinlashadi.

Kosmosning evolyutsiyasi zamirida aynan «radial energiya» yotadi. Shundan kelib chiqib Teyyar jonsiz materiya bosqichini «ilk hayot» deb ataydi. U dunyoning kelib chiqishi muammosi bilan shug'ullanmasa-da, katta portlash va kengayib borayotgan Koinot nazariyasini qabul qiladi. Uning fikricha, katta portlash elementar materiyaning barqaror birliklari hosil bo'lishiga olib keladi. «Ilk hayot», yashirin, «radial» energiya dunyoni murakkablashish yo'lidan harakatlantiradi, ya'ni evolyutsiya tirik organizmlar paydo bo'lishi va rivojlanishidan ancha oldin boshlanadi. Universum hujayrasi ichki (ruhiy) va tashqi (moddiy) omillarni o'zida muvofiqlashtiradi, u elementlarning bir-biriga tabiiy o'tishini, aloqalarning jonli tizimini o'zida ifodalaydi.

Universumning bu hujayrasi tinimsiz evolyusion harakatda bo'ladi va natijada inson vujudga keladi. U dunyoviy hayot evolyutsiyasida yuz bergan sakrash, muttasil evolyusion rivojlanish jarayonining cho'qqisi va ayni paytda muayyan yo'nalishdagi evolyutsiya jarayonining ibtidosi hisoblanadi. Evolyutsiya jarayoni Omega nuqtasi – dunyoviy ong, dunyoning ma'naviy o'zagi sari tinimsiz intiladi. Ushbu jarayon kosmik ekspansiyada emas, balki bizning sayyoramiz doirasida yuz beradi. Biz uchun muhimi shundaki, bu yerda Teyyar hozirgi zamon fanida yaratilgan dunyo manzarasida inson o'zining munosib o'rnini hanzugacha egallamaganiga e'tiborni qaratadi. Koinot haqidagi fan – kosmologiya insonni o'rganmaydi, mavjud inson haqidagi fanlar esa tabiatshunoslikda ikkinchi darajali ahamiyatga ega: inson mavjudligini ham o'z ichiga oluvchi kosmologiya yo'q. «Sof pozitivistik nuqtai nazardan inson – fanning eng sirli va tadqiqotchilarni chalg'ituvchi obyekt. Darhaqiqat, universumning fanda yaratilgan manzaralarida insonga o'rin ajratilmagan.

Fizika atom dunyosining shakl-shamoyilini chizishga, biologiya hayot konstruksiyalarida muayyan tartib o'rnatishga muvaffaq bo'lgan. Fizika va biologiyaga tayangan holda antropologiya o'z navbatida inson tanasining strukturasini va uning fiziologiyasi ba'zi bir mexanizmlarini tushuntirishga harakat qiladi. Ammo bu chizgilarning barchasi birlashtirilganida hosil bo'ladigan manzara voqelik bilan muvofiq kelmaydi»<sup>58</sup>

Teyyar fikriga ko'ra Koinotning shakllanayotgan, yangilanayotgan manzarasini xristiancha dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. O'z-o'zidan ravshanki, dunyoning shakllanayotgan bu manzarasi insonni o'z ichiga olishi lozim. Natijada kosmik ko'larga ko'nika boshlagan tafakkur inson (insoniyat) rivojlanishining butunlay boshqacha obrazini kashf etadi. Ushbu obraz esxatologiya ruhi bilan sug'orilgan. Bu haqida Teyyar shunday deb yozadi: «Hozirgi zamon antropologiyasiga muvofiq odamzot bir yerda jamlangan elementlarning statik majmuini o'zida ifodalamaydi, balki global rivojlanish qonuniga bo'ysunadigan qudratli organizmni hosil qiladi. Butun tiriklik kabi inson ham individ sifatidagina emas, balki tur sifatida ham vujudga kelgan. Binobarin, uning individual siklidan tashqari tur sifatidagi siklini ham tan olish va o'rganish o'rinli bo'ladi.

Olimlar bu oliy siklning alohida tabiati to'g'risidagi masala yuzasidan hali bir to'xtamga kelganlari yo'q. Biroq insoniyatda hozir yuz berayotgan biologik jarayonning eng muhim mazmuni kollektiv insoniy ongning izchil shakllanishi bilan belgilanadi desak aslo adashmaymiz. Biokimyoviy darajada hayotning umumiy fenomeni molekulyar jihatdan o'ta murakkab birikmalarning izchil shakllanishi bilan bog'lanmoqda. O'zining jonli qismi bilan Koinot o'ta murakkablik qudratli ong tomonga bir paytning o'zida va bir maromda harakatlanmoqda»<sup>59</sup>. Bu yerda Teyyar esxatologiyasining mazmuni namoyon bo'ladi - qudratli ong aslida individlar ongini umumlashtiruvchi va ayni paytda ko'p sonli insoniy elementlar ongining individualligini saqlab qoluvchi Omega nuqtasidir.

Teyyar fikriga ko'ra Omega (planetar ong, noosfera) ongning boshqa o'choqlari boshqa Omegalar bilan aloqa o'rnatadi. Bir qancha noosferalarning uchrashuvi va boyishi yuz beradi, pirovardida planetar onglar sintezi amalga oshadi. «Noogenez istiqbollari vaqt va makon amalda insoniylashadi, aniqroq aytganda, o'ta qudratli inson shakl-shamoyilini kasb etadi, - deb yozadi Teyyar. - Universum va shaxs bir-

<sup>58</sup> Teyyar de Шарден П. Феномен человека. - Москва: 1987. - 135-с.

<sup>59</sup> Teyyar de Шарден П. Божественная среда. - Москва: 1992. - 185-186-с.



birini aslo istisno qilmagan holda ayni bir yo'nalishda rivojlanadi va bir paytning o'zida bir-birida kulminatsiyaga erishadi»<sup>60</sup>

Shunday qilib, kelajakda universum Omega nuqtasida o'ta qudratli insonga aylanadi va insoniyat Koinotni boshqarish rulini o'z qo'lga oladi.

#### X. Ortega-i-Gasset taklif qilgan insonning kreativistik modeli.

X. Ortega-i-Gasset falsafasining diqqat markazida turuvchi va XXI asr boshida inson fenomenini tushunishga muayyan hissa qo'shuvchi insonning kreativistik modeli ham diqqatga sazovordir. Inson bilimi muqarrar tarzda seleksiya bilan bog'lanadi. Bunda olinadigan voqelik obrazi har doim soddallashtirilgan va deformatsiyalangan ko'rinishda bo'ladi. Biroq (bilish faoliyati natijalarining eksplikativ-prognostik samaradorligi mezoni nuqtai nazaridan) foydali deformatsiyalar ham mavjud, zero, ular o'rganilayotgan obyektning tasodifiy va ahamiyatsiz jihatlarini mavhumlashtirish orqali uning eng muhim xususiyatlarini ajratish imkoniyatini beradi. X. Ortega-i-Gasset taklif qilgan inson modeli ana shunday foydali deformatsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu model hozirgi davrning asosiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan X. Ortega-i-Gasset falsafasida markaziy o'rinni egallaydi. Buni ispan mutafakkiri ishlatgan terminologiya ham tasdiqlaydi: hayot («inson hayoti» ma'nosida) takror va takror «radikal voqelik» deb ataladi, bu yerda «radikal» so'zi fundamental, tamoyil, tub, o'zak degan ma'noni anglatadi<sup>61</sup>. Inson va uning hayoti X. Ortega-i-Gasset falsafa tizimining poydevori hisoblanadi. Bu falsafada hamma narsaga insonning bo'lgan munosabati nuqtai nazaridan yondashiladi.

X. Ortega-i-Gasset modelining fundamental qoidalaridan biri quyidagicha yangraydi: «Men o'z dunyom bilan birga va o'z dunyomda yashayman»<sup>62</sup>. Xo'sh, bu qisqacha ta'rif nimani anglatadi? Inson o'zi yashayotgan muhit (dunyo) bilan uzviy hisoblanadi: inson shaxsi, uning o'zligida uni qurshagan voqelik mujassamlashadi. Falsafiy an'ana «inson kim?»- degan savolga javob berish yo'lidagi ko'p sonli urinishlarga boy. X. Ortega-i-Gasset fikriga ko'ra ularning barchasi umumiy jihatga ega: inson – subyektini uni qurshagan dunyo bilan qarama-qarshi qo'yadi. Biroq (o'z vaqtida Dekart taklif qilgan) bunday ajratishda tamoyilial anglashilmovchilik mavjud. Sub'ektini obyektidan ajratish ontologik jihatdan ham, metodologik jihatdan ham mumkin emas. Bu yo'ldagi urinishlar inson xususiyati yo'qolishiga olib keladi. Inson jism ham (jism – bu eng avvalo obyekt), ruhiyat yoki ong ham (ular faqat inson organizmi

<sup>60</sup> Тойлер де Шарден П. Феномен человека. – Москва: 1987. – 205-с.

<sup>61</sup> Ortega y Gasset J. Historia como sistema // Obras Completas Revista de Occidente. T. VI. Madrid., 1947-1969. VI.

<sup>62</sup> Ortega-i-Gasset X. Что такое философия? – Москва: 1991. – 161-с.

muayyan strukturasiining faoliyat usuli hisoblanadi), jon yoki ruh ham (agar ular Platon g'oyalari ruhida mavjud bo'lsa, obyektlar «predmetlar» hisoblanadi) emas. Insonning an'anaviy obraziga kiruvchi bu elementlarning barchasi insonga o'z borlig'ini amalga oshirish, ya'ni yashash imkoniyatini beruvchi vositalarni o'zida ifodalaydi. Biroq kiyim-kechak, oziq-ovqat, turar-joy, texnika, madaniyat va sivilizatsiyaning barcha yutuqlari hamda har bir inson hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi va uni shakllantiruvchi son-sanoqsiz omillar ham ayni shunday vositalar hisoblanadi. Hayot kosmik fenomenining (xuddi shuningdek, konkret shakldagi har bir inson individi hayotining) mavjudligi uchun zarur bo'lgan ushbu omillar majmuini X. Ortega-i-Gasset dunyo yoki muhit deb ataydi. Inson o'zligi va u yashayotgan muhitning o'zaro aloqasi shaxsning muhit bilan, hayotning – yashash sharoitlari bilan, insonning – u yashayotgan dunyo bilan uzviyligidan dalolat beradi. Natijada antropotsentrizm tamoyili bilan bir qatorda munosabatlar ontologiyasi ham shakllanadi. Unda inson hayotining subyektini faqat o'zini qurshagan dunyo bilan munosabatlar ta'sirida mavjud bo'ladi. Ayni paytda individ faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ierarxiyasi ham farqlanadi. Inson va uning muhiti o'rtasidagi o'zaro aloqa to'g'risida X. Ortega-i-Gasset yaratgan perspektivizm nazariyasida gap beradi<sup>63</sup>. Ushbu nazariyaga muvofiq bilayotgan subyekt real dunyo bilan uchrashar ekan, o'z faoliyati bilan o'zini qurshagan muhitni serdaraja, konsentrik struktura sifatida tashkillashtiradi. Ushbu strukturaning birinchi darajasi insonga bevosita ta'sir ko'rsatadi, uning ortida esa voqelikning inson nazari tushmagan qatlamlari yotadi. Shu tariqa inson o'zini qurshagan dunyo bilan birikadi.

X. Ortega-i-Gasset taklif qilgan inson modelining boshqa bir fundamental qoidasi quyidagicha yangraydi: «Inson tabiatga ega emas, u ... tarixga ega»<sup>64</sup>. Ushbu qoidaning birinchi qismi inson invariant tabiatga ega emasligini, unda faqat uning o'zi uchun yaratadigan tabiat mavjud bo'lishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, insonga abstrakt darajada xos bo'lgan mutlaq xususiyatlar mavjud emas. Inson haqidagi har qanday ongli fikr har bir konkret «Men»ning individual shaxsiyatini muhit (yoki dunyo) bilan bog'lashni talab etadi. Inson relyatsion mavjudot hisoblanadi – uning mavjudligi u yashayotgan (fizik, biologik, ijtimoiy, madaniy, tarixiy, texnikaviy va h.k.) muhit bilan belgilanadi<sup>65</sup>. Inson o'z tabiatini o'zi yaratadi, zero, bilish, loyihalash, qarorlar qabul qilish, ijod bilan shug'ullanish va o'zini qurshagan muhitni o'zgartirish jarayonida u o'z-

<sup>63</sup> Qarang: Ortega-i-Gasset X. Размышления о «Дон Кихоте» // Эстетика, философия культуры. – Москва: 1991.

<sup>64</sup> Ortega y Gasset J. Historia como sistema. T. VII. Madrid., 1947-1969. – 41-p.

<sup>65</sup> Qarang: Ortega-i-Gasset X. Восстание масс // Дегуманизация искусства и другие работы. – Москва: 1991.



o'zini loyihalaydi, bunyod etadi va o'zgartiradi. Hayotda birorta ham statik invariant omil yo'q, u muttasil harakat va o'zgarishdan, o'zgarayotgan jarayonning barqarorligi hayotning birdan bir invarianti hisoblanadi. Bu barqarorlik o'tmishning hozirgi zamon asosida kelajak bilan o'zgarishlar mavjudligidir. Ayni paytda inson tarixan belgilangan «samarali hisoblanadi. Har bir inson o'z turining o'tmishi ta'sirida shakllanadi. Ayni obrazini yaratadi ekan uning ibtidosini Odam Ato bilan bog'laydi. «Jannatda Odam Ato paydo bo'lishi bilan hayot ham paydo bo'ladi, - deb yozadi faylasuf. - Odam Ato buni tushungan birinchi mavjudot hisoblanadi. Odam Ato uchun hayot muammo sifatida mavjud bo'lgan. Jannatda yashayotgan Odam Ato sof hayot, cheksiz hayot muammosi uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi... Odam Atoning yuragi - olamning markazi, demak, butun olam Odam Atoning yuragidan o'rin oladi. Shu ma'noda inson hayot muammosi hisoblanadi»<sup>66</sup>. Odam Atoning ushbu ramziy obrazi insonning Koinotdan ko'chirilgan «nuxxa» sifatidagi, «mikrokoinot» sifatidagi, butun Koinotni o'zida aks ettiruvchi monada sifatidagi talqinini belgilaydi. Abadiy harakat va o'zgarish Koinotning birdan bir invarianti sanalgani bois ham insonning tabiati tarixiy xususiyat kasb etadi. Bu insonning o'ziga xos xususiyati ham global tarixiy, evolyutsion jarayon, ham hayot tajribasining shaxsiy, individual kechinmalari yig'indisi bilan belgilanishini anglatadi. Shunday qilib, X.Ortega-i-Gasset taklif qilgan inson modeliga individ tarixiy o'tmish bilan belgilanishi to'g'risidagi qoida xosdir.

Ayni paytda yashamoq - o'zini qurshagan dunyo bilan ish ko'rish, u bilan o'zaro aloqaga kirishish, u bilan shug'ullanish demakdir. Inson «jonli subyekt» sifatida o'zini qurshagan muhitga qarab mo'ljal oladi va bu muhitni bilish jarayonida o'z-o'zini ham anglab etadi. Tuban mavjudotlardan inson o'z-o'zini anglab yetish va mustaqil ish ko'rish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Hayvonlar faolligi, aslida, atrof muhit ta'siriga bir lahzali munosabatdan boshqa narsa emas. Shu tufayli ham u o'z harakatlarini rejalashtirish imkoniyatiga ega emas. Aqlga va bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan inson juda katta faoliyat erkinligiga egaligi bilan ajralib turadi. Uning o'zini qurshagan muhit ta'sirlariga munosabati o'zining dunyoga bo'lgan munosabatini oqionalashtirishga, muhitni intellektual talqin qilishga va ehtimol tutilgan xulq-atvor variantlariga asoslanadi. Bunday vaziyat tirik mavjudotlar dunyosida inson ustun mavqega ega bo'lishini belgilaydi. Zero, hayot unga

<sup>66</sup> Ortega J. Dehumanizatsiya shukli i inne esseje. - V., 1980. - 55-6.

tayyor holda berilmaydi, aksincha, unga nimaiki berilgan bo'lsa, sof potentsiallikni o'zida ifodalaydi. Har bir inson o'z-o'zini yaratadi: u o'z kelajagi bilan belgilanadi. X. Ortega-i-Gasset taklif qilgan insonning kreativistik modeli «omma qo'zg'olonini inson ekzistensiyasining Yevropa sivilizatsiyasidagi chuqur inqiroz bilan belgilangan patologiyasi sifatida tushuntirish imkoniyatini beradi. Uning «Omnia qo'zg'olonini deb nomlangan mashhur asarida inqiroz ajdodlar qadriyatlarini dunyosining vayron bo'lishidan iborat ekanligi qayd etiladi. Aniqroq aytganda, yangi avlod bu qadriyatlarini qabul qilmaydi va inson qo'qqidan hayotda mo'ljalni yo'qotadi. Yevropa sivilizatsiyasi inqiroziga qo'yilgan «tashxis» quyidagicha yangraydi: bu omnia qo'zg'olonidir, bunda omnia deganda chakana inson yoki «inson-omnia» tushuniladi. U madaniyat me'yorlariga qarab mo'ljal oluvchi shaxs - «inson-individuallik» bilan to'qnashadi. «Me'yorlar bo'lmagan joyda madaniyat ham bo'lmaydi, - deb ta'kidlaydi X. Ortega-i-Gasset - Qonuniylik asoslari bo'lmagan joyda ham madaniyat mavjud emas. Nizolarni hal qilishda aqlning asosiy tamoyillari nazarpisand qilinmaydigan joyda ham madaniyat yo'q... Kim bahsda haqiqatning tagiga yetishga harakat qilmasa, u aqliy varvardir»<sup>67</sup>.

«Inson-omnia» patologiyasi shaxsni belgilovchi elementlar - «jon» bilan muayyan «ekzistensial struktura»ni hosil qiluvchi omillar o'rtasida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq. Buning natijasida ijtimoiy hayotning standartlashuvi, madaniyatning «ommaviylashuvi» yuz beradi, bu esa o'z navbatida totalitarizmga va zo'ravonlikning kuchayishiga olib keladi. Inson-omnia madaniyat va axloqning odatdagi me'yorlari va qadriyatlarini chetga chiqarib tashlaydi, biroq ularni yangi, yaxshiroq me'yorlar va qadriyatlar bilan almashtirmaydi; u madaniyat va axloq doirasidan tashqarida yashash va ish ko'rishga harakat qiladi, u - XXI asr varvardir.

**Inson - Koinot gologrammasi.** Yuqorida bayon etilgan inson modellarida inson ekzistensiyasining kosmik darajasi qayd etiladi, zero, biz individni kosmik ruhiy-ijtimoiy yaxlitlik sifatida tushunishdan kelib chiqamiz. Shuni e'tiborga olish lozimki, ushbu modellar hozirgi zamon ilmiy bilimi strukturasiga kirmaydi. Shu nuqtai nazardan insonning Koinot gologrammasi sifatidagi talqini diqqatga sazovordir. Ushbu tasavvur korpuskulyar-to'lqinli dualizm bilan bog'liq. Turli anglashilmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun mazkur bo'limning nomi majoziy xususiyatga ega ekanligiga e'tiborni qaratmoqchimiz. Ma'lumki, o'rta asr faylasuflari majozni ilmiy tafakkurning tushunarsiz narsalar va hodisalarni tushunarli narsalar va hodisalar bilan bog'lash imkoniyatini beruvchi muhim elementi

<sup>67</sup> Ortega-i-Gasset X. Восстание инса// Деиндивидуализация искусства и другие работы. - Москва: 1991.



deb hisoblaganlar. Jan Jak Russo: toki olim tadqiqot predmeti haqida yetarli bilimga ega emas ekan, u kuzatilayotgan hodisalarning mohiyatini tushuntirish uchun fanning boshqa sohalaridan olingan majozlar va timsollardan foydalanishga majbur, deb ta'kidlagan. Inson haqidagi yagona fan hali yaratilmagan ekan, ko'pgina muammolarni majozlar darajasida muhokama qilishga to'g'ri keladi. Maxsus ilmiy va falsafiy adabiyotlarda biologik turlar evolyutsiyasi nazariyasiga asoslangan «*inson – bu hayvon*» degan va inson bilan turli texnika moslamalari xulq-atvoridagi yuzaki o'xshashlikdan kelib chiquvchi «*inson – bu mashina*» degan majoziy iboralardan foydalaniladi. «*Inson – bu Koinot gologrammasi*» degan ibora ham shunga o'xshash majoz xususiyatiga ega, zotan, inson markaziy nerv sistemasi, ayniqsa bosh miya faoliyati golografik paradigma bilan muvofiq keladi. Darhaqiqat, miya ishini hozirgi zamon fizikasining to'liqlik jarayonlar sohasidagi yutuqlaridan kelib chiqib tahlil qilish yo'lidagi harakatlar muayyan darajada diqqatga sazovordir. Bunday yutuqlar qatoriga, eng avvalo, ilk bor K. Pribram va F. Vestleyk tadqiqotlarida ta'riflangan miya ishini golografik modelini kiritish mumkin<sup>68</sup>. Neyrofiziologiyada neyrofiziologik tarmoqlarning taqsimlanish xususiyati yaxshi ma'lum bo'lib, u ikki qonun bilan tavsiflanadi:

- *ommaviy harakat qonuniga* muvofiq ta'lim olish qobiliyatining susayishi buzilgan kortikal hujayra miqdori (massasi) bilan bevosita bog'liq.

- *ekvipotensiallik qonuniga* muvofiq bu susayish shikastlanish joyining o'rniga bog'liq bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqib F. Vestleyk zamirida optik golografik jarayonlar bilan o'xshashlik yotuvchi miya faoliyati modelini taklif qiladi. Golografik jarayonlarga taqsimlanish xususiyati xosligi aniqlangan. Muayyan turdagi gologrammalarga xos bo'lgan bu xususiyat shundaki, gologrammaning har qanday kichik qismiga qarab unda qayd etilgan boshlang'ich manzarani to'liq tiklash mumkin<sup>69</sup>.

Inson miyasida tashqi dunyoning aniq aks etishiga sensorli axborotni «qism butunga o'rindosh» tamoyiliga binoan kodlash orqali erishiladi. Dunyoni simvollar yordamida tasavvur qilish zamirida ayni shu tamoyil yotadi. Buning natijasida inson xotirasida juda katta hajmdagi axborot qayd etilishi mumkin. Optik gologrammalar endilikda keng ma'lum, ular obyektning yaxlit ko'lamli tasvirini olish imkoniyatini beradi. Ushbu tasvirning fotosuratdan farqi shundaki, u tasvirlangan obyektning har

<sup>68</sup> Qiygiz: Прибрам К. Язык мозга. – М., 1975. Вестлейк Ф.О. О возможности протекания нейроглографических процессов мозга // Кибернетические проблемы биологии. – Москва: 1971.

<sup>69</sup> Qiygiz: Вестлейк Ф.О. О возможности протекания нейроглографических процессов мозга // Кибернетические проблемы биологии. – Москва: 1971. Т. 1. – 116-с.

tomonlama ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratadi. Optik gologramma interferlanuvchi kogerent nurlanishlarning o'zaro aloqasi mahsuli hisoblanadi. Gologrammani kogerent yoritish barqaror yorug'lik to'liqini hosil bo'lishiga olib keladi. Golografik jarayonlar paydo bo'lishi uchun gologrammani hosil qiluvchi o'zaro aloqalarning to'liqlik xususiyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Mazkur fizik jarayon miya ishini, binobarin, bilish jarayonlarining neyrogolografik modelini yaratish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda nerv hujayralarining ish jarayonida yuzaga keluvchi to'liqlik jarayonlar va impulslar miya golografik yozuvini shakllantirish manbai hisoblanadi, axborot esa bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishuvchi neyronlar to'plamida kodlanadi. Golografik model miyaning neyron tarmoqlarida axborotning taqsimlanish xususiyatlarini yaxshi tavsiflaydi. Hozirgi vaqtda axborot maydonining istalgan nuqtasida axborotning taqsimlanishini golografiya matematik apparati darajasida aniq ko'rsatadigan birorta ham metod mavjud emas.

Axborotni golografik usulda kodlashning boshqa bir xususiyati uning misli ko'rilmagan darajada samarahliligidir. Gologramma vositasida qayd etilishi mumkin bo'lgan axborot miqdori bilan ayni shu hajmda axborot saqlash imkoniyatini beruvchi mavjud vositalardan birortasi ham teng kela olmaydi. Golografiya yordamida axborotni kodlashning samaradorligi shu darajada kattaki, uni ma'lum ma'noda miya hujayralarida axborot saqlashning samaradorlik darajasi bilan tenglashtirish mumkin.

Axborotni golografik usulda kodlashning uchinchi xususiyati – golografiya tamoyillariga bosh miya yarim pallalarning bilish funksiyasini modellashtirishning muayyan asosi sifatida yondashilganida, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi. Golografiyaning to'liqlik tamoyili – mazkur to'liqlik jarayon vositasida kodlangan axborotni u saqlanayotgan joydan bir lahzada chiqarishga qodir bo'lgan mexanizmi tasavvur qilish imkoniyatini beradi. K. Pribram golografik yondashuvning umumpsixologik ahamiyatiga baho berar ekan, deteksiya mexanizmi va neyronlar tomonidan amalga oshirilgan belgilar tahlili, agar ularga mantiqiy operatsiyalarni bajaruvchi elementlar sifatida qaraladigan bo'lsa, idrok etish fenomenlarini tushuntirish uchun yetarli deb hisoblanishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Perseptiv jarayonlarga turli neyronlar o'rtasida dinamik harakatlar (fazaviy munosabatlarning superpozitsiyalari) xosdir. Shundan kelib chiqib, obrazlarni shakllantirish qobiliyati zamirida fazaviy munosabatlarning ayni shu o'zaro aloqasi yotishini taxmin qilish mumkin. Neyronli strukturalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bunday tizimi optik axborotga ishlov beruvchi tizimlarning xossalari o'xshab ketadi. Boshqacha qilib aytganda, obrazlar vujudga kelishini ta'minlovchi



tizimlar o'z mexanizmlariga ko'ra golografiya mexanizmlari bilan o'xshashdir<sup>70</sup>, degan xulosaga keladi. Bilish jarayonlarini golografik modellashtirishning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, bu yerda inson tomonidan tashqi dunyo obyektlarini to'liqlik kodlash tamoyili amalga kiritiladi. To'liqlik til turli obyektlarning xususiyatlarini diskret (alifbofi) o'zlari ularning ko'lamlilik xususiyatlari nuqtai nazaridan to'liqlik tavsiflarning muayyan tizimlari sifatida, amplitudalarning taqsimlanishi sifatida qaralishi mumkin. Boz ustiga dunyoning (Koinotning) golografik modellari ham amalda mavjud. Bu modellarda dunyo (Koinot) ulkan golografik plastinkani o'zida ifodalaydi<sup>71</sup>. Makroobyekt sifatida inson ham to'liqlik struktura hisoblanadi. *Inson va Koinotning yagonaligi, odamzot Koinotning jazzi muxasi hisoblanishi to'g'risidagi ta'limotdan kelib chiqib, inson Koinot gologrammasidir deb aytish mumkin.* Dunyoning golografik modellari mavjudligi inobatga olinsa, ayrim tadqiqotchilarning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin: «Mazkur fizik nazariyalar dunyoning to'liqlik tuzilishini aks ettirishning eng samarali usuli ushbu dunyo obyektlarini to'liqlik tilda aks ettirishdir deb faraz qilish mumkin. Inson muayyan fizik daryoda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Binobarin, mazkur dunyoning fundamental xossalari insonning aks ettirish, ruhiy faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas...»<sup>72</sup>. Fanning rivojlanish jarayoni ushbu fikrni tasdiqladi: bugungi kunda «**inson – Koinot gologrammasi**» majoziy iborasi insonning gen injeneriyasida ham, borliqning avtomat-hujayrali talqinida ham ishlatiladi. Darhaqiqat, fan bugungi kunda o'z rivojlanish jarayonining «postnoklassik» bosqichiga qadam qo'yishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Buning muhim belgisi shundaki, ko'p darajali, ierarxiyaviy, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlarni bilish va ularning evolyutsiyasi ssenariylarining ko'p variantlilikini tushunib yetish yuz berayotir. Bu yerda sof dinamik fizik jarayonlar bilan bir qatorda o'zini o'zi tashkil etuvchi faol tizimlar yoki muhitlarda simvolli axborotga ishlov berish, uni saqlash, uzatish va yaratish bilan bog'liq informatsion-simvolik jarayonlar, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Ayni holda gap tabiatning o'zi yaratgan faol taqsimlangan nochiq muhitlar haqida boradi. Bunday muhitlarni o'rganish bilan yaqinda vujudga kelgan sinergetika shug'ullanadi. Ushbu fan doirasida inqilobiy kashfiyotni o'zida ifodalovchi «determinatsiyalangan kaos» haqidagi tasavvurdan ancha samarali foydalaniladi (u bizning Koinot haqidagi asosiy tasavvurimizni butunlay

<sup>70</sup> Qarang: Прибреж К. Язык мозга. – Москва: 1975.

<sup>71</sup> Qarang: Мислова И. Единство сознания. – Харьков: 1992. – 192-с.

<sup>72</sup> Qarang: Пуштин В.Н. Моделирование познавательных процессов // Зарубежные исследования по психологии познания. – Москва: 1977. – 191-с.

o'zgartiradi). Shu nuqtai nazardan sinergetik borliqning yagona avtomat-hujayrali modeli diqqatga sazovordir. Ushbu model o'z-o'zidan tashkil topuvchi fizik jarayonlarga ham, shu jumladan, ruhiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan informatsion jarayonlarga ham teng darajada tabiiq etilishi mumkin<sup>73</sup>. Avtomat-hujayrali borliq haqidagi tasavvur doirasida kvant mexanikasining ko'pgina paradoksal xususiyatlari, eng avvalo, «to'liqlik – zarfa» dualizmi o'zining tabiiy talqinini topadi, inson miyasi faoliyatining ehtimol tutilgan mexanizmi o'ziga xos tarzda tashuntiriladi. S.Ya.Berkovich taklif qilgan bu model zamirida anchayin sodda informatsion struktura – o'zaro bog'langan siklik hisoblagich «panjarasi» va o'zgartirishni amalga oshurishning ancha sodda va tabiiy qoidasi yotadi. Navbatdagi bosqichda hisoblagichning ko'rsatuvlari unga qo'shni hisoblagichlar ko'rsatuvlarining o'rtacha qiymati bilan belgilanadi. Hujayrali avtomatlar modeli «moddiy formativlarni o'ziga xos tarzda tarqaluvchi to'liqlik yechimlar sifatida»<sup>74</sup> tavsiflaydi. Boz ustiga taqsimlangan hujayrali avtomatlar tarmog'i tez tarqaluvchi diffuzion jarayonlarida, shu jumladan, golografik tamoyillar asosida ishtirok etishi mumkin. Mazkur modelda inson miyasi hisoblash mashinasi sifatida qaraladi, uning axborot protsessori sifatidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu uning misli ko'rilmagan qobiliyatlarining barchasi uchun yagona operatsion mexanizmi aniqlashni talab qiladi. Ko'rsatilgan qobiliyatlar qatoriga protsessorning ulkan quvvati, cheksiz virtual xotira, nuqsonlarga misli ko'rilmagan darajada chidamlilik va mustahkamlik, funksiyalarning rang-barangligi, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan boshqaruvning uyg'unligini kiritish mumkin<sup>75</sup>. Bir marta olingan axborot miyada abadiy qayd etiladi, zero, obrazlar vaqt o'tishi bilan xiralashmaydi va oradan ko'p yillar o'tganidan keyin ham ongda aks etishi mumkin.

Ammo eng qizig'i shundaki, mazkur model doirasida golografik yondashuv quyidagi xulosaga kelish imkoniyatini beradi: «Bilish funksiyasini bajarishga ko'maklashuvchi axborot protsessori miyadan tashqarida mavjud bo'lishi, golografik muhit sifatida fizik dunyoning avtomat-hujayrali fonidan foydalanishi mumkin»<sup>76</sup>.

**Xulosa.** Demak, asosiy fikrlash jarayonlari inson miyasida emas, balki undan tashqarida, miyani qurshagan faol avtomat-hujayrali muhitda

<sup>73</sup> Qarang: Беркович С.Я. Клеточные автоматы как модель реальности: поиск новых представлений физических и информационных процессов. – Москва: 1993.

<sup>74</sup> O'sha joyda. – 91-b.

<sup>75</sup> Qarang: Neumann J. von. The computer and brain. – L., 1979.

<sup>76</sup> Беркович С.Я. Клеточные автоматы как модель реальности: поиск новых представлений физических и информационных процессов. – Москва: 1993. – 91-с.





yuz beradi. «Inson – Koinot gologrammasi»,- degan majoziy ibora ayni shu xulosaga kelish imkonini beradi.


### Tajribaviy amaliy matnlar

Inson falsafaning azaliy muammosi. Insonning korpuskulyar-to'liqlik tabiati. Koinotda inson o'rni. Inson haqidagi mikrotasavvurlar. Miya faoliyati kvant qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi. Miya modellashirishning ahamiyati. Inson ichki a'zolarining temperaturasi va vaqt ritmlari haqida axborot beruvchi radioisshiqlikning tarqalishi. «Gorno kosmik» konsepsiyasi. Inson va kosmosning yagonaligi g'oyasi. Insonning kosmosdagi borlig'ining to'rt asosiy bosqichi Teyyar de Sharden esxatologiyasi. Insonning kreativistik modeli. Inson – Koinot gologrammasi.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



Inson Koinotdan alohida mavjud bo'lmaydi. Koinot esa insondan alohida mavjud bo'lmaydi.





Ye. Uoker tahlili sinapslarda turli xil axborot uzatishni ta'minlovchi ikkita jarayoni



Yaqin masofaga (taxminan 200 A) axborot uzatish bilan bog'liq; u sinaptik «tunnel» effekti ta'sirida yuz beradi.

O'z miyasi doirasida axborot uzatishni ta'minlaydi.









**Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Insonning korpuskulyar-to'liqinli tabiati. Koinotda inson o'mi...
2. «Gomo kosmik» konsepsiyasi.
3. Insonning kreativistik modeli. Inson – Koinot gologrammasi.
4. Inson va kosmosning yagonaligi g'oyasi.
5. Insonning kosmosdagi borlig'ining to'rt asosiy bosqichi
6. Teyyar de Sharden esxatologiyasi.

**Esse mavzulari:**

1. Inson falsafaning azaliy muammosi.

2. Insonning korpuskulyar-to'liqinli tabiati.
3. Inson haqidagi mikrotasavvurlar.
4. Falsafiy antropologiya metodlari.
5. Kundalik turmush strukturasi.
6. Psixoanaliz va psixotripsiya, deskursiv tajribaning tahlili.

**Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari:**

1. Inson muammosiga nisbatan an'anaviy yondashuvga qaqshatqich zarba berishda qaysi tamoyillardan foydalaniladi?
  - A. tarixiylik, madaniy antropologiya va evolyutsionizm tamoyillari
  - B. izchillik, davomiylik, tarixiylik tamoyillari
  - D. davomiylik, tarixiylik evolyusionizm tamoyillari
  - V. tarixiylik, madaniy evolyusionizm tamoyillari
2. «Inson ongining tabiati qanday?», «Inson tabiatini tushunishda mistik va diniy tajriba qanday rol o'ynaydi?», «Bizga ma'lum bo'lgan Koinotda inson qanday o'rin egallaydi?» yuqorida zikr etilgan savollarga javob topishga harakat qilgan olimlar qaysi?
  - A. F. Kapra, J. Zukav, D. Postl, V. Tompson
  - B. F. Kapra, J. Zukav, D. Postl
  - C. D. Postl, V. Tompson, J. Zukav, D. Postl
  - V. F. Kapra, J. Zukav, Geyzenberg, F. Kapra
3. Sharq tafakkurining bir nechta yo'nalishlari induizm, buddizm, daosizm va dzen bilan yangi fizikaning ajoyib kashfiyotlari o'rtasida muloqotni boshlagan olim kim?
  - A. F. Kapra
  - B. J. Zukav
  - C. V. Tompson
  - V. D. Postl
4. «Fizika daosi» kitobining muallifi kim?
  - A. F. Kapra
  - B. J. Zukav
  - C. D. Postl
  - V. V. Tompson



5. "Tabiat poydevori aqlidir", - degan g'oyani qaysi fiziklar ilgari surgan?

- A. A. Eddington, S. Sirag
- B. F. Kapra, J. Zukav
- C. D. Postl, V. Tompson
- V. Geyzenberg, F. Kapra

6. «Yoga Sutra» asari muallifi kim?

- A. Patanjali
- B. Geyzenberg
- C. D. Postl
- V. J. Zukav

7. Aql «assotsiatsiyalari» oqimi bu?

- A. inson aqlidan o'tuvchi tafakkur to'liqlarining uzluksiz oqimi
- B. dunyoga bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi va tinimsiz harakat qiluvchi ajralmas elementlardan tarkib topgan tizim
- C. axborotni ma'lum qilish va ayni paytda undan chetda qolish oqimi
- V. inson tabiatni o'rganishi jarayonida uni o'zgartirishi muqarrar ekanligini qayd etadigan harakat

8. Materiya va energiya kabi Koinot bilan uzviy bog'liq bo'lgan «universal to'liqlar» qaysi?

- A. tafakkur to'liqlari, inson ruhiyati to'liqlari
- B. inson madaniyati va fikrlash uslubi
- D. tabiat «to'liqlari» va «kvantlari»
- V. makrodunyo hodisalari qobig'idan tashqaridagi universal borliqni namoyon etuvchi kvant nazariyasi

9. Qaysi olim yogani «aqlda tafakkur to'liqlarini boshqarish» sifatida tavsiflaydi?

- A. Patanjali
- B. E. Uoker
- D. K. Siolkovskiy
- V. F. Kapra

10. Qaysi olim miya ishining tahlili uchun kvant mexanikasi tamoyillaridan foydalanishga harakat qilgan?

- A. E. Uoker
- B. J. Zukav

- D. K. Siolkovskiy
- V. F. Kapra

11. E. Uokerning fikriga ko'ra, inson ongli faoliyatining vujudga kelishi va yaxlit xususiyatini boshqaruvchi omil nima?

- A. «tunnel effekti»
- B. aql «assotsiatsiyalari»
- D. «korpuskulyar-to'liqin»
- V. «Yoga»

12. Har qanday biologik obyekt atrofida, uning hayot faoliyati ta'sirida biologik tizim haqida axborot beruvchi fizik maydonlarning murakkab manzarasi hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bunday maydonlar necha xil bo'ladi?

- A. 8 xil
- B. 7 xil
- D. 9 xil
- V. 6 xil

13. Inson tabiati qanday tizimga ega?

- A. korpuskulyar-to'liqinli
- B. universal to'liqinli
- D. tunnel effekti
- V. tafakkur to'liqinli

14. Korpuskulyar-to'liqinli tabiat qismlariga qaysilar kiradi?

- A. atom-molekulyar strukturani o'zida ifodalovchi anatomo-geometrik komponent va butun Koinot bo'ylab tarqalgan maydonlar
- B. ichki a'zolarining temperaturasi va vaqt ritmlari haqida axborot beruvchi radioisotoplik tarqalishi
- D. ichki a'zolar, mushaklar va hokazolar infratovush diapazonida faoliyat ko'rsatganida paydo bo'luvchi akustik signallar
- V. molekullar va hujayralar darajasida mavjud manbalar bilan bog'liq bo'lgan yuqori chastotali shovqinsimon akustik signallar

15. Taniqli fizik olimlar S. Xoking va J. Uiler Koinotni «doyihalash»da insonning roli haqidagi o'z mulohazalari uchun tayanch nuqtasi sifatida qaysi tamoyilni tanlaydilar?

- A. antrop kosmologik
- B. kosmik falsafasi



- D. abadiy Koinot
- V. Men va Koinot

16. Hamonki insonning mavjudligi tasodifiy emas balki kosmos bilan uzviy ekan, biz biladigan bu kosmos boshqacha bo'lishi mumkin emas degan fikr kimga tegishli?

- A. K. Siolkovskiy
- B. V. Vernadskiy
- D. A. Umov
- V. S. Xoking

18. K. Siolkovskiy fikricha, moddiy Koinotning tadrijiy rivojlanuvchi obyektlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u nimadan iborat?

- A. atomlardan
- B. universal to'lqin
- D. korpuskulyar-to'lqin
- V. ruhiy-to'lqin

19. K. Siolkovskiy fikriga ko'ra, insonning kosmosda borlig'i to'rt asosiy bosqichdan o'tadi. Bu qaysilar?

- A. tug'ilish bosqichidan, shakllanish bosqichidan, insoniyatning tanazzul bosqichidan, terminal bosqichidan
- B. tug'ilish bosqichidan, shakllanish bosqichidan, insoniyatning tanazzul bosqichidan, qayta tiklanish bosqichidan
- D. qayta tiklanish bosqichidan, shakllanish bosqichidan, insoniyatning tanazzul bosqichidan, terminal bosqichidan
- V. tug'ilish bosqichidan, tiklanish bosqichidan, shakllanish bosqichidan, insoniyatning tanazzul bosqichidan,

20. K. Siolkovskiy falsafiy izlanishlarining tayanch nuqtasining muammosini toping?

- A. axloq muammosi
- B. inson muammosi
- D. kosmos muammosi
- V. «gomo kosmikus» muammosi

21. «Inson fenomeni» kitobi muallifi kim?

- A. Teyyar de Sharden
- B. Gegel

- D. K. Siolkovskiy
- V. V. Vernadskiy

22. Koinot oliy sintez – Omega nuqtasiga qarab izchil harakatlanadi. Evolyutsiya jarayoni Omega nuqtasi nimaga intiladi?

- A. dunyoviy ong, dunyoning ma'naviy o'zagiga
- B. «radial energiya» va «ilk hayot» bosqichiga
- D. inson fenomeniga
- V. «gomo kosmikus»ga

23. Sof pozitivistik nuqtai nazardan fanning eng sirli va tadqiqotchilarni chalg'ituvchi obyekti bu?

- A. inson
- B. kosmos
- D. koinot
- V. falsafa

24. XXI asr boshida inson fenomenini tushunishga muayyan hissa qo'shuvchi insonning kreativistik modeli qaysi olimga tegishli?

- A. X. Ortega-i-Gasset
- B. Teyyar de Sharden
- D. V. Vernadskiy
- V. S. Xoking

25. «Men o'z dunyom bilan birga va o'z dunyomda yashayman» -bu qisqacha ta'rif qaysi faylasufga tegishli?

- A. X. Ortega-i-Gasset
- B. Gegel
- D. K. Siolkovskiy
- V. V. Vernadskiy

### Adabiyotlar

1. N.Y. 1979; Postle D. Fabric of the Univers. N.Y., 1976.
2. Needleman J. A sense of cosmos. N.Y., 1965.
3. The metaphors of Consciousness. – N.Y., 1981. – 430-p.
4. Электромагнитные поля в биосфере. Под ред. Красногорской. – Москва: 1984. Т. 2. – 175–176-с.



5. Циолковский К.Э. Простые мысли о вечности материи и чувства. – Москва: 1933. – 13-с.
6. Qarang: Урсул А.Д., Школенко Ю.А. Социально-философские проблемы освоения космоса // Философия, естествознание, современность. – Москва: 1982. – 23-с.
7. Циолковский К.Э. Монизм Вселенной // Русский космизм. Антология философской мысли. – Москва: 1992. – 266-с.
8. Ortega y Gasset J. Historia como sistema // Obras Completas Revista de Occidente. T. VI. Madrid, 1947-1969. VI.
9. Ортега-и-Гассет Х. Что такое философия? – Москва: 1991. – 161-с.
10. Семенова Г.С. Вступительная статья «Русский космизм» // Русский космизм: Антология философской мысли. – Москва: 1992. – 28-с.

### 3-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING BIOLOGIK DARAJASI

**Inson biosfera evolyutsiyasining zaruriy bosqichi.** XXI asr boshida inson fenomenini o'rganish insonning jismoniy asoslariga daxl qiluvchi gen injeneriyasining rivojlanishiga sabab bo'lgan biologiyadagi inqilob bilan tavsiflanuvchi yangi vaziyatni e'tiborga olishni taqozo qiladi. Inson biosfera evolyutsiyasining zaruriy bosqichi hisoblanadi; binobarin, insoniyatning biosferaga oid funksiyasi haqida va jamiyatning ekologik javobgarligi to'g'risida so'z yuritish mumkin. Zotan, V. Vernadskiy tomonidan ilgari surilgan va asoslangan biosferaning boshqa evolyusion holat – **noosferaga** o'tishi haqidagi g'oyasi boshqariladigan rivojlanish davri boshlanayotganini anglatadi. O'z navbatida bu eng avvalo ekologiya va biotexnologiyaning «qaynoq» nuqtalariga qarab mo'ljall oluvchi bir qator falsafiy va axloqiy muammolarni kun tartibiga qo'yadi.

So'nggi yillarda ilgari surilgan «yangi ekologik tartib» konsepsiyasi sivilizatsiyaning o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu tuyg'u insonning tabiatga bo'lgan optimal munosabatining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan ekologiyaning ikki falsafiy muammosi atrofida qizg'in bahs-munozara ketmoqda. **Birinchi** muammo, tabiatning huquqlari to'g'risidagi mulohazalarni o'zida ifodalaydi: *tabiat o'z-o'zicha qimmatga egami va uning mohiyati nimada?* **Ikkinchi** muammo, *ekologiya va hozirgi dunyo o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash bilan bog'liq.* Bu yerda tabiat bilan o'zaro aloqa jarayonida inson faollik, murakkablik, nochizqlik, noshaffoflik, ishonchli emaslik, oldindan aytib bo'lmalik, tasodifiylik kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadigan (inson, iqtisodiyot, texnika tizimlariga o'xshash) ekologik tizimlar bilan to'qnash keladi. Bilishning evolyusion nazariyasiga muvofiq inson miyasi o'z funksiyalari, ayniqsa, uning kognitiv qobiliyatlari bilan eng avvalo makrodunyo darajasida yuz berayotgan biologik evolyutsiya mahsuli hisoblanadi. Inson xulq-atvoriga ijtimoiy-madaniy tizimlar faoliyatining xususiyatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pirovardida inson ekologik tizimlarga nisbatan xatolarga yo'l qo'yadi. Bu xatolar chiziqli fikrlash, chiziqli ekstrapolyatsiya, ekologik muammolarni yechishdan o'zini olib qochishga (javobgarlikdan bo'yin tovlashga) moyillik va hokazolar bilan belgilanadi.

Mutaxassislar va keng jamoatchilik e'tiborini bioetika muammolari o'ziga tortmoqda, zero, gen injeneriyasi metodlaridan foydalanish insonga ilgari unga ma'lum bo'lmagan sohalarga kirish va ularning tizginini o'z qo'lga olish imkoniyatini beradi. Bunday sohalar jumlasiga genetik kodni, irsiyatni nazorat va modifikatsiya qilish, inson aqlini maxsus tibbiy texnika



yordamida boshqarish imkoniyati va hokazolar kiradi. Fan qarshisida inson shaxsiyatini modifikatsiya qilish, individning jismoniy asoslarini o'zgartirish borasidagi faoliyatning cheksiz maydoni ochildi. Ilmiy yutuqlardan g'ayrinoniy maqsadlarda foydalanilishidan insoniyatni asrash uchun ma'naviy-axloqiy kategoriyalar birinchi o'ringa chiqayotgani ham tasodifiy bir hol emas. Ayni shu sababli ushbu bobda asosiy e'tibor molekulyar evolyutsiya hamda insonning atrof muhit bilan o'zaro aloqasi bilan bog'liq bo'lgan genom muammolariga qaratiladi.

Hozirgi zamon odamining fenomeni sayyoralar va jamiyat o'z evolyutsiyasining butunlay yangi bosqichiga kirganligi munosabati bilan anglab yetishni taqozo qiladi. Ma'lumki, bu faktga birinchi bo'lib tabiatshunos olimlar e'tiborlarini qaratganlar – V. Vernadskiy «insoniyatning geologik roli»ga e'tiborni qaratgan<sup>77</sup>, so'ngra Le Rua va Teyyar de Sharden «noosfera» atamasini ilmiy muomalaga kiritgan va h.k. Natijada shunday bir vaziyat yuzaga keladiki, «inson faoliyatining atrof muhitga kuchli ta'siri uning evolyutsiyasini belgilovchi omilga aylanish bilan bir vaqtda shu darajada ildam o'sib boradiki, biosferaning qandaydir muvozanati haqida va ayni paytda homo sapiens turining gomeostazini saqlab qolish haqida gapirish imkonini bermaydi»<sup>78</sup>. Bundan tashqari, o'z ekologik bo'g'inida monopoliyachi bo'lgan biologik turlardan birortasi ham ekologik inqirozni chetlab o'tishi mumkin emas degan tezisni ham inobatga olish lozim. Bu yerda faqat ikki yo'l bor: *turning degradatsiyasi boshlanadi yoki tegishli o'zgarish jarayonida* (bunda xulq-atvor standartlari va tabiat bilan o'zaro munosabatlar o'zgaradi) *yangi ekologik bo'g'in vujudga keladi*. Ma'lumki, insoniyat ana shunday monopoliyachi hisoblanadi.

Bugungi kunda insoniyat global ekologik inqiroz hodisalarini bilan to'qnash kelmoqda. U tabiat bilan yagona tur sifatida o'zaro aloqaga kirishadi. Insoniyat degradatsiyasining oldini olish mashaqqatli yo'l – yangi ekologik bo'g'inni topish yo'lida tinimsiz izlanishni taqozo qiladi. Hozirgi zamon fanida biosfera va jamiyat koevolyutsiyasi sayyorada inson saqlanib qolishining mutlaqo zaruriy shartidir, degan fikr ilgari surilgan. Bu yondashuvga ko'ra, noosfera bosqichi faqat jamiyat va tabiatning kvazimuvozanati amalga oshgandan keyin boshlanadi. Shu tufayli ham «tabiat va jamiyatning bunday nisbatini yuzaga keltirish mumkinligi to'g'risidagi masala, ya'ni biosfera elementi sifatidagi insoniyat degradatsiyasining oldini olish to'g'risidagi masala mohiyat e'tibori bilan

<sup>77</sup> Qizilq: Вернадский В.И. Философия мысли натуралиста. – Москва: 1988. – 35-с.

<sup>78</sup> Моисов Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные разломы // Вопросы философии. 1995. № 4-с.

yangi sivilizatsiyaning (yoki yangi sivilizatsiyalarning) shakllanishiga borib taqaladi»<sup>79</sup>. Bu masala ochiq qolayotgan bo'lsa-da, jamiyat va biosferaning o'zaro nisbatida kuchayib borayotgan nomutanosiblik inson va tabiat fenomenini tushunishga nisbatan yangicha yondashuvni talab qilishi shak-shubhasizdir.

I. Prigojin yuzaga kelgan vaziyatni tavsiflar ekan, shunday deb yozadi: «Yangi kuzatish vositalari – izotoplardan sun'iy yo'ldoshlarga ekan – ekologik tizimlarning beqarorligini bizga namoyish etdi; ayni paytda nochiziqliq dinamika bizga bunday tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fluktuatsiyalar va bifurkatsiyalarning o'sishini nazariy jihatdan tavsiflash imkonini berdi. Ekologik tizimlarning beqarorligi sabablarini va sayyoramiz istiqbollari o'rganish vazifasi birinchi o'ringa chiqdi. Ma'lumki, bir necha o'n ming yil muqaddam sayyoramizda optimal iqlim hukm surgan, hatto, Gobi cho'lida va Sahroi Kabirda ham sivilizatsiyalar mavjud bo'lgan edi. Hech bo'lmasa o'sha zamonlarni qaytarish haqida orzu qilish mumkin-ku»<sup>80</sup>. Yuqorida bayon etilganlar tabiatga yangicha ko'z bilan qarashni va insonning undagi o'rniga qayta baho berishni talab qiladi.

**Tabiiy ekologik tizimlarda insonning o'rnini va ahamiyatiga qayta baho berish allaqachon boshlangan va buni shu jumladan L. Ferrining «Yangi ekologik tartib» kitobi ham tasdiqlaydi.** Ushbu kitobda tabiatga qadriyat sifatida yondashish muammolari muhokama qilinadi, bunda tabiat huquqlari muammosi birinchi o'ringa qo'yiladi<sup>81</sup>. Hozirgi zamon ekologiyasida tabiat huquqlari xususida uch nuqtai nazar mavjud.

**Birinchi nuqtai nazarga ko'ra, tabiatning hech qanday huquqlari yo'q, u biron-bir ichki qimmatga ega emas.** Tabiatni asrash va muhokaza qilish zarur, chunki u inson mavjudligi uchun zarur bo'lgan muhit hisoblanadi. Bu yerda inson birinchi o'rinda turadi, tabiat esa ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Faqat inson huquq subyekti hisoblanadi (falsafa tilida bu inson – birdan bir maqsad, deganidir). AQShda mazkur nuqtai nazarni envayronmentalistik yondashuv deb ataydilar – tabiat yuridik maqomga ega bo'lishi mumkin emas va u mustaqil qimmatga ega bo'lgan yaxlit obyekt hisoblanmaydi.

**Ikkinchi nuqtai nazar ko'ra, tabiat muayyan huquqlarga ega ekanligini tan oladi.** Utilitaristlar ilgari surgan bu yondashuv huquq egalari qatoriga lazzatlanish yoki azob chekishga qodir bo'lganlarning barchasini

<sup>79</sup> Моисов Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные разломы // Вопросы философии. 1995. № 1. – 4-с.

<sup>80</sup> Пригожин И. Новая связь науки и культуры // Курьер ЮНЕСКО. 1988. Июнь. – 11-с.

<sup>81</sup> Qizilq: Интервью Л. Ферри // Курьер ЮНЕСКО. 1993. Июнь.



kiritadi. Utilitarizm ta'limotining asosiy tamoyili Koinotda farovonlik keng miqyosda hukm surishiga, azob-uqubutlar esa mumkin qadar kam bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Bu axloqiy va yuridik huquqlar doirasida hayvonlarni ham kiritishni taqozo qiladi. Utilitaristlar mavqei AQShda va Avstraliyada, ayniqsa, kuchli, ularning soni 120 mln. dan ortiq, ular hayvonlarni asrash va ularning xavfsizligini ta'minlash yo'lida kurash olib boradilar.

**Uchinchi nuqtai nazar** ko'ra, gumanistik an'anada hukm surayotgan tartibni o'zgartirishni talab qiluvchi «chuqur ekologiya» tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan. Odatda, bu tartib quyidagi ko'rinishga ega: inson – hayvon – o'simliklar va minerallar. «*Chuqur ekologiyachilar*» bu borada boshqacha tartibni taklif qiladilar: biosfera (yoki Yer) – butun tiriklik – insoniyat. Bu yerda inson mazkur tartibning salbiy elementi sifatida namoyon bo'ladi, zero, faqat u tabiatni yo'q qilib tashlashi mumkin. Aynan inson zoti tabiatga dushmanlik ko'zi bilan qaraydi, aynan u tabiatni ifoslaydi. «Chuqur ekologiyachilar» safida faylasuflar X. Yonas (AQSh) va M. Serr (Fransiya) ham bor. Ular 1789-yilgi «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi» bilan asos solingan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaga zid o'laroq tabiat bilan shartnoma tuzish zarur deb hisoblaydilar. Bu yerda ekolog J. Lavlokni ham eslash o'rinli bo'ladi. U o'zining «Geya» deb nomlangan kitobida Yerni tirik mavjudot sifatida biosferani esa birdan bir huquq subyekti sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga o'z kitobiga «Daraxt, hayvon, inson» degan kichik sarlavha qo'ygan L. Ferri ham qo'shiladi, zero, yangi ekologik tartib birinchi darajali omillarning shunday ketma-ketligini talab qiladi.

Hozirgi vaqtda biologik siyosatni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu masalalarni yechish yo'lidagi harakatlarni muvofiqlashtirish uchun «**Biologik siyosat xalqaro tashkiloti**» tuzilgan. Texnologik taraqqiyot jarayonini oqilona boshqarish biologik muhitda uyg'un mavjudlik hukm surishiga olib kelishi mumkin. Bunga erishish uchun barcha ijtimoiy institutlarni yangi g'oyalar – biologik siyosat g'oyalari bilan boyitish zarur. Inson bilimlari ufqi kengayishidan foyda olish uchun eng avvalo bu g'oyalar ta'lim dasturlarida mujassamlashtirilishi lozim. Texnologik taraqqiyot hozirgi zamon ta'lim tizimining o'ta ixtisoslashuviga olib keldi. XXI asr boshida universitet talabalarida yaxlit dunyoqarashni shakllantirish zarur, bu esa ustuvorliklar va qadriyatlarini yangidan belgilashni talab qiladi.

«*Biologik siyosat xalqaro tashkiloti*»ning asosiy vazifasi biosni va uni asrash yo'llarini yaxshiroq tushunishga ko'maklashuvchi qadriyatlarining

«*universal*» to'plamini yaratishdan iborat<sup>82</sup>. Aynan turli ilmiy fanlarda va turli mamlakatlarning ilmiy davralarida yaratilgan asosiy tushunchalar, qadriyatlar va mo'ljallardan tarkib toptirilgan tizim hayotning har qanday tuyg'ularini odamzot ongiga singdirish imkoniyatini berishi mumkin. Dunyo haqida yaxlit tasavvur biosni asrash uchun muhim bo'lgan g'oyalar va qadriyatlarining barchasini o'z ichiga olgan biologik tuzilmaning global modeli asosida hosil qilinadi. Biologik siyosat globallik bilan tavsiflanadi – lokal ekologik halokatlar chegaralarni bir lahzada kesib o'tadi va internatsional tus oladi (bunga ishonch hosil qilish uchun Chernobil AESdagi avariyaning o'z kifoya qilsa kerak). Ta'limni isloh qilish antropotsentrizmdan biotsentrizmga o'tishni, texnologiyalarga biologik baho berish xalqaro miqyosda qo'llanishini nazarda tutadi. «Biologik siyosat xalqaro tashkiloti» asoschisi va prezidenti A. Arvanitis shundan kelib chiqib, insoniyat biologik tur sifatida yagona ekanligini, jahon hamjamiyati milliardlab hujayralar o'zaro bog'langan va ayni paytda alohida xususiyatga ega bo'lgan yagona vujud sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlaydi<sup>83</sup>.

Biologik siyosatni amalga oshirishga nisbatan bunday yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etadi, biroq jahon hamjamiyati yaqinlashib kelayotgan ekologik inqiroz xavfini hali to'la anglab yetganicha yo'q. To'g'ri, bu yo'lida muayyan qadamlar tashlandi – 1992-yilda Rio-de-Janeyroda hukumatlar darajasida ekologik kongress tashkil etildi, biroq u, N. Moiseev fikriga ko'ra, muayyan illyuziyalar, shu jumladan, barqaror tartibga solish illyuziyasi paydo bo'lishiga olib keldi<sup>84</sup>. Buning hayron bo'ladigan joyi yo'q, zero, mutaxassislar orasida global ekologik muammo va uni yechish yo'llari xususida yagona nuqtai nazar hanuzgacha mavjud emas.

Ayrim ekologlar sayyoramiz biosferasini o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim deb hisoblaydilar. Buni J. Lavlokning «Geya davri: bizning tink Yerimiz biografiyasi» kitobida bayon etilgan gipotezasi ham tasdiqlaydi. Ushbu gipotezaga muvofiq *Yerdagi hayot evolyutsiya jarayonida atrof muhit sharoitlariga Darvin nazariyasida ko'rsatilganidek moslashish bilan bir vaqtda, kimyoviy elementlarning inert majmuini o'z-o'zini tartibga soluvchi ulkan tirik organizmga aylantirgan*<sup>85</sup>.

<sup>82</sup> Qarang: Локтионов Д.В. Биополитика и ее программные цели // Вопросы философии. 1993. №7.

<sup>83</sup> O'sha joyda. – 186-b.

<sup>84</sup> Qarang: Моисеев Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные риски // Вопросы философии. 1995. № 1. – 5-с.

<sup>85</sup> Qarang: Каулин Дж. Наша Земля – единая система // Америка. 1989. № 397.



Mazkur gipoteza uchun boshlang'ich asos bo'lib shak-shubhasiz fakt xizmat qiladi – litosferaning ustki qatlamida, sayyora gidrosferasi va atmosferasida ulkan o'zgarishlar aynan jonli modda paydo bo'lishi natijasida yuz bergan. Milliardlab yillar muqaddam kislorodsiz muhitda o'simliklar quyosh energiyasidan fotosintez yo'li bilan foydalana boshlaganlar, buning qo'shimcha mahsuli o'laroq kislorod paydo bo'lgan, o'simliklar massasining ko'payishi esa son-sanoqsiz yangi biologik turlardan iborat atmosfera hosil bo'lishiga olib kelgan. Shundan beri o'tgan bir necha yuz million yillar mobaynida quyosh energiyasidan fotosintez yo'li bilan foydalanuvchi organizmlar atmosferada kislorod miqdorini o'zgarimas darajada saqlab kelmoqdalar.

Jonli modda Yer iqlimiga ham o'ta samarali ta'sir ko'rsatadi. J.Lavlok va uning xodimlari dengizda yashaydigan eng mayda organizmlar – planktonlar sayyoramiz temperaturasini tartibga solishda ishtirok etishlarining dalillarini keltirdilar. Bunday organizmlardan ayrimlari dimetilsulfid (DMS) moddasini ishlab chiqaradi. Mazkur modda okeanlarda jamlanadi va asta-sekin atmosferaga tarqaladi. Havoda DMS oksidlanadi va bulutlar hosil qiluvchi suv bug'larining «kondensatsiya o'zaklari» bo'lib xizmat qiladigan sulfat zarralarini ajratadi. Binobarin, plankton ishlab chiqaradigan DMS miqdori issiqlikni qaytaruvchi bulutlar pardasining zichligiga ta'sir ko'rsatadi va shu tariqa yer yuzasining temperaturasini tartibga soladi. Biosfera jonli moddasining barcha jarayonlarga (yog'ingarchiliklardan tortib okeanlardagi suv sho'rligining o'zgarishigacha) ta'sirini aksariyat olimlar inkor etmasa-da, J. Lavlokning jonli organizmlar o'zlari yashaydigan muhitga ta'sir ko'rsatish bilan bir vaqtda o'zlari uchun optimal sharoitlarni birgalikda quvvatlaydilar degan tezi ilmiy davralarda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Xo'sh, jonli organizmlar global miqyosda zaruriy natijalarga erishish uchun o'z sharoitlarini qanday qilib muvofiqlashtirishlari mumkin? J. Lavlok sirdan o'ziga xos va oqilona global tizimi tabiiy tanlanish jarayonida o'z-o'zidan vujudga kelishi mumkinligini kompyuter yordamida ko'rsatib berdi<sup>86</sup>. Geya faol tizim hisoblanadi, u o'zini geologik davr mobaynida o'zining barcha kimyoviy va fizik ko'rsatkichlarini optimallashtiruvchi yagona murakkab jonli organizm kabi tutadi. J. Lavlok gipotezasi bugungi kunda ilmiy anjumanlarda qizg'in muhokama qilinmoqda; u o'zining romantik xususiyati, boshqa gipotetik g'oyalar bilan bog'lanishi bilan e'tiborni tortadi.

J. Lavlok modelida o'ta rang-barang ekologik tizimlar ayniqsa barqaror hisoblanadi. «Mening sayyoramda biologik turlar qancha ko'p

<sup>86</sup> Каули Дж. Наша Земля – единая система // Америка. 1989. № 397 36-б.

bo'lsa, u shuncha barqarorlashadi»<sup>87</sup>, - deydi olim. Geya gipotezasi tabiatni muhofaza qilish tarafdorlari tomonidan qabul qilinganligiga qaramay, J.Lavlokning o'zi tabiiy jarayonlarga (Geya elementi hisoblanadigan) insonning aralashuvi xususida tashviish bildiradi. Darhaqiqat, inson o'z faoliyati jarayonida sayyoramizdan o'ziningina emas, balki ko'p sonli biologik turlarni ham supurib tashlashi mumkin. Masalan, Yerda temperatura oz miqdorda ko'tarilishi ham insoniyat va boshqa ko'plab jonli organizmlar uchun halokatli bo'lishi mumkin. Ma'lumki, sayyoramizda mavjud bo'lgan biologik turlarning 99% butunlay qirilib ketgan. Ammo yuzaga kelgan og'ir ekologik vaziyatdan chiqish yo'li bor va uni retrognozga asoslangan prognoz tasdiqlaydi. Insoniyatning o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari uning ekologik madaniyati bilan yanada kuchliroq to'qnashayotgani bois Yerning va insoniyatning o'tmishdagi rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida kelajakni bashorat qilish va ta'sirchan choralar ko'rish mumkin. Insoniyat tarixida buriish yasagan ikki muhim bosqich qayd etilgan: paleolit davrida amalga kiritilgan tabiiy tizimi biologik-ijtimoiy qonunlarning amal qilishini cheklagan va homo sapiens rivojlanish jarayonini biologik yo'nalishdan ijtimoiy yo'nalishga o'tkazgan, neolit davrida esa ekologik bo'g'inning kengayishi natijasida insoniyat ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan. Bu qayta qurishlar natijasida inson biologik evolyutsiyasining keskin susayishi va hozirgi ekologik bo'g'inning qaror topishi yuz bergan. N. Moiseev insoniyat tarixida uchinchi buriish zarurligi haqida shunday deb yozadi: «Insoniyat uchinchi ulkan qayta qurish bo'sag'asida turganiga ishonchim komil. Boshqacha qilib aytganda, bizni yangi, kengroq ekologik bo'g'inni topish zaruriyatigina emas, balki antropogenez jarayonini qayta qurish, shu jumladan, sivilizatsiyaning mazmunini, uning maqsadlarini, tabiat bilan o'zaro aloqalarini, kishilarning o'zaro munosabatlarini o'zgartirish kutmoqda»<sup>88</sup>. Bu esa ekologik xulq-atvor inson ongining teran qatlamlariga kirishi va uning evolyutsiyasi jarayonida yangi bosqichni belgilashi, lo'nda qilib aytganda, inson yangi sotsium sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan biologik tur sifatida namoyon bo'lishi lozimligini anglatadi.

**Inson va biosferaning kvant-to'liqlik aloqasi.** Insoniyat tarixi homo sapiens o'zining bilish qobiliyatlarini eng avvalo bu dunyoda yashab qolish uchun rivojlantirishini namoyish etadi. Nemis olimi G. Folmer bu qobiliyatlar biologik omillar bilan belgilanishini ta'kidlaydi: «Biologik belgilangan kognitiv strukturalar atrof muhit bilan (imkoniyat darajasida)

<sup>87</sup> Каули Дж. Наша Земля – единая система // Америка. 1989. № 397.

<sup>88</sup> Моисеев Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные различия // Вопросы философии. 1995. № 1. - 9с.



muvofiq keladi, chunki ular mazkur real dunyoga moslashish jarayonida shakllangan. Tegishli ravishda bilish evolyutsion nazariyasi miyani eng avvalo bilish organi sifatida emas, balki yashab qolishni ta'minlovchi organ sifatida tushuntiradi»<sup>89</sup>.

«Ekologik bo'g'in»ga (real dunyoning u idrok etish va harakatlanish yo'li bilan o'zlashtirishi mumkin bo'lgan muayyan qismiga) moslashgan organizm kabi inson dunyoning ma'lum sohasini anglab yetadi, o'z ongida gavdalaniradi va indentifikatsiya qiladi. U muayyan «*kognitiv bo'g'in*»da yoki «*mezokosma*»da yashaydi. «Mezokosm – bu o'rtacha kengliklar dunyosi: o'rtacha masofalar, vaqtlar, o'lchovlar, temperaturalar dunyosi, kichik tezliklar, tezlanishlar, kuchlar dunyosi, shuningdek, mo'tadil murakkabliklar dunyosidir. Bizning bilish strukturalarimizni shu kosmos yaratgan, ular ayni shu kosmosga moslashtirilgan, uning uchun va uning yordamida tanlab olingan, unda sinovdan o'tkazilgan va o'zining ishonchlilikini namoyish etgan»<sup>90</sup>. Mezokosm chegarasi aniq emas, u turli individlarda har xil. *Mezokosm – bu real dunyoning bir bo'lagi bo'lib, undan tashqarida o'ta kichik, o'ta yirik va o'ta murakkab tizimlar joylashgan.* Insonning bilish apparati (sezgi organlari, markaziy nerv sistemasi va miya) eng avvalo shu mezokosm bilan o'zaro aloqaga kirishadi, biroq inson dunyoni eksperimental o'rganish va nazariy bilish yo'li bilan mezokosm chegarasidan ancha chetga chiqadi.

Nomuayyanlik, ehtimollik va nochizozlik bilan tavsiflanuvchi kvant-to'liqlik hodisalar dunyosi ham mezokosmdan tashqarida joylashgan. Inson bu dunyoni turli gipotezalarni ilgari surish va majozlardan foydalanish yo'li bilan anglab yetishga qodir. Birinchi bobda ko'rib chiqilgan «inson – Koinot gologrammasi», degan qoida ham ana shunday majoziy iboralardan biri hisoblanadi. Bu keng evristik imkoniyatlarga ega bo'lgan qoidadir. Inson muayyan fizik dunyoda harakat qiladi. Binobarin, bu dunyoning xossalari, teran qatlamlari insonning bilish va amaliy faoliyati shakllariga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. «Koinot – ulkan golografik va kvant-mexanik tizim bo'lsa, inson va hayvonlar xulq-atvorini boshqaruvchi ruhiyat kvant-to'liqlik tabiatga ega bo'lgan golografiya elementlarini o'z ichiga olishi lozim»<sup>91</sup>, deb ta'kidlaydi I. Miklyayev.

D. Bom va K. Pribram fikriga ko'ra, biologik tizimlar, sayyoramizning jonli moddasi va atrof muhit Yer yaqinidagi yagona ulkan «gologramma»ga o'xshab ketadigan yagona fizik tizim sifatida

<sup>89</sup> Фольмер Г. По разные стороны мезокосма // Человек. 1993. № 2. – 7–8 с.

<sup>90</sup> O'zga joyda. – 8-b.

<sup>91</sup> Микляев И. Квантоптика жизни. – Харьков, 1993. – 185-с.

tavsiflanishi mumkin»<sup>92</sup>. Bu «golografik» tizimda biologik strukturalar, shu jumladan, inson, uning ruhiy funksiyalari Koinot miqyosidagi ulkan «xotira»ning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur axborot maydonida biosferaning jonli moddasi o'rtasida aloqalarning yangi yo'llari ochilishi mumkin. Bu yerda inson o'z asabiy-ruhiy va ijtimoiy faoliyati bilan alohida o'rin egallaydi.

Yuqorida bayon etilgan asosida olimlar V. Kaznachev va L. Mixaylova ilgari surgan gipotezaga ko'ra, insonning obrazli va ayniqsa verbal fikrlash uslubi mehnat faoliyati va to'plangan tajriba mahsuli hisoblanadi, u kollektiv va individual faoliyatni tartibga soladi va tegishli makon – axborot muhitini tashkillashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Inson organizmidan tashqarida joylashgan axborot maydoni kishilarning bir-biri bilan va tabiat, shu jumladan, biosfera bilan o'zaro aloqalari jarayonida tashkillashtiriladi. Ichki muhit (inson organizmi) ham shunday tashkiliy tuzilishga ega bo'lsa kerak. Lo'nda qilib aytganda, inson organizmi murakkab maydon tuzilishiga ega bo'ladi. Bu maydonda asosiy rolni elektromagnit maydon kvantlari yoki biofotonlar o'ynaydi. Ayni paytda mazkur maydon strukturasi inson ongining faol sohasiga kirmaydi»<sup>93</sup>.

Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor ruhiyatning hamda tabiat (biosfera) va inson o'rtasidagi aloqaning kvant-to'liqlik xususiyatiga qaratiladi. V. Kaznachev va uning xodimlari uzoq yillar mobaynida o'tkazgan tadqiqotlar jarayonida hujayralararo distansion o'zaro aloqalar fenomeni aniqlandi. Bu o'zaro aloqalar elektromagnit informatsion aloqa universal xususiyatga ega ekanligidan, bunda tirik hujayralarda axborot uzatish elektromagnit kanalidan keng foydalanilishidan dalolat beradi. Bir tomondan, jonli sistema o'z tuzilishining muayyan ko'rsatkichlari haqidagi axborotni muhitga uzatadi, boshqa tomondan esa – u o'z mavjudligi va o'zgarmas nomutanosib tashqi muhitni ta'minlash uchun zarur bo'lgan informatsion «izlar»ni shu darajada izchil idrok etadi.

Shu naqta nazardan inson jonli biologik tizim sifatida tafakkur to'liqlarining alohida turkumini o'zida ifodalovchi xotiraga ega bo'ladi. Bu xotira biosfera bilan elektromagnit kanal orqali bog'lanadi. Ma'lumki, biosferaning o'zi ham xotiraga («ekologik til»ga) ega, uning rang-barang komponentlari – turli xil o'simliklar, hayvonlar, inson axborotni jamlaydi va o'zini qurshagan dunyo manzarasini qayd etadi. Elektromagnit

<sup>92</sup> Qarang: Bohm D. Quantum theory as an indication of new order in physics // Foundations Phys. 1971. – 139–168-6.; Pribram K. Problem concerning the structure of Consciousness // Consciousness and the Brain. – N.Y., 1976. – 83–120-p.

<sup>93</sup> Qarang: Казначеев В.П., Михайлова Л.П. Биоинформационная функция естественных электромагнитных полей. – Новосибирск, 1985. – 186-с.



to'liqlar dunyo haqida bu axborotni kodlangan ko'rinishda biosfera doirasida tarqatadiki, bu insonning biosfera bilan o'zaro aloqasini izohlaydi.

V. Kaznachevning eksperimental tadqiqotlari va nazariy qoidalari tiriklikning eng avvalo biologik tizimlardagi kvant jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan sirli xususiyatiga oydinlik kiritish imkoniyatini beradi. Organizmning o'sishi va faoliyat ko'rsatishi, uning boshqa organizmlar bilan aloqasi aynan axborotni elektromagnit kvantlar bilan kodlash asosida amalga oshadi. O'simliklar va inson o'rtasidagi aloqa faktlarini namoyish qilgan psixologo-botanik eksperimentlar ayni shu natijalar bilan izohlanadi. Ular eng avvalo *nerv sistemasiga ega bo'lmagan o'simlik insonning nerv sistemasida yuz berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatishidan dalolat beradi*<sup>94</sup>. Psixologo-botanik eksperimentlar insonda (va hayvonlarda) ruhiyat va nerv sistemasining genezi haqidagi, ular o'simliklar hujayralarining axborot tizimlaridan kelib chiqqani haqidagi farazlarni ilgari surish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur farazlar tahlili ruhiyatni kodlash hujayralar va molekular darajasida emas, balki yanada teranroq darajada yuz beradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. «Shu munosabat bilan informatsion molekularning ichki muhiti yordamida yuz beruvchi teran kvant jarayonlari g'oyasi vujudga keladi. Aynan shunday maxsus psixologik fizika ruhiy hodisalarni dinamik kodlash uchun imkoniyat yaratadi»<sup>95</sup>.

«Inson – o'simlik» kvant aloqasini o'rganishga bag'ishlangan psixologo-botanik eksperimentlar ruhiyat moddiy asosining ushbu submolekulyar fizik gipotezasi foydasiga guvohlik beradi. Maxsus fizik tadqiqotlar miyaga kvant-mexanik hodisalar xos ekanligini namoyish etdi. Binobarin, to'liqlik jarayonlar ta'sirida inson miyasi o'simliklar bilan va umuman har qanday biologik tizimlar bilan uzoqda turib o'zaro aloqaga kirishadi. Tiriklikning bunday yalpi informatsion birligi o'z vaqtida V. Vernadskiy aytib o'tgan biosfera birligining muqarrar sharti hisoblanadi.

Fanda mavjud bo'lgan yana bir o'ziga xos konsepsiya inson va biosferaning kvant-to'liqlik aloqasidan kelib chiqadi; bu **torsion maydon** konsepsiyasidir. Uning doirasida inson murakkab spinli tizimlardan biri sifatida qaraladi. «Inson ko'lamli-chastotali torsion maydonining murakkabligi uning organizmidagi kimyoviy moddalarning ulkan to'plami va ularning organizmda taqsimlanishi, shuningdek, almashinuv jarayonida biokimyoviy o'zgarishlarning murakkab dinamikasi bilan belgilanadi. Har bir inson individual torsion maydon manbai (generatori) sifatida qaralishi

<sup>94</sup> Qizilov, Mikhaylov I. Evolyutsionika jizni. – Xarkov, 1993. – 215-217-c.  
<sup>95</sup> O'sha joyda.

mumkin»<sup>96</sup>. Uning torsion maydoni atrof muhitda spinli qutblashuv yuz berishiga sabab bo'ladi, u muhit haqidagi axborotni o'zida aks ettiradi va kiyimda ham, fizik bo'shliqda ham o'z izini (spinli replikani) qoldiradi.

Shu o'rinda torsion maydon va uning xossalari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. 1913-yilda taniqli olim E. Kartan fundamental fizik konsepsiyani ta'rifladi: *tabiatda aylanish burchak momentining zichligini shakllantiruvchi maydonlar mavjud bo'lishi lozim*. 20-yillarda A. Eynshteyn ham ushbu konsepsiyaga nisbatan o'z yondashuvini taklif qildi; natijada 70-yillarga kelib fizikaning yangi sohasi – torsion maydonlar nazariyasining bir qismini o'zida ifodalovchi Eynshteyn-Kartan nazariyasi vujudga keldi. Hozirgi tasavvurlarga ko'ra, elektromagnit maydonlar zaryad ta'sirida, gravitatsion maydonlar – massa ta'sirida, torsion maydonlar esa – spin yoki aylanish burchak momenti ta'sirida vujudga keladi. Massaga ega bo'lgan har qanday obyekt gravitatsion maydonni yaratganidek, aylanadigan har qanday obyekt torsion maydonni yaratadi.

Torsion maydonlar bir qator noyob xossalar bilan tavsiflanadi. Ular o'z-o'zidan paydo bo'lishi ham, elektromagnit maydonlar ta'sirida vujudga kelishi ham mumkin. Torsion nurlanishlar o'ta o'tuvchanligi bilan ajralib turadi, ya'ni ularni tabiiy materiallar bilan to'sish mumkin emas. Torsion to'liqlar tezligi yurug'lik tezligidan bir necha baravar katta. Spinli qutblashgan muhitlar va fizik bo'shliq torsion maydon ta'sirida o'ta barqaror spinli masofalar hosil qiladi<sup>97</sup>.

Torsion paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri o'z ildizlari bilan kosmos tarixiga borib taqaluvchi inson va biosferaning birligi bilan bog'liq. Tadqiqotlar odamzot vakillarining aksariyati o'ng torsion maydonga ega ekanligini ko'rsatadi (chap torsion maydon har millio kishidan birida mavjud). Fikrlash aktlari natijasida ularga yo'ldosh bo'lga biokimyoviy jarayonlar molekulyar strukturalarni paydo qiladi. B strukturalar torsion maydon manbalari – spinli tizimlar hisoblanad. Ularning ko'lamli-chastotali strukturasi fikrlash aktlarini aniq aks ettirad. Tashqi torsion maydon ta'sirida miyada ayni shu maydonning ko'lamli chastotali strukturasi takrorlovchi spinli strukturalar vujudga keladi. Ular ong darajasida obrazlar yoki sezgilar sifatida yonki muayyan fiziologi funksiyalarni boshqarish signallari sifatida aks etadi. Shu narsa diqqatg sazovorki, torsion maydon modeli biologik tizimlar, shu jumladan, inson miyasi va kosmos tarixining birligi qirralaridan birini amalda qayd etadi<sup>98</sup>.

<sup>96</sup> Акимов А.Б. Что нас ждет в торсионном поле? // Человек. 1994. № 5. – 43-с.  
<sup>97</sup> O'sha joyda. – 40-b.

<sup>98</sup> Qizilov, Самойловский X. Статистическая механика нейронных сетей // Физика за рубежом. Сер. А. 1991.



Umuman olganda torsion maydonning yuqorida keltirilgan modeli ulkan evristik imkoniyatlarga ega va inson bilan biosferaning kvant-to'liqini aloqasini anglab yetishga ko'maklashuvchi omillardan biri hisoblanadi.

**Genom golografik kompyuter sifatida.** Inson tanasi (va ruhiyati)ning real dunyo, eng avvalo biosfera bilan fundamental aloqasi (va Yerdagi jonli modda tarixini o'zida aks ettiruvchi hujayra orqali amalga oshadi. Darhaqiqat, inson tanasi ko'p hujayrali organizm hisoblanadi. «Har qanday tirik hujayra uning ajdodlari millard yil mobaynida o'tkazgan eksperiment tajribasini o'zida mujassamlashtiradi»<sup>99</sup>. Oqsillar va DNK tirik hujayraning muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Uning «qo'sh spirali» qaynoq Koinotning sovushi jarayonida vujudga kelgan deb taxmin qilinadi. Hozirgi vaqtda olimlar DNKda shifrlangan axborotni nollar va birlar ko'rinishidagi kompyuter kodi bilan ifodalashga harakat qilmoqdalar. «Informatiklar» ishi biologlarga o'rganilayotgan obyektlarning mohiyatini anglab yetish va yangi aloqalarni topish uchun imkoniyat yaratadi. Bu borada qo'lga kiritilgan dastlabki yutuqlar eng mushkul vazifa – biologlar va kompyuter dasturlarini yaratuvchilar o'rtasidagi tafovutni qisqartirib hal etilishiga umid qilish imkonini beradi<sup>100</sup>.

Yaqin vaqtgacha genom organizmning eng barqaror strukturasi hisoblanadi, zero, u irsiy alomatlarni avloddan avlodga o'tkazish imkonini beradi degan tasavvur hukm surar edi. Ammo bu barqarorlik beqarorlik bilan ajabtovur tarzda birikishi aniqlandi<sup>101</sup>. Genom organizmning barcha darajalarida harakatchanlik bilan tavsiflanadi. Shu paytgacha olingan ma'lumotlar hozirda umum e'tirof etilgan DNKning moddiy genetik xossalari haqidagi tasavvurlar yetarli emasligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib bir guruh olimlar eksperimental ish asosida inson genomi bilan bog'liq hodisalarni tushuntirish uchun golografiya tamoyillaridan foydalanish zarur degan xulosaga keladilar<sup>102</sup>. Ko'p hujayralilar genomi assotsiativ-golografik xotirasining nazariy-biologik tahlili uning ta'sirida rivojlanayotgan biologik tizimning makon va vaqti shakllanishini ko'rsatadi. Bunda golografik kodning birlamchi substati sifatida aynan xromosomalar olinadi, zero, ular organizm makonining meros bo'lib o'tadigan qismi – uning biologik shaklini aks ettiradi.

Xromosomal «golografik biokompyuter» faoliyatining umumiy tamoyillarini quyidagi qoidalar bilan ifodalash mumkin:

<sup>99</sup> На пути к теоретической биологии. – Москва: 1970. – 49-с.

<sup>100</sup> Qarang: Эриксон Д. Разрезание генома // В мире науки. 1992. № 6. – 80-с.

<sup>101</sup> Qarang: Хесвин Р.Б. Непостоянство генома. – Москва: 1984.

<sup>102</sup> Qarang: Гарзов П.П., Васильев А.А., Березин А.А. Геном как голографический компьютер // Гипотеза. 1991. №1. – 24-43-с.

- u morfogenezning maydon vektorlarini shakllantirish, biologik tizim sintezlagan morfologik strukturalarni ularning golografik obrazlari bilan birga tanib olish, u yoki bu maydon strukturalarini shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilish kabi rejimlarda faoliyat ko'rsatadi;

- uni tartibga solish ikki tomonlama aloqalar tizimi yordamida amalga oshiriladi, mazkur aloqalar golografik panjaralarning modifikatorlari, repressorlari va depressorlari bilan tutashadi, bunda modifikatorlar, repressorlar va depressorlar sifatida genomning turli harakatchan elementlari amal qilishi mumkin;

- xromosomal golografik biokompyuter faoliyatining boshlanishi har qanday hujayradan o'sib yetuk organizmga aylanuvchi to'qimaning muayyan «kritik massasi» bilan belgilanadi;

- xromosomal kontinuumi xromosomal golografik biokompyuterining asosiy strukturaviy-funksional substrati sifatida bir-birini istisno qiluvchi ikki jarayon – muayyan final morfostrukturalarni kodlovchi statik gologrammalar to'plamlarini hosil qilish va rivojlanayotgan biologik tizimni uning dinamik makoni va vaqtini kodlovchi dinamik gologrammalar reestrlari bilan ta'minlashni shakllantiradi<sup>103</sup>.

Ayni shu qarama-qarshilik biologik tizimning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Bu yerda yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, biologik tizimlar rivojlanish jarayonining dinamik xromosomal golografik panjaralar in'ikoslarining fraktallik xususiyati bilan bog'liq: «Natijada biologik tizimning potentsial strukturasi tavsiflovchi maydonli obrazlar (fantomlar) tizimi hosil bo'ladi. Bu oliy biologik tizimlar turli diapazonlarda kogerent maydonlarga ega ekanligini ko'rsatadi»<sup>104</sup>. Ularsiz xromosomal golografik biokompyuter faoliyat ko'rsatishi mumkin emas (bu insonni modda va maydonning organik birligi sifatida tushunish foydasiga yana bir dalil bo'lib xizmat qiladi).

Genomning golografik modeli (fantom effekti bilan bir qatorda) yana bir asos – tashqi kosmogeliofizik maydonlarga ega. Bunday maydonlar bo'lmasa, biologik tizimlar o'z faoliyatini to'xtatadi. Masalan, yumshoq rentgen maydoni ko'p hujayrali biologik tizimlar morfogenezida muayyan rol o'ynashi mumkin. Bu rol asosan biogologrammaning axborotni o'qish funksiyalarida namoyon bo'ladi. Agar xromosomal golografik biokompyuter gologrammalari o'qilmasa yoki to'g'ri o'qilmasa (biologik

<sup>103</sup> Qarang: Гарзов П.П., Васильев А.А., Березин А.А. Геном как голографический компьютер // Гипотеза. 1991. №1. – 30-31-с.

<sup>104</sup> O'sha joyda. – 31-b.



tizimning ichki nurlanishlari buning uchun yetarli bo'lmasa), organizm, to'qimalar va hujayralar halok bo'ladi. Biologik tizimning ichki va tashqi maydonlari muayyan sinergizmda faoliyat ko'rsatadi deb hisoblash mumkin. Axborotni o'qish maydonlar tomonidan amalga oshiriladi deb hisoblash ular ichki yoki tashqi ekanligi ahamiyatga ega emas), ayni holda (bunda gologramma yozish yuz bergan chastotalarni tanlab oluvchi genom-rolini o'ynaydi. «Organizm strukturasi o'z axborotni yozish – o'qish biologik tizim maydonlarining signallari to'plamida yuz beradi. Ushbu signallar biologik tizim bilan o'zaro aloqaga kirishish natijasida jonli modda substratlarining topologik tillariga aylanadi va shu tariqa jonli o'zidan tashkil topuvchi ichki tizim shakl-shamoyilini kasb etadi. Bular epigenetik tillardir. Genetik til DNK nukleotidlari ketma-ketligini o'zida ifodalaydi. Xromosomalarning boshqa, shu jumladan, golografik informatsion ko'rsatkichlari organizmning epigenetik tillari to'plami hisoblanadi. Irsiyatning xromosomal va DNK sifatidagi moddiy manbalarini tan oladigan bo'lsak, ularning DNK-substratlar bilan uzviy bo'lgan to'liqlik ko'rinishlari mavjudligini ham tan olishga majburiy. Tug'ma xossalarning o'tishida maydon hodisalari avlodlar almashuvida organizmlarning vorisligi xususiyatlarini tushuntirish imkonini beradi.

Xromosomalardan o'qiladigan va xromosomalarga yoziladigan maydonli tuzilmalar biologik tizimlar o'z-o'zidan tashkil topish jarayonining asosiy elementlari hisoblanadi. Bu elementlar DNK va boshqa hujayrali komponentlarning alohida tebranish va kvant-mexanik xossalarga bog'liq bo'ladi. Mazkur tebranishlarning xususiyati ularning kogerentligi bilan belgilanadiki, bu organizmda lazersimon jarayonlar mavjudligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, biologik tizimlar o'z lazerlariga ega bo'ladi. Ushbu lazerlarning maydondagi harakatlari «*fantom effekti*»da namoyon bo'ladi. Biologik tizimlarning kogerent maydonlari amalda interferlanmasligi mumkin emas va bu, umuman olganda, golografik jarayon hisoblanadi. Ular o'zlarini yaratgan, organizmning ko'p darajali strukturasi haqida axborot beradigan biologik tizim bilan o'zaro aloqaga kirishishi va bu axborotdan oliy biologik tizimlarning o'z-o'zidan tashkil topish jarayonlarida foydalanishi muqarrardir.

Ayni paytda biologik tizimning maydonlari haqidagi tasavvurni ularning biologik funksiyalari nuqtai nazaridan mutlaqlashtirish ham yaramaydi: «Chigirtkalar, baliqlar, qurtlarning yaltirashi, qushlarning sayrashi, nihoyat, insonning so'zlashi – biologik tizimlarning bu fizik

<sup>105</sup> Гарьев П.П., Васильев А.А., Березин А.А. Геном как голографический компьютер // Гипотеза. 1991. №1. – 41-42-б.

maydonlari biogografiya doirasiga sig'maydi. Inson, hayvonlar, o'simliklarning o'z maydonlari yordamida o'zini-o'zi boshqarish mexanizmlari kengroq va maydon-simvollar, maydon-belgilar strukturalarining plyuralizmini o'z ichiga oladiki, ularda golografik maydonlar butunning bir qismi hisoblanadi, xolos»<sup>106</sup>. Bu biz tahlil qilayotgan muammolar kontekstida «inson – Koinot gologrammasi» degan tasavvur ma'lum darajada majoziy hisoblanishini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan genetik kodning o'zlashtirilgan, sun'iy, ekzobiologik simmetriyalari ham diqqatga sazovordir. Ekzobiologik axborotning asosiy qismi genomning speyserli, intron va mobil sohalorida jamlanadi. Ayni paytda unda o'z dasturlariga ega bo'lgan xromosomal golografik biokompyuter mavjudligi ham taxmin qilinadi. Ekzobiologik axborot jonli modda evolyutsiya jarayonining avvalida abiogen shakllangan polimerga DNK va RNKni kiritgan bo'lishi, u avloddan avlodga o'tuvchi axborotni shakllantirishi ham ehtimoldan xoli emas.

Biologik tizimlarning rivojlanish jarayoni fraktallik, ya'ni o'z-o'ziga o'xshashlik, o'z-o'zini takrorlash xususiyati bilan ham tavsiflanadi. O'z vaqtida G. Leybnis o'zining monadalar haqidagi ta'limotida amalda fraktallar to'g'risida mulohaza yuritgan edi. Uning «*Monadologiya*» asarida quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: «...materiyaning eng kichik qismida mavjudotlar, tirik jonotlar, hayvonlar, entelexiyalar, jonlarning butun bir dunyosi mavjud... Materiyaning har qanday qismini o'simliklarga to'la bog' va baliqlarga to'la ko'l sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo o'simlikning har bir novdasi, hayvonning har bir a'zosi, uning sharbatlarining har bir tomchisi ham ayni shunday bog' yoki shunday ko'ldir»<sup>107</sup>. U yaratgan metafizika zamirida ayni shu tamoyil yotadi. Bu metafizikada monada mikrokosm (Koinotning jazzi ko'rinishi) hisoblanadi.

Fan Leybnisga ergashgani yo'q, u o'lchamlarning har bir shkalasi o'z chegarasiga ega bo'lgan atomizm ta'limotini tanladi. Endilikda esa fraktal yondashuv ilmiy tadqiqotlarda tobora keng qo'llanilmoqda. Fraktal tushunchasidan matematika o'z bilimlarini tabitshunoslikka tatbiq qilishda samarali foydalanmoqda. «Fraktal matematik tushunchasi turli xil ko'larga ega bo'lgan strukturalardan iborat obyektlarni ajratadi va shu tariqa tashkil qilish ierarxiyaviy tamoyilini aks ettiradi. Mazkur tushuncha zamirida voqelikni ideallashtirish yotadi: fraktal obyektlar o'z-o'ziga o'xshashdir. Bu ideallashtirish... tabiatga berilgan matematik tavsifning

<sup>106</sup> Гарьев П.П., Васильев А.А., Березин А.А. Геном как голографический компьютер // Гипотеза. 1991. №1. – 41-42-б.

<sup>107</sup> Лейбниц Г.В. Сочинения. – Москва: 1982. Т.1. – 425-с.



teranlik darajasini sezilarli darajada oshiradi»<sup>108</sup> Fraktal – ko'lam chekinib darajada o'zgartiranda ham o'z-o'ziga o'xshashlikni saqlab qoluvchi nochiziq struktura. Bu yerda saqlanib qoluvchi nochiziqlik xususiyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Fraktallar dunyoga va insonga yangicha yondashish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan «inson – Koinot gologrammasi» majoziy iborasi real dunyoning muayyan jihatini ifodalaydi. Koinot nochiziqdir, monada sifatida inson ham golografik kompyuter sifatidagi genom «o'rnatilgan» nochiziq biologik tizimni o'zida ifodalaydi. Bu insonning jismoniy olamiga biotexnologiya usullari bilan aralashishga ham boshqacha ko'z bilan qarash imkonini beradi.

**Gen texnologiyasi va insonning jismoniy olami.** Hozirgi zamon odami fenomenini tushinishda biologik fanlar tizimi asosida vujudga kelgan gen texnologiyasi (yoki gen injeneriyasi) ancha katta rol o'ynaydi. U insonning jismoniy olamini o'zgartirishga, genetik material bilan manipulyatsiyalarni amalga oshirishga qasd qiladiki, bu atom va yadro energiyasini ishga solishdan ham samaraliroq bo'lishi mumkin. Endilikda gen injeneriyasi kelajakning butunlay yangi, eng muhim texnologiyasi sifatida qaraladi. Bunda gen injeneriyasi deganda tirik organizmlarning irsiy materialini izchil o'zgartirish tushuniladi. Ayni holda gap faqat genlar almashinuvi haqida yoki yangi genlarni kiritish haqida borishi mumkin (bu organizm ilgari ma'lum bo'lgan va ongli ravishda kiritilgan yangi xususiyatlarni kasb etishini anglatadi)<sup>109</sup> Gen texnologiyasining fundamental tadqiqotlarda bilimlar olish metodi sifatida rivojlanishi yuz beradi, u tabiat va insonga izchil ta'sir ko'rsatishning mustaqil kuchiga aylanadi.

Gen texnologiyasi rivojlanishining ijtimoiy-madaniy oqibatlarini haqida mulohaza yuritganda ilmiy-texnika taraqqiyotini bashorat qilish muammosi bilan hisoblash zarur. Fanning neopozitivistik talqinida (Popper, Kun va boshqalar) fanning bo'lg'usi natijalari bashorat qilib bo'lmaydigan hodisalar sifatida qaraladi, biroq ular fan (va texnika) taraqqiyotini belgilaydi. Bu fikr gen texnologiyasiga ham tegishli, biroq uning qo'llanish sohalarini baholash imkoniyati mavjud. Shu ma'noda gen texnologiyasi «boshqa fanlarga qaraganda yaxshiroq prognozlanishi mumkin bo'lgan fan»<sup>110</sup> sifatida tavsiflanishi mumkin va insonning jismoniy olamiga gen injeneriyasi metodlarining kirishi bilan bog'liq muammolar majmuini o'rganishda buni e'tiborga olish zarur.

<sup>108</sup> Пайтун X.-О., Престор П. X. Кривога фратталон. – Москва: 1993.  
<sup>109</sup> Qarang: Die Herstellung der Natur, Bonn, 1985. – 146-p.  
<sup>110</sup> O'zida joyida. – 15-k.

Gen texnologiyasi insoniyat qarshisida misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochadi. Xususan, u tibbiyotning ta'sirchanlik darajasini kuchaytiradi (gormonal preparatlar, fermentlar, monoklonal aksiljismlar va hokazolarni olish imkoniyatini beradi), oqsil ishlab chiqarish, atrof muhitni muhofaza qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi (sanoat chiqindilarini mikroorganizmlar yordamida zararsizlantirish va sh.k.). Yaqin kelajakda gen injeneriyasi oldindan berilgan yangi xususiyatlarga ega bo'lgan o'simliklar va hayvonlarni olish imkoniyatini beradiki, bu inson uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Gen texnologiyasining inson tabiatiga aralashuvi esa unga tug'ma nuqsonlar, bepushtlik va hokazolardan xalos bo'lish imkonini beradi.

Ammo gen texnologiyasi yaratadigan imkoniyatlar ikki yoqlama xususiyatga ega. Ulkan ilmiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda u inson va insoniyatga potensial tahdid soladi. Shu tufayli ham ilmiy davralar gen texnologiyasi sohasida ish olib borishda ehtiyot choralarini ko'rishni, xususan yangi yaratilgan organizmlarni laboratoriyadan chiqarimaslik imkonini beruvchi biologik va fizik to'siqlar yaratishni talab qiladi. Bundan tashqari, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlarni faqat xavfsizlik to'g'risidagi ko'rsatmalar va yo'l-yo'riqlarga rioya etgan holda o'tkazish tavsiya etiladi (bunday yo'riqnomalar 1976-yil AQSh va Buyuk Britaniyada, 1978-yil GFRda e'lon qilingan). Biroq bu yo'riqnomalar qonun kuchini kasb etgani yo'q va ayni hol GFRda bahsmunozaralarga sabab bo'ldi. Gen texnologiyasi xavfidan himoya qilish to'g'risida qonun qabul qilish yo'lidagi urinishlar samara bermadi. Gen texnologiyasidan foydalanish umidida iqtisodiy va boshqa manfaatlar bilan birlashgan manfaatdor shaxslar (tadbirkorlar, sanoat korchalonlari, ilmiy xodimlar)ning guruhlarini tashkil etilmoqda. Gen texnologiyasining qo'llanish sohada ko'ngilsiz oqibatlar xavfi kuchaymoqda (bunga Yaponiyadagi ilmiy laboratoriyalarning biridan gen injeneriyasi metodlari bilan o'tkazilayotgan tadqiqotlarning obyektlari bo'lgan baliqlar okeanga chiqib ketgani misol bo'lishi mumkin). Gen texnologiyasining rivojlanishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish bilan bir qatorda, «gen texnologiyasini jamoatchilik tomonidan boshqarish»ni<sup>111</sup> tashkil etish va rivojlantirish zarur, chunki bozor iqtisodiyoti mexanizmi unga faqat daromaddorlik nuqtai nazaridan baho beradi, uning jamiyat va inson uchun oqibatlarini esa hatto xayoliga ham keltirmaydi.

Texnologiyalarning oqibatlariga baho berish konsepsiyasi AQShda o'tgan asrning 60-yillaridan rivojlana boshladi. Bunday baho berish deganda «texnologiyadan foydalanishning barcha iqtisodiy, ijtimoiy va

<sup>111</sup> Qarang: Die Herstellung der Natur, Bonn, 1985. – 39-p.



ekologik ko'ngilsiz oqibatlarini aniqlash, identifikatsiya va tahlil qilish»ni tushunadilar<sup>112</sup>. Baho berishdan maqsad – texnologiyani siyosat yordamida muammoni ochiq muhokama qilish orqali oqilonalashtirish. Buning uchun GFRda «Gen texnologiyasining imkoniyatlari va xavfi» masalasi bo'yicha Komissiya tuzilgan. Bu fanning yangi tarmog'ini parlament asosida demokratik boshqarishni tashkil etish yo'lidagi ilk urinishlardan biri hisoblanadi. Mazkur komissiyaning vazifalari quyidagilardir: ilmiy manfaatlar erkinligi va fuqarolarning huquqlari o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan konfliktlarni o'rganish; gen texnologiyasining yangi metodlarini insonga qo'llash imkoniyati chegarasini belgilash uchun mezonlarni, mazkur texnologiyadan sanoatda foydalanishda rioya etilishi lozim bo'lgan, yo'riqnomalar va xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish; gen texnologiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmlarini belgilash.

Gen texnologiyasi insonga tabiiy muhitni izchilik bilan va jadal sur'atlarda o'zgartirish imkoniyatini beradi (tabiatga buning uchun millionlab yillar talab etiladi). Mikroelektronikada birinchi o'ringa «inson – mashina» muammosi qo'yilsa, gen texnologiyasida «inson – inson» muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson o'z hokimiyatini tabiat va texnika bilan muomalada bo'lishning yangicha axloqiga muvofiq tasarruf eta oladimi? Gen injeneriyasi industrial jamiyat muammolarini yechishga qodirmi? U insoniyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygani yo'qmi? Bu savollar biolog olim X. Nordxofning diqqat markazida turadi; u ta'riflagan o'n tezis quyidagicha yangraydi:

**birinchidan**, gen texnologiyasi – universal vosita emas, balki biotexnologiya, hujayralar biologiyasi va genetikada qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod;

**ikkinchidan**, gen texnologiyasi yordamida insoniyat tabiatni o'zlashtirish uchun uning sirlari tagiga yetishi mumkin;

**uchinchidan**, bu bilimlar kelajakda inson irsiyati asoslarini yaxshilash imkonini beradi;

**to'rtinchidan**, ular energiya va ish vaqtini tejashi, kasalliklarni yengishi, lo'nda qilib aytganda, biotexnologiyalarni amalga keng tatbiq etish industrial jamiyatning insonparvarlashuvi omili sifatida maydonga chiqishi mumkin;

**beshinchidan**, bu imkoniyatlardan faqat gen texnologiyasi yordamida olingan bilimlarning tibbiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy bilimlar bilan o'zaro nisbati aniqlanganidan keyin foydalanilishi mumkin, ayni paytda

<sup>112</sup> Die Herstellung der Natur. Bonn, 1985. – 39-p.

gen texnologiyasini amalga joriy etish, yashash sharoitlarini yaxshilash konsepsiyasiga muvofiq bo'lishi talab etiladi;

**oltinchidan**, gen texnologiyasining turi va qo'llanish sohasi bo'lg'usi siyosiy va jamoatchilik o'rtasidagi munozaralar jarayonida aniqlanadi;

**yettinchidan**, gen texnologiyasida yangi bilimning paydo bo'lish tezligi ortadi va bundan uning samaraliligi kelib chiqadi;

**sakkizinchidan**, biologik bilimning o'sishi u bilan suiiste'mol qilish hollariga olib kelishi mumkin emas;

**to'qqizinchidan**, yangi bilim inson ustidan genetik nazorat o'rnatish uchun yangi imkoniyatlar ochadi, biroq «nuqsonli» genlar sifatidagi ballast hajmlari haqidagi bilim ijtimoiy va kasbiy kamsitishlarga, og'ir ruhiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

**o'ninchidan**, gen texnologiyasiga nisbatan ikki xil nuqta nazar paydo bo'ldi – bu yerda skeptik munosabat munozaralarda ishtirok etgan ozchilikka, optimistik munosabat esa – ko'pchilikka tegishli<sup>113</sup>.

Ko'pgina mutaxassislar fikriga ko'ra, biotexnologiyaning qo'llanishi so'nggi yillarda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda yaxshi samara berayotir. Biroq, shunga qaramay, gen texnologiyasi axloqiy muammolarining dolzarblik darajasi oshib bormoqda. Ushbu muammolar (ular jamuljam holda fanda yangi yo'nalish – bioetikani hosil qiladi) milliy muassasalarda va nohukumat tashkilotlarida muhokama qilinmoqda. Bu yerda ilmiy-texnika taraqqiyoti va axloq normalari o'rtasida to'qnashuv ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. F. Saragosa bu xususida shunday deb yozadi: «Fan bilan vijdon, texnika bilan axloq o'rtasidagi to'qnashuv hech qachon hozirgidek keng tus olmagan, butun dunyoga tahdidga aylanmagan edi. Molekulyar genetik va yadro energiyasi – son-sanoqsiz misollardan ikkitasi – odamlar hukmiga binoan mo'jiza yaratishi ham, halokatga sabab bo'lishi ham mumkin. Hamma gap ilmiy bilimlardan qanday foydalanilishida»<sup>114</sup>.

Bioetikaning ahamiyati insonning genetik xaritasini yaratish imkoniyatini beruvchi «inson genomi» loyahasining ishlab chiqilishi bilan ham belgilanadi. «Inson genomi xaritasini yaratishdan ulkan maqsadlar ko'zlanayotir, - deb ta'kidlaydi F. Mayor. – Insonning o'zi ilk bor avaylab asrash zarur bo'lgan butunjahon merosining bir qismi sifatida qaraladi»<sup>115</sup>. Biologiya va gen texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar bunday fikr-mulohazalar uchun asos beradi. Hozirgi vaqtda Darvin g'oyasi va DNK asosidagi irsiyat konsepsiyasining birikmasini o'zida ifodalovchi

<sup>113</sup> Qurang: Die Herstellung der Natur. Bonn, 1985. – 79-80-p.

<sup>114</sup> Саргоса Ф.М. На пути к новой этике // Курьер ЮНЕСКО. 1988. Июнь. – 4-с.

<sup>115</sup> Майор Ф. Комментарий ЮНЕСКО и геном человека // Курьер ЮНЕСКО. 1993. Июнь. – 47-с.



evolyutsiya sintetik nazariyasini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Aks holda biologiyada va umuman fanda miya faoliyati va uning idrok etish, xotira, emotsiyalar va o'zlikni anglash kabi qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan yirik muammolarni yechish mumkin emas. Mazkur «tutqich bermas nerv fenomenlari»ni belgilovchi fizik mexanizmlar oxir-oqibat yontib berilishiga ko'pgina olimlar, shu jumladan, F. Krik (DNK strukturasi kashf qilganlardan biri)ning ishonchi komil<sup>116</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, biologik tadqiqotlarni gen texnologiyasi metodlari yordamida rivojlantirish jarayonlari bioximiklar darvincha evolyutsiyani molekulyar darajada amalga oshirishlariga olib keldi. Darvin nazariyasi tabiatda kuzatiladigan evolyutsiya bilan muvofiq keladi, hozirgi vaqtda olimlar evolyutsiya jarayonini laboratoriyada makromolekulalar bilan o'tkazilayotgan tadqiqotlar jarayonida gavdalanirishga harakat qilmoqdalar. Bu turdagi eksperimentlar maqbul xossalarga ega bo'lgan molekulalarni olish imkonini beradi. Darvin nazariyasiga muvofiq evolyutsiya mutasil takrorlanuvchi jarayonlar – tanlanish, amplifikatsiya va mutatsiya bilan o'zaro aloqada amalga oshadi. Amplifikatsiya – meros bo'lib o'tgan genlardan nusxa ko'chirish demak, tabiatda u tanlanish bilan bog'liq organizmlar nasl qoldirish uchun o'ziga juft tanlaydi va ushbu jarayon ota-ona geni ularning avlodlariga o'tishiga olib keladi.

Olimlar endi molekulyar evolyutsiya bilan laboratoriya sharoitida shug'ullanmoqdalar. «Tabiiy evolyutsiyadan farqli o'laroq, laboratoriyadagi evolyutsiyani qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin, - deb yozadi J. Joys. – Rekombinativ DNK texnologiyasi asosidagi zamonaviy metodlar to'liq nukleotid ketma-ketlikni aniqlash va katalitik xossalarni aniq baholash uchun har qanday avloddan individual molekulalarni ajratish imkonini beradi. Molekulyar evolyutsiya jarayonini to'liq rekonstruksiya qilish mumkin. Hatto evolyutsiya tarixining istalgan lahzasida orqaga qaytish va tanlanishning avvalgi yoki yangi mezonlaridan foydalanib, jarayonni qaytadan boshlash mumkin»<sup>117</sup>.

Garchi darvincha evolyutsiya (selektiv amplifikatsiya strategik takrorlanuvchi randomizatsiya bilan uyg'unlikda) hozircha faqat DNK va RNK bilan amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, oqsillar va boshqa xil makromolekulalarning yo'naltirilgan evolyutsiyasini ta'minlovchi tizimlarni yaratish ustida olib borilayotgan ishlar oxiriga yetib qoldi. «Yo'naltirilgan evolyutsiya bioximiklarga tabiat bilan uning qoidalariga muvofiq o'ynash usulini beradi. Laboratoriyada yaratilgan yangi molekulalar tabiiy molekulalar bilan o'ziga xos tarzda bog'lanishi

<sup>116</sup> Огибалов Хорези Дж. Рубежи современной науки // В мире науки 1993. № 2-3. – 9-с.  
<sup>117</sup> Джайс Дж.Ф. Направленная молекулярная эволюция // В мире науки. № 2-3. – 39-с.

mumkin»<sup>118</sup>. Yangi katalizatorlarni ishlab chiqish yo'naltirilgan evolyutsiyani qo'llash mo'ljallanayotgan muhim sohalardan biridir. Bu yerda makromolekulalarning o'z replikatsiyasini katalizatsiya qilish qobiliyati diqqatga sazovor; bunday makromolekulalar evolyutsiyasi o'z-o'zini quvvatlovchi bo'lishi lozim. Ma'lumki, ayni shu xossa egalari sayyoramizdagi hayotga asos solgan. «O'z-o'zini quvvatlovchi molekulalar biokimyoviy nuqta nazardan tirik molekulalar hisoblanadi. Dastavval hayotni imitatsiya qilishga urinishdan boshqa narsa bo'lmagan yo'naltirilgan evolyutsiya uni yangidan kashf qilish usuliga aylanishi hech gap emas»<sup>119</sup>. Agar bu prognoz amalga ohsa, har qanday organizmni, shu jumladan, inson organizmini ham laboratoriyada yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Inson gen texnologiyasidan foydalanishning ijtimoiy-madaniy oqibatlarini, ayniqsa, inson tabiatiga aralashishning ijobiy va salbiy jihatlari hozirgi zamon falsafiy tafakkurining dolzarb muammolaridan biriga aylangani tasodifiy bir hol emas. Axir inson ma'naviy va jismoniy omillar birligini o'zida ifodalaydi, organizm inson shaxsiyatining asosi hisoblanadi. Ayni shu sababli insonning jismoniy olamiga gen texnologiyasining aralashuvi muammosini o'rganishda quyidagi qoidalarni e'tiborga olish talab etiladi:

- genetik material bilan manipulyatsiya qilish hollari insonning qudratini va ayni paytda uning o'zligini namoyish qiladi;
- inson bioevolyutsiyasi sur'atlarini gen texnologiyasi metodlari yordamida sezilarli darajada jadallashtirish insoniyatning rivojlanishida tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi;
- inson tabiatini o'zgartirish natijalari ular qaysi axloq tizimida amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni axloqiy kodekslarning ko'p sonliligi omili hisobga olinishi lozim;
- inson tabiatini o'zgartirish masalalariga noarximed vaqti konsepsiyasiga muvofiq yondashish talab etiladi (bu yerda vaqt modeli tartibga solingan va tartibsiz to'plamlardan tarkib topadi), bu esa «post-gomo» paydo bo'lishi mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi;
- gen texnologiyasining ijtimoiy-madaniy oqibatlarini dialektikaning uch elementlili g'oyasidan kelib chiqib prognoz qilish zarur;
- insonning axloqiy xulq-atvori fanning kichik tarmog'ini o'zida ifodalovchi texnologiya etikasi (bioetika) bilan ham belgilanadi;

<sup>118</sup> Джайс Дж.Ф. Направленная молекулярная эволюция // В мире науки. № 2-3. – 40-с.

<sup>119</sup> Джайс Дж.Ф. Направленная молекулярная эволюция // В мире науки. № 2-3. – 40-с.



insoniyatning biosfera funksiyasi va jamiyatning ekologik mas'uliyati asosida klassik talqindagi insoniylik tamoyilini butun tiriklikning o'ziga to'qligi haqidagi g'oya bilan to'ldirish zarur.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biolog A. Oleskin. «Sun'iy biotexnologiya tiriklikning tabiiy «konstruktorlik faoliyati», tabiiy biotexnologiya bilan muvofiq holatga keltirilishi lozim... Biotexnologiya doirasida insoniylik jonli tabiat yordamchisi vazifasini inson o'z zimmasiga olishini anglatadi»<sup>120</sup> deganida, bizningcha, to'la haq edi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda gap biotexnologiya (va gen texnologiyasi)ning «yumshoq» metodlari haqida boradi. Bugungi kunda Osiyo, Yevropa va Amerikaning turli mamlakatlarida gen texnologiyasi muammolarini (qadimgi Sharq tafakkurida gen texnologiyasi texnologiyaning og'ir vazifalarini tabiiy-ilmiiy va gumanitar yondashuvlarni birlashtirish yo'li bilan hal qiluvchi fanlararo ijodiy jamoa g'oyasi asosida o'rganishga harakat qilmoqdalar. Faqat shundagina insonning jismoniy olamiga gen texnologiyasining aralashuvi muammosining oqilona yechimini topish va bu bilan bog'liq masalalar to'plamini yechish mumkin.

**Go'zallik tuyg'usining biologik asoslari.** XXI asr boshida inson fenomenini tushunishda go'zallik tuyg'usining biologik asoslarini aniqlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Zotan go'zallik tuyg'usisiz inson so'zning tom ma'nosida inson bo'lishi mumkin emas. Hozirda yuz berayotgan axborot inqilobi sharoitida mazkur muammo alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi, zero, yangi axborot texnologiyalari estetik tasavvurlar tarixiga, individning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga boshqacha ko'z bilan qarashga majbur etadi. Shu jumladan, go'zallikni ham o'rganuvchi estetikaning ijtimoiy va tirixiy jihatlari ancha mufassal tavsiflangan va tadqiq etilgan. Ammo muammoning evolyutsion-biologik tomoni kam yoritilgan, zero: «Nima uchun tabiiy tanlanish go'zallik tuyg'usini rivojlantirgan?»,-degan savolga to'liq javob hali olinganicha yo'q. Taniqli genetik olim V. Efroimson bu muammoga evolyutsion-genetik nuqtai nazardan yondashar ekan shunday deb yozadi: «Muammoning ushbu tomoni mavjudmi? O'z-o'zidan ravshanki, bizning Nefertiti boshi, Gomer gekzametrlari, Sofokl va Esxil dramalari, Islandiya xalq dostonlaridan maxsus tayyorgarliksez hayratlanish qobiliyatimiz vaqt, tarix va sinfiylik mezonlariga bo'ysunmaydigan, lo'nda qilib aytganda, umuminsoniy ahamiyatga molik estetika omili mavjudligidan darak beradi»<sup>121</sup>.

<sup>120</sup> Олескин А.В. Голограмма мира // Человек. 1990. № 3. – 38-с.

<sup>121</sup> Эфроимсон В.П. Генетика этики и эстетики. – СПб(6), 1995. – 107-с.

Hozirgi vaqtda inson tabiatini anglab yetish jarayonida estetikaning ayni shu umuminsoniy omili yoki go'zallik tuyg'usining biologik asoslari birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Amerikada nashr etiladigan «Scientific observer» jurnali 1995-yilning bahorida «Kompyuter Mauglisi» deb nomlangan eksperimentning katta shov-shuvga sabab bo'lgan natijalarini e'lon qildi. Ushbu eksperiment g'oyasi yangi emas – u o'tgan asrning 30-yillarida fantast yozuvchi A. Belyaevning «Professor Duelning boshi» romanida ilgari surilgan edi. G'oyaning mohiyati ancha soddah inson miyasidan uning o'limidan keyin foydalanish. Mashhur fantast yozuvchi va mutafakkir S. Lemning «Texnologiyalar yig'indisi» deb nomlangan falsafiy asarida ham gap mazkur g'oyani ro'yobga chiqarish haqida boradi. Xususan, bu yerda yangi axborot texnologiyalari vositasida shaxsning ichki dunyosini to'liq «yozib olish» va elektron «jannat»da uning «umrboqiyli»ni ta'minlash imkoniyatlari haqida bahs yuritiladi<sup>122</sup>. «Kompyuter Mauglisi» deb nomlangan eksperiment doirasida amerikalik olimlar o'limga mahkum bo'lgan chaqaloq Sidning miyasini klasterlardan, ya'ni AQShdagi barcha personal kompyuterlar tarmog'idan tarkib topgan superkompyuterga kiritdilar va uning rivojlanish jarayonini uch yil mobaynida o'rgandilar.

Inson miyasi Koinotdagi eng murakkab tuzilma hisoblanadi. U yuz milliardga yaqin neyronlardan iborat<sup>123</sup>. Ba'zan inson miyasi har sekunda 10 mlrd.tagacha hisoblash amallarini bajaruvchi hisoblash-yechish moslamasi sifatida qaraladi. Amerikalik tadqiqotchilar miya elektrik potentsiallarining taxminan 60% ni mental skanerlash yo'li bilan oldilar ularni raqamlar bilan kodladilar va virtual klasterli kompyuterga kiritdilar. Shu tariqa Sidning modellashtirilgan miyasi «kompyuter Mauglisi»g aylandi va o'z hayotini kasb etdi. Bolaning ota-onasi uni tan oldilar va multimedia sistemalari, virtual voqelik vositalari bilan jihozlangan personal kompyuter vositasida u bilan muomala qila boshladilar. Avvali ular faqat ekranda o'z farzandining tasvirini ko'rar edilar, keyinchagina golografik quilmalar uning hajmli tasvirini aks ettira boshladi.

«Kompyuter Mauglisi» bilan o'tkazilgan eksperiment ma'lumotlar bayon etar ekan, A. Valentinov shunday deb yozadi: «Chaqaloq tasvir ekranga chiqarishdan osoni yo'q. Ammo uning tasviri vaqt o'tishi bilan «ulg'ayadimi»? Bu savolga aniq javob yo'q, xuddi shuningdek, bolaning ko'pgina savollarga ham javob mavjud emas. Chunonchi: Sid va uning ota-onasi o'rtasida muayyan ma'naviy aloqa o'rnatilganmi? U ota-onasi bilan muloqot qilish jarayonida ularning mehrini his qiladimi? Jin va Nadi

<sup>122</sup> Lem S. Summa technologiae. – Lublin, 1984.

<sup>123</sup> Qarang: Мозг. – Москва: 1984. – 10-с.



o'zlarining «tabiiy» o'g'li deb hisoblashlari tasodifiy bir hol bo'lmasa kerak. Kompyuterda oddiy dastur emas, balki qandaydir jonzot yashar? Albatta, bu savol g'ayritabiiy yangraydi, ammo ushbu voqeaning o'zi ham g'ayritabiiy emasmi?»<sup>124</sup>

Ammo qarshimizda – inson miyasining rivojlanish qonunlarini o'rganishga bag'ishlangan real eksperiment. Ayni holda insonga o'zining asl mohiyatini namoyon etish imkoniyatini beruvchi go'zallik tuyg'usi muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda «inson – kosmobiopsixo ijtimoiy birlik»<sup>125</sup>, -degan fikrga qo'shilish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, «inson tabiati uning estetik didi va tasavvurlari bo'lishi mumkinligidan darak beradi. Insonni qurshagan muhit mazkur imkoniyatning voqelikka aylanishini belgilaydi: u mazkur ijtimoiy odam ayni shu estetik did va tasavvurlarga ega ekanligini, boshqacha estetik did va tasavvurlar unda bo'lishi mumkin emasligini tushuntiradi»<sup>126</sup>. Ayni paytda, estetik emotsiyalarning biologik asoslari bilan ham hisoblashish talab etiladi. «Estetik emotsiyalar biologik asoslarining paydo bo'lishi muammosini o'rganish jarayonida biz mazkur emotsiyalarning rivojlanishi tabiiy tanlanish natijasida ajdodlarimizda boshlangan bo'lishi mumkinligining eng muhim uch sababini aniqladik.

1. Umumiy estetik emotsiyalar jamoani jipslashtiradi va shu tariqa u o'ziga yot bo'lgan tabiat qo'ynida va boshqa hamjamiyatlar davrasida yashab qolishiga ko'maklashadi (ushbu qoidaning to'g'riligini isbotlovchi primitiv dalillar sifatida baxshilar, skaldlar, afsonalar, qo'shiqlar, rivoyatlar, nihoyat, harbiy musiqa va orkestrlar, mardlik va qo'rqoqlik haqida kitoblarning mavjudligini keltirish mumkin).

2. Badiiy ta'sirchanlik dunyoni, ta'bir joiz bo'lsa, «ekspress-metod» yordamida anglab yetish imkoniyatini beradi.

3. Badiiy ta'sirchanlik yaxshilik va yomonlikning moddiy timsollarini teran anglab yetish imkonini beradi va shu tariqa o'zining evolyusion-genetik rivojlanish jarayonida o'zaro altruizmning evolyusion-genetik rivojlanish jarayoni bilan uzviy birikadi»<sup>127</sup>. Boshqacha qilib aytganda, go'zallik tuyg'usisiz «kompyuter Mauglisi» hech qachon homo sapiens bo'la olmaydi.

Estetik ta'sirchanlik (go'zallik tuyg'usi) insonda biologik, ijtimoiy va tarixiy omillar bilan belgilanadi. Insoniyat tarixida kuzatiladigan estetik didlar va tasavvurlarning rang-barangligini ma'lum darajada shu bilan izohlash mumkin. Go'zallik moddiy shakllarining rang-barangligi, turli-

<sup>124</sup> Валентинов А. Жизнь после смерти в компьютере? // Российская газета. 1995. 10 июня.

<sup>125</sup> Поликарпов В.С. Время и культура. – Харьков, 1987.

<sup>126</sup> Плясов Г.В. Искусство. – Москва: 1922. – 46-с.

<sup>127</sup> Эфронсон В.П. Генотипа этика и эстетика. – СТ(6), 1995. – 107-108-с.

tuman estetik tasavvurlar va didlar go'zallik tuyg'usining umumiy biologik ildizlariga asoslanadi. Go'zallik tuyg'usi estetik tasavvurlarda umuminsoniy omilning asosiy elementi hisoblanadi. Uning ichki imkoniyatlari evolyusion-genetik rivojlanish va biologik jihatdan tug'ma geterogenlik bilan belgilanadi. Hozirgi zamon fanida biokimyoviy estetikani rivojlantirish zarurligi g'oyasi ilgari surilayotgani tasodifiy bir hol emas. Rossiyalik biolog S. Shnol fermentlarning tebranish chastotalari va morfogenez geometrik masalasini yechish uchun javob beruvchi tovushli maydonlarning o'zaro aloqasini o'rganar ekan shunday deb yozadi: «Shu narsa oydek ravshanki, gap faqat uzunligi hujayra o'lchamlari darajasida bo'lgan to'lqinlar haqida, ya'ni taxminan 1-100 mm bo'lgan tovushli to'lqinlar haqida borishi mumkin; tovushning normal tezligida ularning chastotalari taxminan  $10^7$ - $10^9$  Gs bo'ladi. Biroq jelesimon protoplazmatik strukturalarda asosan siljish to'lqinlari tarqaladi. A. Sarvazyan o'z xodimlari bilan o'tkazgan tadqiqotlar bunday to'lqinlar tezligi taxminan 1 m/s bo'lishini ko'rsatadi. Tegishli ravishda, to'lqinlarning zaruriy uzunligi taxminan  $10^4$ - $10^6$  Gs chastotalarda olinishi mumkin. Chastotalarning bu diapazoni biokimyoviy jihatdan realdir. Bunday chastotalarda asosiy fermentlar ishlaydi. Hozir esa aksariyat fermentlarning aylanishlari soni chastotalarning eshitish mumkin bo'lgan diapazoni bilan muvofiq kelishini qayd etishning o'zi kifoya qiladi. Bu eshitish qobiliyatining tabiati, musiqani idrok etish qobiliyatining kelib chiqishi va hokazolar haqida mulohaza yuritishga turtki beradi. Ammo bu mulohazalar morfogenez biokimyosi sohasiga emas, balki biokimyoviy estetika sohasiga tegishlidir»<sup>128</sup>. Ma'lum bo'lishicha, inson organizmining mavjudligi va faoliyati uchun amalda javobgar bo'lgan fermentlarsiz musiqani idrok etish mumkin emas ekan.

Aynan musiqani idrok etish jarayonida vujudga keladigan go'zallik tuyg'usi misolida uning biologik asoslari, fundamental, yarim instinktiv xususiyati ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Ma'lumki, musiqa universal til hisoblanadi, zero, deyarli barcha individlar ohanglar va ritmlar tizimlariga ta'sirchandirlar. Umuman olganda, bunday ta'sirchanlik odamzotga xos va u bizga inson miyasida yuz berayotgan tamoyilial jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar musiqani idrok etish qobiliyatini belgilovchi sohalar bosh miya chap yarim pallasi po'stlog'ida joylashganligini ko'rsatadi. Musiqa bilan alohida aloqa qiluvchi sohalar esa chakka qismida, eshitish faoliyati uchun javobgar bo'lgan bo'g'inlar yaqinida joylashgan<sup>129</sup>. Musiqaning fundamentalligi shu bilan

<sup>128</sup> Шноль С.Ю. Физико-химические факторы биологической эволюции. – Москва: 1979. – 160-с.

<sup>129</sup> Qarang: Young J. Programy mozgu. – Warszawa, 1984. – 346-347-p.



belgilanadiki, u kodi qisman genlar darajasida dasturlashtirilgan va inson organizmidan o'rin olgan, qisman madaniyat bilan belgilanadigan san'at bo'ladi. Zero, musiqa ritmi inson ekzistensiyasining muhim ko'rsatkichi –

Ma'lumki, go'zallik tuyg'usini alohida biologik tizim sifatidagi insonning psixofizik jarayonlarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu qoida tobora ko'proq e'tibor berilayotgan hozirgi davr sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda kosmosni o'zlashtirish jarayoni ham estetik qadriyat sifatidagi tabiat haqidagi tasavvurlarga tuzatishlar kiritmoqda. Dunyoviy tajribaga va Koinotni o'rganish amaliyotiga asoslangan kosmizm g'oyalari ilgari ma'lum bo'lmagan, odamzotning biologik va ma'naviy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan «estetik effektlar» uchun zamin yaratmoqda<sup>130</sup>. Hozirgi vaqtda ramzlari insonning Koinot bilan aloqasini ifodalovchi yapon bog'lariga qiziqish kuchaygani tasodifiy bir hol emas. Dzen qonunlariga xos bo'lgan nasihatgo'ylik uslubi yapon bog'lari san'ati bilan birikadi. Dzen qonunlari meditatsiya, ekstaz, trans va boshqa psixofizik usullar bilan bir qatorda insonga Koinot bilan bevosita aloqa qilishga imkoniyat yaratuvchi ongning o'zgartirilgan holatiga erishish imkonini beradi<sup>131</sup>.

Bugungi kunda inson ijodida go'zallik tuyg'usining ahamiyatiga e'tibor ham kuchayib bormoqda. So'nggi o'n yilliklar mobaynida ijodiy psixofizik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ayniqsa faollashdi. Insonga real makon-vaqt strukturasi chiqish imkoniyatini beruvchi «arxitekturaviy mashinalar»ni yaratish mazkur tadqiqotlarning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda «arxitekturaviy mashina»ning alohida usulda tashkillashtirilgan ko'lamli strukturasi insonda ijod uchun zarur bo'lgan yangi obrazlar va assotsiatsiyalar paydo bo'lishiga ko'maklashishi taxmin qilinadi. Izlanishlarning mazkur yo'nalishi elektron ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq. «Insonni haqiqiy borliqdan ajratadigan, uni boshqariladigan illyuzion effektlar dunyosiga joylashtiradigan «xususiy muhit» eng yangi audiovizual texnika yordamida yaratildi»<sup>132</sup>. Masalan, arxitektorlar P. Kuk, D. Krompton, R. Xerron yaratgan «xayoliy shaharlar» loyihalarida elektronika turli xil proyeksiyalar va golografik effektlar, rang, chiroq va tovushli dasturlar yordamida urbanistik peyzaj xayoliy manzarasini yaratadi.

<sup>130</sup> Хачатурянц Д.Х. Природа как эстетическая ценность. – Москва: 1987. – 31-4.

<sup>131</sup> Оширо, Навоилалла Н. Японские сады. – Москва: 1975. – 97-98-б.; Штейнвер Е.С. Икко Судзюэн. – Москва: 1987. – 73-76-с.

<sup>132</sup> Рыбушкин А., Дворжак К. Прогностика в архитектуре и градостроительстве. – Москва: 1983. – 50-51-б.


«Videomadaniyat» fenomeni ham ulkan imkoniyatlarga ega bo'lib, bunda o'z uyidagi «yalpi videomuhit» har qanday tasavvurdan kuchli bo'lgan videovizual effektlarni yaratish imkoniyatini beruvchi sintezatorlar bilan to'ldiriladi. «Bunday tizimni biologik aloqa moslamalariga ulab, o'z kechinmalari, tushlarini vizual gavdalanirish va eshitish mumkin. «Mediatektura» sohasidagi eksperimental inson tasavvurini «o'ta ta'sirchan maydonlar»ga ko'chiruvchi tovushli optik obrazlarni yaratish va insonning odatdagi sezgilarini butunlay yangi sensorli «interpersonal» psixologik reaksiyalar bilan almashtirish imkonini beradi»<sup>133</sup>.

**Xulosa.** Shunday qilib, go'zallik tuyg'usi zamirida o'zi ham real dunyoning go'zalligi ta'sirida shakllangan biologik poydevor yotadi. Real dunyo go'zalligi matematik shaklda ifodalanishi mumkin. Hozirgi vaqtda ushbu shakldan kompyuter grafikasida, insonning kompyuter bilan o'zaro aloqasida, virtual borliqni yaratishda samarali foydalanilmoqda.

### Tajribaviy amaliy matnlar


Inson fenomeni, gen injeneriyasi, inson biosfera evolyutsiyasining zaruriy bosqichi, insoniyatning biosferaga oid funksiyasi, yangi ekologik tartib, noosfera, homo sapiens, daraxt, hayvon, inson, mezoskosm – bu o'rta kengliklar dunyosi, *Mezoskosm – bu real dunyoning bir bo'lagi*. Koinot – ulkan golografik va kvant-mexanik tizim, Inson – o'simlik, golografik biokompyuter, inson – Koinot gologrammasi, bioetikaning ahamiyati, darvin nazariyasi, konstruktorlik faoliyati, estetik ta'sirchanlik, inson ijodida go'zallik tuyg'usining ahamiyati.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



<sup>133</sup> Рыбушкин А., Дворжак К. Прогностика в архитектуре и градостроительстве. – Москва: 1983. – 50-51-б.





**Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Inson biosfera evolyutsiyasining zaruriy bosqichi.
2. Gen texnologiyasi va insonning jismoniy olami.
3. Inson va biosferaning kvant-to'liqlinli aloqasi.
4. Genom golografik kompyuter sifatida.
5. Inson - Geya elementi.
6. Go'zallik tuyg'usining biologik asoslari.

**Esse mavzulari**

1. Inson falsafaning azaliy muammosi.
2. Insonning korpuskulyar-to'liqlinli tabiati.
3. Koinotda inson o'rni.
4. Inson haqidagi mikrotasavvurlar.
5. Miya faoliyati kvant qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi.
6. Miya ishini modellashtirishning ahamiyati.

**Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari**

1. Noosferaga o'tish haqidagi g'oya kim tomonidan ilgari surilgan?

- A) Vernadiskiy
- B) Moiseev
- S) Serr
- D) Yonas

2. Insoniyatning geologik rolga etibor qaratgan olim kim?

- A) Vernadiskiy
- B) Moiseev
- S) Serr
- D) Yonas

3. Noosfer atamasini ilmiy muomlag kiritgan olim kim?

- A) Le Rua va Sharden
- B) Moiseev
- S) Serr
- D) Yonas



4. „ Yangi ekologik tartib “ kitobini kim yozgan?

- A) Yonas
- B) Ferri
- S) A va B
- D) Prigojin

5. Utilitaristlar mavqiyi qaysi davlatda kuchli?

- A) AQSH va Avstraliya
- B) Xitoy
- S) Yaponiya
- D) Hindiston

6. Utilitaristlarning soni hozirda qancha ?

- A) 120 mlndan ortiq
- B) 100 mln
- S) 70 mln
- D) 11 mln

7. „ Geya davri: bizning tirik yerimiz biografiyasi“ asarini kim yozgan?

- A) Lavlok
- B) Ferri
- S) A va B
- D) Prigojin

8. Sayyoramizda mavjud bo'lgan biologic turlarning qanchasi qirilib ketgan?

- A) 33%
- B) 31%
- S) 73%
- D) 99%

9. Kim „ mening sayyoramda biologic turlar qancha ko'p bo'lsa, u shuncha barqarorlashadi“?

- A) Lavlok
- B) Ferri
- S) A va B
- D) Prigojin

10. Kim „ Insoniyat uchunchi ulkan qayta qurish bo'sag'asida turganiga ishonchim komil“ degan?

- A) Vernadskiy
- B) Moiseev
- S) Serr
- D) Yonas

11. Kimlar biologik tizimlar sayyoramizning jonli moddasi va atrof-muhit Yer yaqinidagi yagona ulkan golagrammaga o'xshab ketadigan yagona fizik tizim sifatida tasniflanishi mumkin degan?

- A) Bom va Pribram
- B) A. King
- S) V. Shnayder
- D) Motoori Norinagi

12. Insonning obrazi ayniqsa verbal fikrlash uslubi mehnat faoliyati va to'plangan tajriba mahsuli hisoblanadi degan olim kim?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Dekart
- D) Kaznacheev

13. Kimni tajtibalari tiriklikning eng avvalo biologik tizimlardagi kvant jarayonlari bilan bog'liq holda sirli xususiyatga oydinlik kiritish imkonini beradi?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Dekart
- D) Kaznacheev

14. 1913-yil fundamental fizik konsepsiyani kim tariflagan?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Kartan
- D) Kaznacheev



15. Qachon Eyneshtiy-Kartan nazariyasi vujudga keldi?

- A) B va S javoblari to'g'ri
- B) XX asr 70-yillar
- S) XX asr 50-yillar
- D) XX asr 60-yillar

16. Kim „Monadologiya“ asarini yozgan?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Leyibnes
- D) Kaznacheev

17. Kim „materiyaning eng kichik qismida mavjudodlar, tirik jonzorlar, hayvonlar, entelixiyalar, jonlarning butun bir dunyosi mavjud“ degan?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Leyibnes
- D) Kaznacheev

18. Qayerda texnologiyalarning oqibatlariga baxo berish konsepsiyasi rivojlana boshladi?

- A) AQSH
- B) Xitoy
- S) Yaponiya
- D) Turkiya

19. Qachon texnologiyalarning oqibatlariga baxo berish konsepsiyasi rivojlana boshladi?

- A) B va S javoblari to'g'ri
- B) XX asr 70-yillar
- S) XX asr 50-yillar
- D) XX asr 60-yillar

20. Qayerda gen texnologiyasining imkoniyatlari va xavfi masalasi bo'yicha Komissiya tuzilgan?

- A) AQSH
- B) Xitoy
- S) Yaponiya
- D) GFR

21. Mikroelektronikada birinchi o'ringa qaysi muammo qo'yiladi?

- A) inson-mashina
- B) inson-inson
- S) mashina-inson
- D) hammasi to'g'ri

22. Kim „fan bilan vijdon, texnika bilan axloq o'rtasidagi hech qachon hozirdidek keng tus olmagan...“ degan?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Leyibnes
- D) Saragosa

23. Kim „inson genomi xaritasini yaratishdan ulkan maqsadlar ko'zlanayotir“ - deb ta'kidlaydi?

- A) Patanjali
- B) Eddington
- S) Mayor
- D) Saragosa

24. Kim „Tabiiy evolutsiyadan farqli o'laroq, laboratoriyadagi evolutsiyani qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin“ degan?

- A) Joys
- B) Eddington
- S) Mayor
- D) Saragosa

25. „Professor Duylning boshi“ asarini kim yozgan?



- A) Patanjali
- B) Belyayev
- S) Mayor
- D) Saragosa

#### Adabiyotlar

1. Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. – Москва: 1988. – 35-с.
2. Моисеев Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные разломы // Вопросы философии. 1995. № 1. – 4-с.
3. Хадкевич Д.Х. Природа как эстетическая ценность. – Москва: 1987. – 31-с.
4. Николаева Н. Японские сады. – Москва: 1975. – 97–98-б.; Штейнер Е.С. Иккю Содзюн. – Москва: 1987. – 73–76-с.
5. Рябушин А., Дворжак К. Прогностика в архитектуре и градостроительстве. – Москва: 1983. – 50–51-б.
6. Bohm D. Quantum theory as an indication of new order in physics // Foundations Phys. 1971. – 139–168-б.; 7. Pribram K. Problem concerning the structure of Consciousness // Consciousness and the Brain. – N.Y., 1976. – 83–120-p.
8. Qarang: Казначеев В.П., Михайлова Л.П. Бионинформационная функция естественных электромагнитных полей. – Новосибирск, 1985. – 186-с.
9. Валентинов А. Жизнь после смерти в компьютере? // Российская газета. 1995. 10 июня.
10. Поликарпов В.С. Время и культура. – Харьков, 1987.
11. Плеханов Г.В. Искусство. – Москва: 1922. – 46-с.
12. Эфронсон В.П. Генетика этики и эстетики. – СП(б), 1995. – 107–108-с.

#### 4-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING IJTIMOIIY MAQOMI

**Inson fenomenining ijtimoiy omillari.** XXI asr boshida inson fenomeni ulkan ijtimoiy o'zgarishlar fonida bo'rtib namoyon bo'lmoqda. Hozirgi sotsiologik va siyosiy nazariyalar bu ildam o'zgarishlar ortidan quvib yeta olayotgani yo'q. Ayni hol bu nazariyalarning aksariyati XVIII asrda vujudga kelgan dunyoning ilmiy manzarasi asosiy qoidalariga tayanishi bilan belgilanadi. Vaholanki, hozirda sharqona va g'arbna tasavvurlar sinteziga, izchil oqilona bilishga va ijodiy tasavvur parvozigga asoslangan dunyoning yangi manzarasi shakllanmoqda. Chiziqli dunyoqarashga asoslangan laplascha mexanik determinizm o'rini murakkablik, noaniqlik va nochizlilik hukm suruvchi dunyoning stoxastik manzarasi egallamoqda.

Hozirgi zamon sotsiologiyasi uchun insonni o'zini qurshagan sotsium bilan bog'liq bo'lmagan universal mavjudot sifatida o'rganish muhimdir. Bunda asosiy e'tibor inson va universumning, makrokosmos va mikrokosmosning o'zaro aloqasiga qaratiladi. Bu inson va jamiyat o'zaro aloqasining mohiyati inson ijtimoiy-tabiiy fenomenida namoyon bo'lishini anglatadi. Endilikda inson fenomeni tarix sahnasiga chiqmoqda, ayni shu sababli u ham mutaxassislar, ham oddiy odamlar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Inson – umumiylikning ayrim ko'rinishi yoki monada, degan g'oya jamiyat ongidan tobora mustahkam o'rin olmoqda.

Hozirgi davr voqeligi inson tabiatini eng yangi ijtimoiy va tabiiy fanlarning bilimlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo qiladi. «Inson – universum» («monada») muammosiga ijtimoiy nuqtai nazardan yondashish ko'p sonli masalalarni, chunonchi: yangi ijtimoiy tuzum shakllanayotgan sharoitda insonning iqtisodiy xulq-atvorini, tarixiy-falsafiy an'ana doirasida vujudga kelgan simfonik shaxs haqidagi tasavvurni, totalitar va demokratik tizimlarda inson maqomi, uning giperindividualligi muammosini o'rganishni talab qiladi. Bularning barchasi mazkur bob mazmunini tashkil etadi.

**Inson xulq-atvoriga nisbatan iqtisodiy yondashuv.** XXI asr boshida inson fenomenini tushunish uchun eng avvalo uning xulq-atvorini iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganish talab etiladi. Bu erda jiddiy kelishmovchiliklar bilan tavsiflanuvchi iqtisodiy nazariyaning holati muhim rol o'ynaydi. Ayrim nazariyachi-iqtisodchilar hozirgi zamon neoklassik nazariyasining o'z tamoyillari universaldir, degan fikrni asoslashga harakat qiladilar (G. Bekker va boshqalar, ba'zi olimlar esa iqtisodiy nazariyaning tor talqinini



himoya qiladilar (R. Xaylbroner va boshqalar)<sup>134</sup>. Biroq inson xulq-atvoriga nisbatan iqtisodiy yondashuv amalda mavjud, faqat u turli iqtisodiy nazariyalarda turlicha talqin qilinadi.

Hozirgi zamon neoklassik nazariyasi vakili G. Bekker «Iqtisodiy tahlil va inson xulq-atvorini» asarida shunday deb yozadi: «Men iqtisodiy yondashuv keng ko'lamli ekanligiga, uni insonning har qanday xulq-atvoriga tatbiq etish mumkinligiga ishonch hosil qildim»<sup>135</sup>. Bu yerda «iqtisodiy fan – ijtimoiy fanlar malikasi», degan tanish ibora beixtiyor yodga keladi. Dalillar keltirish uslubining izchilligi, matematik apparat qo'llanilishi, ta'riflarning ischamligi va mantiqning aniqligi iqtisodiy nazariyani yuksak darajaga ko'tardi va nisbatan «erkin» ijtimoiy fanlar unga tenglasha boshladilar degan fikr mavjud. «Iqtisodiy nazariya ijtimoiy fanlarning barchasiga kirib boradi, xuddi shuningdek, ijtimoiy fanlar ham iqtisodiy nazariyaga kirib boradi. Iqtisodiy nazariyaning begona hududlarni egallash imkoniyatlari shu bilan belgilanadiki, u foydalanuvchi analitik kategoriyalar – resurslarning cheklanganligi, xarajatlar, afzalliklar, yo'l tanlash – bularning barchasi o'z qo'llanish sohasiga ko'ra tom ma'noda universal hisoblanadi. **Iqtisodiy nazariya – ijtimoiy fanlarning tom ma'noda universal grammatikasidir**»<sup>136</sup>.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: iqtisodiy nazariya uni boshqa ijtimoiy fanlar (sotsiologiya, antropologiya, psixologiya va boshqalar)dan yuqori qo'yadigan muayyan fundamental atributlarga chindan ham egami? G. Bekker: «Iqtisodiy yondashuv o'z qudratiga ko'ra betakroridir, chunki u inson xulq-atvorining ko'p sonli rang-barang shakllarini birlashtirishga qodir»<sup>137</sup>, deb hisoblaydi. Iqtisodiy yondashuv inson xulq-atvoriga boshqa yondashuvlarga qaraganda kengroq yondashishi umum e'tirof etilgan. Bundan tashqari, iqtisodiy yondashuv o'zaro kelishilgan xulq-atvoriga erishish uchun turli ishtirokchilar (individuumlar, firmalar va millatlar)ning harakatlarini turli darajada muvofiqlashtiruvchi bozorlar mavjudligidan kelib chiqadi. Nihoyat, iqtisodiy yondashuv vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgaraydigan afzalliklar boylar va kambag'allarda, shuningdek, turli jamiyatlar va madaniyatlarga mansub bo'lgan shaxslarda uncha farq qilmaydi.

Hozirgi zamon biologiyasi doirasida yaratilgan iqtisodiy yondashuv va tabiiy tanlanish nazariyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq va yagona,

<sup>134</sup> Qarang: Bekker G. Экономический анализ в человеческом поведении. Москва: 1983, Хайлбронер Р. Экономическая теория как универсальная наука // Thesis. Теория и история экономических и социальных институтов и систем. – Москва: 1993.

<sup>135</sup> Bekker G. Экономический анализ в человеческом поведении. Москва: 1983. – 29-с.

<sup>136</sup> Hirschle J. The expanded Domain of Economics // American Economic Review. 1985. Vol. 75. – 53-p.

<sup>137</sup> Bekker G. Экономический анализ в человеческом поведении. Москва: 1983. – 26-с.

yanada fundamental nazariyaning turli tomonlarini o'zida ifodalasa kerak. G. Bekker iqtisodiy yondashuvni faqat moddiy ne'matlar va ehtiyojlar, hatto bozor iqtisodiyoti bilan ham cheklash to'g'ri bo'lmaydi deb hisoblaydi. Inson xulq-atvoriga nisbatan iqtisodiy yondashuv yangi emas, u bozor iqtisodiy tizimiga ham qo'llanilishi mumkin. Shuni qayd etish lozimki, A. Smit siyosiy xulq-atvorni tushuntirishda, I. Bentam inson lazzatlari va azob-uqubatlarini hisoblash uchun iqtisodiy yondashuvdan foydalangan edi.

Iqtisodiy yondashuvdan keng foydalanish mumkinligi haqidagi tasavvur o'tgan asrning so'nggi choragida paydo bo'lgan ko'p sonli ilmiy adabiyotlarda qo'llab-quvvatlanadi. Ularda iqtisodiy yondashuvdan ko'p sonli, rang-barang muammolarni, chunonchi: tilning rivojlanish jarayonini (J. Marshak), cherkovlarga qatnash darajasini (K. Ezzi va R. Erenberg), siyosiy faoliyatni (J. Buxanan va J. Tullok), huquqiy tizimni (R. Pozner), hayvonlarning qirilishini (D. Xamermesh va N. Soss), shuningdek, nikoh, tug'ilish va ajrashishlar darajasini (T. Shuls, V. Lends va R. Mikael) tahlil qilish uchun foydalaniladi<sup>138</sup>. Shunday qilib, **iqtisodiy yondashuv inson xulq-atvorini tushuntirishning umumli sxemasini o'zida ifodalaydi**. Ayni paytda sotsiologiya, sotsiobiologiya, psixologiya, tarix, antropologiya, huquqshunoslik va boshqa fanlar o'rganuvchi rang-barang noiqtisodiy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish talab etiladi.

Biroq ijtimoiy fanlar tizimida iqtisodiy nazariyaning o'zini xususida boshqacha nuqtai nazar ham mavjud. R. Xaylbroner fikriga ko'ra, iqtisodiy nazariyani ijtimoiy fanlarning «malikasi» deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. U amalga oshirgan ijtimoiy formativlar tahlili insoniyat tarixida o'tgan jamiyatlarning aksariyatida iqtisodiyot mavjud bo'lmaganini ko'rsatadi<sup>139</sup>. Shundan kelib chiqib, R. Xaylbroner iqtisodiy mehnatni ijtimoiy tashkil etish fundamental tamoyilidan izlash lozim deb hisoblaydi. Zotan, har qanday jamiyat o'zining moddiy ta'minoti haqida o'ylashi lozim ekan, bu muayyan darajada rivojlangan mehnat taqsimotini va jamiyat a'zolari kuch-g'ayratini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shu ma'noda iqtisodiy fan mehnatni jamiyat xizmatiga qo'yish usullarini o'rganish yoki tushuntirish vositasi sifatida maydonga chiqadi<sup>140</sup>.

Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan iqtisodiy fan bozor iqtisodiyoti tizimini o'rganish uchun amalda ulkan ahamiyat kasb etadi, zero, inson xulq-atvorini boshqarishda ijtimoiylashuv mexanizmlari va buyruqlarga

<sup>138</sup> Lands W. Feast of Flying: An Economic Study of US. – N.Y., 1987.

<sup>139</sup> Хайлбронер Р. Экономическая теория как универсальная наука // Thesis. Теория и история экономических и социальных институтов и систем. – Москва: 1993. С.42.

<sup>140</sup> O'sha joyda. – 46-b.



bo'ysunish unda birinchi o'rinda turmaydi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yangi etos hamda mehnatni tashkil etishning sof «iqtisodiy» usulini imkoniyatdan voqelikka aylantirgan yangi institutsional dinamika amal qiladi.

Biz o'rganayotgan muammo nuqtai nazaridan R. Xaylbronerning iqtisodiyot ildizlarini ijtimoiy institutlardan izlash kerak degan fikri diqqatga sazovordir. Umuman olganda, insonning ko'p darajali ekzistensiyasini faqat uning iqtisodiy xulq-atvori bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi – «iqtisodiy odam»ni mutlaqlashtirish inson tabiatining deformatsiyalanishiga va oxir-oqibat uning inkor etilishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa «iqtisodiy odam» o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini aynan bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat doirasida ayniqsa to'liq ro'yobga chiqargani ham hech kimga sir emas. M. Veberning «Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi», V. Zombartning «Burjua. Hozirgi zamon iqtisodiy odamining ma'naviy rivojlanish tarixidan etyudlar» asarlari ayni shu masalaga bag'ishlangan. Bu asarlarda burjua jamiyati paydo bo'lishi bilan ijtimoiy etosning o'zgarishi ko'rsatib berilgan. Xususan, V. Zombart hozirgi zamon iqtisodiy odamiga xos bo'lgan umumiy jihatlarni sanab o'tadi:

**birinchidan**, u o'z hayotida mo'ljal oladigan asosiy qadriyatlar – bu mo'may daromad va biznesdir;

**ikkinchidan**, u qo'lga kiritishi, tashkillashtirishi, muzokaralar olib borishi, spekulyasiya va kalkulyasiya qilishi lozim;

**uchinchidan**, uning faoliyati o'z faolligini mutlaqo oqilonalashtirish va kengaytirish tamoyillariga to'la bo'ysunadi;

**to'rtinchidan**, tirishqoqlik, tejamkorlik va farovonlik kabi xususiyatlar amaliy mexanizmning tarkibiy qismlariga aylandi<sup>141</sup>.

Ayni paytda amerikalik taniqli tadqiqotchi P. Berger industrial kapitalizm insoniyat tarixida misli ko'rilmagan ishlab chiqarish kuchlarini yaratganini, bu kuchlar jamiyatni demokratlashtirish asosi bo'lib xizmat qilganini ta'kidlaydi va zamonaviy ma'rifatli munosabatlarning rivojlanishi jamiyat barcha qatlamlarining moddiy farovonligini ta'minlaydi, individ huquq va erkinliklarining kafolatlarini yaratadi degan xulosaga keladi. Shuni e'tiborga olish lozimki, uning «Kapitalistik inqilob» deb nomlangan tadqiqoti turli gipotezalar to'plamini o'zida ifodalaydi, zero, «ijtimoiy fandand bundan ortig'ini kutish mumkin emas»<sup>142</sup>. Albatta, gipotezalar ilmiy bilimni rivojlantirishning zaruriy omili hisoblanadi, biroq fan o'z

<sup>141</sup> Zombart V. *Burjua. Etjudy po istorii duhovnogo razvitiya sovremennogo ekonomicheskogo cheloveka*. – Moskva, 1994. – 128-145-s.

<sup>142</sup> Berger P. *Kapitalisticheskaya revolyutsiya*. – Moskva, 1994. – 24-s.

mohiyatiga ko'ra bashorat qilish apparati hisoblanadi. Agar u o'zining ushbu muhim funksiyasini bajarmasa, u fan deb atalishga haqli emas.

Hozirgi dunyo voqeligi, uning rivojlanish jarayonlari bozor iqtisodiyotining mazmuni va shakl-shamoyili o'zgarigani haqida gapirish uchun asos beradi. Endi inson faqat qorin to'ydirish uchun ishlashni istamaydi. «To'qchilik» asosiy maqsad sifatida allaqachon erishilgan Yaponiya, AQSH, Shvetsiya kabi ilg'or mamlakatlarda bu ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bu yerda odamlar faqat to'qchilik uchun ishlashni istamaydilar. Natijada mehnatga rag'batlantirishning ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etish, «sifat to'garaklari», «insoniy munosabatlarda», daromadda ishtirok etish kabi noan'anaviy omillari paydo bo'ladi<sup>143</sup>. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy odam XXI asr boshida inson fenomenining qirralaridan faqat bittasini o'zida ifodalaydi.

**L. Karsavinning «simfonik shaxs» konsepsiyasi.** Shaxs muammosi davrimizning eng dolzarb ma'naviy muammolaridan biri hisoblanadi. L. Karsavin tomonidan yaratilgan shaxs konsepsiyasi ayni shu muammoni yechish yo'lidagi ko'p sonli urinishlardan biridir. Olimning «Shaxs haqida» asarida u ishlab chiqqan tizim o'zining uzil-kesil shakl-shamoyilini kasb etadi. Ushbu asar zamirida quyidagi g'oya yotadi: uch elementdan iborat birlik (voqelik dinamikasini tavsiflovchi tamoyil) – universal birlik (voqelik statikasini tavsiflovchi birlik) ontologik strukturasi borliqning shaxsiy obrazida gavdalanadi, shaxsning tuzilishi va hayotini tavsiflaydi. «Shunday qilib, shaxs o'zini borliqdan ajratmaydi va o'zini unga qarshi qo'ymaydi. U o'zini yagona va birdan-bir borliq sifatida anglab yetadi. Biroq shu bilan birga u borliqning alohida obrazi ham hisoblanadi va o'z-o'zini mazkur alohida obrazda namoyon bo'luvchi va mujassamlashuvchi borliq sifatida tushunib yetadi»<sup>144</sup>, – deb ta'kidlaydi L. Karsavin. Mazkur g'oya ta'sirida universallik metafizikasi shaxs konsepsiyasini birinchi o'ringa qo'yadi.

Simfonik shaxs haqidagi ta'limot L. Karsavin ijtimoiy konsepsiyalarining o'zagini tashkil qiladi. U universallik ierarxiyaviy konstruksiyasini ijtimoiy borliqqa to'g'ridan to'g'ri tatbiq etish mahsulidir. Inson individualligi o'zini qurshagan dunyo bilan o'zaro aloqaga kirishar ekan, unda muayyan dinamik, harakatchan birlik vujudga keladi. U shaxsi endigina shakllanayotgan, nomukammal tuzilishga ega bo'lgan insonning boshlang'ich individualligini va u o'zlashtirayotgan borliqni qamrab oladi. Indivdni o'z ichiga olgan bunday «shaxsiy tuzilma»ni L. Karsavin «simfonik shaxs» deb ataydi. Koinot inson o'zaro aloqa qiladigan

<sup>143</sup> Марсеев С.Н. *Введение в пострыночную экономику*. – Москва, 1993. – 50-с.

<sup>144</sup> Карсавин Л.О. *Личности // Религиозно-философские сочинения*. – Москва, 1992. Т. 1. – 30-с.



ierarxiyaviy tuzilishga ega bo'lgani bois simfonik shaxslarning ham tegishli ierarxiyasi mavjud. Simfonik shaxslarga dunyoning istalgan qismida duch kelish mumkin: ular bir-biri bilan o'zaro aloqa qilish va birikish, bir-biriga o'tish orqali ierarxiyaviy strukturalar hosil qilishlari mumkin. Binobarin, quyi va yuqori darajadagi simfonik shaxslar mavjud bo'ladi, ular boshqalarning omillari hisoblanadi yoki ularni omil sifatida o'z ichiga oladi. «O'z vaqti va makonida yagona bo'lgan dunyo o'zining shaxsiy borlig'ini hech bo'lmasa insoniyatda ro'yobga chiqaradi. U hech shubhasiz universal simfonik shaxs yoki turli darajadagi simfonik shaxslar to'plamining ierarxiyaviy birligidir... Biz yashayotgan dunyo shaxsiy borliqsiz bo'lishi mumkin emas, zero, bunday borliq unda mavjud. Biroq, o'z-o'zidan ravshanki, simfonik shaxs muayyan shaxsiyatlarda ro'yobga chiqarilgan taqdirda o'zining barkamol holatiga yaqin bo'ladi va o'z tabiatini yaxshiroq namoyon etadi»<sup>145</sup>

Ijtimoiy borliq (sotsium) ham turli darajadagi simfonik shaxslar to'plamining ierarxiyaviy birligi hisoblanadi. Turli xil kishilik hamjamiyatlari – butun insoniyat, millatlar, ijtimoiy guruhlar, konfessional birlashmalar va hokazolar simfonik shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday shaxslardan har biri muayyan ierarxiya doirasida mavjud bo'ladi, o'zida muayyan oliy shaxslarni aktuallashtiradi va o'zi ham quyi darajadagi muayyan shaxslarda aktuallashtiradi. Mazkur aloqa qadriyat ahamiyatini kasb etadi. Simfonik shaxsning shakllanishi barkamollikka intilish bilan hamohangdir. Bunda barkamollik yo'li va mezoni ierarxiyaviy model bilan belgilanadi: har qanday shaxs uchun kamolotga yetish oliy simfonik shaxslarni o'zida aktuallashtirishning oliy darajasiga erishishdan iboratdir, kamolotga yetish uchun «har qanday shaxs o'zini oliy darajadagi shaxsiyatning erkin ro'yobga chiqarilishi sifatida anglab yetishi lozim»<sup>146</sup>

L.Karsavin ijtimoiy falsafasida izchil «sotsiotsentriзм», kollektivlikning individuallikdan ustunligi biz uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Individual shaxs sifatidagi inson bu falsafada quyi darajadagi simfonik shaxs sifatida, butun ijtimoiy ierarxiyaviy piramidaning asosi sifatida maydonga chiqadi. L.Karsavin ierarxiyani atroflicha tadqiq etadi, quyi daraja elementlarining yuqori daraja elementlariga bo'ysunishi masalalarini sinchiklab o'rganadi, biroq ierarxiyaning asosi haqida mohiyat e'tibori bilan hech narsa demaydi. Individual mavjudlik kategoriyalariga u kam e'tibor berishi, individning

<sup>145</sup> Карсавин Л.О. Личности // Религиозно-философские сочинения. – Москва: 1992. Т. 1. – 98-с.  
<sup>146</sup> Церковь, государство и личность. – СПб(6), 1927. – 6-с.

vazifasi oliy shaxslarni o'zida aktuallashtirishdan iborat deb hisoblashi tasodifiy bir hol emas. Karsavinning universallik metafizikasi – bu kollektiv shaxs, hattoki, ta'bir joiz bo'lsa, global shaxs falsafasidir. Ushbu falsafada individning ikkilamchiligi, yuqoriroq darajadagi kollektivga uning bo'ysunish g'oyasi ilgari suriladi, bu esa individda o'z mohiyati va haqiqiy ekzistensiya mavjudligi inkor etilishiga olib keladi.

Ierarxiyaviy tuzilishga ega bo'lgan ijtimoiy piramidada insonning «tuban» mavqei texnikaviy-strukturaviy ma'nodagina emas, balki aksiologik ma'noda ham tushuniladi. Inson simfonik shaxsga (kollektivga, davlatga va hokazolarga) nisbatan o'z mohiyatiga ko'ra ham ikkilamchidir, chunki u mazkur shaxsning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur. U faqat simfonik shaxs qo'lida qurol bo'lib xizmat qiladi. N.Berdyaev o'z kitoblaridan birida bunga e'tiborni qaratib, jumladan, shunday degan edi: «Simfonik shaxs haqidagi ta'limot, aslida, qullikni metafizik nuqtai nazardan asoslashdan boshqa narsa emas»<sup>147</sup>. Qizig'i shundaki, xristiancha ontologiyada insonning L.Karsavin taklif qilgan talqini uchun asoslar mavjud emas. Hatto ma'naviy ierarxiyaviylik ham xristiancha ong uchun shak-shubhasiz emas, chunki u o'z ildizlari bilan dunyoning xristiancha manzarasiga emas, balki neoplatoncha manzaraga borib taqaladi. L.Karsavin konsepsiyasida ma'naviy ierarxiya o'rmini moddiy ierarxiya egallaydi va semantik siljish yuz beradi, zero, ijtimoiy borliq ierarxiyasida oliy shaxslar amalda «oliy» emas balki faqat «nisbatan yirikroq», «son yoki hajm jihatidan kattaroq» hisoblanadi. Miqdor, hajm, massaning bunday ustunligi uchun xristianlik ma'naviyatida asos mavjud emas. L.Karsavin yaratgan izchil sotsiotsentrik konstruksiyada gap Rossiya haqida boradi. Bu mamlakat mutafakkir uchun jonli birlik sifatida, shaxs sifatida amal qiladi.

**V. Nalimovning giperindividuallik konsepsiyasi.** XXI asr boshida inson fenomeni haqidagi tasavvurga, ma'naviyat muammolarini yechishga ularning talqinidagi qadimgi sivilizatsiyalar g'oyalari bilan hamohang bo'lgan yangicha yondashuvlar o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi. Inson tabiati ko'p darajali hisoblanadi, bizni esa shaxsda namoyon bo'luvchi ijtimoiy mezonlar qiziqtiradi. Endilikda shaxs qiyofasi uning shaxslararo munosabatlar tizimidagi aloqalariga bog'liq ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Yapon olimi K. Yamamoto shunday deb yozadi: «Boshqa shaxslarning guruhlari ta'siri ostida bo'lmagan va ayni paytda o'zi ham bu shaxslar guruhlariga ta'sir ko'rsatmagan ayrim shaxs dunyoda topilmasa

<sup>147</sup> Бердяев Н. О рабстве и свободе человека. – Париж: 1972. – 30-с.



kerak. Bu esa biz odamlarning guruhlariga individualliklardan alohida yondashishimiz mumkin emasligini anglatadi»<sup>148</sup>

Mazkur qoidadan kelib chiqib, V. Nalimov shaxslararo munosabatlarga shaxslararo struktura – gipershaxs hosil bo'lishiga olib keluvchi jarayon sifatida qaraydi: «Eng oddiy holda gipershaxs – bu ikki darajali taqsimlash funksiyasidir. Bu yerda alohida-alohida mavjud bo'lgan, alohida taqsimlash funksiyalari bilan tavsiflangan ikki shaxs taxminiy beriladigan, endilikda bir paytning o'zida ikki jismda mavjud bo'ladigan bitta shaxsga birikadi»<sup>149</sup>. Boshqacha qilib aytganda, eng oddiy holda gipershaxs ikki individual jismlar o'rtasida taqsimlangan shaxslararo strukturani o'zida ifodalaydi. Murakkabroq holdarda gipershaxs ko'p sonli shaxslardan hosil bo'lishi mumkin.

Gipershaxs haqidagi tasavvurning o'rnilishi foydasiga bir qancha omillar guvohlik beradi. V. Nalimov shunday omillardan biri sifatida muhabbatni keltiradi – u o'z tuyg'ulari kuchi bilan gipershaxsni ikki shaxsning taxminan berilgan strukturalari o'rtasidagi bog'lanish (korrelyasiya) koeffitsienti nolga yaqin yoki teng bo'lgan holda ham yaratishi mumkin. «Ammo bunday gipershaxs barqaror emas, - deb yozadi olim. – Barqarorlik faqat tuyg'ular kuchi gipershaxsni shunday qayta qurish uchun yetarli bo'lgan holda vujudga kelishi mumkinki, bunda korrelyasiya koeffitsienti ahamiyatga molik qiymat kasb etadi, hatto birga yaqinlasha boshlashi ham mumkin»<sup>150</sup>

Hamma gap shundaki, sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichida muhabbat aksariyat hollarda insonning o'zi sevgan mavjudot bilan qo'shilishga azaliy intilishini qanoatlantirishga qodir emas. «Erkak va ayol, agar ularga alohida-alohida qaraydigan bo'lsak, butunning qismlari, mutlaq haqiqatning oxiriga yetkazilmagan mohiyati, xolos, - deb yozadi J. Beyns. – Botiniy darajada erkak va ayoldan iborat juftlik aynan shunday yaxlit strukturani yaratishga intiladi. Biroq voqelik ularning fantaziyalari xom xayol ekanligini tasdiqlaydi»<sup>151</sup>. Madaniyat tarixida ma'naviy barkamol juftlik (gipershaxs)ni yaratish usullari ma'lum. Ular Qadimgi Misr, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Sharq ibodatxonalarida ma'naviy ta'lim berish jarayonida qo'llanilgan. Buning uchun ezoterik tusdagi maxsus ta'limotlar yaratilgan. Ushbu ta'limot doirasida insonning jismoniy, ma'naviy va ruhiy sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi udum xususiyatini kasb etgan qadimgi texnika qo'llaniladi. Ayni holda shaxsiy semantik kapsulizatsiyaning susayishi yuz beradi va shaxs boshqa shaxs bilan erkin

o'zaro aloqaga kirishish imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada ikki darajali gipershaxs vujudga keladi.

Boshqa bir omil qadimdan foydalaniladigan gipnoz hisoblanadi. Ma'lumki, gipnoz jarayonida gipnoz qilinayotgan shaxsning tasavvurlari tizimi gipnoz qiluvchining ongida aks etadi. Bu yerda individ e'tibori to'laligicha gipnoz qiluvchining ongida aks etadi. Bu yerda individ e'tibori ishonch bilan qaraladi. Gipnotik holatda gipnoz qilinuvchi va gipnoz qiluvchi o'rtasida yaqin aloqa o'rnatiladi, ta'sirchanlik darajasi kuchayib boradi va hatto alohida giperta'sirchanlik darajasiga ko'tarilishi mumkin<sup>152</sup>. Gipnoz yo'li bilan onga singdirilgan fikrlar o'z-o'zidan e'tiqod maqomini kasb etadi. Ong ularga tanqidiy yondashishga ham, ularni boshqarishga ham qodir bo'lmaydi. Ikki jismoniy kapsulada joylashgan ikki shaxsdan o'ziga xos «yagona semantik dominantaga» (V. Nalimov) ega bo'lgan bitta gipershaxs vujudga keladi.

Qizig'i shundaki, ko'p sonli tadqiqotlar hozirgacha gipnoz holatiga ishora qiluvchi fiziologik belgini aniqlash imkoniyatini bergani yo'q. Taniqli psixoterapevt L. Shertok gipnozni «organizmning psixologik reaktivligini ma'lum darajada o'zgartirishni nazarda tutuvchi ongning alohida holati» sifatida tavsiflaydi<sup>153</sup>.

Shu o'rinda o'zaro gipnoz alohida qiziqish uyg'otadi. Bunda A shaxs V shaxsni gipnoz qiladi, V shaxs esa gipnoz holatida bo'la turib o'z navbatida A shaxsni gipnoz qiladi. Ushbu amal siklli xususiyat kasb etadi va shu tufayli ham chuqurlashib boradi. Natijada mazkur amal ishtirokchilarining bir-biri bilan to'la birikuviga erishilishi mumkin. Bu ularda kuchli taassurot qoldiradi va ayni paytda ularni vahimaga soladi. Amerikalik tadqiqotchi Ch. Tart bu haqida shunday deb yozadi: «Bu qisman shaxslarning birikuvini, qisman MEN va SEN o'rtasida farqning yo'qolishini eslatadi. Mazkur lahzalarda patsientlarga bu yoqimli bo'lib tuyuladi, biroq keyinchalik ular buni o'z erkiga tahdid sifatida idrok eta boshlaydilar»<sup>154</sup>. Sun'iy yo'l bilan yaratilgan mazkur gipershaxsni vayron qilish uchun kuchli gipnozchining harakatlari talab etiladi. Ch. Tart bir-biri bilan birikish va individualikni yo'qotishning shunga o'xshash natijasi er-xotin LSD qabul qilishi oqibatida yuz bergan holatni ham keltiradi.

Ba'zan oyoqqa turgan olomon xulq-atvorini ham yaxlit bir butun organizm harakatlari sifatida tavsiflaydilar. Hozirgi zamon psixologiyasi ong osti fenomenining fiziologiyadan ham, oliy nerv faoliyatidan ham

<sup>148</sup> Yamanoto K. My Problems in Understanding Human Beings // Journal of Humanistic Psychology. 1984. №4. – 67-p.  
<sup>149</sup> Nalimov V. D. Spontannost' soznaniya. – Moskva: 1989. – 198-s.  
<sup>150</sup> O'zida joyda.  
<sup>151</sup> Boyns Dzh. Nauka o' do'bra. – Moskva: 1994. – 12-s.

<sup>152</sup> Овчинникова О.В., Насиновская Е.Е., Иткин Н.Г. Гипноз в экспериментальном исследовании личности. – Москва: 1989. – 35-с.  
<sup>153</sup> Шертук Л. Незнание в психике человека. – Москва: 1989. – 106-с.  
<sup>154</sup> Tart C.T. Psychodelic Experiments Associated with a Novel Hypnotic Procedure // Altered States of Consciousness. – N.Y., 1969. – 306-p.



ustunligidan kelib chiqadi. Omma bilan qorishish jarayonida bo'lgan individ ong osti darajasida agressivlik impulsini tarqatishni to'xtatadi. Insonning ong osti sohasida shunday bir genotip borki, u «ajdodlar qoldirgan va butun bir irqning ma'naviy dunyosini yaratish uchun konstruktiv material bo'lib xizmat qiladigan izlar majmui»ni o'zida ifodalaydi.<sup>155</sup> Omma safidagi individga kuchli sensorli saturatsiya (junbushga kelgan tuyg'ular) ta'sir ko'rsatadi va uni fikrlash qobiliyatidan mahrum qiladi. U umumiy harakatga ergashadi va omma, ya'ni gipershaxs strukturasi elementlaridan biriga aylanadi.

V. Nalimov nvojlantirgan tasavvurlar tizimida ham gap gipershaxsni yaratish haqida boradi. Buning foydasiga transpersonal davolash bilan bir qatorda psixoanaliz amaliyoti ham guvohlik beradi. Bunga ishonch hosil qilish uchun Z. Freyd kashf qilgan **transfer fenomenini** eslashning o'zi kifoyadir. Ushbu fenomen tamoyili bir-biridan hech qachon ajralmaslikni, har doim bir-biri bilan birikkan holatda bo'lish va shu tariqa yagona mavjudotni hosil qilishni nazarda tutadi.<sup>156</sup> Shu narsa diqqatga sazovorki, gipershaxsni psixoanaliz metodi bilan yaratish uchun zarur vaqt tinimsiz ko'payib bormoqda va endilikda o'n yilni tashkil qiladi.

Shu o'rinda **tushni gipnoz bilan taqqoslash** ham hech bo'lmasa sof evristik nuqtai nazardan diqqatga sazovordir. Bunday taqqoslash tush ko'rish san'atidan ko'p darajali gipershaxsni yaratish uchun foydalanish imkoniyatini beradi. K. Kastaneda o'zining «Tush ko'rish san'ati» deb nomlangan kitobida tushning kuchi yordamida insonning ma'naviy dunyosini kashf qilish usulini bayon qiladi. Uning ustozlari don Xuan avval unga tush ko'rish san'ati tamoyillarini o'rgatadi, so'ngra unga amaliy usullarni namoyish etadi. Buning uchun don Xuan tush ko'rish san'ati sirlarini shogird bilan o'rtoqlashish uchun alohida magik muhitni yaratadi. K. Kastaneda ushbu sirlar bilan tanishish jarayonida o'zlashtirgan tajriba inson ruhiyatini o'ta murakkab fenomen ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tajriba inson ruhiyatining teran qatlamlariga nazar tashlash va tush ko'rish jarayonini boshqarish uchun gipershaxslarni yaratish imkoniyatini beradi.

Tush ko'rish jarayonini boshqarish insonga shaxslararo munosabatlarda yuzaga keluvchi ko'pgina muammolarni yechish imkonini beradi. Hozirda tadqiqotchilar qadimgi madaniyatlarda, shuningdek, hindularning madaniyatlarida mavjud bo'lgan, ijtimoiy munosabalami uyg'unlashtirish imkoniyatini beradigan tush ko'rish jarayonini boshqarishning ahamiyatiga e'tiborni qaratmoqdalar. P. Garfild bu

<sup>155</sup> Вельдер Р.К. К вопросу о феномене подозрительной агрессивности // Общ. науки и современность. 1993. № 3. - 184-с.

<sup>156</sup> Qit'ing: Штерок Л. Незолтавнос в психике человека. - Москва: 1989. - 182-с.

xususida shunday deb yozadi: «Hindularning madaniyatlari tushlardan hayotning turli sohalarida foydalangan. Ba'zan ular diniy qarashlarning tarkibiy qismi hisoblangan, insonga g'ayritabiiy kuchlar bilan muloqot qilish imkoniyatini ta'minlagan. Tush ta'birini aytuvchilar ijtimoiy tizimda maxsus maqomga ega bo'lgan. Tushlardan ko'pincha kelajakni bashorat qilish uchun foydalanilgan, yomon tushlar maxsus marosimlar o'tkazish yo'li bilan haydalgan, yaxshi tushlar esa qo'llab-quvvatlangan. Ba'zan ular xuddi ruhiy davolash usuli kabi shaxsiy muammolarni yechishga xizmat qilgan, muayyan shifobaxsh rasm-rusumlarni o'z ichiga olgan. Har bir qabila tushlardan foydalanishning o'z usulini ayniqsa muhim deb hisoblagan»<sup>157</sup>. Shunday qilib, tushlar u yoki bu muammolarni hal qilish uchun gipershaxslarni yaratish imkoniyatini beradi. Buni etnograflar va qadimgi madaniyatlarning boshqa tadqiqotchilari ham tasdiqlaydilar.

Shuni qayd yetish lozimki, gipershaxs haqidagi tasavvurlarga qadimgi miflarda ham duch kelish mumkin. Ularda gipershaxs, bir tomondan, muayyan yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan esa - bir-biri bilan korrelyasion bog'langan qismlarning har biri o'z individual qiyofasiga ega. Masalan, oliy asosning uch qiyofaligi haqidagi tasavvur *platonizm*, *iudaizm*, *buddizmga* (Budda, Draxma, Sangxa), *induizmga* (Trimurti), *xristianlikka* (Troitsa) xosdir. Hozir aksariyat hollarda mifologiya «libosi»ga burkangan qadimgi bilimlarning jonlanishi jarayonlari butun dunyoda kuzatilmoqda. Bizning davrimizda gipershaxs shaxslararo munosabatlarning teran darajasida namoyon bo'layotir (yuzaki daraja - bu madaniyatimizga xos bo'lgan tashqi munosabatlar darajasi). Individlar o'zaro aloqasining transpersonal darajas, ayniqsa, murakkab va samaralidir: «Gipershaxsning vujudga kelishi nozik jarayon bo'lishi ham mumkin - ayni holda shaxs unga to'la singib ketmaydi, balki u bilan o'zining ko'p sonli tarkibiy elementlari orqali birikadi. Ammo buning uchun boshlang'ich shaxs o'z ichida ko'p sonli shaxsiyatni yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim»<sup>158</sup>. Shunday qilib, gipershaxs haqidagi tasavvur XXI asr boshida inson tabiatini tushunishga o'z hissasini qo'shayotir.

**Totalitar va demokratik tizimlarda inson maqomi.** XXI asr boshida inson fenomenini tushunish uchun totalitar va demokratik tizimlarda to'plangan tajriba bilan hisoblash talab etiladi. Shuni e'tiborga olib ularda inson maqomi muammosiga batafsilroq to'xtalamiz. Demokratiya muhitida o'sib ulg'aygan individlar davlatning totalitar hukmronligi sharoitida yashash nimaligini bilmaydilar. Totalitar tizimlar

<sup>157</sup> Гарфилд П., Ринноче Т.Т. Управление сновидениями. - Москва: 1994. - 50-с.

<sup>158</sup> Налимов В.В. Спонтанность сознания. - Москва: 1989. - 202-с.



yoki ekstremistik davlat formatsiyalarida butunlay boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin. V. Kaytukov o'zining «Mustabidlik evolyutsiyasi» deb sanab o'tadi: «Ekstremistik davlat formatsiyalari tazyiq o'tkazish usullari, vositalari va qurollaridan keng foydalanishga asoslangan davlat tuzumini o'zida ifodalaydi. Tazyiq doirasiga sotsiumning barcha qatlamlari, shu jumladan, mustabid tuzum siyosatini amalga oshiruvchilarning o'zlari ham kiradi. Tazyiq o'tkazish apparati o'z faoliyatida byurokratiyaga, politsiyaga, maxsus xizmatlarga, armiyaga va mafkuraviy apparatga tayanadi»<sup>159</sup>.

Ekstremistik davlat formatsiyalarining yana bir xususiyati shundaki, ular uzoq yashamaydi. Ayni hol o'z yaxlitligini saqlab qoluvchi va ayni paytda madaniyatdagi o'zgarishlarga ta'sirchanligi bilan ajralib turuvchi inson tabiati bilan belgilanadi<sup>160</sup>. Odamlar, aytaylik, totalitar tizim sharoitlariga moslashishlari mumkin, biroq bu uning inson tabiati bilan muvofiq kelishini anglatmaydi. Aksincha, totalitar tizim inson tabiati bilan va shu tufayli ham u uzoq yashamaydi.

XX asrda bunday ekstremistik davlat formatsiyalari totalitar tizimlar degan nom oldi. Ularga eng avvalo Stalin rejimini va natsistik siyosiy rejimlarni kiritadilar. «Totalitar» rejimlarning eng muhim jihatlari xususida sotsiologlar va siyosatshunoslar orasida yagona fikr mavjud emas. Ammo ularga alohida mafkuralar – bunday rejimlarning (tizimlarning) mavjudlikka bo'lgan huquqini qonunlashtiruvchi g'oyalarni majmui xos degan fikrga barcha olimlar qo'shiladilar. Mazkur mafkuralarning o'zi ham totalitardir, zero, ular ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olishga harakat qiladi, hamma uchun majburiy hisoblanadi. Ular eski qadriyatlar tizimlarini ulqitirib tashlash va ularni «*yorug' kelajak*» yoki «*ming yillik reyx*»ni barpo etishga qaratilgan yangi qadriyatlar tizimlari bilan almashtirish g'oyasini ilgari suradi, jamiyatni yalpi qayta qurishni, «*yangi inson*»ni hamda individ manfaatlarini va erkinligi jamiyat manfaatlariga bo'ysundirilgan «*yangi jamiyat*»ni yaratishni e'lon qiladi.

**Totalitarizm tizimi faqat zo'ravonlik muhitida faoliyat ko'rsatishi mumkin** – unda inson va ijtimoiy guruhlariga nisbatan terror ichki siyosat vositasi sifatida qo'llaniladi. Bunday tizimga jamiyatning harbiylashuvi, ya'ni inson ulkan harbiy mexanizm unsuriga aylanishi ham xosdir<sup>161</sup>. Kezi kelganda yana shuni ham qayd etib o'tish lozimki, amalda mavjud bo'lgan totalitar rejimlarda totalitarizm tamoyillari amalda to'liq tatbiq etilgani

<sup>159</sup> Kaytukov В.М. Эволюция диктата. – Москва: 1992. – 55-с.

<sup>160</sup> Гуревич П.С. Человек: венец или ошибка природы? // Наука в России. 1993. № 2. – 33-с.

<sup>161</sup> 50/50: Опыт словаря нового мышления. – Москва: 1989. – 371-с.

yo'q: oila, din, san'at, fan va madaniy an'ana yo'q bo'lib ketmadi, total tizimga bo'ysunmadi. Ammo bizni qiziqtirayotgan masalada muhimi shuki, totalitar tizim insonga (o'z-o'zidan ravshanki, ijtimoiy guruhlariga ham, butun jamiyatga ham, zero, ular individlardan tarkib topadi) tazyiq o'tkazish uchun usullar va vositalarning butun bir majmuidan foydalanadi.

**Totalitar tizimga yalpi qo'rquv muhiti xosdir.** Inson va jamiyat ustidan qattiq politsiya nazoratining o'rnatilishi shaxsning o'ziga xos dunyosi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, individni mavjud siyosiy zo'ravonlik voqeligiga moslashishga, vijdonli insonga munosib bo'lmagan xatti-harakatlar sodir etishga majbur qiladi. Totalitar tizimda qo'rquv yalpi xususiyat kasb etadi, qarshi harakat qilish haqidagi fikr hatto insonning xayoliga kelishiga ham imkon bermaydi. Bunday qo'rquv iskanjasida inson «soqov» bo'lib qoladi va o'ziga har qanday jabr-zulm ko'rsatilishiga yo'l qo'yib beradi.

Natsistlar Germaniyasi Ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan (GFRda g'arb demokratiyasi qadriyatlarini o'zlashtirgan yangi avlod voyaga yetgan) bo'lsa, Sovet Ittifoqida kommunistik eksperiment natijasida insonning totalitar tizim xususiyati bilan belgilangan muayyan maqomi vujudga keldi. Bu xususiyat quyidagilar bilan belgilanadi:

birinchidan, individ va davlat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in – gruppaviy identifikatsiyalar mavjud emas edi: «Totalitar davlat va yakka individ o'rtasida ozgina bo'lsa ham muhim o'rinni egallagan, kasb-kor, mashg'ulotlar, manfaatlar va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan biron-bir ijtimoiy-psixologik birlik yo'q edi»<sup>162</sup>.

ikkinchidan, sho'ro (kommunistik) jamiyati individlardan emas, balki kommunalardan tarkib topgan edi. Shu tufayli ham shaxsiy asos manbai sifatida aynan insonga davlat bilan o'zaro munosabatlarga kirishish imkoniyatini beruvchi kishilarning yaxlit jamoasi amal qiladi;

uchinchidan, sho'ro davlati o'z mohiyatiga ko'ra jamiyat hayotining kriminogen va huquqni buzuvchi omili hisoblanar, bu inson huquqlari sohasida o'zining aniq ifodasini topgan edi.

XXI asr boshida O'zbekistonda iqtisodiyot va siyosat sohasida tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotgan, huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa sifatida belgilangan hozirgi sharoitda demokratiya hamda inson va davlatning o'zaro munosabatlari siyosiy va huquqiy masalalarini yechishda uning imkoniyatlari muammosi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ammo o'zimizni qiziqtirgan muammo tahliliga bevosita kirishishdan oldin demokratiya tushunchasining

<sup>162</sup> Простой человек: опыт социального портрета на рубеже 90-х годов. – Москва: 1993. – 14-с.



mazmuni va uning ijtimoiy tizimdagi o'rni masalasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida demokratiyani va jamiyatning rivojlanish jarayonida uning o'rni va ahamiyatini talqin qilishga nisbatan demokratiyaning tabiati tushunchasining mazmuniga oydinlik kiritar ekan, demokratiyaning xalq hokimiyatiga asoslangan tuzum sifatidagi talqini mukammal emasligini ta'kidlaydi. «Hozirgi zamon demokratiyasining tabiati antik demokratiya tabiatiga umuman o'xshamaydi. Uni jamoatchilik fikriga asoslangan zo'ravonlikda, hukumatlarning beqarorligida va «saroy fitnalari»da ayblash mumkin. Ammo, nima bo'lganda ham, uni qonunsizlik rejimi deb aytilish mumkin emas. Xalq suvereniteti bu yerda konstitutsiyada belgilangan doirada og'ishmay amalga oshiriladi. Har kim biron-bir guruh yoki mavjud hokimiyatning tahdidi yoki tazyiqidan qo'rqmasdan o'z fikrini bildirish huquqiga ega bo'ladi»<sup>163</sup>

Totalitar rejimdan farqli o'laroq hozirgi zamon demokratik tizimida yangicha siyosiy mantiq «ishlaydi», ya'ni hukumat va vakillik organlari faoliyati tortishuv tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. Umuman olganda, demokratiyaning hozirgi ideallari qadimgi yunon (miloddan avvalgi IV asr) demokratiyasining ideallaridan deyarli farq qilmaydi. Faqat bugungi kunda ayrim shaxs alohida qadrlanadi. Qadimgi yunon demokratiyasi ideallari vakillik demokratiyasiga emas, balki to'g'ridan to'g'ri demokratiyaga kiradi.

Ayni holda individning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyatining davlat bilan o'zaro aloqasi birinchi darajali ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish lozim. Hozirgi zamon nazariy tafakkuri negizida shakllangan tasavvurlarga ko'ra<sup>164</sup>, fuqarolik jamiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- odamlarning ixtiyoriylik asosida spontan tarzda shakllangan o'zi-o'zini boshqaruvchi boshlang'ich birliklari (oilalar, kooperatsiyalar, assotsiatsiyalar, xo'jalik korporatsiyalari, jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, ijodiy, sport, etnik, konfessional va boshqa xil birlashmalar)ni;

- nodavlat (nosiyosiy) iqtisodiy, sotsial, ma'naviy, axloqiy va boshqa xil ijtimoiy munosabatlar majmuini;

- kishilarning ishlab chiqarish faoliyati va shaxsiy hayotini, ularning odatlari, an'analari va xulq-atvorini;

- erkin individlar va ularning tashkilotlarining davlat hokimiyati va siyosatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvidan qonun bilan muhofaza etilgan o'zi-o'zini boshqarish sohasini.

Yuqorida bayon etilganlar fuqarolik jamiyati turli belgilarga ko'ra birlashgan fuqarolarning ular individual ehtiyojlarini qondirish, potensial imkoniyatlarini hamma va har kimning ravnaqi yo'lida ro'yobga chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi muayyan nodavlat uyushmasini o'zida ifodalaydi degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari tahlili hozirgi vaqtda Gegelning mazkur jamiyat va davlatning bir-biriga o'tishi haqidagi bashorati ro'yobga chiqayotganidan dalolat beradi. XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasi amalga oshirila boshladi. Mazkur iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy erkinlik va ijtimoiy adolat tamoyillarining birikuvchi yuz beradi. Bu davlat o'z-o'ziga yordam berishga qodir bo'lmagan va o'z insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishni istagan kishilarga ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun bozordagi iqtisodiy kuchlar o'yiniga qo'shilishini anglatadi.

Inson nuqtai nazaridan demokratik tizimda bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish ijtimoiy funksiyasi ulkan ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, jamiyatning barcha a'zolari haqida g'amxo'rlik qilish zarurligi to'g'risidagi g'oya ro'yobga chiqariladi. Hamonki, bozor iqtisodiy farovonlikka erishishning ijtimoiy vositasi sifatida amal qilar ekan ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun aholining kam ta'minlangan yoki nochor qatlamlarini ta'minlashga mablag'lar ajratilishi lozim. «Daromadni ikkinchi marta taqsimlash» tarzidagi qayta taqsimlash tamoyilining mohiyati aynan shunda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, demokratik kuchlar davlatni ishlab chiqarish munosabatlarini insoniylashtirishga, cheksiz raqobat oqibatlarini yengillashtirishga, insofli tashabbus va ijtimoiy mas'uliyatni har tomonlama rivojlantirish tamoyillarini amalga oshirishga majbur qildilar. Uchinchidan, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga nisbatan adolatni qaror toptirish uchun sotsial-liberallar olib borgan kurash norozilik darajasini va inqilobiy salohiyatni sezilarli darajada pasaytirdi. Shuni unutmaslik kerakki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy funksiyasi zamirida demokratiyani inqilobdan himoya qilishga intilish yotadi<sup>165</sup>. Demokratik tizimda davlat ijtimoiy funksiyani amalga oshirishi uni umumiy farovonlik davlati deb nomlash uchun asos berdi.

Biroq ijtimoiy tizim rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda Bugungi kunda umumiy farovonlik davlati g'arb mamlakatlarida yuz

<sup>163</sup> 50/50: Опыт словаря нового мышления. – Москва: 1989. – 464-с.

<sup>164</sup> Дмитриев Ю.А. Соотношение понятий политической и государственной власти в условиях формирования гражданского общества // Государство и право. 1994. № 7. – 30-с.

<sup>165</sup> Шлезингер А.М. Циклы американской истории. – Москва: 1992.



bergan vakillik demokratiyasi inqirozi ta'sirida permanent o'zgarishlar bosqichiga kirdi. «Siyosiy shakl sifatidagi demokratiyaga nima tahdid solmoqda?»,-degan savolni o'rta tashlaydi J. Sartori<sup>166</sup>. Elita boshqaruvimi? Yo'q, zero, hozirgi vaqtda demokratik hukumatlarning barchasi avvalgi obro'si pasaygan, bajarish mushkul bo'lgan son-sanoqsiz talablar qo'yilgan sharoitda ish olib borayotgani hech kimga sir emas. Haqiqiy demokratiya har doim kuchli bosim ostida bo'ladi, boshqarish qobiliyatining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu tariqa liberalizm g'arbda vakillik demokratiyasi inqirozini qayd etadi.

Amalda siyosiy demokratiya qadriyatlarini inson va omma e'tiborini o'ziga tortishda davom etayotir. So'nggi yillarda siyosiy demokratiyaga bo'lgan qiziqish ayniqsa kuchaydi. «g'arb demokratik jamoatchiligi siyosiy demokratiya mexanizmlariga uzluksiz ishlaydigan, kishilarning ijtimoiy maqomiga ta'sir ko'rsatadigan tus berish yo'llarini izlamoda, - deb ta'kidlaydi A. Panarin. - Jamoatchilikning noroziligi saylovlar oralig'idagi davrda fuqarolik jamiyatining majburiy siyosiy harakatsizligiga sabab bo'layotir. Ijtimoiy muammolarning yig'ilishi hokimiyat tepasidagi partiyalarning almashishi va deputatlar vakolatlarining tugashidan ildamroq yuz berayotir»<sup>167</sup>. Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, siyosiy vakillik tizimi turli (katta va kichik) ijtimoiy guruhlar manfaatlarining evolyutsiyasi va rang-barangligiga to'la moslashishga qodir emas. Bularning barchasi siyosiy tizimni fuqarolarning to'g'ridan to'g'ri ishtiroki va vaqtinchalik birlashmalarini ularni qiziqtirayotgan u yoki bu muammoni yechish uchun siyosiy va huquqiy institutsionallashtirish yo'nalishida o'zgartirishni talab qiladi.

Hozirgi zamon g'arb nazariy tafakkurida plyuralistik demokratiya nazariyasidan ishtirokchilik demokratiyasi nazariyasi sari siljish kuzatilayotgani tabiiy bir holdir. Ishtirokchilik demokratiyasi nazariyasida milliy darajadagi vakillik demokratiyasi elementlarini shahar va qishloq jamoalari darajasidagi siyosiy jarayonlarda fuqarolarning to'g'ridan to'g'ri ishtiroki bilan birlashtirish zarurligi tan olinadi. Demokratiya jamiyatni tashkil etish usuligina emas, balki maqsadi hamdir degan tasavvurga qaytilishi sababini ayni shu hol bilan izohlash mumkin<sup>168</sup>. Endilikda demokratik tizim (huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati) faoliyatining markaziga inson, uning ehtiyojlari va manfaatlarini qo'yilayotgani ham ayni shu omil bilan bog'liq.

«Gomo kreator»ga erishish yo'lida. Hozirgi vaqtda inson fenomenini tushunish diqqat markazida sinf yoki ijtimoiy qatlam emas, balki aynan individ turishini teran anglab yetishni taqozo qiladi. Nazariy darajada inson butun dunyoda eng oliy qadriyat deb qaraladi, biroq amalda bu tamoyilga hamma joyda ham rioya etilavermaydi. Har qalay g'arb jamiyatida ayrim individning ehtiyojlarini uning qobiliyatlariga mos ravishda qondirishga intilish kuzatiladi. G'arb jamiyati doirasida vujudga kelgan «giperindividualizm» konsepsiyasi inson jamoadan ajralgani, o'z holiga tashlab qo'yilgani va o'ziga o'xshashlar bilan o'zaro aloqaga kirishishini anglatadi. G'arb sivilizatsiyasining individual avtonomiyasi zamirida erkin iqtisodiy kuchlar «o'yini» yotadi, zero, tadbirkorning ehtiyojlari amalda shaxs huquqlariga, ayrim shaxs ehtiyojlari esa - tadbirkorning huquqlariga aylandi. Individning kollektiv birdamlikdan bunday xalos bo'lishini Dyurkgeym «anomiya» deb nomlagan edi. Individning mazkur erkinligi yuridik sanksiyalar ahamiyatining oshishi, «shartnomaga asoslangan jamiyat» vujudga kelishi bilan muvozanatga solinadi.

Giperindividualizm va «shartnomaga asoslangan jamiyat» industrial kapitalizmning rivojlanish mahsuli deb aytish mumkin. Ammo ularning industrial kapitalizm bilan aloqasi oddiy aloqa emas, boz ustiga, D. Bell fikriga ko'ra, u «madaniy ziddiyat»ni o'zida ifodalaydi<sup>169</sup>. Bu g'arb kapitalizmi individual tadbirkorlikka asoslaganini, uni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib innovatsiyalar va mobillik xizmat qilishini anglatadi. Ayni paytda tadbirkorlik mustaqil ish ko'ruvchi individlarning huquqlari va burchlarini tartibga soluvchi qonunlarning fundamental to'plamisiz rivojlana olmaydi. Binobarin, huquqiy normalar tizimi amalda boshqacha shaklda mavjud bo'lgan va qonunlarda kodekslashtirilgan kollektiv struktura hisoblanadi. Nazariy jihatdan olib qaraganda, bu qarama-qarshiliklar faoliyati g'arb sivilizatsiyasini vayron qilishi lozim edi, biroq amalda bunday bo'lgani yo'q. Ayni shu hol P. Bergerga quyidagi fikrni ta'riflash imkoniyatini beradi: «Empirik voqelik g'arb jamiyatlarida muvozanatga soluvchi qudratli kuchlar chindan ham mavjudligini ko'rsatadi. Individual erkinlik tarixan har doim erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi, jamoa tizginlaridan xalos bo'lish va kollektiv doirasida xavfsizlik o'rtasidagi omonat muvozanatga asoslangan. Mazkur muvozanat tasodifiy bir hol emas, balki qonun yo'li bilan mustahkamlangan voqelik hisoblanadi»<sup>170</sup>. Jamiyatda shartnomaga asoslangan «sovuq» munosabatlarni muvozanatga soluvchi bunday kuchlar sifatida an'anaviy

<sup>166</sup> Sartori Дж. Вертикальная демократия // Полит. 1993. № 2. - 87-с.

<sup>167</sup> Россия: Опыт национально-государственной идеологии. - Москва: 1994. - 125-с.

<sup>168</sup> Огилв: Капитализм Г.В. Генезис и идеология демократии // Социс. 1994. №4. - 39-с.

<sup>169</sup> Bell D. The Culture Contradictions of Capitalism. - N.Y., 1976.

<sup>170</sup> Бергер П. Капиталистическая революция. - Москва: 1994. - 144-с.



ijtimoiy institutlar – oila, din va individlar birlashmasi amal qiladi. G'arb mamlakatlarining barchasida oila diniy qadriyatlar yordamida qonuniylashtirilgan. Ayni shu sababli liberal tafakkur namoyandalari ijtimoiy institutlarga baho berishda «o'zining pirovard maqsadi sifatidagi individ erkinligidan yoki bo'lmasa oila erkinligidan kelib chiqadi»<sup>171</sup>.

Oila va din qadriyatlari burjua madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va jamoat birlashmalari vositasida muvozanatga solish funksiyasini bajaradi. Bularning barchasi individga erkinlik chegarasini belgilash va noaniqlik bilan tavsiflanuvchi tadbirkorlik sohasida o'z faoliyati uchun ijtimoiy bazani ta'minlash imkoniyatini beradi<sup>172</sup>. Shundan kelib chiqib P. Berger quyidagi xulosaga keladi: «Kapitalizm individual erkinlikning shaxssizlashtirilgan jihatlari va jamoaviy birdamlikni muvozanatga soluvchi ijtimoiy institutlarga muhtojdir. Bunday institutlar orasida oida va din birinchi darajali ahamiyat kasb etadi»<sup>173</sup>. Shunday qilib, burjua oilasi va diniy qadriyatlariga tahdid soluvchi omillarning barchasi industrial kapitalizmning ijtimoiy muhitiga putur yetkazadi (tadbirkorlikka qarab mo'ljal olgan shaxssiz u faoliyat ko'rsata olmaydi). Ayni paytda g'arb bozor iqtisodiyoti shaxsiy erkinliklarni keng rivojlantirish, oila va din o'z funksiyalarini samarali bajarishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, g'arb sivilizatsiyasi doirasida inson erkinligi va uning individualizmi mazkur sivilizatsiyaning ikki tomonini o'zida ifodalaydi. «G'arbda kapitalizm bayroq qilib ko'targan shaxs erkinligi jamiyat strukturasiidan uyg'un o'rin olishi lozim, aks holda u yo giperindividualizm anarxiyasi orqali, yo tiyib turuvchi huquqiy normalarning butun bir to'plami yordamida o'zini o'zi tugatadi»<sup>174</sup>. -deb yozadi P. Berger. Individ jamiyat strukturasiidan uyg'un o'rin olganligi amalda individualizm va kollektivizmning uzviyligini anglatadi. Davlatning hukmronligidan insonning ustunligiga o'tish jarayonida mulkni xususiy lashtirish bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Buning bir qancha sabablari bor.

**birinchidan**, davlat kompaniyalarining daromaddorlik darajasi yildan yilga pasayib bormoqda,

**ikkinchidan**, aksariyat hukumatlar naqd pul mablag'lariga kuchli ehtiyoj sezadi va davlat korxonalarini sotish orqali ular aksiyalarni sotishdan daromad oladi va xususiy lashtirilgan kompaniyalardan soliqlar undiradi,

<sup>171</sup> Френкс М. О свободе // Открытые политика. 1995. № 1. – 50-с.

<sup>172</sup> Олинг Бурже Д. Американи Демократический оилет. – Москва: 1993.

<sup>173</sup> Бергер П. Капиталистическая религия. – Москва: 1994. – 146-с.

<sup>174</sup> О'ша joyda.

**uchinchidan**, hukumat zararga ishlaydigan xususiy kompaniyalarni subvsiyalanmaydi.

Inson va davlatning o'zaro munosabatlarida ustunlik individ tomonga o'tishi kengroq ma'noda quyidagilarni anglatadi:

- davlatga qarashli bo'lgan turar joylardan unga xususiy egalik qilishga o'tishni;
- davlat tibbiy ta'minotidan xususiy dasturlarga o'tishni;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan bozor mexanizmlariga o'tishni;
- kollektivizmdan individualizmga o'tishni;
- davlat monopoliyasidan raqobatga asoslangan munosabatlarga o'tishni;
- davlat kompaniyalaridan xususiy kompaniyalarga o'tishni;
- davlat mulkidan mehnat jamoalari mulkiga o'tishni;
- davlat ijtimoiy sug'urta dasturlaridan xususiy sug'urtalash va investitsiyalar tizimiga o'tishni;
- soliqlarning o'sishidan ularning pasayishiga o'tishni.

Bunday dastur inson va davlat o'zaro aloqasi yaxlit tizimining «umumiy farovonlik davlati o'rniga keladigan» yangi modelini yaratish zarurligi davlat tomonidan teran anglab yetilganligini anglatadi<sup>175</sup>.

Shu nuqtai nazardan umumiy farovonlik davlati skandinaviyacha modelining rivojlanish imkoniyatlari diqqatga sazovordir. Norvegiyalik taniqli siyosatshunos S. Kyunle fikriga ko'ra, ushbu model «hozirgi zamon davlatlari orasida ayniqsa jalb qiluvchan» hisoblanadi<sup>176</sup>. Mazkur model amalda erishgan yutuqlariga qaramay, ma'lum darajada yangilashga muhtojdir. Gap shundaki, «mazkur davlat beradigan afzalliklar insonning asosiy ehtiyojlarini qondira olgani yo'q»<sup>177</sup>. U insonning ijtimoiy va iqtisodiy himoyaga bo'lgan asosiy ehtiyojini qondirishga muvaffaq bo'ldi, jamiyatda imkoniyatlar strukturasi ma'lum darajada yaxshiladi va tenglashtirdi. Ammo bir qator muammolar (giyohvandlik, yoshlar jinoyatchiligi, oila barqarorligi va sh.k.) hanuzgacha o'z yechimini topgani yo'q va bu davlatning mazkur modelini takomillashtirishni talab qiladi.

Umumiy davlat farovonligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari «segmentar» jamiyat sari harakat bilan bog'liq. Ushbu model aralash iqtisodiyotning ikki sektori bilan bir qatorda «uchinchi» sektor – jamiyat faolligini rag'batlantiruvchi, etnik madaniyat an'analari, me'yori va qadriyatlarini qo'llab-quvvatlovchi, ijtimoiy ta'minot davlat organlari bilan

<sup>175</sup> Нехбитт Дж., Юрланди П. Что нас ждет в 90-е годы? – Москва: 1992. – 202-с.

<sup>176</sup> Кюнле С. Государство всеобщего благоденствия. – Москва: 1994. – 239-с.

<sup>177</sup> О'ша joyda. – 150-б.



hamkorlikka ko'maklashuvchi va demokratiyani rivojlantiruvchi jamoat tashkilotlari majmui paydo bo'lishini nazarda tutadi. Mazkur sektor hozirgi bosqichda faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlarga ega. Jamoat tashkilotlari davlatning tegishli madadi bilan quyidagi yo'nalishlarda o'z samaradorligini oshirishi mumkin: ijtimoiy yordam ko'rsatish, atrof muhitni muhofaza qilish, turar joyga bo'lgan huquqlarni himoya qilish va h.k. O'z-o'zidan ravshanki, Skandinaviya mamlakatlarida «segmentlashgan» jamiyat sari harakat yo'lida umumiy farovonlikka erishish uchun zarur resurslar mavjud.

Umumiy farovonlik davlati skandinaviyacha modelining mazkur evolyutsiyasi milliy makon bilan cheklanmasdan, butun Evropa bo'ylab keng tarqalsa ajab emas. Zotan, «yagonalik tuyg'usi yevropaliklarda qit'a darajasida umumiy farovonlik davlat tizimini yaratishning sharti hisoblanadi»<sup>178</sup>. Umumiy farovonlik davlati, shak-shubhasiz, permanent rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda va uning tadrijiy rivojlanish yo'liga nazar tashlash inson va jamiyat o'zaro aloqasi yaxlit tizimi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Inson huquqlari uchun harakatda ishtirok etayotgan individlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Bundan ko'zlanayotgan maqsad pirovard natijada fundamental huquqlardan birini amalga oshirish – o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy shart-sharoitlarga ega bo'lishdir. Inson huquqlari uchun harakatning birinchi bosqichida uning ishtirokchilari ierarxiyaviy uyushgan jamiyatning siyosiy sohasida hukmronlikka qarshi kurashga otladilar. «Bugungi kunda kuch ishlatishga asoslangan hukmronlik an'analariga qarshi kurashga otlangan odamlar soni tobora ko'payib bormoqda»<sup>179</sup>. Bu siyosatning axloqiyligi yoki «siyosiy axloq» g'oyasi individ va omma ongida o'ziga yo'l ochayotganidan darak beradi.

Siyosatda axloqiy asosning ahamiyati amalda hanuzgacha mavjud bo'lmagan ayollar va erkaklar teng huquqliligini nazarda tutadi. Siyosat sohasida uzoq yillardan beri mavjud bo'lgan hukmronlik piramidasi erkaklarga tegishli bo'lib, ayni hol xotin-qizlar o'z huquq va erkinliklarini qo'lga kiritishlariga monelik qilayotir. Bugungi kunda xotin-qizlarning huquqlarini inson huquqlari sohasidagi hamkorlikning yangi modeliga kiritish uchun xususiy va ommaviy sohalarni to'liq birlashtirish talab etiladi. Bu yangi modelni yaratish uchun asoslar amalda yo'q emas – ko'p sonli konvensiyalar va deklaratsiyalarda, qolaversa, BMT Nizomida irqi,

<sup>178</sup> Кюкле С. Государство всеобщего благоденствия. – Москва: 1994. – 232-с.

<sup>179</sup> Прямь человека накануне XXI века. – Москва: 1994. – 384-с.

diniy e'tiqodi va jinsidan qat'iy nazar, barcha insonlarning teng huquqliligini tasdiqlovchi qoidalar mustahkamlangan. Masalan, BMTning 1979-yilda qabul qilingan «Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi konvensiyasida xotin-qizlarning huquqlarini inson huquqlari nazariyasiga ham, ularni himoya qilish amaliyotiga ham kiritish zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, mazkur konvensiya tarixda ilk bor ommaviy va xususiy sohalarni sun'iy ajratish chegarasidan chetga chiqadi. Xotin-qizlarning huquqlari va erkinliklarisiz inson va jamiyat o'zaro aloqasi yaxlit tizimini yaratish mumkin emas.

Inson va jamiyatning o'zaro munosabatlarida ustunlik individ tomonga o'tishi amalda muhim voqea hisoblanadi. Eski kollektivism va eski individualizm o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, globallashuv bosqichi bilan birga shaxs birinchi o'ringa chiqmoqda. Bu erkin inson umumiy ishga o'z hissasini qo'shish uchun hamjamiyat qurishi mumkinligini anglatadi. Erkin uyushma faoliyati natijasida individ yaxlitlik kasb etish va o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini qo'lga kiritadi, ya'ni kollektiv individuallashuv haqida gapirish mumkin. Bu yerda dunyo miqyosida birlashish jarayonida ishtirok etayotgan insonning ongli faolligi yana kollektiv darajaga qaytadi. Endi individ individualizm bosqichida bo'lganidek ijtimoiy dunyodan ajralib qolmaydi, balki o'z imkoniyatlaridan foydalanish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan yetuk shaxsga aylanadi.

Muhimi shundaki, mazkur tendensiyada insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan «**gomo kreator**», ya'ni o'z taqdiri bunyodkori sanalgan, biroq o'zboshimchalik bilan emas balki muayyan sharoitlarda va ularga muvofiq ish ko'radigan, ayni paytda o'z oldida turgan muqobillar doirasida yo'l tanlashda erkin bo'lgan inson kuzatiladi. Zotan, industrial rivojlangan mamlakatlarda «ikkinchi sanoat inqilobi» (aniqrog'i, informatsion inqilob) olamshumul o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

**Birinchidan**, postindustrial sivilizatsiyada proletariat kognitariatga aylanadi, zero, endi mehnatning asosiy shakllari ilmiy tadqiqotlar, iqtisodiy tahlil va dasturlashtirish hisoblanadi. Bu yangi inson – gomo kreatorni, ya'ni tashabbuskorlik, o'qimishlilik va omilkorlikni o'zida birlashtirgan ijodkor shaxsni talab qiladi.

**Ikkinchidan**, postindustrial sivilizatsiyaning ikkinchi asosi sifatida biotexnologiya amal qiladi. U biologik tizimlarga aralashadi va ularning rivojlanish jarayonlarida ishtirok etadi. Biotexnologiya o'z kuch-qudratiga ko'ra yadro energiyasidan ustun turadi va insonni jonli tabiatning chinakam bunyokdoriga aylantiradi.



**Uchinchidan**, barcha a'zolari (shu jumladan, tarkibiy ishsizlik chetlab o'tmagan kishilar ham) boy va farovon bo'lgan jamiyat vujudga keladi

**To'rtinchidan**, insonning dunyo haqidagi bilimlari misli ko'rilmagani darajaga ko'tariladi.

Gomo kreator – tabiat qonunlari bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlariga ham bo'ysunuvchi inson. U postindustrial sivilizatsiya sharoitida o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashi shart emas. Postindustrial jamiyat baxtli hayot uchun zamin yaratadi, zero, shu paytgacha aksariyat individlar turmush sifatini pastligining bosh sababchisi bo'lgan omil – muhtojlikni kun tartibidan chiqaradi. U insonni og'ir jismoniy mehnatdan xalos qilish, unga kamol topish uchun yetarli bo'lgan bo'sh vaqtni ta'minlash orqali o'z shaxsiyatini amalda to'la namoyon etish uchun imkoniyat yaratadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, jamiyat o'z rivojlanish jarayonida gomo kreatorga erishish yo'lida harakatlanmoqda va ushbu maqsadga erishgach, inson xudoning chinakam timsoliga aylanadi (isixastik an'anada «inson Xudoga o'xshatib yaratilgan» degan tezis insonda Xudoning ijodiy funksiyasi mujassamlashganini anglatishi tasodifiy bir hol emas).

**Tajriba va amaliy matnlar:** inson fenomeni, ijtimoiy omillar. Inson xulq-atvoriga nisbatan iqtisodiy yondashuv. Simfonik shaxs konsepsiyasi. Ijtimoiy borliq, L.Karsavin ijtimoiy falsafasida izchil «sotsiotsentriзм», Giperindividuallik konsepsiyasi. Gipershaxs haqidagi tasavvur, rotalitar va demokratik tizimlarda inson maqomi. Totalitar tizimga yalpi qo'rquv muhiti xosligi. «Gomo kreator»ga erishish yo'lida.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar

V Zombart sanab o'tgan hozirgi zamon iqtisodiy odamiga xos bo'lgan umumiy jihatlar



U o'z hayotida mo'ljal oladigan asosiy qadriyatlar – bu mo'may daromad va biznesdir

U qo'lga kiritishi, tashkillashtirishi, muzokaralar olib borishi, spekulyatsiya va kalkulyatsiya qilishi lozim

Uning faoliyati o'z faolligini mutlaqo oqionalashtirish va kengaytirish tamoyillariga to'la bo'ysunadi

Tirishqoqlik, tejamkorlik va farovonlik kabi xususiyatlar amaliy mexanizmnning tarkibiy qismlariga aylandi





### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inson xulq-atvoriga iqtisodiy yondashuv nima?
2. Iqtisodiy yondashuvning yutuqlari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. "Simfonik shaxs" deganda nimani tushunasiz?
4. Shaxs va inson tushunchalarini yoriting!
5. Gipershaxs deganda nimani tushunasiz?
6. Gipershaxs haqidagi qarashlarga sizning munosabatingiz qanday?
7. Totolitar jamiyatning belgilarini sanab bering!
8. Totolitar jamiyatda insonga munosabat qanday bo'ladi?
9. Demokratik jamiyatda insonga munosabat qanday bo'ladi?
10. Demokratik jamiyatda inson maqomini qisqacha tushuntiring!

### Esse mavzulari

1. Insonning ijtimoiy maqomiga turli xil qarashlar.
2. Iqtisodiy tizimlarning inson xulq-atvoriga ta'siri.
3. "Simfonik shaxs" konsepsiyasi.
4. Gipershaxs tushunchasiga tanqidiy yondashuv.
5. Totolitar va demokratik jamiyalarda insonga munosabat va ularni o'zaro tahlili.

### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari.

1. "Iqtisodiy tahlil va inson xulq-atvori" asarini muallifi kim?

- A. G. Bekker
- V. I. Kant
- S. O. Kont
- D. K. Popper

2. «Iqtisodiy yondashuv o'z qudratiga ko'ra betakror, chunki u inson xulq-atvorining ko'p sonli rang-barang shakllarini birlashtirishga qodir» ushbu jumla muallifi kim?

- A. G. Spenser.
- V. G. Bekkr.
- S. J. Mill.
- D. Bentam



3. Siyosiy xulq-atvorni tushuntirishda iqtisodiy yondashuvdan foydalangan mutafakkirni belgilang.

- A. I. Bentam
- V. Derrida
- S. A. Smit
- D. Sartr

4. Inson lazzatlari va azob-uqubatlarini hisoblash uchun iqtisodiy yondashuvdan foydalangan shaxsni to'g'ri ko'rsating.

- A. Budda
- V. O. Kont
- S. M. Fuko
- D. Bentam

5. Iqtisodiy yondashuvdan kelib chiqib cherkovga qatnash muommosini tahlil qilgan shaxslarni ko'rsating.

- A. Ezzi va Erenberg
- V. Buxanin va Tullok
- S. Xamermesh va Soss
- D. Shuls va Lends

6. Iqtisodiy yondashuvdan kelib chiqib siyosiy faoliyatni tahlil qilgan shaxslarni ko'rsating.

- A. Ezzi va Erenberg
- V. Buxanin va Tullok
- S. Xamermesh va Soss
- D. Shuls va Lends

7. Iqtisodiy yondashuvdan kelib chiqib hayvonlarni qirilish muommosini tahlil qilgan shaxslarni ko'rsating.

- A. Ezzi va Erenberg
- V. Buxanin va Tullok
- S. Xamermesh va Soss
- D. Shuls va Lends

8. Iqtisodiy yondashuvdan kelib chiqib nikoh, tug'ilish va ajrashishlar muommosini tahlil qilgan shaxslarni ko'rsating.

- A. Ezzi va Erenberg
- V. Buxanin va Tullok
- S. Xamermesh va Soss
- D. Shuls va Lends

9. Kimning fikriga ko'ra, iqtisodiy nazariyani ijtimoiy fanlarning «malikasi» deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi?

- A. R. Xaylbroner
- V. M. Xaydegger
- S. Xarris
- D. Ford Xarrison

10. R. Xaylbronerning fikricha iqtisodiyot ildizlarini nimadan izlash kerak?

- A. ishlab chiqarishdan
- V. ijtimoiy institutlardan
- S. moddiy va ma'naviy qadriyatlardan
- D. qonunlardan

11. «Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi» asarini muallifini toping.

- A. Foma Akvinskiy
- V. Sartr
- S. M. Veber
- D. V. Zombart

12. «Burjua. Hozirgi zamon iqtisodiy odamining ma'naviy rivojlanish tarixidan etyudlar» nomli asar aynan mana shu shaxsga tegishli.

- A. Foma Akvinskiy
- V. Sartr
- S. M. Veber
- D. V. Zombart

13. V. Zombart hozirgi zamon iqtisodiy odamiga xos bo'lgan umumiy jihatlarni sanab o'tadi. Ular nechta edi?

- A. 4ta
- V. 5ta
- S. 6ta
- D. 7ta

14. «Simfonik shaxs» konsepsiyasi kimga tegishli?

- A. Gusserl
- V. Karsavin



- S. Viner
- D. Veber

15. Karsavin konsepsiyasi qanday muammoni yechishga qaratilgan?

- A. ong muammosini
- V. xotira muammosini
- S. shaxs muammosini
- D. jamiyat muammosini

16. L. Karsavin tomonidan yaratilgan shaxs konsepsiyasi olinning qaysi asarida ishlab chiqilgan?

- A. "Inson va insoniylik"
- V. "Shaxs va Inson"
- S. "Inson haqida"
- D. "Shaxs haqida"

17. L. Karsavinning "simfonik shaxs" konsepsiyasida shaxs va borliq munosabatiga qay tarzda yondashilgan?

- A. Shaxs o'zini borliqdan ajratmaydi
- V. Shaxs borliqdan alohida, batomom mustaqil
- S. Shaxs va borliq bitta narsa
- D. Shaxs borliqdan ustun

18. L. Karsavin ijtimoiy falsafasiga xos xususiyatni belgilang.

- A. inson burchlarining cheksizligi
- V. kollektivlikning individuallikdan ustunligi
- S. individullikning kollektivlikdan ustunligi
- D. inson huquqlarining cheksizligi

19. Karsavinning Global shaxs falsafasida ekzistensiya . . . ?

- A. yuqori o'ringa qo'yiladi
- V. borliq bilan birlashtiriladi
- S. mavjudligi inkor etiladi
- D. fanni rivojlantiradi

20. «Simfonik shaxs haqidagi ta'limot aslida qullikni metafizik nuqtai nazardan asoslashdan boshqa narsa emas» ushbu jumla kimga tegishli.

- A. Solovyov

- V. Mosin
- S. Florenskiy
- D. Berdyaev

21. L. Karsavin konsepsiyasida ma'naviy ierarxiya o'rnini nima egallagan?

- A. moddiy ierarxiya
- V. shaxs ierarxiyasi
- S. borliq ierarxiyasi
- D. jamiyat va shaxs ierarxiyasi

22. Giperindividullik konsepsiyasi kimga tegishli?

- A. V. Naximov
- V. V. Nalimov
- S. V. Nasimov
- D. V. Narimov

23. V. Nalimovga ko'ra sodda qilib aytadigan bo'lsak ikki darajali taqsimlash funksiyasi bu - ?

- A. Supermen
- V. Komil inson
- S. Yuqori inson
- D. Gipershaxs

24. Seksual energiya yordamida erkak va ayolni bir kosmik juftlikka birlashtirishni nazarda tutuvchi ta'limot bu - ?

- A. dualizm
- V. tantrizm
- S. uranizm
- D. marsovenerologizm

25. Transfer fenomenini kim yaratgan?

- A. K. Yung
- V. Rorti
- S. Freyd
- D. Bergson



### Adabiyotlar

1. Беккер Г. Экономический анализ и человеческое поведение. Москва: 1993, Хайлбронер Р. Экономическая теория как универсальная наука // Thesis. Теория и история экономических и социальных институтов и систем. – Москва: 1993.
2. Беккер Г. Экономический анализ и человеческое поведение. Москва: 1993, – 29-с.
3. Нэбитт Дж., Эбурдин П. Что нас ждет в 90-е годы? – Москва: 1992. – 202-с.
4. Кюнле С. Государство всеобщего благоденствия. – Москва: 1994. – 239-с.
- Bell D. The Culture Contradictions of Capitalism. – N.Y., 1976.
5. Бергер П. Капиталистическая революция. – Москва: 1994. – 144-с.
6. Фридман М. О свободе // Открытая политика. 1995. № 1. – 50-с.
7. Бурстин Д. Американцы. Демократический опыт. – Москва: 1993.
8. Налимов В.В. Спонтанность сознания. – Москва: 1989. – 202-с.
9. Катуков В.М. Эволюция диктата. – Москва: 1992. – 55-с.
10. Гуревич П.С. Человек: венец или ошибка природы? // Наука в России. 1993. № 2. – 33-с.

### 5-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING MADANIY OMILI

XX asrda kuzatilgan integratsiya jarayonlari kishilik hamjamiyatida teran sifat o'zgarishlarini bashorat qilish uchun asos beradi. Ba'zi bir olimlar XXI asrda yangi qadriyatlar tizimini o'z ichiga olgan, hatto kollektiv **Aql, Xotira va Ma'naviy dunyoga** ega bo'lgan yagona planetar sivilizatsiya paydo bo'ladi deb hisoblaydilar. Ayrim olimlar fikriga ko'ra esa o'ziga xos sivilizatsion-madaniy «umumiy maxraj» sifatidagi metatsivilizatsiya vujudga keladi, bunda milliy va mintaqaviy sivilizatsiyalar yutib yuborilmaydi yoki siqib chiqarilmaydi, balki ushbu metatsivilizatsiya tarkibidan o'rin oladi. Inson fenomenini tushunish nuqtai nazaridan aynan sivilizatsiyalarning o'zgarishi sifatida tavsiflanadigan tub o'zgarishlar muhimdir, zero, inson sivilizatsiya va madaniyatning o'zagi hisoblanadi.

Yuz berayotgan sivilizatsion o'zgarishlar yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelishida namoyon bo'ladi (shuni unutmaslik kerakki, aksiologik nuqtai nazardan madaniyat qadriyatlar tizimini o'zida ifodalaydi). Ushbu o'zgarishlar axborot jamiyatining shakllanishida ham kuzatiladi. Mazkur jamiyatning industrial sivilizatsiyadan farqi shu bilan belgilanadiki, unda narsalarni boshqarish emas balki ularni ishlab chiqarish masalasi birinchi o'ringa chiqadi: **«Bilim – bu hokimiyatdir, degan eski g'oyaning kuni bitdi. Hozirgi vaqtda hokimiyatga erishish uchun bilimlar haqida bilimga ega bo'lish zarur»** (O. Toffler). Inson o'z ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladi, o'zini o'zi boshqarish uchun tayyorgarlik darajasi ham ortadi. Axborot sivilizatsiyasi rivojlanishi bilan bir vaqtda siyosiy muammolar ham yig'ilib boradiki, ularni an'anaviy usullar hamda oz sonli hukmron elita kuchlari bilan yechish mumkin emas. Kelajak siyosiy elitalari ko'p sonli va ochiq bo'ladi, bu esa shaxsning kratik (yunoncha *kratos* – «hokimiyat» so'zidan) xulq-atvoriga, ya'ni uning hokimiyatga intilishi va unga bo'ysunish ko'nikmasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'z-o'zidan ravshanki, individlarning asosiy ommasi siyosiy sohada o'z ko'lamiga ko'ra uncha katta bo'lmagan kundalik qarorlarni qabul qilish bilan shug'ullanadi.

Axborot sivilizatsiyasida madaniyat sohasiga kompyuter sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi (hozirning o'zidayoq ko'rsatmoqda). Bugungi kunda insonga virtual voqelikka «sho'ng'ish» imkoniyatini beruvchi virtual texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotgani tasodifiy bir hol emas. Aslini olganda, san'at ham o'ziga xos virtual voqelikdir. Tabiiyki, sivilizatsiyalar o'zgarayotgan davrda etnomadaniy va gumanistik muammolar ham yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuni e'tiborga olib



quyida ijtimoiy-madaniy dunyoda insonning kratik xulq-atvori, go'zallikning jamuljam ifodasi sifatidagi san'at, inson va kompyuterning o'zaro aloqasi mahsuli sifatida vujudga keluvchi virtual voqelik lozimki, jamiyat tabiat ta'sirida biroq madaniyat asosida nazarda tutish madaniyat sotsiurning «boshqa» tomoni hisoblanadi.

**Inson va hokimiyat: yangi asr ijtimoiy-madaniy konteksti.** Inson fenomenining mazmun va mohiyatini yoritishda individning hokimiyatga intilishi va unga bo'ysunishi masalalari birinchi darajali ahamiyatga kasb etadi. Davlat qurilishining turli modellari faoliyat ko'rsatayotgan yangi asr ijtimoiy-madaniy kontekstida insonning kratik xulq-atvori alohida diqqatga sazovordir. Ayni shu (monarxik, totalitar va demokratik) davlat qurilishlari doirasida insonning kratik xulq-atvori ijtimoiy-ruhiy va ijtimoiy-madaniy omillar majmui bilan belgilanadi. Bu yerda hokimiyat fenomenini o'rganishda «Sharq - g'arb» an'anaviy oppozitsiyasini chetlab o'tish mumkin emas, zero, u individning kratik xulq-atvori haqida yanada aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

«Sharq - g'arb» oppozitsiyasini ikki g'oya sintezi doirasida anglab yetish mumkin. Birinchi g'oya Sharq tafakkuri doirasida yaratilgan bo'lib, «Men»ning ahamiyatini inkor etishdan iborat. Konfutsiychilik mafkurasiga asoslangan Xitoyning ming yillik tarixi mazkur g'oyaning amalga oshirilishiga yorqin misol bo'ladi. «Konfutsiychilar va legistlar ta'limoti xitoy jamiyatiga ichdan xos bo'lgan jihatlarni, an'analarga rioya qilishga va ayni paytda yalpi nazoratga moyillikni, shuningdek, davlat apparati faoliyatida huquqiy odat va yozilgan qonundan foydalanishni aks ettiradi... Legizm emas balki konfutsiychilik tashkil topgan markazlashtirilgan byurokratik imperiyaning rasmiy mafkurasiga aylandi»<sup>180</sup>

Tabiiyki, konfutsiychilikning inson, jamiyat va davlat haqidagi ta'limoti davr talablariga va u yoki bu mutafakkir yoki jamoat arbobi (konservativ byurokratlar yoki islohotchilar va inqilobchilar)ning ijtimoiy-siyosiy simpatiyalariga qarab turlicha talqin qilingan. Kimdir ayrim shaxs davlatga to'la bo'ysunishi to'g'risidagi g'oyani o'z ichiga olgan an'anaviy madaniyatni saqlab qolishga harakat qilgan, kimdir «katta Men» (davlat)ning «kichik Men» (shaxs) ustidan hukmronligini rad etuvchi yangi madaniyatni yaratish talabi bilan chiqqan. Eng yangi tadqiqotlar tarixiy-madaniy nuqtai nazardan ijtimoiy voqelik konfutsiychilik ta'limoti bilan muvofiq emasligi tufayli fojeary ikkilanishni his qilgan amaldor-olim shaxsini tan oladi.<sup>181</sup>

<sup>180</sup> Политические учения: история и современность. - Москва, 1976. - 173-с.  
<sup>181</sup> Qiang: Личность в традиционном Китае. - Москва, 1992. - 19-с.

G'arb tafakkurida «Men»ning qimmatini to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan. Yetuk mavjudot sifatidagi inson sharqona ideali subyektning obyektlar dunyosi bilan uzviylikni anglatadi, g'arbda qabul qilingan yetuk individ ideali esa asosiy e'tiborni obyektiv dunyoning ruhiy ta'siridan uni mumkin qadar himoya qilishga qaratadi.<sup>182</sup> Individning yetukligi uning ijtimoiylashuvini, madaniyatini, uni obyektiv va subyektiv voqelik nuqtai nazaridan tavsiflashni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan individ yevropalikning ko'z o'ngida estetik fenomen sifatida gavdalanadi, deyarli to'liq san'at sohasiga mansub bo'ladi va amaliy borliqqa qarshi turadi.

Ikkinchi an'anaviy g'oyani F. Nortrop o'z vaqtida quyidagicha ta'riflagan edi: Sharq estetik, g'arb esa - nazariy fenomendir.<sup>183</sup> Ammo Sharq va g'arbn muqobil sivilizatsiyalar (yoki tizimli tuzilmalar) sifatida ajratish yo'lida hal qiluvchi qadamni tashlagani yo'q. G'arbda estetik omillar bilan amaliy omillar o'rtasida qarama-qarshilik mavjud bo'lsa, Sharqda (ayniqsa xitoylar va yaponlarda) estetik omillar oqilonalik asosi sifatida e'tirof etiladi, natijada ijtimoiy o'zaro aloqa ishtirokchilarining motivatsion til topishiga erishiladi va «tizim» quriladi.<sup>184</sup>

«Tizim»ni yaratishda eng muhim elementlardan biri **hokimiyat fenomeni** hisoblanadi: u g'arb (nazariy) va sharq (estetik) sivilizatsiyalari doirasida turlicha shakl-shamoyil kasb etadi. Ma'lumki, hokimiyatning emotsional ahamiyatini tavsiflash uchun «xarizma» tushunchasi ishlatiladi. Teologik va sotsiologik (vebercha) talqinda bu tushuncha sof g'arbiy hisoblanadi va hokimiyatga bo'lgan da'voni qonunlashtirishni nazarda tutadi. Sharqda hokimiyatni tan olishning madaniy (ruhiy) omili - bu qonunlashtirish emas balki podsho shaxsiga estetik tus berishdir. Qonunlashtirish normativ g'oyalar bilan bog'liq. Ayni shu g'oyalar g'arb sivilizatsiyasining motivatsion strukturasi yoki tizimli mohiyatini tavsiflaydi. Boshqacha qilib aytganda, gap inson normativ g'oyalar bilan o'zining bog'liqligini anglab yetishi haqida boradi. Sintoistik mif imperatorning hokimiyatga bo'lgan huquqlarini isbotlash uchun normativ implikatsiyalarga ega emas. U podsho shaxsini ertaknamo vositalar yordamida madh qiladi, unga nisbatan har qanday tanqidiy munosabatni e'tibordan soqit etadi. Insonning kratik xulq-atvorini tushunish uchun yuqorida aytib o'tilganlar bilan bir qatorda g'arb ijtimoiy tartibi egalitar, sharq ijtimoiy tartibi esa - ierarxiyaviy ekanligi ham muhimdir.

<sup>182</sup> Ицхокин А. «Евразия»: между идеологией и метафорой // Общественные науки и современность. 1993. № 1. - 101-с.

<sup>183</sup> Nortrop F.C.S. The Meeting of East and West. - N.Y., 1966.

<sup>184</sup> Ицхокин А. «Евразия»: между идеологией и метафорой // Общественные науки и современность. 1993. № 1. - 102-с.



Ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy-ruhiy) omillar o'z vaqtida aynan Sharqda, Qadimgi Misrda, Shumerda va boshqa sakral sivilizatsiyalarda ijtimoiy megamashinani yaratgan edi. Unga davlat hokimiyati sohasida podshodan boshqa hammaning o'zligiga past nazar bilan qarash xosdir. L. Memford ayni shu mexanik tizimning faoliyati natijasida shaxsni podsho darajasida ilohiylashtirish yuz berganini ta'kidlaydi: «Hokimiyat monopoliyasi muayyan tarzda shaxs monopoliyasi vujudga kelishiga sabab bo'ldi, zero, shaxsning barcha atributlariga faqat podsho ega edi. Mazkur bosqichda shaxs va hokimiyat uzviy deb qaraladi: ularning ikkalasi ham podshoda mujassamlashadi. Zero, faqat suveren qarorlar qabul qilishi va ilgari tasavvur qilish ham mumkin bo'lmagan kollektiv yutuqlarga erishishi mumkin edi»<sup>185</sup>. O'zini o'zi madh etish A. Gitler va I. Stalin qabilidagi «dohiyalar»ga ham xosdir, zero, ijtimoiy «megamashina» yangi davrda qayta tiklandi.

L. Memford yangi megamashinaning paydo bo'lishiga ilk ishora birinchi jahon urushidan keyin qayd etilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Rossiya va Italiyada totalitar davlatlarning vujudga kelishi ana shunday ishora bo'lgan<sup>186</sup>. «Dohiy» boshchiligidagi inqilobiy «xunta»ning bir partiyali tashkiloti fashistik va kommunistik diktaturalar shakli hisoblangan.

L. Memford fikriga ko'ra, ijtimoiy megamashinaning tiklanish jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin:

- *Birinchi bosqich 1789-yilgi fransuz inqilobi bilan bog'liq.* Garchi bu inqilob an'anaviy monarxiyani tugatgan bo'lsa-da, uning abstrakt egizagi – milliy davlatning yanada ulkanroq hokimiyatini tikladi. Ushbu davlat ruscha soxta demokratik shartnoma nazariyasiga muvofiq qirollar ham havas qilsa arziydigan darajada hokimiyatga ega edi.

- *Ikkinchi bosqich asosan Birinchi Jahon urushi davriga to'g'ri keladi.* Ammo bu yo'lda dastlabki qadamlar Napoleon Bonapart tomonidan tashlangan va 1870-yilgi Fransiya-Prussiya urushidan keyin Bismark boshchiligidagi pruss harbiy avtokratiyasi tomonidan davom ettirilgan edi. Mazkur bosqich davlat armiyasida talabalar va olimlarning ixtiyoriy xizmatini, ishchilar sinfini umumiy saylov huquqi, boshlang'ich xalq ta'limi, qarilik pensiyasi bilan o'ziga og'dirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi Jahon urushi arafasida yangi megamashinaning asosiy xususiyatlari amalda bo'rtib namoyon bo'ladi. Hatto siyosiy erkinlik sohasida Angliya va AQSh kabi yirik yutuqlarga erishgan millatlar ham harbiy majburiyat joriy etadilar, olimlar esa yanada vayronkor va halokatli

<sup>185</sup> Мэмфорд Л. Социальная мегамашина // Утопия и утопическое мышление. – Москва: 1990. – 96-с.

<sup>186</sup> The Lewis Mumford reader. – N.Y., 1986. – 333-с.

qurol-aslaha – trinitro-toluol bombalari, zaharlovchi gazlarni yaratish ustida ish olib boradilar. Kollektiv hokimiyat hali hech qachon bunday qudratga ega bo'lmagan edi, zero, u texnika yutuqlaridan ommaga informatsion ta'sir ko'rsatish uchun foydalanardi (radio matbuot bilan bir qatorda davlatga ancha samarali xizmat qilar edi). Umuman olganda bularning barchasi moddiy kuch va harbiy intizomga ega bo'lgan megamashinaning qudratini yanada oshirdi.

- *Ijtimoiy megamashinani tiklashning uchinchi bosqichi Ikkinchi Jahon urushi yillarini qamrab oladi.* Bunga mutlaq harbiy diktatura sifatidagi dastlabki (qadimgi Misr ehromlari davridagi) mexanizmning tiklanishi imkoniyat yaratadi. Ushbu megamashina o'zining klassik shakl-shamoyilini Rossiya va Germaniyada kasb etadi, uning ba'zi bir unsurlari Italiya, Turkiya, Gretsiya hamda Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarning fashistik diktaturalarida ham uchraydi. Tangridan mandat olgan ilohiylashtirilgan monarxlar o'rniga bu yerda endi vulgar «egizak» - qiynoqlar qo'llaydigan, odamlarni ommaviy qirg'in qilishdan tap tortmaydigan iblisona hokimiyat paydo bo'ladi<sup>187</sup>.

Yangi ijtimoiy megamashina hokimiyatga tashnalik insonda boylikka intilishdan ham kuchliroq mayl hisoblanishini amalda namoyish etadi (ushbu tezisni hozirgi antropologik tadqiqotlarning natijalari ham tasdiqlaydi). Binobarin, hokimiyat mafkurasi ham mavjud va u hokimiyatga intilishni asoslashga, ko'p sonli individlarning u bilan bog'liq bo'lgan azob-uqubatlarini oqlashga harakat qiladi. XX asr ijtimoiy megamashinasi zamirida hokimiyatda tengsizlikning mavjudligi yotadi. Mazkur megamashinaning faoliyat tajribasi (natsistlarning lagerlari va Gulag) uning mavjudligi amalda mulkiy tengsizlikka qaraganda kuchliroq xavf tug'dirishini ko'rsatadi. Ayni shu sababli nazoratsiz oliy hokimiyatga tashna shaxslar «dunyoviy jannat» haqidagi utopiyaning bayroq qilib olganlar.

Mazkur utopik mafkuralar ortida hokimiyatning o'z-o'zini rivojlantirish va hokimiyatdagi tengsizlik mexanizmi yashirib yotadi. «Bu mexanizm hokimiyatning bo'linishi ma'rifatli tamoyillarini, shu jumladan, ma'naviy va siyosiy hokimiyatning bo'linishi qadimgi tamoyilini oyoqosti qildi. Bolshevizm va fashizm podsholik, tabarruklik va payg'ambarlikning yagonaligi arxaiik tamoyilini tikladi. Ushbu tamoyilga muvofiq dohiy ham siyosiy hokimiyatning eng oliy manbai, ham kohin, ham dohiyona g'oyaning bosh nazariyachisi hisoblanadi. Mazkur teokratik

<sup>187</sup> The Lewis Mumford reader. – N.Y., 1986. – 334-335-p.



tamoyil Tavrotdayoq eskilik sarqiti sifatida tavsiflangan edi»<sup>188</sup> Ushbu mexanizm individning kratik xulq-atvorini ham belgilaydi. XX asr demokratik jamiyatining ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-ruhiy sharoitlarida bunday xulq-atvor o'zgacha shakl-shamoyil kasb etadi. Bu yerda individlar siyosiy rejimining faoliyat ko'rsatish mexanizmini odatda biladilar. Fransuz sotsiologi R. Aron o'zining «Demokratiya va totalitarizm» kitobida: «Agar fuqarolar mamlakatdagi rejim qaysi qoidalarga muvofiq ish ko'rishini bilmasalar, Fransiyada mavjud bo'lgan demokratiya sharoitida biz yashay olmagan bo'lardik»<sup>189</sup>, - deb ta'kidlaydi. Hozirgi zamon demokratik jamiyati ancha murakkab, unda ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda inson ishtirokining kengayishi kuzatiladi.

XXI asr boshida inson kratik xulq-atvorining yangi xususiyatlari axborot jamiyatining shakllanishi bilan bog'liq. Zero, mazkur jamiyat hokimiyatning ierarxiyaviy strukturasi bilan voz kechishni talab qiladi. J. Nesbitt fikriga ko'ra, ierarxiyaviy struktura informatsion sivilizatsiya uchun yaramaydi, chunki u axborot oqimining tezligini pasaytiradi. Shu tufayli ham markazlashgan institutlar bir-biri bilan norasmiy munosabatlar va strukturalar orqali bog'langan markazlashtirishdan chiqarilgan institutlarga o'rin bo'shatishi lozim. Ierarxiyalar ijtimoiy muammolarni yechishga qodir emasligi kishilarni boshqacha struktura haqida o'ylashga majbur qiladi - shu tariqa «bo'g'inlar» g'oyasi vujudga keladi. Xotin-qizlar, ekologlar va patsifistlar harakati bunday strukturaning klassik andozasini beradi. «Bo'g'inlar o'z-o'ziga yordamni mustahkamlash, axborot ayirboshlash, mehnat unumdorligini oshirish va uning sharoitlarini yaxshilash maqsadida resurslarni birlashtirish uchun tuziladi, deb qayd etadi J. Nesbitt - Bo'g'inlar strukturasi axborot oqimini jadallashtirishi, javobgarlikni kuchaytirishi va energiya samaradorligini oshirishi lozim»<sup>190</sup>

J. Nesbitt keng miqyosda yaratilayotgan turli-tuman bo'g'inlar jamiyatning an'anaviy bo'g'inlari - oila, cherkov va qo'shnilar jamoasi o'zining avvalgi mavqei tiklashiga ko'maklashishi lozim deb hisoblaydi. Kelajakda menejment bo'g'inlarni bir-biri bilan bog'lovchi o'ziga xos bir zanjirga aylanadi. Ushbu bo'g'inlar o'rtasidagi aloqa subordinatsiyani istisno qiladi. Bunga yarim o'tkazgichlar ishlab chiqarish sohasida yetakchi korxonalar - «Intelkorporeyshn» kompaniyasi misol bo'lishi mumkin. Ushbu kompaniya ierarxiyaviy strukturaga ega emas. Bu yerda xodimlar bir nechta boshliqlarga ega bo'lishi mumkin, mahsulotni sotish va sifatni nazorat qilish funksiyalarini hay'at amalga oshiradi;

kompaniyaga oliy darajadagi uch boshqaruvchi - tashqi direktor, uzoq muddatli rejalashtirish bo'yicha mutaxassis va kompaniya manfaatlarini ifoda etuvchi direktori o'z ichiga olgan yagona organ rahbarlik qiladi. Garchi qarorlarni mazkur organ qabul qilsa-da, ularning muhokamasida barcha xodimlar teng darajada ishtirok etadilar. Bunday strukturaga ega bo'lgan tashkilotda iste'dodli kishilarning uncha katta bo'lmagan guruhlari o'z ishiga o'zlari rahbarlik qilishlari va yuksak natijalarga erishishlari mumkin. Ularning muvaffaqiyatida inson omili, xodimlarning manfaatlariga qarab mo'ljal oluvchi nisbatan erkinroq ish rejimi va hokazolar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo bunday norasmiy ish uslubi xarajatlar, mahsulot sifati va hokazolar ustidan qattiq nazorat o'rnatishni taqozo qiladi. Mazkur nazorat kompyuterlar tomonidan amalga oshiriladi. Natijada menejerlar bor e'tiborni odamlarga qaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar va kompaniya yuqori malakali xodimlarga muhtojlik sezmaydi.

Yuqorida zikr etilganga o'xshash bo'g'inlar shaxsga o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. J. Nesbitt bu haqida shunday deb yozadi: «Shaxs darajasida hamjamiyat, ayrim kishilarning erkin uyushmasini tashkil etish mumkin. Hamjamiyatda ham yashirinish uchun joy yo'q. Umum ishiga kim hissa qo'shayotganini va kim bir chekkada qo'l qovushtirib turganini har kim biladi. Ayrim shaxslar hamjamiyatga qo'shilishga intiladilar, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni istamaganlar esa ko'pincha jamoa «pinji»ga yashirinadilar»<sup>191</sup>. Shunday qilib, muammolarni yechishning an'anaviy usullari individlar o'rtasidagi «**hukmronlik - bo'ysunish**» munosabatlariga yangicha yondashuvga asta-sekin o'rin bo'shatadi. Boshqacha qilib aytganda, insonning kratik xudq-atvori informatsion sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni bilan belgilanadi va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan birga o'zgaradi.

**Inson ijodi va san'at simvolizmi.** XXI asr boshida inson fenomenini o'rganishda individning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida talqin qilinuvchi san'at ulkan rol o'ynaydi. Amerikalik taniqli estetik olim va san'at psixologi R. Arnxeym demokratiyaning rivojlanishi natijasida inson hayot faoliyatida san'atning ahamiyati to'g'risidagi g'oya vujudga kelganini ta'kidlaydi: «Ijodiy faoliyat ruhiy yordamga muhtoj bo'lgan insonni ruhlantirishga va ilgari faqat san'atkorlar imtiyozini hisoblangan usullar bilan uni rag'batlantirishga qodir»<sup>192</sup>. San'atning foydasi haqidagi bunday tasavvur, aynan foydasizlik har qanday san'atga xos xususiyat hisoblanishini nazarda tutuvchi estetik an'anaga ziddir.

<sup>188</sup> Философия власти. - Москва: 1993. - 125-с.

<sup>189</sup> Арон Р. Демократия и тоталитаризм. - Москва: 1993. - 23-с.

<sup>190</sup> Nesbitt J. Megatrends: Ten new directions transforming our lives. - N.Y., 1982. - 192-p.

<sup>191</sup> Несбитт Дж., Эбурдин П. Что нас ждет в 90-е годы? - Москва: 1992. - 344-с.

<sup>192</sup> Арнохейм Р. Новые очерки по психологии искусства. - Москва: 1994. - 273-с.



Ammo mazkur an'ana endilikda ishlarning haqiqiy holati bilan muvofiq kelmaydi, zero, faktlar buning aksidan dalolat beradi.

Inson miyasi sistemalari bizni san'at asarlarini tinimsiz tomosha qilish, tinglash, tasavvur qilish, izlanish, ularni yaratish va ulardan lazzatlanishga majbur etadi. Faollikning ayni shu shakllari insonni qilgan omillar hisoblanadi (bu san'at va fanda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi). Ijod va estetik lazzatlanish inson hayotining eng muhim jihatlari hisoblanadi, desak, aslo adashmagan bo'lamiz. Bunday faollik paytida inson miyasi odatdagi faoliyat jarayonidagi kabi, biroq ancha qizg'inroq ishlaydi. Ko'rish yoki eshitish faqat sezgi organlari yetkazuvchi axborotni saralashga asoslanadi degan tasavvur voqelik bilan muvofiq kelmaydi. Insonning perseptiv faolligi to'laligicha sezgi organlari yetkazib beruvchi oz sonli ma'lumotlardan foydalanishda obrazlarni gavdalanirishga asoslanadi. *Shu ma'noda san'at asarlari inson ijodiy faoliyatining timsollari sifatida namoyon bo'ladi.*

Miya simvollar bilan tinimsiz ishlashini anglash orqali biz san'at asarlarini tushunishga yo'l topamiz. San'at asarlari inson miyasining simvollar kodi bilan muayyan usulda o'zaro aloqaga kirishuvchi so'zlar, tasvir yoki tovushlar bilan ifodalangan simvollar to'plami hisoblanadi. Ushbu kod qisman tug'ma xususiyat kasb etadi, qisman madaniy omillar bilan belgilanadi. Xuddi shuningdek, san'at asarlariga nisbatan bizning ayrim reaksiyalarimiz bevosita va umumiy hisoblanadi, biroq umuman o'lganda ular san'atkor foydalangan kodni bilishni nazarda tutadi. San'atkorning kodi va simvollar to'plami bizning miyamizda yuz berayotgan jarayonlar bilan hamohang bo'lishi lozim. Tasviriy san'at, adabiy asar, musiqa va hokazolarning timsollari amalda simvollar hisoblanadi, chunki miyaning ruhiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan dasturlari vositasida retsipientda qiziqish uyg'otadi.

San'at insonga Shopengauer aytgan «*azaliy yolg'izlik*»dan xalos bo'lishga yordam beradi, zero, u dunyoning teran analogi hisoblanadi. Yaratish akti badiiy ijodning sinonimi hisoblanadi, chunki san'at o'z ichki tabiatiga ko'ra dunyoni anglab yetish imkonini beradi. Kuchli ekstaz, o'ta ta'sirchan intuitsiya lahzalarida inson hodisalar mag'zini chaqadi. San'at go'zallikni aks ettirish vositasi sifatida dunyo haqidagi ming yillik bilimlar va tajribani o'zida qayd etadi. Ayni paytda dunyoviy san'at kosmik san'atning teran analogi hisoblanadi.<sup>193</sup>

San'atning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, biz kundan kunga yangi va yangi shakllarni yaratamiz, san'atkor bizga kuzatishda yordam beradi. U atrof-muhitni tasavvur qilishning yangicha usullarini bizga taklif

<sup>193</sup> Qit'alar: Блок А. Новые материалы и исследования. — Москва: 1980. Кн. 2.

qiladi; san'at asarlari dunyosini o'zlashtirar ekan, inson dunyoni san'atkorning ko'zi bilan ko'ra boshlaydi. «Biz faqat ikki voqelikni — o'zimiz yashayotgan va o'zimizda yashayotgan voqelikni bilamiz, — deb ta'kidlaydi R. Gyuyo. — Birinchi voqelik Koinot, ikkinchi voqelik esa — ruhiy hayotdir. Sirdagi voqelik makonda, ichki voqelik — vaqtda sodir bo'ladi, san'at esa ularni bir yerda jamlaydi. San'at asari qandaydir bezak emas... u Borliq sirlarini o'zida mujassamlashtiradi»<sup>194</sup>. Nima bo'lganda ham san'at haqiqiy voqelikni ko'zgu yanglig' aks ettirmaydi: u insonning ichki dunyosini cheksiz Koinotning rang-barang dunyosi bilan birlashtiradi va ham inson hayoti, ham Koinot mazmunini anglab yetish bilan bog'liq bo'lgan ekzistensiya sirlarining tagiga yetishga harakat qiladi. Shu ma'noda san'at dinga ancha yaqin turadi. Darhaqiqat, bu ikki fenomen o'zining ko'pgina funksiyalari va individ ruhiyatiga ta'siri bilan amalda o'xshashdir. San'at asarlarida gavdalanirish transsendent qadriyatlar individning ijtimoiylashuviga salmoqli hissa qo'shadi, uning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy timsollar yo insonda yaxlitlikni va ijodga intilishni shakllantirishi, yo dunyoni va o'z-o'zini vayron qilish istagini uyg'otishi mumkin.

Bu turli sivilizatsiyalar madaniyatida va u yoki bu tipdagi shaxsning shakllanishida muhim o'rin egallagan musiqada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Musiqa sof akustik fenomen sifatida fiziologik va psixologik ta'sir ko'rsatadi. Buni bir qator ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, ayrim ritmlar va muayyan chastotalar organizmda moddalar almashinuvi jarayonini jadallashtirishi yoki aksincha — sekinlashtirishi, gipnotik holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bixevioral fiziologiya sohasidagi mutaxassis J. Daymond musiqaning xususiyatiga qarab tinlovchida muskullar kuchi o'zgarishini aniqladi. Klassik musiqaning inson bioritmlari bilan muvofiq keluvchi ba'zi bir turlari kayfiyatni yaxshilaydi, insonga ko'tarinki ruh baxsh etadi va shifobaxsh xususiyatga ega.

Musiqa shaxsning uyg'un rivojlanishi bilan ham (bu ijod uchun zarur), uning zo'ravonlikda namoyon bo'luvchi destruksiyasi bilan ham uzviy bog'liq. Musiqa va zo'ravonlikning aloqasi rok-musiqada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi: uning ta'sirida insonda o'z atrofidagi hamma narsani buzish, vayron qilish istagi junbush uradi. Zo'rlik ishlatishga moyillik repda, jazda, pop-musiqada ham namoyon bo'ladi, u klassik musiqa asarlarida ham zohirdir. «Rok, rep, jaz, reggi ularni yaratgan madaniyatga xos bo'lgan zo'ravonlikni ifodalaydi. Ammo inson va muhit bir-biri bilan uzviydir: insonning pinhona nafrati jamiyatga ta'sir ko'rsatadi, jamiyatdagi destruktiv omillar esa, aksincha, insonga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hamonki

<sup>194</sup> Huyghe R. Introduction // In Art and the Creative Consciousness. — N. Y., 1972.



musiqa mazkur jamiyat mentalitetini, uning ukkladini aks ettirar ekan u musiqachining tuyg'ularini ham ifodalaydi»<sup>195</sup>

Musiqa, agar u barkamollikka yaqin bo'lsa, «xaosdan tartib yaratadi»<sup>196</sup>. Xitoy mutafakkiri Chjuanszi ta'бири bilan aytganda, «musiqa insonga sodda, bokira va samimiy bo'lib qolish va o'zining boshlang'ich holatiga qaytish imkonini beradi». Dunyoning umumiy manzarasida san'at-ijodning o'rni shu bilan belgilanadiki, u davom etuvchi dunyoqarash hisoblanadi: ijod eng avvalo musiqiy borliq, ya'ni bilish obyektidir.<sup>197</sup>

Nazariy jihatdan olib qaraganda, signalli sistemalar insondagina emas, balki insoniyatda, uni qurshagan dunyoviy va kosmik muhitda ham lokallashishi mumkin. Bu yerda ayrim inson emas, balki lokal, mintaqaviy yoki global sotsium borlig'i va ongi haqidagi teran g'oyalarga; qadimgi hind mutafakkirlarining universal kosmik Aql haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlariga; golografik energo-informatsion manzara (D. Bom va I. Prigojin) va dialektik-monistik kontinual logos – dunyo haqidagi g'oyalarga; arxitektor I. Shmelevning uchinchi signalli sistema – insonga nisbatan o'ziga xos tarzda strukturalashgan, axborot uzatish kanali vazifasini bajarishga qodir bo'lgan arxitekturaviy muhit haqidagi g'oyasiga duch kelish mumkin.<sup>198</sup>

O'tgan asr oxirida san'at ramziy, majoziy dunyosida ayrim innovatsiyalar ta'sirida tub o'zgarishlar yuz berdi. Shunday o'zgarishlardan biri mazkur dunyoga golografiya (va lazerlar)ning kirishi bilan bog'liq. Kino fotografiyaga harakatni olib kirgan bo'lsa, golografiya unga uchinchi darajani olib kirdi. Gologramma aslo geometrik illyuziya emas, balki uch darajali real manzaradir. Gologramma ko'lamni aks ettirmaydi, uning o'zi ko'lamlidir, bunda u aks ettirayotgan sahna tomoshabinning har bir harakatiga mos ravishda o'zgaradi. Bu yerda gologrammani aks ettirish uchun zarur bo'lgan yorug'lik muhim rol o'ynaydi; lazerli yoritish vositalari tomoshabinlar davrasida ajabtovur muhitni yaratadi. Lazer naychasiga qanday gaz to'ldirilganidan qat'i nazar, gologrammalar ranglar va tuslarni o'zgartirishi, manzaraning turli fragmentlarini ajratib ko'rsatishi mumkin.

Yangi ekspressiya vositasining noyob xossalarini dzen, aykido va klassik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilish o'ziga xos xulosalarga kelish imkonini beradi. Pirovardida golografiya o'zining amaliy imkoniyatlari nuqtai nazaridan hozirgi davr san'ati darajasiga ko'tariladi. U insonning voqelik haqidagi ikki ming yillik mantiqiy tasavvurini lol qoldiruvchi

<sup>195</sup> Леймар И. Опасные связи // Курьер ЮНЕСКО. 1993. Апрель. – 38-с.

<sup>196</sup> O'sha joyda. – 39-b.

<sup>197</sup> Холопов Ю.Н. О формах постижения музыкального бытия // Вопросы философии. 1993. № 4. – 40-с.

<sup>198</sup> O'sha joyda. – 91-b.

metafora sifatida namoyon bo'ladi. Golografiya klassik prosseniun chegarasidan chetga chiqadi, u g'arb dunyosida Eynshteyndan oldin o'tgan Aristotel, Nyuton kabi va boshqa falsafa qirollari o'rnatgan tafakkur kategoriyalarining tor andozasiga sig'maydi. Aynan Eynshteyn nisbiy nazariyasining ahamiyatini amalda namoyish qilgan edi, garchi fizika modda haqidagi tasavvurdan voz kechgan bo'lmasa-da, eng mayda elementar zarralar munosabatlar yoki o'zaro aloqalar tizimi sifatida talqin qilina boshladi. Golografik yozuvda yuzaga keluvchi interferension naqshlar barcha narsalar va tafakkurning interferension (to'liqlik) tabiatini amalda namoyish qiladi.

Gologramma voqelikning yangicha tavsifini yaratadi. Bu tavsifni «yaxlit tartib» (D. Bom) deb nomlash mumkin. U inson miyasining tuzilishi va faoliyatini, xususan ko'rish va eshitish sistemalari murakkab to'liqlik shakllarni tarkibiy elementlarga ajratishga majbur bo'lishi sabablarini tushuntiradi. San'atda foydalaniladigan dunyoning bu yangicha tavsifi go'zallik haqidagi sharqona tasavvur bilan hamohangdir (ma'lumki, san'at go'zallikning jamuljam ifodasi hisoblanadi). Lo'nda qilib aytganda, aynan tasavvurlar va estetik qadriyatlar sintezi insonga dunyoga yangicha ko'z bilan qarash va shunga mos ravishda harakat qilish imkonini beradi.

Yana bir innovatsiya go'zallik haqida yangicha tasavvurni va umuman yangicha dunyoqarashni paydo qiluvchi kompyuter grafikasining keng qo'llanilishi bilan bog'liq. Bunday san'at asarlari fizik o'lchash mumkin bo'lgan ayrim matematik kattaliklarning teran o'zgarishlarini o'zida mujassamlashtiradi (kompyuterda yaratilgan san'at asarlari o'ta nafis naqshlarni o'zida ifodalaydi). «Bu o'zgarishlar tabiat qonunlariga o'xshab ketadigan sodda va aniq qoidalarga muvofiq yuz beradi, - deb ta'kidlaydi G. Aylenberger. – Ushbu naqshlarning nafis strukturasi harakat boshidagi ahamiyatsiz og'ishlar ham ulkan farqlarga olib kelishi mumkinligini ifodalaydi»<sup>199</sup>. Bu kichik sabablar ulkan oqibatlariga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

Kompyuter grafikasi belgilangan xaosni aks ettiradi; uning go'zalligi xaos bilan bog'liq. Bu go'zallik nochiziq tabiiy tizimlar zamirida yotuvchi erkinlikni kompyuter naqshlarida (fraktallarda) aks ettiradi (nochiziq tizimlarda tasodif omili mavjud emas, zero, bu yerda gap belgilangan xaos haqida boradi). «Bizning go'zallik haqidagi tasavvurimiz tabiat obyektlari – bulutlar, daraxtlar, tog' tizmalari yoki qor donalaridagi tartib va tartibsizlikning uyg'unligi ta'sirida vujudga keladi»<sup>200</sup>. Binobarin, go'zallik haqidagi bunday tasavvur insonning monada sifatidagi talqini bilan uzviy

<sup>199</sup> Пайтген Х.О., Рихтер Л.Х. Красота фракталов. – Москва. 1993. – 156-с.

<sup>200</sup> O'sha joyda. – 159-b.



bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, san'at o'z simvollarini bilan individ ijodiga ulkan hissa qo'shadi va uning yangi qirralarini namoyish etadi.

**Inson va virtual voqelik.** Individualizm va egotsentrizmga asoslangan hayotdan shaxsiy va ijtimoiy qutblar birlashadigan hayotga o'tish hozirgi insonning rivojlanish jarayonida burilish yasovchi bosqich hisoblanadi. Shaxsiy va ijtimoiy hayotning uyg'unligi individga yaxlitlik kasb etish va o'zini dunyoga namoyon etish imkoniyatini beradi. Bu har bir individ dunyoda o'z o'rmini topish va o'zini tenglar orasida teng deb e'tirof etish imkoniyatiga ega bo'lishini, ayni hol inson imkoniyatlari doirasi yanada kengayishiga yo'l ochishini anglatadi.

Hozirgi zamon fanida inson imkoniyatlari chegarasini o'rganishga qiziqish kuchliligini mavjudlik haqidagi an'anaviy tabiiy-ilmiiy tasavvurlardagi uch muhim kashfiyot ham tasdiqlaydi.

- **Birinchi**dan, elementar zarralar fizikasida faqat o'zaro aloqa aktida vujudga keladigan va mavjud bo'ladigan efemer yoki virtual zarralar aniqlandi. Bu zarralarning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ular boshqa zarralarda potensial mavjud bo'lmaydi, biroq fizik o'zaro aloqa jarayonida ular paydo bo'ladi. Virtual zarralar faqat «shu yerda» va «hozir» mavjud bo'ladi, boshqa zarralarning interatsiyasi va metamorfozalari jarayonida o'z funksiyalarini bajaradi, ular eksperimentning boshlang'ich va pirovard shartlarida hech qachon mavjud bo'lmaydi<sup>201</sup>.

- **Ikkinchi**dan, kompyuter texnikasida ajabtovur bir fenomen qayd etildi. Agar kompyuterga bir nechta har xil dasturlar kiritilsa, u mutlaqo har xil funksiyalarni bajarishi yoki bir-biriga o'xshamaydigan obyektlar: yozuv mashinasi, kalkulyator, eksperimental stend yoki o'yin avtomati sifatida amal qilishi mumkin. Kompyuter insonning maqsadlariga qarab u bilan o'zaro aloqada alohida, virtual obyektini hosil qiladi. Kalkulyator yoki o'yin avtomatining o'zi kompyuterga kiritilmagan – ular kompyuterdan foydalanayotgan insonning faolligi jarayonida vujudga keladi va faqat «o'zaro aloqa» paytidagina mavjud bo'ladi.

- **Uchinchi**dan, elektron hisoblash mashinalarining ishlab chiqilgan yangi avlodlari va dasturlashtirishning yangi tamoyillari «**virtual voqelik**»ni modellashtirish imkoniyatini beradi<sup>202</sup>. Virtual voqelik obyektlarini kuzatuvchi amalda mavjud obyektlar sifatida idrok etadi. Bunday modellashtirish tizimlaridan biri alohida shlem va «qo'lqop» bo'lib, ularning datchiklari tasvirni boshqaradi. Boshqaruvchi ta'sirlar nutq, ko'z, qo'l, bosh yoki tana harakati bilan tartibga solinadigan trenajyorlar ham bor. Ba'zan tananing turli qismlariga datchiklar

<sup>201</sup> Qarang: Фейтман Р. ЮЭД – странная теория света и вождства. – Москва: 1988.

<sup>202</sup> Qarang: Lumis I. Interview // Computer graphics // World. 1992. V. 15. № 4.

mahkamlanadi va ular insonga virtual obyekt bilan o'zaro aloqa jarayonini botinini his qilish imkoniyatini beradi. Ayni holda individ obyekt bilan yuz berayotgan o'zgarishlarni jismonan his qiladi.

Yangi texnologiyalar yordamida bir nechta individlar uchun yagona virtual makonni yaratish va har qanday haqiqiy yoki xayoliy vaziyatlarni modellashtirish mumkin. Virtual makonda kuzatuvchi o'z nuqtai nazarini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, avtomobil trenajyorida bo'lish vaqtida avtomobil o'rindig'ida «o'tirish», uning atrofida parvoz qilish, g'ildirak ichiga o'rtnashib, tinimsiz aylanish, o'zini avtomashinaning istalgan qismi bilan ayniylashtirish mumkin. «Yangi voqelikning kashf qilinishi amalda butunlay yangi axloqiy muammolarni kun tartibiga qo'yadi, - deb ta'kidlaydi N. Nosov. – Bu muammolarni yechish sun'iy «hayot»da o'zini tutish va sun'iy «odamlar» bilan o'zaro aloqa qilish tamoyillarini belgilashni, sun'iy insonga ta'sir ko'rsatish erkinligi sharoitida xulq-atvor me'yorlari qanday bo'lishi kerak, virtual voqelik bilan o'zaro aloqaga kirishishning u yoki bu usullari inson ruhiyati va ijtimoiy olamiga qanday ta'sir ko'rsatadi, degan savollarga javob topishni nazarda tutadi»<sup>203</sup>. Bu masalalar ta'riflanayotgan va anglab yetilayotgan bir paytda, virtual texnologiyalarning qo'llanish doirasi shitob bilan kengayib bormoqda, multiplikatsiya, kinematograf, teatr, fan, ta'lim, aviatsiya va hokazolarni qamrab olayotir.

- **To'rtinchi**dan, «inson-mashina» sistemalari bilan ish ko'ruvchi ergonomika u yoki bu vazifani tizimli yechish proektsiyasida alohida obyektlar paydo bo'lishi va vazifa yechilganidan so'ng ular g'oyib bo'lishini aniqladi. Masalan, oliy pilotaj amallarini bajarish chog'ida uchuvchi samolyotni faqat ortiqcha zo'riqish holatidan chiqarish lozim bo'lgan aerodinamik obyekt sifatida idrok etadi. Ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'ta keskin vaziyat yuzaga keladi va u ortiqcha zo'riqish holatidan chiqilganidan keyingina normal holatga qaytadi. Shunday qilib, inson va texnik sistema birlashganida virtual obyektlar yoki virtual voqeliklar vujudga keladi. Bu yerda insonning konsustal (odatdagi) va virtual holatlarini ajratish mumkin. Bunda virtual holat konsustal holatga nisbatan g'ayrioddiy xususiyatga ega bo'ladi. Virtual holatning o'zi yo kuchli energiya – *gratual* bilan (inson erkinlikni, ijodiy yuksalishni his qiladi), yo ijodiy tushkunlik – *ingratual* bilan tavsiflanadi.

Virtual voqelik alohida turdagi voqelik hisoblanadi, uni o'zlashtirish hozirgi zamon odami va sotsiumga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Virtual voqelik maxsus falsafiy, madaniyatshunoslikka oid, sotsiologik va psixologik

<sup>203</sup> Носов Н.А. Реальные виртуальности // Человек. 1993. № 1. – 35–36-с.



tahlilni talab qiladi<sup>204</sup>. So'nggi yillarda o'tkazilgan metodologik tadqiqotlarning e'lon qilingan natijalarida virtual voqelikning quyidagi xususiyatlari sanab o'tiladi: u faqat «shu yerda» va «hozir» mavjud bo'ladi (virtual voqelikda bo'lgan odam uchun o'tmish va kelajak mavjud emas), individ o'zini virtual voqelik jarayonlarining bevosita ishtirokchisi sifatida his qiladi, virtualni kuzatish imkoniyatlari har doim inson bilan bog'liq bo'ladi (u hamma narsani o'z nuqtai nazaridan ko'radi), virtual voqelik kompyuter yoki inson faolligi mahsuli hisoblanadi<sup>205</sup>. *Qizig'i shundaki, virtual voqelik xossalari nimasi bilandir tushni eslatadi.*

Virtual voqelikda ichki dunyo obrazlari tashqi muhit obrazlaridan aslo farq qilmaydi. Turli madaniyatlar virtual holatning ayni bir xususiyatlaridan foydalanib, turli xil virtual voqeliklarni yaratadilar. Masalan, xitoy madaniyatida insonning jismoniy va ruhiy aralashuviziz spontan faollikka erishish usullari ishlab chiqilgan. Har qanday o'y-xayollardan xohilik yoki «behushlik» daosizm ta'limotining o'zagi sifatida e'tirof etilishi tasodifiy bir hol emas. «Behushlik – bu so'zning obyektivlashuvi ta'sirida ko'zdan yashirilgan, pinhona voqelikdir. Ammo voqelikni kashf qilish – har qanday subyektiv ovozni unutish demakdir»<sup>206</sup>.

G'arbiy Yevropa mistitsizmida ham astrolog diqqat markazida virtualning ayni shu xossasi turadi: «U boshqaruvchi kosmik kuchlar hammaga va har kimga ta'sir ko'rsatishini, faqat yulduzlar ovozi eshitish qobiliyatiga ega bo'lish talab etilishini biladi. Ammo bu ovozni eshitish uchun o'z ovozi jim bo'lishga majbur qilish, tushunchalarga doir cheklashlar eng sodda harakatlar o'zini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratishi talab etiladi. Shu maqsadda u o'ziga murojaat qilgan kishida ongning ochiq-oydin nazoratini to'xtatib turishga harakat qiladi...»<sup>207</sup>. Virtualning ayni shu xossasi karateda ham harakatsizlik tamoyili sifatida belgilanadi: «Raqib bilan yuzma-yuz kelganingda, xayoling hamma narsadan xoli bo'lishi lozim. Aqling uyquga ketishi lozim, o'zing esa borliqdan ajralgan holatga kirishing shart. Yuzing faqat nafrat hissini va g'alabaning muqarrarligini ifodalashi lozim. Faqat shu holda oyoqlaring va qo'llaring o'z-o'zidan – yengil va erkin harakat qiladi»<sup>208</sup>. Virtual obrazlar badiiy ijodni eslatadi, ular postindustrial sivilizatsiya odamining ruhiyatida tub o'zgarish yasashga ulkan hissa qo'shadi.

Virtual texnologiyalar insonga qadimgi adaptiv-genetik dasturlarni nisbatan oson tiklash imkoniyatini beradi. Qizig'i shundaki, mazkur

<sup>204</sup> Qarang: Paris D. Artificial reality // Golem. 1992. V.2. N1.

<sup>205</sup> Qarang: Носов Н.А. Реальные нереальности // Человек. 1993. № 1. – 40–41-с.

<sup>206</sup> Малавин В.В. Чжуан-цзы. – Москва: 1985. – 88-с.

<sup>207</sup> Гарзи Э. Проблемы итальянского Возрождения. – Москва: 1986. – 341-с.

<sup>208</sup> Прохников В.А., Лиданов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 179-с.

jarayon inson bir hududdan boshqa hududga ko'chganida, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi. Yangi sharoitlar organizmda mudroq holatda bo'lgan adaptiv-genetik dasturlardan birini uyg'otadi. Masalan, yangi yerlarni kashf qilgan va shu yerda o'rmashib qolgan rus kazaklari shimol xalqlariga xos bo'lgan xususiyatlarni kasb etganlar, ya'ni ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan o'zgarganlar. Amerikalik olim M. Merfi bunday dasturni amalga oshirish bo'yicha eksperiment o'tkazdi. Muayyan intellektual va jismoniy qobiliyatlarga ega bo'lgan minglab kishilarni o'rganib, u davolash dasturlarini tuzdi. Uning metodi insonda yashirib yotgan qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish va shu tariqa uni kasallikdan xalos qilishni nazarda tutar edi. Bir necha oyga cho'zilgan «muolaja» jarayonida kutilmagan natijalar qayd etildi: musiqa sohasida ma'lumotga ega bo'lmagan odam musiqa yozib, uni o'zi orkestr bilan birga ijro eta boshladi; tasviriy san'at sohasida uquv va ko'nikmalarga ega bo'lmagan odam rasm chiza boshladi; shoirlik, bog'bonlik va boshqa qobiliyatlarning kutilmaganda namoyon bo'lishi hollari ham kuzatildi. Shunday qilib, insonning «uyg'ongan» pinhona qobiliyatlari unda mavjud kasalliklarni samarali davolash imkonini berdi.

Postindustrial sivilizatsiya odami virtual texnologiyalar yordamida o'z ruhiyatining ma'lum va noma'lum «makonlari»ni o'zlashtirishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchi J. Lilli hayot mazmunini aniqlash yo'lidagi yarim asrlik izlanishlar jarayonida «gomo sapiens» imkoniyatlarining cheksizligini o'zida his qildi. «Ongning yuksak holatlari tajribasi inson tur sifatida yashab qolishi uchun zarurligiga mening ishonchim komil, - deb yozadi u. – Mistik adabiyotlarda tavsifi keltirilgan Satori, Samadxi yoki Nirvana ongning so'z bilan tavsiflash mumkin bo'lmagan holatlarini keng qamrab oladi. Yuksak darajadagi tajribalarning har biri inson o'zligining va Koinotning cheksizligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Agar bizning har birimiz hech bo'lmasa Satorining tuban darajalarini o'zida his qilishga muvaffaq bo'lsa, biz o'z sayyoramizni portlatib yuborishni yoki biron-bir boshqacha usulda hayotni yo'q qilib tashlashni istamasligimizga umid bor»<sup>209</sup>.

Virtual voqeliklar inson o'z qobiliyatlarini o'zi ro'yobga chiqarishida unga yordam berish imkoniyatlariga ega. Aniqroq aytganda, ular inson tajribasining yangi qirralarini, ongning yangi xossalarini namoyon etish imkonini beradi. Inson ongini dunyoviy borliqni idrok etishga moslashtirilgan radarga qiyoslash mumkin. Ammo ongning o'zgartirilgan holatlari yoki virtual dunyolarning mavjudligi uni qayta moslashtirish mumkinligidan dalolat beradi. Virtual texnologiyalar inson ongini mudroq

<sup>209</sup> Лилли Дж. Центр психона. – Киев: 1993. – 23–24-с.



holatdan chiqaradi, uning «radari»ni g'ayrioddiy ko'rinishda qayta moslashtiradi. «Kompyuter animatsiyasi va videoo'yinlarning jadal sur'atlarda rivojlanishi so'nggi yillarda yuz bergan kuchli texnologik turkildardan biri hisoblanadi, - deb ta'kidlaydi A. Orlov. - Kompyuter obrazlari estetikasi (kengroq olganda - umuman virtual kompyuter muhiti) bugungi kunda bizga ongning ruhiyat evolyutsiyasi nuqtai nazaridan ekzistensial ahamiyatga ega bo'lgan ayrim o'zgartirilgan holatlarini aks ettirish uchun qiziqarli va ko'p jihatdan noyob material beradi»<sup>210</sup>. Bu g'alati va g'ayrioddiy obrazlardan insonga estetik ta'sir ko'rsatish maqsadida badiiy effektlarni yaratish uchun foydalaniladi. Virtual dunyolar - elektron obrazlar va ong darajalari dunyolari hozirgi davrda inson fenomenining yangi tomonlarini namoyon etadi.

**Sivilizatsiyalarning o'zgarishi davrida inson.** Insoniyat yangi davrga yoki o'z rivojlanish jarayonining yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Mutaxassislar buni sivilizatsiyalarning o'zgarishi davri sifatida tavsiflaydilar. Ayni paytda, yangi bosqichning xususiyati xususida ular bir to'xtamga kelganlari yo'q: kimdir jamiyat «yangi O'rta asrlar»ga kirmoqda deb hisoblaydi (U. Eko), kimdir unda «mashg'ulotlar» sivilizatsiyasini ko'radi (A. Shaff), kimdir postindustrial jamiyatdan farq qiladigan axborot jamiyati to'g'risida so'z yuritadi (N. Moiseyev) va h.k. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda jamiyatni rivojlantirishning g'arbona bo'lmagan modellari ham ilgari surilmoqda. Lo'nda qilib aytganda, XXI asr boshida yuzaga kelgan vaziyat g'arbdan hozirgi dunyoga moslashishni talab qiladi. Dunyoning ichki resurslari va yashirin mexanizmlari noyevropacha madaniyatlarning an'analari va mo'ljallaridan tinimsiz bahra olib turgani bois g'arb ularning ustidan nazoratni yo'qota boshlamoqda. Yaqin kelajakda g'arb Osiyo nazorati ostiga tushib qolsa va uning giperindividualizm qadriyatlari tizimi butunlay o'zgarsa ajab emas<sup>211</sup>. U o'ziga yot intellektual yondashuvlar bilan hisoblashishga va o'zini yana kishilik hamjamiyatining ko'p sonli elementlaridan biri sifatida his etishga majbur bo'ladi<sup>212</sup>.

Bizningcha, kishilik jamiyatining kelajagi taraqqiyotning texnologik tomonini mutlaqlashtiruvchi texnotron jamiyat bilan emas, balki inson o'zini bilimlarga intiluvchi erkin mavjudot deb his qiladigan gumanistik jamiyat bilan bog'liq. Bu gumanistik munosabatlar madaniyat sohasidagina emas, balki jamiyatning qolgan barcha sohalari va tuzilmalarida ham amalga oshiriladigan ijtimoiy gumanizm jamiyati bo'ladi.

<sup>210</sup> Орлов А.М. Души компьютерной анимации. - М., 1993. Ч. 1. - 5-с.

<sup>211</sup> Qarang: Elegant R. Asia Inside. - L., 1990. - 511-p.

<sup>212</sup> Qarang: Хуссейн М. Единоз основаания гуманизма // Курьер ЮНЕСКО. 1992. Октябрь. - 19-с.

Tom ma'noda barkamol shaxs gumanistik sivilizatsiyaning asl maqsadi va asosiga aylanadi. U o'ziga xos mikrokosmni o'zida ifodalovchi haqiqiy ijodiy individuallik sifatida maydonga chiqadi. Inson - Koinotning reflektiv monadasi, shu tufayli ham u oliy mavjudot va qadriyatdir. Individ fikrlovchi «atom» sifatida dunyoni bilishga, uning sirlari tagiga yetishga harakat qiladi. Tabiiyki, Koinot o'zini bilmaydigan inson orqali o'z-o'zini anglab yetishi mumkin emas. Dunyo va insonning undagi roli haqidagi keng bilimlar gumanistik sivilizatsiyaning barkamol shaxsini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Gumanistik jamiyatning u haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi asosiy xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Birinchi** - gumanistik jamiyatda yuzaga keladigan va rivojlanadigan barcha munosabatlar zamirida inson erkinligi va uning qadr-qimmatiga rioya qilish g'oyasi yotishi lozim.

Insonning qadr-qimmatini uning nasl-nasabi, moddiy farovonligi darajasi bilan emas, balki o'z umri mobaynida u o'zlashtirgan bilimlar bilan belgilanadi. Bunday bilimlar insonning eng noyob ma'naviy boyligi hisoblanadi.

**Ikkinchi** - gumanistik jamiyatda *shaxs ma'naviy va moddiy boyliklarining uyg'un birligi tamoyiliga* rioya etilishi lozim. O'z-o'zidan ravshanki, bunda inson o'z-o'zini ma'naviy kamol toptirishi birinchi darajali ahamiyat kasb etmog'i darkor. Bundan tashqari, ma'naviy boylik intellektual xususiy mulk yordamida moddiy farovonlikka erishishning asosiga aylanishi lozim. Ma'naviy va moddiy jihatdan boy shaxs gumanistik mafkura ideali hisoblanadi.

**Uchinchi** - bo'lg'usi jamiyatda insonning ma'naviy boyligi estetik takabburlik va boshqa g'ayriinsoniy xususiyatlar (manmanlik, battollik, dushmanlik va sh.k.)ga barham berishning asosiga aylanadi. Insonning shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi va boshqa individlarning qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissi yovuzlik jamiyatini ezgulik va adolat jamiyatiga aylantirishning ma'naviy vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'z-o'zidan yovuzlikni siqib chiqarish insoniylikning asosiy axloqiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Agar inson o'zining yomon mayllarini o'zi tiyishga odatlangan bo'lmasa, jamiyat uni yomon yo'ldan avvaliga yaxshilik bilan, bu samara bermagan taqdirda esa - kuch ishlatish yo'li bilan qaytarishga majbur bo'ladi<sup>213</sup>. Qonunlar yaxshi va odil odamlarni himoya qilishi, yomon odamlarni esa jazolashi lozim. Bilim kuch sifatida johil odamlarning yuragiga qo'rquv solishi kerak, zero, I.Gyote ta'kidlaganidek, dunyoda faol johillikdan dahshatliroq yovuzlik yo'qdir.

<sup>213</sup> Qarang: Ильин И.А. О сопротивлении злу силою // Путь к очевидности. - Москва. 1993. 36-с.



**To'rtinchi** – tabiatan teng bo'lmagan kishilar o'rtasidagi munosabatlarda qullar va xojalar munosabatlari emas, balki mehribonlik va insonparvarlik hukm surishi lozim. Kishilarni elita vakillari, «qo'li uzun» odamlar va olomonga ajratish insoniylikka ziddir. Iso Masih va F. Nitsshe yangi axloqni yaratganlar, biroq xristiancha axloq insoniy, nitsshecha axloq esa – g'ayriinsoniydir. Yangi gumanistik jamiyatda insoniyatning gumanistik an'analari asoslangan yangicha axloq hukm suradi. U nitsshecha axloq kabi yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida turmaydi va xristiancha axloq kabi insonning roli va qadr-qimmatini Xudo oldida kamsitmaydi. Mazkur axloq yaxshilik va yomonlikning bu tomonida turadi va inson qadr-qimmatini oliy qadriyat darajasiga ko'taradi. Insoniylik «xudoning bandalari» mafkurasiga emas, balki jahonning erkin va munosib fuqarolari mafkurasiga aylanadi.

**Beshinchi** – gumanistik jamiyat shaxsining vijdonliligi tamoyili inson qadr-qimmatini bilan uzviy bog'liq. Yangi shaxsning (Nitsshe ta'бири bilan aytganda, o'ta qudratli insonning) vijdonliligi u gumanistik mazmun bilan boyitilgan taqdiridagina ma'no kasb etadi. Ma'naviy qadriyatlar zamirida insonning oqilona xulq-atvori haqidagi bilimlar yotadi. Vijdon inson xulq-atvorining ichki mezon sifatida aynan individ o'z umri mobaynida o'zlashtirgan ichki bilimlar bilan belgilanadi.

**Oltinchi** – yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari bo'lg'usi jamiyatda individlar, guruhlar, partiyalar, millatlar va mamlakatlar o'rtasida yalpi murosai-madara tamoyili amal qilishi lozim. Ayni shu tamoyil azaliy muammo – «individ – jamiyat» muammosini yechishning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi. U inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi lozim. Binobarin, bo'lg'usi gumanistik jamiyat madaniyati ham murosai madara manbaiga aylanadi. Zero, madaniyatsiz jamiyat parchalanib ketadi, qadriyatlar va maqsadlardan ayriladi. Qadriyatlar, maqsadlar va mo'ljallarning mushtarak emasligi individlarning ruhiy va jismoniy azob-uqubatlariga sabab bo'ladi. Shu tufayli ham kelishilgan madaniyat, kogerent jamiyatga erishish talab etiladi<sup>214</sup>. Shundagina inson har qanday zo'ravonlikdan xoli bo'lgan, spontan tarzda yuzaga keladigan ijodiy erkinlikni qo'lga kiritadi.

**Yettinchi** – ayni shu sababli insonning ijodiy erkinligi tamoyili gumanistik sivilizatsiyaning eng muhim tamoyiliga aylanadi. Jamiyat dastlabki bosqichda hamma uchun teng yashash sharoitlarini ta'minlaydi, keyingi bosqichlarda esa inson hayotining farovonligi uning qobiliyatlariga, mehnatsevarligiga, erkin mehnat va ijodiy faoliyat jarayonida insonning potensial imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Erkin

<sup>214</sup> Qarang: Бом Д. Наука и духовность: необходимость изменений в культуре // Человек. 1992. № 2. – 17-с.

ijodiy mehnat uchun insonni mehnatga rag'batlantiruvchi omillar mavjud bo'lishi lozim. Mehnatga munosib haq to'lash ana shunday omillardan biri hisoblanadi. Bunda mehnat qancha ijodiy bo'lsa, u shuncha qimmat turishi, inson va jamiyat uchun ahamiyati ham shuncha yuksak bo'lishi lozim. Yangi ilmiy bilimlarni yaratish borasidagi mehnat ijodiy mehnatning cho'qqisi hisoblanadi. Gumanistik jamiyat amalda erishishga harakat qiladigan ideal variant – har bir insonga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini berish, u qaysi faoliyat sohasida ijodiy mehnat bilan shug'ullanish va o'z shaxsiyatini namoyish etishga qodir bo'lsa, shu sohada o'z iste'dodlari va manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun unga imkoniyat yaratib berishdir.

**Sakkizinchi** – gumanistik jamiyatda uning mafkurasini eng muhim va hal qiluvchi tamoyilga aylanadi. Mazkur jamiyat mafkurasining zamirida yangi sivilizatsiyaning dunyo va insonning undagi roli haqidagi bilimlar negizida, ya'ni falsafiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik bilimlarning birligi asosida shakllanishi va rivojlanishini belgilaydigan ta'limot yotadi. Insoniylik mafkurasini qadriyatlar va mo'ljallar, jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, harakat ideallari, mafkuraviy tuyg'ular va e'tiqodlar tizimi hamdir. Insoniylik mafkurasining birlashtiruvchi roli shundaki, u iqtisodiyot, siyosat va madaniyat bir yoqlama emas, balki uyg'un, ya'ni yaxlit rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Yangi jamiyatning oliy maqsadi komil insonni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'lgani, insonning mohiyati esa shaxssiz ijtimoiy munosabatlar majmui bilan emas, balki individ hayotda o'zlashtirgan bilimlar yig'indisi bilan belgilangani bois, gumanistik jamiyatning shakllanish jarayonida asosiy e'tiborni moddiy ne'matlar ishlab chiqarishdan ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qaratish yuz beradi<sup>215</sup>. Bilimlar yaratishni keng miqyosda yo'lga qo'yish jamiyat va davlatning bosh vazifasiga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish esa – bilimlar yaratish jarayonining mahsuliga aylanadi. Gumanistik jamiyatning hozirgi g'arb va postsotsialistik jamiyatidan farqi ham asosan shunda namoyon bo'ladi. Gumanistik jamiyat bilimlar jamiyati bo'ladi, bunda insonning ma'naviy bilimlari va qadriyatlarini birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

**To'qqizinchi** – etnik madaniyatlarining rang-barangligi ham ijtimoiy gumanizm jamiyatining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. «Yaqin kelajakda jamiyat o'zining rang-barangligini, turfa xil milliy madaniyatlar, diniy e'tiqodlar va siyosiy ta'limotlar majmuini saqlab qoladi. Iqtisodiy integratsiya jarayonlari qay darajada kuchli bo'lmasin, jahon, har qalay

<sup>215</sup> Qarang: Мисков Н. Н. Идея естественности в гуманитарной науке // Человек. 1992. № 2. – 16-с.



yaqin o'n yilliklar mobaynida, tarqoq va turli-tuman ziddiyatlarga to'la bo'lib qoladi. Ammo bu shaxs o'z ijodiy qobiliyatlarini mumkin qadar to'la namoyon etishini ta'minlashga intiluvchi «yangi individualizm» dunyosi bo'ladi. Buni qaysi ijtimoiy tuzilmalar ta'minlay oladi – bu haqida hozir aniq bir narsa deyish qiyin»<sup>216</sup>

**O'ninchi** – o'z-o'zidan ravshanki, gumanistik sivilizatsiyada ekologik imperativga qat'iy noya etiladi. Ushbu tendensiya o'z-o'zidan shaxs erkinligi ma'lum darajada cheklanishiga va ayrim yangi axloqiy asoslarning yaratilishiga olib keladi. «Bunday oqilona jamiyatni yaratish yashab qolishning zaruriy sharti hisoblanadi»<sup>217</sup>

Bo'lg'usi gumanistik jamiyatning yuqorida bayon etilgan abstrakt modeli o'z rivojlanishining konkret-tarixiy shakllariga, ya'ni har bir mamlakatda o'z xususiyatlari bilan tavsiflanadigan milliy modellarga ega bo'ladi. Gumanistik jamiyat asoslari hozirgi vaqtda jahonning taraqqiy etgan postkapitalistik mamlakatlarida shakllanmoqda<sup>218</sup>. Shunday qilib, insoniyat kelajagini texnika jamiyati, hatto yalpi iste'mol jamiyati ham emas, balki ijtimoiy gumanizm jamiyati belgilaydi.

**Inson o'yin-kulgi va sayr-tomoshalar dunyosida.** Turli o'yinlar va tomoshalarni o'z ichiga olgan voqelik inson ekzistensiyasining uzviy jihatlaridan biri hisoblanadi. O'yin muayyan obrazlar bilan bajariladigan amallar majmuini o'zida ifodalaydi. Mazkur obrazlar insonga voqelikni «o'zgartirish» imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'yin obrazlari muayyan qimmatga va ahamiyatga ega bo'ladi, ular o'yinni madaniy darajaga ko'taradi. O'yinning o'zi inson ekzistensiyasining ajralmas tarkibiy elementi hisoblanadi, voqelikni uydirmaga aylantirish yo'li bilan individga zavqlanish imkoniyatini beradi. Shuni qayd etish lozimki, fanda ko'p sonli nazariyalar, shu jumladan, yadro, gravitatsiya, elektromagnetizm, biologik rivojlanish, kimyoviy evolyutsiya nazariyasi mavjud bo'lsa-da, o'yin nazariyasi hanzugacha yaratilgan yo'q. Bizningcha, bu holni o'yinning fundamental va irratsional tabiati bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak. Nima bo'lganda ham, inson faoliyatining eng muhim turlari (masalan, til, mif, urf-odatlar va h.k.) azaldan hazil-mutoyiba, o'yin-kulgi, sayr-tomosha bilan tavsiflanadi. O'yin faoliyatining madaniy mezoni eng avvalo madaniy antropologiya, etnologiya va etnografiya sohasidagi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan. Ular bir qator madaniyatlardagi o'zgarishlar jarayonlarini o'yinlar va tomoshalar nuqtai nazaridan kuzatganlar. Taniqli tadqiqotchilar E. Taylor va J. Frezer

<sup>216</sup> Моксов Н. Н. Идея естествознания в гуманитарной науке // Человек. 1992. № 2. – 16-с.

<sup>217</sup> O'sha joyda.

<sup>218</sup> Дьяконов И. М. Пути истории. – Москва: 1994.

o'yinlar va tomoshalarning tarqalishi qanday qilib madaniyatlarning bir-biriga ta'siri va bir-biriga o'tishi ko'rsatkichiga aylanishini ko'rsatib berganlar<sup>219</sup>. Ammo maxsus sotsiologik adabiyotlarning sahifalaridan tashqarida paydo bo'lgan birinchi muammo madaniyatlar o'rtasida o'yinlar va tomoshalar diffuziyasi fenomeni emas, balki o'yin va tomosha bilan muayyan madaniyatning umumiy modeli o'rtasidagi aloqalar va o'tishlarni aniqlash vazifasi hisoblanadi.

Davrimizning ko'pgina o'yinlari va tomoshalari o'z ildizlari bilan uzoq moziyga borib taqaladi. Ba'zi bir o'yinlarning motivlari ming yilliklar va asrlar osha saqlanib kelayotir. Yozma manbalarda o'yinlar qadim zamonlardan boshlab odamlarning vaqtixushlik qilish vositalariga aylanganligi qayd etiladi. Masalan, Gomer qadimgi yunon askarlarining o'yinlarini tilga oladi, Ovidiy to'p o'yini bilan qatorda halqa otish o'yinini eslaydi, Goratsiy esa otlarda poyga tavsifini keltiradi. Olimpiya g'oyalarining kurtaklari ma'lum, ispan korridasi qaysidir ma'noda Rim tomoshalarining davomi hisoblanadi. Bundan tashqari, satumaliyalarning karnaval an'anasi ham ma'lum<sup>220</sup>.

Tarixiy faoliyat relikti yoki uning o'zgargan shakli bo'lgan o'yinlar va tomoshalar ayni paytda konkret madaniy andozaning jonli in'ikosi ham hisoblanadi. qadimgi xalqlardan meros qolgan o'yinlar va tomoshalar amalda bir xalqdan boshqa xalqqa o'tsa-da, har bir madaniyat ularning o'rtasida muayyan saralashni amalga oshiradi va har doim ularni o'z davri ehtiyojlariga moslashtiradi. U yoki bu jamiyatda qabul qilingan o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalarning turlari ancha barqaror, odamlar orasida ma'lum va mashhur bo'lib, deyarli o'zgarishsiz amalga oshiriladi. O'yinga doir xulq-atvorning institutsionallashuvi nuqtai nazaridan ular muayyan madaniyat odamlarining mentaliteti, urf-odatlari va ehtiyojlari bilan muvofiq kelishi, ayni paytda mazkur mentalitetning asta-sekin o'zgarishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi lozim. Polyak tadqiqotchisi B. Sulkovskiy fikriga ko'ra bunday kuzatishlar asosida har bir jamiyatning o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalari madaniy jihatdan ekspressiv hisoblanadi, muayyan madaniyat qadriyatlari esa ularda yanada bo'rtibroq namoyon bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin<sup>221</sup>.

Amerikalik antropolog olimlar J. Roberts, M. Art va R. Bush bir yuz elliktaga yaqin ibtidoiy jamoalarda o'yin faoliyati usullarini o'rgandilar<sup>222</sup>. Ularning fikriga ko'ra o'yinlar madaniyatning tabiatini aks ettiradi, zero, muhim faollik modellari hisoblanadi. Sport bellashuvlari umuman olganda

<sup>219</sup> Qarang: Тайлор Э. Первобытная культура. – Москва: 1989; Фрезер Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984.

<sup>220</sup> Qarang: Bett H. The games of children. – L., 1928; Тайлор Э. Первобытная культура. – Москва: 1989.

<sup>221</sup> Qarang: Sulkowski B. Zabawa. Studium sociologiczne. – Warszawa, 1984. – 47-p.

<sup>222</sup> Qarang: Roberts J.M., Arth M.J., Bush R.R. Games in Culture // American Anthropologist. 1959. №4.



kurash va ovni tasvirlaydi, stixiya va strategiya o'yinlari kishilar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar tizimlarini hosil qiladi, boshqa xil ifodalaydi. Ushbu holdan kelib chiqib, mualliflar u yoki bu o'yinlar o'zida tomoshalarning mavjudligi yoki yo'qligini umuman olganda ibtidoiy o'yinlar individlar o'rtasidagi munosabatlarning modellari hisoblangani bois, vaqtixushlik tadbirlarining mazkur tipi ijtimoiy maqomlarni ajratishga moyillik, ayniqsa, kuchli bo'lgan jamiyatlarda ko'proq uchraydi. Shundan so'ng mualliflar qur'a tashlashga asoslangan o'yinlarni diniy e'tiqodlarning xususiyati bilan qarama-qarshi qo'yadilar. Ibtidoiy dinlarda xudolar nekbin bo'lsa, bu hol qur'a tashlashga asoslangan o'yinlar keng tarqalishiga imkoniyat yaratadi, xudolarning agressiv tabiati haqidagi tasavvurlarning kuchliligi esa bu turdagi o'yinlar tarqalish doirasining torligiga sabab bo'ladi. Mualliflar o'yinlar va jamiyatning asosiy madaniy konfiguratsiyasi o'rtasidagi statistik aloqalar muammolarining qiyosiy tahlilini ham amalga oshiradilar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi uncha murakkab bo'lmagan, ijtimoiy stratifikatsiya va huquq tizimi rivojlanmagan, nisbatan sodda madaniyatlarda jismoniy kuch ishlatishga asoslangan o'yinlar yetakchilik qiladi, odamlar ov va baliq ovidan lazzat oladilar. Madaniy konfiguratsiyaning murakkablashishiga qarab qur'a tashlashga asoslangan o'yinlar, strategik o'yinlar paydo bo'ladi. Nihoyat, hozirgi rivojlangan jamiyatda bu o'yinlarning barchasi birgalikda amal qiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'yinlar yosh avlodning ijtimoiylashuvi usuli va hayotdagi bo'lg'usi rollarni o'zlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ham shaxs va o'yinlar o'rtasidagi aloqalarni madaniyatda statistik jihatdan ifodalash mumkinligi tabiiy bir holdir<sup>223</sup>.

Keltirilgan misol rivojlangan jamiyatlarning hozirgi tadqiqotlarida olimlar o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalar turlarining yagona majmuidan kelib chiqishlarini ko'rsatadi. Antropologik tadqiqotlarda statistik metoddan foydalanish, bir tomondan, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning madaniy andozalaridagi farqlarni ajratish imkonini beradi, boshqa tomondan esa, turli xil o'yinlar va tomoshalar bir madaniyatdan boshqa madaniyatga o'tishi va bir-biri bilan qorishishi jarayonini kuzatish uchun imkoniyat yaratadi. Chet ellik taniqli tadqiqotchi R. Kelua har bir jamiyatda o'yinlar va tomoshalarning to'rt analitik tushunchasini ajratadi. Uning fikricha, inson o'zining o'yinlarga bo'lgan ehtiyojlarini kurash va o'zaro yordam – agon yo'li bilan, qur'a tashlashga asoslangan o'yinlar –

alea yordamida, taqlidchilik va masxarabozlik – mimicry vositasida yoki ekstaz va hayrat omilini izlash – ilinx orqali qondiradi<sup>224</sup>. Tabiiyki, amalda konkret o'yinlar va tomoshalarni ushbu kategoriyalarga muvofiq ajratish ancha mushkul ish. Ular ko'pincha juft-juft bo'lib keladi, masalan: agon – alea (qarta), alea – ilinx (qimor), agon – mimicry (sport tomoshasi) va h.k. Konkret madaniyat mazkur to'rt kategoriya bilan belgilanuvchi intensiyalarning yaxlit tizimlarida, ularning konfiguratsiyalarida «o'ynaydi» va shu tariqa o'zining alohida tabiatini namoyon etadi.

Ushbu tasnifni o'yinlar va tomoshalar ijtimoiy hayot qonuniyatlarini aks ettirishi yoki ularni rad etishi mumkin degan fikr bilan to'ldirish zarur<sup>225</sup>, deb ta'kidlaydi B. Sulkovskiy. Boshqacha qilib aytganda, o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalar jamiyatning qadriyatlar tizimini ular hayot bilan muvofiq kelgan holda ham, muvozanat tamoyili amal qilgan holda ham (bunda o'yinlar va tomoshalar individga u hayotdan olishga muvaffaq bo'lmagan narsani beradi) namoyish etadi. O'yinlar va tomoshalar har doim konkret madaniyat ruhini aks ettiradi, ba'zan xavfsizlik «klapani» vazifasini bajaradi va insonni jamiyatda hukm surayotgan konformizmdan xalos qiladi, ba'zan esa bo'sh vaqtni to'ldirish vositasi bo'lib xizmat qiladi (bunga ommaviy madaniyat misol bo'lishi mumkin).

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, XXI asr boshida insonning o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalar dunyosidagi o'rnida qanday o'zgarishlar yuz berganligiga nazar tashlaymiz. Bu o'zgarishlar eng avvalo radio, televidenie, shaxsiy kompyuterlar va multimediani o'z ichiga oluvchi ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi bilan bog'liq<sup>226</sup>. Shuni qayd etish lozimki, ba'zan (ayniqsa u yoki bu bayram paytida) rasm-rusum xususiyatini kasb etuvchi an'anaviy tomoshadan farqli o'laroq, elektron ko'ngilochar vositalar (o'yinlar va tomoshalar) aksariyat hollarda san'at bilan chegaradosh bo'ladi. Zero, ular elektron obrazlarni tasavvur bilan boyitishni va harakatga intellektual faollik baxsh etishni talab qiladi. Ayni paytda elektron o'yinlar va tomoshalar ayrim individlarda passiv pozitsiya shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Holbuki, haqiqiy o'yin yoki tomoshada individ o'ziga o'xshash tirik odamlar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, o'zining jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini rivojlantiradi.

«Elektron xaloskorlar piri» M. Makklyuen gap o'yinlar va tomoshalar haqida borganida ommaviy axborot vositalarining kamchiligini afzallikka

<sup>224</sup> Qarang: Calleis R. Zywiol i lad. – Warszawa, 1973. – 363–376-p.

<sup>225</sup> Qarang: Sulkowski B. Zabava. Studium sociologiczny. – Warszawa, 1984. – 51-p.

<sup>226</sup> Qarang: Hardison O.B. Disappearing through the Skylight. Culture and Technology in the Twentieth Century. – N.Y., 1989; Пайттен X.O., Рихтер Л.Х. Красота фракталов. – Москва: 1993.



aylantiradi. «Hatto televideniya o'qituvchi ham o'quvchilar ko'z o'ngida ularning bevosita aloqadan kelib chiquvchi tuyg'ularidan kuchliroq bo'lgan xarizmatik yoki mifik xususiyatlar kasb etadi. Bunda televizion ta'sir vizual vosita sifatida emas, balki sezish-eshitish vositasi sifatida amal qiladi, his-tuyg'ularimizni teran o'zaro aloqalarga kirishishga majbur etadi. Televizion tajribaning bu sinesteziyasi matbuot nashri yoki fotosuratdan olinadigan vizual tajribaga ko'nikkan odamlarni quyushqondan chiqaradi. Televideniya tomoshabinlardan eng avvalo ishtirokchilik ijodiy reaksiyasini talab qiladi... Televideniya bizning tuyg'ularimizga ta'sir ko'rsatadi, biroq tomoshabinda emotsiyalar o'yg'otmaydi, uni targ'ib qilmaydi va harakatlarga da'vat etmaydi. Bu barcha shakldagi teran kechinmalarning umumiy jihati bo'lsa, ajab emas»<sup>227</sup>. Garchi elektron o'yinlar va tomoshalar mifologiyasining «jodusi» M. Makklyuenni ham maftun qilgan bo'lsa-da, u insonga mazkur fenomenlar ta'sirining ijodiy jihatlarini topishga harakat qiladi.

Kompyuter animatsiyasi bilan bog'liq o'yinlar va tomoshalar ta'siriga xos bo'lgan yana bir yangi jihat «zombi effekti» deb ataladi. Ilgari tomoshabin filmlarda ularning mazmunidan kelib chiqib dunyoga nisbatan antropologik yondashuvni idrok etgan bo'lsalar, endilikda virtual obyektlarni matematik modellashtirish asosida yaratilgan kompyuter kadri «zombi effekti»ni hosil qiladi, ya'ni birovning ongi bilan boshqariladigan tirik murda harakatlarini yaratadi. Shunday qilib, «kompyuter animatsiyasi tiriklar va o'liklar dunyosi o'rtasidagi, jonli va jonsiz narsalar o'rtasidagi, bu dunyo va «narigi» dunyo o'rtasidagi chegarani olib tashladi va ularning birini ikkinchisi bilan birlashtirdi»<sup>228</sup>.

XXI asr boshida o'yinlar va tomoshalarining yana bir yangi jihat «inson – kompyuter» komplekslari faoliyati bilan bog'liq. Bunda individga virtual voqeliklarga «kirish» imkoniyatini beruvchi axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Masalan, inson har qanday sport o'yinlarida, barcha zamonlar va xalqlarning turli xil o'yinlari va tomoshalarida ishtirok etishi mumkin. Buning uchun tegishli dasturlar o'rnatilgan shaxsiy kompyuterga ulanishning o'zi kifoya qiladi. Yangi axborot texnologiyalari «plazmalangan» obrazlardan iborat kompyuter filmlarini yaratish imkoniyatini beradi. Bunday filmlarda ko'z o'ngimizda dunyoviy sharoitlarda mavjud bo'lmagan xossalarni o'zida mujassamlashtirgan alohida yaxlit voqelik obrazi namoyon bo'ladi. Bu organika va noorganika, temir va jonli vujud, o'simliklar va hayvonlar, oquvchan va qattiq jismlar bir-biriga o'tuvchi plazma «obrazi»dir. «Bu

<sup>227</sup> McLuhan M. Wybor pism. – Warszawa, 1975. – 193; 313–314-p.

<sup>228</sup> Орлов А.М. Душа компьютерной анимации. – Москва: 1993. Ч. 1. – 14-с.

filmlarning obrazlari jismlar va predmetlar emas, balki alohida tabiatli, ko'pincha tinimsiz o'zgaruvchi, elastiklik va «hayot inersiyasi» xususiyatlariga ega bo'lgan emanatsiyalardan iborat muhitdir. Ushbu dunyoda odatdagi ko'lamlar yo'qoladi va tasavvurni ham makrokosm, ham mikrokosmga «rostlash» imkoniyati paydo bo'ladi»<sup>229</sup>.

**Xulosalar.** O'z-o'zidan ravshanki, plazmalangan obrazlardan iborat filmlar tomoshabin ongiga uni transsendent estetika bilan oshno etish orqali juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalar dunyosida insonning yangi o'rnini tavsiflovchi mazkur xususiyatlar yuz berayotgan sivilizatsion siljishdan va o'ta murakkab dunyoda individning yangi maqomi shakllanayotganidan dalolat beradi.

### Tajribaviy amaliy matnlar

«Zombi effekti», agon – alea (qarta), alea – ilinx (qimor), agon – mimicry (sport tomoshasi), gomo sapiens, virtual voqelik, gratual, ingratural, golografiya.



### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar

O.Toffer

«Bilim – bu hokimiyatdir, degan eski g'oyaning kuni bitdi. Hozirgi vaqtda hokimiyatga erishish uchun bilimlar haqida bilimga ega bo'lish zarur»

<sup>229</sup> Орлов А.М. Душа компьютерной анимации. – Москва: 1993. Ч. 1. – 14-с.







Hozirgi zamon fanida inson imkoniyatlari chegarasini o'rganishga qiziqish ko'chirilgan mavjudlik haqidagi an'anaviy tabiiy-ijtimoiy tasavvurlardagi uch muhim kasbiyot ham tasdiqlaydi

-Birinchidan, elementar zarralar fizikasida faqat o'zaro aloqa aktida vujudga keladigan va mavjud bo'ladigan efemer yoki virtual zarralar aniqlandi.

-Ikkinchidan, kompyuter texnikasida ajabovur bir fenomen qayd etildi. Agar kompyuterga bir nechta har xil dasturlar kiritilsa, u mutlaqo har xil funksiyalarni bajarishi yoki bir-biriga o'xshamaydigan ob'ektlar yozuv mashinasi, kalkulyator, eksperimental stand yoki o'yin avtomati sifatida amal qilishi mumkin.

-Uchinchidan, elektron hisoblash mashinalarining ishlab chiqilgan yangi avlodlar va dasturlashtirishning yangi tamoyillari «virtual voqelik»ni modellashtirish imkoniyatini beradi.

#### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XXI asrda yangi qadriyatlar tizimini o'z ichiga olgan **Ma'naviy dunyoga** ega bo'lgan yagona planetar sivilizatsiya davri qanday bosqichni bosib o'tdi?
2. Davlat qurilishining turli modellari (monarxik, totalitar va demokratik) haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. «**Sharq - g'arb**» oppozitsiyasini nechta g'oya sintezi doirasida anglab yetish mumkin?
4. L. Memford fikriga ko'ra, ijtimoiy megamashinaning tiklanish jarayonini necha bosqichga ajratish mumkin?
5. J. Nesbitt bo'g'inlar strukturasi qanday izohlaydi?
6. Virtual voqeelikning xossalari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Shopengauer: "San'at insonga «*azaliy yolg'izlik*»dan xalos bo'lishga yordam beradi", -deganida nimani nazarda tutgan edi?
8. Gumanistik jamiyatning u haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi asosiy tamoyillar nimalardan iborat?

9. «inson-mashina» sistemalari bilan ish ko'ruvchi ergonomika fanda nimani aniqladi?

10. Sharq tafakkuri va G'arb tafakkur doirasi paydo bo'lishidagi o'xshashlik va farqli jihatlar nimalarda namoyon bo'ladi?

11. Konfutsiy ta'limotining Sharq madaniy dunyosiga ta'siri.

12. Sharq "men"i va G'arb "men"i o'rtasida qanday tafovut bor?

13. XXI asr boshida o'yinlar va tomoshalarning yana bir yangi jihati «**inson - kompyuter**» komplekslari faoliyati bilan bog'liqligini qanday izohlaysiz?

14. «**zombi effekti**» nima?

#### Esse mavzulari:

1. Inson va hokimiyat: yangi asr ijtimoiy-madaniy konteksti.
2. Inson ijodi va san'at simvolizmi.
3. Sivilizatsiyalarning o'zgarishi davrida inson.
4. Insonning madaniy omili.
5. Inson o'yin-kulgi, gap-gashtak va sayr-tomoshalar dunyosida.
6. Gumanistik jamiyatning asosiy xususiyatlari.
7. Inson va virtual voqeelik.

#### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari.

1. «**Bilim - bu hokimiyatdir, degan eski g'oyaning kuni bitdi. Hozirgi vaqtda hokimiyatga erishish uchun bilimlar haqida bilimga ega bo'lish zarur**», -degan fikr muallifini toping.

- A) O. Toffler
- B) V. Shnayder
- S) A. King
- D) K. Yaspers

2. Kelajak siyosiy elitalari ko'p sonli va ochiq bo'ladi, bu esa shaxsning kratik xulq-atvoriga, ya'ni uning hokimiyatga intilishi va unga bo'ysunish ko'nikmasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tagiga chizilgan so'zning ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) yuncha *kratos* - «hokimiyat» so'zidan
- B) lotincha *kratos* - «hokimiyat» so'zidan
- S) yuncha *kratos* - «hokim» so'zidan
- D) lotincha *kratos* - «hokim» so'zidan



3. «Sharq - g'arb» oppozitsiyasini ikki g'oya sintezi doirasida anglab yetish mumkin. Ikkinchi an'anaviy g'oyani kim o'z vaqtida quyidagicha ta'riflagan edi: Sharq estetik, g'arb esa – nazariy fenomendir.

- A) A. King
- B) V. Shnayder
- S) F. Nortrop
- D) K. Yaspers

4. «Tizim»ni yaratishda eng muhim elementlardan biri hokimiyat fenomeni hisoblanadi; u g'arbda \_\_\_\_\_ va sharqda \_\_\_\_\_ sivilizatsiyalari doirasida turlicha shakl-shamoyil kasb etadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring?

- A) nazariy va amaliy
- B) nazariy va estetik
- S) nazariy va byurokratik
- D) nazariy va demokratik

5. Ma'lumki, hokimiyatning emotsional ahamiyatini tavsiflash uchun «\_\_\_\_\_» tushunchasi ishlatiladi. Teologik va sotsiologik (vebercha) talqinda bu tushuncha sof g'arbiy hisoblanadi va hokimiyatga bo'lgan da'voni qonunlashtirishni nazarda tutadi. Bu qaysi tushuncha?

- A) kratos
- B) xarizma
- S) demokratiya
- D) tizim

6. L. Memford ijtimoiy megamashinaning tiklanish jarayonini necha bosqichga ajratib o'rgangan?

- A) 3 bosqichga
- B) 4 bosqichga
- S) 5 bosqichga
- D) 6 bosqichga

7. L. Memford fikriga ko'ra, ijtimoiy megamashinaning tiklanish jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin. Quyida berilgan javoblardan qaysi biri shu bosqichga kiradi?

- A) 1789-yilgi fransuz inqilobi bilan bog'liq
- B) Birinchi Jahon urushi davriga to'g'ri keladi

S) Ikkinchi Jahon urushi yillarini qamrab oladi  
D) A, B, S javoblari to'g'ri

8. Fransiya-Prussiya urushi nechanchi yilda bo'lib o'tgan?

- A) 1780-yilda
- B) 1871-yilda
- S) 1860-yilda
- D) 1870-yilda

9. Kim o'zining «Demokratiya va totalitarizm» kitobida: «Agar fuqarolar mamlakatdagi rejim qaysi qoidalarga muvofiq ish ko'rishini bilmasalar, Fransiya mavjud bo'lgan demokratiya sharoitida biz yashay olmagan bo'lardik», deb ta'kidlaydi.

- A) K. Yaspers
- B) V. Shnayder
- S) A. King
- D) R. Aron

10. Ierarxiyalar ijtimoiy muammolarni yechishga qodir emasligi kishilarni boshqacha struktura haqida o'ylashga majbur qiladi – shu tariqa hokimiyatda qanday g'oya vujudga keladi?

- A) tizim
- B) bo'g'in
- S) vulgar
- D) egizak

11. Quyidagi fikrlardan qaysi biri Amerikalik taniqli estetik olim va san'at psixologi R. Arnxeymning mulohazasi?

A) Ijodiy faoliyat ruhiy yordamga muhtoj bo'lgan insonni ruhlantirishga va ilgari faqat san'atkorlar imtiyozini hisoblangan usullar bilan uni rag'batlantirishga qodir

B) Shaxs darajasida hamjamiyat, ayrim kishilarning erkin uyushmasini tashkil etish mumkin. Hamjamiyatda ham yashirinish uchun joy yo'q. Umum ishiga kim hissa qo'shayotganini va kim bir chekkada qo'l qovushtirib turganini har kim biladi. Ayrim shaxslar hamjamiyatga qo'shilishga intiladilar. Mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni istamaganlar esa ko'pincha jamoa «pinji»ga yashirnadilar

S) Rivojlanishi natijasida inson hayot faoliyatida san'atning ahamiyati to'g'risidagi g'oya vujudga kelgan



D) To'g'ri javob A va S

12. San'at insonga «azaliy yolg'izlik»dan xalos bo'lishga yordam beradi, zero, u dunyoning teran analogi hisoblanadi, - degan olimni toping?

- A) J. Nesbitt
- B) V. Shnayder
- S) Shopengauer
- D) K. Yaspers

13. «Biz faqat ikki voqelikni – o'zimiz yashayotgan va o'zimizda yashayotgan voqelikni bilamiz, - deb ta'kidlaydi R. Gyuyo. – Birinchi voqelik Koinot, ikkinchi voqelik esa – udir. U nima?

- A) ruhiy olam
- B) ruhiy hayot
- S) tafakkur olami
- D) xotira

14. Musiqaning xususiyatiga qarab tinglovchida muskullar kuchi o'zgarishini aniqlagan olim kim?

- A) Shopengauer
- B) V. Shnayder
- S) R. Gyuyo
- D) J. Daymond

15. «Musiqaning sodda, bokira va samimiy bo'lib qolish va o'zining boshlang'ich holatiga qaytish imkonini beradi». Fikr muallifini toping?

- A) Chjuanszi
- B) V. Shnayder
- S) R. Gyuyo
- D) Shopengauer

16. Gologramma voqelikning yangicha tavsifini yaratadi. Bu tavsifni D. Bomqanday nomlagan?

- A) yaxlit borliq
- B) yaxlit intizom
- S) yaxlit tartib
- D) mutlaq tartib

17. «Yangi voqelikning kashf qilinishi amalda butunlay yangi axloqiy muammolarni kun tartibiga qo'yadi, - deb ta'kidlagan faylasuf?

- A) N. Nosov
- B) V. Shnayder
- S) J. Nesbitt
- D) K. Yaspers

18. Taniqli tadqiqotchilar o'yinlar va tomoshalarning tarqalishi qanday qilib madaniyatlarning bir-biriga ta'siri va bir-biriga o'tishi ko'rsatkichiga aylanishini ko'rsatib berganlar. Ular kimlar edi?

- A) E. Taylor va N. Moiseyev
- B) A. Shaff va N. Moiseyev
- S) J. Frezer va E. Taylor
- D) J. Nesbitt va J. Frezer

19. Qadimgi yunon askarlarining o'yinlarini o'z asarlarida tilga olgan mutafakkir?

- A) Suqrot
- B) Ovidiy
- S) Goratsiy
- D) Gomer

20. Amerikalik antropolog olimlar J. Roberts, M. Art va R. Bush jami qancha ibtidoiy jamoalarda o'yin faoliyati usullarini o'rgandilar?

- A) 150 dan ortiq
- B) 155ta
- S) 150 ga yaqin
- D) 145ta

21. Bir yuz elliktaga yaqin ibtidoiy jamoalarda o'yin faoliyati usullarini o'rgangan Amerikalik olimlar kimlar edi?

- A) J. Roberts, M. Art, R. Bush
- B) A. Shaff, N. Moiseyev, R. Bush
- S) N. Moiseyev, J. Roberts, M. Art
- D) J. Roberts, M. Art, J. Nesbitt



22. XXI asr boshida o'yinlar va tomoshalarining yangi jihatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?

- A) Zombi effekti
- B) «Inson – kompyuter» komplekslari faoliyati
- S) Indivud virtual voqeliklarga «kirish» imkoniyatini beruvchi axborot texnologiyalaridan foydalanadi
- D) Barcha javoblar to'g'ri

23. Ilgari tomoshabin filmlarda ularning mazmunidan kelib chiqib dunyoga nisbatan antropologik yondashuvni idrok etgan bo'lsalar, endilikda virtual obyektlarni matematik modellashtirish asosida yaratilgan kompyuter kadri .....ni hosil qiladi, ya'ni birovning ongi bilan boshqariladigan tirik murda harakatlarini yaratadi. Jumlani to'ldiring.

- A) Zombi effekti
- B) «Inson – kompyuter» komplekslari faoliyati
- S) Indivud virtual voqeliklarga «kirish» imkoniyatini
- D) Barcha javoblar to'g'ri

24. Hind san'ati yutuqlarining asosiy qismi kimlar tomonidan vayron qilingan edi?

- A) Gunnlar
- B) Islom
- S) Fanatiklari
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

25. U o'zining "Tarixning ma'nosi va vazifasi" asarida tarix va insoniyatning yagonaligini isbotlash uchun "dunyoviy vaqt o'qi" konsepsiyasidan samarali foydalangan faylasuf nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) K. Yaspers
- B) A. King
- S) V. Shnayder
- D) Motoori Norinagi

## Adabiyotlar

1. Политические учения: история и современность. – Москва: 1976. – 173-с.
2. Личность в традиционном Китае. – Москва: 1992. – 19-с.
3. Paris D. Artificial reality // Golem. 1992. V.2. N1.
4. Носов Н.А. Реальные нереальности // Человек. 1993. № 1. – 40–41-с.
5. Малявин В.В. Чжуан-цзы. – Москва: 1985. – 88-с.
6. Гарэн Э. Проблемы итальянского Возрождения. – Москва: 1986. – 341-с.
7. Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 179-с.
8. Философия власти. – Москва: 1993. – 125-с.
9. Арон Р. Демократия и тоталитаризм. – Москва: 1993. – 23-с.
10. Naisbitt J. Megatrends: Ten new directions transforming our lives. – N.Y. 1982. – 192-p.



## 6-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING PSIXOLOGIK OMILI

XXI asr boshida inson fenomenini yangi tipdagi sivilizatsiyaning tug'ilishi yuz berayotgan yangi davr kontekstidan tashqarida tushunish mumkin emas. Bu yerda rivojlanayotgan insoniyat tarixida yuz berayotgan mazkur burilish bosqichini talqin qilishga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar texnogen sivilizatsiya antropogen sivilizatsiyaga o'rin bo'shatyapti deb hisoblaydilar (G. Diligenskiy), ba'zi bir mutafakkirlar esa «tarix o'z intihosiga yaqinlashdi» (F. Fukuyama), ya'ni «posttarixiy» bosqich boshlandi, deya ta'kidlaydilar. Nima bo'lganda ham industrial sivilizatsiya o'rini postindustrial sivilizatsiya egallayotgani, bu esa ko'p darajali insonning tug'ilishini anglatishi (G. Markuze industrial jamiyat odamini bir darajali inson sifatida tavsiflagan edi) shakl-shubhasizdir. Ayni holda XXI asr boshida inson ruhiyatida sodir bo'layotgan inqilob haqida gapirish mumkin. O'tgan asr boshida R. Bekk bu haqida so'z yuritgan ekan, insoniyatni uch inqilob: ilmiy-texnikaviy (uning ta'bir bilan aytganda «moddiy»), ijtimoiy va ruhiy inqilob kutayotganini, xususan, ruhiy inqilob natijasida inson ruhida to'ntarish yuz berishi va din insoniyat ustidan to'la hukmronlikni qo'lga kiritishini ta'kidlagan edi.

Ushbu bashorat o'ngidan kela boshlamoqda. Binobarin, hozirgi zamon g'arb ilmiy tadqiqot metodologiyasi sharq madaniyatlarining diniy va mistik tajribasiga tayangan holda fan va mistisizmni birlashtirishga harakat qilayotgani, sharq psixologiyasi yondashuvlari g'arb psixologiyasiga kirib kelayotgani tasodifiy bir hol emas. Ayni hol transpersonal (insondan tashqaridagi ma'naviy) voqealikning mavjudligini asoslashga ehtiyoj bilan belgilanadiki, bu postindustrial sivilizatsiya sharoitida insonning ko'p darajali dunyosi shakllanayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda ongning diskretligi va uzluksizligi, inson miyasi va ruhiyati faoliyati hamda ularning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganishga nisbatan yaxlit yondashuv talab etiladi. Bu fundamental muammoni yechish uchun bir qancha tushunchalar ishlab chiqilgan. Chunonchi:

- «tug'ma g'oyalar» (R. Dekart),
- «kosmik ongsizlik» (Sudzuki),
- «kosmik ong» (E. Fromm),
- «kollektiv tasavvurlar» (E. Dyurkgeym va L. Levi-Bryul),
- «ongsiz strukturalar» (K. Levi-Stross va M. Fuko),
- «ongsizlik bironing nutqi sifatida» (J. Lakan),

«kollektiv ongsizlik arxetiplari» (K. Yung)  
Shu tafayli ham ushbu bobda biz inson ruhiyatidagi inqilob, inson qo'ng'uvining yangi obrazlari, bir vujudda «Men»ning ko'p sonligi, «Men» politsentrik modeli, ruhiyatning kosmik asoslari va hokazolar bilan bog'liq masalalarga batafsilroq to'xtalamiz.

**Inson ruhiyatidagi inqilob sabablari.** Bir qator tadqiqotlar XXI yuz yillik «Ong asri» (P. Rassel) bo'lishi haqidagi taxmini tasdiqlamoqda. Ma'lumki, U. Jems, K. Yung, A. Maslou va boshqalar shaxslararo munosabatlar, «ongning yorishishi» holatiga olib keluvchi diniy tajriba ruhiy sog'lomlik ko'rsatkichi hisoblanishi va ancha ko'p uchrashini ta'kidlagan edilar. *Duolar, meditatsiya* va shu kabilar bunday holatga erishish usullari hisoblanadi. Bu yerda gap mazkur texnikani keng tarqatish, uni kundalik hayotga kiritish, ya'ni «psixotexnologiya» haqida boradi. Yaqin o'n yilliklar ichida u «ongning yorishishi» tajribasini chuqurlashtirish, individ o'z imkoniyatlarini o'zi ro'yobga chiqarishi va ma'naviy kamol topishi jarayonlarini jadallashtirish uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqotlarning bosh maydoniga aylanishi taxmin qilinayotir.<sup>230</sup> Psixotexnologiyaning pirovard maqsadi evolyutsion o'zgarishlar uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Zero, aynan ma'naviy yangilanish, ongni buyuk mistiklar va faylasuflar kashf etgan usulda o'zgartirish «dunyoni o'ta teran asoslarda o'zgartirishga yordam beradi»<sup>231</sup>, chunki evolyutsiya jarayonining muhim qismi – ongning yuksak holatlarini yanada rivojlantirishda ishtirok etadi.

Darhaqiqat, inson va uning ongi kosmobiologik va psixosotsial evolyutsiyaning uzoq davom etgan o'zaro aloqasi mahsuli hisoblanadi. Inson va uning ruhiyati tabiatiga, shuningdek, yungcha, transpersonal va gumanistik psixologiyalar, ongni meditatsion o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, arxaiik diniy tizimlar (shamanizm va boshqalar), ezoterika amaliyoti (buddaviylik psixologiyasi va sh.k.) to'plagan tajribaga ayni shu nuqtai nazardan yondashish o'rinli bo'ladi. «Buddaviy mutafakkirlar ruhiy holatlarning murakkab ierarxiyasiga tavsif berganlar, inson ruhiyatini boshqarish yo'llarini izlaganlar. Qadimgi buddaviylarning boy psixologik tajribasi buddaviylik madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida, hech shubhasiz, bugungi kunda ilmiy-eksperimental o'rganish obyektiga aylanishi lozim»<sup>232</sup>. Zotan, ong teran jarayonlari aristotelcha mantiq qoidalariga bo'ysunmaydi: ularni kompyuterlashtirish mumkin emas va faqat buddaviylik mantiqi yordamida ma'lum darajada tavsiflash mumkin.

<sup>230</sup> Rassel P. The Global Brain: Speculation on the Evolutionary Leap to Planetary Consciousness. – Los Angeles, 1983. – 158-p.

<sup>231</sup> O'sha joyda. – 159-b.

<sup>232</sup> Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск, 1986. – 6-с.



Bundan tashqari yana shuni ham hisobga olish lozimki, hozirgi zamon psixologiyasining fundamental tasavvurlari dunyo haqidagi nyutoncha tasavvur darajasidan yuqoriga ko'tarilgani yo'q (hozirgi vaqtda gap dunyo fizik dunyo mutlaq makon va vaqtdagi ayrim moddiy jismlar yig'indisi hisoblanadi. Jismlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzoqqa harakat tamoyiliga bo'ysunadi. Psixologiyada ham shunday: «Inson ongi bo'sh – nyutoncha makonga joylashtirilgan fizik jismda kapsulalashtirilgan»<sup>233</sup>. Ong o'zini namoyon etuvchi psixologik (semantik) makon mavjud emasligi tufayli, jismda kapsulalashtirilgan ongni o'rganishni fizik makondagi jismlar xulq-atvori asosida o'tkazishga to'g'ri keladi. **Bixeviorizm** hamda kompyuter metaforasini o'z ichiga olgan **kognitiv psixologiya** ayni shunday tadqiqotlar bilan bog'liq<sup>234</sup>.

**Shaxsni somatologik identifikatsiya qilish konsepsiyasining** ildizlari qadimgi miflarga borib taqaladi. Uning kurtaklariga Qadimgi Misr mifologik antropologiyasidayoq duch kelish mumkin. Bu g'oya kreasionizm tamoyilidan kelib chiquvchi yetuk xristianlikda yanada rivojlantiriladi; xristiancha mifologiyada jismda kapsulalashgan shaxsning mutlaq noyobligi haqidagi ta'limot vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, *shaxs jism bilan uzviy, ruhiyat moddiy kapsulada joylashgan*. «Mazkur tasavvur orqali xristianlikning sodda materializmi g'arb ilmiy tafakkuri paradigmasiga kiradi va bugungi kunda shaxsning genotipik belgilanganligini yoki yengilroq ko'rinishda – genotip va muhitning o'zaro aloqasini aniqlash yo'lidagi izlanishlarga aylanadi»<sup>235</sup>.

Ellincha tafakkur mazkur yondashuv bilan to'qnashadi: orfiklar va pifagorchilar ta'limotiga ko'ra, jon oliy asos emanatsiyasi hisoblanadi; bu jon hayotning umumiy aylanma harakatiga qo'shilib, turli mavjudotlar va buyumlar ichiga kirib joylashadi. Mazkur g'oyalar majmui keyinchalik Platon va neoplatonizm ta'limotidan, ilk xristianlik patristikasidan o'rin oldi. Ushbu yondashuv oqilona asosdan xoli emas, chunki u karteziyancha dualizm narsalar va hodisalarning haqiqiy holati bilan muvofiq kelmasligini namoyish etadi (karteziyanchilar fikriga ko'ra ruhiy va transruhiy, ichki va tashqi hodisalar, subyekt va obyekt o'rtasida aniq chegara mavjud)<sup>236</sup>. Ammo ongning «diskretligi – uzluksizligi» fundamental muammosini o'rganish uchun yaxlit yondashuv talab etiladi.

<sup>233</sup> Налимов В.В., Дрогаллина Ж.А. Как возможно построение модели бессознательного // Бессознательное. – Тбилиси, 1984. Т. 4. – 86-с.

<sup>234</sup> Гроф С. Путешествие в поисках себя. – Москва: 1994.

Налимов В.В., Дрогаллина Ж.А. Как возможно построение модели бессознательного // Бессознательное. – Тбилиси, 1984. Т. 4. – 190-с.

<sup>235</sup> Шварков В.Б. Нейрофизиологическое изучение структуры психики // Мозг и психическая деятельность. – Москва: 1985. – 5-с.

Bunday yaxlit yondashuv, masalan, K. Yungning «teran psixologiyasi»ga xos. Uning fikricha, «o'ta shaxsiy» ongsizlik mavjudligi haqidagi faraz faqat nazariy tafakkur mahsuli emas. Unga klinik amaliyot ham asos bo'lgan. Xususan, u mazkur amaliyot jarayonida patsientlar o'z tushlarida real hayotda o'zlari hech qachon duch kelmagan, ko'p jihatdan inson madaniyati tadqiqotchilariga ma'lum bo'lgan mifologik syujetlarni eslatadigan manzaralar va obrazlarni ko'rishlarini aniqlagan. Yer kurrasining turli burchaklaridagi turli xalqlarda patsientlar shifokorlarga yordam so'rab murojaat etar ekanlar, bir-biri bilan ko'p jihatdan mos keluvchi tushlarni tavsiflashlari ayon bo'lgan. Masalan, savodsiz, binobarin, Yevropa madaniyati bilan tanish bo'lmagan habashning tushiga yunon mifologiyasi obrazlari kirishi, sharq mistiklarining g'oyalari bilan tanish bo'lmagan yevropalikning tushlarida esa qadimgi hind va qadimgi xitoy traktatlarida bayon etilgan manzaralar yoki obrazlar paydo bo'lishi aniqlangan.

K. Yung qadimgi g'arb va sharq madaniyatlari sohasida keng bilimlarga ega edi. Shu tufayli ham u turli patsientlarning tushlaridagi manzaralar va qadimgi san'at yodgorliklari o'rtasidagi aloqalarni osongina aniqlagan. Shunga o'xshash bog'lanishni u tushlardagina emas, balki ruhiy kasallarning fantaziyalari va gallyusinatsiyalarida ham kashf qilgan. Shu tariqa u jonning «kollektiv ongsizlik» obrazlari jamlangan «orqa plani» yoki «tungi yarmi» haqidagi qoidani ta'riflagan. «Jonning «tungi yarmi»dan xabarlar bizga ahyon-ahyondagina keladi, zero, ikki dunyoni bog'lovchi ko'priklar buzib tashlangan»<sup>237</sup>.

Jamoa ongsizligining bunday arxetiplari dunyo evolyutsiyasi tajribasini o'zida to'la mujassamlashtiradi. Inson ruhiyati rang-barang «arxetiplar»ni o'z ichiga oladi, biroq ularning barchasi, K. Yung fikriga ko'ra, arxaik xususiyat kasb etadi va faqat intuitsiya yordamida idrok etish mumkin bo'lgan, inson fantaziyasining ongsiz faoliyati natijasida turli ro'yolar va diniy tasavvurlar ko'rinishida yuzaga chiqadigan obrazlarning kantcha «noumenlari» hisoblanadi.

«Arxetiplar» haqidagi bu qoida hozirgi zamon odamining ongiga kiruvchi va uning ruhiyatida inqilobga zamin yaratuvchi mistitsizm fenomenologiyasini tushunish uchun o'ziga xos «kalit» bo'lib xizmat qiladi. K. Yungning o'zi tushlarni ularning prognostik faoliyati nuqtai nazaridan baholaydi. Uning nazariyasida tushlar kelajakni bashorat qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yung talqinida tushlar rivoyat, nasihat, yo'l-yo'riq ahamiyatini kasb etadi. Pirovard natijada tush telepatik xossalar kasb etadi. Mazkur talqinga ko'ra inson ikkita ruhga ega bo'ladi – ulardan

<sup>237</sup> Юнг К. Психоз и его содержание. – СПб., 1909. – 32-с.



biri individning hozirgi holatini aks ettiradi, ikkinchisi esa insonning million yillar muqaddam sodir bo'lgan o'tmishini ifodalaydi.

Shuni hisobga olish lozimki, Yungning «teran psixologiyasi» asosan (kollektiv va individual) ong xususiyatlarini anglab yetishga qaratilgan sharq donishmandligining asosiy motivlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, buddaviylik insonga o'z ichki dunyosiga teran nazar tashlashni o'rgatadi va shu tariqa u ko'zdan yashirin ruhiy kuchlarni anglab yetishga ko'maklashadi. Tibet lamas A. Govinda shunday deb yozadi: «Buddizmda og'irlik markazi individumning o'zida, uning o'z kechinmalarida yotadi»<sup>238</sup>. Dzen-buddizm o'z-o'zini anglab yetishga harakat qilayotgan individlar uchun «bitmas-tuganmas manba»dir (K. Yung). Ko'pgina yevropaliklar inson ruhiyatining teran qatlamlarida endigina kashf qilayotgan hodisalar qadimgi hind va qadimgi xitoy dinlarida allaqachon kashf qilingan. Masalan, buddaviylarning «karma» tushunchasi «arxetip tabiatini teran tushunish uchun» (K. Yung) juda muhimdir.

K. Yungning «teran psixologiyasi»da jamoa ongsizlik faoliyatini belgilovchi omillar qayd etilgan. Bu yerda gap shaxslar tasavvur qiladigan va individlar o'z faoliyatida ro'yobga chiqaradigan «ong niqoblari» haqida boradi. Kollektiv ongsizlikka nisbatan Yung taklif qilgan yondashuv «shaxsni individuallashtirish» metodologiyasiga asoslanadi va postindustrial sivilizatsiyaning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan inson ruhiyatidagi inqilobning o'ziga xos darakchisi hisoblanadi. Amerikalik tadqiqotchi M. Argueles hozirgi zamon odamining rivojlanish jarayonida yuz beradigan burilishga e'tiborni qaratadi. Bu burilish Mandala qonuniga muvofiq yashashga o'tish bilan bog'liq. «Mandala qonuniga muvofiq yashash – bu shunday bir jarayonki, uning vositasida shaxs va jamiyat manfaatlar qutblari birlashib, ajralmas ittifoq tuzadi. Individ ongli mikrokozmos sifatida narsalar va hodisalarni anglab yetuvchi markazga aylanadi. Uning ta'sirchan kuchi individ atrofida yugurdaklar guruhini to'plamaydi, balki mazkur tasavvurni boshqalar ongiga ham asta-sekin singdiradi va barcha individlar ongli markazlar sifatida bahamjihat ish ko'rishlariga zamin yaratadi»<sup>239</sup>. Bundan xulosa shuki, inson o'z imkoniyatlari chegarasini his qila boshlaydi, bu esa individ ruhiyatida inqilob yuz berishiga olib keladi.

**Inson qurquvining yangi obrazlari.** XXI asr boshida inson fenomenini o'rganishda ruhiyatdagi qo'rquvni tushunish ham muhim ahamiyat kasb etadi, zero, busiz individ xulq-atvorining xususiyatlarini ajratish mumkin emas. «Falsafiy ensiklopediya»da «qo'rquv

(psixologiyada) – organizm hayotiga, shaxsga, u himoya qilayotgan qadriyatlar (ideallar, maqsadlar, tamoyillar va h.k.)ga tahdid solayotgan haqiqiy yoki xayoliy xavf natijasida yuzaga kelgan salbiy emotsiya»<sup>240</sup> deb qayd etilgan. Qo'rquv fenomeni ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq. Qo'rquv inson tabiatiga xos xususiyat, uning belgilanmaydi, u dunyoviy hayot evolyutsion yo'lining inson miyasidagi qaydi bilan ham bog'liq. Qo'rquv inson tabiatiga xos xususiyat, uning shakllari va turlariga ijtimoiy-madaniy evolyutsiya jarayonida o'zgaradi. Tabiiyki, sivilizatsiyalarning o'zgarishi davrida qo'rquvning ilgari ma'lum bo'lmagan yangi turlari (obrazlari) paydo bo'ldi. Hozirgi davrga xos bo'lgan qo'rquv quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: «Yadro qurolining to'planishi, atom elektrostansiyalari qurilishi, radioaktiv chiqindilar, turli xil zaharli kimyoviy moddalarning ko'payishi va hokazo va shunga o'xshashlar – bularning barchasi soat mexanizmi o'rnatilgan ichki bombalardir, soatning mili halokat nuqtasi sari to'xtovsiz siljimoqda»<sup>241</sup>.

XX asrda ommaviy qirg'in quroli qo'llanilishi natijasida insoniyat yalpi qirilib ketishi xavfi bilan belgilangan mutlaq empirik qo'rquv paydo bo'ldi. Aynan atom va yadro quroli endilikda inson va insoniyatni tinimsiz ta'qib qilayotgan «buyuk qo'rquv»ni paydo qildi. Shuning barobarida «qiyomat kuni» haqidagi tasavvurlar ham jonlandi. Vaqt o'tishi bilan «yadroviy» qo'rquv ommaviy qirg'in quroli bilan emas, balki atom elektrostansiyalari reaktorlarining radioaktiv chiqindilari atrof muhitni ifloslantirishi bilan bog'liq bo'lgan yangicha shakl-shamoyil kasb etdi. Ko'pchilik uchun bu chiqindilar sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha xavf-xatarlardan dahshatliroq tahdidga aylandi. Yangi qo'rquv yerning tahqirlanishi va dunyoda tabiiy muvozanatning buzilishi obrazlari bilan birikib, yanada kuchliroq tus olmoqda<sup>242</sup>. So'nggi yillarda butun dunyoda yadro reaktorini yaratish borasidagi har qanday harakat mahalliy aholining qattiq noroziligiga uchramoqda.

XX asrda yana bir qo'rquv manbai – islom aqidaparastlari terrorizmi paydo bo'ldi. Hozirgi dunyoda islom dinining siyosiylashuvi ancha xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Hozirgi zamon terrorizmining har xil turlari orasida islom aqidaparastlarining «muqaddas terrori» ancha chuqur ildizlarga ega bo'lgan yangi hodisa hisoblanadi<sup>243</sup>. U terrorizmining boshqa turlari (shakllari)dan kamida uch muhim jihat bilan ajralib turadi.

<sup>238</sup> Говинда А. Психология раннего буддизма. Основы тибетского мистицизма. – СПб(6) 1993. – 38-с.

<sup>239</sup> Скворцов Л.В. Проблема стража: Искусство жизни в «век смерти» // Человек: Образ и сущность стража. – Москва: 1991. – 35-с.

<sup>242</sup> Qirg'uv: Wenet S.P. Nuclear fear: A History of Images. – L., 1988. – 323-р.

<sup>243</sup> Qirg'uv: Газери А. Связанный террор // Средний Восток: зарождение исламского фундаментализма. – Москва: 1990. – 166-с.



*Birinchi* - u hozirgi mafkuralarning barchasini rad etadi va hokimiyatni o'z qo'liga olish yoki qo'lda qurol bilan halok bo'lishga intiladi. Uning tarafdorlari boshqa terroristik harakatlar bilan, hatto, ta'kid maqsadlarda ham aloqa qilmaydilar. Islom aqidaparastlari o'zlarini butun dunyoni qamrab olishga qodir bo'lgan islom uyg'onishi g'oyasining ifodachilari deb hisoblaydilar<sup>244</sup>. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda gap yagona islom davlati - xalifalikni tashkil qilish va uning ta'sirini butun dunyoga tarqatish haqida boradi.

*Ikkinchi* - hozirgi vaqtda g'arbda «islom terrorizmi» degan nom olgan hodisa «muqaddas urush» - jihodning o'ziga xos shakli sifatida ilgari surilmoqda va amalga oshirilmoqda. Bunda mazkur «urush» faqat to'la g'alaba qozonilganidan keyingina tugashi mumkin. Bu urushda islom aqidaparastlari muzokaralar olib borish, muayyan masalalarda yon berish va hatto siyosiy hokimiyatni egallashga ham harakat qilmaydilar. Ular dushmani butunlay tor-mor keltirishga intiladilar, islom terrorizmi dushman taslim bo'lishining biron-bir shaklini tan olmaydi.

*Uchinchi* - islom terrorizmi ham individual xulq-atvor, ham davlat siyosati nazariyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. «Kofirlarni ikki yo'ldan birini - yo islom dinini qabul qilish, yo halok bo'lishni tanlashga majbur qilish islom aqidaparastlari o'z oldiga qo'ygan bosh vazifadir. Shu tufayli ham islom aqidaparastlarining o'tgan asr oxirida qo'rquvning yangi turini paydo qilgan «Muqaddas terror» harakati bilan hisoblashish talab etiladi.

Qo'rquvning yana bir yangi turi - bu tinimsiz kuchayib borayotgan **ekologik halokat** xavfidir. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining tabiat bilan o'zaro aloqasi muammosi (ilgari mavjud bo'lmagan) qo'rquv fenomeni bilan uzviy bog'liq, zero, u insoniyatning yashab qolishi muammosini o'zida ifodalaydi. Bu muammo insonning biosferani o'zgartirishi jarayoni bilan bevosita bog'liq. Bu yerda tabiiy bir savol tug'iladi: mazkur jarayon qaysi yo'nalishda bormoqda? Yetmish yil oldin V. Vernadskiy biosfera oliy bosqichga o'tib noosferaga aylanishini qayd etgan, qirg' yilcha muqaddam J. Dorst sayyoradagi insoniyatni olmaga tushgan qurtga o'xshatgan edi. Xo'sh, ularning qaysi biri haq, inson noosferani bunyod etmoqdami yoki biosferani vayron qilmoqdami?<sup>245</sup>

Darhaqiqat, inson yangi tabiiy muhitni bunyod etayotir va shu bilan bir qatorda biosferani vayron qilayotir. Bunda vayronkorlik faoliyati bunyodkorlikka qaraganda qizg'inroq kechayotir. Insoniyatning mavjudligi

<sup>244</sup> Qiziq. Kuznetsov N. E., Nigmatov A. A. *Islom va terror* 2002 yoki - Moskva, 1999.

<sup>245</sup> Qiziq. Zaslavskiy P. E., Zaslavskiy I. I. *Prirada i tsivilizatsiya* - Moskva, 1988; Kuznetsov N. E. *Prirada i tsivilizatsiya* - SPb, 1991.

tabiatga tushadigan yuk me'yoriga rioya etilishi bilan bog'liq. Biologiya mutaxassuslari qayd etishicha, tabiatda «10% qonuni» amal qiladi - faqatgina 10% tabiatda Yer tabiati odatdagidan o'n baravar kuchliroq so'riqishga dosh berishga qodir<sup>246</sup>. Hozirgi vaqtda insonning bunyodkorlik faoliyati aksariyat hollarda bu qoidani buzadi, u biosferaning rekreativ imkoniyatlari bilan muvofiq kelmaydi. Shu tufayli ham Yerdagi hayot ta'minoti resurslari (daryolar sistemalari, sizot suvlar, tuproq, fazo muhiti, jahon okeani) sivilizatsiyaning kuchli bosimiga dosh berolmasdan tanazzulga yuz tutmoqda. Insoniyat qarshisida ekologik halokat xavfi paydo bo'ldi: aynan Yerdagi hayotning qirilib ketishidan qo'riqish atrof muhitni muhofaza qiluvchi kuchli siyosiy harakatlar paydo bo'lishga olib keldi.

XX asrda paydo bo'lgan qo'rquvning yangi turlaridan biri **psixotron urush** xavfi bilan bog'liq. O'ttiz yil muqaddam AQSh Kongressi vakillar palatasining fan va texnika bo'yicha qo'mitasi uchun tayyorlangan ma'ruzada «ong fizikasi» va tibbiyot sohasidagi tadqiqotlarning maqsadga muvofiqligiga baho berishga bundan buyon yanada kuchliroq mas'uliyat bilan yondashish tavsiya qilingan edi. Ma'ruzada qayd etilishicha, so'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimentlar bir odam miyasining boshqa odamlar miyasi hamda materiya bilan «o'zaro bog'liqligi» mavjud, inson aqli geografiya va vaqt omilidan qat'i nazar, axborot olishga qodir deb taxmin qilish uchun asos beradi. Binobarin, turli kishilar miyasining o'zaro bog'liqligi nafaqat ayrim mamlakat, balki butun dunyo uchun ham jiddiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin<sup>247</sup>.

U yoki bu odam miyasiga ta'sir ko'rsatish uchun elektron vositalardan foydalanish zamirida ayni shu qoida yotadi. Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan psixotron urush muammolariga bag'ishlangan materiallar soni ko'payib bormoqda. Maxfiy laboratoriyalarda psixotronika sohasida o'tkazilayotgan eksperimentlar to'g'risida ham ma'lumotlar bor<sup>248</sup>. Psixotronikaning o'zi esa qadimgi magiya va shamanizm, shuningdek, mistitsizm faoliyati haqidagi ma'lumotlardan foydalanadi. Shu narsa aniqki, inson ongi, elektronika, tibbiyot va parapsixologiya sohasidagi tadqiqotlar inson miyasi va ongiga ularni boshqarish maqsadida ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi<sup>249</sup>. O'z-o'zidan ravshaniki, psixotron qurolning qo'llanish xavfi ta'sirida paydo bo'luvchi qo'rquvdan

<sup>246</sup> Qiziq. O'zbek I. E. *Kosmos travmatika. Predeli biosferalnosti i otdelnye tsivilizatsiya* - Moskva, 1996.

<sup>247</sup> Qiziq. Dzhur P. E. *Psixotronniy paradiokh psixofizicheskoy tsivilizatsiya i psixotronniy tsivilizatsiya* // TP, 1991, № 1, s. 1-10.

<sup>248</sup> Qiziq. Gritsina L. E. *Miagmi biosfera* - Moskva, 1994, - 183-184-s.

<sup>249</sup> Qiziq. Binyaminov N., Gurovskiy G. *Psixotronika i tsivilizatsiya* - Moskva, 1993, - 342-s.



siyosatchilar ayrim kishilar va aholi guruhlari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanishlari mumkin.

**Biotexnologiya metodlaridan foydalanish xavfi** ham qo'rquvning yangi turi hisoblanadi, zero, u salbiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu xavf eng avvalo kishilik hamjamiyati va umuman ekologik tizimlar uchun xavfli bo'lgan mikroorganizmlarning atrof muhitga tarqalish tahdidi bilan bog'liq. Masalan, «ichak tayoqchasi» va boshqa xil bakteriyalar tadqiqotchilarning nazorati ostidan chiqishi va yangi noma'lum kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga aylanishi xavfi mavjud. Ommaviy axborot vositalarida berilgan xabarlariga ko'ra, g'arbiy Yevropa mamlakatlarida insonning immun sistemasini buzuvchi «odamxo'r bakteriya» paydo bo'lgan. Agar tananing zararlangan qismi o'z vaqtida kesib tashlanmasa, odam vafot etadi (bu bakteriya bir necha o'n kishining yostig'ini quritgan). Qizig'i shundaki, olimlar ushbu «odamxo'r bakteriya»ni streptokokk mutanti bo'lsa kerak deb taxmin qilmoqdalar.

Inson embrioni bilan o'tkazilayotgan tadqiqotlar ham amalda shikastli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Oqsil biosintezida tirik organizmlarning barchasi ayni bir genetik kodga ega bo'ladi, bu esa turli organizmlar (masalan, o'simliklar, inson yoki hayvonlar) DNK zarralarini bir-biri bilan chatishtirish imkoniyatini beradi. Hayotning mazkur elementar darajasida insonga qarshi qaratilgan chatishtirishlar, masalan, harbiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan sun'iy gibridlarni yetishtirishni amalga oshirilishi misli ko'rilmagan ijtimoiy kulfatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, biotexnologiya hozirgi zamon odamining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi qo'rquv manbai bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, XX asrda inson yuragiga qutqu soluvchi qo'rquv va tahlkaning yangi va yangi turlari paydo bo'ldi. O'z-o'zidan ravshanki, qo'rquvning yuqorida ko'rib chiqilgan yangi obrazlaridan har biri insonning ruhiy holatiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi va ayni paytda uning xulq-atvorini ham ma'lum darajada belgilaydi.

**Bir vujudda «Men»ning ko'p sonliligi.** «Men»ning ko'p sonliligi muammosi XXI asr boshida o'ta murakkab inson fenomenining qirralaridan birini aks ettiradi. Bu muammo qaror qabul qilish jarayoni va inson xulq-atvorining oqilona va individual xususiyatini tushuntirish yo'lidagi harakatlardan bevosita kelib chiqadi. Ayni paytda u bir qancha ilmiy fanlar uchun bosh muammo hisoblanadi, zero, u yoki bu qaror shaxslararo munosabatlarni, shu jumladan interpersonal konfliktlarni o'rganishda foydalaniladigan tegishli konseptual vositalarni belgilaydi.

«Men»ning ko'p sonliligi muammosini inson vujudi va ruhiyati dualizmi bilan bog'lash o'rinni bo'ladi. Iudeycha-xristiancha diniy

an'anaga xos bo'lgan bu dualizm orfiklar mifologiyasi va platoncha metafizikadan keltirib chiqariladi. Inson ruhi va vujudining qadimgi yunoncha talqinlari xristian dinining asosi hisoblanmaydi. Injil matnida ruh va tananing yagonaligi konsepsiyasi ilgari suriladiki, u orfik mifologiya tamoyillariga mutlaqo ziddir. Keyinchalik ruh tananing asiri hisoblanadi va butunlay boshqacha tabiatga ega bo'ladi degan qoida qabul qilinadi.

Qadimgi iudeylarning asosiy e'tiborni shaxsning somatik asoslariga qaratuvchi g'oyasi hozirgi zamon g'arb falsafasi qonunlari bilan muvofiq keluvchi vujud va shaxs konsepsiyasiga aylanadi. Masalan, L. Vitgenshteynning: «Odam tanasi inson ruhining eng yaxshi obrazidir»<sup>250</sup>, -degan so'zlari qadimgi yaqin Sharq tafakkuriga xos bo'lgan g'oya bilan hamohangdir. Ma'lumki, insonni jismoniy va ruhiy asoslar birligi sifatida idrok etish fikrlashning ayni shu uslubiga xos edi. Ayni paytda insonni Xudo o'ziga o'xshatib yaratganligi haqidagi tasavvurni ham e'tiborga olish lozim. Injilda bu tasavvur havoriy Pavelning quyidagi so'zlarida ifodalangan: «O'z vujudingizdagi Xudoni sharaflang». Kabbala diniy-mistik ta'limotiga ko'ra, hamonki inson Xudoga o'xshab yaratilgan ekan, uning kamida uchta joni bo'lishi kerak: ruh – oliy qism; jonning o'zi – yaxshilik va yomonlik makoni; vujud bilan bevosita bog'liq bo'lgan va uni harakatga keltiradigan «hayotbaxsh kuch»<sup>251</sup>

Bir vujudda jonlarning ko'p sonliligi haqidagi tasavvurlar g'arb olimlari va teologlari e'tiborini o'ziga tortadi. Hozirgi vaqtda faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va ilohiyotchilar bir vujudda nechta «Men» bor: u bittami yoki ko'p sonlimi?,- degan masalani muhokama qilmoqdalar. Ayrim olimlar «Men» yagona, ya'ni shaxs va vujud bir-biri bilan uzviydir deb hisoblaydilar. Masalan, amerikalik teolog K. Braaten insonning xristiancha konsepsiyasi (hozirgi talqini)ga tayangan holda, inson psixosomatik jihatdan yagonadir degan g'oyani ilgari suradi<sup>252</sup>.

«Menning ko'p sonliligi» gipotezasi ruh bilan uzviy bo'lgan semantik maydon sifatidagi madaniyat bilan bog'liq. Ruh g'oyalarni moddiylashtirish borasidagi faoliyatga xos bo'lgan faollik holatini o'zida ifodalaydi. Ayni paytda madaniyat yaratuvchi faoliyatning ma'naviy imkoniyatlari uning individual borliqqa ma'no baxsh etish qobiliyati bilan belgilanadi. Ruh shaxs bilan bog'liq va unga ko'p jihatdan o'xshash, zero, u dunyodan keltirib chiqariladi va ayni paytda alohida dunyo sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs va ruhning bunday bog'liqligi ma'naviyatni shakllantirish muammosini shaxsning ichki dunyosida «cheksiz shaxs»ni

<sup>250</sup> Wittgenstein L. Philosophical Investigation. N. Y., P. IV. Section 178.

<sup>251</sup> Qarang: Лайман М. Каббала. Тайное еврейское учение. – Новосибирск, 1993. Ч.3. – 38-с.

<sup>252</sup> Qarang: Braaten C.E. Teologia i cialo Czlowiek i swiato-poglad. 1986. № 9. – 44-45-p.



(Gegel) kamol toptirish vazifasi sifatida ifodalash imkonini beradi<sup>253</sup>. Shunday qilib, «Menning ko'p sonliligi» gipotezasi XXI asr boshida inson fenomeni muammosiga yangicha ko'z bilan qarash imkoniyatini beradi.

**«Men» politsentrik modeli.** Insonning ichki dunyosi o'ta murakkab va serqirradir. U bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p sonli «qavatlar» yoki darajalarni o'z ichiga oladi. Buni hozirgi zamon psixologiyasidagi yangi yo'nalish – topologik psixologiya doirasida erishilgan natijalar ham tasdiqlaydi<sup>254</sup>. Topologik psixologiyaning rivojlanishi ulkan qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bu qiyinchiliklar inson modellarining barchasi inson ruhiyatining teran qatlamlariga nazar tashlash imkoniyatini beruvchi ko'p darajali murakkab tizimlar hisoblanishi bilan belgilanadi. «Teran» yoki «analitik» psixologiya inson ruhiyatining ongli, oqilona va mantiqiy darajalarini o'rganadi. Olimlar tomonidan ong va ong osti sohalarining quyidagi o'n darajasi ajratilgan:

- jinsiy mayllar darajasi (Z. Freyd);
- boshchilik, yetakchilik, hokimiyat darajasi (F. Nitsche, A. Maslou);
- onging shakllanish darajasi (E. Noyman);
- identifikatsiya (E. Erikson);
- hokimiyat «ijtimoiy standarti» (M. Fuko);
- milliy identifikatsiya (G. D. Gachev, P. Bezanson);
- tilning topologik talqini va turli «til o'yinlari» darajasi (R. Toma, L. Vitgenshteyn);
- mutlaqo subyektsiz fan (R. Dekart, I. Nyuton);
- topologik jihatdan inson bilan uzviy bo'lgan strukturalar (P. Florenskiy, M. Xaydegger);
- san'at va fan arxetiplari (K. Yung, V. Paul).

Shunday qilib, inson ruhiyatida (ong osti sohasida) bir nechta qatlamlarni ajratish mumkin. Inson «Meni» ko'p qavatli strukturasi turli darajalaridan turli potensial o'zliklar<sup>o</sup>rin oladi. Bu esa amalda keng tarqalgan «monotsentrik integratsiya» modeli bilan bir qatorda, boyroq va murakkabroq (monotsentrik modelga qaraganda) strukturaga ega bo'lgan shaxsning politsentrik integratsiyasi modeli ham mavjudligidan darak beradi. So'nggi zikr etilgan modelda ijodiy izlanishlar maydoni bir shaxsda fikrlar, sezgilar va mayllarni o'z atrofida jamlovchi bir nechta turli markazlar yoki o'zliklar mavjudligining tabiiy mahsuli hisoblanadi.

Shaxsning shakllanish mahsuli sifatida politsentrik struktura ko'pincha shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tarkib topgan

<sup>253</sup> Крымский С.В. Контуры духовности. Новые контексты идентификации // Вопросы философии. 1992. № 12. – 24-с.

<sup>254</sup> Акчури И.А. Топология и идентификация личности // Вопросы философии. 1994. № 5.

qatlamlarning tinimsiz faolligi natijasida vujudga keladi. Shuni qayd etib o'tish lozimki, o'tgan asrning 30-yillarida S. Frich «ruhiyat qatlamlari»ning shakllanish jarayonini o'rganuvchi ilmiy fan – psixopatologiyani yaratishga harakat qilgan<sup>255</sup>. «Inson ruhiyati geologiyasi qonunlari» haqidagi qiziqarli mulohazalarga G. Olexnovichning «Odamlar orasida ilk qadamlar» deb nomlangan kitobida duch kelish mumkin<sup>256</sup>. Rivojlanishi ruhiyatning birinchi qatlami paydo bo'lganidan so'ng to'xtagan «bir qatlamli» individlar ham mavjud. Bunday bir qatlamli, odatda, shaxsning monotsentrik integratsiyasi bilan belgilanadi. Politsentrik struktura asosan ko'p qatlamli hisoblanadi, unda shakllangan oxirgi qatlamning faolligi oldinroq shakllangan qatlamlarning faolligiga, shuningdek, endigina shakllanayotgan qatlamlarning faollik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Qatlamlar o'rtasidagi farq dunyo haqidagi tasavvurlar va siyosiy qarashlarning o'zgarishi, boshqacha fikrlash uslubining qabul qilinishi va tushunchalar apparatining takomillashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Inson «Meni»ning politsentrik strukturasi yangicha qarashlar va tasavvurlar eski qarashlar va tasavvurlarni siqib chiqarmaydi, balki ular bilan autentik ichki muloqotga kirishadi. Nuqtai nazarining o'zgarishi o'rniga ayni bir predmet (obyekt)ga bir paytning o'zida turli nuqtai nazarlardan qarash qobiliyati paydo bo'ladi (insonning mazkur qobiliyati sharq madaniyatlarida qadim zamonlardayoq shakllangan edi). Inson «Meni»ning politsentrik strukturasi har bir predmetni har tomonlama o'rganish imkoniyatini beruvchi metodologik plyuralizmning psixologik asosiga aylanadi.

«Men» politsentrik modelining evristik imkoniyatlari ancha keng, zero, u inson ekzistensiyasining fundamental muammolarini yechish imkonini beradi. Yangi insonni shakllantirish yoki yaratish ayni shunday muammolardan biri hisoblanadi. Masalan, amerikalik mutaxassis B. Skinner o'zining «Uolden Ikki» deb nomlangan kitobida inson xulq-atvorini xulq-atvor haqidagi fanlar yordamida boshqarish imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritadi<sup>257</sup>. So'nggi yillarda mazkur fanlar doirasida inson xulq-atvorini boshqarishda, oldindan belgilangan xossalarga ega bo'lgan biologik tizimlarni yaratishda jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu yerda «Men» politsentrik modeli qatlamlaridan birining xossalaridan foydalaniladi: qolgan qatlamlar ta'sirini to'xtatish yo'li bilan «bir qatlamli» odamni yaratish mumkin. Ayni paytda xulq-atvorni boshqarish texnologiyalari

<sup>255</sup> Qarang: Frych S. Calokszalt psychologii Psychometria, 1934. Js. 3-4. – 32-36-p.

<sup>256</sup> Qarang: Olechnovicz H. Piensze kroki wsrod ludzi. – V., 1971. – 128-133-p.

<sup>257</sup> Qarang: Skinner B.F. Walden Two. – N. Y., 1948. – 243-p.



yordamida insonni zombiga aylantirish imkoniyati ham mavjud. Masalan, o'tgan asrning 90-yillarida «Toreador» deb nomlangan televidion ko'rsatuvda razvedkachi (polkovnik Jurov) dunyo mamlakatlaridan birida u Jak ismi bilan ish olib borganini, bu uning to'rtinchi «Meni» bo'lganini ma'lum qilgan edi. Ayni holda zombi metodidan razvedka maqsadlarida va ancha samarali foydalanilgan<sup>258</sup>

Xulq-atvor haqidagi fanlardan foydalanishning yana bir yo'li mavjud va u muayyan qadriyatlar tizimi bilan bog'liq. Amerikalik olim K. Rojers bunday qadriyatlar sifatida quyidagilarni ajratadi:

- inson o'z potensial imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqarilishi natijasida qadr-qimmat va ahamiyat kasb etishi;
- individ o'z-o'zini aktuallashtirishi;
- o'zgarayotgan dunyoga insonning ijodiy moslashishi;
- bilimlar taraqqiyoti asosida dunyo haqida yangicha tasavvurning shakllanishi<sup>259</sup>. Shunda fan inson va insoniyatga ular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy evolyutsiyasini (tabiiyki, ma'lum darajada) boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun yordam berishi mumkin.

«Men» politsentrik modeli hozirgi zamon odamining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun magik bilimlardan foydalanish imkonini beradi. K. Kastaneda mag don Xuanning ov haqidagi mulohazalarini keltirar ekan, amalda ongsizlik sohasidan axborot olish uchun mos keluvchi psixologik munosabatning simvolik tavsifini beradi<sup>260</sup>. Bunda ovchi dunyoga turli nuqtai nazarlardan yondashadi: u dunyoga o'z «Meni» nuqtai nazaridan yondashish bilan bir qatorda, unga vaqtga bo'ysunmaydigan ruhiy borliq nuqtai nazaridan ham baho berishi mumkin. U o'z vaziyatiga ham ongli tarzda, ham «ikkinchi shaxs»ni ifodalovchi ongsizlik tili sifatidagi tushlar va fantaziyalar yordamida baho berish imkoniyatiga ega. Ayni shu ikkinchi shaxs ruhiyatdagi vaqtsizlikni ifodalaydi, uning ongli «Men» bilan muloqoti individga hayotga ijodiy yondashish va borliqning to'liqligiga erishish, ya'ni yaxlit shaxsga aylanish imkonini beradi.

Shunday qilib, ko'p darajali inson polifundamental tabiatga ega – u o'zini yanada mufassal o'rganishni talab qiluvchi «ko'p mohiyatli» strukturadir.

**XXI asr boshida «ong – materiya» falsafiy muammosi.** Hozirgi vaqtda inson fenomenini haqidagi tasavvurlarga madaniyat sohasida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatayotir. Qadim

<sup>258</sup> Поликарпов В.С., Поликарпова В.А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 132-с.

<sup>259</sup> Роджерс К.Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – Москва: 1994. – 460-с.

<sup>260</sup> Кастанеда К. Путешествие в Иксталан. – Киев, 1992.

zamonlarda Afina, Ierusalim va Rimda vujudga kelgan madaniyat o'z mazmunlarini rivojlantirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. Mazkur madaniyat bunyod etgan sivilizatsiyaning umri ham poyoniga etib qoldi – butun insoniyatni qamrab olgan global inqiroz buning dalilidir. V. Nalimov fikriga ko'ra, yangi mazmunlarni berishga din ham, falsafa ham qodir emas: rasmiy konfessiyalarning barchasi uzoq o'tmishga mukkasidan berilgan va inson butunlay o'zgarigani bilan hisoblashmaydi; falsafada ekzistensializm va falsafiy hermenevtika o'z tadrijiy yakuniga yetgan, pozitivizm esa sezilarli darajada qashshoqlashgan<sup>261</sup>. Agar falsafa va din tutash nuqtalarni topsa, bu ularga yangi mazmunlarni aniqlash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda inson hayoti mazmuni va Koinot mavjudligi mazmunining birikishi yuz berayotir. Bu fizikada (va kosmologiyada) «ong – materiya» muammosi birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'layotir. Agar biologlardan birortasi tiriklik evolyutsiyasini ijodiy jarayon deb e'tirof etsa, ayni shu hol biologiyada ham yuz berishi mumkin. Ma'lumki, psixologiyada «transpersonal harakat» deb nomlangan falsafiy yo'nalish allaqachon shakllangan.

«Ong – materiya» falsafiy muammosi bugungi kunda fizik eksperiment bilan bevosita to'qnashmoqda. Kompyuter tizimiga ulangan mayatnik bilan o'tkazilgan eksperiment inson ongida mexanik mayatnik bilan muayyan tarzda (gipnotik aloqa vositasida) bog'langan fizik mayatnikning semantik analogi mavjudligini faraz qilish imkonini beradi. Bunda matnlarni o'qish paytida operator emotsiyalarining o'zgarishi semantik maydon metrikasini lokal darajada o'zgartiradi va bu mayatnik uzunligi, binobarin – tebranishlar davri ham o'zgarishiga olib keladi. Shundan so'ng o'yinga rezonans kirishadi. Bu yerda hamma narsa ong holatining semantik maydon metrikasini lokal darajada o'zgartirish qobiliyatiga asoslanadi<sup>262</sup>.

Mazkur faraz zamirida inson ongi va mayatnikning kvaziongi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi tasavvur yotadi. Bu yerda gap nomexanistik ongning hamma joyda hozir-u nozirliqi haqida boradi. Ushbu tasavvur V. Nalimov va J. Drogalina ilgari surgan ongsizlik modelida aks ettirilgan. Bunda mualliflar inson ongi tabiatshunoslik bilan qamrab olish mumkin bo'lmagan «semantik voqelik»ka «sho'ng'ishi»dan kelib chiqadilar<sup>263</sup>. Shuni hisobga olish lozimki, ongsizlik, garchi uning ko'rinishlari rang-barang va serqirra bo'lsa-da, yaxlit hodisadir. Aniqroq

<sup>261</sup> Налимов В.В. Размышления о путях развития философии // Вопросы философии. 1993. № 9. – 85–86-с.

<sup>262</sup> O'sha joyda. – 90-b.

<sup>263</sup> Налимов В.В., Дрогаллина Ж.А. Вероятностная модель бессознательного. Бессознательное как проявление семантической вселенной // Психол. журн. 1984. Т.5. № 6. – 111–112-с.



aytganda, bu Z. Freydning «ong osti sohasi», K. Yungning «jamoaa ongsizligi», U. Jeymsning «ong oqimlari», R. Bekkning «kosmik ongi», A. Bergsonning «intuitsiyasi», E. Gusserning «transsendent fenomeologiyasi», A. Uaytxedning «boqiy obyektlar kategoriyasi», K. Poppning «uchinchi dunyosi», R. Assajolining «subpersonalligi», Gegelning «o'z-o'zidan rivojlanuvchi ruhi», Platonning «g'oyalar dunyosi»dir. Ongsizlikning bu turli ko'rinishlarini psixologik (semantik) maydonning ko'p darajaliligi haqidagi tasavvur yordamida tavsiflash mumkin. Semantik maydonlar (ongsizlik) nafaqat har bir inson bilan, balki butun insoniyat bilan ham bog'liqdir. Natijada ko'z o'ngimizda «semantik koinot» voqeligi haqida tasavvur paydo bo'ladi<sup>264</sup>.

Ilmiy tadqiqotlar har bir insonning o'z psixologik vaqti borligini ko'rsatadi. Gipnoz, autotrening, meditatsiya, maxsus nafas olish mashqlari, ongning o'zgargan holatiga erishish imkonini beruvchi turli xil ritmik harakatlar o'z ruhiy vaqtining o'zgarishini ham aks ettiradi. Tushlar ham ongsizlik bilan ma'lum darajada bog'liq, ruhiy kasalliklar ham vaqt haqida o'zgacha tasavvur paydo bo'lishiga olib keladi. Semantik koinot (ongsizlik dunyosi) inson ongidan obrazlar (aylana, uchburchak, xoch qabilidagi geometrik simvollar) vositasida o'rin oladi. Bu simvollar tabiiy shakllar: daraxtlarning yaproqlari, gullar, umurtqasiz hayvonlarning shakllari va hokazolarga xosdir. Qadimgi mutafakkirlarga geometriyaning ibodatxonalar memorichiligida gavalantirilgan ezoterizmi ma'lum bo'lgan. Tilimiz so'zlari ongsizlikka kirish bilan bog'liq bo'lgan simbolik jihatga va mantiqiy konstruksiyalarni yaratish imkonini beruvchi diskursiv jihatga, ya'ni ongning diskretligi va kontinualligini ifodalovchi jihatlarga ega. Semantik koinot odatdagi makon-vaqt munosabatlariga bo'ysunmaydi. Buni tushlarning tartibsizligi, ongning o'zgargan holatlari (reinkarnatsion xotiralar), shuningdek «ona qormidagi hayot xotiralari» ham tasdiqlaydi. Semantik koinot arxetipik xususiyat kasb etadi, ya'ni bizning vaqtimizda yuz berayotgan jarayon bilan ayniydir.

Shunday qilib, V. Nalimov va J. Drogalina semantik koinot haqida mulohaza yuritish orqali ongsizlikning taxminiy modeli haqida o'z tasavvurini bayon etadi. Ongsizlikning ushbu modelida har bir insonning individualligi barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan «belgilar maydoni» ustida tuzilgan taqsimlash funksiyasi bilan tavsiflanadi. Odamlarning tiplariga qarab u «ignasimon», «yoyiq» yoki «nosimmetrik» bo'lishi mumkin. Mazkur modelning diqqatga sazovor jihati shundaki, so'zlarning

<sup>264</sup>Налимов В.В., Дрогалина Ж.А. Вероятностная модель бессознательного. Бессознательное как проявление семантической вселенной // Психол. журн. 1984. Т.5. № 6. - 117-118-с.


«semantik maydonlari» madaniyatimizning paradigmatick tajribasini emas, balki madaniyatimizda o'zining aniq ifodasini topmagan olis o'tmishni «anglash»ni ifodalaydi, ya'ni gap qadimgi simvollar, o'tmish miqlarining elementlari va hokazolalar haqida boradi. Shundan kelib chiqib, mualliflar madaniyat ong bilan bir qatorda ongsizlik darajasiga ham ega<sup>265</sup>, degan xulosaga keladi.

**Xulosa.** Sharq va g'arb olimlari va mutafakkirlari uzoq yillar mobaynida jahon maydonining har qanday nuqtasi butun Koinot haqida axborotni o'zida ifodalaydi deb hisoblaganlar. Hozirgi zamon tilida bu Koinot ulkan gologrammani o'zida ifodalaydi, Koinotning har bir nuqtasi esa informativlik jihatidan mazkur gologramma bilan muvofiq keladi degan ma'noni anglatadi. Mazkur axborot golografik interferension (yoki shunga o'xshash) mikrostrukturalarda kodlangan holatda mavjud bo'ladi. Tabiiyki, tirik organizmning ko'rish sistemasi murakkab optik golografik antenna sifatida amal qilar ekan, nurlu golografik koddan foydalanadi. Axborot golografik kodlari aslida rang-barang axborotni o'zida mujassamlashtirgan koinot kodining mikrostrukturalaridir. Inson miyasi koinot kodini axborotning kuzatilayotgan manzaralari ko'rinishida idrok etadi. Bularni bilish telepatiya, ekstrasensorika va shu kabilarning effektlarini tushunish, ayni paytda XXI asr boshida inson fenomenining jihatlaridan biri haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Inson ruhiyatidagi inqilob. Shaxsni somatologik identifikatsiya qilish konsepsiyasi, inson qurquvining yangi obrazlari. XX asr qo'rquv manbai – islom aqidaparastlari terrorizmining paydo bo'lishi, qo'rquvning yangi turi – ekologik halokat xavfi, psixotron urush xavfi. biotexnologiya metodlaridan foydalanish xavfi, bir vujudda «Men»ning ko'p sonliligi, «Men» politsentrik modeli, XXI asr boshida «ong – materiya» falsafiy muammosi.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



<sup>265</sup> O'sha joyda. - 115-116-5.




### «muqaddas terrori» uch muhim jihati

u hozirgi mafkuralarning barchasini rad etadi va hokimiyatni o'z qo'lga olish yoki qo'lida qurol bilan halok bo'lishga intiladi.

hozirgi vaqtda g'arbda «islom terrorizmi» degan nom olgan hodisa «muqaddas urush» - jihadning o'ziga xos shakli sifatida ilgari surilmoqda va amalga

islom terrorizmi ham individual xulq-atvor, ham davlat siyosati nazariyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



### Ong va ong osti sohalarining o'n darajasi

Jinsiy mayllar darajasi (Z.Freyd);
Boshchilik, vetakchilik, hokimiyat darajasi (F.Nitshe, A.Maslou);
Ongning shakllanish darajasi (E.Noyman);
Identifikatsiya (E.Erikson);
Hokimiyat «itimoiv standarti» (M.Fuko);
Milliy identifikatsiya (G.D.Gachev, P.Bezanson);
Tilning topologik talqini va turli «til o'yinlari» darajasi (R.Toma, L.Vitgenshteyn);
Mutlaqo sub'ektiv fan (R.Dekart, I.Nyuton);
Topologik jihatdan inson bilan uzviy bo'lgan strukturalar (P.A.Florenskiy, M.Xaydegger);
San'at va fan arxetiplari (K.Yung, V.Paul).

### K.Rojers xulq-atvor qadriyatlari


inson o'z potentsial imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqarilishi natijasida qadriyat va ahamiyat kasb etishi
individ o'z-o'zini aktuallashtirishi
o'zgarayotgan dunyoga insonning ijodiy moslashishi
bilimlar taraqqiyoti asosida dunyo haqida yangicha tasavvurning shakllanishi.

«ong - materiya» falsafiy muammosi.

Inson hayoti mazmuni va Koinot mavjudligi mazmunining birkishi



**Hozirgi davrga xos bo'lgan qo'rquv quyidagi belgilari**




**Psixologiya**

Inson va uning ongi kosmobiologik va psixosotsial evolyutsiyaning uzoq davom etgan o'zaro aloqasi mahsuli

**K. Yung**

«Teran psixologiyasi»



ong xususiyatlarini anglab yetishga qaratilgan sharq donishmandligining asosiy motivlarini o'z ichiga oladi.

**Qo'rquvning yangi turi**

**XX asrda psixotron urush**

inson ongi, elektronika, tibbiyot va parapsixologiya sohasidagi tadqiqotlar inson miyasi va ongiga muayyan maqsadda ularni boshqarish maqsadida ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi.

- K. Yung «jamoat ongsizligi»
- U. Jeyms «ong oqimlari»
- R. Bekk «kosmik ongi»
- A. Bergson «intuitsiyasi»
- A. Uaytxed «boqiy ob'ektlar kategoriyasi»
- K. Popper «uchinchi dunyosi»
- R. Assajoli «subpersonalligi»
- Gegel «o'z-o'zidan rivojlanuvchi ruhi»
- Platon «g'oyalar dunyosi»

**Mustaqil ishlash uchun sabol va topshiriqlar**

1. Inson ruhiyatidagi inqilob.
2. Shaxsni somatologik identifikatsiya qilish konsepsiyasi.
3. Inson qurquvining yangi obrazlari.
4. Qo'rquvning yangi turi –ekologik halokat xavfi.
5. Psixotron urush xavfi.



6. Biotexnologiya metodlaridan foydalanish xavfi.
7. «Men» politsentrik modeli.

#### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Qaysi olim texnogen sivilizatsiya antropogen sivilizatsiyaga o'rin bo'shatyapti deb hisoblaydi?
  - A. G. Diligenskiy
  - B. G. Markuze
  - C. F. Fukuyama
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. Qaysi olim «tarix o'z intihosiga yaqinlashdi», ya'ni «posttarixiy» bosqich boshlandi deya ta'kidlaydi?
  - A. F. Fukuyama
  - B. G. Diligenskiy
  - C. G. Markuze
  - D. A va B javoblar
3. O'tgan asr boshida R. Bekkning insoniyat haqida uch inqilobi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
  - A. Ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va ruhiy
  - B. Ruhiy, ilmiy va tashkiliy
  - C. Iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy
  - D. Ma'naviy, madaniy va iqtisodiy
4. Transpersonal - bu?
  - A. Insondan tashqaridagi ma'naviy voqelik
  - B. Insonning ichki voqeligi
  - C. Insonning madaniy va ma'naviy olami
  - D. B va C javoblar
5. Hozirgi vaqtda ongning diskretligi va uzluksizligi, inson miyasi va ruhiyati faoliyati hamda ularning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganishga nisbatan yaxlit yondashuv talab etiladi. Bu fundamental muammoni yechish uchun qanday tushunchalar ishlab chiqilgan?
  - A. Barcha javoblar to'g'ri
  - B. «Tug'ma g'oyalari», «kosmik ongsizlik», «kosmik ong»
  - C. «Kollektiv tasavvurlar», «ongsiz strukturalar».

D. «Ongsizlik bironing nutqi sifatida», «kollektiv ongsizlik arxetiplari»

6. XXI yuz yillik «.....» (P. Rassel) bo'lishi haqidagi taxmini tasdiqlamoqda.

- A. Ong asri
- B. Ma'naviyat asri
- C. Ongning yorishishi
- D. Evolyusion davr

7. Shaxsni somatologik identifikatsiya qilish konsepsiyasining ildizlari qaysi davrga borib taqaladi?

- A. Qadimgi mif
- B. Qadimgi din
- C. A va B javoblar
- D. Metafizika

8. Ushbu so'zlar muallifini toping: «Mazkur tasavvur orqali xristianlikning sodda materializmi g'arb ilmiy tafakkuri paradigmasiga kiradi va bugungi kunda shaxsning genotipik belgilanganligini yoki yengilroq ko'rinishda – genotip va muhitning o'zaro aloqasini aniqlash yo'lidagi izlanishlarga aylanadi».

- A. Nalimov. V., Drogalina. A
- B. G. Diligenskiy va F. Fukuyama
- C. G. Markuze
- D. F. Fukuyama va Drogalina. A

9. Ellincha tafakkur qanday yondashuv bilan to'qnashadi?

- A. B va C javoblar
- B. Orfiklar va pifagorchilar ta'limotiga ko'ra jon oliy asos emanatsiyasi
- C. Jon hayotning umumiy aylanma harakatiga qo'shilib, turli mavjudotlar va buyumlar ichiga kirib joylashadi
- D. Jon faqat ilohiy tomondan berilib, so'ng yana qaytib olinadi

10. Qaysi ta'limot vakillarining fikriga ko'ra ruhiy va transruhiy, ichki va tashqi hodisalar, subyekt va obyekt o'rtasida aniq chegara mavjud?

- A. Karteziancha
- B. Ellincha



- C. Dzen-buddizm
- D. Barcha javoblar to'g'ri

11. «Teran psixologiyasi» asari muallifini toping?

- A. K. Yung
- B. G. Markuze
- C. F. Fukuyama
- D. Drogalina. A

12. K.Yung fikriga ko'ra arxaik xususiyat kasb etadi va faqat intuitsiya yordamida idrok etish mumkin bo'lgan, inson fantaziyasining ongsiz faoliyati natijasida turli ro'yolar va diniy tasavvurlar ko'rinishida yuzaga chiqadigan obrazlarning ..... hisoblanadi.

- A. Kantcha «noumenlari»
- B. Arxetiplari
- C. Kalit
- D. Yungning teran psixologiyasi

13. «Arxetiplari» haqidagi bu qoida hozirgi zamon odamining ongiga kiruvchi va uning ruhiyatida inqilobga zamin yaratuvchi mistitsizm fenomenologiyasini tushunish qanday vazifani bajaradi?

- A. Kalit
- B. Bashorat
- C. Nasihat
- D. To'g'ri javob yo'q

14. Ushbu fikr muallifini toping: «Buddizmda og'irlik markazi individuuning o'zida, uning o'z kechinmalarida yotadi».

- A. A. Govinda
- B. F. Fukuyama
- C. Drogalina. A
- D. K. Yung

16. V. Nalimov va J. Drogalina semantik koinot haqida mulohaza yuritish orqali ongsizlikning tahminiy modeli haqida o'z tasavvurini bayon etadi. Odamlarning tiplariga qarab u qanday bo'lishini tavsiflaydi.

- A. Barcha javoblar to'g'ri
- B. «Ignasimon» va «yoyiq»

- C. «Yoyiq» yoki «nosimmetrik»
- D. «Ignasimon» va «nosimmetrik»

17. Kollektiv ongsizlikka nisbatan Yung taklif qilgan yondashuv «.....» metodologiyasiga asoslanadi va postindustrial sivilizatsiyaning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan inson ruhiyatidagi inqilobning o'ziga xos darakchisi hisoblanadi.

- A. Shaxsni individuallashtirish
- B. Antropni rivojlantirish
- C. Shaxsning inqilobi
- D. Antropologik prinsip

18. «Qaysi qonuniga muvofiq yashash – bu shunday bir jarayonki, uning vositasida shaxs va jamiyat manfaatlari qutblari birlashib, ajralmas ittifoq tuzadi. Individ ongli mikroosm sifatida narsalar va hodisalarni an'lab yetuvchi markazga aylanadi».

- A. Mandala
- B. Kodziki
- C. Busido
- D. Nixongi

19. Qo'rquv fenomeni –bu?

- A. Barcha javoblar to'g'ri
- B. Ijtimoiy va madaniy omillar bilangina belgilanmaydi
- C. Dunyoviy hayot evolyutsion yo'lining inson miyasidagi qaydi bilan ham bog'liq
- D. Qo'rquv inson tabiatiga xos xususiyat, uning shakllari va turlariga ijtimoiy-madaniy evolyutsiya jarayonida o'zgaradi

20. Hozirgi davrga xos bo'lgan qo'rquv qanday belgilar bilan tavsiflanadi?

- A. Barcha javoblar to'g'ri.
- B. «Yadro qurolining to'planishi, atom elektrostansiyalari qurilishi, radioaktiv chiqindilar.
- C. Turli xil zaharli kimyoviy moddalarning ko'payishi va shunga o'xshashlar – bularning barchasi soat mexanizmi o'rnatilgan ichki bombalardir
- D. Soatning mili halokat nuqtasi sari to'xtovsiz siljimoqda



21. Nechanchi asrda ommaviy qirg'in quroli qo'llanilishi natijasida insoniyat yalpi qirilib yetishi xavfi bilan belgilangan mutlaq empirik qo'rquv psydo bo'ldi?

- A. XX asr
- B. XIX asr
- C. XVIII asr
- D. XVII – XIX asr

22. Islom aqidaparastlari terrorizmi nechanchi asrda paydo bo'ldi?

- A. XX asr
- B. XIX asr
- C. XVIII asr
- D. XVII – XIX asr

23. Hozirgi zamon terrorizmining har xil turlari orasida islom aqidaparastlarining «muqaddas terrori» boshqa turlari (shakllari)dan qanday jihat bilan ajralib turadi?

- A. Barcha javoblar to'g'ri
- B. Hozirgi mafkuralarning barchasini rad etadi va hokimiyatni o'z qo'lga olish yoki qo'lda qurol bilan halok bo'lishga intiladi
- C. Hozirgi vaqtda g'arbda «islom terrorizmi» degan nom olgan hodisa «muqaddas urush» - jihadning o'ziga xos shakli sifatida ilgari surilmoqda va amalga oshirilmoqda
- D. Islom terrorizmi ham individual xulq-atvor, ham davlat siyosati nazariyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi

25 Qirg yilcha muqaddam J. Dorst sayyoradagi insoniyatni nimaga o'xshatgan edi?

- A. Olmaga tushgan qurtga
- B. Xashakxor bakteriyaga
- C. Yantoq bosgan cho'lga
- D. bahorga

## Adabiyotlar

1. Russel P. The Global Brain. Speculation on the Evolutionary Leap to Planetary Consciousness. – Los Angeles, 1983. – 158-p
2. Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск, 1986. – 6-с.
3. Поликарпов В. С., Поликарпова В. А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 132-с.
4. Роджерс К. Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – Москва: 1994. – 460-с.
5. Кастанеда К. Путешествие в Икстлан. – Киев, 1992.
6. Олдак П. Г. Колокол тревоги: Пределы бесконтрольности и судьбы цивилизации. – Москва: 1990.
7. Джан Р. Г. Нестареющий парадокс психофизических явлений: инженерный подход // ТР. ин. инженеров по электротехнике и радиоэлектронике. 1982. Т. 70. № 3. – 98-с.
8. Гримак Л. П. Магия биополя. – Москва: 1994. – 383–384-с.
9. Винокуров И., Гуртовой Г. Психотронная война. – Москва: 1993. – 342-с.
10. Налимов В. В., Дрогалина Ж. А. Как возможно построение модели бессознательного // Бессознательное. – Тбилиси, 1984. Т. 4. – 86-с.
11. Гроф С. Путешествие в поисках себя. – Москва: 1994.
12. Шаярков В. Б. Нейрофизиологическое изучение структуры психики // Мозг и психическая деятельность. – Москва: 1985. – 5-с.



## IKKINCHI BOB. DINIY FANATIZM FENOMENI

### 7-mavzu: DINIY FANATIZMNING KELIB CHIQISHI, MAZMUNI VA SHAKLLARI

**Diniy fanatizmning tahlili.** Diniy fanatizmning tahlili eng avvalo uning asoslarini aniqlashni taqozo etadi. Bunga ilohiyot, din psixologiyasi va dinshunoslikda keng foydalaniladigan «diniy tuyg'ular» tushunchasining mazmunini aniqlash orqali erishish mumkin. Amerikalik faylasuf va psixolog U. Jems diniy tuyg'ular insonning boshqa tuyg'ularidan o'zining g'ayritabiiy manbai bilan ajralib turadi<sup>266</sup> deb hisoblagan. Bunda u diniy tuyg'ular deganda insonning diniy tusga ega bo'lgan qo'rquv, muhabbat, hayrat, izzat-ikrom, quvonch kabi tuyg'ularini tushungan. Ayni holda bu tuyg'ular «Xudodan qo'rqish», «Xudoga muhabbat», «Xudo bilan muloqot quvonchi» va hokazolar sifatida amal qiladi. Insonning diniy tuyg'ulari g'ayritabiiy obyekt mavjudligiga bo'lgan ishonch bilan sug'orilgan tuyg'ularni o'zida ifodalaydi. Diniy tuyg'ularning ijtimoiy roli ayni shu omil bilan belgilanadi. «Jamiyat mahsul» sanalgan diniy tuyg'ularning paydo bo'lishi zahirida muayyan ijtimoiy sharoitlar yotadi. Ular xuddi din kabi kishilarga ularning kundalik hayotida o'z hukmini o'tkazuvchi g'ayritabiiy kuchlar dunyosining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Insonning diniy tuyg'ulari dunyosi bilan, diniy-mistik dunyoqarash bilan uzviy bog'liq bo'lgan diniy fanatizm dindorlik darajasining ko'rsatkichi sifatida maydonga chiqadi.

Shuni qayd etish lozimki, diniy fanatizmning eng yorqin analogi va ilk obraziga qadimgi shamanizmدا duch kelish mumkin. Bugungi kunda g'arbda bilim va ongning noilmiy shakllari falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Buni ssientizmga salbiy munosabatning kuchayishi va dunyoqarashga doir mo'ljallarning muqobillarini topish yo'lidagi izlanishlar bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak. Gnoseologlar va dinshunoslar davrasida shamanizm va magiyani o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Bunda olimlar shamanizm va magiyani bilish nazariyasida noilmiy fikrlash unsurlarini hamda inson qiziqishlari va qadriyatlarini izlarini topish orqali unga «insoniy tus» berish maqsadida tahlil qilsalar, dinshunoslar magiyaga oqilonalikning o'ziga xos bir tipi sifatida yondashdilar. Eng yangi g'arb falsafasida fan va dunyoqarash noilmiy shakllarining yaqinlashuvi relyativistik tendensiyasi kuzatiladi.

<sup>266</sup> Qitang: Джеймс У. Многообразие религиозного опыта. – Москва: 1910. – 23–24-с.

Masalan, ingliz olimi U. Razerfordning «Shamanizm. Magiya asoslari» kitobida shaman harakatlari, uning magik raqslari, ekstaz va trans holatlari tavsiflanadi<sup>267</sup>. Gulxan atrofida to'plangan qabiladoshlar shamanning ruhi uning tanasini go'yoki tark etib, arshi a'loga sayr qilgani jo'nashini «kuzatadilar». Muallif bunday manzarani Afrika shimoliy qabilalarining ayrimlarida hozir ham kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi. Magiya Mesopotamiya sivilizatsiyasi madaniyatida, daoizmда, zardushtiylikda, island sagalarida, qadimgi yunon miflarida, polineziyaliklarning qadimiy rivoyatlarida, Akrtikadan Avstraliyaga qadar cho'zilgan makonda o'z izini qoldirgan. Shaman «san'ati», uning tabiblik mahorati va tajribasi mahalliy etnik va geografik sharoitlarga bog'liq. «Shaman» atamasi etimologik jihatdan hindyevropa tillaridagi «bilim» tushunchasiga borib taqaladi: shaman – bu «biladigan odam». Antropologlar shaman «ruhlar hukmdori» degan ma'noni anglatishini ta'kidlaydilar, dinshunoslar esa shamanizmni g'ayritabiiylik g'oyasi, animizm va totemizm bilan bog'laydilar<sup>268</sup>.

Shu o'rinda ibtidoiy tafakkurga irratsionalizmning magik totemizm va diniy fetishizm kabi shakllari xos ekanligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Muhimi shundaki, ijtimoiy ong ijtimoiylashgan sotsial onglarning arifmetik yig'indisi bilan ayniy emas, u transindividual va jamoadir. Ijtimoiy ongning jamoa tabiati oxir-oqibat individ ruhiyatiga bog'liq bo'lmaydi, balki jamiyat moddiy bazasining ontologik strukturasi bilan belgilanadi, boz ustiga, intellektual omil ijtimoiy ong rivojlanish jarayonining har qanday bosqichida effektiv-emotsional harakatlarda mavjud bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan vengr olimi Y. Sigetining idealistik dunyoqarashga asoslangan «totemizm mafkurası» ijtimoiy ongning birinchi shakli hisoblanadi<sup>269</sup> degan fikri diqqatga sazovor. U qadimgi jamoalarning o'z xayoliy qobiqlarida oqilon o'zakni yashirgan o'zligini o'zida ifodalaydi. Fransuz etnografi va psixologi L. Levi-Bryul ilgari surgan ibtidoiy tafakkurning ilk mantiqiy, assotsiativ xususiyati haqidagi konsepsiya tahlili ibtidoiy odamlar muayyan asoslarga tayangan holda uzil-kesil xulosalar chiqarganlarida mantiqiy fikrlaganlarini ko'rsatadi. Biroq ularning tafakkuri voqelik bilan muvofiq kelmaydi. Ayni hol ular o'z xulosalarining asosiy qoidalariga notanqidiy yondashganlari bilan bog'liq. Ammo qadimgi odamlar tafakkurining bu nuqsoni ular ijtimoiy munosabatlari rivojlanish darajasining pastligi oqibati hisoblanadi.

<sup>267</sup> Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingborough, 1986.

<sup>268</sup> Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – Москва: 1989; Токарев С.А. Религия в истории народов мира. – Москва: 1986; Фрэзер Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984; Элиаде М. Космос и история. – Москва: 1987.

<sup>269</sup> Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. 1984. № 5. – 138–139-с.



Xususan, magiyaning sotsiomorf va antropomorf xususiyati ayni shu omil bilan belgilanadi. Ibtidoiy tafakkurning fundamental xususiyati shundaki, u jamoa va uning a'zolariga yemish bo'lib xizmat qiluvchi hayvon, totem sifatidagi hayvon bilan ayniylashtiradi: «Totemistik dunyoqarashning o'z mohiyatiga ko'ra o'ta naturalistik bo'lgan «insonning mazmun va mohiyati uning yemishi bilan belgilanadi» degan fundamental qonuni totemizm qonuni hisoblanadi»<sup>270</sup>. Shundan kelib chiqib, mafkuraviy jihatdan inson totem sifatidagi hayvon bilan ayniylashtirilishi ibtidoiy odamlar hayvonlar mehnati obyektining irratsional xulq-atvoriga mehnat oqilona vositalari yordamida barham berishga amalda qodir bo'lmaganlarining ifodasi hisoblanadi, shu tufayli ham ular bunga xayoliy-magik vositalar yordamida erishishga harakat qilganlar deb faraz qilish mumkin. Mazkur idealistik shaklning o'ta naturalistik mazmuni quyidagicha yangraydi: hayvonning insonga aylanishi va keyinchalik uning o'zi diniy fetish darajasiga ko'tarilishi.

Darhaqiqat, magik totemizm ijtimoiy munosabatlar norasoligining mafkuraviy ifodasi sifatida, voqelikni o'zlashtirishning xayoliy vositasi va dinning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Ayni paytda magiya din emas, u fanning ibtidosidir degan fikrni ilgari surgan J. Frezer konsepsiyasining tahlili dastavval magik totemizm ijtimoiy ongning tarkibiy qismlarga bo'linmagan, yagona shaklini o'zida ifodalagan, fan bilan bir qatorda axloq va so'z san'atini, shuningdek, tasvir magiyasini ham o'z ichiga olgan, keyingi bosqichda esa ijtimoiy ongning nisbatan mustaqil bo'lgan bir qancha shakllarida uning mujassamlashuvi yuz bergan degan xulosaga kelish imkonini beradi.

O'z tarixiy «faoliyati»ni ushbu ibtidoiy shaklda boshlagan mafkuraviy fetishizm hozirgi zamon jamiyatida ham yashashda davom etmoqda. U idealistik falsafiy tafakkurga ancha kuchli ta'sir ko'rsatayotir. Mahdudlik kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda qadimgi shamanizm o'zining mistik mo'ljallari bilan birga tiklanayotgani, hozirgi zamon irratsionalizmining ko'pgina shakllari, shu jumladan, diniy fanatizm ham ulardan bahra olayotgani tasodifiy bir hol emas.

U. Razerford fikriga ko'ra, shaman – bu shaxs inqirozini boshdan kechirgan, «ongning evrilishi»ga erishish imkonini bergan maxsus trening jarayonidan o'tgan odam. Shaman «ummon tuyg'usi»ni his qilish orqali «tabiat bilan mulqot qilish» qobiliyatini kasb etadi (Z. Freyd). Hozirgi zamon maglari (L. Grey, M. Xarner, K. Kastaneda va boshqalar)ning so'zlariga qaraganda, ongning «oddiy» va «g'ayrioddiy» holatlari o'rtasida farq mavjud va ongning g'ayrioddiy holatigina dunyo haqida to'g'ri

<sup>270</sup> Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. 1984. № 5. – 138–139-с.

tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu tufayli ham mistik dunyoqarashga xos bo'lgan «voqelikni idrok etishning alohida usuli» shamanizm tafakkurining o'zagini tashkil qiladi<sup>271</sup>.

Shaman dunyoqarashi tabiat haqidagi tabiiy tasavvurlar bilan belgilanadi. U tabiatni tirik mavjudot – inson tanasi sifatida majoziy idrok etadi. Shunga o'xshash g'oyalarga induistlarning dxarma haqidagi ta'limotida, daosizm falsafasida, qadimgi yunonlarning «kosmosi»da duch kelish mumkin. «Koinot – bu kosmosdir degan tasavvur shaman dunyoqarashining o'zagi hisoblanadi»<sup>272</sup>. Tartibga va muvozanatga solingan yaxlitlik sifatidagi kosmos esa tashkilot manbaini nazarda tutadi va shu tariqa monoteizm yo'lidagi birinchi qadam – «Buyuk ruh» g'oyasi vujudga keladi. «Buyuk ruh» mahzaniga erishish uchun shamanga odamlar dunyosi va arshi a'loni birlashtiruvchi bo'g'in talab etiladi. Bunday bo'g'in sifatida muqaddas tog' (Sinay, Olimp, Mesopotamiya zikkuratlari, qadimgi Misr ehromlari, atsteklarning quyosh ibodatxonalari) yoki jahoniy daraxt (skandinavlarda Igdrasil va boshqalar) amal qiladi.

Magik universum strukturasi tushunishda magik sonlar (masalan, «yetti») ulkan ahamiyat kasb etadi. Ular yulduzlarga, kechirilmas gunohlarga, osmon jismlariga yoki dunyo mo'jizalariga tegishli bo'lishi mumkin. Ayni paytda magik kosmologiya odamlar dunyosi va ruhlar dunyosini ham bir-biridan ajratadi. Bu dunyolarni ajratishga, odatda, daryo (masalan, qadimgi yunonlarda Stiks), ularni bir-biri bilan bog'lashga esa mazkur daryo ustiga tashlangan ko'priq xizmat qiladi. Nihoyat tana, ruh va jonning o'zaro nisbati, jonlarning o'z qiyofasini o'zgartirish va boshqa tanaga ko'chib o'tish qobiliyati (metempsixoz) shamanizmida tabiat haqidagi tasavvurni tavsiflaydi.

Shaman faoliyatida magik trans metodikasi alohida rol o'ynaydi. Odatda, ushbu ruhiy holatni o'z hukmiga shamanni bo'ysundirgan iblisning amallaridan biri sifatida tushunganlar. Trans – bu shaman jonining narigi dunyoga «sayohat qilish» usuli. U. Razerford transda faqat niqoblangan aldovni va jaholat belgisini ko'rish noto'g'ri bo'lgan deb hisoblaydi. Hozirgi vaqtda magik transni inson mavjudligining o'ziga xos bir shakli sifatida tushunish imkoniyatini beruvchi dalillar paydo bo'ldi.

**Birinchiidan,** AQShda shamanlar maktabini tashkil qilgan M.Xarnerning shogirdlari fikriga ko'ra, trans paytida ular jon hayotdan go'yoki «xoli» bo'lgan «narigi dunyo»ning ko'rkam manzaralarini xayolan kuzatganlar.

<sup>271</sup> Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingborough, 1986. – 20-p.

<sup>272</sup> O'sha joyda. – 34-b.



**Ikkinchidan**, ayrim kishilarning ular (kasallik paytida, doridarmonlar, musiqa yoki raqs ta'sirida) «ongning boshqa holatlari»ga o'tishni boshdan kechirganlari haqida ma'lumotlari bor.

**Uchinchidan**, paranormal hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning hisobotlari mavjud bo'lib, ularda ayrim kishilarning telepatiya, kelajakni bashorat qilish, biolokatsiya va boshqa qobiliyatlari to'g'risida ko'p sonli faktlar keltiriladi<sup>273</sup>. Shuni ta'kidlash lozimki, shaman dunyoni ekstrasensorika usullari yordamida idrok etishga qodir, uning qobiliyatlari o'ta keng va aqlni lol qoldiradigan darajada rivojlangan.

Bugungi kunda rasm bo'lgan shamanga «shizofrenik» sifatida qarash zamirida «shaman kasalligi» fenomeni yotadi. «Shaman kasalligi»da ruhlar o'zlari «tanlagan» odamni botiniy darajada (tushlarda, gallyusinatsiyalarda) ezoterik bilim sirlari bilan oshno etadilar. Ba'zan ruhlar oddiy odamni uning tushida narigi dunyoga olib ketadilar va bu yerda uni shamanga aylantiradilar: uning bo'lg'usi «sayohatlari» joylarini ko'rsatadilar, ruhlar va ilohlar bilan tanishtiradilar, g'ayrioddiy bilimlar va xususiyatlar bilan o'rtoqlashadilar<sup>274</sup>. Bunday «ta'lim» jarayonida bo'lg'usi shaman unga Yerdan Osmonga yoki Yerdan Arshi a'loda ekstatik «sayohatlar» qilish imkonini beruvchi mistik tajriba orttiradi. U arxaik ongda hukm surgan «uch qavatli» Koinot haqidagi tasavvurga ko'ra ushbu qavatlar – Osmon, Yer va Arshi a'lo o'rtasida harakat qilish sirlaridan xabardor. Koinotning bu uch darajasi markaziy o'q bilan o'zaro bog'lanadi (bu o'qning obrazlari sifatida Osmonning ustuni, dunyoviy daraxt, ko'prik, zinapoya va hokazolar amal qiladi). Koinotning barcha darajalari va mintaqalari bo'ylab ma'naviy «sayohat» qilish, Arshi a'loda yovuz kuchlar va iblislar bilan kurashish, o'z qabiladoshlarining o'tinchlari va xayrehsonlarini Osmondagi xudolarga yetkazish qobiliyatiga faqat shaman ega bo'ladi.

Bu yerda muhimi shundaki, shaman kosmologiya, mifologiyani va o'z qabilasining teologiyasini ulardan «o'zga» dunyolarga mistik, ekstatik «sayohatlar»da o'ziga xos xaritalar sifatida foydalanish uchun o'zlashtiradi<sup>275</sup>. Ushbu «sayohatlar»ning natijalari qabilalar hayot faoliyatiga tatbiq etiladi va qabila mavjudligi uchun muhim bo'lgan turli muammolarni yechish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra shaman bu muammolarni tushunchalar va so'zlar yordamida emas, balki xotiradan o'rin olgan obrazlar bilan manipulyasiyalar qilish orqali yechadi<sup>276</sup>. Masalan, u qabilaning tirikchilik

<sup>273</sup> Qarang: Поликарпов В.С. Наука и мистицизм в XX веке. – Москва: 1989.

<sup>274</sup> Qarang: Басиллов В.Н. Избранники духов. – Москва: 1984. – 55–68-с.

<sup>275</sup> Qarang: Элидзе М. Космос и история. – Москва: 1987. – 151–152-с.

<sup>276</sup> Qarang: Wasilewski J.S. Podroze do pielciek. – Warszawa: 1979. – 173–174-p.

manbai hisoblangan yovvoyi bug'ular podalari qayerga yo'qoldi degan savolga javob berishi lozim bo'lsin. Amalda bunga ko'p sonli omillar: yaylovlardagi o't-o'lanlar holati, shamol yo'nalishi va kuchi, ob-havo va hokazolar ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda oddiy odam mazkur savolga javob berishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noma'lum sabablar juda ko'p. Ammo ba'zi bir «o'zgaruvchilar»ni, hatto, qayd etish ham mumkin emas. Ayni paytda ularning barchasi ong osti darajasida obrazlar ko'rinishida mavjud bo'ladi. Mistitsizm muxlislari faqat shaman ong osti sohasiga «sayohat» qilish orqali bu obrazlarni idrok etishga qodir deb hisoblaydilar. Idrok etish jarayonida obrazlarni saralash va identifikatsiya qilish bir lahzada amalga oshiriladi, zero, bu verbal xotira emas, balki obrazli xotiradir. Idrok etish yakunida shaman, aytaylik quyidagi intuitiv xulosaga kelishi mumkin: «Bug'ularni Sharqdagi vodiya ko'ryapman».

Shaman voqelikni yaxlit hodisa sifatida idrok etsa, shizofrenikning tasavvurida dunyo tarqoqlik, tartibsizlik va beqarorlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Shu tufayli ham shamanni psixopatologik shaxs bilan ayniylashtirish o'rinni bo'lmaydi. Shaman o'z faoliyatida arxaik madaniyatlar doirasida shakllangan yaxlit dunyo haqidagi tasavvurni gavalantiradi va qadimgi jamoalarga o'zini qurshagan dunyoda mo'ljal olish, o'zining kundalik muammolarini yechish imkonini beradi. «Odatda qabila qonunlari sifatidagi tartibga solish mexanizmlarini aynan shaman belgilaydi. Bunday qonunlarning boshlang'ich manbai maslahat so'rash vakolati faqat shamanga berilgan totem hisoblanadi. Shu tariqa og'zaki an'ana vositasida avloddan-avlodga o'tuvchi pretsedentlar va sharhlar majmui asta-sekin vujudga keladi»<sup>277</sup>. Ko'pincha shaman xalq afsonalari va rivoyatlarini yaxshi biluvchi, musiqa asboblari xitiro qiluvchi, rasm chizuvchi, kuychi va qo'shiqchi odam hisoblanadi. U taqvimni ham yuritadi va dastlabki astronomik ma'lumotlarni qayd etadi.

Shamanizm, olovga sig'inish va metallga ishlov berish o'rtasida alohida aloqa mavjud. Shaman faoliyati doirasiga paranormal hodisalar sohasi ham kiradi. Aksariyat hollarda shaman ekstrasens qobiliyatlariga ham ega bo'ladi va dunyoni tasavvur qilishning o'ziga xos uslubi bilan bir qatorda, ko'zga ko'rinmay qolish, uchish, o'zining tashqi ko'rinishi va fizik parametrlarini o'zgartirish, bir paytning o'zida ikki joyda bo'lish qobiliyatiga ham da'vogarlik qiladi. Bularning barchasi shaman qabilada katta obro'ga ega bo'lishini ta'minlaydi, ba'zi hollarda unga shaman va oqsoqol hokimiyatini o'zida birlashtirish imkonini ham beradi.

Umuman olganda, shamanizm real bilimlar va ko'nikmalar, fantaziya, notanqidiy e'tiqod, spontan reaksiyalar, sodda yanglishishlar,

<sup>277</sup> Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellington, 1986. – 61-p.



ko'zbog'log'ichlik, gipnozchilik mahorati va hokazolar yig'indisi hisoblanadi. Shamanizm jahonning ko'pgina madaniyatlaridan fundamental elementlardan biri sifatida o'rin olgani, bir tomondan iudaizm, xristianlik va islom dini, boshqa tomondan esa – iudaizm, buddizm va daosizm o'rtasida ularning shamanizmga bo'lgan munosabatida rang-barang aloqalar mavjudligi tasodifiy bir hol emas. Aynan arxaik e'tiqodlar tizimi sanalgan shamanizmga g'ayritabiiy kuchlarga ko'r-ko'rona ishonch xos bo'lib, bu rivojlangan dinlarda diniy fanatizmning amalda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'luvchi jihatlaridan biri hisoblanadi.

**Diniy fanatizmning asoslari va manbalari** tahliliga o'tamiz. Ular eng avvalo tarixiy rivojlanishning muayyan bosqichida ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va butun jamiyatning manfaatlarini va ehtiyojlarida mujassamlashadi. Diniy fanatizm manbalarini jamiyat hayotida, inson borlig'ining ijtimoiy-madaniy va biologik-ruhiy voqeligida izlash o'rinni bo'ladi. Diniy fanatizm fenomeni asoslari va manbalarining tahlili jamiyat va tabiat aloqalarini tushunishni talab qiladi. Noyob yaxlitlik – inson borlig'ining tabiiy va ijtimoiy darajalari moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasi bilan uzviy bog'liq. Mehnat ong strukturalari, til kabi elementlar bilan bir qatorda inson borlig'ining fundamental bo'g'ini hisoblanadi. Mehnat faoliyati orqali inson o'zini qurshagan dunyoni anglab yetadi, u haqida tasavvur hosil qiladi. Madaniyat dunyosi, inson oningning turli strukturalari va ularni ifodalash vositalari (simvollar tizimlari, xayoliy strukturalar va tuzilmalar mavjudligining simvolik shakllari) aynan mehnat faoliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi. Insonni qurshagan dunyo uni moddiy-hissiy o'zlashtirish jarayonida «simvollar dunyosi», simvolik faoliyat bilan belgilanadiki, ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasining pastligi tufayli ular jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida totemizm, animizm, magiya, shamanizm va din ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Falsafiy tafakkur prinsiplari diniy dunyoqarashni, shu jumladan, diniy fanatizmni, uning asoslari va manbalarini ilmiy tushuntirish imkonini beradi. Ushbu prinsiplarga tayangan holda diniy fanatizm asoslarining quyidagi tipologiyasini tuzish mumkin:

- 1) **ijtimoiy-madaniy asoslar;**
- 2) **ijtimoiy-psixologik asoslar;**
- 3) **biologik-ruhiy asoslar.**

*Uzoq davom etgan biologik va ijtimoiy evolyutsiya jarayonlari o'zaro ta'sirining mahsuli sifatida madaniyat dunyosining vujudga kelishini diniy*

fanatizmning ijtimoiy-madaniy asosi deb nomlash mumkin. Bu yerda ikki muhim omilni qayd etish mumkin:

**birinchi** – ijtimoiy odamning madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish qobiliyati. Ushbu qobiliyat mehnat qurollari evolyutsiyasini ham o'z ichiga oluvchi biologik va ijtimoiy evolyutsiyaning o'zaro aloqasi mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli inson madaniyatni yaratish bilan bir paytda, ushbu jarayonda o'zi ham kamol topadi;

**ikkinchi** – noinsoniy bosqichdan insoniy bosqichga o'tish uzoq vaqt mobaynida asta-sekin yuz bergan. Boshqacha qilib aytganda, madaniyatning rivojlanish tarixi inson zehniyati va qobiliyatlarining obyektivlashuvi tarixi hisoblanadi, zehniyat va qobiliyatlarning rivojlanish tarixi esa madaniyatning mazkur omillar «ingredienti»ga aylanish tarixi sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniyat dunyosi insonparvarlashuv jarayoni bilan, hayvondan insonga o'tish bilan chambarchas bog'liq. Hayvon tajriba bilan bog'liq instinktlarga ega bo'lib, ular hayvonning xulq-atvorini hayotning har bir lahasida boshqaradi. Etologiya sohasidagi tadqiqotlar nisbatan barqaror va o'zgarmas muhitda yashaydigan ayrim hayvonlar xulq-atvori asosan oldindan dasturlashtirilgani va muayyan tartibga bo'ysunishini, o'zgaruvchan muhit sharoitida boshqa hayvonlar xulq-atvori esa me'yordan chetga chiqishni va xulq-atvorning bir nechta variantlaridan birini tanlashni talab qilishini ko'rsatadi<sup>278</sup>. Ayni hol hayvonlarda idrok etish dunyosi va harakatlar (xulq-atvor) dunyosi bir-biri bilan bog'liq degan xulosaga kelish imkonini beradi. Insonda bu ikki dunyo ijtimoiy tarix bilan bilvosita belgilanadi va shu tufayli ham faqat inson o'zi nima qilishi lozimligini amalda bilmaydi.

Shunday qilib, insonda ishonchli qaror qabul qilish va ushbu imkoniyatni aniqlashga ehtiyoj paydo bo'ladi<sup>279</sup>. Moddiy va ma'naviy texnikaning rang-barang arsenalini o'z ichiga olgan madaniyat (mifologiya, din, san'at va h.k.) genezisi zamirida ayni shu ehtiyoj yotadi. Bo'lajak voqealarni bashorat qilishning turli strategiyalari asosida o'z kelajagini qurish imkoniyatini insonga faqat madaniyat beradi. Arxaik madaniyatlarda taqlid ana shunday strategiyalardan biri hisoblanadi. Bunda kelajakni bashorat qilish atrof borliqning u yoki bu hodisalari xususiyatlariga taqlid qilish asosida amalga oshiriladi. Magiya va sehrgarlik taomillari ushbu strategiya bilan uyg'undur. Bunda bashorat asosida keltirilgan qurbonlik darg'azab xudolarni qahridan tushiradi va

<sup>278</sup> Qarang: Мак-Фарлен Д. Поведение животных. – Москва: 1988.

<sup>279</sup> Forbes R.J. Man the Maker. – L., 1958.



ularni inson yoki qabilaning muayyan iltimosini bajarishga majbur etadi.<sup>280</sup> Mazkur strategiya insonda diniy e'tiqodni paydo qiladi va bevosita qaror qabul qilish vaziyatidan uni xalos etadi. Diniy tasavvurlarni aqida sifatida notanqidiy idrok etish oxir-oqibat diniy fanatizmga olib keladi.

Diniy fanatizmning boshqa bir ijtimoiy-madaniy asosi *hokimiyatni egallashga intilish va hokimiyat uchun kurash* hisoblanadi. Har bir inson imkoniyatlarining noaniqligi madaniy evolyutsiyaga o'z hissasini qo'shadi, zero, individning noyobligi uni raqobatga va hayotda o'z o'rmini topish uchun kurashga undaydi. Bu esa boshqa individlar xulq-atvori ustidan nazorat muammosi bilan, ya'ni hokimiyatni egallash va o'z qo'lida saqlab qolish muammosi bilan chambarchas bog'liq.<sup>281</sup> Insoniyat tarixida hukm suruvchi hokimiyatni saqlab qolish shakllaridan biri uni ilohiylashtirish, tajovuzlardan, diniy tabu, ya'ni taqiqlardan uni asrash hisoblanadi.

Tabu qo'yish odati totemizm bilan birga vujudga kelgan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilish va tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Masalan, jinsiy balog'at yoshiga doir tabu bilan jamoadagi jinsiy munosabatlar tartibga solingan, oziq-ovqatga doir tabu bilan esa qabila oqsoqoli, askarlar, ayollar va bolalar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyati belgilangan. Boshqa tabular turar joy yoki oila o'chog'ining daxlsizligi bilan, qabila ayrim a'zolarining huquqlari va burchlari bilan bog'liq bo'lgan. Ba'zi bir buyumlarga, shu jumladan, qabila oqsoqoliga qarashli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga ham tabu qo'yilgan. J. Frezer, L. Vasilev kabi tadqiqotchilar tabuni buzish hollariga qanday qaralganligiga misollar keltiradilar.

Yangi Zelandiyadagi qabilalardan birining oliy martabali va rutbali oqsoqollaridan biri tushlikdan ortgan yeguliklarni yo'l chetida qoldiradi. Qabila a'zolaridan biri bu yeguliklarni topib oladi va tanovvul qiladi. Qabila oqsoqoli tushligidan qolgan taomlarni iste'mol qilganidan xabar topgach, u qattiq azob-uqubatlarda jon beradi. Adabiyotlarda bunday misollar juda ko'p va ularning barchasi diniy tabuning buzilishi uni buzgan odamning o'limiga olib kelganidan dalolat beradi: «Ilohiy shaxs ham ijobiy amallar, ham xavf-xatar manbai hisoblanadi, uni asrab-avaylash bilan bir vaqtda, undan uzoqroq yurish ham zarur. Qabila oqsoqolining ilohiy organizmi shu darajada nozikki, sirdan arzimagan ta'sir ham uning xastalanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayni paytda bu organizmda sehrli va ma'naviy kuchning shu darajada qudratli zaryadi mavjud bo'ladiki, uning ishga solinishi u bilan o'zaro ta'sirga kirishgan har kim uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu tufayli ham bunday tabarruk

<sup>280</sup> Qarang: Клик Ф. Пробуждающееся мышление. – Москва: 1983. – 155–157-с.

<sup>281</sup> Qarang: Кууси П. Этот человеческий мир. – Москва: 1988. – 64–67-с.

zotlar odamlardan uzoqda bo'lishlari ularning shaxsiy xavfsizligi uchungina emas, balki boshqalarning xavfsizligi uchun ham zarur. Ilohiy shaxs xuddi olovga o'xshaydi. Tegishli taqiqlarga rioya etilgan holda undan ko'p foyda olish mumkin, biroq taqiqning buzilishi uni buzgan odamni halokatga giriftor etadi. Ayni shu sababli tabuni buzish shikastli oqibatlarga sabab bo'ladi deb hisoblangan.<sup>282</sup> Qabila oqsoqolining (yoki podshoning) ilohiyligi haqidagi diniy g'oyaga bunday ko'r-ko'rona ishonch, amalda va hayotda unga qat'iy rioya etishga intilish ham diniy fanatizm vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

**Diniy fanatizmning navbatdagi asosi** – bu madaniyatning sotilgan (dunyoviy) qatlamiga zid bo'lgan *sakral (diniy) qatlam*. Ilmiy tadqiqotlarda madaniyat ikki qatlamining o'zaro aloqasiga tavsif berish uchun «sakralizatsiya» va «desakralizatsiya» atamallari ishlatiladi: sakralizatsiya – din doirasidan tashqaridagi narsalar, hodisalar va shakllarga diniy tus berish, ularni ilohiylashtirish; dindorlar tomonidan davlat hokimiyati, xususiy mulk prinsipi kabi ijtimoiy hodisalarga, o'z kelib chiqishiga ko'ra dunyoviy bo'lgan axloqiy normalarga ilohiy tus berilishi, ularning muqaddaslashtirilishi sakralizatsiyaga misol bo'lishi mumkin. Desakralizatsiya, ya'ni diniy deb hisoblangan hodisalarga ularning dunyoviy xususiyatini qaytarish sakralizatsiyaning ziddi hisoblanadi.

Qizig'i shundaki, *fanaticus* atamasi (fanum – «muqaddas joy, ibodatxona» so'zidan) lotin tilida «riyokor», ya'ni o'zini xudojo'y qilib ko'rsatuvchi odam, «munofiq», «ikkiyuzlamachi» so'zlari bilan o'xshash ma'noni anglatgan, keyinchalik esa «jazavali», «johilona», «o'taketgan xurofiy», ba'zan – «ruhlangan» degan ma'nolarda ishlatila boshlagan. Ushbu sifatdan yasalgan «fanatizm» oti biron-bir g'oyaga uni ro'yobga chiqarish yo'lida o'z jonini fido qilishga tayyor bo'lgan darajada bo'ysunishni ifodalay boshlagan. Shunday qilib, diniy fanatizm madaniyatning sakral sohasi bilan uzviy bog'liq.

XX asr etnografik va madaniy-antropologik tadqiqotlari qo'sh qarama-qarshiliklar kodi mavjud sivilizatsiyalarning ko'pchiligi uchun voqelikni tavsiflash usuli bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Masalan, «chap» - «o'ng», «ayol» - «erkak», «diniy» - «dunyoviy» qabilidagi tushunchalarning juftliklari voqelikni tavsiflash imkonini beruvchi kategoriyalar tizimini tashkil qiladi. Bashariyat miqyosida mazkur qarama-qarshiliklar «*Kosmos*» - «*Xaos*» juftligida namoyon bo'ladi. «*Kosmos*» - muayyan qoidalarga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi odamlarning tartibli dunyosi; «*Xaos*» - tartibsiz yot dunyo. Ko'pgina vaziyatlarga «*Kosmos*»ni

<sup>282</sup> Фрезер Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984. – 196–197-с.



ikki qarama-qarshi dunyo: odamlar dunyosi va oliy, sakral dunyoga ajratish xosdir. Sakral dunyoda mistik qahramonlar va xudolar yashaydi. Aslini olganda bu insonning dunyo va unga nisbatan xulq-atvorning tegishli usullari haqidagi tasavvurlari yig'indisidan boshqa narsa emas. U jamoa hayotini muayyan me'yorlar va andozalarga muvofiq tartibga soluvchi ideal model hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, inson hayotini sakral kuchlar boshqaradi. «Sakrallashtirilgan narsalar va hodisalargina muhimdir, - deb ta'kidlaydi V. Toporov. - Amalda kosmosning tarkibiy qismi hisoblanadigan, undan kelib chiqadigan, unga daxldor bo'lgan narsalar va hodisalargina sakrallashtirilgandir»<sup>283</sup>. Bu sakral sivilizatsiyalar odamiy xulq-atvori va tafakkuriga xos bo'lgan xususiyatlarni tushuntiradi.

Sakral sivilizatsiyalarda din vertikal dunyo modeli sifatida amal qilgan. Bu yerda odamlar taqdirini boshqaruvchi kuchlar sirli dunyoda mavjud bo'lgan va insonga bo'ysunmagan. Diniy-mifologik (sakral) madaniyatlar zamirida aynan bir taraflama vertikal bog'lanishlar dunyosi yotadi. Bu dunyoda inson o'z voqeligi subyekti hisoblanmaydi, odamlar yashayotgan voqelik g'ayritabiiy, ilohiy dunyoga bog'liq bo'ladi. Fikrlash, narsalar va hodisalarni tushuntirish usuli va tartibi dunyoning ayni shu tartibi bilan belgilanadi. Diniy-mifologik tafakkur odamlar dunyosidagi narsalar va hodisalarni tabiat qonunlariga bo'ysunmaydigan g'ayritabiiy borliqqa murojaat etish yo'li bilan «tushuntiradi». Boshqacha qilib aytganda, turli diniy va mistik ta'limotlarning inson sezgilari dunyosidan ma'naviy voqelikning ustunligi haqidagi fundamental qoidasi mazkur tafakkurning o'zagi hisoblanadi.

Biz uchun muhimi shundaki, sakral sivilizatsiyalarning ijtimoiy strukturalarida hokimiyat vertikal tarzda va faqat bir yo'nalishda – yuqoridan pastga qarab tatbiq etilgan. Shu tufayli ham xudoning yerdagi soyasi – podsho saroyidan chiqqan so'z ijtimoiy ahamiyatga molik so'z sifatida e'tirof etilgan. Ushbu ilohiy cho'qqidan tarqaluvchi so'zlar buyruqlar, hukmlar, farmoyishlar hisoblangan. Ular ishlarda g'aydalantirilishi shart bo'lgan. Quyi ijtimoiy qatlamlarning so'zlari esa faqat kam ahamiyatli fikrlarni ifodalagan. Podshodan chiquvchi ilohiy, «buyuk» haqiqatlar tanqiddan xoli bo'lgan va e'tiqod sifatida idrok etilgan. Diniy fanatizm ayni shu «haqiqatlar»dan bahra olgan. Ijtimoiy hayot strukturasida tub o'zgarishlar yuz berib, tabular ham ijtimoiy faoliyat va qarorlar qabul qilish subyektlariga aylangach, yangicha fikrlash uslubi paydo bo'lgan va «buyuk» haqiqatlarni «kichik» haqiqatlardan keltirib

<sup>283</sup> Toporov V.I. O kosmologicheskikh istochnikakh rannistoricheskikh opisaniy // Tруды по знаковым системам. – Тарту 1973. Т. 6. – 114-с.

chiqarish asta-sekin odat tusini olgan. Abstrakt tafakkurning diniy aqidalar qobig'iga o'ralgan ilohiy mentorligiga cheklovlar o'rnatilgan va u erkin fuqarolarning ijtimoiy nazorati ostiga olingan. Ushbu jarayon qadimgi yunon demokratik madaniyatining shakllanish bosqichiga xosdir<sup>284</sup>. Mazkur demokratiyalashuv jarayoni intellektual nuqtai nazardan ulkan ahamiyat kasb etadi, zero, ilgari harbiy aristokratiya va dindorlar imtiyozi hisoblangan ma'naviy dunyo qadriyatlaridan oddiy xalqning bahramand bo'lishi asta-sekin ular din hukmi ostidan chiqarilishiga, ya'ni desakralizatsiya jarayoniga olib keldi.

Nihoyat, diniy fanatizm kurtaklariga universal madaniy hodisa hisoblangan askeza yoki tarkidunyochilikda duch kelish mumkin. O'ta arxaik jamiyatlarda o'g'il bola og'ir jismoniy sinovlarni o'z ichiga olgan ta'lim jarayonidan o'tganidan keyingina an'anaviy initsiatsiya yo'li bilan balog'at yoshiga to'lgan erkak maqomini olgan. Qadimgi Hindistonda quyi tabaqalarning vakillarini askezadan o'tkazish man etilgan, bu faqat oliy brahmanlar tabaqasining imtiyozi hisoblangan. Qadimgi Spartada afsonaviy Likurg tomonidan joriy etilgan nizomlar ham faqat harbiy aristokratiya uchun majburiy sanalgan, erkin aholining qolgan qatlamlari esa odatdagi hayot bilan yashagan. Askeza va hokimiyatning shunga o'xshash aloqasi Platonning «Davlat» asarida ham aks ettirilgan. «Murakkablashtirilgan xulq-atvor barcha hollarda atrofdagilardan ustunlikni va ijtimoiy nufuzni namoyish etish vositasiga aylanadi...»<sup>285</sup>. Pirovard natijada qadimgi yunon madaniyati doirasida amal qilgan askeza insonning ichki dunyosini o'zgartirishga, xudo darajasiga erishishga qarab mo'ljal olgan.

Ilohiy holatni anglab yetish va his qilish (ya'ni mistik ekstaz holatiga erishish) uchun uzoq ruhiy-jismoniy tayyorgarlikdan o'tish talab etiladi. Askeza ayni shunday tayyorgarlikning muqarrar elementi hisoblanadi. Ekstazda mistitsizm muxlisi ma'naviy absolyut bilan uyg'un birikadi. Bunday holatga erishish usullari doirasi ancha keng (jazavali raqs tushishdan uzlatninish sharoitda o'z surishgacha). Ammo har qanday holda ham diniy fanatizm zamirida yotuvchi mistik «tajriba»ni asketizm psixotexnikasi yordamisiz o'zlashtirish mumkin emas. Asketizm psixotexnikasi insonga o'zining ichki ruhiy va fiziologik holatlarini boshqarish imkonini beradi. Mistik kechinmalar ta'sirida insonda din bilan bog'liq bo'lgan savdoyilik holati vujudga keladi. Mazkur holat individ

<sup>284</sup> Qitang: Вернан Ж.-П. Происхождение древнегреческой мысли. – Москва: 1988.

<sup>285</sup> Рабинович Е.Г. «Жизнь Аполлония Тианского» Флавия Филострата // Филострат Флавий. Жизнь Аполлония Тианского. – Москва: 1985. – 256-с.



o'zining dunyoviy tajribasidan va umuman o'z shaxsiyatidan uzoqlashishi bilan tavsiflanadi.

Ayni paytda ijtimoiy siyosat elementi sifatidagi asketizm va individual yashash uslubining tavsifi sifatidagi asketizmni farqlash zarur<sup>286</sup>. Birinchi holda individga ko'proq mos keluvchi yashash uslubi sifatidagi asketizmga yo'lni jamoat ko'rsatadi. Ikkinchi holda esa individual yashash uslubi sifatidagi asketizmni shaxsning o'zi tanlaydi. Bunga antik madaniyat doirasida ancha keng tarqalgan va insonning hayot faoliyatida ikki vazifani bajaradigan asketizm misol bo'lishi mumkin. Bir tomondan, uning maqsadi individning hayotda yutuqlarga erishish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarini mumkin qadar rivojlantirishdan iborat bo'lgan, mazkur qobiliyatlarini rivojlantirish esa ko'rsatmalar va taqiqlar yordamida amalga oshirilgan. Asketlar, xuddi yuksak martabali zotlar kabi muayyan ierarxiya doirasida yuksak mavqega shu yo'l bilan erishish uchun qo'shimcha qoidalarga rioya qilganlar<sup>287</sup>. Boshqa tomondan, og'ir yashash tarzi antik polis (shahar-davlat) fuqarolari o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalanishni bartaraf etish, ularni bir-biri bilan yaqinlashtirish, bitta katta oilaga ularni birlashtirish imkonini bergan<sup>288</sup>. Asketizmning mazkur ideali dabdabozlikka, ijtimoiy tengsizlikka urg'u berishga, turli tabaqa vakillari o'rtasidagi adovatga qarshi qaratilgan edi. U shahar-davlatning yaxlitligiga, barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasida muvozanatni saqlashga ko'maklashardi.

**Diniy fanatizm asoslarining ikkinchi guruhiga ijtimoiy-psixologik asoslar kiradi.** Bu yerda gap inson ruhiyatining ijtimoiy jihati haqida gap boradi. Avvalambor, sinfiy jamiyatlar, ayniqsa totalitar rejimlar sharoitida bunday asoslar sifatida *o'limdan qo'rqish hissi* va *hayot mazmunining tagiga yetish yo'lidagi izlanishlar* amal qiladi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq inson o'lim muqarrar ekanligini biladi. Bu bilimni u madaniyat tufayli o'zlashtirgan. Aynan madaniyat o'lim haqidagi tasavvurni inson ongida obyektivlashtirish orqali yo'qlik qarshisida ekzistensial qo'rquv manbai sifatida maydonga chiqadi. Madaniyat ekzistensial qo'rquvni paydo qilish bilan bir vaqtda, uni neytrallashtirishga ham harakat qiladi. Dunyoni diniy-mifologik tushunish ekzistensial qo'rquvni neytrallashtirish vositasi hisoblanadi. Abadiyat tushunchasi va balki uning yordamida o'limni sakral nuqtai nazardan anglab yetish (unga mazmun baxsh etish) yo'qlik qarshisidagi qo'rquv hissini tarqatishning asosiy vositalaridir. Har bir madaniyatda dafn marosimi va abadiy barhayotlik g'oyasi mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan bog'lanadi. Ayni

<sup>286</sup> Qarang: Веден И.Ф. Бытие человека: деятельность и смысл. – Рига, 1987. – 145-с.

<sup>287</sup> Qarang: Рабзинович Е.Г. «Жизнь Аполлония Тианского» Флавия Филострата // Филострат Флавий. Жизнь Аполлония Тианского. – Москва: 1985. – 255-с.

<sup>288</sup> Qarang: Вернан Ж.-П. Происхождение древнегреческой мысли. – Москва: 1988. – 84-с.

holda inson hayoti kichik bir epizod sifatida dafn marosimi esa – abadiyat darchasi sifatida tavsiflanadi. Inson mayitini dafn etishni sakral marosimga aylantirish orqali madaniyat ekzistensial qo'rquvni instituallashtiradi, unga obyektiv tus beradi. O'limning muqarrarligini tushunish, odatda, bolalikdan boshlanadi. Hayot strukturasi o'limning asta-sekin kirib kelish jarayoni ayni paytda yo'qlik qarshisida qo'rquvning paydo bo'lishi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Arxeologik ma'lumotlar dafn marosimlari neandertal odamga ham yot bo'lmaganligini ko'rsatadi. Binobarin, o'limdan keyingi mavjudlik haqida «g'am chekish» primitiv odamga ham xos bo'lgan. Ayni shu sababli neandertal odam o'z mavjudligiga cheklilik va abadiyat, ya'ni vaqt nuqtai nazaridan yondashgan. Shu ma'noda ingliz dinshunosi S. Brendonning din inson vaqtini anglab yetishi natijasida vujudga kelgan, uning vaqtga bo'lgan munosabati zamirida idrok etishning har xil tiplari, shu jumladan, vaqtini ilohiyashtirish yotadi<sup>289</sup> degan fikriga qo'shilish mumkin. Zotan, din insonga o'lim qarshisidagi qo'rquv hissini yengishga yordam beradi, vaqtini orqaga qaytarib bo'lmasligini tan olish bilan bog'liq ruhiy iztiroblardan uni xalos etadi. Shunday qilib, din (ashaddiy dindorlik sifatidagi diniy fanatizm) insonga «narigi» dunyoda abadiy hayotni taklif qilish orqali, o'limni umrboqiylikka o'tish sifatida tushuntiradi, hayotga mazmun baxsh etadi va shu tariqa tezoqar hayot silsilasida xavfsizlik hissini shakllantiradi.

Insonning vaqtga va hayot mazmuniga bo'lgan munosabati bilan bog'liq masalalar mifologiyalar va dinlar, san'at va falsafa diqqat markazida bo'lgani tasodifiy bir hol emas. Turli sivilizatsiyalar, tarixiy davrlar va ijtimoiy qatlamlarda yaratilgan konsepsiyalar, chunonchi: abadiy qaytish g'oyasi, metempsixozga (jonning boshqa tanaga ko'chib o'tish qobiliyatiga) bo'lgan ishonch, individual umrboqiylik haqidagi tasavvurlar vaqt hukmidan xalos bo'lishga qaratilgan edi.

Inson hayoti mazmuni tushunchasining o'zi kishilik jamiyati rivojlanish jarayonining ancha yuqori bosqichida, aniqroq aytganda, urug'doshlik aloqalari zavol topa boshlagan, jamiyatning sinflarga ajralishi yuz bergan davrda paydo bo'ladi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra qarilik va o'limni chetlab o'tish orzusi xitoylarda miloddan avvalgi VII–V asrlarda shakllanadi. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda qadimgi yunon jamiyatida individning hayoti jamoat manfaatlaridan ustun qo'yila boshlaydi, zero, eski stixiyali kollektivizm inqirozga yuz tutgan, inson o'zini urug'doshlik jamoasi qonunlari bilan bog'liq deb hisoblamay qo'ygan edi. U afsonaviy ajdodlarning jasoratlaridan ko'ra ko'proq o'z

<sup>289</sup> Qarang: Brandon S.G. Deification of Time // Studium Generale. 1970. Vol. 23. Fasc. 23. – 485–497-с.



hayoti bilan qiziq boshlaydi. Mazkur psixologik inqilob shunda o'z ifodasini topadiki, qahramonlik eposi bevosita insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi lirik poeziyaga o'rin bo'shatadi. Kolofonlik Mimmern (miloddan avvalgi VII asr) inson yoshligining qisqaligi, qariliq azobi haqida hikoya qiluvchi sentimental lirika ijodkori hisoblanadi. Umuman olganda, inson borlig'ining muayyan sharoitlari ta'sirida vujudga kelgan din o'z muxlisiga o'lim qarshisidagi qo'rquvni yengish va hayot mazmunining tagiga hech bo'lmasa xayolan yetish imkonini beradi. Biroq insonga hamma narsaga shubha ko'zi bilan qarash xosdir. O'lim va yo'qlik qarshisidagi qo'rquvni yengishga u doim ham muvaffaq bo'lavermaydi. Inson – tink mavjudot. U o'z-o'zini asrash instinktiga ega. Inson o'lishni istamaydi, biroq, shu bilan birga, jahonning barcha xazinalari evaziga ham o'limdan qutulib qolish mumkin emasligini u yaxshi angelaydi. Aynan shu yerda o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan diniy e'tiqod insonda o'limning haqligiga bo'lgan ishonchni tag-tomiri bilan qo'porib tashlaydi, unda inson ruhining umrboqiyiligi hissini qaror toptiradi. Bunday kuchli e'tiqod o'lim qarshisidagi qo'rquvni va hatto o'limning o'zini ham inkor etish shakli – diniy fanatizm sifatida maydonga chiqadi.

*U yoki bu jamoani birlashtiruvchi va uni boshqa jamoa bilan qarama-qarshi qo'yuvchi ijtimoiy psixologiyaning ziddiyatlarga to'laligi* ham diniy fanatizmning ijtimoiy-psixologik asoslaridan biri hisoblanadi. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya va lingvistika ma'lumotlari bashariyat tarixining tongidayoq jamoalar, qabilalar va lokal guruhlar «biz» va «ular», «o'zinikilar» va «begonalar» o'rtasidagi munosabatni sun'iy vositalar (shevalardagi, mehnat va jang qurollaridagi, turar joylardagi, ro'zg'or buyumlaridagi, taqinchoqlardagi, diniy e'tiqodlardagi farqlar) yordamida sirtida ifodalaganlari va ruhiyat darajasida mustahkamlaganlaridan dalolat beradi. Bularning barchasi o'z shakl-shamoyilini o'zgartirgan holatda hozirgacha saqlanib qolgan<sup>290</sup>. Buning dalili sifatida turli etnik guruhlariga mansub kishilarning o'zaro hazillari va payrovlarini yoki bo'lmasa etnik kelishmovchiliklar zahirida sodir bo'lgan to'qnashuvlarni keltirishning o'zi kifoya qilsa kerak.

O'z jamoasi yoki qavmini boshqa jamoa yoki qavmga qarama-qarshi qo'yish barcha zamonlarda o'z etnik va diniy farqlarini shakllantirish va ularni mustahkamlashga ko'maklashgan. Jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bu kontagiozlik bo'rtib namoyon bo'ladi. Dinlar tarixidan bizga ma'lumki, urug'doshlik jamoasining shakllanish jarayonida totemga oid tasavvurlar ulkan rol o'ynagan, aniqroq aytganda, «o'zinikilar», ya'ni mazkur totemga mansub bo'lgan, mavjud me'yorlar va odatlar himoyasi

<sup>290</sup> Поршнев Б.Ф. Социальная психология и история. – Москва: 1979. – 96–116-с.

ostiga olingan kishilar hamda «begonalar», ya'ni mazkur totemga mansub bo'lmagan va shu tufayli ham ushbu guruhda qabul qilingan me'yorlar va odatlar doirasidan tashqarida bo'lgan odamlar haqida aniq tasavvur paydo bo'lishiga aynan ular ko'proq darajada zamin yaratgan<sup>291</sup>. Totemizmdning mazkur ijtimoiy ahamiyati totemistik tasavvurlar evolyutsiyasining xususiyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan: totemli ajdod, yaqin qarindosh sifatidagi totem, insonning o'z totemli qarindoshi bilan nikoh rishtalari, reinkarnatsiya, ya'ni inson, shu jumladan, vafot etgan ajdod ruhining o'z totemiga o'rinishi haqidagi tasavvurlar birinchi o'ringa chiqqan boshlagan. Bularning barchasi jamuljam holda ajdodlar ruhiga sig'inish rolining oshishiga, ularning g'ayritabiiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchning kuchayishiga olib kelgan. Mazkur ishonch g'ayritabiiy kuchlar haqidagi ezoterik bilimlardan qabila darajasida xufyona informatsion boshqarish uchun foydalanish imkoniyatini.

Ezoterik bilimlar anglab yetishda avvalo ezoterik qadriyatlar tizimi, tarkibiy elementlarini bilish talab etiladi<sup>292</sup>. Etnografik va arxeologik ma'lumotlar turli xalqlarda qabila darajasida ezoterik xususiyatga ega bo'lgan yashirin diniy-magik uyushmalar tuzilganini ko'rsatadi. Mazkur uyushmalarning a'zolari ixtiyorida mavjud bo'lgan odamlarni samarali boshqarish yo'llari haqidagi axborot ularga qabilaning boshqa a'zolarida qo'rquv uyg'otish va ularni itoat etishga majburlash imkonini bergan. O'z a'zolaridan ular eng avvalo yashirin uyushma sirlarini saqlashni va mazkur uyushma sardorlariga so'zsiz itoat etishni talab qilganlar. Ular o'z faoliyatida foydalanish uchun qabilaning boshqa a'zolariga tushunarsiz bo'lgan maxsus ezoterik til (shifrnig bir turi)ni ham yaratganlar.

Sirlarning to'siqlari shu darajada samaraliki, yashirin uyushmalar faoliyatini o'rganuvchi hozirgi olimlar ham ulardan oshib o'tishga qodir emaslar. Masalan, Melaneziyada xufyona initsiatsiyalarni buning uchun maxsus mo'ljallangan joylarda amalga oshiruvchi yashirin uyushmalar mavjud<sup>293</sup>. Mazkur rasm-rusumlar va diniy e'tiqodlar mazmuni hanuzgacha o'rganilmagan, faqat tarqalgan mishmishlardan uyushma faoliyatining diniy-mafkuraviy mazmuni ma'lum. Shu narsa aniqki, diniy-magik tusdagi bunday yashirin uyushmalar o'ziga xos aqidalarni o'z ichiga olgan ikki darajali diniy-mafkuraviy tizimlarni yaratadilar. Mazkur tizimlardan biri qabilaning oddiy a'zolarini mafkuraviy dasturlashtirish uchun, ikkinchisi esa – yashirin uyushma a'zolarining faoliyatini dasturlashtirish uchun zarur.

<sup>291</sup> Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 32-с.

<sup>292</sup> Хидиров М.Т. Дунёнинг эзотерик манзараси шаклланишининг иктимой-маданий омиллари // Имом Бухорий сабоқлари – Тошкент: 2018. №3 84-87 б.

<sup>293</sup> Qarang: Тоқаров С.А. Религия в истории народов мира. – Москва: 1986. – 80–81-с.



Yashirin uyushmaga a'zo bo'lganidan so'ng muxlis ichki diniy-mafkuraviy tizim sirlaridan xabar topadi, kishilarni samarali boshqarishning turli usullari va yo'llarini o'zlashtiradi. Muxlisni uyushmaga qabul qilish marosimi odatda uning o'lishi va tirilishi ramziy sahnasini o'z ichiga oladi. Yashirin diniy-magik uyushmalarning rasm-rusumlari xayoliy ruhlarning qo'rqinchli liboslarida, niqoblarda jazavali raqslarni o'zida ifodalaydi. Bunday yashirin uyushmalarning ishtirokchilari ba'zan mazkur rasm-rusumlarni qabilaning boshqa a'zolarini do'pposlash, ularga boshqacha usulda tazyiq o'tkazish yo'li bilan oshkora bajaradilar. O'tgan asrning 70-yillarida Afrika mamlakatlarida paydo bo'lgan siyosiy tusdagi yashirin uyushmalar ham ijtimoiy jarayonlarni boshqarish uchun shunga o'xshash sotsial texnologiyalardan (magiya, psixologiya, parapsixologiya, tabobat sohasidagi bilimlardan) foydalanadilar. Umuman olganda, bunday yashirin diniy uyushmalar qabilaning ayrim a'zolari boshqalarga o'z hukmini o'tkazishlari uchun magiya, psixologiya va tibbiyot usullari majmuidan to'la foydalanadilar deb aytish mumkin.

Jamiyat rivojlanish jarayonining yuksakroq bosqichlarida yashirin boshqarish tizimi eng avvalo sakral sivilizatsiyalar, chunonchi: qadimgi Misr, Assiriya, atsteklar, inklar sivilizatsiyalari doirasida rivojlanadi va takomillashib boradi. Ularda kohinlardan iborat bo'lgan sakral apparat bilan chatishgan davlat hokimiyatining murakkab mexanizmi yaratiladi. Qadimgi kohinlar o'z hokimiyatini kuchaytirish uchun yashirin bilimlardan faol foydalanadilar, o'zlari inson va xudolar o'rtasida vositachi hisoblanishlari, xudolarga ehsanlar keltirish yo'li bilan ularning iltifotiga sazovor bo'lish mumkinligi haqidagi fikrni odamlar ongiga singdiradilar. Sharq, Markaziy va Janubiy Amerikaning sakral sivilizatsiyalarida kohinlar qarshisida qo'rquv odamlarni qurbonlik keltirish yo'li bilan qo'llab-quvvatlangan. Xudolarga odamlarni qurbonlik keltirish atsteklarda rasm bo'lgan. Ko'pincha harbiy asirlarni ba'zan qullarni va hatto o'z farzandlarini qurbonlik keltirganlar. Xudolarga qurbonlik keltirish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun atsteklar qo'shni qabilalar bilan tez-tez urush qilishga majbur bo'lganlar. Odatda qurbonlik keltirish odamning ko'ksidan yuragini sug'urib olib, xudolarga tuhfa qilishdan iborat bo'lgan. Biroq ba'zi rasm-rusumlar bundan ham shafqatsizroq bo'lgan, masalan Kaipe-Totek xudosining sharafiga kohinlar tirik odamdan terisini shilib olganlar va bir necha kun mobaynida unga burkanib yurganlar. 1487-yil ulkan ibodatxonani muqaddaslashtirish marosimi chog'ida yigirma ming kishi xudolarga qurbonlik keltirilgan. Shu tariqa diniy fanatizmga ayniqsa xos bo'lgan tuyg'u – «begonalar»ga o'ta toqatsizlik shakllangan.

Diniy fanatizmning yana bir ijtimoiy-psixologik asosi sifatida inson hayot faoliyatining ijtimoiy-madaniy kontekstiga bog'liqlikka bo'lgan ishonch hissi amal qilishi mumkin. Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar ishonch hissi, biror narsaga e'tiqod qilish qobiliyati inson miyasi faoliyat dasturining markazlaridan biri hisoblanishini, bilim ishonch, e'tiqodga tayanishini, diniy e'tiqod esa har qanday ishonch va e'tiqodning ayrim ko'rinishi hisoblanishini ko'rsatadi<sup>294</sup>. Bizni diniy fanatizmning muqarrar elementi hisoblanuvchi o'taketgan yovuz, johilona diniy e'tiqod qiziqtiradi. Shu nuqtai nazardan bxayravlar (dahshat uyg'otuvchilarning tantrik amaliyotida Sumatra va Yavadagi ko'p sonli ibodatxonalarda o'tkazilgan Xeruki ilohining ruhiga sig'inish marosimlarida (XIII–XIV asrlar) meditatsiya va iloh bilan ekstatik birikishga erishish shakllari diqqatga sazovordir.

Ilohlarga, shu jumladan Xerukiga sig'inish marosimlarini bxayravlar, odatda, tunda murdalarni yoqish uchun mo'ljallangan maydonchalarda o'tkazganlar. Ilohlarga qurbonlik keltirilgan odamlarning tanalari tutab yotgan bu maydonchalarda marosimning asosiy qismi – navbatdagi odamni qurbonlik keltirish ham amalga oshirilgan. Kuyayotgan odam go'shtining hidi qancha kuchli bo'lsa, sig'inish obyektiga u shuncha ma'qul deb hisoblangan. Tabiiyki, tosh devorga o'yib yozilgan bitiklardan birida bu hid son-sanoqsiz gullarning yangi tug'ilishlardan xalos qiluvchi atriga qiyoslanadi (qadimgi hindularning ayrim qabilalarida cheksiz reinkarnatsiya qurquv hissini uyg'otgan, chunki yangi hayot kasalliklar, azob-uqubatlar va hokazolar bilan uzviy bog'liq bo'lgan). Bxayravlarning oyoq-qo'llari bog'langan, ko'ksi va qorni ochilgan qurboni osmonga qarab yotqizilgan. Kohin uning qornini pichoq bilan pastki qovurg'alarigacha yorgan va talvasada jon taslim qilayotgan tana ustiga o'tirib, uning yuragini kesib olgan, bosh chanog'ini qonga to'ldirgan va uni bir simirishda bo'shatgan. Oliy, samoviy sharob hisoblangan bu «ichimlik»dan u asta-sekin mast bo'lgan, gulxan yoqqan va uning atrofida zikr tushib aylangan (meditatsiya bilan shug'ullangan). Yarim tunga yaqin kohin odatda bxayravning oliy maqsadi – mistik ekstazga erishgan<sup>295</sup>.

Yuqorida tavsiflangan holatda diniy e'tiqod diniy fanatizmning asosi bo'lib xizmat qiladi, zero, bu yerda u iloh dunyoning ko'zga ko'rinmas teran asosini tashkil qilishini nazarda tutuvchi tantrik indu-buddizmning aqidalar tizimi bilan bog'liq. Moddiylik kishanlaridan muxlisning xalos bo'lishi va mazkur ma'naviy absolyut bilan birikishiga askeza hamda o'zini Koinotda namoyon etuvchi iloh (makrokosm) va uning muxlisi

<sup>294</sup> Поликарпов В.С. Наука и мистицизм в XX веке. – Москва: 1989.

<sup>295</sup> Брагинский В.И. Хамза Фансури. – Москва: 1988. – 66–67-с.



(mikrokosm)ning ayniyligi haqidagi ta'limotga asoslangan yoga amaliyoti orqali erishiladi. Ekstazga ilohning insonda bevosita «mavjudligi» tufayli erishiladi, unga «Men»ning to'liq singib ketishi yuz beradi va bu bo'lg'usi ozodlik belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Diniy fanatizmning ijtimoiy-psixologik asoslariga turli *orgiastik rasm-rusumlar va misteriyalar* ham kiradi. Din tarixida mazkur aloqaga ishora qiluvchi misollarga ko'plab duch kelish mumkin.<sup>296</sup> Masalan, hosildorlik orgiastik rasm-rusumlariga yalang'och yurish, «aqlsizlik», magiya, sehrgarlikka moyillik va hokazolar xos. Bunga misol tariqasida spartaliklarning har yili ma'buda Diana sharafiga o'tkaziladigan bayram paytida uning mehrobi qarshisida yosh yigitlarni savalash odatini keltirish mumkin. Shunga o'xshash odat qadimgi Misrda Buyuk iloha sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan bayram marosimida ham mavjud bo'lgan, bu yerda qurbonlik keltirish paytida uning muxlislari bir-birlarini xivchin bilan savalaganlar. Apuleyning «Metamorfozalar» asarida o'tkir pichoqlar bilan o'z tanasini tilkalagan va bir-birini xivchin bilan savalagan Suriya ma'budasi koinlari to'g'risida ham so'z yuritiladi. Bu yerda mazkur harakatlar va bichilgan koinlar ekstazi o'rtasidagi aloqa birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Suriya ma'budasining «xotinchalish» koinlari gallar bo'lgan va ular o'z erkaklik olatlarini ma'budaga qurbonlik sifatida keltirganlar. Ayni hol ularning xulq-atvorida mazoxizm alomatlarini mavjudligidan dalolat beradi.

Bu yerda o'zini o'zi yoki bir-birini savalashning ruhiy, ayniqsa seksual ta'sirlanishlar bilan aloqasi diqqatga sazovor. Adabiyotlarda erkaklar savalash taomilisiz jinsiy aloqalarga kirishishga qodir bo'lmagan hollarga bir qancha misollar keltiriladi. Ular jismoniy azob-uqubatlarni eng oliy lazzat sifatida idrok etishlari ta'kidlanadi. Ushbu hol «mazoxizm» deb ataladigan seksual buzuqlik mexanizmini tushuntiradi. Aynan mazoxizm (aksariyat hollarda u sadizm bilan bog'liq bo'ladi, zero, ikkala holda ham seksual ta'sirlanish azob-uqubatlardan va mutelikdan paydo bo'ladi, farq faqat shunda ko'rinadiki, mazoxist obyekt bo'lishni, sadist esa – subyekt bo'lishni istaydi) primitiv diniy ekstazga olib keladi yoki unga yo'ldosh bo'ladi. Buni ilk bor nemis din tarixchisi Sh. Meyner o'zining «Allgemeine Britische Geschich-te der Religionen» (1806-1807) asarida qayd etgan. Ushbu muammoni XX asr boshida fransuz yozuvchisi, siyosatchisi va publitsisti B. Konstan ko'tarib chiqadi va rivojlantiradi.<sup>297</sup> O'zining din masalalariga bag'ishlangan asarlarida u bir-birini dialektik to'ldiruvchi

<sup>296</sup> Qarang: Skrzyppek M. Poganski «entuzjazm» a chrzescijanska heterodoksja // Czlowiek i swiatopoglad. 1986. № 7/8. – 118-136-p.

<sup>297</sup> Qarang: Thompson P. La religion de Benjamin Constant. – Pisa, 1978. – 261-c.

sezuvchanlik va tarkidunyochilik, erotizm va jinoyat elementlariga e'tiborni qaratadi.

Kezi kelganda yana shuni ham qayd etib o'tish lozimki, orgiastik rasm-rusumlar uzoq vaqt mobaynida diniy fanatizmga zamin yaratib kelgan bo'lsa, keyinchalik ular muayyan ijtimoiy-madaniy muhit doirasida karnaval tomoshasi (masalan, Tentaklar bayrami va sh.k.)ga aylanadi. Seksual ekstazning o'zi esa kishilar o'rtasidagi erotik aloqaning chegaraviy ifodasi sifatida, «o'zidan tashqarida» mavjudlikni anglab yetish va Koinot bilan birikish hissini tuyish imkonini beradi.<sup>298</sup> Boshqacha qilib aytganda, u abadiyat bilan yuzma-yuz bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. Hindiston mistik madaniyatlarida muhabbat ierarxiyasi, shu jumladan transsendent xususiyatga ega bo'lgan mistik ekstaz mavjudligi tasodifiy bir hol emas.

Diniy fanatizmning ijtimoiy-psixologik asosi bo'lib gominizatsiya jarayonida paydo bo'lgan «hamma baloga to'g'anoq odam» mexanizmi ham xizmat qilishi mumkin. Ayni holda fransuz mutafakkiri R. Jirarning «Dunyo asosida yashirin ashyolar» kitobida bayon etilgan g'oyalari diqqatga sazovordir.<sup>299</sup> Ushbu kitobda ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy-psixologik konfliktlarini hal qilishda «hamma baloga to'g'anoq odam»ni o'ldirishning ahamiyati haqidagi tezis ilgari suriladi. Mazkur alohida tezisning ta'riflanishiga R. Jirar miflar, Tavrot va Injil matnlari, o'rta asrlarda va hozirgi davrda odamlarni ta'qib qilishga doir hujjatlarining qiyosiy tahlili natijasida chiqargan xulosalar zamin yaratadi. Mazkur tahlil ko'rsatilgan manbalarning barchasida gap yo ayrim individga, yo etnik yoki diniy ozchilikka nisbatan kollektiv zo'rlik ishlatishning muayyan formulasi haqida borishini ko'rsatadi. Zo'rlik ishlatilishiga go'yoki ijtimoiy bo'hronlar, yuqumli kasalliklar yoki tabiiy ofatlar yuz berishiga olib kelgan bir qator jinoyatlar va magiyada ayblash sabab bo'ladi. Turli halokatlarining ehtimol tutilgan sababchilari aybdorligiga bo'lgan ishonch ijtimoiy ongdan mustahkam o'rin olgan bo'lib, bu insonning sodir etgan yomon qilmishlari uchun javobgarlikni boshqalarga yuklashga bo'lgan azaliy moyilligidan darak beradi. Bunda u o'z fikrini ikki xil ta'riflashi mumkin: bu qilmishni men emas, balki boshqa birov sodir etgan; buni jamoa orasida nimasi bilandir ajralib turuvchi odam sodir etgan. So'nggi zikr etilgan «o'zgachalik» e'tiqod, mafkura, ijtimoiy maqom, hokimiyat yoki ojizlikning o'zgachaligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qadimgi miflarda jamoani jipslashtiruvchi va tinchlantiruvchi kollektiv odam o'ldirish haqida to'g'ridan to'g'ri so'z yuritiladi. Boz ustiga jinoyatga qo'l urganligini anglamaydigan jamoa o'zi o'ldirgan qurbonga

<sup>298</sup> Ильинский К. Сексология и сексopatология. – Москва: 1986. – 35-с.

<sup>299</sup> Guard R. Des choses cachees depuis la fondation du monde. – P., 1978.



nisbatan u o'z o'limi bilan xayrli ish qilgani uchun minnatdorlik va hatto muhabbat tuyg'ularini his etadi. Shuni hisobga olish lozimki, qurbonning o'limi kollektiv ong nuqtai nazaridan mutlaq o'lim hisoblanmagan, chunki qurbon muqaddas xususiyat kasb etgan va shu vaqtdan e'tiboran yaxshi yoki yomon iloh sifatida e'zozlangan. Yaxshi iloh sifatida – o'z hayoti evaziga jamoada tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirgani uchun, yomon iloh sifatida – jamoa boshiga har lahzada yangi musibatlar keltirishi mumkinligi uchun.

Konflikt va uning sabablarini unutmagani jamoa raqobatga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka intilgan. Shu tufayli ham R. Jirar fikriga ko'ra ilk taqiqlar imitativ xulq-atvor bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, qotil-jamoaning «hamma baloga to'g'anoq odam»ni o'ldirishning barcha holatlari mazkur kollektiv tajovuz aktining ijobiy oqibatlariga o'z ta'sirini ko'rsatishiga bo'lgan qattiq ishonchi doimiy taqiq o'rnatilishida yoki butun voqea darhol takrorlanishida o'z aksini topgan. Shunga tayangan holda R. Jirar kollektiv qotillik nafaqat odamlar yaratgan dinlarning balki ular ilgari surgan barcha fikr-mulohazalarning asosi hisoblanadi, zero, ularning har birida rasm-rusumlar, sakrallik va miflarning izlariga, boshqacha qilib aytganda, kollektiv zo'ravonlikni yo oqlash, yo xaspo'shlash hollariga duch kelish mumkin degan xulosaga keladi.

O'rta asrlardagi qirg'inlar va qatag'onlar haqidagi ma'lumotlar ongi mifik illyuziyalar bilan zaharlangan olomon har qanday jinoyatni sodir etishga qodir ekanligini tasdiqlaydi. Uning ta'sir kuchi pashshaga ozor bermaydigan individlarning ham ko'zini qonga to'ldirishi mumkin. Bunga Iso Masihning xochga mixlanishi voqeasi misol bo'lishi mumkin. Biz tahlil qilayotgan holatda totemizm davrida paydo bo'lgan «hamma baloga to'g'anoq odam»ni izlashning kosmogonik xususiyati<sup>300</sup> birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U o'zining sakral xususiyati bilan diniy fanatizm fenomenining tegirmoniga suv quyadi. Umuman olganda, «hamma baloga to'g'anoq odam»ni izlash konkret tarixiy holatlar bilan belgilangan ijtimoiy-psixologik deformatsiya shakllaridan biri hisoblanadi.

Nihoyat, **diniy fanatizm asoslarining uchinchi guruhini biologik-ruhiy omillar tashkil qiladi.** O'z-o'zidan ravshanki, fanatizmning har qanday ko'rinishi kabi diniy fanatizm ham eng avvalo inson kayfiyatlari sohasi bilan bog'liq. Ma'lum bo'lishicha, inson ruhiyatida xayoldan ketmaydigan (anankastik) holatlar (aktual yoki potensial darajada) mavjud: «Anankastik simptomlar sog'lom odamlarning kundalik hayotida paydo bo'ladi, ularga muayyan shakllarda jamiyat hayotida ham duch kelish

<sup>300</sup> Фрейдленбер О.М. Миф и литература древности. – Москва: 1978. – 74-с.

mumkin»<sup>301</sup>. Inson cho'ntagida chipta, kalit yoki pul mavjudligini ko'p karra tekshirishi, biror ohang, fikr yoki so'zning miyaga qattiq o'rnamashib qolishi, muayyan rasm-rusumlar va odatlar kundalik hayotdan mustahkam o'rin olganligi bunga eng sodda misollar hisoblanadi. Aynan rasm-rusumlar va odatlar anankastik holatlarning ko'rinishlari sifatida o'zining bir andozaliligi bilan insonni xudo, boshqa odam va hokazolar qarshisidagi qurquvdan himoya qiladi. Rasm-rusumlar va odatlar unga ilohiy yoki dunyoviy xoqon bilan o'zaro aloqaga kirishish magik qobiliyatini beradi. Rasm-rusumlar va odatlarning o'zgarishi kishini vahimaga soladi. Ayniqsa diniy rasm-rusumlar va odatlar insonni qo'rquv hissidan sirli ravishda himoya qiladi. Diniy fanatikning qo'rquv bilmasligi, «o'tib bo'lmas to'siq qarshisida u paranoikka aylanishi»<sup>302</sup> sababini ayni shu omillar bilan tushuntirish mumkin bo'lsa kerak.

Hozirgi zamon farmakologiyasida va miyani tomografik o'rganish sohasida qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlar xayoldan ketmaydigan holatlar biologik tabiatga ega ekanligidan, bunday kasalliklarni faqat ba'zi bir yangi dori-darmonlar bilan davolash mumkinligidan dalolat beradi<sup>303</sup>. Xayoldan ketmaydigan holatlarning biologik substrati haqidagi gipoteza zahirida quyidagi qoidalar yotadi: evolyutsiya jarayonida shakllangan xulq-atvor sxemalari saqlanadigan bazal gangliyalari (miya yarim pallasi asosidagi neyronlarning yirik to'plamlari) peshona qismi pastki bo'limgi funksiyalarining buzilishi natijasida muayyan darajada ta'sirlansa kerak va bu xulq-atvor sxemalari latent holatdan aktual holatga o'tishiga olib keladi. Bunday o'tishga sabab bo'luvchi signal bazal gangliyalarga nerv yo'llari orqali keladi. Bu yo'llarda neyromediator (nerv impulsini olib o'tuvchi biologik faol modda) bo'lib **serotonin** xizmat qiladi.

Inson xulq-atvorida serotoninning roli to'liq aniqlanmagan, biroq mavjud ma'lumotlarning o'ziyoq mazkur neyromediator inson ishtahasini, agressivlik darajasini boshqaradi va suitsidal xulq-atvor (insonning o'z joniga suiqasd qilishga urinishlari)ga daxldor degan xulosaga kelish imkonini beradi. Serotonin ta'sirida harakatga keladigan neyronlar (nerv hujayralari) butun miya bo'ylab keng tarqalgan. Ular miyaning peshona qismida ham ancha ko'p, biroq bazal gangliyalarda ular ayniqsa ko'p miqdorda to'planadi. Boshqa neyromediatorlar kabi serotonin ham ikki neyron o'rtasidagi aloqa maydonlari – sinapslarda harakat qiladi. Nerv impulsini uzatilgan paytda u presinaptik neyrondan ajralib, sinoptik tirqishga (hujayralarni bir-biridan ajratuvchi bo'shliqqa) kiradi va mazkur neyron

<sup>301</sup> Кемпски А. Психопатология неврозов. – Варшава, 1975. – 85-с.

<sup>302</sup> Ушаков Г.К. Пограничные нервно-психические расстройства. – Москва: 1987. – 251-с.

<sup>303</sup> Рапопорт Дж.Л. Биологическая природа навязчивых состояний // В мире науки. 1989. № 5. – 55-62-с.



yana ta'sirlanish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar neyromediatorni sinapsdan chiqarish talab etiladiki, bunga qayta so'rilish yo'li bilan erishiladi. *Klomipramin, fluvoksamin va fluoksetin* kabi dori preparatlari sinapsda serotonin qayta so'rilishiga imkon bermaydi. Xayoldan ketmaydigan holatlar bilan bog'liq kasalliklarni davolashda mazkur dorilarning effektini ayni shu omil bilan izohlash mumkin.

Xayoldan ketmaydigan holatlarning biologik tabiati haqidagi gipoteza hozirgi zamon fanining inson miyasi tabiat asrlar mobaynida bosib o'tgan yo'lni o'zida aks ettiradi degan fundamental qoidasi bilan muvofiq keladi.<sup>304</sup> Nima bo'lganda ham xayoldan ketmaydigan holatlarning biologik substrati haqidagi yangicha tasavvurlar evolyutsiya, aql, rasm-rusumlar va odatlar haqidagi tushunchalar mazmunini butunlay qayta ko'rish to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yadi. Biz uchun muhimi shundaki, xayoldan ketmaydigan holatlar insonga o'z xulq-atvoriga voqelik bilan mos ravishda tuzatish kiritish imkonini bermaydi. Inson miyasidan mustahkam o'rin olgan rasm-rusumlar va odatlarga muvofiq xulq-atvor zamirida ayni shu omil yotadi.<sup>305</sup> Fantastik xulq-atvor «miya sxemasi»dan (K. Lorens) mustahkam o'rin olgan xulq-atvor shakllariga asoslanishi mumkin. Xayoldan ketmaydigan holatlarning biologik tabiati haqidagi gipoteza A. Kempinskiy, F. Blum, A. Leyzerson kabi olimlarning tadqiqotlarida ham o'z tasdig'ini topgan.<sup>306</sup>

Shu o'rinda fanatizm diniy aqidaparastlik sifatida namoyon bo'luvchi tafakkur sohasiga e'tiborni qaratish ham muhimdir. Bu yerda diniy aqidaparastlik neyrofiziologik asosga ega. Neyrobiologiya sohasidagi tadqiqotlar inson miyasi xaritaga o'xshashini ko'rsatadi. U sezgi organlaridan keluvchi axborotni o'zida jamlaydi (bunday xaritani tuzish uchun pozitorli emission transaksial tomografiya, qon yo'liga radiaktiv izotoplarni kiritish qo'llaniladi va olingan ma'lumotlarga kompyuterda ishlov beriladi).<sup>307</sup> Agar u yoki bu retseptor (masalan, ko'rish, eshitish, ta'm retseptori) tegishli stimulni idrok etsa, miya neyronlarining aniq bir yerda joylashgan guruhida muayyan reaksiya yuzaga keladi. Ushbu xaritani tashkil etish zamirida genetik dastur yotadi, biroq uning detallari miya rivojlanishining dastlabki davrida individual tajriba ta'sirida modifikatsiyalanishi va voyaga yetgan individda ham o'zgarishi mumkin.

<sup>304</sup> Ушаков Г.К. Пограничные нервно-психические расстройства. – Москва: 1987. – 245-с.

<sup>305</sup> Шу munosabat bilan Ж. Рапопорт: «Хайлдан кетмайдиган холатлар неврозини ўрганиш шубҳалар ва ишонч-этиқоннинг биологик табиати ҳақидаги тасаввурлар ривожланишига оlib келади», деб таъкидлайди. Qarag: Рапопорт Дж.Л. Биологическая природа навязчивых состояний // В мире науки. 1989. № 5. – 62-с.

<sup>306</sup> Поликарпов В.С., Поликарпова В.А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 168-с.

<sup>307</sup> Блум Ф., Лейзерсон А., Хофстедтер Л. Мозг, разум, поведение. – Москва: 1988.

Shu munosabat bilan qayd etilgan strukturalashganlik va moslashuvchanlikning uyg'unligiga erishish imkonini beruvchi xarita elementlarini birlashtirish sxemasi to'g'risidagi masala yuzaga keladi.

Amerikalik taniqli neyrofiziolog J. Edelman ilgari surgan **neyrodarvinizm konsepsiyasiga** muvofiq miya potensial darajada ko'p sonli rang-barang stimullarni idrok yetishga qodir, biroq u mazkur individ o'z hayot amaliyotida his etgan stimullarni tanlaydi.<sup>308</sup> Bunday tanlanish, J. Edelman fikriga ko'ra faqat miya po'stlog'ida harakatlarni tashkil etishning asosiy birligi bo'lib ayrim neyronlar emas, balki neyronlar guruhi xizmat qilgan holda yuz berishi mumkin. U yoki bu guruh neyronlari qaysidir retseptor hujayralarining muayyan sohasini, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «retseptiv maydon»ni ifodalash haqida o'zaro «kelishadilar». Bunday neyronlar juda kichkina (ko'ndalang kesimda taxminan 50 km) bo'lganligi va mavjud metodlar ularni o'rganish imkoniyatini bermasligi tufayli kompyuterda modellashtirish metodidan foydalanildi. Pirovardida real anatomik va biokimyoviy xossalarga ega bo'lgan neyronlar tizimini neyronlar guruhi spontan ravishda hosil qilishi mumkinligi aniqlandi. Modelda, odatda, sinoptik modifikatsiyalar qoidasi amal qiladi. «Sinoptik kuch» (ikki neyron o'rtasida signallar uzatilishining samaradorlik darajasi) tizimning faolligiga bog'liq bo'ladi. Muayyan vaziyatni takrorlash ma'lum sinapslarni kuchaytiradi va muayyan tUSDagi neyronlar faolligini mustahkamlaydi (bu yerda dionisiylar misteriyalarining ekstatik raqslari, qadimgi yunonlarning orfik marosimlari, hind madhiyalari – kirtanlar, so'fiylar zikri, katoliklarning ming karra takrorlanuvchi xitoblari va hokazolar ritmikasi beixtiyor yodga tushadi). Kirish signali bu sinapsdagina emas, balki ayni shu hujayradagi boshqa sinapslarning aksariyatida ham yuzaga kelsa, mazkur sinapsning «kuchi» ko'payadi. Modellashtirishga kirishishdan oldin har safar «sinoptik kuchlar» tasodifiy tarzda beriladi. Stimullashtirish jarayonida yonma-yon joylashgan retseptorlar miya po'stlog'ining muayyan hujayralariga signallar uzatadi. Kirish signalini oluvchi va bir-biri bilan faol bog'liq bo'lgan bu hujayralar bir-biriga ikki tomonlama musbat aloqa prinsipiga muvofiq ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir kuchayib borishi natijasida bir-biri bilan qattiq bog'langan neyronlarning guruhlari hosil bo'ladi.

«Ruhiyat miya faoliyati mahsulidir»<sup>309</sup> degan qoidadan (bu yerda gap ruhiyat faoliyatining biologik jihati haqida boradi), ya'ni fikrlash neyronlar

<sup>308</sup> Нейродарвинизм // В мире науки. 1988. № 3. – 93–94-с.

<sup>309</sup> Ushbu nuqtani nazar Ф. Блум, А. Лейзерсон ва Л. Хофстедтер томонидан изчил илгари сурилади. Блум Ф., Лейзерсон А., Хофстедтер Л. Мозг, разум, поведение. – Москва: 1988. Яна Qarag: Крушинский Л.В. Биологические основы рассудочной деятельности. – М., 1986; Симонов П.В. Мотивированный мозг. – Москва: 1987.



guruhlarining bahamjihat faoliyati natijasida amalga oshirilishidan kelib chiqadigan bo'lsak, u yoki bu diniy tizim rasm-rusumlarini surunkali bajarish jarayonida shakllanadigan diniy aqidaparastlik o'z biologik-ruhiy asoslariga egadir deb aytishimiz mumkin. Ayni shu sababli diniy tafakkur aqidalari yoki andozalari o'z tabiatiga ko'ra har doim nisbatan barqarorlik, konservatizm va sxematizm bilan tavsiflanadi. Bunga diniy ongning o'ta emotsionalligini ham qo'shimcha qilish o'rinni bo'ladi, zero, bu uning irratsionalligini izohlaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mantiqiy dalillar diniy fanatik ongiga ta'sir ko'rsatmasligi tabiiy bir holdir, chunki bu yerda mantiq o'rinni emotsiyalar egallaydi.

*Inson miyasi katta yarim pallalarining funksional asimmetriyasi* ham diniy fanatizmning biologik-ruhiy asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Darhaqiqat, miya har biri muayyan vazifalarni bajaruvchi ikki yarim palladan tarkib topadi. Miyaning o'ng yarim pallasi tananing chap qismini boshqaradi, u intuitiv, emotsional, sintetik va badiiy faoliyat uchun javob beradi, rangni idrok etish, musiqiy ohanglar, kuylar va noverbal tovushlarni tanib olish ham u bilan bog'liq. Golografik prinsip miya o'ng yarim pallasi faoliyatining asosiy prinsipi hisoblanadi. Miyaning chap yarim pallasi tananing o'ng qismini boshqaradi va mantiq, tahlil kabi intellektual funksiyalarni bajaradi. Miya yarim pallalari qadriyatlarining turli mezonlariga tayanadi va turli xil mantiqlardan foydalanadi. O'ng yarim palla o'tmishga, chap yarim palla esa – kelajakka qarab mo'ljal oladi.<sup>310</sup>

Muhimi shundaki, miya o'ng yarim pallasining faoliyati bilan magiya, mifologiya, okkultizm, din va mistitsizm o'rtasida muayyan aloqa mavjud. Avvalambor shuni inobatga olish lozimki, madaniyat, belgilar tizimlari va inson ajdodlari miyasining evolyutsiyasi natijasi o'laroq, miya yarim pallasi idrok etuvchi obrazlar ayrim tafsilotlarigina o'z ichiga oluvchi mantiqiy sxemalarni emas, balki dunyoning yaxlit manzarasini qamrab olish imkonini bergan.<sup>311</sup> Bu kishilik tarixi mobaynida inson ongida jiddiy o'zgarishlar yuz berganligini anglatadi.

Amerikalik psixolog J. Jeyns ham shunga o'xshash xulosaga keladi: biz bugun ong deb atayotgan narsa (o'zlikni anglash) nisbatan yaqinda, asosan oxirgi uch ming yil mobaynida, turli xalqlarda har xil darajada vujudga kelgan. Uning fikricha, qadimgi odamlar hozirgi zamon kishilari darajasida introspeksiya qodir bo'lmaganlar. Ular bizning «fikrlarimiz» o'miga turli ovozlarni eshitganlar va bular marhum qabila oqsoqollari va

<sup>310</sup> Спрингер С., Дейч С. Левый мозг, правый мозг. – Москва: 1983; Брагина Н.Н., Добромотова Т.А. Функциональные асимметрии человека. – Москва: 1988.

<sup>311</sup> Франкфорт Г., Франкфорт Г.А., Уилсон Дж., Якобсен Т. В преддверии философии. – Москва: 1984. – 15-с.

qarindoshlarning ovozlari bo'lsa kerak deb o'ylaganlar. Bu yerda Gomerning «Iliada» dostoni tahlili eng muhim dalil hisoblanadi. J. Jeyns bu doston o'zlikni anglashga o'tishdan oldingi bosqichda yaratilgan bo'lsa kerak deb taxmin qiladi. U Gomerning asarida «xotira» yoki «ong» kabi so'zlar yo'qligiga, qahramonlar esa hozirgi zamon odamlariga xos bo'lgan fikrlash qobiliyatiga ega emasligiga, ularning o'rni bu vazifani «xudolar» bajarishiga (ular ong o'rmini bosishi, Gomer qahramonlariga u yoki bu vaziyatda qanday ish ko'rish haqida maslahatlar berishiga) e'tiborni qaratadi. Boz ustiga ko'pgina madaniyatlarda «xudo» va «marhum» so'zlari yangraydi. 1959-yil Eynan (Galileya)da topilgan (o'n bir ming yil oldin yashagan) podsho yoki qabila oqsoqoli qabrini o'rganish asosida J. Jeyns bunday marhum, hamonki uning ovozi va ogohlantirishlarini boshqalar eshitarkan qanday qilib izzat-ikromga sazovor «xudo»ga aylangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi.<sup>312</sup> Bu marhum podsho yoki qabila oqsoqolini amalda yashagan ilk «xudolar»dan biri deb uning sag'anasini esa – keyinchalik qurilgan barcha «xudoning uylari», ehromlar va maqbaralarning prototipi deb hisoblash mumkin.

Shu o'rinda Suqrot Afina sudyalari qarshisida so'zlagan nutqni ham misol tariqasida keltirish mumkin: «Bolalik davrimdan boshlab o'zimda qandaydir ilohiy va iblisona ovozni eshitaman»<sup>313</sup>. Bu yerda iblis yoki daymoniy ovozi ilohiy hukmni insonga yetkazish usullaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, uning mistik asosi qadim zamonlardayoq kuzatilgan rang-barang hodisalar: shoir yoki kohinning jazavasi, turli kasalliklardan tuzalish, bo'lg'usi voqealarni oldindan his etish va hokazolar bilan ayniydir. Nihoyat, shuni qayd yetish lozimki, *ma'naviy Absolyut bilan ekstatik birikish holatiga erishilganida miya chap yarim pallasining faoliyati vaqtinchalik to'xtashi diniy va mistik meditatsiyalar turli texnikalarining muqarrar elementi hisoblanadi*. Shunday qilib, inson miyasi yarim pallalarining funksional asimmetriyasi muayyan ijtimoiy-madaniy kontekst doirasida diniy fanatizmning biologik-ruhiy asosi sifatida amal qilishi mumkin. Ammo diniy fanatizm biologik-ruhiy asoslarining barchasini uning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik asoslari va manbalari bilan jamuljam holda hisobga olish lozim.

**Diniy fanatizm fenomenini tushunish zaruriyati.** Diniy fanatizm asoslari bilan uning xususiyati hamda individ va ijtimoiy guruhlar hayot faoliyatidagi funksiyalari mushtarakdir. Diniy fanatizm fenomenining tabiatini tushunish uchun mazkur fenomen vujudga kelishiga sabab bo'luvchi ehtiyojlar majmuini bilish talab etiladi. Bu yerda ochiq-oydin

<sup>312</sup> Qurang: Wilson J. Zicic po smierci. – Warszawa, 1988. – 32–35-p.

<sup>313</sup> Qurang: Введенский А. Демоннан Сократа. – Москва: 1893.



ko'rinib turuvchi va pinhona qatlamlarni farqlash zarur. *Birinchi guruhga ijtimoiy darajada diniy fanatizmga bo'lgan ehtiyoj kiradi*: jamiyatni qamrab olgan inqirozdan chiqish yo'llarini ko'rmayotgan va uni g'ayriijtimoiy kuch (xudo)ga murojaat etish yo'li bilan yechishga harakat qilayotgan ijtimoiy guruhlar va qatlamlar diniy fanatizmga muhtoj bo'ladilar. Bu ehtiyoj jamiyatda «qutqaruvchilik», «xaloskorlik» kayfiyatlarining kuchayishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, yadro urushi yoki ekologik halokat natijasida insoniyatning qirilib ketishi xavfi, dunyo miqyosidagi muammolarning keskinlashuvi (oziq-ovqat mahsulotlari, toza ichimlik suvi tanqisligi, resurslarning kamayishi muammolari), ijobiy natijalar bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga ham olib kelayotgan jamiyatni axborotlashtirish jarayoni, jamiyat faoliyati barcha sohalarining irratsionallashuvi, nihoyat, turli diniy va mistik mazhablar va guruhlar faoliyatining kuchayishi amalda diniy fanatizmga ehtiyoj uyg'otmoqda. 1978-yil 18-noyabrda tropik Gviana (Janubiy Amerika) changalzorlari bag'ridagi yalanglikda yuz bergan fojiali voqea bunga yorqin misol bo'ladi. Diniy sekta rahnamosi amerikalik J. Jons o'z atrofida mingga yaqin izdoshlarni to'playdi va yashashdan ma'no qolmaganligiga ularni ishonтира boshlaydi. «Ma'no kasb etish» uchun u «inqilobiy ish»ni amalga oshirish – zahar ichish va bu dunyoni tark etishni taklif qiladi. Uning fikricha, aynan narigi dunyoda har bir inson boshqacha ko'rinishda mavjud bo'lishda davom etadi. Sekta a'zolari o'z yo'l boshchilarining takliflarini qabul qiladilar.

Ijtimoiy ong darajasida kundalik amaliyot inson ongi muqaddas narsalarga qarab mo'ljal olishini talab qiladi. Muqaddas narsalarning mazmun va mohiyatini anglab yetishga intilish inson ongi strukturasi bilan uyg'un o'rin olgan (bu muqaddas narsa nafaqat diniy, balki dunyoviy bo'lishi ham mumkin). Muqaddas (sakral) narsalar va o'lim, kaos, ma'nosizlikni ajratish hollariga arxaik madaniyatlardayoq duch kelish mumkin. Dyurkgeym ta'biri bilan aytganda, dunyoda o'z-o'zicha muqaddas bo'lgan narsaning o'zi yo'q: «*Muqaddaslik – bu muayyan narsaga inson yuklagan sifatidir*»<sup>314</sup>. Masalan, Maxayana muxlisi bo'lgan buddist ongi tinqilashgan paytda har bir yog'och bo'lagida, toshda Buddaning mohiyatini sezadi, rus knyazi Vladimir esa xristianlikning vizantiyacha yo'nalishini unda go'zallik g'oyasi muqaddas bir narsa sifatida va muqaddaslik go'zallik sifatida ifodalangani uchun tanlagan<sup>315</sup>. Muqaddaslik chegaraviy holatdagi voqelik bilan muayyan aloqa mavjud

<sup>314</sup> Белла Р.Н. Социология религии. Американская социология. – Москва: 1972. – 267-с.

<sup>315</sup> Qit'iq: Американа С. Крестов как святость // Курьер ЮНЕСКО, 1988, июль. – 9-13-с.

bo'lganida vujudga keladi, din esa insonning mazkur chegaraviy voqelikka bo'lgan munosabati ramziy modeli hisoblanadi.

Hozirgi zamon ilmiy tafakkurida madaniyatning muqaddas yoki sakral qatlami (ta'bir joiz bo'lsa, sakral madaniyat) yo'q bo'lib ketmasligi, aksincha, uning ahamiyati oshib borishi va u dunyoviy madaniyat bilan teran, dialektik aloqaga kirishishi ta'kidlanadi. Bunday prognozlariga M.Eliade, A. Shaff, D. Tanalskiy, R. Bella kabi dirshunoslar va faylasuflarning asarlarida duch kelish mumkin. Chunonchi, R. Bella shunday deb yozadi: «Postdualistik dunyoda din shakli uncha aniq emas, biroq mazkur din tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida tabiat va ko'rinotda inson o'rnining relyativlashuviga hamda tarix va boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlarning kengayishi tufayli madaniyatda insonning relyativlashuviga eltuvchi inson bilimining misli ko'rilgan darajada o'sishini e'tiborga olishi lozim. Sekulyarizatsiya jarayoni dinning tugatilishiga emas, balki uning strukturasi va roli o'zgarishiga olib keladi. Biroq biz buni tushunib yetishga endigina yaqinlashmoqdamiz»<sup>316</sup>.

Mulohazalar mantig'i quyidagicha: individ sifatidagi inson sakral dunyo bilan barcha aloqalarni yo'qotishini tasavvur qilish ham mumkin emas, hech bo'lmasa bitta ongsiz aloqa saqlanib qoladi, u ham bo'lsa tushdir. Tushlarning sirli dunyosida makon va vaqt chegarasidan chetga chiqish amalga oshadi, unda mifologik siymolar paydo bo'ladi va diniy simbolizm amal qiladi. Tasavvur sohasida san'atda sakrallik unsurlari saqlanib qolishi muqarrardir. Hatto sarguzasht qissa janri ham aksariyat hollarda diniy strukturani – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qadimgi konfliktning moniylik ta'limotiga xos bo'lgan strukturasi nazarida tutadi. Madaniyatning sakral jihati dunyoning diniy, xayoliy manzarasini yaratish orqali individlar mutlaq qadriyatlarga qarab mo'ljal olishlari uchun zamin hozirlaydi, bu esa xavfsizlik va ishonch hissing shakllanishiga ko'maklashadi.

**Guruh darajasida** turli (diniy va dunyoviy) jarmoalar va sektalarning diniy fanatizmi ijtimoiy adolatsizlik va xavf-xatar qarshisida gruppaviy birdamlik teran tuyg'usini ifodalaydi. Jamiyatning rivojlanishi jarayonida turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning stress holatidagi vakillari voqelikdan diniy e'tiqodlar xayoliy dunyosi «qochish»ga yo'l ochuvchi, diniy ideallar ahamiyatining oshishini belgilovchi ko'p sonli omillar paydo bo'ladi.

Individ darajasidagi tafakkurda va inson faoliyatida oqilona va ruhiy, irratsional elementlar chatishadi. Tegishli ijtimoiy-madaniy muhitda irratsional elementlar yetakchilik qiladi, inson xulq-atvoriga hal qiluvchi

<sup>316</sup> Белла Р.Н. Социология религии. Американская социология. – Москва: 1972. – 274-с.



ta'sir ko'rsatadi va unda esxatologik maqsadlarga erishish mayli paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, muayyan darajadagi diniy fanatizmni nazarda tutadi. Volter shunday deb yozgan edi: «Men avliyo Parisning mo'jizalari haqida hayajonlanib gapirayotgan odamlarni ko'rganman, shu lahzada ular o'zlariga qarshi og'iz ochishga jur'at etgan har qanday odamni o'ldirishga tayyor edilar»<sup>317</sup>. Bizga ma'lumki, diniy fanatizm ziddiyatlarni butunlay istisno etadi.

Diniy fanatizm ehtiyojlarning ikkinchi (ichki) qatlamini *seksual (jinsiy) ehtiyojlar, umrboqiylikka erishishga bo'lgan ehtiyoj va insonning o'z yolg'izligini engishga bo'lgan ehtiyoji* tashkil qiladi. Bunda mistik ekstaz holatiga yo ekstazda sublimatsiyalanuvchi seksual ehtiyojni tiyish yo'li bilan, yo ijtimoiy-madaniy sharoitlarga qarab diniy fanatizmni o'zida mujassamlashtirishi mumkin bo'lgan orgiastik rasm-rusumlarni bajarish natijasida erishiladi. Umrboqiylikka erishishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligini vafot etgan Ura shahri podshosi a'yonlarining o'zini o'zi o'ldirishi marosimi tasdiqlaydi<sup>318</sup>. Insonning o'z yolg'izligini yengishga bo'lgan ehtiyoji haqida taniqli psixanalitik E. Fromm shunday deb yozadi: «O'z yolg'izligini yengish, yolg'izlik kishanlaridan xalos bo'lish insonning teran ehtiyoji hisoblanadi. Barcha zamonlar va madaniyatlar odami o'z-o'ziga ayni bir savolni beradi: yolg'izlikni yengish, yagonalik tuyg'usini his qilish, o'z individual hayoti chegarasidan chiqish va qanoat topish uchun nima qilish kerak? Bu savolni o'z oldiga ibtidoiy odam ham, o'z podasini boqayotgan ko'chmanchi ham, misrlik ziroatchi ham, finikiyalik savdogar ham, rimlik legioner ham, o'rta asrlar monaxi ham, yapon samurayi ham, hozirgi amaldor va fabrika ishechisi ham qo'yadi»<sup>319</sup>. Yolg'izlikni yengishning ideal shakli muhabbat hisoblanadi.

Muhabbatda inson o'zini o'zga shaxsga singdirish va shu tariqa o'z mohiyatini to'laqonli namoyon etish orqali qudratli ma'naviy salohiyatni topadi. Muhabbat insonni abadiyat bilan oshno etadi, chunki u beg'araz va murosasizdir. Faqat muhabbat inson mavjudligi muammosining yechimi hisoblanadi. Muhabbat inson hayotiga mazmun baxsh etadi, aks holda «inson yolg'izligini anglash» uyat va ayni paytda aybdorlik va bezovtalik hissining manbaiga aylanadi<sup>320</sup>.

Muhabbat ma'naviyat sohasida dunyoni o'ziga xos tarzda tushunishni, harakat sohasida – ijodkorlik va o'z qobiliyatlarini o'zi ro'yobga chiqarishni, sezgilar sohasida – boshqa kishi, barcha odamlar, tabiat bilan yagonalik tuyg'usini anglatadi. Muhabbat inson o'z shaxsiyatini to'la

<sup>317</sup> Вольтер. Поэмы. Философские повести. Pamфлеты. – Киев: 1989. – 461-с.

<sup>318</sup> Qdrang: Wilson J. Zkic po smierci. – Warszawa, 1988. – 5-p.

<sup>319</sup> Fromm E. O szuce milosci. – Warszawa, 1971. – 22-p.

<sup>320</sup> Fromm E. O szuce milosci. – Warszawa, 1971. – 22 p.

namoyon etish vositasi, insonning dunyoga bo'lgan munosabati usuli hisoblanadi, biroq muhabbat o'zini ro'yobga chiqarishning soxta, xayoliy shakl-shamoyillarini ham kasb etishi mumkin. Shulardan biri dindorning ilohga (Budda, Xeruka, Iso Masih yoki Ollohga) bo'lgan mistik muhabbati hisoblanadi va u diniy fanatizmni vujudga keltirishi mumkin. Diniy fanatizm va uning funksiyalari xususiyati rang-barang ehtiyojlarning yuqorida bayon etilgan majmui bilan bog'liq.

Diniy fanatizmning xususiyatini aniqlash uchun fanatizmga va uning ayrim ko'rinishlaridan biri sanalgan diniy fanatizmga ta'rif berilgan turli qomuslar va lug'atlarga *nazar tashlash o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz. «Granat qomusiy lug'ati»da fanatizm qisqagina qilib «o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega bo'lgan muayyan e'tiqodlarni boshqa e'tiqodlarga toqatsiz darajada targ'ib qilish»*<sup>321</sup> sifatida ta'riflangan. **Brokgauz va Efronning qomusiy lug'atida** esa fanatizm deganda «u yoki bu din prinsiplari mutlaqo haqqoniy ekanligiga sidqidildan ishonish, ularga har qanday sharoitda sodiq qolish, hatto ularni ro'yobga chiqarish yo'lida o'z hayotini qurbon qilishga tayyorlik» tushuniladi. Bunda «fanatik o'z aqidalari bilan muvofiq kelmaydigan hamma narsaga axloqsiz, inson sha'niga nomunosib, Ilohni, haqiqat va adolatni tahqirlovchi deb qaraydi»<sup>322</sup>. Keyingi o'rinlarda quyidagi so'zlarni o'qishimiz mumkin: «Fanatizm diniy bo'lmasligi ham mumkin, biroq hayotning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, din fanatizmning rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratadi. Turli dinlar va mazhablar va hatto ayni bir dinlar va mazhablar, biroq turli zamonlarda – o'z izdoshlarini ozmi-ko'pmi darajada fanatiklarga aylantiradi. Fanatizm ayniqsa katta kuch bilan namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa soha hisoblanadi»<sup>323</sup>. Buyuk fransuz inqilobi davridagi yakobinchilar siyosiy fanatiklarga yorqin misol bo'lishlari mumkin – ular o'zgalarning e'tiqodlarini yolg'onligi va jinoiyliги ayon bo'lgan e'tiqodlar sifatida hurmat qilmaganlar, faqat o'z fikrlarini haqqoniy deb hisoblaganlar. Fanatizm jamiyat hayotining boshqa sohalarida ham namoyon bo'lishi mumkin, u indifferentizmning ziddidir, ularning o'rtasida oraliq holatni o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan toqatlilik egallaydi.

Fanatizm tushunchasining o'zida uni qoralash, uning torligi va cheklanganligini, ko'pincha isbot qilish mumkin bo'lmagan prinsiplarga ko'r-ko'rona ishonch bilan bog'liqligini tan olish aks etadi. O'zini fanatik deb nomlashga tayyor odam kamdan kam topiladi, ayni paytda ko'pchilik

<sup>321</sup> Энциклопедический словарь Гранат. – Москва: б.г. Т. 43. – 14-с.

<sup>322</sup> Энциклопедический словарь. Ф.А. Брокгауз и И.А. Ефрон. – СПб(б), 1902. Т. 69. – 291-с.

<sup>323</sup> O'sha joyda.



qarama-qarshi e'tiqodlarning tarafdorlari peshonasiga bu yorliqni bajonidil yopishtiradi. Shu ma'noda xristianlar o'z diniga sodiq qolgan majusiyalarda ashaddiy fanatiklarni ko'rganlari tabiiy bir holdir. O'z navbatida, ayni shu xristianlar o'z e'tiqodi yo'lida azob-uqubatlarga va o'limga tayyor ekanliklarini namoyish etganlarida Rim ma'murlari ularni fanatiklar deb hisoblagan. Dahriylarni qoralagan «muqaddas inkvizitsiya» ham tarix sahifalaridan ashaddiy fanatiklar muassasasi sifatida o'rin olgan.

Yuqorida bayon etilgan yondashuv «Oksford inglizcha lug'ati»ga ham xos. Bu yerda fanatik *harakatlari, xossalarini ayniqsa din ishlarida soxta entuziazm sifatida tavsiflash mumkin bo'lgan, gaplari va amallari vujudida yashirin iloh, iblis yoki furiyaning namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblangan shaxs sifatida* ta'riflanadi. Fanatik avliyo, bemulohaza ish ko'ruvchi entuziastgina emas, balki diniy manyak hamdir. Fanatizm esa ayrim, shu jumladan, diniy muammolarni yechishda ortiqcha ehtirolarga berilish va ekstravagantlikka moyillik sifatida, ortiqcha entuziazm sifatida, o'ylamasdan ish qilish sifatida tavsiflanadi<sup>324</sup>. Amalda bu yerda fanatik tushunchasi zamirida ham, inson faoliyatining diniy sohasidagi fanatizm tushunchasi zamirida ham dinga «insoniyat nevrozi» sifatida qarashga asoslangan freydcha yondashuv yotadi.

Polshada nashr etilgan «Katta universal ensiklopediya»da fanatizm tushunchasining boshqacha talqini taklif qilinadi. U *muayyan g'oyaning haqiqiylikiga bo'lgan shak-shubhasiz va notanqidiy ishonchda namoyon bo'luvchi o'ta kuchli ishtiyoq, jahd-u jadal, jaholat sifatida* tavsiflanadi. U odatda ashaddiy aqidaparastlik, diniy, siyosiy va etnik masalalarda o'zgacha qarashlarga ega bo'lgan kishilarga toqatsizlik va ularni kamsitish bilan bog'lanadi<sup>325</sup>. «Oksford lug'ati»dan o'rin olgan maqoladan farqli o'laroq bu yerda din va «insoniyat nevrozi» o'rtasida o'xshashlik mavjudligi qayd etilmaydi, aksincha, fanatizmning, shu jumladan, diniy fanatizmning ijtimoiy-madaniy jihati ajratiladi. Mazkur yondashuvda faqat fanatizm bitta qadriyatlar tizimini tan olishda va qolgan barcha tizimlarga qarshi kurashishda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Ijtimoiy toqatsizlikning har qanday ko'rinishlari, millatchilik, irqchilik va shovinizm kollektiv fanatizmga misol bo'ladi.

Nihoyat, Yugoslaviyada nashr etilgan «Ma'rifat kichik ensiklopediyasi»da fanatizm odatdagidek *muayyan bir g'oyaga yoki diniy aqidalarga o'ta sodiqlik, ularga ko'r-ko'ra ishonch sifatida* talqin qilinadi. Shu bilan bir qatorda diniy fanatizm ko'r-ko'rona diniy e'tiqod inson eshushini yo'qotishiga, o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan o'ta toqatsizlikka,

ba'zan yovuz jinoyatlarga olib keluvchi ashaddiy fanatizm sifatida tavsiflanadi<sup>326</sup>. Ushbu ta'rif diniy fanatizmning voltercha talqinini va uning entuziazmga qarama-qarshi qo'yilishini o'zida aks ettiradi: «Tushni voqelik sifatida, fantaziyalarni esa – bashorat sifatida idrok etuvchi odam entuziast, o'zining aqlsizligini odam o'ldirishlar bilan quvvatlovchi kishi fanatikdir. Nyurnbergga bosh olib ketgan Jan Dias papa Apokalipsis antixristi ekanligiga ishonchi komil edi: u entuziast bo'lgan. Rimdan uni o'ldirgani kelgan, xudoga muhabbat yo'lida uni chindan ham hayotdan judo qilgan va buni o'zi uchun muqaddas amal deb bilgan ukasi – Bartolomeo Dias esa ashaddiy fanatik edi»<sup>327</sup>. Gersog Fransua de Gizni, Oran shahzodasi Vilgelmni, qirol Genrix III ni, qirol Genrix IV ni va boshqa ko'plab taniqli zotlarni o'ldirgan kishilar diniy fanatizm «vabosi»ga chalingan odamlar bo'lganligidan dalolat beruvchi misollarni tarixdan ko'plab keltirish mumkin.

O'zbek «Falsafa» qomusiy lug'atida esa ushbu so'zning talqini berilmagan.

Diniy fanatizm fenomeniga ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarni umumlashtirish quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi: *diniy fanatizm muayyan diniy tasavvurlarga bo'lgan ko'r-ko'rona ishonchda, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga va o'zgacha fikrlovchilarga o'ta toqatsizlikda namoyon bo'luvchi ijtimoiy nuqtai nazar va psixologik-madaniy asoslarni o'z ichiga olgan ijtimoiy fenomenni o'zida ifodalaydi*. Diniy fanatizmning o'ziga xos xususiyatlariga muayyan diniy qadriyatlarining mutlaqo haqqoniylikiga sidqidildan ishonishni, mazkur qadriyatlarga o'ta sodiqlikni, voqelikka emotsiyalar darajasida irratsional munosabatni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar ko'pincha dogmatik fikrlash uslubi va hayot amaliyotidagi despotizm yoki avtoritarizm asosida vujudga keladi.

Bu yerda «**diniy fanatizm**» va «**diniy ekstremizm**» tushunchalarining mazmuni o'rtasidagi farqni hisobga olish talab etiladi, zero, hozirgi zamon voqeligining o'zi shuni taqozo qiladi. Xo'sh, fenomen sifatidagi diniy ekstremizm o'zida nimani ifodalaydi, uning mohiyati nimada? Adabiyotlarda ilgari surilgan nuqtai nazarga ko'ra diniy ekstremizm «dindan aksilijtimoiy va davlatga qarshi maqsadlarda qasddan foydalanish»ni o'zida ifodalaydi, zero, «ekstremist uchun din – jinoiy faoliyatni yashirish uchun niqob va dindor kishilarga o'z hukmini o'tkazish vositasi»dir<sup>328</sup>. Mazkur yondashuv ba'zi bir asoslarga ega, chunki diniy ekstremizmning muayyan ko'rinishlariga ma'lum siyosiy mo'ljallar xosdir.

<sup>324</sup> The Oxford English Dictionary. – Oxford, 1933. Vol. IV. – 59–60-p.

<sup>325</sup> Wielka encyclopedia powszechna. – Warszawa, 1963. T. 3. – 579-p.

<sup>326</sup> Мала енциклопедия Просвета. – Београд, 1978. Т. III. – 479-с.

<sup>327</sup> Вольтер. Поэмы. Философские повести. Pamфлеты. – Киев: 1989. – 460-с.

<sup>328</sup> Справочник агента. – Киев: 1986. – 383–384-с.



Bular jumlasiga dindorlarni chet mamlakatlarga muhojirlikka chiqishga da'vat etish, o'z e'tiqodiga sodiqlik uchun kishilarni ta'qib qilish hollari to'g'risida provokatsion bayonotlar berish va hokazolarni kiritish mumkin. Bunday eksesslar yuqorida bayon etilgan nuqtai nazar uchun ba'zi bir asoslarni beradi, biroq nisbatan murakkabroq hodisa sanalgan diniy ekstremizm fenomenini siyosiy ekstremizm bilan ayniyashtirish o'rinli bo'lmaydi.

Ba'zi bir mualliflar diniy va siyosiy ekstremizm o'rtasida farqlar mavjudligini, siyosiy ekstremizm ba'zan diniy niqob ostida ish ko'rishi mumkinligini ta'kidlaydilar.<sup>329</sup> Darhaqiqat, siyosiy ekstremizm deganda, odatda, o'z siyosiy maqsadlariga terror, zo'rlik ishlatish, odam o'ldirish va boshqa turdagi agressiv faoliyat yordamida erishishga harakat qiluvchi soxta inqilobiy yoki o'ta o'ng ultrareksion kuchlar mafkurasini va amaliyotini tushunadilar. Dalillar siyosiy ekstremizm o'z maqsadlariga qarab u yoki bu dinlarning xususiyatlaridan ularni sun'iy tarzda puflab shishirish yoki xaspo'shlash yo'li bilan foydalanishi mumkinligidan dalolat beradi.

Diniy ekstremizmning siyosiy ekstremizmdan farqi shu bilan belgilanadiki, unda ayrim konfessiyalar doirasida asosan diniy maqsadlarni ko'zlaydigan, ularga erishish uchun terror va kuch ishlatish usullarini rad etadigan o'ta konservativ va fanatik davralarning manfaatlarini ifodalaydi. Biroq bu diniy fanatiklar «xudo yo'lida» agressiv harakatlar sodir etishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni istisno qilmaydi, ya'ni diniy ekstremizm siyosiy mazmunga deyarli har doim duch kelish mumkin. *Diniy ekstremizm kuchli diniy ishtiyoq va jahd-u jadalda, qonunni buzishda, hokimiyat organlariga bo'ysunmaslikda, dunyoviy va diniy institutlar o'rtasidagi munosabatlarni qasddan keskinlashtirishda, o'z diniy guruhiga mansub kishilarni boshqa diniy guruhlardan va nodiniy muhitdan ajratishga intilishda, o'z tasavvurlarini keng yoyish va tish-tirnog'i bilan himoya qilishda namoyon bo'ladi.* Bu diniy ekstremizmning mohiyati «diniy maqsadlarga g'ayriqonuniy faoliyatning dindan tashqaridagi yo'llarida erishishga harakat qilishdan iborat»<sup>330</sup> degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Shunga qaramay, «diniy ekstremizm» va «diniy fanatizm» tushunchalarining mazmunini bir-biridan aniq ajratish imkoniyati doim ham mavjud emas, chunki diniy maqsadlarga terror yo'li bilan va qonuniylik doirasida erishish imkonini beruvchi vaziyatlar ham bor. Volter o'zlariga ergashmagan vatandoshlarini o'ldirish, so'yish, toshbo'ron

<sup>329</sup> Гальперин Б.И. Религиозный экстремизм: кто есть кто. – Киев: 1989. – 7–10-с.

<sup>330</sup> Гальперин Б.И. Религиозный экстремизм: кто есть кто. – Киев: 1989. – 11-с.

qilishga kirishgan parijlik burjualar fanatizmiga e'tiborni qaratar ekan, unga «fanatizmning o'ta jirkancha namunasi»<sup>331</sup> deb tavsif beradi. Sovuqqon fanatiklar – o'zga diniy qadriyatlar tizimini targ'ib qiluvchi, boshqa diniy aqidalar yoki ateistik dunyoqarash doirasida fikrlovchi kishilarni o'limga hukm qiluvchi hakamlar haqida-ku gapirishning ham hojati bo'lmasa kerak. Umuman olganda, diniy ekstremizm din muxlislarining harakatlarini tavsiflaydi, diniy fanatizm esa ko'proq ularning dunyoqarashini aks ettiradi, ammo bu tushunchalar o'rtasidagi chegarani aniq belgilash imkoniyati doim ham mavjud emas deb aytish mumkin (bunga G'arbiy Ukrainada pravoslavlar va katoliklar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi misol bo'lishi mumkin).

Diniy fanatizm fenomenini o'rganishda uning tarixiy xususiyatini hisobga olish lozim. Dinning tadrijiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlash politeistik dinlar bosqichida boshqa dinlarning muxlisari va o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan diniy fanatizm ashaddiy toqatsizligi mavjud bo'lmaganligini kuzatish imkoniyatini beradi. So'nggi yillarda tarix fanida ilgari surilayotgan, qadimgi davrni ilk qadimiyat va tugab borayotgan qadimiyat bosqichlariga ajratishni nazarda tutuvchi yondashuv ham buni tasdiqlaydi.<sup>332</sup> Ilk qadimiyat bosqichining muhim xususiyatlaridan biri axloqiy muammolar yetakchi o'rin egallamaydigan jamoalar politeistik ritualistik dinlarining mavjudligi hisoblanadi.

Keng tarqalgan fikrga zid o'laroq, ilk qadimiyat davrida diniy toqatsizlik amalda mavjud bo'lmagan: «Boshqa dinlarga nisbatan toqatlilik barcha politeistik dinlarning umumiy jihati hisoblanadi»<sup>333</sup>. Odamlar o'z jamoalarining xudolariga sig'inar ekanlar boshqa jamoalarning a'zolari ham o'z panteonlariga sig'inishlarini bilganlar. Keyinchalik bu ko'p sonli xudolar aslida ayni bir xudolardir, ular faqat ismlari bilan farq qiladi degan tasavvur keng tarqalgan. Bu o'z sinkretizmi bilan ajralib turuvchi qadimgi Misr dini misolida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi: «Misr panteoni ilohning ayrim ko'rinishlari yig'indisini emas, balki turli ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi ilohiy asosni o'zida ifodalardi, shu tufayli ham turli xudolar o'xshash funksiyalar va qiyofaga ega edi. Biroq ayni paytda bir iloh turli funksiyalarni bajarishi va har xil qiyofalarda mavjud bo'lishi mumkin edi. Konkret xudolar shaxsiy xususiyatlaridan tashqari ilohning barcha atributlariga ham ega edilar»<sup>334</sup>. U yoki bu xudolar

<sup>331</sup> Вольтер. Поэмы. Философские повести. Памфлеты. – Киев, 1989. – 460-с.

<sup>332</sup> Qarag: История древнего мира. Ранняя древность. – Москва: 1989. – 17-6.; Заболоцка Ю. История Ближнего Востока в древности (от первых поселений до персидского завоевания). – Москва: 1989. – 10-с.

<sup>333</sup> Сему J. Religia starozytnych egipcjan. – Warszawa, 1974. – 114-р.

<sup>334</sup> Заболоцка Ю. История Ближнего Востока в древности (от первых поселений до персидского завоевания). – Москва: 1989. – 134–135-с.



«funksiyalari»ning sezilarli darajada o'xshashligi yoki ayniyligi haqidagi tasavvur o'zgalarning xudolariga yoki bosib olingan xalqlarning xudolariga hurmat ko'zi bilan qaralishiga imkoniyat yaratardi. Misrliliklar o'zgalarning xudolariga ham, o'zlarining mamlakatida yashab qolish istagini bildirgan har bir ajnabiyga ham mehmondo'stlik bilan munosabatda bo'lganlari tasodifiy bir hol emasdi.

Qizig'i shundaki, qadimgi va O'rta podsholiklar davrida bu «mehmondo'stlik»dan faqat bir iloh – Nubiya xudosi Dedun (mushkanbarlar xudosi) foydalanadi. Bizningcha, buning sabablarini Nubiya, Liviya, Sinay yarimoroli va janubiy Falastin dinlaridan izlash o'rinli bo'ladi. Qadimgi Misr bilan chegaradosh bo'lgan bu davlatlar misrlilarning xudolari kabi jalb qiluvchan va kuchli xudolarni taklif qila olmasdilar. Boshqa arxaik xalqlardan farqli o'laroq, qadimgi misrlilarga o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonch xos edi. Umuman olganda, qadimgi Misr sivilizatsiyasiga nazar tashlash misrliliklar faqat abadiyat haqida, umrboqiylik haqida o'ylagan ekan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Ammo bu ishonch qadimgi misrlilarga individ uchun majburiy bo'lgan axloqiy me'yorlarni yaratishga monelik qilmagan. Qadimgi Misrda o'ta dindorlik muhiti insoniylik mezonlari bilan mushtarakdir<sup>335</sup>. Qadimgi manbalardan biri – «Fir'avn Merikar uchun fan» asaridayoq gunohkor odamni narigi dunyoda gunohiga yarasha jazo kutishi qayd etiladi. Gunohsizlarga narigi dunyoda ilohiy hayot va'da qilinadi. Qadimiyat bosqichida ta'riflangan bu konsepsiya Yangi podsholik davrida vijdon tushunchasi yaratilishiga olib keladi. Donishmandlar uni inson ichidagi xudo deb ataydilar, uni keyinchalik rim imperatori – faylasuf Mark Avreliy yoqtirib qolgan go'zal symo sifatida tavsiflaydilar. Shunday qilib, qadimgi Misrda kuchli dindorlik muhitida insonparvarlik, insoniylik tamoyillari vujudga keladi.

Tugab borayotgan qadimiyat bosqichida jamoa chegarasi va etnik chegaradan chetga chiquvchi dogmatik axloqiy dinlar, ya'ni «jahon» dinlari paydo bo'ladi va dunyo bo'ylab tarqala boshlaydi. «Biron-bir boshqa xudoga e'tiqod qilishni istisno etuvchi dogmatik dinlar paydo bo'lganidan keyingina diniy adovat vujudga keladi va o'z diniga kuch ishlatish yo'li bilan kiritish odat tusini oladi»<sup>336</sup>. Birinchi dogmatik dinlar qatoriga Eronda zardushtiylik va Falastinda iudaizm kiradi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, zardushtiylik ham, iudaizm ham monoteistik dogmatik dinlarga aylangunga qadar uzoq rivojlanish yo'lini

<sup>335</sup> Qarang: Симонов П.В., Ершов П.М., Вяземский Ю.П. Происхождение духовности. – Москва: 1989. – 82–83-с.

<sup>336</sup> Заболотка Ю. История Ближнего Востока в древности (от первых поселений до персидского завоевания). – Москва: 1989. – 11-с.

bosib o'tadi. Garchi dogmatik dinlarda monoteizm sari harakat o'z tadrijiy yakuniga yetgan bo'lmasa-da (xristianlikda xudoning uch qiyofaligi, iudaizm va islomda «yakka xudo»ning ziddi sifatidagi iblis va shu kabilar haqidagi aqidalar ham buni tasdiqlaydi), monoteistik dinlarning vujudga kelishi diniy toqatsizlik paydo bo'lishiga olib keladi va u diniy fanatizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biriga aylanadi.

Nima bo'lganda ham monoteizmning qat'iylik darajasi, shuningdek, jahon dinlarida rasm-rusumlar va aqidalarning bir xillashirilishi ularning boshqa konfessional tizimlarga toqatlilik darajasiga teskari proporsionaldir degan fikrga qo'shilish mumkin. Monoteistik dinlarda dunyoqarash, rasm-rusumlar va aqidalar tizimining aniq belgilanganligi ularga begona elementlarni kiritish imkoniyatini ham, mavjud dunyoqarash andozalari doirasida ularni talqin qilishni ham qiyinlashtiradi. Ushbu fonda induizm ta'limoti alohida ajralib turadi. Bu dinda umum e'tirof etilgan qonun va hamma uchun yagona bo'lgan shaxsiy iloh yo'q. Diniy amaliyot shakllari ko'pligini hisobga olsak, yagonalikning rang-baranglikda namoyon bo'lishi prinsipi, jahonning turli diniy tizimlari mavjudligi prinsipi aynan induizmga o'zining eng oliy ifodasini topadi. Diniy plyuralizm ta'limoti va induizmning tolerantligi hozirgi davrda unga bo'lgan qiziqishni kuchaytirmoqda. G'arbda mazkur dinga kirish ijobiy fakt sifatida qaralishi tasodifiy bir hol emas, zero, u an'anaviy xristianlikning inqirozi natijasida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqqa qarshi kurashishda qudratli vosita hisoblanadi<sup>337</sup>.

Albatta, induizmning mafkuraviy tolerantligini ideallashtirish ham yaramaydi, chunki hayot amaliyotida unga induizm muxlisi xulq-atvorining qattiq tartibga solinishi, turli tabaqalardan iborat jamiyatning boshqa diniy e'tiqodlar tarafdorlaridan muayyan guruhlarni shakllantirish qobiliyati qarama-qarshi turgan. Shunga qaramay induizm mistitsizm mavqeining kuchliligi diniy majmuaning hozirgi ong uchun absurd sanalgan elementlari – aqidalar, mifologiya, rasm-rusumlarning eskirgan shakllari rad etilishiga olib keladi. Shu tariqa insonni «tashqi dindorlik»dan xalos qilish yo'lida yana bir qadam tashlanadi – u insonning «ichki dunyosi»ga aylanadi. Boz ustiga din g'ayritabiiylik sohasi sifatida, insonning kam o'rganilgan ruhiyati bilan bog'lanadiki, bu turli xil spekulyatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi<sup>338</sup>, bu esa o'z navbatida diniy fanatizm «vabosi» tarqalishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, **diniy fanatizm fenomeni madaniy-tarixiy kontekst doirasida, jamiyat hayotining boshqa hodisalariga bog'lab o'rganilishi lozim.**

<sup>337</sup> Ткачева А.А. Индуистские мистические организации и диалог культур. – Москва: 1989. – 3-с.

<sup>338</sup> Подикарпов В.С. Наука и мистицизм в XX веке. – Москва: 1989.



Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, kishilik tarixidagi olamshumul ma'naviy to'ntarish – **Ellada, Hindiston va Xitoyda falsafaning paydo bo'lishi** (miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalari) alohida diqqatga sazovordir, zero, u diniy fanatizm fenomeniga ancha kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, falsafani puxta ishlab chiqilgan mantiqsiz tasavvur qilish mumkin emas, zotan u to'plangan bilimlarni tez o'zlashtirish bilan bir qatorda, diniy ong monopoliyasiga putur yetkazuvchi qarashlarning izchil tizimini yaratish imkonini beradi. Diniy fanatizmning falsafa doirasida yaratilgan mantiqqa bog'liqligini tushunish uchun shu narsa muhimki, mantiq konsepsiyalari har doim zahirida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli yotuvchi madaniyatga bog'liq bo'ladi, ya'ni mantiqiy bilimlar tizimi an'ana va sivilizatsiya o'rnatgan cheklashlar bilan belgilanadi.

Falsafa paydo bo'lishining uch markaziga muvofiq mantiqning *ellincha, hindcha va xitoycha* an'analari shakllanadi. Bu an'analarning har biri o'z xususiyatiga ega. **Qadimgi Yunoniston** nazariy refleksiya va mantiqning shakllanish jarayoni tahlili unga siyosiy va madaniy hayotning desakralizatsiyasi (antik davrga xos bo'lgan hodisa), yunon harfli yozuvining paydo bo'lishi, ma'naviy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kishilar tomonidan targ'ib qilingan «beg'araz kuzatish» ideali, o'ta rivojlangan yunon madaniyatining yaratilishi, polis demokratiyasining mavjudligi kabi omillar ta'sir ko'rsatganligini namoyish etadi. Aksiomatik metod, isbot qilish nazariyasi, aristotelcha formal mantiq asoslarini antik sotsiumdan qidirish o'rinli bo'ladi. Bu yerda biz uchun eng muhim narsa shuki, klassik formal mantiq o'zining istisno qilingan uchinchi qonuni bilan birga xristian Yevropasi va musulmon Sharqi madaniyatidan o'rin oldi.

**Qadimgi Xitoyning** ijtimoiy va madaniy tarixi alohida kohinlar korporatsiyasining yo'qligi, ilmiy tadqiqotlar amaldorlar byurokratik elitasi vakillari tomonidan bajarilishi, ierogliflar fetishizmi, mistika, mantika va hokazolar bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi mantiqiy bilimlar tizimining dogmatik va algoritmik xususiyatini belgilaydi. Unda isbot qilish nazariyasi, mantiq qonunlari yo'q, «ish» va «ism» o'rtasidagi fundamental munosabat esa (u Yevropa madaniyati doirasida yaratilgan «subyekt – predikat» mantiqiy munosabatidan farq qiladi) amalda bilishni ismlar vositasida qayd etadiki, bu arxaik madaniy shakllarga xosdir.

Matematik isbotlash an'anasidan kelib chiqqan qadimgi Yunoniston mantiqidani farqli o'laroq, **qadimgi Hindiston** mantiqi «turli maktablar tarafdorlarining bahs-munozaralaridan iborat bo'lgan intellektual o'yin

negizida vujudga kelgan»<sup>329</sup>. Hindcha mantiqda formal o'zgartirish g'oyasi mavjud emas, zero, u formal mantiqdan farqli ravishda boshqacha prinsiplar asosida tuzilgan. Hindcha sillogistika «Kama-sutra»ga sharhlar tizimini o'zida ifodalaydi, u real narsalar va hodisalar mazmunini yoritishga qarab mo'ljallanadi. Hindcha mantiq ilmiy o'rganish real jarayonidan kelib chiqadi, bunda u yoki bu tabiat fenomenlarini matematik abstraksiyalar tilida tushuntirish aynan konkret «shu yerda» va «hozir» tushuntirishni o'zida ifodalaydi. Formal isbot qilish nazariyasining yo'qligi braxmancha madaniyat og'zaki an'anaga qarab mo'ljallanishi bilan izohlanadi.

Falsafiy inqilob insoniyat tarixida keltirib chiqargan oqibatlar ziddiyatlarga to'la. Bir tomondan, jamiyatning intellektual imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi, tarix yangi siklining poydevori bunyod etildi. Keyingi davrlar madaniyati o'z mumtoz manbalaridan bahra oladi. Boshqa tomondan, yangi falsafiy ta'limotlar arxaik, diniy-mifologik madaniyat zavol topganidan so'ng hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'liq to'ldira olmadi va bu jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi axloqiy buzulishning kuchayishiga olib keldi.

Ayni shu sababli falsafiy ta'limotlarning rivojlanish jarayoni bilan bir qatorda barcha dinlarni birlashtirgan dunyoga ruhiy, intuitiv munosabatni, yangi axloqiy qonunni yaratishga qodir bo'lgan xaloskorni topish yo'lida izlanishlar olib borildi. O'rtayer dengizi bo'yidagi hududlarda, Hindiston va Xitoyda sinxron tarzda yuz bergan bu jarayon mafkuraviy inqirozga barham berdi va jahon dinlariga, shu jumladan monoteistik dinlarga asos soldi. Shu yerda ellincha, hindcha va xitoycha mantiqlarning o'ziga xos jihatlari jahon dinlarining xususiyatida aks etdi. Aniqlik aytganda, xitoycha va hindcha mantiqlarda istisno etilgan uchinchi qonuni yo'q, shu tufayli ham bu mamlakatlarda politeizm va monoteizm o'rtasida tanlashni amalga oshirish muammosi mavjud emas. Ayni shu sababli xitoy va hind dinlari boshqa dinlarning muxlislariga nisbatan mafkuraviy jihatdan ko'proq darajada tolerantlik bilan tavsiflanadi. Xitoy va hind madaniy an'alarining diniy tasavvurlariga ko'ra oliy haqiqatni (ma'naviy absolyutni) insoniy tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydi. Ushbu dinlarga kuchli mistik mo'ljallar xosligi tasodifiy bir hol emas. Ellincha mantiq esa o'zining istisno etilgan uchinchi qonuni bilan birga xristian va islom dinlari tizimidan o'rin oldi va ularning monoteistik xususiyati kuchayishiga

<sup>329</sup> Лионович М.Б. Очерк развития логических идей в культурно-историческом контексте. – Киев: 1979. – 95-с.



ko'maklashdi. Ushbu dinlarda Iso Masih (xristianlar uchun) va Olloh taolo (musulmonlar uchun) eng oliy haqiqatni o'zida mujassamlashtiradi. Sharqona tUSDagi politeistik dinlarga «yumshoq» diniy fanatizm xos bo'lsa, g'arb monoteistik dinlariga boshqa din vakillari va o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan toqatsizlikni, ba'zi hollarda esa vahshiyona, shafqatsiz munosabatni o'z ichiga oluvchi ashaddiy fanatizm xosdir.

Diniy fanatizm fenomeni nafaqat **ijtimoiy-madaniy darajaga**, balki individning jismoniy borlig'i bilan uzviy bog'liq bo'lgan **ijtimoiy-psixologik darajaga** ham ega. Ijtimoiy-psixologik darajada diniy fanatizm fenomeni tafakkur, emotsiyalar, tuyg'ular va hokazolarni o'z ichiga olgan inson ruhiyatining holatlaridan biri sifatida mavjud bo'ladi. Biroq inson ruhiyati o'z-o'zicha moddiy emas va bevosita idrok etilmaydi. Masalan, bizning ikki karra ikki – to'rt degan fikrimiz biron-bir moddiy xossaga ega emas. Bu yerda biz muqarrar tarzda ijtimoiy simvolizm bilan to'qnash kelamiz, ya'ni o'z fikrimizni boshqa odamga bildirish yoki uni o'zimizdan tashqarida ifodalash uchun biz simvollaridan foydalanishga majbur bo'lamiz. Ichki dunyo hodisalari o'zlikdan tashqarida namoyon bo'lishining har qanday ko'rinishi albatta simvol bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, simvol ma'naviy dunyo belgisini o'zida ifodalaydi. Inson faoliyatida simvollar tizimining o'rni va ahamiyati uning ijtimoiy meros (ijtimoiy xotira) mexanizmi, madaniyatni asrash va avlodlarga uzatish vositasi sifatidagi roli bilan belgilanadi.

Simvollar faoliyat subyekti tomonidan qo'yilgan maqsadlarga qarab dunyo haqidagi tasavvurni va dunyoga bo'lgan munosabatni obyektivlashtiradi. Shu munosabat bilan, odatda, ilmiy, badiiy, mifologik, diniy va boshqa xil simvollar farqlanadi.<sup>340</sup>

Simvol o'zining dialektik ziddiyatlarga to'la tabiati bilan ajralib turadi. Simvol o'zi paydo bo'lgan ijtimoiy dunyo ssenariysi sifatida, madaniyatlar qatlamidan o'tib, o'zining yagona mohiyatini saqlab qoladi, unga takrorlanuvchanlik xosdir. Madaniyat elementi sifatida simvol boshqa madaniy bosqichlar yoki qadimga madaniyatlarga ishora qiladi. Shu bilan bir qatorda simvol madaniy kontekst bilan faol o'zaro aloqalarga kirishishi jarayonida ularning bir-biriga o'tishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, simvolning yagona mohiyati turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Variantlilik xususiyati simvolga yangi tajribani to'plash va uyushtirish imkonini beradi, ya'ni u o'ziga xos xotira kondensatori sifatida amal qiladi.

Simvollarining eng qadimgi turlari sanalgan mifologik va diniy simvollar o'z funksiyalarini rasm-rusumlar orqali bajaradilar. Rasm-rusumlar mifopoetik yoki kosmologik davrda birinchi darajali ahamiyat

<sup>340</sup> Qarang: Лосев А. Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. – Москва: 1976. – 186–187-с.

kasb etadi. Bu davr matnlarida asosiy e'tibor tartibga soluvchi kosmik asosning destruktiv xotik stixiya bilan kurashiga qaratiladi<sup>341</sup>. Arxaik tafakkurning kosmologik sxemalari dunyoning yaralishi haqidagi mifning shumercha, bobilcha, qadimgi xitoycha, polineziyacha, sibircha variantlarida qayd etilgan. Kosmologik davrning mifopoetik dunyoqarashiga makrokosmos va mikrokosmosni, dunyo va insonni ayniylashtirish xosdir.

Kosmologik davrda rasm-rusumlar inson ijtimoiy borlig'ining asosiy shakli, uning faoliyat ko'rsatish qobiliyatining bosh timsoli hisoblanadi. Keyinchalik uning negizida odamlarning ishlab chiqarish-iqtisodiy, ma'naviy-diniy va ijtimoiy faoliyati rivojlanadi. Aynan u borliqning yaxlitligini va u haqidagi bilimlarni idrok etish imkonini beradi.<sup>342</sup> Rasm-rusumlar (simvolik faoliyat) asosan mifni (simvollar tizimini) o'ziga bo'ysundiradi. Bu yuz bermagan hollarda mif rasm-rusumlar zamirida yotuvchi g'oyalarni boshqacha yo'l bilan ifodalaydi. Bu simvollar ijtimoiy xotiraning konkret shakllari hisoblanadi. Insoniyat ijtimoiy-tarixiy tajribasining barqaror sxemalari, andozalari va algoritmlari inson xotirasi bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat xotirasining mavjudligi zamirida aynan inson xotirasi yotadi, zero, ayrim individlar miyasining xotirasiz madaniyat tarixi va to'plangan bilimlarni tasavvur qilish ham mumkin emas.<sup>343</sup> Inson faoliyatiga yo'l ko'rsatuvchi ong uning xotirasida qayd etilgan bilim va tajribadan foydalanish asosida faoliyat ko'rsatadi, xotiraning o'zi esa idrok etilayotgan dunyo bilan bog'liqdir. Binobarin, diniy fanatizm fenomenining, kengroq ma'noda esa – dinning tahlili inson xotirasining har xil turlarini, ayniqsa ruhiy xotirani o'rganishni talab etadi. Ruhiy xotira inson xulq-atvoriga, uning xatti-harakatlariga, kayfiyatiga va boshqa individlar bilan o'zaro munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ruhiy xotira diniy tuyg'ularning shakllanishida ham ulkan rol o'ynaydi. Ruhiy xotira muayyan ruhiy holatning o'zi haqidagi ma'lumotlarinigina emas, balki bu holatning yuzaga kelishini belgilagan vaziyat haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.<sup>344</sup> Ayni shu sababli tegishli diniy aqidalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan turli rasm-rusumlar, odatlar va marosimlar mazkur aqidalar xotiradan mustahkam o'rin olishini ta'minlaydi. Inson hayot faoliyatida ruhiy xotira ishtirokining pinhona shakllari mavjud (aksariyat hollarda ruhiy xotira ongsizlik darajasida amal qiladi). O'zlashtirilgan diniy aqidalar inson xulq-atvorini,

<sup>341</sup> Qarang: Топоров В. Н. О ритуале. Введение в проблематику // Архаический ритуал в фольклорных и раннеисторических памятниках. – Москва: 1988. – 9-с.

<sup>342</sup> O'sha joyda. – 16–17-b.

<sup>343</sup> Qarang: Механизмы памяти. – Л., 1987. – 3-с.

<sup>344</sup> Qarang: Громова Е. А. Эмоциональная память и ее механизмы. – Москва: 1980. – 131-с.



ayniqsa diniy fanatik xulq-atvorini o'z-o'zidan belgilaydi. Shunday qilib, inson xotirasini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlar dunyoga diniy yondashuvning, shu jumladan, diniy fanatizmning shakllanish mexanizmi haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Diniy fanatizmning xususiyati bilan uning **ijtimoiy-psixologik funksiyalari** ham uzviy bog'liq. Adabiyotlarda diniy fanatizm muayyan ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-dunyoqarashga doir funksiyalarni bajarishi ta'kidlanadi. Aniqroq aytganda, diniy fanatizmdan kishilar o'rtasida diniy adovat qo'zg'atish, diniy urushlar olovini yoqish uchun foydalaniladi. Bunga ishonch hosil qilish uchun musulmonlarning kofirlarga qarshi «muqaddas urushi» - jihodni, «dahriylar», ateistlar va hurfikrli olimlarni ta'qib qilish va o'ldirish hollarini eslashning o'zi kifoya qilsa kerak. Boshqacha qilib aytganda, diniy fanatizm insonning sotsial xulq-atvorini, shu orqali barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Darhaqiqat, boshqa individlar bilan o'zaro munosabatlarning muayyan tizimi doirasida inson o'z rolini o'ynaydi, alohida bir funksiyani bajaradi. U ijtimoiy munosabatlar «ansambli»dagi (ijtimoiy munosabatlarning konkret-lokal tizimidagi) bu rolni lozim darajada o'zlashtirgach, o'z tanasining alohida ijtimoiy funksiyalarni bajarishni fiziologik va psixologik jihatdan ta'minlaydigan a'zolarini tinimsiz mashq qildiradi. Tabiiyki, bu a'zolar nisbatan ildamroq rivojlanadi va pirovardida hattoki individning tashqi ko'rinishi ham u hayotda nima bilan shug'ullanishidan dalolat berishi mumkin (masalan, zohidlar, tarki dunyo qilgan odamlar, iezuitlar va shu kabilarining tashqi ko'rinishi)<sup>345</sup>.

Diniy fanatizm ijtimoiy tizimning individ bajaruvchi alohida funksiyalaridan birini o'zida ifodalaydi. Bunda ijtimoiy tizim yoki kengroq ma'noda ijtimoiy muhit o'z shakl-shamoyiliga ega bo'lmagan individlardan sirdagi qandaydir mexanizm emasligini e'tiborga olish lozim. Amalda bu har doim real individlar o'rtasidagi munosabatlarning konkret majmuidir. Binobarin, diniy fanatizm muayyan kishilar guruhi jamiyatni boshqarish, hokimiyatni amalga oshirish va boyliklarni egallash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tizim funksiyasini bajaradi.

Diniy fanatizmning yuqorida ko'rsatilgan funksiyalari konkret ijtimoiy-tarixiy kontekstga bog'liq bo'ladi. Muayyan tarixiy sharoitlarda diniy fanatizm feodallarning xalqqa nisbatan chidab bo'lmas darajadagi jabr-zulmiga qarshi qaratilgan, kuchli milliy-diniy harakatlarga yo'ldosh bo'lgan edi. Bunga o'rta asrlar Sharqida **messionizm** (ilohiy xaloskor

<sup>345</sup> Ильенков Э.В. Что же такое личность // С чего начинается личность. – Москва: 1979.

kelishiga bo'lgan ishonch) va **maxdizm** (islom messionizmi), g'arbiy Yevropada esa – katarlar harakati misol bo'lishi mumkin.

Katarlar («soflar») harakati XII asrda Fransiya janubida va Shimoliy Italiyaning bir qismida keng tarqalgan edi. Ularning moniylik ta'limoti yomonlikning dunyodagi rolini iblis amali sifatida mutlaqlashtirar edi. Katarlar dunyoviy hayot chegarasidan tashqarida barcha odamlarning jonlari birodarlarcha muhabbatda birikishiga ishonardilar. Shu tufayli ham ular o'zlari uchun quyidagi maqsadlarni belgilagan edilar: hayotning sofligi, ma'naviy barkamollik, shahvoniy mayllar va ehtiroslarni yengish. Katarlar davlatni, jamoat tuzilmalari, ayniqsa cherkovni rad etardilar, shu tufayli ham ular Injilni xalq tiliga o'girdilar, rasmiy diniy marosimlar va rasm-rusumlarning har qanday shakllaridan voz kechdilar. Ularning jamoasiga dunyoviy ehtiroslarning barchasidan voz kechgan kishilar rahbarlik qilardilar. Ularning va'zlari xalq muhabbatini qozongan edi. Ular katolik ulamolar bilan bahslarda ko'p karra g'olib chiqqan edilar<sup>346</sup>. Katarlar hayotni ixtiyoriy tark etishni rag'batlantirardilar va ba'zan bu dunyoni o'zlarini o'zlari o'ldirish yo'li bilan tark etardilar.

Dunyoda hamma yomon ishlar iblis amali hisoblanishidan kelib chiqib katarlar ekspluatatsiya, soliqlar va o'lponlarga, ichki nifoqlar va urushlarga, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka, ma'lum darajada xususiy mulkka ham sabab bo'lgan barcha omillarni diniy nuqtai nazardan qoralaganlar. Katolik cherkov iblisning bunday amallarini muqaddas deb e'lon qilgani bois, katarlar uni iblisning kuchi deb e'lon qildilar. Shu tufayli ham katolik cherkovi katarlarga qarshi shafqatsiz kurash boshladi, qirg'inbarot «albigoy urushlari»ga fatvo berdi va fanatik muassasa – muqaddas inkvizitsiyani tashkil etdi.

Boshqa tarixiy sharoitlarda diniy fanatizmdan cherkov va ma'murlar dahriylarni jazolash uchungina emas, balki o'z hokimiyatini kuchaytirish uchun ham foydalanganlar. Misol tariqasida katolik cherkov diniy fanatizmdan o'rta asrlar g'arbiy Yevropada hokimiyat uchun kurashda qanday foydalanganligini ko'rib chiqamiz. Ayni holda diqqatga sazovor narsa shuki, cherkov o'z maqsadlariga erishish yo'lida «Iso Masih saltanati»ga ko'r-ko'rona ishonch, asketizm va tarkidunyochilikdan foydalanadi. O'rta asrlar katolitsizmida asketik ideallarga moyillik va dunyoviy hayotda cherkovning hukmronligini o'rnatishga intilish kuzatiladi. Asketizm va hukmronlik ideallari majusiylikdan xalos bo'lish va cherkov rim davlati ustidan g'alaba qozongan davrda xristianlikning kayfiyati bilan bevosita bog'lanadi.

<sup>346</sup> Уколов В.И. Церковь и ересь в Западной Европе (V–XV вв.) // Научный атеизм, религия и современность. – Новосибирск: 1990.



Rim papasining teokratik hokimiyati bir-birini istisno qiluvchi ikki prinsip – asketizm (tarkidunyochilik) va **butun dunyoga o'z hukmini o'tkazishga** asoslanadi. O'rta asrlar g'arbiy Yevropa tarixi shu ikki prinsipning o'zaro aloqasidan darak beradi: «Aslida dunyoviy hayotga nafrat shiori yozilgan bayroq ostida papalik o'zining dunyo ustidan eng buyuk g'alabalarini qo'lga kiritadi; asketik idealizm yo'lida papalar cherkovni o'zgartiradilar va unga dunyo miqyosida ulkan kuch-qudratga erishish imkonini bergan tashkilotni yaratadilar. Dunyoviy hayotdan qaytgan monaxlar cherkovda va dunyoda papaning jahoniy hokimiyati g'oyasini targ'ib qilish, uning manfaatlarini himoya qilish, uni mustahkamlash va kengaytirishga ko'maklashish uchun dunyoviy hayotga qaytariladilar. O'z monastirlarini tark etar ekanlar ularning o'zlari prelatlar\* va papalar sifatida yakkahokimlik g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun butun dunyoni zabt etadilar»<sup>347</sup>. Shunday qilib, asketizm, tarkidunyochilik va xudoga sig'inish katolik cherkov qo'lida o'z maqsadlariga erishish uchun qudratli qurol bo'lib xizmat qiladi.

Bu qurollarning aksariyatini xristianlik o'tgan zamonlar va madaniyatlardan o'zlashtiradi va ularni papa hokimiyatining ehtiyojlari bilan muvofiq holatga keltiradi. Qadimgi dunyo dini va falsafasi asketizm va tarkidunyochilikni targ'ib qiladi. Xristianlik esa xudoning saltanatini bu dunyodan ayri deb e'lon qiladi. Asketizm, tarkidunyochilik zamirida Sharqda vujudga kelgan moniylik ta'limoti (zardushtiylik, xristianlik va gnostitsizm sintezi) yotadi; asketizm bilan qadimgi yunon falsafasi neoplatonizmda yakunlanadi. Avliyo Avgustin o'z asarlari ustida ishlar ekan ayni shu uch manbaga (neoplatonizm, moniylik, xristianlikka) tayanadi, boz ustiga uning o'zi ham asketizmni targ'ib qiladi va o'z ta'limotida uni yuksak o'ringa qo'yadi.<sup>348</sup>

O'rta asrlar G'arbiy Yevropa jamiyatining asketik kayfiyati va rim-katolik cherkovining istilochilik harakatlari o'rtasidagi kontrast o'rta asrlar tarixiga xos xususiyat hisoblanadi. Bu yerda biz «mavjud talablar va sharoitlarga zid ravishda voqelikni o'zgartirishga intilayotgan monaxlar va papalar hamda mazkur g'oyalarni siyosiy qurolga aylantirayotgan siyosatchilar bilan qatorda dunyo uchun jon fido qilayotgan asketlarga va dunyoni o'z nog'orasiga o'ynatish uchungina monaxlik intizomida toblangan fanatiklar»ga duch kelamiz<sup>349</sup>. Asketizm va cherkov ierarxiyasini yoqlovchilar dunyoda teokratiya hukmronligini o'rnatish va inson hayot faoliyatining barcha sohalari – siyosat, iqtisod, huquq,

\* Прелат – католик ва англикан черковларида юкори мансабга эга булган рухний.

<sup>347</sup> Герье В. Западное монашество и папство. – Москва: 1913. – 2-с.

<sup>348</sup> Августин. О благодати и свободном произволении. – Москва: 1987.

<sup>349</sup> Герье В. Западное монашество и папство. – Москва: 1913. – 4-с.

adabiyot va fanni o'rta asrlar dunyoqarashiga bo'ysundirish uchun tinimsiz kurash olib boradilar.

O'rta asrlarda katolik cherkovining daromadlari va mol-mulki ko'payadi. G'arbda barqaror markazlashgan hokimiyat yo'qligi sharoitida katolik cherkovi g'arbiy Rim imperiyasi hududida vujudga kelgan varvarlar qirolliklarining qirollari tashlab ketgan ulkan boyliklarni o'zlashtiradi<sup>350</sup>. Diniy fanatizm rim papalari o'z boyliklarini saqlab qolishlarigagina emas, balki ular ko'p karra ko'payishiga ham ko'maklashadi, zero, u cherkovning ierarxiyaviy markazlashgan hokimiyatiga tayanadi. Diniy fanatizm rim-katolik cherkovining jamiyatni totalitar usullar bilan boshqarish yo'lidagi intilishlarini qo'llab-quvvatlash vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

**Diniy fanatizmning keng tarqalishi xalq urushlariga sabab bo'lishi mumkin.** Buni Xitoydagi taypinlar qo'zg'oloni (1850–1864-yillar) misolida kuzatish mumkin. Konservativ tUSDagi xalq harakatlarining ayrimlariga (Xitoydagi ixetuanlar qo'zg'olonidan Erondagi islom inqilobigacha) ham diniy fanatizm yo'ldosh bo'lgan. Rus diplomati I.Korostovets Xitoydagi bokserlar qo'zg'oloni haqida shunday deb yozadi: «Xitoydagi ko'pgina xalq harakatlari kabi bu harakat ham g'ayritabiiylik unsuridan xoli emas edi. Bokserlarning rahnamolari imperiyani himoya qilish va ajnabiylarni quvib chiqarishni o'z shioriga aylantirib, umrboqiylik va benuqsonlik haqidagi va'dalar bilan izdoshlarni jalb qila boshlaydilar. Haqiqiy bokser o'lishi mumkin emas, o'lgan taqdirda ham u tirilishi lozim degan fikr paydo bo'ladi. G'ayritabiiylikning, magik kuchning bu elementi shaharliklarnigina emas, balki irim-chirimlarga ayniqsa ishonuvchan bo'lgan qishloq muhitiga mansub kishilarni ham bokserlar saflariga torta boshlaydi»<sup>351</sup>. Ixetuanlarning bunday ittifoqiga namuna bo'lib o'g'il bolalar ustozlar rahbarligida dao gimnastikasi bilan shug'ullanadigan, qiz bolalar esa umrboqiylikni ta'minlovchi «falsafa toshi»ni topish yo'lida izlanadigan diniy uyushmalar xizmat qiladi.

Ixetuanlar turli rasm-rusumlarni faqat bir maqsadda – ruhni yordamga chaqirish va u sig'inayotgan odamning tanasiga o'rnamashib, uni g'ayritabiiy kuch bilan to'ldirishiga erishish uchun bazarar edilar. Gavjum yig'ilishlarda va o'z shiorlarida ixetuanlar barcha xitoyliklarni ajnabiylarga qarshi bosh ko'tarishga chaqirardilar, yevropaliklarga qarashli uylarning ayrimlariga qon bilan belgi qo'yardilarki, bu ularga o't qo'yish lozimligini anglatardi. Lo'nda qilib aytganda, ixetuanlar aholida ajnabiylarga nisbatan

<sup>350</sup> Qitang; Корсунский А.Р., Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение германских королевств. – Москва: 1984.

<sup>351</sup> Сидихменов В.Я. Мандчжурские правители Китая. – Москва: 1985. – 177-с.



nafrat uyg'otish uchun mavjud imkoniyatlarning barchasini ishga solishga harakat qilardilar. Natijalar o'zini uzoq kuttirmaydi: ixetuanlar o'z raqiblariga misli ko'rilmagan darajada shafqatsizlik bilan munosabatda bo'ladilar, jinsi va yoshidan qat'i nazar barcha xristianlarni qirib tashlaydilar, ular yashaydigan mavzelar yoki qishloqlarni esa kultepalarga aylantiradilar. Ayol imperator Sisi olib borgan xiyonatkorona siyosat natijasida avval ixetuanlardan ajnabiylarni qirib tashlash uchun, keyin ajnabiylardan ixetuanlardan qutulish uchun foydalanadilar, qo'zg'olon umumxalq tusini olmaydi va qonga botiriladi.

Endi o'tgan asming 70-yillari oxirida Eronda yuz bergan, g'arbda nashr etilgan adabiyotlarda «islom inqilobi» degan nom olgan voqega to'xtalamiz. Inqilob arafasida Eronda yuzaga kelgan vaziyat haqida tasavvur hosil qilish uchun shoh Muhammad Rizo Pahlaviyning «Buyuk sivilizatsiya sari» deb nomlangan kitobini varaqlash o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz. Ushbu kitobda quyidagi so'zlarni o'qishimiz mumkin: «Bugun biz G'arbni quvib yetish uchun uzoq yo'lni bosib o'tishimiz kerak. Ammo «quvib yetish»ning o'zi kifoya qilmaydi. Mamlakatimizdagi sharoit G'arbda mavjud bo'lgan sharoitlardan sezilarli darajada farq qiladi, shu tufayli ham bizdan ularga moslashish talab etiladi. Biz g'arb texnologiyasini o'z madaniyatimizga, madaniyatimizni esa texnologiyaga moslashtirishimiz kerak. Muammoni yechishning yangi yo'li shudir»<sup>352</sup>. Ko'rib turganimizdek amalda g'arbiga xos bo'lgan rivojlanish yo'liga qarab mo'ljal oluvchi «sivilizatsiyani yaratish»ga nisbatan shohning yondashuvi sof dunyoviy tusga ega, chunki u ulamolardan xoli bo'lgan islom haqida so'z yuritadi. Shoh Muhammad Rizo Pahlaviy o'z kitobida ulamolarni namoyishkorona e'tibordan soqit etadi. O'z-o'zidan ravshanki, ulamolar ham bunga qo'l qovushtirib qarab turmaydilar: ular xalqni shoh rejimiga qarshi namoyishlarga olib chiqadilar, masjidlardagi va'zlarida shohning imperialistik davlatlar, ayniqsa AQSh bilan hamkorligini ayovsiz tanqid tig'i ostiga oladilar, musulmonlar ongiga fanatizm unsurlarini izchil singdiradilar. Natijada a'vom xalq oyoqqa turadi va serhasham do'konlarni talon-toroj qiladi, dabdabali avtomobillarga o't qo'yadi. O'z-o'zidan ravshanki, «stixiyali» tarzda tashkil etilgan bunday harakatlar politsiya va armiya otryadlari bilan to'qnashuv natijasida qurbonlar bilan tugaydi. Bundan tashqari, fanatiklarning guruhlarini kinoteatrlar va restoranlarga, spirtli ichimliklar va g'arb estradasi musiqasi yozuvlari bilan savdo qiluvchi do'konlarga, banklarning bo'limlariga va mullalar o'z va'zlarida «shirk» deb e'lon qilgan boshqa muassasalarning binolariga o't qo'yadilar, ularni portlatadilar.

<sup>352</sup> Иранская революция 1978-1979 гг.: Причины и уроки. – Москва: 1989. – 75-с.

«Islom inqilobi» sodir bo'lganidan so'ng Eron ulamolari doimiy itoatkorlikni qaror toptirish uchun omma ongini o'z hukmiga bo'ysundirish zaruriyati bilan ro'baro' bo'ladilar. Bunga erishish vositasi sifatida jamiyat ma'naviy hayoti va turmushining barcha sohalarini islomiyashtirish tanlanadi. O'rta asrlar musulmon jamiyati atributlari bilan boyitilgan islomiy «ommaviy madaniyat»ni keng yoyish jarayoni boshlanadi.

Bunday «madaniy inqilob» mamlakatni «g'arb va xudosislar ta'siridan forig' etish»<sup>353</sup> uchun davlat apparatini sezilarli darajada yangilashni talab qilar edi. Humayniychilar (Eron ulamolari rahbari Oyatulla Humayniy tarafdorlari) «Olloh dushmanlari» - burjua liberallari va so'l kuchlar vakillarini yo'q qilib tashlashga chaqiradilar. Universitetlarning professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalariga, shuningdek, G'arbda ma'lumot olgan ziyolilarga ham qaqshatqich zarba beriladi. 1980-yilning iyunida oliy o'quv yurtlaridan jami yigirma ming talaba va ikki ming o'qituvchi haydaladi. Ko'chalarda mullalar va islomiy tartib qo'riqchilari bilan talabalar va qituvchilar o'rtasida yuz bergan to'qnashuvlar natijasida bir necha yuz talaba qamoqqa olinadi, yaralanadi va halok bo'ladi<sup>354</sup>. Shunday qilib, mamlakatning intellektual kuchlari tormor keltiriladi, bu esa mamlakat taraqqiyotiga misli ko'rilmagan darajada katta zarar keltiradi. Yuqorida bayon etilganlar diniy fanatizm g'arb turmush tarziga qarshi, hozirgi zamon fani va texnikasi bilan bog'liq bo'lgan begona qadriyatlarining olib kirilishiga qarshi qudratli hujumga aylangan inqilobga qanday qilib konservativ tus berganligiga misol bo'ladi.

Sharq sivilizatsiyalari ming yillik diniy an'alarining keng qatlamlaridan chuqur o'rin olgan **diniy fanatizm** ayrim sharq mamlakatlari aholisining ongi, turmush tarzi va siyosatiga hali uzoq vaqt jiddiy ta'sir ko'rsatsa kerak. Taniqli sharqshunos olim L. Vasilev vaziyatni tavsiflab, shunday deb yozadi: «Garchi bugungi kunda rivojlanish sur'atlarining sezilarli darajada jadallashuvi Sharq sivilizatsiyasi an'alarini tinimsiz o'zgarayotgan vaziyatga jadalroq sur'atlar bilan, yangicha yondashishga majbur qilayotgan, bu konservativ an'alarining yangilanishiga, davlat strukturasi erkinlashtirilishiga, sivilizatsiyaning o'zi asta-sekin o'zgarishiga olib kelishi lozim bo'lsa-da bu jarayonlarning barchasi haddan tashqari ildam bo'lishi mumkin emas»<sup>355</sup>. Binobarin, diniy ong tarkibidan o'rin olgan fanatizmning sharq sivilizatsiyalariga ta'siri hali-beri to'xtamas kerak.

<sup>353</sup> Иранская революция 1978-1979 гг.: Причины и уроки. – Москва: 1989. – 254-с.

<sup>354</sup> O'sha joyda. – 255-b.

<sup>355</sup> Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 407-б.



Diniy fanatizm asoslari, xususiyati va funksiyalarining yuqorida amalga oshirilgan tahlili diniy fanatizm inson va ijtimoiy guruhlarining stixiyali ijtimoiy jarayonga, kishilarning ongli nazorati bilan qamrab olinmagan ijtimoiy kuchlar harakatining majburiy xususiyatiga, ya'ni o'z hisoblanadi degan xulosaga kelish imkonini beradi. Jamiyat stixiyali kuchlarining shikastli ta'siri ham odamlar ongida «egri» diniy tasavvurlar paydo bo'lishiga olib keladi. Diniy fanatizmning vujudga kelishiga inson emotsiyalari - qo'rquv, nafs, muhabbat, nafrat va hokazolar, shuningdek, fetishistik fantaziyalar ham ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diniy fanatizm fenomenining vujudga kelishida qo'rquv alohida o'rin egallaydi. Ushbu tuyg'uning kuchlilik darajasi va amalda namoyon bo'lish shakllari ko'p jihatdan inson borlig'ining ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Diniy fanatizmning o'zi individ va guruhlarining deformatsiyalangan ko'rinishdagi diniy qadriyatlar tizimiga bo'lgan muayyan munosabati sifatida begonalashib ketgan ijtimoiy borliqni aks ettiradi. Ijtimoiy borliq ko'p variantli, o'zgaruvchan bo'lgani bois uning deformatsiyalangan in'ikosi diniy fanatizm shakllarining rang-barangligida o'z ifodasini topadi. Quyida ularga batafsilroq to'xtalamiz.

**Diniy fanatizmning shakl-shamoyillari.** Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish kishilik tarixida barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan, u individ ongining faolligi, uning izchil ijtimoiy xulq-atvori bilan uzviy bog'liq. N. Naumovning «Izchil xulq-atvorning sotsiologik va psixologik jihatlari» kitobida individual mavjudlik darajasida strategik maqsadlarni belgilash mexanizmi ochib berilgan<sup>356</sup>. Ushbu mexanizm muqobillik, antinomiallik, maqsadni belgilashning asosiy elementlari o'rtasidagi aloqa, vaqtning nooptimalligi va uni strukturalashtirish prinsiplariga asoslanadi. Biz uchun vaqt bilan bog'liq bo'lgan oxirgi prinsip ayniqsa diqqatga sazovordir, zero, u irratsional xulq-atvor shakllaridan biri hisoblangan diniy fanatizmni oqilona tushuntiradi.

Maqsadni belgilash inson faoliyatining fundamental xususiyati sifatida obyektiv va subyektiv vaqt bilan chambarchas bog'liq<sup>357</sup>. Vaqt inson dunyosi mavjudligining obyektiv shakligina emas, balki kishilarning izchil faoliyati vositasi hamdir. Shu tufayli ham vaqtning strukturalashtirish, vaqtning ichdan his qilish bilan bog'liq qadriyatlarga qarab mo'ljall olish inson hayotida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Vaqt insonning ruhiy kechinmalarida muhim rol o'ynaydi, bunda mazkur kechinmalar usuli

<sup>356</sup> Наумова Н.Ф. Социологические и психологические аспекты целенаправленного поведения. – Москва: 1988.

<sup>357</sup> Поликарпов В.С. Время и культура. – Харьков: 1987.

uning dunyoga bo'lgan munosabatiga va turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Inson vaqtga ruhan moslashuvining bir nechta yo'llari ma'lum. Ulardan kelib chiqib, psixologik dunyoning to'rt tipini ajratish mumkin: 1) *gedonistik kechinmalar dunyosi* (hozirgi vaqtga qarab mo'ljall olish); 2) *realistik kechinmalar dunyosi* (kelajakka qarab mo'ljall olish); 3) *qadriyatlar sifatidagi kechinmalar dunyosi* (ichki dunyo abadiyat prinsipiga bo'ysunadi); 4) *ijodiy kechinmalar dunyosi* (o'tmish, kelajak va abadiyatning noadditiv sintezi). Tabiiyki, bu kechinmalar dunyolarini empirik darajada qayd etish qiyin, zero, real individ hayotida bir nechta usullar birikishi mumkin. Biz uchun vaqtning his qilishning uchinchi tipi muhim, chunki u ijtimoiy tizimning alohida funksiyalaridan biri hisoblanadigan va inson miyasining faoliyat dasturlari orqali amalga oshiriladigan diniy fanatizm bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy tizim o'z ichida real individlar o'rtasidagi munosabatlarning turli lokal «ansambllari»ga bo'linadi. Diniy fanatizm shakllarining rang-barangligi ham ayni shu omil bilan belgilanadi. Bu yerda diniy fanatizmning diniy me'yorlar va aqidalarga so'zsiy ro'ya qilish (monaxlik), tarkadunyochilik (asketizm), diniy mutaassiblik, o'taketgan jaholatparastlik kabi shakllarini ajratish mumkin. Shunga mos ravishda diniy fanatiklarning «tiplari»ni ham (bir chekkada tomoshabin bo'lib kuzatib turuvchi passiv diniy fanatiklardan ekstremistik g'oyalar bilan ruhlangan diniy fanatiklarga) ajratish mumkin. Diniy fanatizmning yuqorida sanab o'tilgan barcha shakllari zamirida vaqtning abadiyat sifatida his qilish yotadi.

Diniy fanatizm shakllari va ularga mos keluvchi fanatiklar tiplarining rang-barangligi sof psixologik hodisalar bilan bir qatorda esxatologik, messianistik omillar, madaniy an'analar, konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan ham bog'liq. Chunonchi, katoliklar va pravoslavlarining ma'naviy qadriyatlari o'rtasidagi farqlar o'z ildizlari bilan madaniyatlarining, sivilizatsiyalarning o'tmishiga borib taqaladi<sup>358</sup>. Xristianlik doirasida asrlar mobaynida ikki yo'nalish shakllangan va amal qiladi: ulardan biri Rim va g'arb atrofida (katolitsizm), ikkinchisi esa – yangi Rim yoki Konstantinopol, shuningdek, Gretsiya atrofida (pravoslav) mujassamlashadi.

Birinchi yo'nalish – katolitsizm diniy ta'limot va cherkov tashkiloti sifatida 1054-yilda cherkovlarning bo'linishidan keyin vujudga keladi. Katolitsizm xristianlikning asosiy aqida va marosimlarini e'tirof etadi. Ayni vaqtda uning o'ziga xos aqidalari ham bor. Katolitsizm muqaddas ruh faqat xudo-otadan emas, balki xudo o'g'ildan ham paydo bo'lgan, Rim

<sup>358</sup> Qarang: Braudel F., Coarelli F., Aymard M. Morze sredziemie. Region i jego dzije. – Gdansk, 1982. – 102-103-p.



papasi Isoning yerdagi noibi, u din va axloq ishlarida gunoh qilmaydi, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan yuqori turadi deb hisoblaydi. Katolitsizm faqat muqaddas bitik (Bibliya)ni emas, balki muqaddas rivoyatni ham diniy ta'limotning manbai deb biladi. Pravoslaviedan farqli o'laroq katolitsizm muqaddas rivoyatga katolik cherkovlari jahon soborlarining qarorlari va papaning fikrlari ham qo'shilgan. Ruhoniyarning uylanmasligi, Bibi Maryam bokira bo'la turib Isoni tug'ishi, uning jismi osmonga ko'tarilib ketishi aqidasini e'tirof etish, e'tiqod timsoliga a'rof aqidasini qo'shish katolitsizmga xos xususiyatdir<sup>359</sup>.

Ikkinchi yo'nalish – pravoslavie dastlab Vizantiya imperiyasining davlat dini bo'lganligi uchun uning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Pravoslavie olamning yaratuvchisi va boshqaruvchisi muqaddas uchlik (troitsa)dan iborat yagona xudo ekanligi, narigi dunyo to'g'risidagi dastlabki gunoh tufayli azob-uqubatlarga duchor qilingan insoniyat najot topishiga imkon beruvchi Iso Masihning xaloskorlik missiyasi haqidagi aqidalarini tan oladi. Cherkovning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachilik rolga alohida e'tibor beradi. Pravoslavieda xristianlarning yetti sirli marosimi asosiy o'rin egallaydi. Pasxa va postlarga katta ahamiyat beriladi. Katolitsizm qabul qilingan ayrim aqidalar (muqaddas ruhning faqat ota xudodangina emas, balki o'g'il xudodan ham kelib chiqishi, poklanish makoni) pravoslavieda e'tirof etilmaydi. Ba'zi sirli marosimlar boshqacharoq o'tkaziladi. Katolitsizmdan farq qiladigan yana bir jihati shundaki, pravoslavieda yagona markaz, yagona boshliq yo'q, balki o'n beshta mustaqil cherkov mavjud<sup>360</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, katolitsizm va pravoslavieda diniy fanatizmning namoyon bo'lish shakl-shamoyillari ham bir xil emas. Katoliklar dunyosida fanatizm agressiv xususiyat kasb etgan, o'zgacha fikrlovchilarga qarshi qaratilgan, hokimiyat va boylik ko'rinishida «dividendlar» keltirgan. F. Dostoevskiyning «Telba» romani qahramoni: «Menimcha, rim katolitsizmi hatto din ham emas, balki G'arbiy Rim imperiyasining tadrijiy davomi va unda hamma narsa, dindan boshlab, shu fikrga bo'ysundirilgan. Papa yerni, dunyoviy taxtni ishg'ol qildi va qo'liga qilich oldi; bu shundan beri davom etib keladi, faqat qilichga yolg'on-yashiq, olg'irlilik, aldov, fanatizm, bid'at, yovuzlik qo'shilgan, xalqning eng muqaddas, haqqoniy, sodda, otashin tuyg'ulari bilan o'ynashadilar, hamma

<sup>359</sup> *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зобунисо – Коннчил. Тухрир хайъати: М.Аминов, Т.Даминов, Т.Долзимов ва б. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – 504-б.*

<sup>360</sup> *Филсафа: комуслий луғат. – Тошкент: "Шарк" нашриёт-матбаа вакилдорлик компанияси Бош тухририяти, 2004. – 334-б.*

narsani pulga, tuban dunyoviy hokimiyatga almashtirib yuborganlar»<sup>361</sup> deyishi tasodifiy bir hol emas. Pravoslavieda esa boshqa odamga qarshi qaratilgan bunday ashaddiy fanatizm yo'q, chunki rus kishisiga, yana o'sha F. Dostoevskiy ta'biri bilan aytganda, «insonda insonni topishga intilish» xosdir. Biroq krepostnoylik tartibi hukm surayotgan Rossyaning ijtimoiy voqeligi sharoitida buni amaiga oshirish mushkul ish edi. Haqiqiy insonni faqat «o'zga» dunyo – ilohiy nur va muhabbat dunyosida izlash mumkin edi. Ayni shu hol pravoslav raskolniklari diniy fanatizmga yuz tutishlariga – omma qarshisida o'zlariga o'zlari o't qo'yishlariga turtki bergan omillardan biri hisoblanadi<sup>362</sup>.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, fransuz mutafakkiri R. Jirarning *xristian g'arbining madaniy rivojlanishi zamirida Iso Masih o'limini o'zini o'zi qurbon qilish sifatida soxta tushunish yotadi, aslida esa Iso o'z jonini fido qilar ekan, Xudoning odamlarga bo'lgan chin muhabbatini tasdiqlagan* degan fikri diqqatga sazovor. Bu fikrni u o'zining «Geraklit logosi va Ioann logosi» asarida rivojlantiradi. Bu yerda u erkni fuqarolarning zo'ravonligini ifodalovchi Geraklit logosi va qullarni bo'ysundirishga qaratilgan zo'rlikni qayd etuvchi Ioann logosini bir-biridan ajratish imkonini beruvchi belgilarni ko'rsatadi<sup>363</sup>. Bu asarda muallif Yahyoni shafqatsiz podsho xususiyatlariga ega xudoga aylanshiga imkon beruvchi payg'ambarlar fanatizmi an'anasigagina emas, balki iudaizm va xristianlikni to'raligicha qullar uchun yaratilgan, qullarga xos bo'lgan tafakkur ifodasi sifatida tavsiflovchi Nitssh an'anasiga<sup>364</sup> ham ishora qiladi. Iudaizm va xristianlikning o'n amri ushbu talqinda interiorizatsiya qilingan jabr-zulmdan boshqa narsa emas.

Endi diniy fanatizmning turli shakllari va fanatiklarning ularga mos keluvchi tiplari tahliliga o'tamiz. Qadim zamonlarda Suriya-Falastin mintaqasi bo'ylab, shu jumladan, yahudiylar jamiyatida keng tarqalgan payg'ambarlik diniy fanatizmning shakllaridan biri hisoblanadi<sup>365</sup>. Avvalambor shuni qayd etish lozimki, o'z tabiatiga ko'ra payg'ambarlik ba'zi bir unsurlariga deyarli barcha dinlarda duch kelish mumkin bo'lgan shamanizmga o'xshab ketadi. Payg'ambarlarning va'zlariga xudo nomidan gapirish xos bo'lgan. Bu va'zlar yozib olingan va keyinchalik payg'ambarlarning o'zlari va ularning shogirdlari tomonidan qayta ishlangan. Shu tariqa payg'ambarlarning kitoblari paydo bo'lgan. Payg'ambarlar jamiyat hayotida muhim rol o'ynaganlar, zero, Xudoning

<sup>361</sup> *Достоевский Ф.М. Собр. соч. В 10-ти т. Т.6. – Москва: 1957. – 615-с.*

<sup>362</sup> *См.: Пронин Г. Черное воинство. – Москва: 1988. – 104-с.*

<sup>363</sup> *См.: Girard R. Logos Heraklita i logos Iana // Studia Filozofica, 1988, № 10. – 181–183-б.*

<sup>364</sup> *См.: Ницше Фридрих. Антихристианство // Сущность богов. – Москва: 1989. – 19–35-с.*

<sup>365</sup> *См.: Шифман И.Ш. Ветхий завет в его мир. – Москва: 1987.*



amrlarini imo-ishora tarzida ifodalash orqali ular jamiyat erkin a'zolarining siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatganlar.

Iudaizmdagi payg'ambarlik harakatiga majusiy ko'p xudolilikdan voz kechish va Yahyo yakkaxudoligining qaror topishi, yovuzlik, adolatsizlik, yolg'on va jabr-zulmga o'rin bo'lmagan ijtimoiy adolat saltanati sifatidagi bo'lg'usi jamiyat manzarasining yaratilishi xosdir. Biroq bu jamiyat faqat mazkur xalq uchun mo'ljallangan. Vaqt o'tishi bilan inson shaxsiyatini individual kamol toptirishni targ'ib qilish asosida butun jamiyatni o'zgartirib bo'lmashligi, bu ijtimoiy utopiyadan boshqa narsa emasligi ayon bo'ladi. Shu tufayli ham dunyoni yangi, odilona asoslarda qayta qurishni amalga oshirishga faqat xalqining barcha gunohlari va jinoyatlarini o'z azob-uqubatlari bilan yuvuvchi va shu tariqa uni jazodan xalos etuvchi jafokash (messiya) qodir degan g'oya paydo bo'ladi. Pirovardida miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmidagi payg'ambarlik harakati iudaizm o'zgacha fikrlovchilarga va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga toqatsiz bo'lgan monoteistik dinga aylanishiga olib keladi.<sup>366</sup>

Keyinchalik Yahyoni birdan bir chin Xudo, osmon va yer bunyodkori deb biladigan, dastavval o'ziga yot bo'lgan jonning o'lmashligini tan oladigan, ashaddiy fanatizm bilan tavsiflanadigan iudaizm o'z rivojlanish yo'lida zamirida yakka Xudo va jonning o'lmashligi konsepsiyasi yotuvchi vulgarlashgan yunon falsafasiga duch keladi. Yunon falsafasi va iudaizmning sintezi natijasida diniy fanatizmni ham qon-qoniga singdirgan xristianlik dini vujudga keladi.

Xristianlikda diniy fanatizm shakllaridan biri *monastirlarda amal qiluvchi diniy me'yorlar va ahdlarga qat'iy rioya etish* hisoblanadi. Cherkov monaxga Iso Masih askari sifatida qaraydi. Askar o'ziga qurolni ishonib topshirgan davlatga sadoqatini qasamyod keltirish yo'li bilan tasdiqlasa, tarki dunyo qilgan odam monaxlik rutbasini ahd berish orqali qabul qiladi. Askarning xulq-atvori harbiy nizomlar bilan belgilansa, monax o'zi yashayotgan monastirda amal qiluvchi diniy qoidalarga bo'ysunadi. Monaxning mashaqqatlarga to'la yo'lidagi birinchi qadam itoatgo'ylik hisoblanadi. Monaxlik dunyoqarashi, inoklar ahdlari va monastir ustavlari asoslarini yaratgan Paxomiyning fidoyiligi itoatgo'ylikning oliy namunasi bo'lib xizmat qiladi.<sup>367</sup>

Diniy fanatizmning boshqa bir shakli «asketik jasoratlar» va itoatgo'ylik bilan uzviy bog'liq bo'lgan *zohidlik yoki darveshlik* hisoblanadi. Diniy aqidalarga muvofiq insondagi shaxsiy asosga ilohiy asos bilan ayniyashtirilgan muhabbat qarama-qarshi qo'yiladi. Havoriy

Ioann: «Xudo sevgidir. Sevgini diliga jo qilgan kishi Xudo bilan bir tan bo'lib yashaydi. Xudo ham uning vujudida yashaydi» (1 Ioan. 4, 16) deydi. Salib yurishlar davrining mashhur monaxi Bernard Klervoskiy yaratgan monaxlik axloqining mohiyati ilohiy sevgini muttasil madh etishdan iborat, asketizm esa sevgida kamol topish vositasi hisoblanadi. Bu yerda asketizmning butunlay boshqacha talqini namoyon bo'ladi, zotan ilgari fidoyilik jismoniy azob-uqubatlariga dosh berish sifatida ruh va irodaning jism ustidan g'alabasi sifatida qaralar edi. Bernard Klervoskiy Xudoni sevishtirishni monax fidoyiligining cho'qqisi sifatida talqin qiladi va uni umuminsoniy fazilatlar orasida ham eng yuksak o'ringa qo'yadi.<sup>368</sup>

Diniy fanatizmning o'ziga xos shakllaridan biri *o'ziga o'zi o't qo'yish* hisoblanadi. Diniy fanatizmning bu shakli asosan *rus pravoslav raskolniklariga* xos.<sup>369</sup> O'ziga o'zi o't qo'yish dehqonlar orasida keng tarqalgan bo'lib, patriarx Nikon tomonidan ashaddiy fanatizm bilan hayotga tatbiq etilgan «antixrist» mafkurasi bilan bog'liq edi. Uning faoliyati va siyosati cherkov olamiy hokimiyatni qo'lga kiritishiga erishishga qaratilgan edi. Ushbu iddaolar zamirida XI asrda Kiyev mitropoliti Ilarion tomonidan yaratilgan «Xudoning marhamati hukm suruvchi saltanat», «Yangi Isroil» sifatidagi Rus haqidagi qoida ilgari surilgan «Qonun va Xudoning marhamati haqida so'z» yotardi. Patriarx Nikon yerda Xudodan keyin ikkinchi bo'lishni orzu qilardi, bunda podsho uchinchi o'ringa tushar edi. Cherkov islohotlari natijasida din a'yonlari o'rtasida «raskol», ya'ni ixtilof yuz beradi va u o'nlab har xil yo'nalishlar va oqimlar, keyinchalik esa – sektantlik paydo bo'lishiga olib keladi. Patriarx Nikonga staroobryadchilik<sup>370</sup> rahnamosi protopop Avvakum qarshi turadi. Patriarx Nikon tarafdorlari va protopop Avvakum izdoshlari o'rtasidagi bahslar va munozaralar amalda fojiali oqibatlariga – ommaviy o'ziga o'zi o't qo'yishlarga sabab bo'ladi. Eski din muxlislari o'ziga o'zi o't qo'yishni o'z jonini saqlab qolishning birdan bir yo'li sifatida e'tirof etadilar. O'ziga o'zi o't qo'yishlar XVII asrda bir necha o'n yilliklar mobaynida (ularda to'qqiz mingga yaqin kishi halok bo'ladi) va XVIII asrda davom etadi.<sup>371</sup> Umuman olganda, raskolniklarning diniy fanatizmi ikki yoqlama xususiyat kasb etadi. Bir tomondan, u raskol harakatining konservativ-diniy niyatlarini ifodalaydi, boshqa tomondan esa uning rasmiy cherkov va feodal-krepostnoy davlat hokimiyatiga qarshi

<sup>366</sup> Герье В. Западное монашество и папство. – Москва: 1913. – 41-6.

<sup>369</sup> Никольский Н.М. История русской церкви. – Москва: 1988; Пронин Г. Черное воинство. – Москва: 1988; Русское православие: веки истории. – Москва: 1989.

<sup>370</sup> Старообрядчество – XVII asrda Rossiya «raskol» natijasida yuzaga kelgan eski aksharlarga amal qiluvchi mazhablarni o'z ichiga olgan diniy okim.

<sup>371</sup> Никольский Н.М. История русской церкви. – Москва: 1988. – 171-172-с.

<sup>366</sup> Шафарик И.Ш. Ветхий завет и его мир. – Москва: 1987. – 72-б.

<sup>367</sup> Пронин Г. Черное воинство. – Москва: 1988.



harakatlariga ko'maklashadi<sup>372</sup>. Tabiiyki, o'ziga o'zi o't qo'yishga faqat ashaddiy fanatiklar jur'at etadilar, eski din muxlislarining asosiy qismi esa ovloq o'rmonlarga bosh olib ketish bilan kifoyalanadilar.

Nihoyat, ashaddiy diniy fanatizm shakllaridan biri *din muxlisi tomonidan o'zgacha fikrlovchilar va boshqa din vakillarining o'ldirilishi* hisoblanadi. Diniy fanatikning bu tipini Volter shunday tavsiflaydi: «Odatda fanatiklarga ablah odamlar rahbarlik qiladi, ular fanatiklarning qo'liga pichoq tutqazadi, ular nodon kishilarga o'zi aytgan odamlarni borib o'ldirsalar, jannat mevalaridan bahramand bo'lishlarini va'da qilgan tog'lik qariyani eslatadi»<sup>373</sup>. Bu yerda Volter hashshoshiylar yashirin harakati asoschisi Hasan ibn Sabboh (XI asr oxiri – XII asr boshi)ni nazarda tutadi. Sabboh o'z ta'limotini targ'ib qilish uchun tuzgan bu tashkilot fidoyilar (arab. – biron maqsad yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor shaxslar) va tashkilot sirlari bilan hali oshno etilmagan muxlislardan iborat bo'lgan<sup>374</sup>. Ashaddiy diniy fanatiklar bo'lgan fidoyilar terror yo'li bilan tashkilot qudratini tasdiqlaganlar; ular oq libos va qizil boshmoq, belbog' va qalpoq kiyganlar. Fidoyilarni tayyorlash jarayoni bir necha yilga cho'zilgan. Ularga ta'lim berishda yosh organizmni toblashning murakkab tizimi qo'llanilgan. Pirovardida inson ashaddiy diniy fanatikka, chidamli va itoatkor qotilga aylangan<sup>375</sup>. Yashirin hashshoshiylar tashkiloti o'rta asrlarda hozirgi Eron, Suriya va Livan hududlarida faoliyat ko'rsatgan.

Diniy fanatizm konkret shakllarining tahlili ularda ongning turli tiplari (konservativ ong, radikal ong va h.k.) bilan bir qatorda u yoki bu din faoliyatining ijtimoiy-madaniy kontekstini ifodalovchi muayyan jihatlar ham aks etishini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan *diniy fanatizmning inson tabiati bilan aloqasi* ayniqsa diqqatga sazovor. Bu yerda inson tabiati deganda «inson tabiiy kuchlari rivojlanishining o'z xususiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lgan jarayoni»<sup>376</sup> tushuniladi. Ijtimoiy tizimlar va madaniyatlarning rang-barangligi inson tabiati haqidagi tasavvurlarning ham ko'p sonliligini belgilaydi. Hozirgi zamon texnologik jamiyati individning o'zidan ko'ra u erishgan yutuqlarni ko'proq qadrlaydi, sharq jamiyatlarining aksariyati esa shaxsning ichki, ruhiy kamolot darajasini birinchi o'ringa qo'yadi. Shimoliy Amerika hindulari, Polineziya aholisi va jamoa bo'lib yashaydigan boshqa xalqlarda jamoa doirasida individlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa ko'proq qadrlanadi. Texnologik jamiyat asosiy

<sup>372</sup> Русское православие: век истории. – Москва: 1989. – 218–229-с.

<sup>373</sup> Вольтер. Поэма. Философские повести. Pamфлеты. – Киев: 1989. – 461-с.

<sup>374</sup> Строева Л.В. Государство исмаилитов в Иране. – Москва: 1978. – 124–127-с.

<sup>375</sup> The Cambridge History of Iran. – Cambridge, 1968. Vol. 5. – 453–454-p.

<sup>376</sup> Тихенко В.И. Природа человека и современная наука / Современная наука: познание человека. – Москва: 1988. – 85-с.

e'tiborni individning dunyoni ruhiy va jismoniy (ayniqsa jismoniy) boshqarish qobiliyatiga qaratadi. Shunday jamiyatlar va madaniyatlar ham borki, ularda inson o'z ruhiy imkoniyatlarini moddiy dunyoni aql-idrok bilan tasavvur qilish orqali namoyon etadi. Masalan, AQShda protestantcha submadaniyatlarning aksariyati insonning ma'naviy yutuqlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Hozirgi zamon islom madaniyatlari individda o'z hayotini davlat ijtimoiy (ko'pincha diniy tusdagi) mifi bilan muvofiq holatga keltirish ehtiyojini shakllantiradi.

Diniy fanatikning dunyoqarashi – bu monoteistik dunyoqarashdir. Unga ko'ra, Xudo insonni o'ziga o'xshatib yaratgan va vafotidan so'ng inson o'zini yaratgan Xudo bag'riga qaytishi lozim. Ayni holda uslub (kognitiv yoki affektiv fenomenlarning namoyon bo'lish usullari) majoziy xususiyat kasb etadi: voqelik obrazlari ularda mujassamlashgan teran tasavvurlar (ilohiy haqiqatga botiniy intilish va sh.k.)ning universalligi nuqtai nazaridan baholanadi. U simvollarining kognitiv (bilish) jarayonlari bilan bog'liq (masalan, simvollarning sakral tili). Ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan bu uslub inson o'zligiga sotsial mifning o'ziga xos aniq manifestatsiyasi sifatida qarash imkonini beradi, bunda ijtimoiy va diniy institutlar (monastirlar, tariqatlar va h.k.) insonga o'z individualligini anglab yetish va his qilish chegaralarini ta'minlaydi. Individ ichki qadriyatlarga qarab mo'ljal olgan holda esa o'zlik uning axloqiy va ma'naviy yutuqlari (mutlaq itoatkorlik, asketizm va hokazolarning ideallari bilan muvofiqlik) nuqtai nazaridan tushuniladi. Natijada ko'z o'ngimizda quyidagi obraz paydo bo'ladi: *indivd ham moddiy, ham ma'naviy dunyoning tarkibiy qismidir. Uning o'zligi va individualligi moddiy dunyo chegarasidan chetga chiqish mahsuli hisoblanadi, bunda hayotning mazmuni Xudo bilan birikishdan iborat bo'ladi.*

Bu yerda insonning madaniy evolyutsiyasi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim omilni ham hisobga olish lozim. Odamlar turli guruhlariga mansub bo'lganlari bois ular madaniy jihatdan ham farq qiladilar, ya'ni turli madaniy axborotga ega bo'ladilar («biz» va «ular»ni ajratish aslida shundan boshlangan). Ayni shu sababli «insoniyat o'ziga o'xshashlarni yo'q qilishni taqiqlovchi qonunni rad etgan»<sup>377</sup>.

**Xulosa.** Diniy-mifologik madaniyatlarda yoki sakral qatlamga ega bo'lgan madaniyatlarda boshqacha madaniy axborot, boshqa din, o'zga e'tiqod bilan ajralib turuvchi o'ziga o'xshashlarni yo'q qilish qonuni o'zgacha fikrlovchilar va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarni yo'q qilishga ijozat beradi, diniy fanatik faoliyatini ma'qullash mezoni bo'lib xizmat


<sup>377</sup> Кууси П. Этот человеческий мир. – Москва: 1988. – 66-6.



qiladi. Diniy toqatsizlik prinsipi konkret tarixiy sharoitlar, madaniy an'analar va maqsadlar bilan belgilanuvchi o'z zaminiga ega bo'lgani bois diniy fanatik tiplari ham o'zining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, inson tabiatining o'zi ijtimoiy begonalik muhitida diniy fanatizm fenomenini paydo qiladi. Kishilik jamiyatining ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasi ta'sirida diniy fanatizmning o'zi ham rang-barang shakl-shamoyillar kasb etadi.


### Tajribaviy amaliy matnlar

Diniy fanatizm tabiatining tahlili, «Fanus - fanaticus» tushunchasi. Diniy tuyg'ularning ijtimoiy roli, dindorlik darajasining ko'rsatkichi, qadimgi shamanizm, magiya Mesopotamiya sivilizatsiyasi madaniyatida, magik totemizm va diniy fetishizm, magik universum strukturasi tushinishda magik sonlar. Shaman faoliyati





Paranormal hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning hisobotlari mavjud bo'lib, ularda ayrim kishilarning telepatiya, kelajakni bashorat qilish, biolokatsiya va boshqa qobiliyatlari to'g'risida ko'p sonli faktlar keltiriladi.



### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Magik universum strukturasi tushunishda magik sonlar.
2. Shaman faoliyati doirasida paranormal hodisalar sohasi.
3. Diniy fanatizmning asoslari va manbalari diniy fanatizm asoslari.
4. Diniy fanatizm kurtaklarida universal madaniy hodisa hisoblangan askeza yoki tarkidunyochilik.
5. Diniy fanatizm fenomenini tushunish zaruriyati.
6. Diniy ekstremizmning siyosiy ekstremizmdan farqi.
7. Diniy fanatizmning shakl-shamoyillari.

### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Diniy tuyg'ular insonning boshqa tuyg'ularidan o'zining g'ayritabiiy manbai bilan ajralib turadi deb kim aytgan?
  - A. U. Jems
  - B. L. Levi-Bryul
  - C. J. Frezer
  - D. U. Razerford
2. Insonning qanday tuyg'ulari g'ayritabiiy obyekt mavjudligiga bo'lgan ishonch bilan sug'orilgan tuyg'ularni o'zida ifodalaydi?
  - A. Diniy
  - B. Dunyoviy
  - C. Ma'naviy
  - D. Iqtisodiy

3. Qadimgi qaysi e'tiqodda diniy fanatizmning eng yorqin analogi va ilk obrazini ko'rish mumkin?

- A. Shamanizm
- B. Animizm
- C. Fetishizm
- D. Totemizm

4. Bugungi kunda g'arbda bilim va ongning noilmiy shakllariga qanday munosabat shakllangan?

- A. Falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazi
- B. Inson bilimining tarixan shakllangan bosqichi
- C. Inson madaniyatining shakllanish davridagi o'ziga xoslik
- D. Kundalik amaliy bilimlarning asosi

5. Bugungi kunda shamanizm va magiyani o'rganishga bo'lgan qiziqish falsafaning qaysi sohasi vakillari davrasida kuchayib bormoqda?

- A. Gnoseologlar va dinshunoslar
- B. Psixologlar va sotsiologlar
- C. Pozitivist va naturalistlar
- D. Ekzistensiyalistlar va antikvaristlar

6. Olimlar shamanizm va magiyani bilish nazariyasida noilmiy fikrlash unsurlarini hamda inson qiziqishlari va qadriyatlarini izlarini topish orqali unga «.....» berish maqsadida tahlil qiladilar.

- A. Insoniy tus
- B. Ijtimoiy xarakter
- C. Me'yoriy sifat
- D. Majoziylik

7. Ingliz olimi U. Razerfordning qaysi kitobida shaman harakatlari, uning magik raqlari, ekstaz va trans holatlari tavsiflanadi?

- A. "Shamanizm. Magiya asoslari"
- B. "Tabiat tizimi"
- C. "Narsalarning tabiati haqida"
- D. "Osmon jismlarining aylanishi to'g'risida"

8. Shaman «san'ati» .....



- A. Tabiblik mahorati va tajribasi mahalliy etnik va geografik sharoitlar  
B. Fol ko'rish  
C. Bashorat qilish va tabiatni boshqarish  
D. Barcha javoblar to'g'ri

**9. «Shaman» nima?**

- A. Barcha javoblar  
B. «Shaman» atamasi etimologik jihatdan indoyevropa tillaridagi «bilim» tushunchasiga borib taqaladi  
C. Shaman – bu «biladigan odam»  
D. Antropologlar shaman «ruhlar hukmdori» degan ma'noni anglatishini ta'kidlaydilar, dinshunoslar esa shamanizmni g'ayritabiiylik g'oyasi, animizm va totemizm bilan bog'laydilar

**10. Ibtidoiy tafakkurga irratsionalizmning qanday shakllari bor?**

- A. Magik totemizm va diniy fetishizm  
B. Magik totemizm va diniy animizm  
C. Animizm va fetishizm  
D. Barcha javoblar to'g'ri

**11. Ushbu fikr muallifini toping: idealistik dunyoqarashga asoslangan «totemizm mafkurasi» ijtimoiy ongning birinchi shakli hisoblanadi.**

- A. Y. Sigeti  
B. L. Levi-Bryul  
C. J. Frezer  
D. U. Razerford

**12. Qaysi olim fikriga ko'ra shaman – bu shaxs inqirozini boshdan kechirgan, «ongning evrilishi»ga erishish imkonini bergan maxsus trening jarayonidan o'tgan odam?**

- A. U. Razerford  
B. Y. Sigeti  
C. L. Levi-Bryul  
D. J. Frezer

**13. Ushbu fikr muallifini toping: Shaman «ummon tuyg'usi»ni his qilish orqali «tabiat bilan muloqot qilish» qobiliyatini kasb etadi.**

- A. Z. Freyd.

- B. Y. Sigeti  
C. L. Levi-Bryul  
D. J. Frezer

**14. Fransuz etnografi va psixologi L. Levi-Bryul ilgari surgan ibtidoiy tafakkurning ilk mantiqiy, assotsiativ xususiyati haqidagi konsepsiyada ibtidoiy odamlar tahlilini qanday yoritgan?**

- A. Muayyan asoslarga tayangan holda uzil-kesil xulosalar chiqarganlarida mantiqiy fikrlaganlarini ko'rsatadi. Biroq ularning tafakkuri voqelik bilan muvofiq kelmaydi  
B. Mantiqiy fikrlay olmaydilar. Lekin ularning ehtiyojlari to'g'ri yo'nalganligi bilan muvofiq keladi  
C. Voqelikka ularning xarakatlari mos kelmaydi  
D. To'g'ri javob yo'q

**15. «Insonning mazmun va mohiyati uning yemishi bilan belgilanadi» ushbu ibtidoiy tafakkurning fundamental qonuni nima deb atalgan?**

- A. Totemizm  
B. Anemizm  
C. Iudizm  
D. Fitizm

**16. J. Frezer konsepsiyasida magiyaga qanday fikr bildirgan?**

- A. Magiya din emas, u fanning ibtidosidir  
B. Magiya kundalik hodisalar orqasiga berkinadigan tabiat va psixik kuchlar sirlari  
C. Bilimning alohida shakllaridan biri  
D. Faoliyatdan tashqarida mavjud bo'lgan tashqi tizimlarga ta'sir qilish qobiliyati

**17. Hozirgi zamon maglari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?**

- A. L. Grey, M. Xarner, K. Kastaneda  
B. P. P. Gaydenko, E. A. Mamchur, L. A. Markova  
C. S. R. Mikulinskiy, L. M. Kosareva, D. I. Rojanskiy  
D. R. Merton, A. Koyre, J. Bernal

**18. Koinot – bu .....?**

- A. Kosmosdir degan tasavvur shaman dunyoqarashining o'zagi hisoblanadi



- B. Yagona hamda o'zaro aloqadorlikdagi hodisalar uyumi, xarakatsiz qattiq sfera  
C. Osmon va yer jismlarining tabiiy xossasi

19. Magik universum strukturasi tushunishda magik sonlar nechta?  
A. 7  
B. 6  
C. 4  
D. 8

20. Shaman faoliyatida magik trans metodikasida qanday aloqaga ega?

- A. O'z hukmiga shamanni bo'ysundirgan iblisning amallaridan biri sifatida  
B. Moddiy ne'matlarni ko'paytirish-yomonlik kuchlarni sindirish vositasi sifatida  
C. Dunyo, koinot, tabiat haqidagi tasavvur hamda tushunchalarni ikki qutb o'rtasidagi kurash tarzida  
D. Narsalar tabiatini to'g'ri tushinish

22. Trans – bu.....

- A. Shaman jonining narigi dunyoga «sayohat qilish» usuli  
B. Narsalar tabiatini to'g'ri tushunish  
C. O'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash  
D. Nirvana holatiga tushish

23. Qaysi olim transda faqat niqoblangan aldovni va jaholat belgisini ko'rish noto'g'ri bo'lgan deb hisoblaydi?

- A. U. Razerford  
B. G. E. Svetlov  
C. L. Levi-Bryul  
D. J. Frezer

24. Hozirgi vaqtda magik transni inson mavjudligining o'ziga xos bir shakli sifatida tushunish imkoniyatini beruvchi qanday dalillar paydo bo'lgan?

- A. M. Xarnerning shogirdlari fikriga ko'ra trans paytida ular jon hayotdan go'yoki «xoli» bo'lgan «narigi dunyo»ning ko'rkam manzaralarini xayolan kuzatganlar

- B. Ayrim kishilarning ular «ongning boshqa holatlari»ga o'tishdan boshdan kechirganlari haqida ma'lumotlari bor  
C. Paranormal hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning hisobotlari mavjudligi haqidagi faktlar  
D. Barcha javoblar to'g'ri

25. AQShda shamanlar maktabini kim tashkil qilgan?

- A. M. Xarner  
B. Y. Sigeti  
C. J. Frezer  
D. L. Levi-Bryul

26. Shamanizm - bu .....

- A. Real bilimlar va ko'nikmalar  
B. Fantaziya, notanqidiy e'tiqod, spontan reaksiyalar, sodda yanglishishlari  
C. Qo'zbog'log'ichlik, gipnozchilik mahorati  
D. Barcha javoblar to'g'ri

### Adabiyotlar

1. Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingborough, 1986.
  2. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – Москва: 1989;
  3. Фрэзер Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984; Элиаде М. Космос и история. – Москва: 1987.
  4. История древнего мира. Ранняя древность. – Москва: 1989. – 17-6.;
  5. Сету J. Religia starozytnych egircjan. – Warszawa, 1974. – 114-p.
  6. Заблоцка Ю. История Ближнего Востока в древности (от первых поселений до персидского завоевания). – Москва: 1989. – 134–135-с.
  7. Поликарпов В.С., Поликарпова В.А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 168-с.
  8. Блум Ф., Лейзерсон А., Хофстедтер Л. Мозг, разум, поведение. – Москва: 1988.
  9. Нейродарвинизм // В мире науки. 1988. № 3. – 93–94-с.
  10. Прошин Г. Черное воинство. – Москва: 1988.
  11. Герье В. Западное монашество и папство. – Москва: 1913. – 41-6.
  12. Никольский Н.М. История русской церкви. – Москва: 1988;
- Прошин Г. Черное воинство. – Москва: 1988; Русское православие: веки истории. – Москва: 1989.



## 8-mavzu: DINIY FANATIZM VA DINDORLIKNING MOHIYATI

**Qo'rquvning ijtimoiy madaniy mohiyati.** Tarixdan ma'lumki, diniy-fanatik kayfiyatlardan boshqa dinlarning vakillariga nisbatan adovat qo'zg'atish, nifoq va urushlar ochish, dahriylar va xudosizlarni jazolash uchun foydalanilgan. Bunday kayfiyatlarni tushunish uchun dindorlikning subyektiv tomonini inobatga olish lozim. Dinshunoslikda «individual» dindorlik atamasi qo'llaniladi: «*Individual dindorlik deganda diniy ta'limot, rasm-rusumlar va institutlarning ayrim individ ruhiyati, shaxsiyati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ta'sirining tarixan va sinfiy o'zgaruvchi darajasini tushunish lozim*»<sup>378</sup>. Dinning ayni shu subyektiv tomoni obyektiv tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar bilan uyg'unlikda katolik cherkovining o'ta fanatik muassasalaridan biri hisoblangan muqaddas inkvizitsiyaning faoliyati nima uchun ancha samarali bo'lganligini tushunish imkonini beradi. Inkvizitsiya 1232-yilda papa Grigoriy IXning tashabbusi bilan tashkil etiladi. Uning maqsadi katolik cherkovi fikriga ko'ra xavfli sanalgan kishilar – «dahriylar»ni, hurfikrli odamlar, papa hokimiyatining muxoliflarini ta'qib qilishdan iborat edi. Muqaddas inkvizitsiyaning tashkil topishi xristian dini va katolik cherkovining rivojlanish mantiqi bilan belgilanadi, shu tufayli ham bu rivojlanish mantiqi va uning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avvalambor, xristian dinining rivojlanish jarayonida burihish yasagan tarixiy bosqichlarga qarab tuzilgan individual dindorlik shakllarining quyidagi tasnifi diqqatga sazovor:

- ilk xristianlik davridagi (xristianlik vujudga kelgan paytdan u milodiy 313-yilda Milan edikti asosida boshqa dinlar bilan huquqiy jihatdan tenglashtirilgan paytgacha bo'lgan davrdagi) xalq dindorlik bosqichi;

- kosmik-teokratik dindorlik bosqichi (Milan edikti va Trident sobori oralig'idagi davr (1545–1563 yillar);

- Trident sobori va II Vatikan sobori oralig'idagi davrga (1563–1965-yillar) xos bo'lgan kosmik-xalq dindorlik bosqichi;

- hozirgi davrning antropotsentristik-industrial dindorligi<sup>379</sup>.

Ushbu tasnifning bizga ma'qul bo'lgan jihati shundaki, birinchidan, u diniy e'tiqodlar mazmunini o'zida mujassamlashtiradi; ikkinchidan, u yoki bu davrda jamiyatda qaysi ijtimoiy qatlam yoki guruhning diniy e'tiqodlari hukm surayotgan bo'lsa, shu ijtimoiy qatlam yoki guruhni ifodalaydi.

Nihoyat, biz uchun individual dindorlikning dastlabki uch shakli diqqatga sazovordir, zero, ular hukm surgan davrda diniy toqatlilik va toqatsizlik muammolari bir-biri bilan ajabtovur tarzda chatishgan, bu esa o'z navbatida muqaddas inkvizitsiya tribunali faoliyatiga oydinlik kiritish imkonini beradi.

Ilk xristianlik davridagi dindorlik haqida «Yangi ahd» (ya'ni Injil), qadimgi apokriflar, cherkov tarafdorlari, a'yonlari va xristianlik muxoliflarining bitiklari asosida hukm chiqarish mumkin<sup>380</sup>. Individual dindorlik ushbu shakliga yagona xudoga sig'inish, simbolik xulq-atvorning taraqqiy etgan shakllari, jamoaviy birdamlik hissi va uncha murakkab bo'lmagan diniy ta'limotning sodda axloqiy prinsiplari xosdir. Qiyomat kuni panoh topishga bo'lgan umid, dunyoning tez halok bo'lishi va Ro'zi Mahshar qarshisida qo'rquv, jamiyatda hukm suruvchi ijtimoiy munosabatlarni rad etish – bularning barchasi xristianlarni «Yangi Bobil»ga qarshi yaxlit bir butunga birlashtirgan. Shuni qayd etish lozimki, ushbu davrning dindorlik tipi o'rta asrlar feodal jamiyatidagi xalq harakatlariga ham xosdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, diniy toqatlilik va toqatsizlik muammolari monoteistik dinlar bilan birga paydo bo'lgan. Zotan mazkur dinlar universalizmga da'vogar edilar va shu tariqa boshqa dinlarni istisno etardilar. Biroq ilk xristianlik davrida, markazlashgan cherkov tashkiloti paydo bo'lgunga qadar, ko'p sonli alohida diniy jamoalar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, ilk xristianlikning Yustinianga (milodiy II asr) o'xshash namoyandalari uning ta'limotini qadimgi falsafa, ayniqsa platonizm bilan muvofiq holatga keltirishga harakat qilganlar. Yustinian fikriga ko'ra ilohiy Aql sifatidagi Logos xristianlikning mutlaq haqiqatini o'zida gavdalantirgan tarixiy Iso Masihda mujassamlashgan. Shu tufayli ham Geraklit, Suqrot, Platon, Moisey, Avraam xristianlardir, zero, ular Logos haqiqatini anglab yetganlar. «*Aql va Logosga muvofiq yashovchi har kim, garchi xudosiz bo'lsa-da, xristiandir*», - deb yozadi Yustinian «Apologiya» asarida<sup>381</sup>.

Milan ediktidan so'ng cherkov asta-sekin hokimiyatni o'z qo'lida jamlaydi. Bunga u «butun hokimiyat Xudo partiyasi qo'lida» degan fikrni odamlar ongiga singidirish orqali erishadi<sup>382</sup>. O'rta asrlarda katolik cherkovining hokimiyati harakatlarning yagonaligi nazariy prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsip dunyoviy munosabatlarni to'laligicha

<sup>380</sup> Апокрифы древних христиан. – Москва: 1989.

<sup>381</sup> Skrzypek M. Tolerancja religijna // Czlowiek i swiatopoglad. 1987. № 4. – 132-p.

<sup>382</sup> Debray R. Le scribe: Genese du politique. – P., 1980. – 96-p.

<sup>378</sup> Papuziriski A. Historyczne typy indywidualnej religijnosci // Czlowiek i swiatopoglad. 1989. № 1. – 141-p.  
<sup>379</sup> O'sha joyda. – 143–152-b.



unifikatsiya qilishni, ta'lim idoralarning yagonaligini va boshqaruv organlarini markazlashtirishni nazarda tutadi.<sup>383</sup>

O'rta asrlar xristian sivilizatsiyasida diniy toqatsizlik va fanatizm muhiti vujudga kelishiga madaniyat ham o'z hissasini qo'shadi. Tadqiqotlar o'rta asrlar madaniyatida ikki yo'nalish – xristiancha an'ana va dunyoviy bilimni birlashtirgan Kassiodor Senator (taxminan milodiy 487–578-yillar) yo'nalishi va taxminan shu davrda yashagan Nursiyalik Benedikt yo'nalishi mavjud bo'lganini ko'rsatadi: «Asrlar mobaynida ular yonma-yon mavjud bo'ladilar va o'zaro aloqa qiladilar. Biroq avliyo Benedikt an'anasi ilk xristianlik mafkurachilari muayyan qismining dunyoviy madaniyatga salbiy munosabatini aks ettirar edi. O'rta asrlarda u ma'naviy hukmronlikni cherkov o'z qo'liga olishiga, Kassiodor an'anasi esa – dunyoviy madaniyatning shakllanishiga olib keladi»<sup>384</sup>

Individual dindorlik ikkinchi bosqichining dastlabki davrida rim papalari madaniyat sohasida faol siyosat yurita boshlaydilar. Xususan, ular madaniyatni mafkuraviy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishga bo'ysundiradilar. Bu jarayon papa Grigoriy I ning hukmronlik davrida (milodiy 590–604-yillarda) bo'rtib namoyon bo'ladi. O'rta asrlar birinchi yozuv ustaxonasiga asos solgan, uning faoliyatida antik va xristian madaniy an'analarni birlashtirgan «so'nggi rimlik» - Kassiodordan farqli o'laroq Grigoriy I turli mafkuralarning tinch-totuv mavjudligi ta'limotini mutlaqo o'rinsiz deb hisoblar edi. Asosiy tarkibiy elementi Iso Masih dini hisoblangan madaniyat sohasidagi bunday toqatsizlik o'zgacha fikrlovchi dindoshlarga nisbatan toqatsizlikning kuchayishiga olib keldi va keyinchalik muqaddas inkvizitsiyani tashkil etish uchun asoslardan biri bo'lib xizmat qildi.

O'rta asrlarda cherkovning daromadlari va yer-mulki ko'payib boradi, uning kuch-qudrati misli ko'rilmagan darajaga yetadi. G'arbda barqaror markazlashgan hokimiyat yo'qligi sharoitida cherkov g'arbiy Rim imperiyasi hududida vujudga kelgan varvarlar davlatlarining qirollari tashlab ketgan ko'p miqdorda boyliklarni o'zlashtiradi.<sup>385</sup> Katolik cherkovi feodal jamiyatdagi sinfiy munosabatlarning muhim jihati hisoblanuvchi noiqtisodiy majburlashning mafkuraviy shaklini o'zida ifodalay edi.<sup>386</sup> Diniy mafkura kosmik, tabiiy tartibning tarkibiy qismi hisoblangan mavjud ijtimoiy tartibning daxlsizligini kafolatlovchi Xudoga sig'inish g'oyasiga

<sup>383</sup> O'sha joyda.

<sup>384</sup> Рашкова Р.Т. Ветхий и современная культура. – Москва: 1989. – 216-с.

<sup>385</sup> Корсуевский А.Р., Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение германских королевств. – Москва: 1984.

<sup>386</sup> Сажин С.Д. Из истории социально-политической и духовной жизни Западной Европы в средние века. – Москва: 1981. – 22-23-с.

xizmat qilardi. Individual dindorlikning ikkinchi – kosmik-teokratik bosqichi uchun «ilmi e'tiqod» va «xalq e'tiqodi» o'rtasidagi farq birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda xalq madaniyati «olimlar», o'qimishli kishilar madaniyati bilan uyg'unlashadi, folklor an'analari rasmiy cherkov ta'limoti bilan o'zaro aloqaga kirishadi.<sup>387</sup> Tadqiqotlar *legitimlik, agrarlik va toqatsizlik* kosmik-teokratik dindorlikka xos bo'lgan umumiy jihatlar hisoblanishini ko'rsatadi.<sup>388</sup>

Darhaqiqat, 382-yilda, imperator Feodosiy I majusiylarning barcha ibodatxonalarini yopish to'g'risida farmon chiqarganidan so'ng rim xalqi, shuningdek, german va slavyan qabilalari oqsoqollar va drujinalarni cho'qintirish yo'li bilan xristianlikni qabul qilganlar. Qabila oqsoqollari xristian dinini qabul qilishlari qadimdan hukm suruvchi «cuis regio, eius religio» (qirol qanday bo'lsa, din ham shunday) prinsipiga muvofiq qabilalar va xalqlarning xristianlashuvi bilan ayniy bo'lgan. Ushbu huquqiy prinsipga binoan oqsoqoli yoki podshosi xristian dinini qabul qilgan qabila a'zosi yoki xalq vakili xristianga aylanar edi. Xristianlik davlat dini bo'lgani bois dunyoviy va ma'naviy hukmdorga bo'ysunish uning legitimlashuviga sabab bo'lar edi.

*Xristian teologiyasi Koinot va tabiat haqidagi tasavvurlarning yaxlit tizimini o'zida ifodalaydi.* Uning prinsiplariga muvofiq Xudo Koinotni yaratgan, uning mavjudligi va intihosi kafili hisoblanadi, uning hukmiga binoan farishtalar osmonda jismlarni bir joydan boshqa joyga ko'chiradilar, u g'ayrioddiy voqealar sababchisi hisoblanadi. Xalq tasavvurida Xudo yomg'ir yoki qurg'oqchilik, sovuq yoki issiq, yashin va momaqaldiraq yuboruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Teolog olimlar va oddiy kishilar Xudoni tabiat sultoni – to'qchilik yoki ocharchilikni, ya'ni hosildorlikni belgilovchi kosmik kuch sifatida tasavvur qiladilar. Shu tufayli ham agrarlik kosmik-teokratik dindorlikning umumiy xususiyati hisoblanadi.

Individual dindorlikning yuridik va agrar xususiyatiga asoslangan diniy universallik o'z mavjudlik mintaqasida diniy indifferentlikka ham, o'zga dinga e'tiqod qilishga ham toqatli bo'lishi mumkin emas edi. Mavjud tasavvurlarga ko'ra nokonformistik xulq-atvor tabiiy tartibni buzardi – ijtimoiy barqarorlikka va tabiat ritmlariga tahdid solardi, shikastli oqibatlariga sabab bo'lardi. Dinni qabul qilmagan kishi mavjud ijtimoiy tartibga qarshi odam sifatida olomon qilinar edi.<sup>389</sup> Cherkov, davlat va odamlar o'rtasida mavjud aloqa shunga olib kelardiki, jamiyatda yashashni

<sup>387</sup> Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры. – Москва: 1981. – 13-с.

<sup>388</sup> Papuziriski A. Historyczno typu indywidualnej religijności // Człowiek i światopogląd. 1989. № 1. – 145-146-р.

<sup>389</sup> O'sha joyda. – 146-b.



istagan har kim ayni paytda xristian ham bo'lishi lozim edi. Ayni shu sababli toqatsizlik kosmik-teokratik dindorlikning uchinchi xususiyati hisoblanadi.

Nihoyat, Trident soboridan so'ng **kosmik-xalq dindorligi** tantana qiladi. Unga quyidagi xususiyatlar xos: agrarlik – diniy marosimlar va bayramlar tabiat ritmlariga bog'liq bo'ladi; madaniylik, zero, din xalq madaniyatining birlashtiruvchi elementi hisoblanadi; ijtimoiy nazorat, u xalq madaniyatining markazi sanalgan dinni maxsus institutlar qo'llab-quvvatlagani va himoya qilganini anglatadi; magik dunyoqarash, u diniy e'tiqodlar (yaxshi va yomon ruhlariga bo'lgan ishonch va hokazolar) bilan chatishib ketadi; diniy me'yorlarga rioya qilishda gruppaviy birdamlik; formalizm va ritualizm; rasm-rusumlar va diniy simvollarning muhim rolini tan olish; jamoa cherkov xizmatchilari va dunyoviy kishilarga bo'linishi, bunda ularning har biri o'z ijtimoiy rollarini o'ynaydi, maxsus huquqlar va burchlarga ega bo'ladi; xalq dindorligining madaniy xususiyati bilan belgilangan diniy fanatizm, fatalizm<sup>390</sup>

Ayni paytda g'arb jamiyatida hukm suruvchi kosmik-xalq dindorligi kosmik-teokratik dindorlik butunlay zavol topishiga sabab bo'lmaydi, zero, dindorlikning so'nggi zikr etilgan tipi ilohiyotchilar hamda imtiyozli sinflar va qatlamlar vakillarining bir qismi orasida tarqalgan edi. Biz uchun muhimi shuki, «ilmli» dindorlikda ham, xalq dinida ham fanatizm va agressiv toqatsizlik kabi umumiy jihatlar mavjud. Rim-katolik cherkoviga konservatizm, o'z-o'zini asrash instinkti va o'ziga tahdid soluvchi har qanday nuqtai nazarni qoralash xosligini e'tiborga olsak nima uchun muqaddas inkvizitsiya faqat g'arb xristian sivilizatsiyasida vujudga kelgani ayon bo'ladi.

G'arbiy Yevropaning feodal jamiyatida xristianlik mafkuraviy birlashtiruvchi vazifasini bajarar edi. Bu pirovardida uning tashkiloti – rim-katolik cherkovi birlashishiga ham olib keldi. Rim-katolik cherkovi Rim papasi boshchiligidagi ierarxiyaviy markazlashgan tizimni o'zida ifodalalar va xristianlar dunyosida eng yuksak mavqeni egallashga harakat qilardi. Ayni paytda, o'zining yashovchanligini ta'minlash maqsadida, u o'z asoslariga va ommaviy xalq harakatlarida tayanchlarga ega bo'lgan ko'p sonli sektalar, chunonchi: katarlar, valdenslar, montanistlar, flagellantlar, XIV asr nemis va flandriya mistiklari, guschilar va nihoyat, Uyg'onish davri harakatlariga qarshi samarali kurash olib boradi. Diniy fanatizm muhitida shakllangan va fanatik muassasani o'zida ifodalagan muqaddas

<sup>390</sup> Papuzirski A. *Historyczne typy indywidualnej religijności // Człowiek i światopogląd*. 1989. № 1. – 145-149-p.

inkvizitsiya bu kurashda g'alaba qozonishning samarali qurollaridan biriga aylanadi.

Rim-katolik cherkovi tashkiloti bo'lgan muqaddas inkvizitsiya millionlab kishilar faoliyatining barcha sohalarini nazorat qiladi, jamiyatni ijtimoiy-texnik, shu jumladan, xufyona boshqarishning turli usullaridan, shuningdek, inson ruhiyatining yashirin burchaklariga nazar tashlash yo'llaridan foydalanadi. Katolik cherkovining «dahriylar»ni ta'qib qilgan maxsus tribunallari faoliyati sifatida inkvizitsiya XII asrda paydo bo'ladi. XIII asr oxiriga kelib katolik cherkovi ta'siri ostida bo'lgan g'arbiy Yevropa inkvizitsiya tribunallari tarmog'i bilan qoplangan edi. Inkvizitsiya tarixchisi G. Li qayd etishicha, bu tribunallar faoliyati tabiat qonunlarining amal qilishi kabi uzluksiz bo'lgan va ayni hol «dahriylar»ni vaqtda yutish va Yevropa mamlakatlaridan birida yashirinish imkoniyatidan mahrum qilgan: «Dahriy go'yoki istalgan paytda otilishi va uni o'z komiga tortishi mumkin bo'lgan vulqon ustida yashar edi... Odamlar ko'z o'ngida papa inkvizitsiyasi har narsaga qodir va hamma joyda hozir-u nozir edi»<sup>391</sup>. O'sha davrda inkvizitsiya o'ziga xos xalqaro politsiya vazifasini ham bajarar edi.

Muqaddas inkvizitsiya tizim sifatida quyidagi elementlarni o'z ichiga olar edi: sud, ayblov, tergov, so'roq, qiynoqlar, hukm, autodafe va gulxan. Rim papasi Xudoning yerdagi soyasi hisoblangani bois u inkvizitsiyaning oliy rahbari sifatida ham amal qilardi. Inkvizitsiyaning o'zi papalikka bo'ysunar va katolik cherkovi manfaatlariga xizmat qilardi. Inkvizitsiya tizim sifatida papa Lutsiy III va uning ittifoqchisi Germaniya imperatori Fridrix I tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. Ular 1184-yilda Vena soboriga taqdim etgan dekretga binoan yepiskoplarga dahriylik vabosi bilan zararlangan viloyatlarda faoliyat olib borish uchun komissarlarni tayinlash vakolati beriladi. Sobor qabul qilgan dekret bilan inkvizitsiyaga asos solinadi. 1198-yilda papa Innokentiy III apostol legatlarini tayinlaydi va shu tariqa ular papaning birinchi inkvizitorlariga aylanadilar. 1215-yilda IV Lateran sobori dahriylarni sud qilishni yepiskoplarga yoki ularning vakillariga topshiradi. Inkvizitorlarni lavozimga tayinlash bevosita boshliqlarga bog'liq bo'lsa-da, yuridik jihatdan ular papalikka to'g'ridan to'g'ri bo'ysunar edilar. Bundan tashqari, muqaddas tribunal favqulodda sud sifatida papa legatlariga ham, ordenlarning generallariga ham bo'ysunmas edi.

Inkvizitorlarga cheksiz huquqlar berilgan edi. Inkvizitorlar devoni ularning o'rinbosarlari, mazkur okrugning boshqa shaharlarida dahriylar bilan ish olib boruvchi vakillar, fuqarolik qonunchiligiga muvofiq

<sup>391</sup> Ли Г. Ч. *История инквизиции в средние века*. – СПб(6), 1911. Т. 1. – 232-233-с.



ayblovlar va hukmlarni ta'riflovchi ekspert-yuristlar, tergovga qonuniylik va beg'arazlik ustini berishga xizmat qiluvchi notariuslar va xolislar, ayblovchilar sifatidagi prokurorlar, ayblanuvchi qiynoqlardan barvaqt jon bermasligini kuzatib borgan shifokorlar hamda jallodlardan iborat edi.<sup>392</sup>

O'z faoliyatida bu devon ko'p sonli yordamchilarga – xabargirlar, ayg'oqchilar, qamoqxona nazoratchilari, qarollar va hokazolarni o'z ichiga olgan inkvizitsiya «jigargo'shalari»ga tayanar edi. Xabargirlar va ayg'oqchilar jamiyatning turli qatlamlari vakillari orasidan yollanardilar. Ularga qirol a'yonlari, rassomlar va shoirlar, savdogarlar va harbiylar, dvoryanlar va oddiy fuqarolar, aristokratlar va shaharning nufuzli kishilari orasida duch kelish mumkin edi. Ular mahkumlarni jamoa qarshisida tavba-tazarru qilishga, istig'for keltirishga, cherkov bilan yarashishga chaqirardilar, dahriylarni gulxangacha kuzatib borardilar, gulxanni yoqishga ko'maklashardilar, mahkum kuyib bitgunga qadar gulxanga o'tin tashlab turardilar. Inkvizitsiya xizmatida bo'lganlarning barchasi, shu jumladan, «jigargo'shalar» ham qurol taqib yurardilar, ularni dunyoviy va diniy sudga tortish taqiqlanardi, ularning faoliyatiga xalaqit berish yo'lidagi har qanday harakatlar bid'at sifatida baholanar edi. Bularning barchasi inkvizitsiya xizmatidagi kishilarda jazosizlik hissini uyg'otardi. O'z-o'zidan ravshanki, inkvizitsiya qo'lga tushish sodiq katolik uchun ham, dahriy uchun ham eng katta baxtsizlik hisoblanar edi. Inkvizitsiyaga bo'ysunmaslikning har qanday ko'rinishi aybdorni gulxanga olib kelishi mumkin edi.

Muqaddas inkvizitsiya tizimining ikkinchi elementi ayblov hisoblanadi. Dindan qaytganlarning ildizini quritishdan oldin ularni aniqlash talab etiladi. Dastlabki bosqichda ularni aniqlash oson ish bo'lgan, zero, ular o'z qarashlarini ochiq-oydin bildirgan va rasmiy cherkovga qarshi chiqqan bo'lsalar (katarlar, valdenslar va boshqalar), albigoychilar ommaviy qirg'inga uchraganlaridan so'ng ular o'zlarining asl e'tiqodlarini yashirib, katoliklarning rasm-rusumlari va odatlariga rioya eta boshladilar. Shu tufayli ham biron-bir kishini javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo'lishi kerak edi. Din ishlarida bunday asoslar sifatida dahriylikda, dindan qaytganlarga hamdardlikda yoki ularga yordam qo'lini cho'zganlikda ayblash amal qilardi.

Ayblovlar quyidagicha qo'lga kiritilar edi. Masalan, bid'at bilan zararlangan muayyan viloyatga inkvizitor tashrif buyurar va o'z sha'niga tashkil etilgan tantanali ibodatda va'z o'qib, unda barcha dahriylarni o'n kun ichida inkvizitsiya qo'lga topshirishni talab qilardi. Inkvizitsiya bilan hamkorlikdan bosh tortgan kishi o'z-o'zidan cherkovdan chetlatilar edi,

<sup>392</sup> Лозинский С.Г. Святая инквизиция. – Москва: 1927. – 17-с.

chunki dahriylarni ta'qib qilish vazifasi hammaga – imperatordan tortib oddiy dehqongacha yuklangan edi. Bid'atni yo'q qilishga ko'maklashish ularning har bir xristianning oliy burchi hisoblanishi ularning ongiga singdirilar edi. Fuqarolarni dahriylar ustidan chaqimchilik qilishga majburlar edilar. Dahriyni yashirgan odamni qon-qarindoshchilik rishtalarining mavjudligi ham oqlayolmasdi: o'g'il otasining ustidan chaqimchilik qilishga majbur edi; o'z xotinini dahshatli o'limga topshirmagan er ham aybdor hisoblanardi. Bid'atga jinoiy daxldorlik kishilarni bir-biri bilan bog'lovchi barcha rishtalarni uzib tashlar edi: bolalar shuuriga chin katolik bo'lmagan ota-onani tashlab ketish lozimligi singdirilardi. Inkvizitor chorloviga quloq solib, belgilangan muddat ichida dahriy haqida unga xabar qilgan odamga mukofot tariqasida uch yil muddatga indulgenziya<sup>393</sup> berilar edi. Inkvizitor xabarni shaxsan o'zi qabul qilib olar va xabar beruvchining ismini sir saqlar edi. Bu esa aksariyati asossiz va uydirma bo'lmagan chaquvlarning yangi to'lqinlariga turtki berardi. Kimdir bid'atda ayblanishdan qo'rqib inkvizitor qarshisida «istig'for» keltirar va tavba-tazarru qilar edi, kimdir chaquvdan o'z raqiblari bilan orani ochiq qilish yo'li sifatida foydalanardi, yana kimdir o'zi sotgan dahriyga qarashli mol-mulkning bir qismini qo'lga kiritish ilinjida chaqimchilik qilardi. Shuni qayd etish lozimki, inkvizitsiyaga ko'p sonli anonim xabarlar kelar va ular ham e'tiborga olinar edi.<sup>394</sup>

Yuqorida zikr etilgan axborot manbalaridan tashqari, muqaddas inkvizitsiyani «ishlar» bilan ta'minlagan yana bir manba – isyonkorlik ruhidagi san'at asarlari, falsafiy, siyosiy risolalar va boshqa asarlar ham mavjud edi. Bu asarlarning mualliflari katolik dini aqidalariga qarshi fikr bildirganlari ularni javobgarlikka tortish uchun kifoya qilardi. Bu mualliflarni ta'qib qilardilar, qamoqqa tashlardilar, qiynoqqa solardilar, jazolardilar, aksariyat hollarda esa gulxanda kuydirardilar. Bunga ishonch hosil qilish uchun Jordano Brunoning fojiali taqdirini eslash kifoya qilsa kerak.

Inkvizitsiya tizimining uchinchi elementi tergov hisoblanadi. Tergov uchun asos bo'lib chaquv, tergov ostidagi odamning uchinchi shaxsga qarshi ko'rsatuvlari xizmat qilar edi. Avvaliga inkvizitor bunday hujjatlardan foydalanib dastlabki tergovni ochar edi. U guvochlarni ayblov xususida so'roq qilar, gumon qilinuvchining jinoiy faoliyati haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plar, qo'shimcha dalillarni aniqlash uchun boshqa inkvizitsiya tribunallariga so'rovlar yuborar edi. To'plangan material kvalifikatorlar tomonidan ekspertiza tekshiruvidan o'tkazilar va

<sup>393</sup> Индульгенция – гуноҳини кечириш ва шу ҳақда Рим Папаси томонидан берилдиган ёрлик.

<sup>394</sup> Лозинский С.Г. Святая инквизиция. – Москва: 1927. – 18-с.



natijada gumon qilinuvchiga ayb e'lon qilish yoki qilmaslik to'g'risida bir to'xtamga kelinar edi. Kvalifikatorlar gumon qilinuvchini bid'atda ayblash mumkin degan xulosaga kelgan bo'lsalar, inkvizitor uni qamoqqa olish to'g'risida buyruq berardi. Qamoqqa olingan odam inkvizitsiyaning maxfiy qamoqxonasida kishanlangan holda saqlanar edi. Ayblanuvchining o'limi yoki aql-hushidan ayrilishi tergovning tugatilishiga sabab bo'lmas edi. «Inkvizitsiya changalidan hatto o'lib qutulishning ham iloji yo'q edi. Gunohkor o'z qilmishlari uchun Yaratganning oldida javob berganini ham e'tiborga olmasdilar; din gunohkorni qoralash yo'li bilan undan o'ch olishi lozim edi»<sup>395</sup>.

Qamoqqa olish uchun ko'pincha gumonning o'zi, ya'ni dahriy bilan tasodifiy muloqotga, u bilan bir uyda yashashga va hokazolarga asoslangan faraz, taxmin yoki tasmol kifoya qilar edi. Dahriylar bilan bir lahzali munosabatlarda gumon qilingan shaxslar ham qamoqqa olinar va ba'zan uzoq yillar turmada saqlanar edi.

Inkvizitorlar uchun dalil bo'lib chaquv xizmat qilar edi. Cherkov dinga e'tiqod qiluvchi har bir kishida potensial dahriyni ko'rardi, zero, xristiancha monoteizm har bir dindorni to'g'ri yo'ldan chalg'itishga harakat qiluvchi iblisning mavjudligini faraz qilish imkonini berardi. Ayni shu sababli inkvizitsiya tergovni chaqimchini haqiqatni aytuvchi karomatgo'y deb hisoblar edi. To'g'ri, uning chaquvini iblisning amali sifatida baholash imkoniyati ham yo'q emasdi, biroq bu holda inkvizitsiya qurbonlardan mahrum bo'lar edi. Tergovning maqsadi chaquvni tekshirishdan emas, balki ayblanuvchi o'ziga qo'yilayotgan aybga iqror bo'lishi, tavba-tazarru qilishi va cherkov qarshisida istig'for keltirishiga erishishdan iborat edi.

Bu maqsadga erishish yo'lida chaqimchilar tomonidagina emas, balki yolg'on guvohlik beruvchilar – inkvizitsiya ayg'oqchilari, qotillar, o'g'rilar va boshqa jinoiy unsurlar tomonidan taqdim etilgan dalillardan ham keng foydalanilar edi. Vaholanki, so'nggi zikr etilgan toifadagi shaxslarning ko'rsatuvlari hatto o'rta asrlarning dunyoviy sudlarida ham e'tiborga olinmas edi. Ayblanuvchiga qarshi uning xotini, farzandlari, akakalari, opa-singillari, ota-onasi va boshqa qarindoshlari, shuningdek, xizmatkorlarining guvohliklaridan foydalanilardi. Muhimi shundaki, inkvizitsiya chaqimchilar va guvohlarning ismlarini, shuningdek, ular bergan ko'rsatuvlarning to'liq matnlarini ayblanuvchilardan va boshqa manfaatdor shaxslardan yashirardi. Aks holda uning faoliyati samarali bo'lmas edi.

So'roq inkvizitsiya tizimining to'rtinchi elementi hisoblanadi. So'roq tartib-taomillari ayblanuvchi o'z aybiga iqror bo'lishiga, binobarin, bid'atdan voz kechishi va cherkov bilan yarashishiga bo'ysundirilgan edi. So'roq qilinuvchi o'z aybiga iqror bo'lishiga tovlamachilik yo'li bilan erishish inkvizitsiya tribunali sud jarayonining markaziy bo'g'ini hisoblanar edi. G. Li fikriga ko'ra bu usul «markaziy Yevropaning yuridik tizimiga besh yuz yil mobaynida ulkan va shikastli ta'sir ko'rsatdi»<sup>396</sup>. Ayblanuvchining shaxsiyatida zaif bo'g'inni topish, uning irodasini sindirish va inkvizitorning hukmiga bo'ysundirish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun so'roqqa ancha puxta tayyorgarlik ko'rilar edi. «Inkvizitsiya» deb nomlangan yirik tadqiqot muallifi I. Grigulevich dahriyni gulxanda kuydirishga hukm qilish inkvizitor uchun birdan bir maqsad hisoblanmaganini, uni «shaytonning malayi»dan «xudoning bandasi»ga aylantirish muhimroq bo'lganini ta'kidlaydi<sup>397</sup>.

Aybdor o'z aybiga iqror bo'lishiga erishish uchun so'roqda uni tushkunlikka tushirish, mahkumlik hissini paydo qilishga qaratilgan sinashta vositalar – faktlarni soxtalashtirish, aldov, qo'rqitish ham qo'llanilar edi. Qamoqxonada ayblanuvchi bilan bir bo'lmagan maxsus tayyorlangan ig'vogarlarni joylashtirishar, ular ayblanuvchidan yangi dalillarni olishga yoki o'z aybiga iqror bo'lish ma'qulligiga uni ishontirishga harakat qilardilar. Agar bu ham ish bermasa, maqsadga erishish yo'lida ayblanuvchining xotini va farzandlari ishga solinardi, zero, ularning yig'i-sig'isi va unatishlari ayblanuvchiga ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Inkvizitsiya ixtiyorida ayblanuvchini ruhiy tushkunlikka giriftor etishning boshqa vositalari ham mavjud edi. Shulardan biri vaqt bilan ta'sir ko'rsatishdir. Birinchi so'roq va sudning uzil-kesil qarori o'rtasida besh, o'n, ba'zan o'ttiz yil o'tishi mumkin edi – inkvizitsiyaning shoshadigan joyi yo'q, u kutishga tayyor edi. Vaqt bilan uzoq qiynash natijasida inson odatda taslim bo'lardi. Inkvizitorlar sudlanuvchi tilga kiradi degan umidda sudda o'lim jazosi tayinlangan soxta hukmdan ham foydalanardilar. Mahbusni ochlik bilan qiynashlari, unga uzoq vaqt suv bermasliklari, uni zah, qorong'i, sassiq zindonda saqlashlari mumkin edi.

Inkvizitsiya tizimining beshinchi elementi qiynoqlardir. Ular o'zining dinga qarshi haqiqiy yoki uydirma jinoyatlariga iqror bo'lmaganlarga va aybiga iqror bo'lgan, biroq o'z sheriklarini hali sotmagan va «gunohkorona yanglishishlari»dan voz kechmagan kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Inkvizitorlar unatish, qo'rqitish yoki hiyla-nayranglar bilan

<sup>395</sup> Ли Г.Ч. История инквизиции в средние века. – СПб(6), 1911. Т. 1. – 255-6.

<sup>396</sup> Ли Г.Ч. История инквизиции в средние века. – СПб(6), 1911. Т. 1. – 259-6.

<sup>397</sup> Qarang: Григулевич И.Р. Инквизиция. – Москва: 1985. – 25-6.



ayblanuvchining irodasini sindira olmasalar «azob-uqubat aqlni teranlashtiradi» degan qoidadan kelib chiqib, unga kuch ishlatish yo'li bilan tazyiq o'tkazganlar<sup>398</sup>. O'rta asrlar inkvizitsiyasining himoyachilari buni inson hayotining o'zi azob-uqubatlardan, Odam Ato va Momo Havoning birinchi gunohi uchun Xudoning jazosidan iborat, binobarin, jon panoh topishi uchun tanani qiynash aslida dahriylarga nisbatan mehr-shafqat ko'rsatishdan boshqa narsa emas degan vaj-korsonlar bilan oqlashga harakat qilganlar.

Inkvizitsiya qo'llagan tergov usullari katoliklar dunyosida dahshat va norozilik uyg'otadi. Shuni inobatga olib cherkov qiynoqlar qo'llash uchun yepiskop roziligini olishni nazarda tutuvchi tartib o'rnatadi. Biroq amalda yepiskoplar inkvizitsiya bilan yaqin aloqada ish olib borardilar. Shunday qilib, cherkovning «adolat kafolatlarini o'rnatish»ga qaratilgan bu qarori havoda muallaq osilib qoladi va «muqaddas» tribunal qurbonining qismatini yengillashtirmaydi. Boshqa hujjatlarda qiynoqlar «me'yorda» bo'lishi va ayblanuvchiga faqat bir marta qo'llanilishi lozimligi ta'kidlanadi. Ammo kazuistika<sup>399</sup> va papaning sukutga asoslangan roziligi bunday cheklashlarni chetlab o'tish imkonini berar edi. Qiynoqlarni «me'yorda» va bir marta qo'llash deganda nimani tushunish lozimligini inkvizitorlar o'zlarini hal qilardilar. Zarur holda ularni «tugallanmagan», «uzilib qolgan» deb e'lon qilardilar va inson o'zlariga zarur bo'lgan ko'rsatuvlarni bermagunicha qiynoqlarni davom ettiraverardilar.

Jalod qiynoqda ishlatadigan asbob-uskunalar to'plamiga diba, ya'ni aybdorning tanasini cho'zadigan qiynoq qurilmasi, jazo kursisi, o'rma qamchilar, omburlar va boshqa shunga o'xshash asboblarni kirardi. Ayblanuvchini bo'g'zigacha suvga solib qo'yish, suv bermasdan ochlik bilan qiynash ko'p qo'llanilardi. Bu qiynoqlardan so'ng dahriy gulxanga shikastsiz holatda chiqishi uchun shifokor uning yaralarini davolashi lozim edi. Jazodan qutulib qolish uchun inson avval o'z aybiga iqrorga bo'lishi so'ngra haqiqiy yoki soxta sheriklarni sotishi talab etilardi, shundan keyingina unga bid'atdan voz kechish va cherkov bilan yarashishga ruxsat berilardi. Agar u bularning barchasini itoatkorlik bilan bajarsa, odatda yengil jazo olardi. Inkvizitorlar iqrorga uzoq qiynoqlardan so'ng erishgan holda esa uni ancha og'ir jazo kutardi.

Hukm inkvizitsiya tizimining oltinchi elementi hisoblanadi. U tergov natijalariga bog'liq edi. Cherkov Injilga va o'z arboblari – Avliyo Avgustin, Bernard Klervoskiy, Foma Akvinskiy va boshqalarning fikrlariga tayangan holda ruhiy va jismoniy jazolarni oqlashga harakat

<sup>398</sup> Дя Г. Ч. История инквизиции в средние века. – СПб(б), 1911. Т. 1. – 264-б.

<sup>399</sup> Казуистика – ўрта асрлар ҳуқуқ илмий ва илоҳиётда умумий ақдодларни конкрет ҳодаларга ёйиш.

qilardi. Masalan, Foma Akvinskiy dahriylar bilan muomalada bo'lishning quyidagi qoidalarini belgilaydi: birinchi – ularga aslo shafqat qilmaslik kerak; ikkinchi – cherkov ularga murojvat ko'rsatib, to'g'ri yo'lga kirishga undovlar bilan ikki marta murojvat etadi, shundan keyin ham ular bid'atdan qaytmasalar dunyoviy hokimiyat ixtiyoriga topshirilishlari va qatl etilishlari mumkin. Bunda go'yoki cherkovning insonga nisbatan cheksiz mehr-shafqati namoyon bo'ladi, zero, jonning hayotini belgilovchi dinga xiyonat, aytaylik qalbaki pul yasashga qaraganda og'irroq jinoyat hisoblanadi. «Cherkovning siyosati shunday edi, - deb ta'kidlaydi S. Lozinskiy. – Bu siyosatga cherkov hamisha og'ishmay amal qilardi»<sup>400</sup>.

Xo'sh, inkvizitsiya hukmronligi o'z «vasiyli» ostidagi shaxslarga qanday jazolar tayinlar edi? Birinchi navbatda epitimiyalar, ya'ni kaforatlar (uzoq toat-ibodat qildirish, ro'za tuttirish va h.k.); oddiy yoki qattiq tartibli qamoq; galeralar; nihoyat, mahkumni cherkovdan chetlatish (uni murtd deb e'lon qilish) va gulxanda kuydirish uchun uni dunyoviy hokimiyat vakillariga topshirish. Shuni qayd etish lozimki, aksariyat hollarda bu turdagi jazolar mahkumlarni savalash va ularning mol-mulkini musodara qilish bilan birga amalga oshirilardi. Natijada dahriylarning ommaviy qamoqqa olinishi va ularga qarashli mol-mulkning musodara etilishi XIII asr boshida Yevropaning iqtisodiy ravnaq topgan hududlarini tez orada xarobazorlarga aylantirardi.

«Muqaddas» inkvizitsiya hukmi uzil-kesil hisoblanardi va uning ustidan shikoyat keltirishga yo'l qo'yilmardi.

Nihoyat, inkvizitsiya tizimining oxirgi elementi – autodafe va gulxan. O'z xatolarini tan olish va cherkov bilan yarashishdan bosh tortgan kishilarni, sirdan hukm qilingan va keyinchalik ushlangan dahriylarni inkvizitsiya cherkovdan chetlatardi va «ozod qilardi». Boshqacha qilib aytganda, cherkov ularni o'z vasiyli ostidan chiqarardi va shu tariqa ularga o'lim jazosini nazarda tutuvchi hukmga imzo chekardi. Shu yo'l bilan qo'lga kiritilgan «ozodlik» mahkumni gulxanda kuydirilishigagina emas, balki «narigi» dunyoda abadiy azob chekishga ham hukm etardi.

Mahkumni gulxanda kuydirish inkvizitsiya tomonidan alohida marosimga aylantirilgan edi. Qatl odatda bayram kuniga tayinlanardi. Aholi unda hozir bo'lishga chaqirilardi. Bunday taklifdan bo'yin tovlash, mahkumga xayrixohlik bildirish yoki unga achinish kabi bid'atda gumon qilinishga sabab bo'lishi va pirovardida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Mahkumni gulxanda kuydirishdan oldin shaharning markaziy maydonida autodafe tashkil etilardi. Avval cherkov a'yonlari, ma'murlar va xalq ishtirokida tantanali ibodat o'tkazilardi so'ngra inkvizitsiya hukmi

<sup>400</sup> Лоцинский С. Г. История папства. – Москва: 1986. – 20-с.



o'qib eshiritilardi. Autodafe ekzekutsiyalar bilan yakunlanardi: ayrim mahkumlarga masxaraboz kiyimini kiydirib sazoyi qilishardi, ba'zilarni o'rma qamchilar bilan savalashardi, marosim oxirida soqchilar va ruhoniylar mahkumlarni qatl uchun hozirlangan supaga sudrab chiqishardi. Gulxan yoqilgach, shaharning alohida ehtiromga sazovor bo'lgan fuqarolariga olovga o'tin tashlab turish huquqi berilardi – shu tariqa ular cherkov qarshisida o'z obro'larini yanada oshirardilar.

Garchi jallodlar gulxanni mahkum kuyib kul bo'ladigan darajada yoqishga harakat qilsalar-da bunga doim ham mufavvaq bo'linavermasdi. Bunday hollarda jallodlar mahkumning kuyib bitmagan qoldiqlarini maydalab chopishar va gulxanda qayta yoqishar edi. So'ngra mahkumning kulini yig'ib olib daryoga tashlashardi. Shu yo'l bilan inkvizitorlar dahriylarni o'z jafokashlarining mayitlarini olish va ularga sig'inish imkoniyatidan mahrum qilardilar.

Mahkum qatlgacha vafot etgan bo'lsa, gulxanda uning murdasi kuydirilar edi. Jazoga o'limidan keyin hukm qilinganlarni ham shu qismat kutardi. Ispaniya va Portugaliya inkvizitsiyalarida mahkumlarning qo'g'irchoqlarini gulxanda kuydirish odat tusini olgan edi. Umrbod qamoq jazosiga hukm qilinganlar, shuningdek, qamoqdan yoki inkvizitsiya ta'qibidan qochganlar shunday ramziy qatlgaga tortilardi. Gulxandan boshqa maqsadda – dindan qaytganlar, o'zga dinga sig'inuvchilar va cherkovga ma'qul bo'lmagan yozuvchilarning asarlarini kuydirish uchun ham foydalanilar edi<sup>401</sup>.

Shunday qilib, muqaddas inkvizitsiya tizimi amalda xalqaro maxfiy siyosiy politsiya funksiyalarini bajarar va shu tariqa papalikning jahonda hukmronlik uchun kurashida samarali qurol bo'lib xizmat qilar edi. Muqaddas inkvizitsiya faoliyatining tashqi ko'rinishlari (qiynoqlar, qatllar) yaxshi ma'lum bo'lsa, uning yashirin informatsion faoliyati haqida ma'lumotlar juda oz. Birinchidan, inkvizitsiya turli ijtimoiy tabaqalardan bo'lgan ayg'oqchilardan foydalangan, ularning tarmog'i jamiyatning barcha qatlamlarini to'la qamrab olgan. Ikkinchidan, u axborotga ishlov berishning politsiyacha usullaridan foydalangan. Bunda bir-biridan bog'liq bo'lmagan turli manbalardan (kamida ikki manbadan) olingan ma'lumotlar taqqoslangan va bu pirovardida «politsiyacha» kartoteka yaratilishiga olib kelgan.

Muqaddas inkvizitsiya faoliyatini o'rgangan tadqiqotchilar tarixiy paradoksga duch keladilar: o'rta asrlarda tashkil topgan bu institut Uyg'onish davrida ayniqsa ravnaq topadi. Tadqiqotchi A. Gregorova XV asr oxirida, Uyg'onish davrida nim katolitsizmi (keyinchalik esa –

protestantizm) tarixidagi eng sharmandali bosqichlardan biri – afsungarlar va jodugarlarni ta'qib qilish bosqichi boshlanganini ta'kidlaydi<sup>402</sup>. Bu davrda iblis haqidagi xristiancha ta'limot asosida va og'ir ijtimoiy sharoitlar ta'sirida barcha yomonliklarni afsungarlar va jodugarlar faoliyatidan ko'ruvchi xurofiy aqidalar paydo bo'ladi. Bu aqidalardan cherkov darhol o'z maqsadlarida foydalanadi, zero, u mazkur aqidalarda o'z hokimiyatini mustahkamlash vositasini ko'radi.

1487-yil inkvizitorlar Ya. Shprenger va G. Instioris tomonidan yozilgan «Jodugarlar to'qmog'i» kitobi nashr etiladi. Bu kitobda inkvizitsiyaning jodugarlikda gumon qilingan kishilarni ta'qib qilish va o'ldirishga bo'lgan huquqi asoslanadi<sup>403</sup>. O'z mohiyatiga ko'ra bu kitob asrlar mobaynida inkvizitorlar uchun ularning qonli faoliyatida o'ziga xos bir dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Tarixchilarning taxminlariga qaraganda «jodugar ovi» qurbonlarining umumiy soni o'n-o'n ikki million kishini tashkil etadi<sup>404</sup>. O'ta shafqatsiz ta'qiblar XVII asr oxirida barham topgan bo'lsa-da, «afsungarlar» va «jodugarlar» hatto XIX asrda ham gulxanlarda halok bo'lganlar.

Ma'lumki, Uyg'onish davrida inson barcha narsalar mezoniga aylanadi. Bunday sharoitda shu vaqtgacha iblis (zulmat, yer osti dunyosi, tun xudosi) nomi bilan bog'lanib kelgan yomonlik insoniy shakl-shamoyil, dunyoviy mezon kasb etishi, oqilona tus olishi, biluvchi aql me'yorlariga bo'ysunishi lozim edi. Shu tufayli ham jodugar va dahriy katolik cherkovi yaratgan oqilona konstruksiya – obyektiv dushmanga, avtoritar siyosiy tuzilmalar faoliyati uchun zarur bo'lgan vositaga aylanadi. Iblis bilan til birkirtirgan jodugarlarning fitnalari mavjudligi haqidagi axborotdan dunyoviy hokimiyat ma'murlari va inkvizitsiya o'z maqsadlarida qanday foydalanganlari yaxshi ma'lum. «Obyektiv dushman» yaxlit tuzilma sifatidagi insonga ta'sir ko'rsatuvchi oqilona vosita hisoblanadi. Ammo individ va guruhlar xulq-atvorida oqilona va yashirin, sirli narsalarni aniq ajratish mumkin emas. Shuni unutmashlik kerakki, insonning ong osti sohasi ruhiyatning kattagina qismini egallaydi va unda jamiyatning ongsizlik sohasi mujassamlashadi. «Obyektiv dushman» oqilona konstruksiyasi diniy-poetik mafkura elementi hisoblanar va ayni paytda hayotning mazmunini anglab yetishga bo'lgan ehtiyojni qondiruvchi yaxlit dunyoqarash bilan uyg'un edi. Shu tufayli ham mazkur konstruksiya insonning tarixan shakllangan ehtiyojlari bilan muvofiq kelardi. Ayni shu sababli dunyoviy hokimiyat ma'murlari va muqaddas inkvizitsiya, ayniqsa

<sup>401</sup> Григулевич И.Р. Инквизиция. – Москва: 1985. – 141–144-с.

<sup>402</sup> Gregorova A. K proticarodejnickemu osialu v Evrope // Ateizmus. 1984. № 1. – 75-p.

<sup>403</sup> Шпренгер Я., Инстюрис Г. Молот ведьм. – Москва: 1932.

<sup>404</sup> Шейнман М.М. Вера в дьявола в истории религии. – Москва: 1977. – 57–58-с.



Torkvemada faoliyati bilan asos solingan ispan inkvizitsiyasi bu konstruksiyadan o'z maqsadlarida samarali foydalanishga muvaffaq bo'ladilar.

Albatta, Ispaniyada inkvizitsiya buyuk inkvizitor Torkvemadaga qadar ham mavjud bo'lgan, bu yerda u XV asr oxirida «isloh» qilgan inkvizitsiya nazarda tutiladi.<sup>405</sup> Iblis dominikanlik Torkvemadani tanlab, uning tanasiga bir necha o'n yillarga kirib joylashgunga qadar uzoq o'ylagan, mulohaza yuritgan degan rivoyat mavjud. Bu monax Torkvemada Buyuk Inkvizitorning muovini etib tayinlangan 1482-yilda yuz beradi. Bir yil o'tgach esa u Ispaniyaning Buyuk Inkvizitori rutbasini kiyadi.

Buyuk Inkvizitor ishining samaradorligi «Xudo yo'lida» qatl etilgan yoki qamoqqa tashlangan odamlar soni bilan belgilanadi. Biz yashayotgan davrgacha yetib kelgan hujjatlar asosida Torkvemadaning inkvizitorlik faoliyati davrida (1482–1498-yillarda) taxminan 16200 kishi gulxanda tiriklayin kuydirilgani, 6840 kishi ustidan ramziy kuydirish marosimi o'tkazilgani, yuz ming kishi zindonga tashlangani va ikki yuz mingga yaqin odam boshqa jazolarga tortilgani aniqlangan. Ushbu ro'yxatga sud va tergovsiz o'ldirilganlarni hamda Ispaniyadan yahudiylarni quvg'in qilish davrida halok bo'lganlarni ham kiritish o'rinli bo'ladi. O'sha davrda Ispaniya aholisi taxminan sakkiz million kishini tashkil qilar edi.<sup>406</sup> Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, qatag'on qilinganlarning bu soni bilan Buyuk Inkvizitorga bo'ysunuvchi devonning miqdoriy tarkibi ham muvofiq kelgan: Ispaniyaning 45 viloyatida faoliyat olib borgan dominikan cherkovi xodimlarining o'zi 150000 kishini tashkil qilgan, ular bilan 20000 nafar familiar (inkvizitsiya yashirin politsiyasi a'zolari) yelkama-yelka ish olib borgan. Germandada (qirol va Buyuk Inkvizitorga bo'ysunuvchi yashirin siyosiy politsiya) va qirol armiyasi bu hisobda yo'q.

Torkvemadaning faoliyatini birgina diniy fanatizm bilan tushuntirish mumkin emas. U barcha tadbirlarni sovuqqonlik bilan rejalashtiruvchi, ommada qatl etilganlar yoki ta'qib qilinayotganlarga nisbatan salbiy munosabat uyg'ota oluvchi tashkilotni tuzishga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda Buyuk Inkvizitor Ispaniyada ulkan siyosiy hokimiyatni ham qo'lga kiritadi, xalq orasida «qirollar monarxi» degan nom oladi.<sup>407</sup>

Diniy fanatizm niqobi ostida ispan inkvizitsiyasi – markazi Trianada joylashgan Suprema jahonda hukmronlikni qo'lga kiritish maqsadida qonli

<sup>405</sup> Льюренте Х. А. Критическая история испанской инквизиции в 2-х томах. – Москва: 1936. Т.1; Сепик J. Torkue-mada. – Poznan, 1986. Torkvemada 1420 йилда тутилгани ва 1498 йилда вафот этгани маълум. У Сеговиядаги доминикан монастыри приори бўлган, сўнгра киро́л Фердинанд Католик ва киро́лича Изабелла Кастильскаянинг истинфорчиси этиб тайинланган. Солда, камтар-камсуқум хёт кочирган, хеч қачон чўмилмаган, зеро тўғри йўлда, курашиб яшаётган одамга буви кераксиз деб ҳисоблаган.

<sup>406</sup> Qarang: Сепик J. Torkue-mada. – Poznan, 1986.

<sup>407</sup> Qarang: Сепик J. Torkue-mada. – Poznan, 1986. – 167-p.

terror boshlaydi. Bu maqsadga erishish uchun qisqa vaqt ichida ta'qiblar va qatag'onlarning o'ziga xos tizimi yaratiladi. Ushbu tizim faoliyati doirasida shafqatsizlik va toqatsizlik jamiyatni boshqarish usullariga aylanadi. Ispan inkvizitsiyasi tarixda tengi yo'q jabr-zulm «mashinasi» sifatida maydonga chiqadi.

Torkvemada yahudiylar, habashlar va barcha «yot» kishilardan xalos bo'lish maqsadini ko'zlaydi, u faqat «toza qonli» kishilar yashaydigan Ispaniya g'oyasini ilgari suradi. O'rta asrlar alkimyogarlari o'zlariga ma'lum bo'lmagan materiya sirlariga aralashish yo'li bilan oltin olishga harakat qilgan bo'lsalar, Ispaniyada inson ruhiyati va erkini boshqarish yo'li bilan butunlay yangi odamni yaratish mumkinligini nazarda tutuvchi dunyoqarashni hayotga tatbiq etishga harakat qiladilar. «Ispanlar» va «yevropaliklar» o'rtasida farq mavjudligi to'g'risidagi g'oya ongli ravishda targ'ib qilinadi. Tarix sahnasiga Torkvemada chiqqan paytdan boshlab Ispaniya dahshat va sir-u sinoatlarning chuqur dengizi bilan qit'adan ajraladi.

Ispan inkvizitsiyasi din dushmanlarini yo'q qilish rejalarini amalga oshirish bilangina kifoyalanmaydi, u Yevropani bosib olish, Yevropa falsafasi va adabiyotining ilg'or yo'nalishlari ta'sirini neytrallashtirish muammolari bilan ham shug'ullanadi. Torkvemada buni o'zining Yevropa ustidan hukmronlik o'rnatishga bo'lgan iddolarini ro'yobga chiqarish uchun zarur deb hisoblaydi.

**Diniy qoidalar.** Garchi Torkvemadaning rejaları amalga oshmagan bo'lsa-da, Suprema tajribasidan rim kuriyasi foydalanadi. Bu xristianlikning ko'pgina aqidalari aniq va ravshan emasligi tufayli rim-katolik cherkovi ta'limotlarining haqqoniyligiga nisbatan shubhalar Yevropani chulg'ab olgan XVI asrning boshlarida yuz beradi. Trident soborida protestantlar bilan til topish, bitimlar tuzish mumkin emasligi, ularning ta'limoti rasmiy doktrinadan chiqarib tashlanishi uzil-kesil qayd etilgan bo'lsa-da, xristianlar dunyosida dinning fundamental muammolari atrofida bahs-munozaralar to'xtamaydi. Papa Pavel III ikki kardinal – neapollik Karafe va ispaniyalik Xuan Alvares de Toledodan bu vaziyatdan chiqish uchun nima qilish lozimligini so'raydi. Dominikan cherkovining bu ikki keksa vakili xavf-xatar kuchaygan sharoitlarda uni bartaraf etish uchun ispancha andozadagi muqaddas inkvizitsiyadan foydalanish ayni muddao bo'lishini aytadilar. Ularning taklifini ispaniyalik iezuit – Ignatiy Loyola ham qo'llab-quvvatlaydi. Natijada 1542-yilda papa farmoniga binoan Rimda cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan markaziy inkvizitsiya tribunali tashkil etiladi. Bu italyan ruhoniylariga ochiq-oydin ishonchsizlik mahsuli bo'lib, Yakov Burkhardt ta'biri bilan aytganda,



o'sha paytgacha ozmi-ko'pmi erkin bo'lgan Italiyaning «ispanlashuvi»ga olib keladi. O'sha davrda «Iso Masih dushmanlari» va dindan qaytganlarga qarshi kurashish uchun iezuitlar ordeni ham tashkil etiladi. Bu tashkilotga Ignatiy Loyola rahbarlik qiladi<sup>408</sup>

Iezuitlar ordeni rim kuriyasi o'ziga bildirgan ishonchni to'la oqlaydi: u bid'atlar va hurfiylikka qarshi kurashda rim cherkovi qo'lida samarali qurolga aylanadi. Uzoq vaqt mobaynida u Vatikan siyosiy va mafkuraviy ekspansiyasining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu haqida tasavvur hosil qilish uchun iezuitlar ordeni generali Tamburini (1706–1730) Fransiya marshali gersog de Brissakka aytgan so'zlarni keltirish kifoya qilsa kerak: «...shu xonada turib men nafaqat Parijni balki butun dunyoni boshqaraman va buni qanday amalga oshirayotganimni hech kim bilmaydi»<sup>409</sup>. Iezuitlar ordeni hozirgi vaqtda ham katolik cherkovi tashkilotlari orasida alohida o'rin egallaydi va muayyan funksiyalarni bajaradi<sup>410</sup>

Iezuitlar ordenini katolik cherkovining qudratli va samarali quroliga aylantirish yo'lida Ignatiy Loyola tashkilot a'zolarini individual tarbiyalash prinsipidan kelib chiqadi. Ayni shu prinsip iezuitlarda «ichki iroda»ni, o'zi bajarayotgan ishning to'g'riligiga qattiq ishonchni shakllantirish imkonini beradi. Katolik cherkoviga fanatiklarcha sodiq bo'lgan «Iso Masih askarlari»ni tayyorlash uchun ularning shaxsiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatish talab etiladi. Ular o'zlarida mavjud bo'lgan insoniy fazilatlarning barchasini qurbonlik keltirishlari lozim. Bu askarlardan tanqidiy fikrlash qobiliyatini siqib chiqarish va ularda qarama-qarshi fikrlarning soxtaligiga bo'lgan ishonchni shakllantirish zarur. Iezuit shaxsiyatining o'zgarishi fanatizm holatiga erishish bilan bog'liq bo'lishi lozim. Bunga erishish uchun esa insonning aqligagina emas, balki uning sezgilariga ham ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tarbiya talab etiladi<sup>411</sup>

Umuman olganda, fanatik iezuitni tayyorlash ijtimoiy texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mushtra, ya'ni ko'r-ko'rona qattiq intizomga asoslangan harbiy ta'lim, harbiy mashqlarni, zo'rma-zo'raki ta'lim va tarbiyani; shaxsdan mustaqillikning har qanday unsurlarini siqib chiqarishni; uni erkin fikrlashdan mahrum qilishni; tarbiyalanuvchilarni tirik robotlarga, boshliq qo'lida ko'r-ko'rona jonsiz qurolga aylantirishni. Orden generali («qora papa») «Iso Masih jamiyati» a'zolari uchun shoh va xudo bilan barobar, uning obro'si shak-shubhasiz, unga so'zsiz itoat etilishi shart. Vatikan, papa, orden generali maqsadlariga erishish yo'lida

<sup>408</sup> Лозинский С.Г. История папства. – Москва: 1986. – 246-б.

<sup>409</sup> Самарин Ю.Ф. Сочинения. – Москва: 1887. Т.6. – 69-с.

<sup>410</sup> Великович Л.Н. Черная гвардия Ватикана. – Москва: 1980.

<sup>411</sup> Тонди А. Иезуиты. – Москва: 1955. – 126-с.

zahmat chekish, ularning qo'lida qurol bo'lib xizmat qilish iezuit hayotining mazmunini tashkil etadi<sup>412</sup>

Irodani sindiruvchi kitoblarni o'qish yo'li bilan taqvodorlikni shakllantirish, insoniylikka zid qilmishlari bilan tilga tushgan shaxslarga taqlid qilish zarur degan fikrni ongga singdirish iezuitlarda fanatizmni shakllantirish vositalari hisoblanadi. «Taqvodorlik tuyg'ularga, mutolaa va suhbatlar – aqlga, maxsus mashqlar – ularning ikkalasiga, kun tartibi – irodaga ta'sir ko'rsatadiki, bu individning ma'naviy kuchlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatish va uni diniy fanatikka, orden va Vatikan quliga aylantirish imkonini beradi. Pirovard natijada u iezuitlarni tarbiyalashda qo'llaniladigan «Ma'naviy mashqlar»ning quyidagi mazmundagi o'n uchinchi qoidasiga muvofiq ish ko'radi: «Hech narsada xatoga yo'l qo'ymaslik uchun biz, agar Ierarxiyaviy Cherkov buyursa, oqning qoraligiga ham ishonishimiz lozim»<sup>413</sup>

Iezuitlar ordenida hamma bir-birining ortidan poylar edi. Rektorlar va superiorlar provinsialga har hafta ma'lumot yuborardilar, provinsial esa rektorlarga har oy javob qaytarardi. Yevropa provinsiallarining barchasi orden generaliga har oy, rektorlar va superiorlar esa – uch oyda bir marta ma'lumot berardilar. Rektorlar va superiorlarning assistentlari har ikki haftada bir marta provinsialga va har oyda bir marta generalga ma'lumot yuborardilar, provinsiallarning assistentlari esa har yili ikki marta o'z provinsiallari to'g'risida generalga yashirin ma'lumot berardilar<sup>414</sup>. Orden mansabdor shaxslarining har biri nima qilayotgani va nimani o'ylayotgani generalga ma'lum edi. U o'zining Rimdagi kabinetida turib ordenda qat'iy tartib va ko'r-ko'rona itoatkorlikni quvvatlay olardi.

Iezuitlar ordeni o'z faoliyatining dastlabki davridan boshlab hayotning barcha sohalarida papa va katolitsizmning hukmronligini mavjud barcha yo'llar va vositalar bilan qo'llab-quvvatlaydi<sup>415</sup>. Chunonchi, iezuitlar Xitoy va Yaponiyada xristianlikni yoyar ekanlar, dinga o'g'irilganlarga eski rasm-rusumlar va irim-sirimlarga amal qilish – fonarlar kunini bayram qilish, Konfutsiyga sig'inish va boshqa shunga o'xshash diniy amallarni bajo keltirish imkoniyatini qoldiradilar. Ular o'zlariga boylik, kuch-qudrat va hokimiyat keltiruvchi prozelitlar sonini ko'paytirish uchun ularning eski

<sup>412</sup> Тонди А. Иезуиты. – Москва: 1955. – 126-с.

<sup>413</sup> Тонди А. Иезуиты. – Москва: 1955. – 139-с.

<sup>414</sup> Провинциаллар, ректорлар, супериорлар ва ularning assistentlari – iezuitlar ordeni ierarxiyasida muayyan urinni egallovchi shaxslar; ordeni iezuitlar ustidan mutlak hokimiyatga ega bulgan general boshqaradi.

<sup>415</sup> Тайные наставления ордена иезуитов // Атеист. 1927. № 17. – 25-б.



diniy odatlar va rasm-rusumlarga sodiqligiga ko'z yumish mumkinligidan kelib chiqadilar<sup>416</sup>.

Iezuitorlar Yevropa va jahonda ulkan kuch-qudrat va mavqega erishadilar. Ular ko'p sonli o'quv yurtlariga asos soladilar (masalan, birgina AQShda iezuitorlar hozirda 28 kollej va 50 oliy maktabga rahbarlik qiladilar<sup>417</sup>). Turli davlatlarning rahbarlari va oliy mansabdor shaxslarini o'z ta'siri doirasiga oladilar. Bid'atga, ayniqsa lyuteranlik va kalvinizmga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Barcha mamlakatlarning iste'dodli va aqlli kishilarini orden a'zolicigiga qabul qiladilar.<sup>418</sup>

**Iezuitlarda diniy fanatizmni shakllantirish vositalari va usullariga** nazar tashlasak, ularning orasida xotira yoki mnemonika vositalari alohida o'rin egallashini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, mnemonika nazariyasini Aristotel, Platon, Sitseron, Kvintillian, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, Petrarka, Raymond Lulliy, Jordano Bruno, Dekart, Leybnits kabi buyuk mutafakkirlar ishlab chiqqanlar. Qadimgi Yunoniston va Rimda ritorikaning bir qismi sifatida tarqalgan<sup>419</sup> mnemonika san'ati o'rta asrlarda xristianlar dunyosida chin xristianga xos bo'lgan fazilatlar to'plamining tarkibiy elementlaridan biri sifatida falsafa, din, tasviriy san'at, me'morchilik, teatr va hatto xufiya uyushmalarning timsollariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Uyg'onish davri bilimdoni, angliyalik mutaxassis F. Yeyts fikriga ko'ra, mnemonika san'atini Jotto mo'yxalamidan chiqqan novatorlarcha freskalarda, Dantening «Ilohiy komediyasi»da, gotika uslubida qurilgan ibodatxonalar arxitektonikasida, protestantcha tarbiya konsepsiyalarida, Foma Akvinskiyning «Teologiya yig'indisi» asari strukturasi, Leybnitsning differensial hisobida va hokazolarda kuzatish mumkin<sup>420</sup>. U Yevropa madaniyati tarixidagi ko'pgina fenomenlarni tushunish imkoniyatini beradi.

Mnemonika san'ati sivilizatsiyaning yozuv paydo bo'lishidan oldingi bosqichida aytilgan so'zni eslab qolish san'ati sifatida keng amal qilgan. Keyinchalik, sivilizatsiyaning taraqqiy etishiga qarab, u ashyolarga nisbatan tatbiq etila boshlagan va kodekslashtirilgan. Sun'iy xotirani qo'llash qoidalari paydo bo'lgan. Lo'nda qilib aytganda, mnemonika san'atida vaqt o'tishi bilan vizuallashtirish omilining kuchayishi yuz bergan.

<sup>416</sup> Гризингер Т. Иезуиты. Полная история их явных и тайных деяний от основания ордена до настоящего времени. – СПб-Москва: 1868. Т. 2. – 3-с.

<sup>417</sup> Велкович Л.Н. Черная гвардия Ватикана. – Москва: 1980. – 180-б.

<sup>418</sup> Гризингер Т. Курсатилган асар. Т. 1. – 122-128-б.

<sup>419</sup> Античные риторики. – Москва: 1978.

<sup>420</sup> Yates F.A. Sztuka pamieci. – Warszawa, 1977.

Sxolastika qoidalarini o'zida ifodalovchi mnemonika qoidalarining Albert Buyuk va Foma Akvinskiy tomonidan qayta ko'rilishi XIII asrda ularning ommaviylashuviga imkon yaratadi. Monaxlar ordenlarining a'zolari o'z ta'limotlarini targ'ib qilish uchun foydalanish maqsadida notiqlik san'atini tiklaydilar; voizlik Dominikan cherkovi faoliyatida asosiy o'rin egallar edi. O'rta asrlarda sun'iy xotiradan asosan din a'yonlarining va'zlarini eslab qolish uchun foydalanadilar. Dominikan cherkovi namoyandalarining voizlik va targ'ibotchilik faoliyati zamirida Foma Akvinskiy tomonidan ta'riflangan va ushbu maqsadlarga moslashtirilgan xotira qoidalari yotadi. Bu qoidalar quyidagicha yangraydi: «Insonga yaxshi eslab qolishga yordam beruvchi to'rt narsa bor:

birinchidan, u eslab qolish talab etiladigan narsalar va voqealarni muayyan tartibda joylashtirishi lozim;  
ikkinchidan, u mazkur narsalar va voqealarga emotsional yondashishi kerak;

uchinchidan, ularni abstrakt tushunchalar sifatida ifodalashi darkor;  
to'rtinchidan, ularni tez-tez xayolan takrorlashi lozim»<sup>421</sup>.

Dominikan cherkovi namoyandalari inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish borasida to'plagan tajribadan Ignatij Loyola iezuitorlarni tarbiyalash tizimida samarali foydalanadi. Bu tajriba bo'lg'usi iezuitor shaxsiyatini shakllantirishda ancha muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlar turli madaniy, psixologik va fiziologik mexanizmlar iezuitorlar tomonidan Vatikan «qora gvardiyasi»ning o'zagini tashkil qilgan diniy fanatiklarni tayyorlash uchun foydalanilgan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Shuni unutmash kerakki, to'rt yuz yil muqaddam Reformatsiya harakatiga qarshi kurashish uchun ta'sis etilgan iezuitor ordeni hozir ham faol ish olib bormoqda.

**Diniy qoidalarning Kolumbcha modeli.** Yuqorida aytib o'tilganidek, Rim papalari, teokratiyaning oliy namoyandalari sifatida o'zlarini barcha qirollar va imperatorlardan ham yuqori qo'yganlar. Ular siyosat bilan faol shug'ullanganlar, xalqning bir qismini boshqa qismiga, fuqarolarni – podsholarga qarshi gijgijlaganlar, o'z maqsadlariga erishish yo'lida monaxlarning turli ordenlari va muqaddas inkvizitsiyadan foydalanganlar<sup>422</sup>. Masalan, papa Grigoriy VII (1020–1085) pul va dag'al kuchni dunyoda o'z hukmronligini o'rnatishning eng samarali vositalari deb hisoblagan. Papa Innokentiy III (1161–1216) ekspansiyaning nisbatan mo'tadil usullarini qo'llagan va natijada papalik uning davrida o'z kuch-

<sup>421</sup> Yates F.A. Sztuka pamieci. – Warszawa: 1977. – 96-p.

<sup>422</sup> Гуревич А.Я. Культура и общество средневековой Европы глазами современников. – Москва: 1989. Гл. 10.



qudratining cho'qqisiga ko'tarilgan. Uning o'limidan so'ng papalik o'zining egallagan mavqeini boy bera boshlagan va bu ma'lum ma'noda Reformatsiya harakati paydo bo'lishiga turtki bergan.

Yevropa madaniyatining bo'lg'usi rivojlanish yo'lini belgilab bergan Reformatsiya davri kabi olamshumul bosqichlar jahon tarixida uncha ko'p emas. Insoniyat tarixidagi har qanday buyuk harakat kabi Reformatsiya ham quruq joyda vujudga kelgani yo'q, unga XIV va XV asrlarda yuz bergan jarayonlar (ta'bir joiz bo'lsa, shu davrda amalga oshirilgan o'ziga xos «tayyorgarlik ishi») zamin hozirladi. Bu asrlar feodal va cherkov ierarxiyaviy muassasalari zavol topgan, papalik va Muqaddas Rim imperiyasi inqirozga yuz tutgan, rim-katolik cherkoviga muxolifat vujudga kelgan davr hisoblanadi.

Ushbu muxolifatga rim cherkovida yuzaga kelgan vaziyatdan norozilar va uni isloh qilishga intiluvchilar kiradi<sup>423</sup>. Rim cherkovida yuzaga kelgan vaziyatdan norozilar qatoriga papa Bonifatsiy III dan ruhoniylarni dunyoviy ishlarda dunyoviy hokimiyatga to'la bo'ysundirishni talab qilgan Fransiya qiroli Filipp VI Chiroylini, «Monarxiya» asarining uchinchi kitobida: «Biz papaga bo'ysunar ekanmiz, unga Iso Masih sifatida emas, balki Pyotr sifatida qaraymiz» deb ta'kidlagan Dante Aligerini, Papaning benuqsonligi va uning ulkan kuch-qudrati haqidagi ta'limotni rad etgan faylasuf U. Okkamni, o'zining «Ahmoqlar kemasi» asarida ruhoniylarning buzuqligini ayovsiz tanqid tig'i ostiga olgan nemis satirigi Sebastian Brantni, «Kenterberiya hikoyalari»da cherkov to'g'ri yo'ldan qaytganligini ko'rsatgan va islohotlarni talab qilgan ingliz she'riyati otasi Jeffri Choserni kiritish mumkin. Xalq ommasining o'rta asrlar ruhiga mos ravishda diniy shakllarda ifodalangan noroziligi ham Reformatsiya harakatiga zamin yaratgan omillardan biri hisoblanadi. Ushbu norozilik ko'rinishlaridan biri sifatida flagellantlar sektasi faoliyati namoyon bo'ladi. Didro va D. Alamber «Ensiklopediyasi»dagi «Flagellantlar» maqolasining muallifi L. de Jakur flagellantlar «xudolar marhamatiga sazovor bo'lish uchun o'z tanasini mayib qilgan ayrim majusiy koinlar fanatizmini eslatadigan fanatizm»ni namoyish qilganlarini qayd etadi<sup>424</sup>. Flagellantlarning namoyishlari g'arbiy Yevropani deyarli to'la qamrab oladi. Mualliflar bu harakat faoliyatida «ruhiy omillarning ustunligi»ni, uning «epidemik xususiyati»ni, namoyishga qo'shilgan «dindor omma kayfiyatining ko'tarinkiligi»ni

<sup>423</sup> Михайловский В. Предвестники и предшественники Реформации в XVI и XV веке // Гейссер Л. История Реформации. – Москва: 1882.

<sup>424</sup> Flagellans / Encyclopedic ou Dictionaire raisonne des sciences, des arts et des metiers. – P., 1756. Vol. 6. – 833-p.

ta'kidlaydilar<sup>425</sup>. Mistiklar Ekkart, Tauler, Suzo va boshqalar faoliyatining kuchayishi yuqorida zikr etilgan norozilikning boshqa bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi guruhga fransuz ilohiyotchilari, Parij universiteti o'qituvchilari Petr D'Ali va Jan Sharle kiradi. Ular yepiskop hokimiyatini unga papaning ba'zi bir vakolatlarini o'tkazish yo'li bilan kuchaytirishga, Rim cherkovini cheksiz monarxiyadan konstitutsiyaviy monarxiyaga aylantirishga chaqiradilar. Ular bilan bir qatorga katolik cherkovi haqiqatlarini rad etuvchi xalq panteistik sektalarining a'zolarini (ular Germaniya va Fransiyada ayniqsa ko'p edi), «Reformatsiya davridan oldingi islohotchilar» deb nomlash mumkin bo'lgan bir qancha atqli arboblardan mutafakkirlarni ham qo'yish mumkin<sup>426</sup>. Ular jumlasiga, dunyoviy hokimiyat manfaatlarini himoya qilgan, o'limidan so'ng shogirdlari lollarlar tuzgan taniqli ingliz ilohiyotchisi Jon Viklif, dinning birdan bir manbai Muqaddas kitob hisoblanishini, cherkov ikkinchi darajali va shartli ahamiyat kasb etishini isbotlashga harakat qilgan Praga universiteti magistri Yan Gus kiradi. Ushbu qarashlari uchun Gusni gulxanda kuydiradilar va bu voqea guschilar urushlari olovi yoqilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, feodal munosabatlarga qarshi inqilobiy muxolifat mistika, ochiq-oydin bid'at va qurolli qo'zg'olon ko'rinishida Reformatsiya uchun zamin tayyorlaydi.

Reformatsiya g'arbiy Yevropa hayotida tub burilish yasagan davr hisoblanadi. Bu davrda Rim-katolik cherkovining ma'naviy sohadagi yakkahokimligi cheklanadi, dunyoviy madaniyat va burjua dunyoqarashi rivojlanishiga asos solinadi. Reformatsiya davri – bu Yevropa madaniyatida to'ntarish yasagan davr. Unda olijanob intilishlarga ham, «dahriylar»ni gulxanda kuydirish hollariga ham, antik madaniyatga qiziqishning tiklanishiga ham, «jodugarlar»ga qarshi qatag'onlarning kuchayishiga ham (bunga «Salem ishi» yorqin misol bo'ladi), qizg'in ilmiy munozaralar va vahshiyona qiynoq usullariga ham duch kelish mumkin<sup>427</sup>.

Reformatsiya bosqichi – bu Uyg'onish davri va gumanistik mafkura qadriyatlarini protestantcha fanatizm bilan to'qnashgan murakkab va ziddiyatlarga to'la bosqich. Reformatsiya davrida katoliklarnikidan ham kuchliroq diniy fanatizm paydo bo'ladi. Protestantizm, g'arbiy Yevropada shakllana boshlagan burjua davlatlarining ma'naviy asoslari va axloqiy me'yorlari diniy fanatizmning o'ta vahshiyona ko'rinishlari paydo

<sup>425</sup> Skrzypek M. Poganski «entuzjazm» a chrzescijanska heterodok-sja Czkviek i swiatopoglad. 1986. № 7-8. – 123-p.

<sup>426</sup> Михайловский В. Предвестники и предшественники Реформации в XVI и XV веке // Гейссер Л. История Реформации. – Москва: 1882.

<sup>427</sup> Митрохин Л.Н. Стефан Цвейг: Кастельно против Кальвина. – Москва: 1986. – 17-с.



bo'lishiga olib keladi. Din tarixchisi F. Mautner protestantlar rahnamosi Lyuter iblisning mavjudligiga va uning yovuz amallariga ishonganligini qayd etar ekan shunday deb yozadi: «Protestantizm katoliklarning iblis jihatdan yanada mustahkamlaganligi aybi Lyuterning bo'yniga tushadi. Protestantlik yetakchi din bo'lgan mamlakatlarda jodugarlar ustidan o'tkazilgan jarayonlar aksariyat hollarda katoliklar o'tkazgan shunday jarayonlardan ham fanatikroq tus kasb etadi. Jodugarlarni gulxanda kuydirishning otashin tarafdorlari protestantlar orasida katoliklardan ham ko'proq topiladi. Lyuter uchun iblis oddiy qurolga, xudo g'azabining jallodiga aylanadi»<sup>428</sup>

Protestantcha Reformatsiyaning xususiyatlaridan biri faqat monaxlarga xos bo'lgan asketizmning dunyoviy hayot tarziga ham tatbiq etilishi hisoblanadi. Lyuter insonni yuzaki dindorlikdan xalos qiladi va dindorlikni insonning ichki dunyosiga aylantiradi. Lo'nda qilib aytganda, u ruhoniylarni dunyoviy kishilarga, dunyoviy kishilarni esa – ruhoniylarga aylantiradi Bunda protestantizmning fundamental g'oyasi – Lyuterning insonga panoh topish imkonini beruvchi birdan bir vosita sanalgan «shaxsiy e'tiqod» to'g'risidagi g'oyasi mazmuni namoyon bo'ladi. Protestantizmning turli yo'nalishlari, shu jumladan, uning kalvinistik ko'rinishi zamirida ham ayni shu g'oya yotadi. Bu g'oya turli-tuman kuchlar – siyosiy mustaqillikka intilayotgan hukmdorlar; o'lponlar va feodal jamiyatning tarqoqligi faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan tadbirkorlar va tijoratchilar; o'z tabaqalarini talagani uchun rim cherkovini yomon ko'rgan qashshoqlashgan dvoryanlar va ritsarlar; qotib qolgan cherkov aqidalari hukmron muhitda nafas olishga qiynalayotgan ziyolilar; ayovsiz jabr-zulmga duchor bo'lgan dehqonlar va shaharlik plebeylarni birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Bu kuchlarning barchasini birlashtirish uchun «ideal shakl» sifatidagi g'oya zarur edi. Ma'lumki, bunday «ideal shakllar»ni yaratish ziyolilarning vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy amaliyot jarayonida ayni shu «ideal shakllar»ni amalga oshirish talab etiladi. Holbuki, Reformatsiya davriga kelib ziyolilarning ko'pchiligi yo daydilarcha hayot kechirardi, yo gersoglar, graflar, baronlar va shahar patritsiylariga boqimanda edi. O'rta asrlar ziyolilari kuchli shaxsiy qaramlik evaziga tirikchilik qilardilar. O'sha davrda qurilgan ayrim hashamatli soborlar va ratushalarning me'morlari, xattotlar, daydi faylasuflar va solnomachilar o'z ismlarini oshkor etmaganlari tasodifiy bir hol emas. Ziyoli, mafkurachi ma'naviy hayotda muhim rol o'ynaydi, u jamiyat hali anglab yetmagan g'oyalarni ta'riflaydi.

<sup>428</sup> Мавтнер Ф. История черта на Западе // Атеист. 1926. № 8. – 19-с.

Rim-katolik cherkovining ma'naviy yakkahokimligiga asoslangan feodal jamiyatda yig'ilib qolgan ziddiyatlar oxir-oqibat inqilobga olib keladi. Amalga oshirish jarayoniga ashaddiy diniy fanatizm yo'ldosh bo'lgan protestantizm fundamental g'oyasi Reformatsiya davrini boshlab bergan ushbu inqilobning «ideal shakli» hisoblanadi.

Ma'lumki, rim-katolik cherkovi mavjud feodal tuzumni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy institut hisoblanar edi. Shu tufayli ham har qanday ijtimoiy va siyosiy harakat teologik shakl-shamoyil kasb etishga majbur edi, mavjud ijtimoiy munosabatlarga hujum qilish uchun esa ularni muqaddaslik rutbasidan mahrum qilish talab etilardi. Sodda qilib aytganda, ijtimoiy institut sifatidagi rim-katolik cherkovi ustidan g'alaba qozonish uchun uning jamiyatdagi hukmronligini asoslovchi aqidalar tizimini vayron qilish talab etilar edi. Bu tizimda inson panoh topishi uchun ko'makchi sifatida cherkovning zarurligi haqidagi aqida markaziy o'rinni egallardi. Mavjud obyektiv va subyektiv sharoitlarda cherkov nufuzini rad etishni faqat uning o'z quroli vositasida amalga oshirish mumkin edi. Rim-katolik cherkovining «ilohiy panteon»ni egallash borasidagi iddaolariga hech bo'lmasa shu darajada avtoritar ta'limotni qarama-qarshi qo'yish talab etilardi. «Shaxsiy e'tiqod» konsepsiyasi ayni shunday ta'limotga aylandi.<sup>429</sup> Xristianlik doirasida bunga faqat Xudoning kuch-qudratiga nisbatan rim-katolik cherkovining «dunyoviy» cheklanganligini qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan erishish mumkin edi. Ayni shu sababli protestantlar Muqaddas kitobni dinning birdan-bir manbai deb e'lon qiladilar va amalda cherkov ediktlarini asoslovchi Muqaddas rivoyatga emas, balki «Xudoning so'zi»ga itoat etishga chaqiradilar. Bunga protestantlar jodugarlarni «ovlash» va dahriylarni ta'qib qilishda yanada shafqatsizroq va fanatikroq bo'lganlari sababining klassik izohi sifatida qarash mumkin. Masalaga chuqurroq yondashish kishilarning tengligi, insonning «ichki» erkinligi, uning burchi va maslagi haqidagi odatdagi tasavvurlarni aniq ifodalagan protestantcha mafkura «burjuaziyaning o'ziga xos faolligini rag'batlantirishning samarali vositasi»ga<sup>430</sup> aylanganligining guvohi bo'lish imkonini beradi. Burjuacha ong va faollik manbai protestantcha fanatizm fenomenini tushunishning o'ziga xos «kaliti» bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ushbu fenomenning anglab yetish inson tabiatining funksional modeliga tayanishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, faylasuflar va mutafakkirlar inson faoliyatining samaradorligi to'g'risidagi masalaga yechim topish jarayonida imkoniyat

<sup>429</sup> Митрохин Л.Н. Цвейг Стефан. Совесть против насилия. – Москва: 1986. – 20–21-с.  
<sup>430</sup> O'sha joyda. – 29-с.



darajasidan tashqaridagi faoliyatni tavsiflovchi ikki qarama-qarshi model – prometeycha va sizifcha modellarni yaratganlar<sup>431</sup>

Prometeycha model inson va jamoaning tabiat ustidan hukmronlik qilish, barkamol jamiyatni yaratish va inson shaxsiyatini kamol toptirish qobiliyatiga bo'lgan shak-shubhasiz ishonchdan kelib chiqadi. Ushbu model g'alaba ketidan g'alaba qozonayotgan konkistadorni eslatadi. To'g'ri, bu yo'lda u azob-uqubatlar chekadi, qurbonlar ko'radi, biroq erishilgan natijalar shunga arziydi. Prometeychilik insonni oqilona va izchil yo'llar bilan o'z maqsadiga erishuvchi ideal arbob deb hisoblaydi. Bunda va'da bajarilmay qolmaydi. Zero, bajarilmagan va'da o'zining empirik ma'nosini yo'qotadi. Bunday optimistik yondashuv ancha murakkab faoliyatga nisbatan ham kuzatiladi.

Prometeycha modelning turli variantlari ba'zi bir mutafakkirlar, olimlar va siyosatchilar tomonidan o'zlashtirilgan. Unga ko'pgina inqilobchilar ham amal qilganlar. Ular inqilobiy faoliyat va o'z ijodi yordamida inson uning ehtiyojlarini qondiruvchi va erkinlik doirasini kengaytiruvchi jamiyat qurishga qodir ekanligiga ishonganlar; shu tufayli ham insoniyat kelajagi kollektiv Prometey qo'lidadir deb hisoblaganlar. Bunday nuqtai nazarni ko'pgina bixevioristlar, sotsiologlar va pedagoglar ham ilgari suradilar. Masalan, amerikalik sotsiobiolog Skinner fikriga ko'ra xulq-atvor texnologiyasining ikki tomonlama pozitiv aloqa prinsipidan kelib chiquvchi metodlari individ reaksiyalarini erkin modifikatsiyalash va biorobotlar jamiyatiga o'xshash yangi jamiyat barpo etish imkonini beradi. Yuzaki cheklashlar va to'siqlar o'z kuchiga ishonmay qo'ygan aqlning illyuziyalari hisoblanadi.

Prometeycha model empirik ma'lumotlar bilan to'la tasdiqlanmaydi. G'oya va natija o'rtasidagi farq aksariyat hollarda kritik masofani o'zida ifodalaydi. Qo'yilgan maqsadlarga qisman yoki umuman erishmaslik inson taqdirining elementi sifatida uning innovatsion faoliyatida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Inson tayyorlagan ijtimoiy inqiloblar, ta'lim-tarbiya sohasida u amalga oshirgan islohotlar, ilmiy tadqiqotlar, odatda, kutilganidan farq qiladigan natijalarga olib keladi. Zotan inson har narsaga qodir arbob emas – Faust belbog'ini taqish yo mahalliy guruhlarining manfaatlariga xizmat qiladi, yo tushkunlik qarshisida himoya mexanizmi hisoblanadi. Tashqi va ichki omillar majmui prometeycha ideallarga erishishni qiyinlashtiradi. Iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ustidan to'la nazoratning yo'qligi, tavakkalchilik, axborotdan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, inson hayot faoliyatidagi irratsional sohalar, aqlning norasoligi va hokazolar turli-tuman g'oyalarni ro'yobga

<sup>431</sup> Kozielski J. O czlowieku wielowymiarowym. – Warszawa, 1988. – 113–116-p.

chiqarish imkoniyatini bermaydigan omillar hisoblanadi. Ijodiy faoliyat ham ko'pincha umidlarni oqlamaydigan natijalarga olib keladi. Prometeycha model inson faoliyatining tomonlaridan birinigina tavsiflaydi.

Sizifcha model prometeycha ideallarga qarama-qarshi hisoblanadi. U inson faoliyati samarali emasligini, faoliyatga turtki beruvchi g'oyalar va uning qadriyat tusini kasb etuvchi oqibatlari o'rtasida tafovut mavjudligini nazarda tutadi. Inson innovatsion harakatlarni bajaryapman deb o'ylaydi, biroq ular individning umidlariga zid o'laroq narsalar va hodisalarning mavjud tartibidan chetga chiqish imkonini bermaydi. Bunday yondashuvda ijtimoiy inqiloblar, o'z-o'zini kamol toptirish yo'lidagi harakatlar yoki azob-uqubatlarga qarshi kurash besamardir. Yutuq barvaqt e'lon qilingan mag'lubiyatga aylanadi, odamlarning say-harakatlari absurd va irratsional bo'lib chiqadi, ular afsonaviy Sizifning ishini takrorlaydilar.

Sizifcha model uning turli ko'rinishlarida ko'pgina faylasuflar va mutafakkirlar, ayniqsa ekzistensialistlar tomonidan o'zlashtirilgan. Alber Kamyu «Sizif haqida afsona» esesida absurd va ma'nosiz faoliyatga sho'ng'igan inson uchun o'zini o'zi o'ldirish to'g'risidagi masala tom ma'noda falsafiy xususiyatga ega bo'lgan birdan bir masalaga aylanishini ta'kidlaydi. Shunga yaqin qarashlarga melanxoliya va depressiyani boshdan kechirayotgan nevroitik yoshlar davrasida duch kelish mumkin. Individ va guruhlar faoliyati behuda ekanligi haqida o'ylashga majbur etuvchi vaziyatlar har bir inson hayotida mavjud bo'lsa kerak. Polyak psixologi Y. Kozeletskiy sizifcha modelga tavsif berar ekan, u inson taqdirining umumiy andozasi sifatida karikatura xususiyatini kasb etishini ta'kidlaydi<sup>432</sup>. Agar inson ta'sirchan faoliyat ko'rsatmaganida, faoliyat va uning natijalari o'rtasida aloqa mavjud bo'lmaganida, innovatsiyalar samara bermaganida, u dunyoda yashab qolmagan va o'zgaruvchan muhitga moslasha olmagan bo'lur edi. Odamzot san'atda, fanda, dinda va o'z hayot faoliyatining boshqa sohalarida bunyodkor bo'la olmas, yo'qlik qa'riga singib ketgan bo'lardi. Inson doim ham yutqazavermasligiga ishonch hosil qilish uchun ko'p sonli mag'lubiyatlar «chig'irig'i»dan o'tish lozim edi. Shu tufayli ham sizifcha model, prometeycha modelga zid o'laroq inson mavjudligining boshqa tomonini aks ettiradi.

Shundan kelib chiqib, Y. Kozeletskiy, o'z fikriga ko'ra inson faoliyatining eng oqilona modeli – amaliy hayotda innovatsiyalarni amalga oshiruvchi inson modelini taklif qiladi. Bu modelni u «kolumbcha model» deb nomlaydi<sup>433</sup>. Bu yerda u Hindistonga g'arbiy yo'nalishda yangi dengiz yo'lini ochishga ahd qilgan va bunga muvaffaq bo'lgan Kolumbning hayo

<sup>432</sup> Kozielski J. O czlowieku wielowymiarowym. – Warszawa, 1988. – 116-p.

<sup>433</sup> O'sha joyda. – 116–118-c.



tarixini asos sifatida oladi. Kolumbning g'oyasi o'ta xavfli edi – o'sha zamon kemalari ham, navigatsiya asboblari ham, ekipajning tayyorgarlik darajasi ham maqsadga erishishni to'la ta'minlash imkonini bermasdi. Natijada Kolumb kutilmagan natijaga erishdi – u yangi qit'ani kashf qildi. Kolumb sayohati natijalari insoniyat uchun olamushumul ahamiyat kasb etadi. Ammo ba'zan bunday harakatlar fojiali oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Masalan, mayya qabilalari va kxmerlar tomonidan turli zamonlarda o'rmonlarning kesib tashlanishi ularga dalalar uchun arzon quyosh energiyasini berdi, ammo shu bilan bir paytda kutilmaganda tuproqning chuqur eroziyasiga olib keldi va pirovardida ularning sivilizatsiyalari tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Kolumbcha model inson faoliyatini, ayniqsa innovatsion faoliyatni ancha to'liq tavsiflaydi. Bu tavsif to'rt banddan iborat:

- yirik yutuq - ish o'ngidan kelib inson ulkan ahamiyatga molik natijaga erishadi, bilim yoki hokimiyat doirasini kengaytiradi;
- yutuqqa erishish ehtimolining ozligi – erishilgan natija kamdan kam holda yuksak ahamiyatga ega bo'ladi;
- yirik mag'lubiyat – ish o'ngidan kelmasligi nafaqat insonga, balki jamiyatga ham tahdid solishi mumkin bo'lgan ulkan muvaffaqiyatsizlikka olib keladi;
- muvaffaqiyatsizlikka erishish ehtimolining kattaligi – nomaqbul natijalarga erishish imkoniyati bor va shu bois potensial xavf real tus olishi mumkin. Kolumbcha model inson faoliyatining ehtimoliy modelini o'zida ifodalaydi.

Kolumb hayoti va inson faoliyatining taklif qilingan modeli o'rtasida teran bog'lanish mavjud. Tarixiy manbalardan ma'lumki, mashhur dengizchi o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishganiga, Hindistonga eltuvchi g'arbiy dengiz yo'lini ochganiga umrining oxirigacha ishonib yashagan, o'zi yangi qit'ani ochgani haqida o'ylashni istamagan. Xuddi shuningdek, umidlari puch bo'lib chiqqan arbob ham amalda yutuqqa erishganligiga o'zini va boshqalarni ishonitirishga harakat qiladi. Bu yo'lda u o'zini o'zi aldash usullari, himoya mexanizmlari va repressiya vositalaridan foydalanadi. Muhimi shundaki, mazkur model insonning murakkab, jo'shqin va o'ziga yot bo'lgan dunyodagi faoliyatini tushunish imkonini beradi. Shakllanayotgan Yevropa burjuaziyasi dunyosi ham ayni shunday dunyo edi.

Protestantcha mafkuraga ko'ra inson hayoti ilohiy taqdir to'g'risidagi ta'limotga muvofiq amalga oshadi. Bu nuqtai nazar inson faoliyatining kolumbcha modeli bilan muvofiq keladi. Lyuter ilgari surgan bu ta'limotdan «Jeneva papasi» Kalvin burjuaziya manfaatlarini himoya qilish

uchun ancha samarali foydalanadi. Uning dogmasi o'sha davr burjuaziyasi ilg'or qismining talablariga javob berar edi. Uning ilohiy taqdir haqidagi ta'limoti aslida savdo va raqobat dunyosida muvaffaqiyat yoki bankrotlik ayrim shaxslar faoliyati yoki mahorati bilan emas, balki ularga bog'liq bo'lmagan omillar bilan belgilanishining diniy ifodasidan boshqa narsa emasdi. Kolumbcha model zamirida ham aynan «ilohiy» (amalda obyektiv) taqdir ta'limoti yotadi.

Inson faoliyatida «ish o'ngidan kelishi» yoki «kelmasligi» taqdirning ayni shunday obyektiv taqozosi sifatida namoyon bo'ladi. Reformatsiya davrida yashagan odam shundan kelib chiqib o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun o'z-o'zidan dinga murojaat etadi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, inson yashayotgan dunyoning nomuayyanligi sharoitida bu e'tiqod uni diniy fanatizmga olib keladi. Nomuayyanlik sharoitida inson faoliyatini namoyish etuvchi kolumbcha model kalvinizmning toqatsizligini va o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan uning shafqsizligini ham tushuntiradi. Uyg'onish davrining prometeycha modeli esa aksincha diniy toqatlilikni nazarda tutadi. Bu ikki model o'rtasidagi farq Uyg'onish davrining insonparvarligi va jangari kalvinizm o'rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi. Binobarin, diniy toqatlilik va toqatsizlikning qarama-qarshiligi ularni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Ammo diniy toqatlilik an'anasi o'rta asrlarda ham yashashda davom etadi. Masalan, dinga e'tiqod qilmaydigan, biroq to'g'ri yashaydigan kishilarni qoralash mumkin emas degan fikrni ilgari surgan Per Abelyar Avliyo Avgustin an'anasiga emas, balki Yustinian an'anasiga tayanadi<sup>434</sup>. Abelyarning bid'at bilan chegaradosh bo'lgan bu konsepsiyasi davrimiz bilan ham hamohangdir, zero, unda mutafakkir axloq masalalarini diniy e'tiqoddan ajratishga harakat qilgan. Bu XII asrda insonparvarlik, bag'rikenglik va toqatlilik prinsiplari rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. O'sha zamonda yashagan solsbirilik Ioann ham qadimgi faylasuflar – Aristotel, Platon va boshqalar, garchi cho'qinqinmagan bo'lsalar-da, haqiqatni xristianlar darajasida bilganlarini Abelyar kabi tan olgan.

Platonizm bilan birga meros qolgan «majusiylikdagi yaxshi fazilatlar» va «antik xudojo'ylik» motivi xristiancha tafakkur doirasida Uyg'onish va Reformatsiya davrlarida ayniqsa faol rivojlanadi. Masalan, ruhoni Marsilio Fichino o'z faoliyatida «avliyo Suqrot» ruhini shod etish uchun duolar o'qish bilan shug'ullanadi, ba'zan o'z duolarida «avliyo Platon» ruhini ham yod etadi<sup>435</sup>. Uyg'onish davrida diniy toqatlilikning birinchi

<sup>434</sup> Skrzypek M. Tolerancja religijna // Czlowiek i swiatopoglad. 1987. № 7. – 133-c.

<sup>435</sup> Горфункель А.Х. Гуманизм и натурфилософия Итальянского Возрождения. – Москва: 1977. – 110-с.



tarafdori – Rotterdamlilik Erazm «Xristian askarining quroli» asarida mehr-shafqatlilik, aqliy mehnat va antik donishmandlikda ifodalanuvchi e'tiqod xristianlikning ideali hisoblanishini qayd etadi. U Xudo cherkov vositachiligisiz ato etgan «tabiiy» din tarafdori Sitseronni talga olib o'tadi. Muqaddas kitobni yangicha ko'z bilan o'qishni, afsonalar va rivoyatlar mazmunini Platon va qadimgi tillar yordamida anglab yetishni talab qiladi.<sup>436</sup> Reformatsiya davrida diniy to'qatlilik g'oyasini Sebastian Kastellioning ikki buyuk o'tmishdoshi – Tomas Mor va Sebastian Frank ilgari suradi. Sebastian Kastellioning o'zi protestantizmning rivojlanish bosqichi (XVI asr)da faoliyat ko'rsatadi. Protestantizmning lyuterancha va kalvincha yo'nalishlari dastavval diniy totuvlik ta'limotini tan oladi. Keyinchalik esa ular o'z yo'nalishi doirasidagi radikal harakatlardan shafqatsizlik bilan o'ch oladi: Lyuter Myunserga qarshi, Kalvin – o'z dushmanlariga qarshi kurash olib boradi, shu jumladan, 1533-yilda ispan tabibi Migel Servetni gulxanda kuydiradi. Kalvinning fanatiklarcha toqatsizligi insonparvar Sebastian Kastellio bunga norozilik bildirishiga sabab bo'ladi. O'zining diniy fanatizmga qarshi qaratilgan fikr-mulohazalarini Kastellio 1554-yilda nashr etilgan «Dahriylarni ta'qib qilish kerakmi» asarida, shuningdek, «Ishtiboh san'ati» va «Sarosimaga tushib qolgan Fransiyaga maslahatlar» risolalarida bayon etadi. So'nggi risolada u katoliklar va gugenotlar o'rtasidagi diniy urushlarni to'xtatishga chaqiradi.

Kastellio shubhali ilohiy haqiqatlar yo'lida odamlar bir-birini ta'qib qiluvchi, o'zlarini o'limga va azob-uqubatlarga giriftor etuvchi vaziyatning absurdligiga e'tiborni qaratadi. Diniy to'qatlilik muammosiga nisbatan mazkur yondashuv shunga olib keladiki, Kastellio XVI asrda siyosiy muammolar diqqat markazidan o'rin olgan diniy bag'rikenglik prinsipini hayotga tatbiq etish yo'lida otashin kurashchiga aylanadi. U o'z asarlarida keyingi davrlarda paydo bo'lgan vijdon erkinligi konsepsiyalarining barchasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan mazkur prinsipni atroflicha tahlil qiladi va chuqur asoslab beradi.<sup>437</sup> Shu tariqa Kastellio o'zi yashayotgan jamiyat dunyoqarashini va unda kurtak ota boshlagan ijtimoiy idealni ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Kalvin o'zining bor kuchini Kastellioga qarshi tashlagani tasodifiy bir hol emas. Kalvinchilar xurujidan Kastellioni faqat bevaqt o'lim qutqaradi.

Kalvin o'zining ashaddiy diniy fanatizm ruhi bilan sug'orilgan faoliyatida o'ziga xos tarzda tushunilgan xristianlik dini ta'limotiga asoslangan yangi jamiyatni yaratishni harakat qiladi. O'zining bu

<sup>436</sup> Эразм Роттердамский. Философские произведения. – Москва: 1986. – 140–163-с.

<sup>437</sup> Митрохин Л.Н. Цвейг Стефан. Совесть против насилия. – Москва: 1986. – 37-с.

maqsadiga erishish yo'lida u o'z ixtiyorida mavjud barcha vositalardan foydalanadi.<sup>438</sup> Avvalambor shuni qayd etish lozimki, Kalvin ta'limotida rim-katolik cherkovi aqidalari tizimiga ikki yoqlama munosabat kuzatiladi. Bir tomondan, u o'rta asrlar katolik cherkovining ierarxiyaviy asosi qadimgi chin xristianlikning cherkov tizimi haqidagi g'oyasiga butunlay zid ekanligini isbotlab beradi. Ayni shu sababli rim-katolik cherkovi uni Lyuterdan ham murosasizroq va xavfliroq dushman deb hisoblaydi.

Boshqa tomondan esa Kalvin cherkov va davlatning yaxlit bir butunligini nazarda tutuvchi teokratiya g'oyasining ashaddiy muxlisi edi va shu ma'noda u katolik cherkov nuqtai nazarini to'la qo'llab-quvvatlardi. U cherkov davlati jamoa demokratiyasiga asoslangan holda inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi lozim deb hisoblar edi. Kalvin rim-katolik cherkovining Muqaddas rivoyatini rad etgan holda jamoaning oliy rahbarligiga bo'ysundirilgan teokratiya hukmronligini o'rnatishga harakat qiladi.

«Jeneva papasi» o'zini Xudoning «elchisi» deb hisoblaydi va imkoniyat tug'ilgani zahoti o'zining «Xudo shahri» idealini amalga oshirishga kirishadi. 1541-yilning sentabrida Spartadagi Likurg huquqlariga o'xshash vakolatlarni qo'lga kiritgach, Kalvin Jenevani din va ijtimoiy hayot, ibodat va dunyoviy boshqaruv mushtarak bo'lgan «Xudo shahri»ga aylantira boshlaydi. Kalvin barpo etgan Jeneva butun g'arbiy Yevropa uchun andoza bo'lib xizmat qila boshlaydi. Keyinchalik qit'aning bu qismida Jenevadagiga o'xshash tUSDagi protestantlar jamoalari vujudga keladi.

Birinchi navbatda Kalvin ibodatni ortiqcha unsurlardan tozalaydi: inson tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatuvchi narsalarning barchasidan, aniqroq aytganda, katolik cherkovining barcha tashqi atributlari – ikonalar, mehroblar, timsollar, taqinchoqlar va shu kabilardan voz kechiladi. Faqat og'zaki nasihatlar, Injilni mutolaa qilish va sharhlash, diniy qo'shiqlar kuylash saqlanib qoladi. Shu tariqa Kalvin shakllanayotgan burjuaziyaning arzon cherkov haqidagi talabini bajaradi. Dindorlarning tuyg'ulari va fantaziyasiga ta'sir ko'rsatuvchi o'rta asrlar katolik cherkovidan farqli o'laroq kalvincha cherkovda individning ma'naviy sohasiga ta'sir ko'rsatiladiki, bu dindorlardan cherkov intizomiga qat'iy rioya qilishni talab etar edi.

Kalvin bunday cherkov intizomini yaratadi. U dindorlarning barcha munosabatlarini qamrab oladi va har kimga beshikdan qabrgacha yo'ldosh bo'ladi. Mazkur intizomni saqlash uchun katolik cherkovi ixtiyorida mavjud barcha vositalar: cho'qintirish, tarbiyalash, konfirmatsiya,

<sup>438</sup> Гейссер Л. История реформации. – Москва: 1882. – 244–254-с.



epitimiya, ma'naviy jazolash, cherkovdan chetlatish va hokazolardan foydalaniladi. Protestantizmga xos bo'lgan yagona andozadagi kazarma ruhi, ma'naviy despotizm, obskurantizm va zo'ravonlik qat'iy cherkov intizomi yordamida shakllantiriladi.<sup>439</sup>

Kalvin faoliyati tez orada samara beradi. U hokimiyatga kelishi bilan buzuqlik girdobidagi Jeneva puritancha axloqiylik namunasiga aylanadi. Kalvin o'zgacha fikrlovchilar va «jodugarlar»ni shafqatsiz jazolaydi: «U hatto iblis bilan til birlashtirish mamlakatda o'lat tarqalishiga sabab bo'lmoqda deb e'lon qiladi va 1545-yilning uch oyi ichida «o'lat aybdori» bo'lgan 34 ayolni dahshatli qiynoqlardan so'ng boshini tanidan judo qilish, dorga osish va to'rtga bo'lish yo'li bilan qatl qiladi»<sup>440</sup>.

Shaharda maxsus politsiya tartibni, intizomga rioya etilishini qattiq nazorat qiladi. Shaharning har bir fuqarosi kechqurun soat to'qqizda o'z uyida bo'lishi shart edi, aks holda u qattiq jazoga tortilardi. Jamoat tartibini buzganlik uchun shaharda yalpi qo'rquvni quvvatlovchi jazolar tizimi belgilangan edi. Masalan, ilgari bir necha kun qamoq va oz miqdorda jarima bilan jazolangan zino uchun endi o'lim jazosi nazarda tutiladi: zinokorlikda fosh qilingan bir ayol Rona daryosiga cho'ktirib yuboriladi, ikki zinokor erkakning boshi tanasidan judo qilinadi. Xudoga shak keltirish va hatto unga hurmatsizlik uchun ham o'lim jazosi tayinlanishi mumkin edi. So'kinish va hatto hayvonlarga qaratilgan la'natlashlar ham taqiqlangan edi. Onasini so'kkan bir bola non va suvga o'tqizib qo'yiladi, onasiga tosh otgan boshqa bir bola olomon oldida savlanadi va dorga qo'lidan osib qo'yiladi, ota-onasini do'pposlagan yana bir bola qatl qilinadi. Shahvoniy gunohlar asosan suvga cho'ktirish bilan, uyatsiz qo'shiqlar kuylash esa - quvg'in qilish bilan jazolanadi. Dunyoviy qo'shiqni salom ohangiga solib xirgoyi qilgan bir ayol olomon oldida savalanadi; Pojo Brachcholinining uyatsiz hikoyalari mutolaa qilish ustida ushlangan o'qimishli kishi turmaga tashlanadi. Qimor o'yini ustida ushlanganlarni esa bo'yniga qarta shodasini osib sazoyi qiladilar. Nikoh marosimida har qanday o'yin-kulgi, shuningdek, teatr tomoshalari taqiqlanadi.

Kalvinizm byurgerlar Reformatsiya harakatidagi eng faol, izchil va jangari oqimni o'zida ifodalaydi. U hokimiyat yirik burjuaziya qo'liga o'tishi, burjuazianing faolligiga to'sqinlik qilayotgan feodal tartiblar tugatilishi yo'lida jonbozlik ko'rsatadi. Kont'rreformatsiya davrida kalvinizm Reformatsiya maqsadlariga erishish, chunonchi: eskirgan feodal tartiblarni tugatish, yirik burjuaziya hokimiyatini o'rnatish, rim-katolik

<sup>439</sup> Гейссер Л. История Реформации. – Москва: 1882. – 248–249-с.

<sup>440</sup> Гейнинг М. Дьявол, его миф и история в христианской религии. – Москва: 1929. – 44-с.

cherkoviga qarshi kurashish yo'lida sobit bo'lgan, o'zlarini «Xudo tanlagan odamlar» deb hisoblagan kishilarning metindek mustahkam jipslashgan tashkilotini yaratadi. Jenevada Kalvin tashkil qilgan Akademiya protestantizmning birinchi ma'naviy markaziga aylanish bilan bir qatorda, Loyolaning iezuitlar ordeniga qarshi kurash olib boradi. Bu Akademiya bukilmay irodaga ega bo'lgan va qat'iy intizomga bo'ysunadigan voizlar va targ'ibotchilar tayyorlanadi. Natijada Jeneva davlati Rimning qudratli raqibiga aylanadi. Bu kishilar demokratiya injilini qo'lida ushlab eski monarxik tartiblarga qarshi kurash olib boradilar. Rim-katolik cherkovining mafkuraviy va harbiy-siyosiy mashinasi Reformatsiya harakatining ma'naviy va moddiy imkoniyatlarini yo'qqa chiqarishga zo'r berib harakat qiladi. Bu tizimga qarshi harakat qilish uchun Lyuter passiv qarshiligining o'zi kifoya qilmas edi. Bu yerda qonli kurash olib borishga qodir kishilar zarur edi. Kalvin maktabi tarbiyachilari ana shunday kishilar sifatida maydonga chiqadilar. Ular hamma joyda – Fransiyada, Niderlandiyada, Shotlandiyada, Angliyada, Skandinaviyada jangga kirishadilar. Diniy-siyosiy urushlarda ularning faol ishtiroki Kalvinning hokimiyat haqidagi orzularini ro'yobga chiqarish uchun asos beradi. «Bu ashaddiy fanatik barcha mamlakatlarga o'z hukmini o'tkazish, butun Yevropani, butun dunyoni o'z totalitar tizimiga bo'ysundirish orzusi bilan yonadi»<sup>441</sup>. Boz ustiga bu orzular asta-sekin ro'yobga chiqa boshlaydi: «Legat Jon Noks Shotlandiyani unga bo'ysundiradi, Gollandiyada va qisman Skandinaviya mamlakatlarida puritanizm ruhi hukm sura boshlaydi, Fransiya gugenotlari qurollanib, hal qiluvchi jangga hozirlanadilar, yana bir qadam tashlansa – bas: kalvinizm g'arb dunyosi tafakkuri va hayotining birdan bir shakliga aylanadi»<sup>442</sup>. Biroq, ne baxtki, bu hal qiluvchi qadam tashlangani yo'q, zero, rang-barang hayotni diniy fanatikning abstrakt ta'limoti «quyushqoni»ga quvib kiritish mumkin emas.

Ammo tarix o'zining dialektik mohiyatini bu yerda ham namoyon etadi va kalvinizm bilan bir qarashda kutilmagan metamorfozalar yuz beradi – u o'zining diniy fanatizmini yo'qotadi va liberal, demokratik davlat g'oyalari aylanadi. Bu siyosiy erkinlik g'oyalari Gollandiyada, Angliyada, Amerika qo'shma Shtatlarida va boshqa protestantlik mamlakatlarida ro'yobga chiqariladi. Aynan puritanlik ruhi «Qo'shma Shtatlar mustaqillik deklaratsiyasi» (1776-yil) va Fransiya «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi» (1789-yil) kabi butun dunyo uchun muhim hujjatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Stefan Sveyg bu haqida

<sup>441</sup> Цвейг Стефан. Советь против насилия. – Москва: 1986. – 209–210-б.

<sup>442</sup> O'sha joyda. – 210-б.



shunday deb yozadi: «Toqatsizlik g'oyasi kuchli bo'lgan mamlakatlar mutlaqo kutilmaganda Yevropada toqatlilik panoh topgan yurtlarga aylanadi. Aynan Kalvin dini qonunga aylangan joylarda Kastellio g'oyasi ro'yobga chiqadi»<sup>443</sup>.

Toqatlilik klassik ta'limotining o'z-o'zini rivojlanish jarayonining progressiv bosqichiga kirgan burjua madaniyati mahsuli hisoblanadi. Feodalizmni ag'darib tashlagan Buyuk fransuz inqilobi «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»da uning e'tiqodlari, shu jumladan, diniy e'tiqodlariga hech kim daxl etishi mumkin emasligini e'lon qiladi. Tarixning bu metamorfozalari natijasida diniy fanatizm evolyutsion rivojlanish jarayonida diniy toqatlilikka aylanadi. Ammo bu evrilishni sof mantiqiy yo'l bilan tushuntirish mumkin emas.


**Xulosa.** Shunday qilib, Reformatsiya davri protestantizmining ashaddiy fanatizmi, G. Markuze ta'biri bilan aytganda «bir darajali inson» yaratilishiga olib keladi. Bu daraja «iste'mol jamiyati» belgilagan daraja bo'lib, u inson faoliyatining sizifcha modeli bilan muvofiq keladi. Hozirgi zamon san'atining ayrim yo'nalishlarida va ekzistensializm falsafasida inson borlig'ining absurdligi va ma'nosizligi to'g'risida bahs yuritilishi tasodifiy bir hol emas. Grotesk va burlesk adabiyoti inson hayotini so'nggi nafasgacha davom etuvchi mashaqqatli va behuda orzu-umidlar zanjiri sifatida tasvirlaydi. Hozirgi dunyoning ziddiyatlarga to'la sharoitlarida inson mavjudligining besamarligi va absurdligi shunga olib keladiki, odamzot ayrimlarida diniy fanatizm hukm suruvchi turli kommunalar va diniy-mistik sektalarga qo'shilish yo'li bilan «borliq tuzog'i»dan qutulishga harakat qiladi.

### Tajribaviy amaliy matnlar


Qo'rquv tushunchisi, dindorlik atamasi. Individual dindorlik shakllari. Muqaddas inkvizitsiya tizimi, ispan inkvizitsiyasi. Iezuitlarda diniy fanatizmni shakllantirish vositalari va usullari. Diniy fanatizmning modellari.

<sup>443</sup> Цвейг Стефан. Совесть против насилия. – Москва: 1986. – 209-210-6.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



### Foma Akvinskiyning xotira qoidalari





### Xristian dinining rivojlanish jarayonida individual dindorlik shakllari

Ilk xristianlik davridagi (xristianlik vujudga kelgan paytdan u milodiy 313 yilda Milan edikti asosida boshqa dinlar bilan huquqiy jihatdan tenglashtirilgan paytgacha bo'lgan davrdagi) xalq dindorlik bosqichi

Kosmik-teokratik dindorlik bosqichi (Milan edikti va Trident sobori oralig'idagi davr (1545–1563 yillar));

Trident sobori va II Vatikan sobori oralig'idagi davrga (1563–1965 yillar) xos bo'lgan kosmik-xalq dindorlik bosqichi;

Hozirgi davrning antroposentristik-industrial dindorligi.

Uyg'onish davri va gumanistik mafkura qadriyatlari protestantcha fanatizm bilan to'qnashgan murakkab va ziddiyatlarga to'la bosqich. Reformatsiya davrida katoliklarnikidan ham kuchliroq diniy fanatizm paydo bo'ladi. Protestantizm, g'arbiy Yevropada shakllana boshlagan burjua davlatlarining ma'naviy asoslari va axloqiy me'yorlari diniy fanatizmning o'ta vahshiyona ko'rinishlari paydo bo'lishiga olib keladi.

Reformatsiya bosqichi

### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Dinshunoslikda «individual» dindorlik atamasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qo'rquvning qora bayrog'i nima?
3. Individual dindorlik shakllarini sanang?
4. Xalq dindorlik bosqichining asosiy xususiyatlarini izohlang?
5. Kosmik-teokratik dindorlik bosqichining o'ziga xos xususiyati nima?
6. Kosmik-xalq dindorlik bosqichini izohlang?
7. Iezuitorlar diniy fanatizmni shakllantirishda qanday vositalar va usullardan foydalanishgan?
8. Diniy fanatizm nima?
9. Kolumbcha model mazmunini tushuntiring?

### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

#### 1. Tarixdan ma'lumki, diniy-fanatik kayfiyatlardan nima maqsadda foydalanilgan?

- A. Diniy bag'rikenlikni cheklash
- B. Boshqa dinlarning vakillariga nisbatan adovat qo'zg'atish, nifoq va urushlar ochish
- C. Dahriylar va xudosizlarni jazolash
- D. Barcha javoblar

#### 2. Dinshunoslikdagi «individual» dindorlik atamasi qanday ma'noni anglatadi?

- A. Diniy ta'limot, rasm-rusumlarni tarixan va sinfiy o'zgaruvchanlik darajasini bildiradi
- B. Diniy institutlarning ayrim individ ruhiyati, shaxsiyati, xulq-atvorini o'zgaruvchanlik darajasini bildiradi
- C. Diniy ta'limotning ijtimoiy munosabatlariga ta'sirning tarixan va sinfiy o'zgaruvchi darajasini tushunishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

#### 3. Diniy fanatik kayfiyatlarni tushunish uchun dindorlikning qaysi tomonini inobatga olish kerak?

- A. Ijtimoiy va madaniy
- B. Obyektiv
- C. Tarixiy
- D. Subyektiv



4. Katolik cherkovining o'ta fanatik muassasalaridan biri hisoblangan muqaddas inkvizitsiya faoliyati qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?

- A. 1095-yil papa Urban II
- B. 1214-yilda papa Innokenti III
- C. 1096-yilda roxib Pyotr Amenskiy
- D. 1232-yilda papa Grigoriy IX

5. Muqaddas inkvizitsiya faoliyatining maqsadi nima edi?

- A. Katolik cherkovi fikriga ko'ra xavfli sanalgan kishilar – «dahriylar»ni ta'qib qilish
- B. Hurfikrli odamlarni taqib qilish
- C. Papa hokimiyatining muxoliflarini ta'qib qilish.
- D. Barcha javoblar

6. Xristian dinining rivojlanish jarayonida burilish yasagan tarixiy bosqichlarga qarab tuzilgan individual dindorlik shakllarini tasnifini ko'rsating?

- A. Xalq dindorlik bosqichi; kosmik-teokratik dindorlik bosqichi
- B. Kosmik-xalq dindorlik bosqichi; antroposentristik-industrial dindorligi.
- C. kosmik-teokratik dindorlik bosqichi; tribunal dindorlik bosqichi.
- D. A va V

7. Ilk xristianlik davridagi dindorlik haqida .....asosida hukm chiqarish mumkin.

- A. «Yangi ahd» (ya'ni Injil), qadimgi apokriflar bitiklari
- B. Cherkov tarafdorlari, a'yonlari bitiklari
- C. Xristianlik muxoliflarining bitiklari
- D. Barcha javoblar

8. Yagona xudoga sig'inish, simbolik xulq-atvorning taraqqiy etgan shakllari, jamoaviy birdamlik hissi va uncha murakkab bo'lmagan diniy ta'limotning sodda axloqiy prinsiplari individual dindorlikning qaysi shakliga xos?

- A. Antroposentristik-industrial
- B. Kosmik-xalq dindorlik
- C. Kosmik-teokratik dindorlik

D. Xalq dindorlik

9. Ushbu fikr muallifini toping: «Aql va Logosga muvofiq yashovchi har kim, garchi xudosiz bo'lsa-da xristiandir».

- A. Kassiodor Senator
- B. Grigoriy I
- C. Jordano Bruno
- D. Yustinian

10. Milan ediktidan so'ng cherkov asta-sekin hokimiyatni o'z qo'lida jamlaydi. Bunga u qanday fikrni odamlar ongiga singidirish orqali erishgan?

- A. Butun dunyo ziyolilar qo'lida
- B. Hokimiyat papa qo'lida
- C. Hokimiyat Ruhoniylar qo'lida
- D. Butun hokimiyat Xudo partiyasi qo'lida

11. O'rta asrlarda katolik cherkovining hokimiyati harakatlarning yagonaligi nazariy prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsipining maqsadi nima?

- A. Dunyoviy munosabatlarni to'raligicha unifikatsiya qilishni
- B. Ta'lim idoralarining yagonaligiga erishish
- C. Boshqaruv organlarini markazlashtirish
- D. Barcha javoblar to'g'ri

12. O'rta asrlar xristian sivilizatsiyasida diniy toqatsizlik va fanatizm muhiti vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan yo'nalishlar?

- A. Kassiodor Senator
- B. Nursiyalik Benedikt
- C. Grigoriy I tarafdorlari
- D. A va V javob

13. Individual dindorlikning ikkinchi – kosmik-teokratik bosqichi uchun xos bo'lgan umumiy jihatlarni sanang?

- A. Agrarlik, fanatizm va logizm
- B. Tarixiylik va mantiqiylik
- C. Sistemalilik, mantiqiylik va legitimlik
- D. Legitimlik, agrarlik va toqatsizlik



14. Nechanchi yilda imperator Feodosiy I majusiylarning barcha ibodatxonalarini yopish to'g'risida farmon chiqardi?

- A. 384-yil
- B. 325-yil
- C. 283-yil
- D. 382-yil

15. Xristian teologiyasi-bu?

- A. Olam asosini inson va tabiat birdamligi tashkil qiladi
- B. Koinotda inson markaziy o'rini tashkil qiladi
- C. Inson tafakkuri orqali butun koinotni boshqaradi.
- D. Koinot va tabiat haqidagi tasavvurlarning yaxlit tizimini o'zida ifodalaydi

16. Xristian teologiyasi prinsiplarida koinot qanday tashkillangan?

- A. Xudo Koinotni yaratgan, uning mavjudligi va intihosi kafili hisoblanadi
- B. Xudo hukmiga binoan farishtalar osmonda jismlarni bir joydan boshqa joyga ko'chiradilar, u g'ayrioddiy voqealar sababchisi hisoblanadi
- C. O'z-o'zidan tashkillangan va tabiat kuchlari sifatida namoyon bo'ladi.
- D. A va V javoblar

17. Nima sababdan agrarlik kosmik-teokratik dindorlikning umumiy xususiyati hisoblanadi?

- A. Teolog olimlar va oddiy kishilar Xudoni tabiat sultoni sifatida bilishadi
- B. Insonlar Xudoni to'qchilik yoki ocharchilikni, ya'ni hosildorlikni belgilovchi kosmik kuch sifatida tasavvur qiladilar
- C. Insonlar o'zlarini ishlab chiqaruvchi kuch sifatida biladilar.
- D. A va V

18. Trident soboridan so'ng qaysi dindorlik bosqichi shakllandi?

- A. Antropotsentristik-industrial
- B. Xalq dindorlik
- C. Kosmik-teokratik dindorlik
- D. Kosmik-xalq dindorlik

19. Kosmik-xalq dindorligiga xos bo'lgan xususiyatlarni sanang?

- A. Agrarlik, madaniylik, ijtimoiy nazorat va magik dunyoqarash
- B. Gruppaviy birdamlik, formalizm va ritualizm; rasm-rusumlar va diniy simvollarning muhim rolini tan olish
- C. Jamoa cherkov xizmatchilari va dunyoviy kishilarga bo'linishi, diniy fanatizm, fatalizm
- D. Barcha javoblar to'g'ri

20. Muqaddas inkvizitsiya nima uchun faqat g'arb xristian sivilizatsiyasida vujudga kelgan?

- A. Rim-katolik cherkoviga konservatizm xosligi
- B. O'z-o'zini asrash instinkti
- C. O'ziga tahdid soluvchi har qanday nuqtai nazarni qoralash xosligini
- D. Barcha javoblar

21. G'arbiy Yevropaning feodal jamiyatida xristianlik qanday vazifani bajargan?

- A. Mafkuraviy birlashtiruvchi vazifasini
- B. Xalqning tabaqalanishuvini
- C. Siyosiy urushlarni tartibga soluvchi
- D. Diniy aqidalarning hukumronligini

22. Nechanchi asr oxirlariga kelib katolik cherkovi ta'siri ostida bo'lgan G'arbiy Yevropa inkvizitsiya tribunalari tarmog'i bilan qoplangan edi?

- A. X asr oxirida
- B. XII asr oxirida
- C. XIV asr oxirida
- D. XIII asr oxirida

23. Ushbu fikr muallifini toping: «Dahriy go'yoki istalgan paytda otilishi va uni o'z komiga tortishi mumkin bo'lgan vulqon ustida yashar edi... Odamlar ko'z o'ngida papa inkvizitsiyasi har narsaga qodir va hamma joyda hozir-u nozir edi».

- A. Bernard Klervoskiy
- B. Foma Akvinskiy
- C. I. Grigulevich



24. Muqaddas inkvizitsiyaning tizim sifatidagi elementlarni ko'rsating?

- A. Sud, ayblov, tergov
- B. So'roq, qiynoqlar, hukm
- C. Autodafe va gulxan
- D. Barcha javoblar

25. Nechanchi yildagi Vena soboriga taqdim etgan dekretga binoan yepiskoplarga dahriylik vabosi bilan zararlangan viloyatlarda faoliyat olib borish uchun komissarlarni tayinlash vakolati beriladi?

- A. 1215-yilda
- B. 1183-yilda
- C. 1214-yilda
- D. 1184-yilda

### Adabiyotlar

1. Skrzypek M. Tolerancja religijna // Czlowiek i swiatopoglad. 1987. № 4. – 132-p.
2. Debray R. Le scribe: Genese du politique. – P., 1980. – 96-p.
3. Рашкова Р.Т. Ватикан и современная культура. – Москва: 1989. – 216
4. Flagellans / Encyclopedic ou Dictionaire raisonne des sciences, des arts et des metiers. – P., 1756. Vol. 6. – 833-p.
5. Skrzypek M. Poganski «entuzjizm» a chrzescijanska heterodok-sja Czlowiek i swiatopoglad. 1986. № 7-8. – 123-p.
6. Михайловский В. Предвестники и предшественники Реформации в XVI и XV веке // Гейссер Л. История Реформации. – Москва: 1882.
7. Митрохин ЛН. Стефан Цвейг: Каstellio против Кальвина. – Москва: 1986. – 17-с.
8. Маутнер Ф. История черта на Западе // Атеист. 1926. № 8. – 19-с.
9. Горфункель А.Х. Гуманизм и натурфилософия Итальянского Возрождения. – Москва: 1977. – 110-с.
10. Эразм Роттердамский. Философские произведения. – Москва: 1986. – 140–163-с.

### 9-mavzu: DINIY-MADANIY AN'ANALARNING AHAMIYATI

**Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli.** Biz yashayotgan ziddiyatlarga to'la dunyoda turli ijtimoiy guruhlar, mamlakatlar manfaatlari va ehtiyojlarining to'qnashuvlari kuzatiladi. Bu guruhlar va mamlakatlar o'z mafkuraviy va siyosiy maqsadlariga erishish yo'lida dindan foydalanadilar. Tarixdan ma'lumki, Reformatsiya harakatida ishtirok etgan kuchlarning barchasi – rim-katolik cherkovining diktatorlik siyosatidan norozi bo'lgan byurgerlik, dvoryanlarning bir qismi, dehqonlar, ziyolilar din bayrog'i ostida muayyan siyosiy talablar bilan chiqqanlar. Ammo g'olib chiqqan burjuaziya keyinchalik o'z ideallari va ijtimoiy qadriyatlarini asoslash uchun dunyoviy mafkuraviy konsepsiyalarga ehtiyoj sezadi. Burjua jamiyatining yanada rivojlanishi eski ziddiyatlar kuchayishiga va yangi qarama-qarshiliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Hozirgi zamon yapon burjuaziyasi ham bundan mustasno emas. Faqat u mamlakatning madaniy an'analari bilan bog'liq o'z xususiyatlariga ega.

Avalambor, yapon madaniyati buddizmning kuchli ta'siri ostida shakllangan, boz ustiga u Osiyo buyuk madaniyatlarining yutuqlarini o'zlashtirgan. Darhaqiqat, Osiyo yaxlit va yagona, Osiyo dunyosini ikkiga bo'luvchi Himolay tog'lari Xitoy va Hind sivilizatsiyalarining o'zaro aloqasiga faqat urg'u beradi. Ritsarlik unsurlarini o'zida mujassamlashtirgan arab madaniyati, fors tilida yaratilgan she'riyat durdonalari, xitoycha axloq va hindcha tafakkur – bularning barchasi hayoti turli mintaqalarda har xil bo'lgan, aniq chegara bilmaydigan yagona qadimgi Osiyo dunyosidan darak beradi. Masalan, islomni harbiy libosdagi konfutsiychilik sifatida, otlig' qo'shin ko'rinishida, buddizmi esa sharqona tafakkur tizimlari daryo yanglig' kelib quyiladigan idealizmning ulkan ummoni sifatida tavsiflash mumkin<sup>444</sup>. Asrlar osha saqlanib qolgan suverenitet Yaponiyani osiyocha tafakkur va madaniyat durdonasiga aylantiradi. Hind san'ati yutuqlarining asosiy qismi gunnar, islom fanatiklari va yevropalik tijoratchilar tomonidan vayron qilingan edi. Shu ma'noda Yaponiyani Osiyo sivilizatsiyalari muzeyi deb atasak aslo adashmagan bo'lamiz<sup>445</sup>. Bunga ishonch hosil qilish uchun hind san'ati va Tan davri xitoy madaniyati asarlari bilan bezalgan Naradagi yapon ibodatxonalarini eslashning o'zi kifoya qilsa kerak.

<sup>444</sup> Okakura K. The Ideal of the East with special Reference to the Art of Japan. – Tokyo, 1985. – 4-p.

<sup>445</sup> O'sha joyda. – 7-b.



Bundan tashqari, yaponlarga o'z milliy an'analariga o'ta sodiqlik xos<sup>446</sup>. Bu esa Sharqning asosiy dinlari (konfutsiychilik, buddizm va b.) qoidalarini bilan uyg'un bo'lgan xalq rivoyatlarining normativ funksiyalari yapon millatining hayot faoliyatida bundan buyon ham o'z rolini o'ynashini anglatadi. Ayni paytda yaponlar mavjud diniy an'analar bilan to'qnashuvchi diniy ta'limotlarga yot ko'z bilan qaraydilar.

Yaponiyada asrlar osha saqlanib qolayotgan dzen-buddizmcha diniy fanatizmning o'ziga xosligini tahlil qilish jarayonida bu omillarning barchasini e'tiborga olish talab etiladi. Yaponiya ko'p jihatdan noyob va g'aroyib, ma'naviy hayotda kontrastlarga boy mamlakatdir.

Yaponiya madaniyatiga hind va xitoy sivilizatsiyalari ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatgan. U hinduizm, konfutsiychilik, daosizm va buddizm an'analarini o'zlashtirgan va ularni o'z ehtiyojlariga muvofiq qayta ishlagan. Tadqiqotchilar xitoycha chan-buddizmdan farqli o'laroq, sof yaponcha hodisa hisoblangan dzen-buddizm yapon milliy xarakterining shakllanishiga, shu jumladan, diniy fanatizm fenomenining o'ziga xosligiga ulkan ta'sir ko'rsatganini qayd etadilar. Rus sharqshunosi L. Vasilev bu haqida shunday deb yozadi: «Dzen-buddizm samuraylarda tarbiyalagan fanatizm va o'zini o'zi qurbon qilishga tayyorlik narigi dunyoda mukofot kutib o'limning yuziga tik qaragan islom askarlarining fanatizmidan farq qiladi. Narigi dunyoda abadiy rohat-farog'atda yashash konsepsiyasi sintoizm ham, buddizm ham mavjud emas. O'limni bo'yniga olgan samuraylar narigi dunyoda rohat-farog'atda yashash haqida emas, balki munosib o'lim topish va tiriklar xotirasida yuksak o'rin egallash haqida o'ylaganlar»<sup>447</sup>. Fatalizm falsafasida yaratilgan, o'limga tabiiy intiho sifatida qarashni nazarda tutadigan bunday yondashuv diniy fanatizmga axloqiy mazmun baxsh etish orqali uning o'ziga xosligini belgilaydi.

Feodalizm davrida Yevropa va Osiyo davlatlarining ko'pchiligida professional askarlar tabaqalari mavjud bo'lgan. Samuraylik ana shunday tabaqalardan biri hisoblanadi. U o'z axloq kodeksi – busidoni shakllantirgan. Bu kodeks turli tizimlar, ayniqsa sinto, konfutsiychilik va dzen-buddizm tasavvurlarining sintezini o'zida ifodalaydi. Xususan, konfutsiychilikdan «burchga sodiqlik», o'z xojasiga itoatkorlik va ma'naviy kamolotga erishish yo'lida harakat qilish talablari o'zlashtirilgan. Busidoning shakllanishiga buddizmning «dzen» mazhabi vakillari sig'inuvchi maxayana ta'limoti ham ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Uning ma'naviy mashqlari ruhiy muvozanatga erishishga ko'maklashgan.

<sup>446</sup> Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 89-90-с.  
<sup>447</sup> Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 362-с.

Samuraylarning busido («askar yo'li») kodeksi yaponlarning kundalik axloqiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Avvaliga kodeks faqat hukmron sinf (samuraylar, busi) uchun mo'ljallangan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan samuraylar burjuaziya qatlamiga aylangan, ushbu jarayon bilan bir qatorda burjuaziya vakillari va hatto dehqonlar ham samuraycha «sha'n» tushunchalaridan ayrimlarini taqlid uchun andoza sifatida o'zlashtira boshlaganlar. Quyi tabaqalar doim oliy tabaqalarga taqlid qiladilar – bu ijtimoiy psixologiyaning rivojlanish qonuni hisoblanadi. Samuraylar kodeksining shakllanishiga, shuningdek, yaponlar xulq-atvori psixologiyasiga, ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloqiy prinsiplariga sintoizm, buddizm va konfutsiychilik ta'sir ko'rsatgani bois, ularning mazmun va mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

*Sinto* – xudolar yo'li. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, asoslari hanuzgacha aniqlanmagan bu qadimgi din Yaponiyada Xitoy bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan va rivojlangan. Sinto qadimgi mifologiyaning bir turi hisoblanadi, zero, buddizm paydo bo'lishidan oldingi ilk sintoizmga gap g'ayritabiiy dunyo – yaponlar azaldan sig'inib kelgan xudolar va ruhlar dunyosi (kami) haqida boradi. Uning ildizlari oliy moziyga borib taqalishi va ibtidoiy xalqlarga xos bo'lgan e'tiqodlar – totemizm, animizm, magiya, o'liklar, oqsoqollar ruhiga sig'inish va hokazolarning barcha shakllarini o'z ichiga olishi ma'lum. Boshqa xalqlar kabi qadimgi yaponlar ham o'zlarini qurshagan tabiat hodisalarini ruhlantirganlar, bu dunyo bilan ruhlar va xudolar dunyosi o'rtasidagi vositachilar – sehrarlar, afsungarlar va shamanlarga izzat-ikrom ko'rsatganlar. Keyinchalik buddizm ta'sirida ilk sintochi shamanlar kohinlarga aylangan va maxsus qurilgan ibodatxonalarda turli xudolar va ruhlar sha'niga marosimlar o'tkazganlar, tegishli rasm-rusumlarni bajo keltirganlar. «Sintoizmning amaliy maqsadi va mazmuni Yaponiyaning o'z qadimgi tarixini va yapon xalqining ilohiy kelib chiqishini tasdiqlashdan iborat: sinto ta'limotiga ko'ra mikado (imperator) – osmon ruhlari avlodi, har bir yapon esa – ikkinchi daraja ruhlar – kami avlodi hisoblanadi»<sup>448</sup>. Yapon tasavvurida kami xudo, ruh, ajdod, qahramondir. Dunyoda sanoqsiz kamilar mavjud va inson o'lganidan so'ng ulardan biriga aylanadi. Sintoizmning o'ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda tangrining «bosh hokimiyati» haqida tasavvur mavjud emas. Ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inish sintoizmga birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. «Kodziki» («qadimgi bitiklar», 712-yil) sintoizmning muqaddas kitobi hisoblanadi. Taniqli sharqshunos olim N. Konrad ushbu kitobdan

<sup>448</sup> Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 362-с.



yaponcha milliy ruh ufurib turishini qayd etadi. Uning fikricha, «Kodziki» Yaponiyani va yaponlarni anglab yetish uchun yo'l ochadi<sup>449</sup>.

Yaponlarning narsalar dunyosi va tabiat haqidagi tasavvurlari shakllanishida sintoizm ulkan rol o'ynagan. Uning zamirida besh konsepsiya yotadi. Birinchi konsepsiyaga ko'ra dunyo o'z-o'zicha paydo bo'lgan, u o'zini o'zi tartibga soladi. Ikkinchi konsepsiya hayot kuchini tavsiflaydi: jinsiy hayotga xudolar asos solganlar. Shu tufayli ham yaponlar ongida seks va axloqiy ayb o'rtasida aloqa yo'q: nimaiki tabiiy bo'lsa, u xunuk emas. Bu konsepsiya yaponlarda moslashuvchanlik, o'z an'anasiga kirmay qolgan narsalarni o'zlashtirishga moyillik rivojlanishiga ko'maklashgan. Uchinchi konsepsiyada gap tabiat va tarixning yagonaligi, jonli va jonsiz dunyoning uzviyligi haqida boradi. Bu g'oya tabiatning barcha hodisalarida va insonda kami yashashi bilan asoslanadi. Kami bu dunyoda yashashi bois, narigi dunyoda panoh izlashga hojat qolmaydi. To'rtinchi konsepsiya ko'p xudolilikka urg'u beradi, zero, sintoning o'zi tabiatga, jamoa va qabila xudolariga sig'inishdan kelib chiqqan. Ayni hol har qanday bir xudolilikni istisno etar edi. VIII asr boshida imperator saroyida sinto ishlari bo'yicha maxsus departament tashkil etiladi, X asrda esa sinto xudolari ro'yxati tuziladi. Ushbu ro'yxatga ko'ra sinto panteoni 3132 xudoni o'z ichiga olgan, keyinchalik ularning soni ancha ko'paygan. Nihoyat, beshinchi konsepsiya sinto xudolari, kami umuman odamlarni emas, balki faqat yaponlarni yaratganini qayd etadi. Shunday qilib, sintoga mansublik haqidagi tasavvur, kami faqat yapon millati bilan intim darajada bog'liqligi to'g'risidagi g'oya har bir yapon ongiga bolalikdan singdiriladi. Shu tufayli ham sintoga boshqa millat vakillarining sig'inishi aqlga sig'maydigan bir hol bo'lib tuyuladi. Ayni paytda sinto yaponlarga boshqa har qanday dinga sig'inishga monelik qilmaydi<sup>450</sup>. Ayrim konfessiyalarga mansub yaponlar sonini hisoblaydigan bo'lsak, mamlakat aholisi sonidan ortiq raqam hosil bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sintoizmga buddizm ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Syogunat davrida (XII–XIX asrlar) buddizm sintoizمنىning rivojlanish jarayonini tartibga soladi. Syogunat ibodatxonalar qurish va qadimga diniy bayramlarni tiklashga mablag'lar ajratadi; u qadimgi yapon kitoblarini sharhlashga bag'ishlangan tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Garchi bu sintoizmga bevosita daxldor bo'lmas-da, lekin mazkur diniy yo'nalish uchun muhim oqibatlarga sabab bo'ladi. Avvaliga bunday sharhlash buddaviylik-sintoistik sinkretizm ruhida amalga oshiriladi, biroq

<sup>449</sup> Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. – Москва: 1978. – 150-с.  
<sup>450</sup> Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 60-63-с.

asta-sekin syogunlar saroyida konfutsiychilik ruhida sharhlar yetakchilik qila boshlaydi.

Falsafiy jihatdan asoslangan sintoizm o'ziga xos salmoq kasb etadi va mustaqil dunyoqarash tizimiga aylanish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunga XVII asrda Yaponiyadagi Uyg'onish davri ko'maklashadi. Bu davrda ruhoniylar Xitoydan buddizm va konfutsiychilik falsafasiga oid kitoblarni keltiradilar, ularni tanqidiy tahlil qiladilar va sharhlaydilar. Qadimgi yapon mifologiyasi manbalari – «Kodziki» va «Nixongi» faol o'rganiladi va sharhlanadi. Yaponiya podshosi Iezyasu Tokugava hayotining so'nggi yillarida qadimgi qo'lyozmalarni to'plashni odat qiladi va ularni o'rganishni rag'batlantiradi. Shu tufayli ham «Kodziki» va «Nixongi» qayta nashr etiladi (1644-yil), abadiy tanqidchilar va tarixchilar yangi maktabi namoyandalari – Kamo Mabuti, Motoori Norinagi va boshqalar tomonidan o'rganiladi va sharhlanadi. Bu olimlar sinto milliy kultini jonlantirish yo'lida o'z kuch-g'ayratini ayamaydilar. Xususan, Motoori Norinagi 44 jilddan iborat «Kodziki-den» («Kodzikiga sharhlar»)ni tayyorlaydi, unda mazkur qadimgi asar falsafasi va mifologiyasi zamonaviy tilda va yangi davr talablariga muvofiq tushuntiriladi<sup>451</sup>. Ayrim konfutsiychilar hatto sintoizمنى xitoy falsafasining konseptual tilida bayon etish mumkin deb hisoblaydilar.

Ammo qadimgi yapon adabiyotiga oid tadqiqotlar faqat XVIII asrdagina ayrim olimlar sintoizm begona ta'sirlar va sharhlarsiz ham yagona, o'ziga to'q yaxlitlik hisoblanishini anglab yetishlariga olib keladi. Xitoycha ta'sirlardan xoli bo'lgan sof holatdagi «qadimiyatga qaytish» (fukko) shiori paydo bo'ladi va «sintoni tiklash» (fukko-sinto) jarayonini boshlab beradi<sup>452</sup>. Bu harakatning birinchi yirik rahbari Kamo Mabutsi (1697–1769)dir. U asosan eski duolar – noritoni sharhlash bilan shug'ullanadi. «Kodziki»ni tiklashga uringan Motoori Norinagi faoliyati harakatning keng yoyilishiga imkoniyat yaratadi. Uning shogirdi Xirata Atsutane fukko harakatining yanada ashaddiyroq muxlisiga aylanadi. Uning targ'ibotchilik faoliyati hukumat amaldorlarining noroziligiga sabab bo'ladi.

Fukko-sintoning keyingi tarixi u sintoizمنى mustahkamlash bilan bir qatorda yapon millatchiligining kuchayishiga olib kelganligini ko'rsatadi. «Xudolar davri»ga oid chuqur tadqiqotlar va sharhlarga qaramay ilk xudolar fukko-sintoistlarda bosh tushuncha – «imperator sulolasi va imperatorning ilohiyligi» foydasiga o'z ahamiyatini yo'qotadi. Nihoyat, XX asrda xudolar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi va sintoizm

<sup>451</sup> Кирквуд К. Ренессанс в Японии. – Москва: 1988. – 43-с.

<sup>452</sup> Kotariski W. Religie Japonii Religie Azji, Afryki, Amériki, Australii i Oceanii. – Warszawa. 1980. – 192-p.



imperator va imperiyaga izzat-ikrom ko'rsatish marosimi shakl-shamoyilini kasb etib, mikadoizm yoki tennoizmga (mikado, tenno – imperator) aylanadi. Tabiiyki, sintoizm busido kodeksining shakllanishiga va yapon milliy xarakteriga o'z hissasini qo'shadi va shu tariqa diniy fanatizm o'ziga xos tarzda amal qilishiga imkoniyat yaratadi.

**Buddizm.** Ma'lumki, bu din Yaponiyaga miloddan oldingi davrda kirib kelgan. Biroq yaponlar psixologiyasiga u buddaviy monaxlar, ular bilan birga esa – buddaviylarning xitoy tilida yozilgan muqaddas kitoblari Yaponiyaga kelgan V–VI asrlardan e'tiboran ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsata boshlagan<sup>453</sup>. Uning Yaponiyadagi bir yarim ming yillik tarixi buddizm bu mamlakatda barakali zamin topganidan dalolat beradi. Shu narsa aniqki, qadimgi yapon davlatchiligi va madaniyatining oltin asri sanalgan Xeyan davri (VIII–XII asrlar)ning vujudga kelishiga buddizm muhim rol o'ynagan. Buddizm davlatni boshqarishning nazariy asosiga aylanadi va «seykyo-itti» - siyosat va dinning yagonaligi prinsipi aynan Yaponiyada to'la ro'yobga chiqariladi.

Xeyan davrida buddaviylar cherkovi kuchli iqtisodiy salohiyat va mafkuraviy ta'sirga ega bo'lgan feodal tashkilot hisoblangan. Buddaviylarning Tenday sektasi (birlashmasi) o'ziga xos «davlat ichidagi davlat» bir necha asr mobaynida rasmiy diniy muassasa sifatida amal qilgan. Uning doirasida teokratik davlat ta'limoti yaratilgan<sup>454</sup>. Buddizmning o'zi ta'limotlar va aqidalar kichik tizimlarining, ya'ni har biri mazkur din muxlislarining shu davrdagi ehtiyojlarini qondirgan maktablarning murakkab majmuidan iborat bo'lgan. Nihoyat, buddizmning o'ta moslashuvchanligini uning mahalliy diniy e'tiqodlar bilan birikish qobiliyati bilan izohlash mumkin. Ayni holda Xeyan davridayoq «ryobusinto» sinkretik dini vujudga keladi. Buddizm konfutsiychilik va daosizm bilan o'zaro aloqa qiladi va bu ham an'anaviy yapon madaniyatining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

1185-yildan keyin davlatda hokimiyat tizmini samuraylar qo'lga o'tadi. Imperator va uning saroyi mamlakat hayotida siyosiy rol o'ynamay qo'yadi. Amalda hokimiyat syogun qo'lida bo'lib, uning qarorgohi Kamakura joylashgan edi. Kamakura davrida sodir bo'lgan ko'p sonli fuqarolar urushlari XVI asr oxirida Toyotomi Xideyosining markazlashgan davlati tashkil topishiga olib keladi<sup>455</sup>. Samuraylar tabaqasi yoki busi o'z yashash uslubini keng yoyadi va jamiyatning ma'naviy muhitida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Tenday va boshqa yirik sektalar ikkinchi

<sup>453</sup> Игнатович А.Л. Буддизм в Японии. Очерк ранней истории. – Москва: 1988. – 6-с.

<sup>454</sup> O'sha joyda – 7-b.

<sup>455</sup> Искендеров А.А. Тоётоми Хидэеси. – Москва: 1984. – 10-с.

darajali ahamiyat kasb etadi, birinchi o'ringa esa yangi islohotchilik harakatlari chiqadi. Bunday harakatlar orasida dzen sektasi alohida o'ringa egallaydi. U Yaponiyadagi ma'naviy uyg'onish jarayonlariga ulkan hissa qo'shadi va shu tariqa milliy psixologiyaning shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Feodallar o'rtasida nifoq ayniqsa kuchaygan bir sharoitda markaziy hokimiyat o'z-o'zini intizomga solish mafkurasi va amaliy tizimiga muhtoj edi. Izchil odatlar va mashqlarni o'z ichiga olgan dzen ta'limoti bu ehtiyojni qondirardi. Dzen ta'limoti va amaliyoti o'sha davrda aqlga ta'sir ko'rsatishning yapon buddizmiga ma'lum bo'lgan usullaridan butunlay farq qilardi. Qadimgi sektalar bilan orani ochiq qilgan, eng avvalo ularning ritualizmi va sxolastikasidan voz kechgan dzen oqimi reformatorlik xususiyatiga ega edi. U targ'ib qilgan meditatsiyaning maqsadi Buddani aqlning ravshanligi holati (satori)ga erishishga mustaqil intilish yo'li bilan anglab yetishga qaytishdan iborat edi. Bunday holatga meditatsiya va abstrakt mushohada yuritish yo'li bilan erishish mumkin edi. Bunda prinsiplar ta'riflanmas, yozma manbalar va va'zlardan foydalanilmasdi. Dzen ta'limoti maslahatlarga asoslanar edi. Aqlning ravshanligi holatiga erishish uchun dzen muxlisleri qattiq ma'naviy va jismoniy intizomga bo'ysunishlari talab etilardi. Ayni shu omil yapon harbiy aristokratiyasi – samuraylarga ayniqsa ma'qul keladi. Zero, dzen ta'limotida ilgari suriladigan ma'naviy intizom o'z-o'zini biluvchi faqat o'ziga ishonuvchi insonni shakllantirish imkonini berardi.

**Dzen oqimi** Yaponiyaga konfutsiychilik ta'sirining yangi to'liqliniga yo'l ochadi. XII asrda Xitoyda konfutsiychilik Chju Si maktabida jonlanadi. Uning ta'limotiga ham daosizm, ham buddizm ta'sir ko'rsatadi. Dzen ta'limoti orqali Yaponiyaga Chju Si falsafasi kirib keladi. Uning metafizik xususiyati bu yerda uncha katta e'tibor qozonmaydi, biroq fuqaroning burchlariga urg'u beruvchi konfutsiycha axloq inson ideali – busi, ya'ni yozilmagan busido axloqiy kodeksiga amal qiluvchi ritsar g'oyasi shakllanishiga sabab bo'ladi<sup>456</sup>. XII asrda sintoizm ta'sirida busidoni kodekslashtirish amalga oshiriladi. Ushbu kodeksda vassalning senorga sodiqligi asosiy fazilat sifatida belgilanadi. Ayni shu sababli dzen ta'limoti samuraylar e'tiborini qozonadi. Vatanga o'z jonini qurbon qilishni samuray o'zining eng oliy burchi deb hisoblaydi. An'anaviy madaniyatni asrash va keyingi avlodlarga uzatish vazifalarini u yoki bu an'anaviy san'atni yaxshi o'zlashtirgan va o'zlari boshqaradigan maktabda katta obro'ga ega bo'lgan kishilar – iemoto bajaradi<sup>457</sup>. Iemoto tizimi bugungi kunda ham yaponlarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning samarali

<sup>456</sup> Kotariski W. Religie Japonii Religie Azji, Afryki, Ameriki, Australii i Oceanii. – Warszawa, 1980. – 185-p.

<sup>457</sup> Гришелева Л.Д. Формирование японской национальной культуры. – Москва: 1986. – 208-с.



vositasi hisoblanadi. U yaponlarda millatchilik va shovinizmning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Yapon an'anaviy san'atlari bilan shug'ullanish shaxsni kamol toptirish vositasi hisoblangani bois uning qaysidir turi bilan deyarli har bir yapon shug'ullanadi. Mahoratni o'zlashtirish darajalari ancha ko'p bo'lgani tufayli shug'ullanish jarayoni umr bo'yi davom etishi mumkin. Ayrim maktablarda ta'lim oluvchilar soni ikki-uch million kishigacha yetadi. Bu maktablar diniy jamoalarni, ularning rahbarlari – iemoto esa konservativ diniy davralarga qarab mo'ljall oluvchi diniy rahnamolarni eslatadi<sup>458</sup>. Qadimda dzen mashqlari tizimi bilan shug'ullanish asnosida shakllangan va keyinchalik axloqiy shakl-shamoyil kasb etgan diniy fanatizm XX asr oxiri – XXI asr boshlarida millatchilik ruhida fanatizmga aylandi deb aytish mumkin.

*Konfutsiychilik* ham yapon jamiyatining axloqiy va diniy hayoti poydevorida muhim o'rin egallaydi. Uning ravnaq topish jarayoni bu yerda XVII asrda boshlanadi. Shu davrda u buddaviy ruhoniylar nazorati ostidan chiqariladi va mustaqillikka erishadi. Toyotomi Xideyosi va Ieyasu Tokugava kabi podsholar konfutsiychilikka ijobiy yondashar edilar. Ular samuraylarni jasoratga undovchi diniy fanatizm yordamida ijtimoiy jarayonlarni markazlashgan hokimiyat orqali samarali boshqarish mumkinligini yaxshi anglardilar<sup>459</sup>. Bu podsholar va ularning zamondoshlari dunyoni boshqarish mumkin deb hisoblardilar. Mazkur nuqtai nazar buddizm va uning hayotga mistik munosabatiga qarshi intellektual kurashga turtki bergan omillardan biriga aylanadi. Yangi hayot falsafasi va yangi kosmologiyani taklif qilgan konfutsiychilik Tokugava davridagi kayfiyatlar bilan muvofiq kelar edi. Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra koinotda oqilona sabab mavjud va u materiyaga ta'sir ko'rsatish orqali inson va narsalar dunyosini yaratadi. Sabab va tartib jamiyat strukturasi ham mavjud bo'ladi, faqat ularni tushunish talab etiladi, bunda mazkur tartib axloqiy xususiyat kasb etadi. Dunyoga konfutsiychilik nuqtai nazaridan yondashish fikr va harakatning, falsafa va siyosiy tizimning yagonaligini nazarda tutadi<sup>460</sup>. Bilim asosiy prinsiplarni anglab yetish imkonini beradi. U insonga axloqiy tartibning mohiyatini tushunish va shu tariqa axloqiy insonni shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Konfutsiychilik yangi ijtimoiy va siyosiy tartib – bakufu bilan bir vaqtda tarqaladi. Tokugava davrining ilk podsholari mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish, harbiy isyonlarga barham berishga qarab mo'ljall oladilar, konfutsiychilar esa mazkur muammolarni yechish yo'llari

o'zlariga ma'lum ekanligini qayd etadilar. Feodal tarqoqlikdan kuchli markazlashgan davlatga o'tish yangi va universal huquqiy qoidalarni, yangi qonunlarni yaratishni talab qilardi. Syogun va daymyo bu davrda o'z o'tmishdoshlariga qaraganda kengroq vakolatlarga ega bo'lganlari bois ular o'z hokimiyatini asoslash uchun yanada ishonchliroq dalillar va qonunchilik prinsiplariga muhtoj edilar.

Tokugava rejimi uchun konfutsiychilikning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u yangi boshqaruv nazariyasini va uyg'un jamiyat haqidagi yangicha tasavvurni taklif qiladi. Ijtimoiy tartibning taklif qilingan ideali sinflarning tabiiy ierarxiyasi shakl-shamoyiliga ega edi. Bu ierarxiyada har bir individ muayyan o'rin egallardi. Natijada har bir sinfning xulq-atvor andozalarini ajratish va kodekslashtirish amalga oshiriladi<sup>461</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, konfutsiychilik faqat ijtimoiy nazorat falsafasidan iborat emas edi. U podsholardan ham ustun turadigan axloqiy tartib mavjud degan g'oyani ilgari surardi. Syogun va daymyoga xalq farovonligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan edi. Konfutsiy ta'limoti dunyoviy podsholarga ham, omilkor fuqarolarga ham mos kelardi, chunki «u mutlaqo insoniy, o'ta intellektual va jamiyat ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limot edi»<sup>462</sup>. Shu ma'noda Konfutsiyi Suqrot, Aristotel, Epikur, Seneka kabi buyuk mutafakkirlar bilan bir qatarga qo'yish mumkin.

Mamlakat siyosiy hayotida konfutsiychilik bilan bir qatorda buddizm va sintoizm ham ulkan rol o'ynaydi. Ma'murlar uchun buddizm bundan buyon ham yalpi nazorat vositasi bo'lib qoladi. Boz ustiga u o'sha davr Yaponiyada taqiqlangan xristianlikka va boshqa yashirin sektalarga nisbatan muqaddas inkvizitsiya funksiyalarini bajaradi. Umuman olganda buddizm va sinto oddiy yapon va oliy tabaqalar vakillarining asosiy diniy ehtiyojlarini qondiradi, sinto va konfutsiychilik yaponlarning siyosiy tartib haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, shu bilan bir qatorda buddizm me'yorlar psixologik tizimini o'zida ifodalaydi, konfutsiychilik esa jamiyatda kishilar xulq-atvorini ma'naviy-axloqiy tartibga solish bilan shug'ullanadi<sup>463</sup>.

Bu diniy tizimlar ayniqsa dzen-buddizm o'z me'yorlari va qoidalari bilan samuraycha sha'n kodeksini ko'p jihatdan belgilab berdi, samuraylarda fanatizmni va o'z jonini qurbon qilishga tayyorlikni shakllantirdi, bularning barchasi yapon milliy xarakteriga ulkan ta'sir ko'rsatdi, ayni paytda millatchilik, shovinizm va irqchilikning

<sup>458</sup> Грицелова Л.Д. Формирование японской национальной культуры. – Москва: 1986. – 208-с.

<sup>459</sup> Qarang: Искендеров А.А. Тоётоми Хидэёси. – Москва: 1984. – 15-6.

<sup>460</sup> Qarang: Hall J.W. Japonia od szasow najdawniejszych do dzisiaj. – Warszawa, 1979. – 153–154-p.

<sup>461</sup> Спеваковский А.Б. Самурай – военное сословие Японии. – Москва: 1981. – 19-с.

<sup>462</sup> Кирквуд К. Ренессанс в Японии. – Москва: 1988. – 39-с.

<sup>463</sup> Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 79-с.



rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shdi. Xususan, XX asr 30-yillarining oxirida davlat sintoizmi agressiv millatchilikning o'ta reaksiy va ancha nufuzli ta'limoti sifatida «millatning diniy fanatizmi»dan aholini bo'lg'usi urushga tayyorlash maqsadida samarali foydalandi<sup>464</sup>. Davlat bo'lg'usi ta'limoti yapon xalqini bir qancha urushlarga, shu jumladan, ikkinchi jahon urushiga ham tortish imkonini berdi. Ma'lumki, so'nggi zikr etilgan urush Yaponiyaning mag'lubiyati bilan tugadi.

Milliy fanatizmning shakllanishida busido izdoshlari ongiga o'limdan qo'rqmaslik g'oyasini singdirgan dzen-buddizmning ham, busido kodeksida «burchga sodiqlik»ni mustahkamlagan konfutsiychilikning ham roli kuzatiladi. Ikkinchi Jahon urushi oxirida bu kamikadze fenomenida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Harakatlari urushda Yaponiya foydasiga burilish yasashi lozim bo'lgan yosh askarlarga yapon qo'mondonligi shunday nom beradi. Avvaliga bular AQSh aviabardorlarini ovlovchi uchuvchilar edi. Keyinchalik «kema-odam», «mina-odam», «tank-odam» va hokazolar ham «kamikadze» degan nom bilan atala boshlaydi. Urush oxiriga kelib yapon qurolli kuchlarida kamikadzelarning yuzlab otryadlari faoliyat ko'rsatar, ulardan ayrimlarining saflarida mingdan ortiq askar bor edi. Kamikadzelar harakatining asoschisi va g'oyaviy rahnamosi admiral Onisi edi. 1944-yilning kuzida u Filippinda «kamikadze» eskadrilyasini tashkil qiladi. Bunday bo'linmalarning paydo bo'lishi zamirida Yaponiya uchun, imperator uchun jon fido qilish g'oyasini o'z ichiga olgan busido ma'naviy-axloqiy tizimi yotadi. Yaponiya matematik statistika instituti «milliy xarakter» muammosiga bag'ishlab o'tkazgan tadqiqotlar busido ruhi yaponlar ongida yashashda davom etayotganidan dalolat beradi<sup>465</sup>.

**Diniy-madaniy an'analarning ahamiyati** yangi Yaponiya uchun optimal bo'lgan ijtimoiy-psixologik strukturani yaratish jarayonida ham namoyon bo'ladi. Yapon iqtisodchisi Mitio Morisima «Nima uchun kapitalizm aynan Yaponiyada ayniqsa rivojlangan?» degan savolga javob berar ekan ushbu jarayonda konfutsiychilikning roliga ishora qiladi. Uning fikricha, yapon kapitalizmi – bu konfutsiycha kapitalizm, uning vujudga kelishi va rivojlanishi yaponcha andozadagi konfutsiychilikning millatchilik va militaristik ko'rinishi bilan bog'liq. Aynan konfutsiychilikning milliy shakli nisbatan qisqa vaqt – taxminan 20 yil ichida millatni birlashtirish imkonini berdi<sup>466</sup>. Konfutsiycha axloq doirasida yuksak darajada qadrlanadigan jismoniy va aqliy mehnat madaniyati, bilimlar va qobiliyatlar kulti Yaponiya iqtisodiy rivojlanish borasida

erishgan yutuqlarda, shuningdek, «kichik ajdarlar» to'rtligi – Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong va Singapur yutuqlarida ulkan rol o'ynadi.

**Islom dini asosiy g'oyalarning rivoji. «Olloh buyuk».** Islom universal jahon dinlaridan biri hisoblanadi. U VII asrda xristianlik va iudaizm kabi monoteistik dinlarning an'analari negizida vujudga kelgan, ularning asosiy qoidalari va aqidalaridan aksariyatini o'zlashtirgan. Islom bu dinlar mohiyati o'z aqidalari bilan ayniy ekanligini tan oladi, biroq xristianlar va yahudiylar ayni bir Xudo yuborgan vahiyning ma'nosini noto'g'ri tushunganlar, deb hisoblaydi, faqat Muhammad payg'ambar o'z o'tmishdoshlarining xatolarini tuzatib, haqiqiy vahiy bilan kelgan deb biladi<sup>467</sup>.

Islom dini asosiy g'oyalarning rivojlanish jarayoni butunlay boshqa yo'nalishlarda yuz beradi va bu uni qurshagan muhit sharoitlari bilan bog'liq. Arabiston yarimorolidagi ko'chmanchilar va savdogarlar davrasida tug'ilgan oddiy g'oyalar Yaqin Sharqda rivojlanayotgan feodalizm sharoitida yangi va yangi qatlamlar bilan boyib boradi<sup>468</sup>. Shu sababli islom o'sha davrning xalifalik hokimiyati ostidagi jamiyatlari hayotini tashkil etuvchi prinsiplarga aylanadi. Axloqiy absolyutizm prinsipi bilan bir qatorda islom ma'naviy dogmatizm prinsipini ham ilgari suradi va din tarafdorlaridan Qur'oni Karimning axloqiy me'yorlarini so'zsiz bajarishni talab qiladi.

Islom faqat dingina emas, u yaxlit sivilizatsiya va madaniyat, davlat va huquq, o'zining betakrorligi bilan ajralib turuvchi islom tarixi, falsafasi va san'ati hamdir. Masalan, musulmon Sharqining falsafiy an'anasiga O'rta Yer dengizi bo'yidagi sivilizatsiya mansub bo'lgan ellinizm va islom kiradi<sup>469</sup>. Ayni paytda bu falsafiy an'ana o'rta asrlar arab-musulmon madaniyatining xususiyati bilan belgilanuvchi alohida jihatlariga ham ega. Ayni holda arab-musulmon sivilizatsiyasi Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida «oralik» bo'g'in sifatida qaraladi. Arab xalifaligi Yaqin Sharqning Shumer, Akkada, Qadimgi Misr shahar madaniyatining ming yillik tajribasini o'zida mujassamlashtirgan yirik madaniy markazlarini o'z ichiga oladi. Islom o'zi paydo bo'lgan paytdan e'tiboran o'zini qabul qilgan xalqlar tarixida yangi bosqich boshlaydi. U o'z ta'siri doirasiga kirgan xalqlar madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Arablar orasida u alohida obro'-e'tibor kasb etadi, bu yerda u monoteistik din sifatida shakllanadi va arab qabilalarining barchasini yagona arab

<sup>464</sup> Гришолова Л.Д. Формирование японской национальной культуры. – Москва: 1986. – 214-с.

<sup>465</sup> Проппов В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 140-145-с.

<sup>466</sup> Морисимо Митио. Капитализм по Конфуцию // Курьер ЮНЕСКО. 1988 г. январь. – 34-37-с.

<sup>467</sup> Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 401-405-с.

<sup>468</sup> Sourdrel J., Sourdrel D. Cywilizacja islamu. – Warszawa: 1980. – 15-16-p.

<sup>469</sup> Игнатьенко А.А. В поисках счастья. – Москва: 1989.



xalqiga birlashtiradi. Islom bayrog'i ostida arablar buyuk davlatlar – Vizantiya va Eron vorislariga aylanadilar.

Keyingi davrlarda islomni boshqa xalqlar – forslar, turklar, mo'g'ullar, hindlar va malaylar ham qabul qiladilar va u jahon diniga aylanadi. Musulmonlarning ko'p sonli xalqlardan iborat bo'lgan yagona birligi – umma vujudga keladi. Umma a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan birdamlikni islom o'z muxlislariga kuchli ta'sir ko'rsatgani, avvalgi xalq, madaniy va diniy an'alaridan qat'i nazar, ularda o'ziga xos musulmoncha zehniyatni shakllantirgani bilan izohlash mumkin.

Islom o'z tarixining dastlabki bosqichidayoq shaxsning o'ziga xos modelini ishlab chiqqan va o'z rivojlanishi jarayonida uni boshqa ko'pgina mamlakatlar va xalqlar o'rtasida yoygan. Shu tariqa u musulmonlar jamoasining kengayishi va mustahkamlanishiga imkoniyat yaratgan<sup>470</sup>

Islomda shaxsni kamol toptirish andozasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Qur'oni Karimning ta'sirchan xususiyati va afsonaviy strukturasi bilan;
- diniy rasm-rusumlar va Qur'oni Karimda bayon etilgan nasihatlarining ruhlantiruvchi va ta'sirlantiruvchi kuchi bilan;
- haqiqiy din qo'riqchisi bo'lgan, o'z qonunlarini Qur'oni Karim qoidalari asosida shakllantirgan markazlashgan davlatning faoliyati bilan;
- islom dinining shakllanish bosqichida (610–632-yillar) vujudga kelgan, individual va kollektiv xulq-atvorning o'zaro aloqasini belgilaydigan siyosiy va diniy tasavvurlar majmui bilan<sup>471</sup>.

Siyosiy va diniy tasavvurlarning tinimsiz rivojlantirilgan bu majmui arab-musulmon dunyosi tarixida ulkan rol o'ynadi. Islom dunyosining tarixdagi keng ko'lamli harakatlarining barchasi an'anaviy islom ta'limotining barcha tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan shaxs tipining mavjudligini nazarda tutadi. Musulmonlar zehniyatining o'ziga xos jihati sifatida uning Xudo bilan o'zaro aloqasi, qonunga so'zsiz itoat etish va politeizmning har qanday shaklini qat'iyan rad etish namoyon bo'ladi<sup>472</sup>. Bularning barchasi arab-musulmon dunyosi tarixida diniy fanatizmning amal qilishi va xususiyatiga oydinlik kiritadi.

**Xulosa.** Umuman olganda, Marokashdan boshlanadigan va Malay arxipelagi orollarida poyoniga yetadigan islom dunyosi G'arb dunyosidan sezilarli darajada farq qiladi. Fransuz tarixchilari F. Brodel, F. Koarelli va

<sup>470</sup> Гронебеум фон Г.Э. Основные черты арабо-мусульманской культуры. – Москва: 1981. – 34-6.

<sup>471</sup> Arkoun M. The topicality of problem of the person in Islamic thought International Social Science Journal. 1988. № 117. – 140-6.


<sup>472</sup> Osha joyda. – 413-6.

M. Eymar fikriga ko'ra, islom G'arbning ziddidir<sup>473</sup>. Shunga qaramay ular bir-birisiz yashay olmaydi. Biri bajargan amalni boshqasi ham bajo keltirishga shoshadi. G'arb salb yurishlarini kashf qilgan va amalga oshirgan bo'lsa, islom muqaddas urush – jihodni o'ylab topgan va hayotga tatbiq etgan. O'z maqsadlariga xristianlik Rimda erishsa, islom Makkada va payg'ambarning sag'anasi oldida erishadi.

### Tajribaviy amaliy matnlar


Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli, sintoizm, buddizm, dzen oqimi, konfutsiychilik, Tokugava rejimi, busido izdoshlari, islom dini asosiy g'oyalarning rivoji. «Olloh buyuk» goyasi

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar






<sup>473</sup> Qarang: Braudel F., Coarelli P., Aymard M. Morze Srodziemne. – Gdansk, 1982. – 98-p.





Urushda Yaponiya foydasiga burilish yasashi lozim bo'lgan yosh askarlarga yapon qo'mondonligi quyidagi nomlarni beradi.



**Islomda shaxsni kamol toptirish andozasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:**


Qur'oni karimning ta'sirchan xususiyati va afsonaviy strukturasi bilan

diniy rasm-rusumlar va qur'oni karimda bayon etilgan nasihatlarining ruhlantiruvchi va ta'sirlantiruvchi kuchi bilan

islom dinining shakllanish bosqichida vujudga kelgan, individual va kollektiv xulq-atvorning o'zaro aloqasini belgilaydigan siyosiy va diniy tasavvurlar majmui bilan

haqiqiy din qo'riqchisi bo'lgan, o'z qonunlarini qur'oni karim qoidalarini asosida shakllantirgan markazlashgan davlatning faoliyati bilan.





#### Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sintoizm nima?
2. Samuraylarning qaysi kodeksi yaponlarning kundalik axloqiga kuchli ta'sir ko'rsatgan?
3. Dzen oqimi nomoyondalari?
4. Konfutsiychilik dinining asosini nima tashkil etgan?
5. Milliy fanatizmning shakllanishida busido izdoshlari ongiga o'limdan qo'rqmaslik g'oyasini singdirgan diniy oqim?
6. «Ollah buyuk» tushunchasi?

#### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. .... harakatida ishtirok etgan kuchlarning barchasi – rim-katolik cherkovining diktatorlik siyosatidan norozi bo'lgan byurgerlik, dvoryanlarning bir qismi, dehqonlar, ziyolilar din bayrog'i ostida muayyan siyosiy talablar bilan chiqqanlar.  
A. Reformatsiya

- B. Qadimiyatga qaytish
- C. Sintoizm
- D. Fanatizm

2. Qaysi dinin harbiy libosdagi konfutsiychilik sifatida otliq qo'shin ko'rinishida tavsiflash mumkin?

- A. Islomni
- B. Buddizm
- C. Konfutsiylik
- D. Xristiyan

3. Qaysi dinining sharqona tafakkur tizimlari daryo yanglig' kelib quyiladigan idealizmning ulkan ummoni sifatida tavsiflash mumkin?

- A. Buddizm
- B. Islom
- C. Konfutsiylik
- D. Xristiyan

4. Samuraylarning qaysi kodeksi yaponlarning kundalik axloqiga kuchli ta'sir ko'rsatgan?

- A. Busido
- B. Kodziki-den
- C. Kodziki
- D. Nixongi

5. Sinto –bu?

- A. Xudolar yo'li
- B. Askar yo'li
- C. Ruhoniylar yo'li
- D. A va S javoblar

6. Sintoning ildizlari oliy moziyga borib taqalishi va ibtidoiy xalqlarga xos bo'lgan e'tiqodlarning qaysi shakllarini o'z ichiga oladi?

- A. Barcha javoblar to'g'ri
- B. Totemizm, o'liklar
- C. Animizm, magiya
- D. Oqsoqollar ruhiga sig'inish



7. Sinto ta'limotiga ko'ra mikado-bu?  
 A. Osmon ruhlari avlodi  
 B. Ikkinchi daraja ruhlar – kami avlodi hisoblanadi  
 C. Oqsoqollar  
 D. Barcha javoblar to'g'ri
8. Sinto ta'limotiga ko'ra har bir yapon esa – bu?  
 A. Ikkinchi daraja ruhlar – kami avlodi hisoblanadi  
 B. Osmon ruhlari avlodi  
 C. A va V  
 D. Imperator
9. Sintoizmning muqaddas kitobi to'g'ri ko'rsatilgan javobning toping?  
 A. Kodziki  
 B. Busido  
 C. Nixongi  
 D. Barcha javoblar to'g'ri
10. Sharqshunos olim N. Konrad fikricha qaysi kitobdan yaponcha milliy ruh ufurib turishini, yaponiyani va yaponlarni anglab yetish uchun yo'l ochishini qayd etadi?  
 A. Kodziki  
 B. Busido  
 C. Nixongi  
 D. Barcha javoblar to'g'ri
11. Sintoizm talimotida Ikkinchi konsepsiyasi nimani tavsiflaydi?  
 A. Hayot kuchini- jinsiy hayotga xudolar asos solganlar  
 B. Dunyo o'z-o'zicha paydo bo'lgan, u o'zini o'zi tartibga soladi  
 C. Tabiat va tarixning yagonaligi, jonli va jonsiz dunyoning uzviyligi haqida boradi  
 D. Ko'p xudolilikka urg'u beradi, zero, sintoning o'zi tabiatga, jamoa va qabila xudolariga sig'inishdan kelib chiqqan
12. Ko'p xudolilikka urg'u beradi, zero, sintoning o'zi tabiatga, jamoa va qabila xudolariga sig'inishdan kelib chiqqan. Ushbu gap qaysi konsepsiyaga taalluqli?  
 A. 4  
 B. 3

- C. 6  
 D. 2
13. Nechanchi asrda boshida imperator saroyida sinto ishlari bo'yicha maxsus departament tashkil etigan?  
 A. VIII  
 B. IX  
 C. X  
 D. XII
14. Nechanchi asrda sinto xudolari ro'yxati tuziladi?  
 A. X  
 B. VI  
 C. VII  
 D. VIII
15. Sinto xudolari ro'yxatiga ko'ra sinto panteoni nechta xudoni o'z ichiga olgan?  
 A. 3132  
 B. 1000  
 C. 2500  
 D. 2345
16. Nechanchi konsepsiyada sinto xudolari, kami umuman odamlarni emas, balki faqat yaponlarni yaratganini qayd etaladi?  
 A. 5  
 B. 1  
 C. 6  
 D. 4
17. Syogunat davrida (XII–XIX asrlar) buddizmning sintoizmga ta'siri?  
 A. Rivojlanish jarayonini tartibga soladi  
 B. Inkilobga yuz tutdi  
 C. Xalqda norozilik xarakterlarini keltirib chiqardi  
 D. Barcha javoblar to'g'ri
18. Nechanchi asrda Yaponiyadagi Uyg'onish davri ko'maklashadi va bu davrda ruhoniylar Xitoydan buddizm va konfutsiychilik falsafasiga oid kitoblarni keltiradilar?



- A. XVII
- B. XII
- C. XV
- D. XVI

19. Yaponiyaning qaysi podshosi hayotining so'nggi yillarida qadimgi qo'lyozmalarni to'plashni odat qiladi va ularni o'rganishni rag'batlantiradi. Shu tufayli ham «Kodziki» va «Nixongi» qayta nashr etiladi?

- A. Iezyasu Tokugava
- B. Motoori Norinagi
- C. Kamo Mabutsi
- D. Xeyan

20. XVIII asrda «qadimiyatga qaytish» (fukko) harakatning birinchi yirik rahbari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A. Kamo Mabutsi
- B. Xirata Atsutane
- C. Motoori Norinagi
- D. Toyotomi Xideyosi

21. XX asrda xudolar qanday ahamiyat kasb etadi?

- A. Ikkinchi daraja
- B. Oliy daraja
- C. Xalqda xudolarga sig'inish kuchaydi
- D. Uchinchi daraja

22. Buddizm Yaponiyaga nechanchi asrda ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsata boshlagan?

- A. V-VI asrlar
- B. V-VII asrlar
- C. V-X asrlar
- D. VI-X asrlar

23. Qadimgi yapon davlatchiligi va madaniyatining oltin asri sanalgan Xeyan davri (VIII-XII asrlar)ning vujudga kelishida qaysi din muhim rol o'ynagan.

- A. Buddizm
- B. Totemizm

- C. Animizm
- D. Islom

24. Xeyan davridayoq vujudga kelgan din?

- A. V va S javoblar
- B. Ryobusinto
- C. Sinkretik
- D. Germenevtik

25. 1185-yildan keyin davlatda hokimiyat tizmini qaysi ta'limot vakillarining qo'lga o'tadi va amalda hokimiyat syogun qo'lida bo'lib, uning qarorgohi Kamakurada joylashgan edi?

- A. Samuray
- B. Konfutsiylik
- C. Sintoizm
- D. Fanatizm

#### Adabiyotlar

1. Пронников В. А., Ладанов И. Д. Японцы. – Москва: 1983. – 60–63-с.
2. Кирквуд К. Ренессанс в Японии. – Москва: 1988. – 43-с.
3. Игнатенко А. А. В поисках счастья. – Москва: 1989.
4. Грюнебаум фон Г. Э. Основные черты арабо-мусульманской культуры. – Москва: 1981. – 34-б.
5. Kotariski W. Religie Japonii Religie Azji, Afryki, Ameriki, Australii i Oceanii. – Warszawa, 1980. – 185-p.
6. Гришелева Л. Д. Формирование японской национальной культуры. – Москва: 1986. – 208-с.
7. Искендеров А. А. Тоётоми Хидзёси. – Москва: 1984. – 15-б.
8. Пронников В. А., Ладанов И. Д. Японцы. – Москва: 1983. – 140–145-с.
9. Морисимо Митио. Капитализм по Конфуцию // Курьер ЮНЕСКО. 1988 г. январь. – 34–37-с.
10. Васильев Л. С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 401–405-с.
11. Sourdel J., Sourdel D. Cywilizacja islamu. – Warszawa: 1980. – 15–16-p.



## FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY)

- Agnostitsizm** – inson obyektiv borliqni to‘liq bilishi mumkin emas deb hisoblaydigan falsafiy ta‘limot.
- Antissientizm** – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.
- Antropogen** – inson faoliyati bilan bog‘liq.
- Antroposentrizm** – dunyoni bilishda insonni ustun qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.
- Aprior** – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko‘rilgunga qadar, tajribadan qat‘i nazar paydo bo‘lgan obraz, g‘oya, tushuncha.
- Ateizm** – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.
- Atribut** – xossa.
- Bashorat** – kelajak haqidagi, ya‘ni hali amalda mavjud bo‘lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar ko‘rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo‘lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.
- Belgi** – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.
- Garmoniya** – bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.
- Germenevtika** – falsafada-tarix, madaniyatni, o‘zga individuallikni tushunish san‘ati.
- Gipotetik** – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.
- Globalashuv** – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.
- Globalistika** – globalashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlarning fanlararo sohasi.
- Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.
- Deduksiya** – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.
- Dezintegratsiya** – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.
- Deizm** – Xudo dunyoni yaratgach unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.
- Determinizm** – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta‘limot.

- Dialektika** – harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta‘limot.
- Diskret** – uzlukli.
- Differentsiatsiya** – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.
- Ideal** – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.
- Ierarxiya** – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.
- Ijtimoiy prognoz qilish** – kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi.
- Izotrop** – barcha yo‘nalishlarda bir xil.
- Indeterminizm** – determinizmga qarama-qarshi ta‘limot.
- Integratsiya** – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.
- Introvertiv** – o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljal oluvchi.
- Imitatsiya** – taqlid qilish, soxtalashtirish.
- Axborot inqilobi** – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo‘lib, bunda axborot o‘ta muhim resursga aylanadi.
- Irratsionalizm** – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.
- Kauzallik** – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.
- Kommunikatsiya** (keng ma‘noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida «Men» o‘zini boshqa odamda topadi.
- Konstitutsiyalash** – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.
- Konsyumerizm** – iste‘mol qilishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj.
- Koevolyutsiya** – birgalikda tadrijiy rivojlanish.
- Kreatsionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta‘limot.
- Materializm** – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat‘i nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.
- Mahalliy muammolar** tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo‘lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.
- Metafizika** – Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.
- Metodologiya** – metod haqidagi ta‘limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.
- Milliy muammolar** tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba‘zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma‘lum qiyinchiliklari,



g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

**Mintaqaviy muammolar** ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi

**Mistika** – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

**Moddiylashtirish** – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

**Modus** – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

**Monizm** – plyuralizmga zid o'laroq muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

**Nano yunoncha "nanos"** – so'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi.

**Nanotexnologiya** – mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.

**Negativ** – salbiy, biror narsaga zid.

**Noumen** – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

**Noosfera** – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

**Obraz** – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

**Okkultizm** – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

**Oppozitsiya** – qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

**Panteizm** – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

**Paradigma** – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

**Passionar** – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

**Permanent** – doimiy, uzluksiz.

**Persepsiya** – idrok etish.

**Prognoz qilish** – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni.

**Ratsionalizm** – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

**Reduksionizm** – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

**Relyativizm** – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

**Refleksiya** – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

**Sakral** – muqaddas.

**Sensualizm** – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

**Simvol** – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

**Sinkretizm** – qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

**Skeptitsizm** – inson bilimining ishonchligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

**Stereotip** – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

**Substansiya** – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

**Ssientizm** – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

**Tabu** – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

**Teologiya** – diniy ta'limotlar tizimi.

**Teotsentrizm** – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnogen** – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

**Texnokratik** – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

**Texnooptimizm** – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnopessimizm** – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

**Texnotron jamiyat** – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

**Transsendental** – o'ta umumiy.

**Universum** – yagona Olam, yaxlit dunyo.

**Xususiy muammolar** – davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir.

**Fauna** – barcha turdagi hayvonlar majmui.



**Faoliyat atributlari (xossalari)** faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

**Fenomen** – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

**Fenomenologiya** – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

**Flora** – o'simliklar dunyosi.

**Flukuatsiya** – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

**Futurologiya** – kelajak haqidagi fan.

**Fundamental globallashuv** – dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlar XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

**Evolutsion epistemologiya** – bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

**Evristik** – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

**Egalitarizm** – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

**Ekzistensializm** – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

**Ekologiya** – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

**Ekologik muammo** – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

**Ekologik tanglik** – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

**Eksplikatsiya** – u yoki bu predmet (yoki madaniyat obyekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

**Ekspertiza usulida baholash** – bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi yetakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat.

**Ekopessimizm** – asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan hol.

**Ekstravertiv** – sirtga qaratilgan.

**Ekstrapolyasiya metodlari** – qonuniyatlari o'tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.

**Empirizm** – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

**Empirik** – tajribada ko'rilgan.

**Etimologiya** – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

**Epistemologiya** – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

**Etnogenez** – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

**O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish** – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

**Qidiruv prognozi** – ijtimoiy obyektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz.



## Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar

### Rahbariy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент Ўзбекистон 2018
2. Мирзиёев Ш.М. Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш - давр талаби. 2017 й. 15 июнь //16 Ўзбекистан Миллий ахборот агентлиги (ЎЗА)нинг веб-сайти. www.uza.uz.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳдид, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистан», 2017. - 104 б.
4. «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Ўзбекистан Респу́бликаси қонунининг амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 февралдаги ПҚ,- 2752-сонли Қарори
5. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харақатлар стратегияси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда). www.lex.uz.

### Asosiy adabiyotlar

1. Shermuxamedov S. Inson falsafasi. -T.: Fan, 2009
2. Choriyev A. Inson falsafasi. -T.: O'FMJ, 2006.
3. Kurbanova L. Inson borlig'i. Andijon, AnDU, 2009.
4. Falsafa Mamashokirov S. tahriri ostida -T.: SHarq, 2005
5. Falsafa asoslari. Axmedova M. tahriri ostida. -T.: O'FMJ, 2005
6. Falsafa qomusiy lug'at. Nazarov Q. tahriri ostida. -T.: SHarq, 2005
7. Tixonova S.V. СHеловек в пространственных структурах глобального общества : diss ... kand. filosofskix nauk: 09.00.11. Saratov, 2003.
8. Slyusaj B. Sovremennyy chelovek i protsess translyasii kultury v tranzitivnom obshchestve : diss. Dokt. Filosof. nauk. -M.: 2004.
9. Marchenko E.A. Sudba cheloveka: filosofsko-antropologicheskii podxod : diss. kand. filosof. nauk : 09.00.13. Stavropol, 2004.
10. Alekseev P.V., Panin A.V. Filosofiya: Uchebnik dlya vuzov. 3-e izd. - M.: 2006.

11. Beyli Alisa. Ot intellekta k intuitsii. -M.: 2002.
12. Beskova I.A. Evolyusiya i soznanie: novyy vzglyad. -M.: 2002.
13. Gaydenko P.P. Protyv k transsendentnomu. Novaya ontologiya XX veka. -M.: 1997.

### Qo'shimcha adabiyotlar

14. Шелер М. Место человека в космосе. -Москва: 2001.
15. Курбонова Л. Инсон борлиги. -Андижон: АндУ, 2009.
16. Шермухамедова Н.А. инсон фалсафаси. -Тошкент: Ношир, 2016.
17. Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. - Москва: 1988. - 35-с.
18. Моисеев Н.Н. Современный антропогенез и цивилизационные разломы // Вопросы философии. 1995. № 1. - 4-с.
19. Хацкевич Д.Х. Природа как эстетическая ценность. - Москва: 1987. - 31-с.
20. Николаева Н. Японские сады. - Москва: 1975. - 97-98-б.; Штейнер Е.С. Иккю Содзюн. - Москва: 1987. - 73-76-с.
21. Рябушин А., Дворжак К. Прогностика в архитектуре и градостроительстве. - Москва: 1983. - 50-51-б.
22. Bohm D. Quantum theory as an indication of new order in physics // Foundations Phys. 1971. - 139-168-б.; 7. Pribram K. Problem concerning the structure of Consciousness // Consciousness and the Brain. - N.Y., 1976. - 83-120-р.
23. Qarang: Казначеев В.П., Михайлова Л.П. Биоинформационная функция естественных электромагнитных полей. - Новосибирск, 1985. - 186-с.
24. Валентинов А. Жизнь после смерти в компьютере? // Российская газета. 1995. 10 июня.
25. Поликарпов В.С. Время и культура. - Харьков, 1987.
26. Плеханов Г.В. Искусство. - Москва: 1922. - 46-с.
27. Эфроимсон В.П. Генетика этики и эстетики. - СП(б), 1995. - 107-108-с.
28. Политические учения: история и современность. - Москва: 1976. - 173-с.
29. Личность в традиционном Китае. - Москва: 1992. - 19-с.
30. Paris D. Artificial reality // Golem. 1992. V.2. N1.
31. Носов Н.А. Реальные нереальности // Человек. 1993. № 1. - 40-41-с.
32. Малявин В.В. Чжуан-цзы. - Москва: 1985. - 88-с.
33. Гарэн Э. Проблемы итальянского Возрождения. - Москва: 1986. - 341-с.
34. Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. - Москва: 1983. - 179-с.



35. Философия власти. – Москва: 1993. – 125-с.
36. Арон Р. Демократия и тоталитаризм. – Москва: 1993. – 23-с.
37. Naisbitt J. Megatrends: Ten new directions transforming our lives. – N.Y., 1982. – 192-p.
38. Russel P. The Global Brain: Speculation on the Evolutionary Leap to Planetary Consciousness. – Los Angeles, 1983. – 158-p.
39. Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск, 1986. – 6-с.
40. Поликарпов В.С., Поликарпова В.А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 132-с.
41. Роджерс К.Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – Москва: 1994. – 460-с.
42. Кастанела К. Путешествие в Икстлан. – Киев, 1992.
43. Олдак П.Г. Колокол тревоги: Пределы бесконтрольности и судьбы цивилизации. – Москва: 1990.
44. Джан Р.Г. Нестареющий парадокс психофизических явлений: инженерный подход // Тр. ин. инженеров по электротехнике и радиоэлектронике. 1982. Т. 70. № 3. – 98-с.
45. Гримак Л.П. Магия биополя. – Москва: 1994. – 383–384-с.
46. Винокуров И., Гуртовой Г. Психотронная война. – Москва: 1993. – 342-с.
47. Налимов В.В., Дрогалина Ж.А. Как возможно построение модели бессознательного // Бессознательное. – Тбилиси, 1984. Т. 4. – 86-с.
48. Гроф С. Путешествие в поисках себя. – Москва: 1994.
49. Швырков В.Б. Нейрофизиологическое изучение структуры психики // Мозг и психическая деятельность. – Москва: 1985. – 5-с.
50. Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingtonborough, 1986.
51. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – Москва: 1989;
52. Фрэзер Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984; Элиаде М. Космос и история. – Москва: 1987.
53. История древнего мира. Ранняя древность. – Москва: 1989. – 17-б.;
54. Cerny J. Religia starozytnych egipcjan. – Warszawa, 1974. – 114-p.
55. Заболоцка Ю. История Ближнего Востока в древности (от первых поселений до персидского завоевания). – Москва: 1989. – 134–135-с.
56. Поликарпов В.С., Поликарпова В.А. Феномен человека – вчера и завтра. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 168-с.
57. Блум Ф., Лейзерсон А., Хофстедтер Л. Мозг, разум, поведение. – Москва: 1988.
58. Нейродарвинизм // В мире науки. 1988. № 3. – 93–94-с.
59. Прошин Г. Черное воинство. – Москва: 1988.
60. Герье В. Западное монашество и папство. – Москва: 1913. – 41-б.

61. Никольский Н.М. История русской церкви. – Москва: 1988; Прошин Г. Черное воинство. – Москва: 1988; Русское православие: веки истории. – Москва: 1989.
62. Skrzypek M. Tolerancja religijna // Czlowiek i swiatopoglad. 1987. № 4. – 132-p.
63. Debray R. Le scribe: Genese du politique. – P., 1980. – 96-p.
64. Рашкова Р.Т. Ватикан и современная культура. – Москва: 1989. – 216
65. Flagellans / Encyclopedic ou Dictionaire raisonne des sciences, des arts et des metiers. – P., 1756. Vol. 6. – 833-p.
66. Skrzypek M. Pogancki «entuzjazm» a chrzescijanska heterodok-sja Czkniwiek i swiatopoglad. 1986. № 7-8. – 123-p.
67. Михайловский В. Предвестники и предшественники Реформации в XVI и XV веке // Гейссер Л. История Реформации. – Москва: 1882.
68. Митрохин Л.Н. Стефан Цвейг: Кастеллио против Кальвина. – Москва: 1986. – 17-с.
69. Маутнер Ф. История черта на Западе // Атеист. 1926. № 8. – 19-с.
70. Горфункель А.Х. Гуманизм и натурфилософия Итальянского Возрождения. – Москва: 1977. – 110-с.
71. Эразм Роттердамский. Философские произведения. – Москва: 1986. –
72. Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 60–63-с.
73. Кирквуд К. Ренессанс в Японии. – Москва: 1988. – 43-с.
74. Игнатенко А.А. В поисках счастья. – Москва: 1989.
75. Грюнебаум фон Г.Э. Основные черты арабо-мусульманской культуры. – Москва: 1981. – 34-б.
76. Kotariski W. Religie Japonii, Azji, Afryki, Ameriki, Australii i Oceanii. – Warszawa, 1980. – 185-p.
77. Гришелева Л.Д. Формирование японской национальной культуры. – Москва: 1986. – 208-с.
78. Искендеров А.А. Тоётоми Хидэёси. – Москва: 1984. – 15-б.
79. Пронников В.А., Ладанов И.Д. Японцы. – Москва: 1983. – 140–145-с.
80. Морисимо Митио. Капитализм по Конфуцию // Курьер ЮНЕСКО. 1988 г. январь. – 34–37-с.
81. Васильев Л.С. История религий Востока. – Москва: 1988. – 401–405-с.
82. Sourdel J., Sourdel D. Cywilizacja islamu. – Warszawa: 1980. – 15–16-p.



## Internet resurslari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)
3. <http://www.intencia.ru>
4. <http://www.anthropology.ru>
5. <http://www.ido.rudn.ru>
6. <http://www.filosofia.ru>
7. <http://www.falsafa.dc.uz>
8. <http://www.phenomen.ru>
9. <http://www.lib.rusFILOSOF>
10. <http://www.filam.rug'sait.phg>

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
BIRINCHI BOB. XXI ASRDA INSON FENOMENI.....	3
1-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING ONTOLOGIK OMILLARI.....	10
2-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING KOSMIK DARAJASI.....	58
3-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING BIOLOGIK DARAJASI.....	91
4-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING IJTIMOIIY MAQOMI.....	125
5-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING MADANIY OMILI.....	155
6-mavzu: INSON MAVJUDLIGINING PSIXOLOGIK OMILI .....	190
IKKINCHI BOB. DINIY FANATIZM FENOMENI.....	216
7-mavzu: DINIY FANATIZMNING KELIB CHIQISHI, MAZMUNI VA SHAKLLARI.....	216
8-mavzu: DINIY FANATIZM VA DINDORLIKNING MOHIYATI.....	278
9-mavzu: DINIY-MADANIY AN'ANALARNING AHAMIYATI.....	319
FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY).....	340
Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar.....	346



MUNDARIJA

3	KIRISH
10	1-MAVZU: INSON MAVJUDLIGINING ONTOLOGIK
28	2-MAVZU: INSON MAVJUDLIGINING KOSMIK DARAJASI
91	3-MAVZU: INSON MAVJUDLIGINING MADANIY
125	4-MAVZU: INSON MAVJUDLIGINING IJTIMOIY-MAGDOL
185	5-MAVZU: INSON MAVJUDLIGINING MAZMUNI VA SHAKLI

# INSON FALSAFASI

**DARSLIK**

*Falsafa(sohalar boyicha magistratura mutaxassisligi uchun*

*Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2021*

*Muharrir Xolsaidov F.B.*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 15.10.2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturası.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 25. Nashr bosma tabog'i 25.  
Adadi 100 nusxa.*

ISBN 978-9943-6792-8-3



9 789943 679283